

P.R.Ismatullayev,  
P.M.Matyakubova,  
Sh.A.Turayev

# METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH




УЗБ  
006.91(045)  
1181

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

P.R.Ismatullayev, P.M.Matyakubova, Sh.A.Turayev

**METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH  
VA SERTIFIKATLASHTIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lif vazirligining  
Muvoqiqlashtiruvchi kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*



Toshkent  
LESSON PRESS  
2015

**Taqrizchilar:** N.Sh.Mo'minov - SMSITI direktori muovini t.f.d., professor.  
R K Azimov - ToshDTU MSS kafedrasi professori t.f.d.

**Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M., Turayev Sh.A. (prof. Ismatullayev P.R. tah: irida)**  
Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish./ P R.Ismatullayev va b - Toshkent:  
LESSON PRESS, 2015. 424 b.

**Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish** fani bo'yicha darslik muhandislik ishi, ishlab chiqarish texnologiyalari, xizmat ko'rsatish sohasi, transport va hayot faoliyati xavfsizligi ta'lif sohalaridagi barcha texnik ta'lif yo'nalishlari o'quv rejasiga kiritilgan muhim umumkasbiy fanlaridan bo'lib, barcha umumkasbiy fanlar bilan mantiqiy bog'langan. Darslik metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish faoliyatları to'g'risidagi bo'lim va boblardan iborat bo'lib, unda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish, sifat va sifatri boshqarish bo'yicha asosiy tushuncha, qoida va ma'lumotiar berilgan.

Darslik texnika olyi ta'lif muassasalarining muhandislik ishi va ishlab chiqarish texnologiyasi ta'lif sohalarning bakalavriatura ta'lif yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Darslikdan, shuningdek, olyi va o'rta maxsus hamda kasb-hunar ta'lif muassasalari o'qituvchilari, metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohalarida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha ta'lif olayetgan mutaxassislar, katta ilmiy xodinilar, ishlab chiqarish korxonalaridagi ilmiy va muhandis-texnik xodimlar harn foydalanishlari mumkin.

# MUNDARIJA

<b>SO'ZBOSHI .....</b>	7
<b>I BOB. METROLOGIYANING RIVOJLANISHI, QONUNIY VA HUQUQIY ASOSLARI .....</b>	12
1.1. Metrologiyaning rivojianishining qisqacha tarixi .....	12
1.2. O'zbekiston Respublikasida metrologik faoliyatning huquqiy asoslari .....	17
1.3. Metrologiyaning qonuniy asoslari .....	20
1.4. Metrologiya bo'yicha me'yoriy talablar buzilganligi ustidan yuridik javobgarliklar .....	22
<b>II BOB. O'LCHASH OBYEKTTLARI, USULLARI VA TURLARI .....</b>	24
2.1. O'chanadigan kattaliklar .....	24
2.2. Metrologiyaning aksioma va postulatlari .....	32
2.3. Fizik kattaliklar birliklarining xalqaro tizimi (SI) .....	36
2.4. O'lhash turlari va usullari .....	52
2.5. O'lhashlarni bajarish uslubiyatlari .....	58
<b>III BOB. XATOLIKLAR VA O'LCHASHLARNING XATOLIKLARI ..</b>	62
3.1. Xatoliklar va ularning sinflanishi .....	62
3.2. Muntazam va tasodifiy xatoliklar .....	65
3.3. O'lhashlar xatoliklarini yuzaga keltiruvchi sabablar .....	68
3.4. Muntazam xatoliklarni bartaraf etish .....	69
3.4.1. Muntazam xatoliklarni bartaraf etishning asosiy usullari .....	69
3.4.2. Xatolikni o'lhashni boshlashdan oldin bartaraf etish .....	70
3.4.3. Xatolikni o'lhash jarayonida bartaraf etish .....	70
3.4.4. Muntazam xatolikni tuzatma kiritish bilan bartaraf etish .....	75
3.4.5. Bartaraf etilmagan muntazam xatoliklar chegarasini baholash .....	76
3.5. Tasodifiy xatolik va uning tavsiflari .....	77
3.5.1. O'lhash xatoliklarining o'rtacha kvadratik og'ishi .....	78
3.5.2. O'lhash xatoliklarining ishonchli intervali va ishonchli chegaralari .....	80
3.5.3. O'lhash natijalarining jamlangan xatoligi .....	83
<b>IV BOB. O'LCHASH NATIJALARINI QAYTA ISHLASH VA NOANIQLIKNI BAHOLASH .....</b>	85
4.1. O'lhash natijalarini qayta ishlash .....	85
4.1.1. Birmarotabali o'lhash natijalarini qayta ishlash .....	86
4.1.2. Ko'pmarotabali o'lhash natijalarini qayta ishlash .....	87
4.1.3. Qo'pei xatoliklarning namoyon bo'lishini aniqlash .....	89
4.1.4. O'lhash natijalarining ishonchli ehtimolligini aniqlash .....	89
4.1.5. O'lhash natijalarini yaxlitlash. Yaxlitlash qoidasi. Juda kichik xatoliklarning mezoni .....	90
4.1.6. O'lhash natijalarining tavsija etish shakllari .....	91
4.2. O'lhashlarning sifat mezonlari .....	92
4.3. Noaniqliklar va ularni baholash .....	92

4.3.1. Noaniqliklarni baholash usullari .....	103
4.3.2. O'chanayotgan kattalikni ifodalash .....	102
4.3.3. Noaniqlik manbalarining namoyon bo'lishi.....	103
4.3.4. Noaniqlikniga taqdim etish .....	105
4.3.5. Standart namunalarning noaniqligi .....	107
4.4. Noaniqlikniga baholash tartibi va algoritmi .....	108
<b>V BOB. O'LCHASH VOSITALARI VA ULARNING METROLOGIK TAVSIFLARI .....</b>	<b>115</b>
5.1. O'lhash vositalarining turlari va sinflanishi .....	115
5.2. O'lchanadigan axborot va signallar .....	130
5.3. O'lhash vositalarining metrologik ko'rsatkichlari .....	133
5.4. O'lhash vositalarining metrologik tavsiyflari.....	134
5.5. O'lhash vositalarining aniqlik sinflari .....	137
5.6. O'lhash vositalarini metrologik attestatsiyalash .....	139
<b>VI BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'LCHASHLAR BIRLILIGINI TA'MINLASH DAVLAT TIZIMI .....</b>	<b>145</b>
6.1. O'lhashlar birliligini ta'minlash davlat tizimining umumiy qoidalari....	145
6.2. O'lhash vositalarini qiyoslash .....	146
6.3. O'lhash vositalarini kalibrlash.....	152
6.4. Qiyoslash\kalibrlash tartibi va qiyoslash sxemalari .....	155
6.5. O'lhash vositalarini sertifikatlashtirish va turini tasdiqlash.....	162
<b>VII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA METROLOGIYA XIZMATI VA METROLOGIK TA'MINOT .....</b>	<b>165</b>
7.1. O'zbekiston Respublikasida davlat metrologiya xizmati .....	165
7.2. O'lhashlar birliligini ta'minlash bo'yicha davlat inspektoriarining majburiyatları va huquqlari .....	171
7.3. Metrologik ta'minot va uning asosiy jihatlari.....	173
7.4. Ishlab chiqarish tarmoqlarida metrologik ta'minot .....	177
<b>VIII BOB. STANDARTLASHTIRISH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR .....</b>	<b>186</b>
8.1. O'zbekistonda standartlashtirishning tarixiy jarayonlari .....	186
8.2. Standartlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalar va ta'riflar .....	189
8.3. Standartlashtirish va sifat .....	196
8.4. Standartlashtirish vazifasining mohiyati va tamoyillari .....	201
<b>IX BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STANDARTLASHTIRISH TIZIMI .....</b>	<b>204</b>
9.1. Standartlashtirishning maqsadi va vazifalari .....	204
9.2. Standartlashtirishning qonuniy asoslari .....	205
9.3. Standartlashtirish tizimining tashkiliy va huquqiy asosi .....	209
9.4. Standartlashtirish bo'yicha davlat boshqaruv idoralari.....	217
9.5. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar .....	218
9.6. Korxonalarda standartlashtirish xizmatlari .....	220

9.7. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjalari .....	222
9.9. Standartlarning turlari .....	226
9.10. Davlat standartlarini ishlab chiqish tartibi .....	228
9.11. Davlat standartlari talablariga rivoja qilishi ustidan Davlat tekshiruvi va nazorati .....	233
<b>X BOB. TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH TIZIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI HAMDA ASOSIY TAMOYILLARI .....</b>	<b>237</b>
10.1. Texnik jihatdan tartibiga solishning asosiy maqsad va vazifalari .....	237
10.2. Texnik jihatdan tartibga solishning qonuniy asoslari .....	238
10.3. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilmasi ..	239
10.4. Texnik jihatdan tartibga solish tizimining asosiy tamoyillari .....	241
10.5. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, ro'yxatga olish tartibi .....	242
<b>XI BOB. STANDARTLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .....</b>	<b>248</b>
11.1. Standartlashtirishning umumiyligi tamoyillari .....	248
11.2. Maqbul sonlar qatori tizimi .....	249
11.3. Standartlashtirish usullari .....	256
11.4. Amaliyotdagi umumiiy standartlashirish usullari .....	258
11.4.1. Bir xillashtirish usuli .....	262
11.4.2. Turlash usuli .....	268
11.4.3. Agregatlashtirish usuli .....	269
11.4.4. Modullashtirish .....	271
11.4.5. O'zaro almashuvchanlik asoslari .....	271
11.5. Kompleks standartlashtirish .....	273
11.6. Ilgarilauma standartlashtirish .....	275
11.7. Standartlashtirish obyektlari ko'satkichlarini maqbullahtirish .....	278
<b>XII BOB. TARMOQLARARO STANDARTLASHTIRISH .....</b>	<b>284</b>
12.1. Tarmoqlararo standartlashtirishning umumiyligi tavsifi .....	284
12.2. Konstrukturlik hujjalarning yagona tizimi .....	286
12.3. Texnologik hujjalarning yagona tizimi .....	287
12.4. Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha kompleks standartlar .....	288
12.5. Mahsulot yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish tizimi .....	293
12.6. Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axboratlarni tasniflash va kodlash .....	297
12.7. Ishlab chiqariladigan mahsulot va tovarlarni shtrixli kodlash .....	299
12.8. Standartlashtirishning davlat nazorati .....	304
12.9. Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligi .....	307
<b>XIII BOB. XALQARO VA HUDUDIY STANDARTLASHTIRISH FAOLIYATI .....</b>	<b>319</b>
13.1. Xalqaro va hududiy standartlashtirishning maqsad va vazifalari .....	319
13.2. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti .....	321
13.3. Xalqaro elektr texnika komissiyasi .....	330

13.4. Davlatlararo standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish.....	329
13.5. Standartlashtirish bo'yicha hududiy tashkilotlar.....	332
<b>XIV BOB. SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATI.....</b>	<b>338</b>
14.1. Sertifikatlashtirishning rivojlanish tarixi.....	338
14.2. Sertifikatlashtirish sohasidagi atama va ta'riflar.....	345
14.3. Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi, vazifaлari va faoliyat turlari .....	347
14.4. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy asoslari .....	352
14.5. Muvofiqlikni baholash va uning qonuniy hamda me'yoriy asoslari .....	355
<b>XV BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA</b>	
<b>SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATI.....</b>	<b>362</b>
15.1. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining qoidalari .....	362
15.2. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi .....	365
15.3. Sertifikatlashtirishni amalga oshirishning umunuiy bosqichlari .....	374
15.4. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi ..	375
15.5. Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash uchun mahsulotni sinash.....	387
15.6. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksiya nazorati.....	390
<b>XVI BOB. SERTIFIKATLASHTIRISH SXEMALARI HAMDA ISHLAB CHIQARISH VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH .....</b>	<b>395</b>
16.1. Sertifikatlashtirish sxemalari va ularning qo'llanilishi .....	395
16.2. Xizmatlarni sertifikatlashtirish.....	401
16.3. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish .....	407
16.4. Sertifikatlashtirishda ishlab chiqarishni baholash va kuzatish .....	410
<b>Ilovalar .....</b>	<b>413</b>
<b>Glossariy .....</b>	<b>419</b>
<b>Foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar .....</b>	<b>421</b>

## SO'ZBOSHI

"Mahsulotni standartlash<sup>n</sup> va sertifikasiyalash xalqaro tiziiniga izchillik bilan o'tishni tashkil qilish O'zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamiyatiga keng ko'lamda uyg'unlashtirish uchun iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi".<sup>1</sup>

I.A.Karimov

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tishda nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda iqlisodiyotning turli tarmoqlaridagi mahalliy korxonalarining faoliyati uchun yangi sharoitlarni aniqlab oldi. Har qanday yo'naliш bo'yicha va har qanday darajadagi xalqaro hamkorliklar milliy va xalqaro me'yordarga muvofiq talab etiladigan qoida va me'yordarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati O'zbekiston Respublikasidagi mahalliy zamonaviy korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi, jahon miqqosida sanoatni rivojlantirishning muhim omillari sifatida metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish hamda sifatni boshqarishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublikada metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarishning rivojlanishini ta'minlovchi bir qator qonun va qarirlarni imzoladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi, "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi, "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi va "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi Qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28.11-dagi №UP-4058 sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish va ularni barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 22.07-dagi №349-tonli "Xalqaro standartlarga muvofiq sifatni boshqarish tizimlarini korxonalarga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2006-yil 29.08-dagi №183-tonli "Xalqaro standartlarga muvofiq sifatni boshqarish tizimlarini korxonalarga joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2009-yil 19.06-dagi №173-tonli "Xalqaro standartlarga

<sup>1</sup> Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li", Toshkent, "O'zbekiston", 1992. 40-bet.

muvofig sifatni boshqarish tizimlarini respublika korxonalariga joriy etishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilingan.

Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasini jahon iqtisodiy sivilizatsiyasida integrallashuviga keng yo'l ochib va yangicha ishslash sharoitlarini talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ishlab chiqilib, bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofig metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlatirish hamda sifatni boshqarish masalalari oliy kasbiy ta'lim o'quv rejasida zamонавија mutaxassis tayyorlashning umumkasbiy fanlari sifatida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv rejasiga kiritilgan.

"Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" fanini bilish bakalavriaturaning barcha yo'nalishlari va magistraturaning ixtisosliklari uchun o'quv rejaning muhim tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Madomiki oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati menejmentining imkoniyatlarini va afzalliklarini bilishi harnda ulardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim. Fanning bunday tashkil etuvchilarini bilish nafaqat tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifati va raqobatbardoshligini, balki O'zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshiradi.

Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish hamda mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha tadbirlar respublikamiz iqtisodiyotining barcha yo'nalishlarida (kimyo, neft va gaz elektronika, mashinasozlik, transport, aloqa, qurilish, tog'-kon, geologiya va qidiruv, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqalar) keng qo'llaniladi.


Shuning uchun Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ishlab chiqilgan Davlat ta'limi standartlarida "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" *umumkasbiy fanini o'qitishga muhim e'tibor qaratilgan*.

Fanni o'qitish predmeti standart usullardan foydalanib turli mahsulotlar sifatini xolisona baholash bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, fanda metrologiya va uning tarkibiy elementlari, fizikaviy kattaliklar va ularning birligi, o'chash usullari, vositalari va o'chovlar birligini ta'minlash. mahsulot sifatini boshqarish va ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishning metrologik ta'minoti masalalari ko'rib chiqiladi. Standartlashtirish va standartlarning turlari, usullari va berilgan talablarga asosan mahsulotlar sifatini tasdiqlash tartibi sifatida sertifikatlashtirish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Fan o'zida uchta qismni: metrologiya asoslari, standartlashtirish asoslari va sertifikatlashtirish asoslari kabi asosiy bo'limlarni qamrab oladi.

Sifat muammosi bugungi kunda barcha mamlakatlar uchun uning bozor iqtisodiyoti va taraqqiyotining rivojlanish darajasiga aloqador bo'lgan holda dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanib kelmoqda. Iste'molchilarning mahsulotning sifati va xavfsizligiga ishonchini ta'minlash, ya'ni asosiyalaridan biri bo'lmiss xalqaro hamjamiyatda mahsulotni tan olinishi va deklaratсиyalanishi, shuningdek, uni normal bozor sharoitlarida sotish kabi masalalar muhim vazifalardan hisoblanadi. Shunday ekan, iste'molchilar uchun mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, uni xavfsizligini kafolatlash muhim obyektiv zaruriyatlardan biri. Ishlab chiqaruvchilar ham mahsulot yoki xizmatlarning sifatini yaxshilashga intilib, bundan bozorga chiqishini qancha kengaytirish bilan bir qatorda qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ma'lumki, "sifat" atamasi asosiy falsafiy umumiy aloqadorliklardan iborat bo'lib, juda keng tushunchani o'zida mujassam etadi. Uning yanada yaqqolroq va qulay sintezlanishini bir necha to'g'ri piramidalar yoki tetraedr shaklida tasavvur qilish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Mahsulot sifatining tizimli modeli.

Bunda tetraedr asosini tashkil etuvchi elementlar, ahamiyatliligi bo'yicha bir-birini to'ldiruvchi komponentlardan tashkil topgan. Boshqa tomondan bu komponentlar tizimli uchlik elementlarini tashkil etadi. Metrologiya uning kengroq ratsional qismidan tarkib topgan bo'lib, standartlashtirish iste'molchilar talablarini qonuniylashtirishdan va yana bir jihatdan faoliyatning sezuvchan qismi hamda sertifikatlashtirish ko'ptomonlama asoslangan oldingi ikki element qo'shilishidan hosil bo'lgan choralar sifatida tarkib topgan. Haqiqatdan ham, agarda tizimli ravishda tetraedr asoslariga diqqat bilan e'tibor berilsa, birinchi tushuncha

muvofig sifatni boshqarish tizimlarini respublika korxonalariga joriy etishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilingan.

Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasini jahon iqtisodiy sivilizatsiyasida integrallashuviga keng yo'l olib va yangicha ishlash sharoitlarini talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ishlab chiqilib, bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofig metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlatirish hamda sifatni boshqarish masalalari oliy kasbiy ta'lim o'quv rejasida zamонавија mutaxassis tayyorlashning umumkasbiy fanlari sifatida bakalavriat ta'lim yo'naliшlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv rejasiga kiritilgan.

"Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" fanini bilish bakalavriaturaning barcha yo'naliшlari va magistraturaning ixtisosliklari uchun o'quv rejaning muhim tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Madomiki oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati menejmentining imkoniyatlarini va afzalliklarini bilishi hamda ulardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim. Fanning bunday tashkil etuvchilarini bilish nafaqat tayyorlanayotgan mutaxassislarining sifati va raqobatbardoshligini, balki O'zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshiradi.

Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish hamda mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha tadbirlar respublikamiz iqtisodiyotining barcha yo'naliшlariда (kimyo, neft va gaz, elektronika, mashinasozlik, transport, aloqa, qurilish, tog'-kon, geologiya va qidiruv, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqalar) keng qo'llaniladi.


Shuning uchun Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlarida "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" *umumkasbiy fanini o'qitishga muhim e'tibor qaratilgan*.

Fanni o'qitish predmeti standart usullardan foydalanib turli mahsulotlar sifatini xolisona baholash bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, fanda metrologiya va uning tarkibiy elementlari, fizikaviy kattaliklar va ularning birligi, o'lchash usullari, vositalari va o'lchovlar birligini ta'minlash, mahsulot sifatini boshqarish va ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishning metrologik ta'minoti masalalari ko'rib chiqiladi. Standartlashtirish va standartlarning turlari, usullari va berilgan talablarga asosan mahsulotlar sifatini tasdiqlash tartibi sifatida sertifikatlashtirish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Fan o‘zida uchta qismni: metrologiya asoslari, standartlashtirish asoslari va sertifikatlashtirish asoslari kabi asosiy bo‘limlarni qamrab oladi.

Sifat muammosi bugungi kunda barcha mamlakatlar uchun uning bozor iqtisodiyoti va taraqqiyotining rivojlanish darajasiga aloqador bo‘lgan holda dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanib kelmoqda. Iste’molchilarning mahsulotning sifati va xavfsizligiga ishonchini ta’minlash, ya’ni asosiyalaridan biri bo‘lmish xalqaro hamjamiyatda mahsulotni tan olinishi va deklaratsiyalanishi, shuningdek, uni normal bozor sharoitlarida sotish kabi masalalar muhim vazifalardan hisoblanadi. Shunday ekan, iste’molchilar uchun mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, uni xavfsizligini kafolatlash muhim obyektiv zaruriyatlardan biri. Ishlab chiqaruvchilar ham mahsulot yoki xizmatlarning sifatini yaxshilashga intilib, bundan bozorga chiqishini qancha kengaytirish bilan bir qatorda qo’shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ma’lumki, “sifat” atamasi asosiy falsafiy umumiyligi aloqadorliklardan iborat bo‘lib, juda keng tushunchani o‘zida mujassam etadi. Uning yanada yaqqolroq va qulay sintezlanishini bir necha to‘g’ri piramidalar yoki tetraedr shaklida tasavvur qilish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Mahsulot sifatining tizimli modeli.

Bunda tetraedr asosini tashkil etuvchi elementlar, ahamiyatliligi bo‘yicha bir-birini to‘ldiruvchi komponentlardan tashkil topgan. Boshqa tomondan bu komponentlar tizimli uchlik elementlarini tashkil etadi. Metrologiya uning kengroq ratsional qismidan tarkib topgan bo‘lib, standartlashtirish iste’molchilar talablarini qonuniylashtirishdan va yana bir jihatdan faoliyatning sezuvchan qismi hamda sertifikatlashtirish ko‘ptomonlama asoslangan oldingi ikki element qo’shilishidan hosil bo‘lgan choralar sifatida tarkib topgan. Haqiqatdan ham, agarida tizimli ravishda tetraedr asoslariga diqqat bilan e’tibor berilsa, birinchi tushuncha

metrologiya miqdoriy baholashning ko‘p qismini amalga oshiradi, standartlashtirish – sifat bo‘yicha, shuningdek, sertifikatlashtirish ikki elementlarning qo‘silmasidagi choralar ya’ni to‘rtinchini sintezlovchi zveno sifatida xulosa chiqaruvchi be‘lib, bu konstruksiyaning elementlar bilan bog‘liqligi, chiqishi ma‘lumotlarini o‘rnatuvchi bo‘lgan sifat tushunchasi xizmat qilishini anglash mumkin. Sifat esa bu konstruksiyani yaxlitligicha unga yangi tizimli hissasini qo‘sib, hajmiy to‘ldiruvchisi sifatida aks etadi. Shuningdek, bundan shuni anglash mumkinki, bu elementlardan birini boshqarib, yakuniy mahsulotga ta’sir etuvchi ornillar sifatida uning sifatini boshqarishimiz mumkin. O‘z navbatida, mahsulot sifatini boshqarish jarayoni, ushbu mahsulotni ishlab chiqarishni vaholangki, ixtiyoriy obyektni ya’ni jarayon, ish va xizmatlar va h.lar bo‘lsa ham boshqaruvning muhim jihatni bo‘lib hisoblanadi.

Shuning uchun ham metrologiya standartlashtirish va sertifikatlash zamonaviy sifat boshqaruvining asosiy tarkibiy, ajralmas qismlari sifatida ko‘rilmog‘i loziqligini taqozo etmoqda.

Demak, bizning maqsad mahsulot sifati ifodasining mohiyatini uchlik usul sifatida tushuntirish, ya’ni standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish faoliyati natijasida yuqorida keltirilgan piramida – tetraedrni qurish yordamida mahsulot, xizmat va ishlarni yuqori sifatiiligini ta’minalash tasvirlangan. Standartlashtirishga amaliy faoliyat, boshqarish tizimi va fan nuqtayi nazarildan yondashiladi.

Standartlashtirish *amaliy faoliyat sifatida* o‘matilgan me’yoriy hujjatlar bo‘yicha standartlashtirish va qoidalarni qo’llash, ijtimoiy hayot va jamiyatning ishlab chiqarish sohalarida takrorlanuvchi masalalarning eng maqbul qarorlarini ta’minalaydi.

Standartlashtirish *boshqarish tizimi sifatida* O‘zbekiston Respublikasida Davlat standartlashtirish tizimi (DST) asosida olib boriladigan amaliy faoliyat bo‘lib, standartlashtirish bo‘yicha rejali boshqaruv tizim sifatidagi amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

Standartlashtirish *fan sifatida* standartlashtirish usuli va vositalari to‘g‘risida aniqlik kiritish, standartlashtirish bo‘yicha qonunchilik faoliyatni shakllantirish va umumilashtirish maqsadidagi alohida yo‘nalishdir.

“Sertifikatlashtirish” atamasini uslubiy jihatdan tizimli sifatda yanada aniqroq va universal bo‘lgan “muvofiqlikni baholash” atamasi bilan ifodalash mumkin. Uslubiy jihatdan qaralganda sertifikatlash – muvofiqlikni tasdiqlashning 3-tomondan amalga oshiriladigan asosiy faoliyati. Masalan, 1-tomon (sotuvchi) muvofiqlikni baholash -- deklaratsiyalash; akkreditlash –

idora yoki laboratoriyaning layoqatli (omilkor)ligining tan olinishi; davlat ro'yxatga olinishi -- yangi mahsulot muvosiqiligin tasdiqlash va h.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan tushunchalarning faqat tizimli o'zaro bog'liqligi ularning ratsional qo'shilishi bilan (tizimli tetraedr doirasida) mahsulot sifatining yuqoriligini ta'minlashi mumkin.

Sifat va uning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatning uchlik turi va usullariidan ko'rinish turibdiki, uchinchi tarkib etuvchisi "muvofiglikni baholash" bo'lib hisobanadi (2-rasm).



*2-rasm. Mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha faoliyatning uchlik turi va usullari.*

Bu atama ko'proq universal tushuncha hisoblanib, sertifikatlashtirish "uchinchi tomon"ning muvofiglikni baholash tartibi sifatida bu faoliyatning asosiy shaklini ifodalaydi.

Shunday qilib, Sizga tavsiya etilayotgan ushbu darslik metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanining ilmiy, uslubiy va amaliy ta'riflar bo'yicha yetarli ma'lumotlar olishga va ko'nikmalarga ega bo'lishga imkoniyat yaratadi.

# I BOB. METROLOGIYANING RIVOJLANISHI, QONUNIY VA HUQUQIY ASOSLARI

## 1.1. Metrologiyaning rivojlanishining qisqacha tarixi

Atrofimizdag'i ixtiyoriy olingan biron bir obyekt (predmet, jarayon yoki hodisa) to'g'risida gap bidorada, albatta, ularni tavsiflovchi muayyan xossa (hodisalar)ni ko'z oldimizga keltiramaz. Bu xossalarni turli darajada namoyon bo'lishi, boshqacharoq aytganda, miqdoriy baholanishi mumkin. Odatda, miqdoriy baholashni faqatgina o'lchashlar amali orqaligina bajarish mumkin.

O'lchashlar inson faoliyatining ajralmas bo'lagi bo'lib, uning ongli hayotining asosini tashkil etadi. Kishi erta bilan uyg'ongan zahoti biringchi navbatda vaqtini baholaydi; ishga, o'qishga ketayotganda masofani baholaydi va h. O'lchashlar uzlucksiz, takroriy yoki davriy ravishda, ba'zan bilgan holda, ba'zan esa bilmagan holda sodir bo'lib turadi. Ona-tabiat insonni shunday bir ajoyib xususiyat, hissiyot bilan ta'mirlaganki, uni murakkab bir o'lhash asbobi sifatida tushunishimiz mumkin. Ammo shuni ta'kidlash zarurki, atrofdagi muhitni, borliqni faqat sezgi vositasidagina bilih yetarli emas, faqatgina ularni o'lchashlar orqaligina biliib, kerakli xulosalar chiqarib olishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtida hech bir mutaxassis yo'qki, u o'z ish faoliyati mobaynida o'lchashlarni qo'llamasra. Uning oldida turgan muammo qanchalik murakkab bo'lsa, o'lchashlarning ahamiyati shunchalik salmoqli bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda inson faoliyatining 3000dan ortiq sohasi aynan o'lchashlar bilan chambarchas bog'liq ekan.

Har bir ishda muayyan tartib-qoidalari bo'lgani kabi o'lchashlarning ham o'ziga xos bo'lgan qoidalari, usullari va uslubiyatlari mavjud bo'lib, bularning bari o'zining me'yoriy hujjalari asosida biror bir tizimga keltiriladi.

O'lhash texnikalari, ayniqsa, hisoblash vositalariga asoslangan o'lhash qurilmalari il'n va fanning rivojlantiruvchi katalizatori hiseblanadi. O'lchashlar hamma uchun havoning harorati va namligiga qarab, ekin ekuvchi dehqondan tortib, ulkan kashfiyotlar qilayotgan tadqiqotchi uchun ham o'lhash haqida ma'lumot zarur. Shu bois fan va texnikaning rivoji (taraqqiyoti) hamma vaqt o'lchashlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan va, albatta, o'lchashlarning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni, ahamiyati beqiyos. Bu borada, hatto Qur'oni Karimda ham aytib o'tilgan: "**Bu dunyoda hamma narsani aniq o'lchov bilan yaratdik**".

Abu Rayhon Beruniy o'lchashlar va ilm haqida qayidagi fikrlarni aytganlar:

*"Har bir kuzatuvchi (olim) diqqat bilan o'lchasin, hamisha o'z ishlariidan qoniqmasin, o'z ishlarini qayta-qayta tekshirib tursin, mumkin qadar kamroq g'ururlansin, tobora tirishqoqlik bilan ishlasin va mehnatda hech mahal zerikmasin";*

*"Agar inson izlanuvchan va aniqlikni talab qiluvchi bo'lsa. ilm tarmoqlaridan biror bir tarmoqning to'la ma'nosi haqida so'zlay olishi mumkin"; "... dalil va aniqlik haqiqiy ilmga xosdir".*

Mashhur rus olimi D.I.Mendeleyev o'lhash haqida shunday degan edi: *"... har bir fan, eng avvalo, o'lhash bilan boshlanadi"*, *"Bilish uchun o'lhash kerak, o'lhash uchun esa o'lchovni bilish kerak"*. Shuning uchun ham asosiy maqsad faqat o'lhash emas, uning o'lchovini ham bilish zarurligini ko'rsatib o'tgan. Galileo Galileyning *"O'lchab bo'ladiganini o'lchang, mumkin bo'limganiga imkoniyat yarating"* degan bashoratlari o'lhashlarning ahamiyatini yanada yuqoriga ko'targan.

**Antropometrik o'lhashlarning vujudga kelishi.** O'lhashlarga bo'lgan ehtiyoj qadim zamonlardayoq paydo bo'lgan. Inson kundalik hayotida har xil kattaliklarni: masofalarni, yer maydonlarining yuzalarini, jismilarning o'lchamlarini, massalarini, vaqtini va h.larni, bu jarayonlarni yuzaga kelish sabablarini, manbalarini bilmasdan, o'zining sezgisi va tajribasi asosida o'lchay boshlagan.

**"O'lhash"** atamasining tom ma'nosi bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, qadimda insoniyat asosan "idoraoleptik o'lhashlar", ya'ni o'zining his etish a'zolari orqali u yoki bu fizikaviy xossa bo'yicha taxminiy ma'lumotlar olgan. Bunda mana shu his etish idoralari o'lhash vositasi vazifasini bajargan. Garchand bu kabi o'lhashlarda aniq bir qiymat olinmasa ham, har bir o'lhashda, aniqrog'i baholashda muayyan bir o'lchovga nisbatan solishtirish amaiga oshirilgan. Dastlab solishtirish o'lchovi **moddiy** bo'limgan, balki insonning o'z tajribasi, zakovati va atrof-muhitni bilish darajasiga qarab individual tarzda belgilangan. Keyinchalik ish va ozuqa topish quroilari ainalda qo'llaria borgani sari solishtirish o'lchovlari ham moddiylashib borgan.

Insoniyat rivojlanib, ish qurollarini va yashash tarzini yanada takomillashtirib borgan. Yashash va mehnat sharoitlarini yanada qulaylash-tirish harakatida bo'lgan. Moddiy bo'limgan o'lchovlar bilan ishslash noqulayligi va individualligi tufayli, uni moddiylashtirish yo'llarini axtara borgan. Shu tariqa turli o'lhash birlklari paydo bo'lgan.

Eng qadimgi o'lhash birlklari antropometrik o'lhashlar bo'lgan. **Antropometriya** – antropologiya ilmida odam tanasi va a'zolarini o'lhashga asoslangan tekshirish usuli bo'lib, u insonning muayyan a'zolariga muvosiqlikka yoki moyillikka asoslangan holda kelib chiqqan.

# I BOB. METROLOGIYANING RIVOJLANISHI, QONUNIY VA HUQUQIY ASOSLARI

## 1.1. Metrologiyaning rivojlanishining qisqacha tarixi

Atrofimizdagi ixtiyoriy olingen biron bir obyekt (predmet, jarayon yoki hodisa) to'g'risida gap bidorada, albatta, ularni tavsiflovchi muayyan xossa (hodisalar)ni ko'z oldimizga keltiramaz. Bu xossalarni turli darajada namoyon bo'lishi, boshqacharoq aytganda, miqdoriy baholanishi mumkin. Odatda, miqdoriy baholashni faqatgina o'lchashlar amali orqaligina bajarish mumkin.

O'lchashlar inson faoliyatining ajralmas bo'lagi bo'lib, uning ongli hayotining asosini tashkil etadi. Kishi erta bilan uyg'ongan zahoti birinchi navbatda vaqtini baholaydi; ishga, o'qishga ketayotganda masofani baholaydi va h. O'lchashlar uzlusiz, takroriy yoki davriy ravishda, ba'zan bilgan holda, ba'zan esa bilmagan holda sodir bo'lib turadi. Ona-tabiat insonni shunday bir ajoyib xususiyat, hissiyot bilan ta'mirlaganki, uni murakkab bir o'lhash asbobi sifatida tushunishimiz mumkin. Ammo shuni ta'kidlash zarurki, atrofdagi muhitni, borliqni faqat sezgi vositasidagina bilish yetarli emas, faqatgina ularni o'lchashlar orqaligina bilib, kerakli xulosalar chiqarib olishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtida hech bir mutaxassis yo'qliki, u o'z ish faoliyati mobaynida o'lchashlarni qo'llamas. Uning oldida turgan muammo qanchalik murakkab bo'lsa, o'lchashlarning ahamiyati shunchalik salmoqli bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda inson faoliyatining 3000dan ortiq sohasi aynan o'lchashlar bilan chambarchas bog'liq ekan.

Har bir ishda muayyan tartib-qoidalari bo'lgani kabi o'lchashlarning ham o'ziga xos bo'lgan qoidalari, usullari va uslubiyatlari mayjud bo'li, bularning bari o'zining me'yoriy hujjatlari asosida biror bir tizimga keltiriladi.

O'lhash texnikalari, ayniqsa, hisoblash vositalariga asoslangan o'lhash qurilmalari ilin va fanning rivojlantiruvchi katalizatori hiseblanadi. O'lchashlar hamma uchun havoning harorati va namligiga qarab, ekin ekuvchi dehqondan tortib, ulkan kashfiyotlar qilayotgan tadqiqotchi uchun ham o'lhash haqida ma'lumot zarur. Shu bois fan va texnikaning rivoji (taraqqiyoti) hamma vaqt o'lchashlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan va, albatta, o'lchashlarning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni, ahamiyati beqiyos. Bu borada, hatto Qur'on Karimda ham aytib o'tilgan: "**Bu dunyoda hamma narsani aniq o'lchov bilan yaratdik**".

Abu Rayhon Beruniy o'lchashlar va ilm haqida quyidagi fikrlarni aytganlar:

"Har bir kuzatuvchi (olim) digyat bilan o'lchasin, hamisha o'z ishlariidan qoniqmasin, o'z ishlarini qayta-qayta tekshirib tursin, mumkin qadar kamroq g'ururlansin, tobora tirishqoqlik bilan ishlasin va mehnatda hech mahal zerikmasin";

"Agar inson izlamuvchan va aniqlikni talab qiluvchi bo'lsa. ilm tarmoqlaridan biror bir tarmoqning to'la ma'nosi haqida so'zlay olishi mumkin"; "... dalil va aniqlik haqiqiy ilmga xosdir".

Mashhur rus olimi D.I.Mendeleyev o'lhash haqida shunday degan edi: "... **har bir fan, eng avvalo, o'lhash bilan boshlanadi**", "**Bilish uchun o'lhash kerak, o'lhash uchun esa o'lchovni bilish kerak**". Shuning uchun ham asosiy maqsad faqat o'lhash emas, uning o'lchovini ham bilish zarurligini ko'rsatib o'tgan. Galileo Galileyning "**O'lchab bo'ladiganini o'lchang, mumkin bo'limganiga imkoniyat yaratting**" degan bashoratlari o'lhashlarning ahamiyatini yanada yuqoriga ko'targan.

**Antropometrik o'lhashlarning vujudga kelishi.** O'lhashlarga bo'lgan ehtiyoj qadim zamondaryoq paydo bo'lgan. Inson kundalik hayotida har xil kattaliklarni: masofalarini, yer maydonlarining yuzalarini, jismilarning o'lchamlarini, massalarini, vaqtini va h.larni, bu jarayonlarni yuzaga kelish sabablarini, manbalarini bilmasdan, o'zining sezgisi va tajribasi asosida o'lchay boshlagan.

**"O'lhash"** atamasining tom ma'nosi bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, qadimda insoniyat asosan "idoraoleptik o'lhashlar", ya'ni o'zining his etish a'zolari orqali u yoki bu fizikaviy xessa bo'yicha taxminiy ma'lumotlar olgan. Bunda mana shu his etish idoralari o'lhash vositasi vazifasini bajargan. Garchand bu kabi o'lhashlarda aniq bir qiymat olinmasa ham, har bir o'lhashda, aniqrog'i baholashda muayyan bir o'lchovga nisbatan solishtirish amalga oshirilgan. Dastlab solishtirish o'lchovi **moddiy** bo'limgan, balki insonning o'z tajribasi, zakovati va atrof-muhitni bilish darajasiga qarab individual tarzda belgilangan. Keyinchalik ish va ozuqa topish qurollari amalda qo'llana borgani sari solishtirish o'lchovlari ham moddiylashib borgan.

Insoniyat rivojlaniib, ish qurollarini va yashash tarzini yanada takomillashtirib borgan. Yashash va mehnat sharoitlarini yanada qulaylash-tirish harakatida bo'lgan. Moddiy bo'limgan o'lchovlar bilan ishslash noqulayligi va individualligi tufayli, uni moddiylashirish yo'llarini axtara borgan. Shu tariqa turli o'lhash birlklari paydo bo'lgan.

Eng qadimgi o'lhash birlklari antropometrik o'lhashlar bo'lgan. **Antropometriya** – antropologiya ilmida odam tanasi va a'zolarini o'lhashga asoslangan tekshirish usuli bo'lib, u insonning muayyan a'zolariga muvosiqlikka yoki moyillikka asoslangan holda kelib chiqqan.

Masalan, **qarich** – qo'l kafti yoyilgan holda bosh barmoq va jimjiloq orasidagi masofa; **qadam** – balog'at yoshidagi odamning sokin odimlashidagi yurish birligi; **tirsak** – kaft va tirsak orasidagi masofa; **chaqirim** – ochiq dala sharoitida birining tovushini ikkinchisi eshitishi mumkin bo'lган masofa; **ladon** – bosh barmoqni hisobga olmaganda qolgan to'rttasining kengligi; **fut** – oyoq tagining uzunligi; **pyad** – yozilgan bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofa va hokazolar. Bu kabi birliklarni joriy etishda yirik fan yoki davlat arboblarining antropometrik o'lchamlarini asos qilib olish hollari ham uchraydi. Masalan, ingлиз qiroli Genrix I (XII asrning boshi) **yard** o'lhash birligini ( $\approx 91,44$  sm) joriy etgan. Bunda namunaviy o'lchov sifatida qirolning burni uchidan oldinga cho'zilgan qo'lning o'rancha barmog'i uchigacha bo'lган masofa olingan.

Antropometrik o'lhash birliklari bilan bir vaqtida tabiiy o'lhash birliklari ham paydo bo'la boshlagan. Bu birliklar sifatida tabiatdagi ba'zi doimiy, o'zgarmas hisoblangan obyektlarning xususiyatlari olingan. Masalan, turli qimmatbaho toshlarning o'lchov birligi sifatida keng qo'llanilgan. "**No'xatcha**" ma'nosini anglatuvchi "**karat**"<sup>2</sup>, "bug'doy doni" ma'nosini bildiruvchi "**gran**" shular jum!asidan.

Dastlabki tabiiy o'lchovlarning yana bir ko'rinishi hamma yerda ishlataladigan vaqt o'lchovlaridir. Munajjimlarning ko'p yillik kuzatishlari natijasida qadimgi Vavilonda vaqt birligi sifatida yil, oy, soat tushunchalari ishlataligan. Keyinchalik esa ernen o'z o'qi atrofida to'la aylanishiga ketgan vaqtning 1/86400 qismi sekund nomini olgan. Qadimgi Vavilonliklar bizning eramizgacha bo'lган II asrdayoq vaqtini minalarda o'lhashgan. Mina taxminan ikki astronomik soat oraliq'iga teng bo'lib, bu vaqt mobaynida Vavilonda rasm bo'lган suv soatidan massasi taxminan 500 gramga teng bo'lган "mina suv" oqib ketgan. Keyinchalik "mina" o'zgarib, biz o'rganib qolgan minutga aylangan. Keyinchalik tabiiy "o'lchovlar" turmushda keng qo'llana boshlandi.

Shunday o'lchovlardan biri ernen o'z o'qi atrofida aylanishini vaqt birligi sifatida ishlatalishi. Jamiyatning rivojlanishi, savdo va dengiz sayohatining rivojlanishiga, sanoatning paydo bo'lishiga, fanni rivojlani-shiga, shu bilan birga, maxsus texnika va o'lhash vositalarini yaratilishiga ham sababchi bo'ldi. Shunday qilib, o'lhashlarning rivojlanishiga biz e'tiborimizni qaratsak, uni quyidagi bosqichlarga bo'lismiz mumkin.

<sup>2</sup> Karat (qirot) – seratoniya subtropik daraxti urug'ining nomi. U quriganda o'zining ilk og'irligini yo'qotmaydi. Uni, asosan, qimmatbaho tosh va tillani o'lhashda ishlatalishgan. Karatning doimiy og'irlik birligi 1907-yilda o'matilgan va 0,2 g deb qabul qilingan. Probalarini karat tizimidan metrik tizimga o'kazishda bir karat 1/5 g ga teng deb olingan. Karat tizimining quyidagi probalar mavjud: 6k, 8k, 10k 12k, 14k 18k, 22k.

**Stixiyali rivojlanish davri.** Insoniyat taraqqiyot rivojlanishining ilk davrlaridancq “moddiy” o’lchashlar va o’lchash birliklarining katta ahamiyatini tushunib yetganlar. Masalan, rus knyazi Svyatoslav Yaroslavich belidagi oltin kamaridan uzunlikning namunaviy o’lchash vositasi sifatida foydalangan. Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra knyaz davriy ravishda bozor rastalarini aylanib yurib, turli mate sotuvchilarining uzunlik o’lchovlarini kamari bilan taqqosиab turgan hamda o’lchashda xatolikka yo’л qo’yganlarni qattiq jazolagan.

Italiyaning cherkov va butxonalarida aniq sondagi marvarid donalari saqlanib, ulardan sochiluvchan (disperss) moddalarning hajm va massa birliklarini hosil qilishda foydalanganlar.

Markaziy Osiyoda ham o’lchovlar va ularning turg‘unligini saqlash, o’lchash qoidalariiga qat’iy rioya etish masalalariga jiddiy e’tibor berilgan va buning nazorati eng yuqori amaldorlar tomonidan olib berilgan. Masalan, islom ta’llimotida to’g’ri o’lchash, ya’ni xaridor haqidan urib qolmaslik (buni hozirda ham “tarozidan urib qolish” deyiladi) masalaigariga juda qattiq qaralgan.

Vaqt o’tishi bilan savdo-sotiq va o’zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi mobaynida o’lchovlarga aniqlik kiritish, yangilarini hosil qilish, o’zaro solishtirish va qiyoslash usullari shakllanib, o’nlab yangi va yangi o’lchash birliklari hosil bo’la boshlagan. Asta-sekin xalqaro, davlatlararo o’lchash birliklari ta’sis etila boshlagan.

Fan va texnikaning rivojlanishi har xil kattaliklarning o’lchamlarini muayyan o’lchovlarga qiyoslab kiritishni taqozo eta boshladi.

Ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishi o’lchash vositalari va usuullarini mukammallashtirishni talab eta boshladi. O’lchashlar nazariyasi hamda vositalarining rivojini aniqlab bergan texnika yutuqlarining uchta asosiy bosqichini ajratib ko’rsatish mumkin:

-- texnologik bosqich (manufakturna va mashina ishlab chiqarishning yuzaga kelishi);

-- energetik bosqich (bug‘ energiyasini ishlatish, ichki yonuv dvigatellarining yuzaga kelishi, elektr energiyasini ishlab chiqarish va ishlatish);

-- ilmiy-texnikaviy incijob (fanni ishlab chiqarish bilan bog‘lash va uni bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirish) bosqichi. Bu bosqichning alohida xususiyatlaridan biri obyektlar va jarayonlar holatini **ko’rsatkichlar** yordamida umumiy baholovchi o’lchash tizimlarini yaratish bo’lib, olingen natijalarni bevosita texnik tizimlarni avtomatik boshqarish uchun foydalanişdan iborat.

Masalan, **qarich** – qo'l kafti yoyilgan holda bosh barmoq va jimjiloq orasidagi masofa; **qadam** – balog'at yoshidagi odamning sokin odimlashidagi yurish birligi; **tirsak** – kaft va tirsak orasidagi masofa; **chaqirim** – ochiq dala sharoitida birining tovushini ikkinchisi eshitishi mumkin bo'lган masofa; **ladon** – bosh barmoqni hisobga olmaganda qolgan to'rttasining kengligi; **fut** – oyoq tagining uzunligi; **pyad** – yozilgan bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofa va hokazolar. Bu kabi birliklarni joriy etishda yirik fan yoki davlat arboblarining antropometrik o'lchamlarini asos qilib olish hellari ham uchraydi. Masalan, ingлиз qiroli Genrix I (XII asrning boshi) **yard** o'lhash birligini ( $\approx 91,44$  sm) joriy etgan. Bunda namunaviy o'lchov sifatida qirolning burni uchidan oldinga cho'zilgan qo'lning o'rancha barmog'i uchigacha bo'lган masofa olingan.

Antropometrik o'lhash birliklari bilan bir vaqtida tabiiy o'lhash birliklari ham paydo bo'la boshlagan. Bu birliklar sifatida tabiatdagi ba'zi doimiy, o'zgarmas hisoblangan obyektlarning xususiyatlari olingan. Masalan, turli qimmatbaho toshlarning o'lchov birligi sifatida keng qo'llanilgan. "**No'xatcha**" ma'nosini anglatuvchi "**karat**"<sup>2</sup>, "bug'doy doni" ma'nosini bildiruvchi "**gran**" shular jum!asidan.

Dastlabki tabiiy o'lchovlarning yana bir ko'rinishi hamma yerda ishlatalidigan vaqt o'lchovlaridir. Munajjimlarning ko'p yillik kuzatishlari natijasida qadimgi Vavilonda vaqt birligi sifatida yil, oy, soat tushunchalari ishlatalilgan. Keyinchalik esa ernen o'z o'qi atrofida to'la aylanishiga ketgan vaqtning 1/86400 qismi sekund nomini olgan. Qadimgi Vavilonliklar bizning eramizgacha bo'lган II asrdayoq vaqtini minalarda o'lhashgan. Mina taxminan ikki astronomik soat oraliq'iga teng bo'lib, bu vaqt mobaynida Vavilonda rasm bo'lган suv soatidan massasi taxminan 500 gramga teng bo'lган "mina suv" oqib ketgan. Keyinchalik "mina" o'zgarib, biz o'rganib qolgan minutga aylangan. Keyinchalik tabiiy "o'lchovlar" turmushda keng qo'llana boshlandi.

Shunday o'lchovlardan biri ernen o'z o'qi atrofida aylanishini vaqt birligi sifatida ishlatalishi. Jamiyatning rivojlanishi, savdo va dengiz sayohatining rivojlanishiga, sanoatning paydo bo'lishiga, fanni rivojlani-shiga, shu bilan birga, maxsus texnika va o'lhash vositalarini yaratilishiga ham sababchi bo'ldi. Shunday qilib, o'lhashlarning rivojlanishiga biz e'tiborimizni qaratsak, uni quyidagi bosqichlarga bo'lshimiz mumkin.

<sup>2</sup> Karat (qirot) – seratoniya subtropik daraxti urug'ining nomi. U quriganda o'zining ilk og'irligini yo'qotmaydi. Uni, asosan, qimmatbaho tosh va tillani o'lchashda ishlatalishgan. Karatning doimiy og'irlik birligi 1907-yilda o'matilgan va 0,2 g deb qabul qilingan. Probalarini karat tizimidan metrik tizimga o'tkazishda bir karat 1/5 g ga teng deb olingan. Karat tizimining quyidagi probalar mavjud: 6k, 8k, 10k 12k, 14k 18k, 22k.

**Stixiyali rivojlanish davri.** Insoniyat taraqqiyot rivojlanishining ilk davrlaridancq “moddiy” o’lchashlar va o’lchash birliklarining katta ahamiyatini tushunib yetganlar. Masalan, rus knyazi Svyatoslav Yaroslavich belidagi oltin kamaridan uzunlikning namunaviy o’lchash vositasi sifatida foydalangan. Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra knyaz davriy ravishda bozor ras-talarini aylanib yurib, turli mate sotuvchilarining uzunlik o’lchovlarini kamari bilan taqqosиab turgan hamda o’lchashda xatolikka yo’l qo’yanlarni qattiq jazolagan.

Italiyaning cherkov va butxonalarida aniq sondagi marvarid donalari saqlanib, ulardan sochiluvchan (disperss) moddalarning hajm va massa birliklarini hosil qilishda foydalanganlar.

Markaziy Osiyoda ham o’lchovlar va ularning turg‘unligini saqlash, o’lchash qoidalariga qat’iy rioya etish masalalariga jiddiy e’tibor berilgan va buning nazorati eng yuqori analdorlar tomonidan olib berilgan. Masalan, islom ta’limotida to‘g’ri o’lchash, ya’ni xaridor haqidan urib qolmaslik (buni hozirda ham “tarozidan urib qolish” deyiladi) masalalariga juda qattiq qaralgan.

Vaqt o’tishi bilan savdo-sotiқ va o’zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi mobaynida o’lchovlarga anqlik kiritish, yangilarini hosil qilish, o’zaro solishtirish va qiyoslash usullari shakllanib, o’nlab yangi va yangi o’lchash birliklari hosil bo’la boshlagan. Asta-sekin xalqaro, davlatlararo o’lchash birliklari ta’sis etila boshlagan.

Fan va texnikaning rivojlanishi har xil kattaliklarning o’lchamlarini muayyan o’lchovlarga qiyoslab kiritishni taqozo eta boshladi.

Ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishi o’lchash vositalari va usuşlarini mukammallashtirishni talab eta boshladi. O’lchashlar nazariyasi hamda vositalarining rivojini aniqlab bergan texnika yutuqlarining uchta asosiy bosqichini ajratib ko’rsatish mumkin:

– texnologik bosqich (manufaktura va mashina ishlab chiqarishning yuzaga kelishi);

– energetik bosqich (bug‘ energiyasini ishlatish, ichki yonuv dvigatellarining yuzaga kelishi, elektr energiyasini ishlab chiqarish va ishlatish);

– ilmiy-teknikaviy inqilob (fanni ishlab chiqarish bilan bog‘lash va uni bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirish) bosqichi. Bu bosqichning alohida xususiyatlaridan biri obyektlar va jarayonlar holatini **ko’rsatkichlar** yordamida umumiy baholovchi o’lchash tizimlarini yaratish bo‘lib, olingen natijalarni bevosita texnik tizimlarni avtomatik boshqarish uchun foydalaniшdan iborat.

O'lhashlar nazariyasining rivojlanishida qator olimlarning, ayniqsa, Bog'doddagi "Baytul hikma" (Donishmandlar uy!)ning buyuk olimlari *Al-Xorazmiy*, *Ahmad Farg'oniy*, *Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylarning* hissalari alohida e'tibor kasb etadi. *Al-Xorazmiy va Ahmad Farg'oniy larning* handasa (geometriya) ilmidan yozgan asarlari uzoq yillar davomida g'arb davlatlarida darslik sifatida qo'llanib kelingan. *Ahmad Farg'oniyning* astronomik kuzatishlar uchun mo'ljallangan o'lhash asbobi – usturlob yasash va undan foydalanish bo'yicha yozgan asarlari ko'plab astronomlar, munajjimlar uchun asosiy quroq bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, quyosh tutilishini oldindan qilgan bashorati o'z tasdig'ini topgandan so'ng olimning nufuzi yanada ko'tarilgan. *Farg'oniyning* Nil daryosining sathini o'lhash uchun mo'ljallangan "Miqyosi Nil" o'lhash qurilmasi o'zining salmog'i, puxta va aniqligi bilan hozirgi kunda ham barchani xayratga solib kelmoqda. Uning uzoq yillar davomidagi kuzatishlari natijasida Nil daryosining sathini o'zgarishiga qarab yillik yog'in miqdorini oldindan belgilash mumkinligi aniqlangan va bu borada o'sha davrda maxsus tadbirlar ishlab chiqilgan. Natijada, ekiladigan mahsulot (o'simliklar) turlari bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Bu esa qurg'oqchilik yillaridagi qiyinchiliklarni, yog'ingarchilik mo'l bo'lgan yillaridagi toshqinlarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

*Ibn Sinoning* eng mashhur asarlaridan biri "Tib qonunlari" hozirgi kunda ham minglab mutaxassislarning qo'llanmasi bo'lib kelmoqda. Turli dori-darmon va malhamamlarni tayyorlash uchun tavsiya etilgan massa va hajm birliklari uzoq muddatlar davomida g'arb davlatlarida ham foydalanib kelingan.

O'lhash nazariyasini rivojlantirish va tashkillashtirish borasida *Ulugbekning* hissasi ham beqiyos. Mashhur olim usturlob yasashning o'zgacha usulini tavsiya etgan. Uning astronomik kuzatuvlari va o'lhashlar natijasida tavsiya etgan ma'lumotlari hozirgi kunlarda o'ta zamonaviy va murakkab qurilmalari asosida olingan ma'lumotlardan juda kichik qiymatga farq qilishi ba'zi hollarda esa umuman farq qilmasligi hanuzgacha olimlarni va mutaxassislarni hayratga solib kelmoqda.

Butun dunyonи kezib chiqqan *Kaykovusning* pandroma asari "Qobusnom"da ham o'lhashlar nazariyasiga alohida ahamiyat berilgan. Asarning handasa (geometriya) ilmiga bag'ishlangan bobida o'lhashda kichik xatoliklarga e'tiborsizlik pirovard natijada katta tafovutga olib kelishi e'tirof etilgan.

O'lhashlar nazariyasining rivojlanishida g'arb olimlarining, jumladan, *Galileo Galilei*, *Nikolay Kopernik*, *Isaak Nyuton*, *Paskal*, *Dmitriy Mendeleyevlarning* ham hissalari katia. Ularning o'lhashlar borasidagi ilmiy va nazariy ishlari alohida e'tiborga loyiq.

Boshqa bir kattalik, masalan, tanovvul qilayotgan ovqatning mazasini ko'raylik. Bu kattalik hozircha o'Ichab bo'imaydigan kattaliklardan. U, odatda, faqat baholanadi. Baholash esa individual tarzda bo'lib, muayyan mezon asosida amalga oshiriladi. Bunda mezonlarning soni birdan tortib, bir nechtagacha bo'lishi mumkin. Masalan, "yaxshi" va "yomon" (2 ta mezon); "yaxshi", "yomon" va "o'rtacha" (3 ta mezon); "yaxshi", "yomon", "o'rtacha", "juda yaxshi" va "juda yomon" (5 ta mezon) va h.lar. Agar ovqatning faqat mazasi yoki soddaroq bo'lishi uchun tuzning yaxshi-yomonligini ko'rib chiqaylik. Bunda biz xuddi shu kattalikining (ya'ni tuz miqdorining) yaxshi bo'lgan qiymatini olamiz va shu qiymatga nisbatan yuqorida yoki pastda bo'lgan holatga guvoh bo'lamiz.

## 3-aksioma

*O'Ichash amalidan olingen natija tasodifiyidir*

Endi uchinchi aksioma xususida. Bir uchi ochilmagan qalam olamiz va shu qalamning 10 marta chizg'ich yordamida uzunligini aniqlaymiz. Natijalarni yozib boramiz. Shunda eng kami bilan ikki yoki uch marta olgan qiymatlarimiz boshqacharoq bo'ladi. Xo'sh, nima uchun bunday bo'lyapti? Axir obyekt va subyekt o'zgargani yo'q-ku!

Bu narsa tasodifiylik degan tushuncha bilan bog'liq. Bu tushuncha xususida bir oz keyin izoh beriladi.

Biz yuqorida qayd etilgan aksiomalarni faqat oddiygina o'Ichashlar vositasida tushuntirishga harakat qildik. Agar nisbatan murakkabroq o'Ichashlarga o'tadigan bo'lsak, bu aksiomalarning kuchini yaqqolroq sezishimiz, ko'rishimiz va anglashimiz mumkin bo'ladi.

**Metrologiyaning asosiy postulatlari.** Ushbu mavzuni ko'rib chiqishdan oldin birgalikda oddiygina bir tajriba qilib ko'ramiz:

Bir dona chiroyli olmani olamiz (haqiqiy, iste'mol qilinadigan olma). Uni biror-bir tarozida, masalan, savdo do'konlaridagi o'lhash tarozisida tortib ko'ramiz. Aytaylik, massasi 74 g chiqdi. So'ngra uni kattaroq, masalan, qoplangan mahsulotlarni tortadigan erga qo'yiladigan tarozida o'lhab ko'ramiz. Endi olgan qiymatimiz 75 g. Keyin xuddi shu olmani yuk avtomobillarining massasini (10 tonnagacha) o'lchaydigan katta tarozida o'lchaymiz. Bu tarozi olmaning massasi yo'q, deb uning og'irligini sezmaydi ham. Endi oxirgi tajriba: olmani bir necha bo'laklarga bo'lib, laboratoriya tarozisiča har bir bo'lakni tortamiz va yakuniy natijani hisoblaymiz. Olingen qiymatimiz quyidagicha bo'lishi mumkin - 74,3718 g. Qarang-a, to'rt xil o'lhash vositasida to'rt xil qiymat oldik.

Xo'sh, qaysi bir qiymatni haqiqiy deb olishimiz mumkin. Aslida, olmaning massasi qanday? Albatta, tajribada ko'rilyotgan olmaning aynan olingen qiymati mavjud. Bu qiymatni biz *chinakam* qiymat deb ataymiz.

Chinakam qiymat kattalikni miqdor jihatdan har tomonlama, bekam-u ko'st va butkul tavsiflaydigan qiymat hisoblanadi. Amino uni aniq o'lhash imkoniyati mavjud emas. Shuni ko'rib chiqamiz:

Faraz qilaylik, o'ta aniq o'lchaydigan tarozi topdik va olmaning massasini aniqlamoqchimiz. Lekin bu tarozida aniq bir to'xtamga kelgan qiymatni ololmaysiz. Chunki olmadan juda oz miqdorda (1 – 2 molekula bo'lsa ham) namlik kamayib turadi. Demak, aniq qiymatni ololmaysiz. Biz hozir aniq o'lchaydigan vosita bor deb hisoblayapmiz. Lekin aslida bunday o'lhash vositasi yo'q va bo'lmaydi ham. Nima uchun deyishingiz tabiiy, albatta. Agar o'zga sayyoraliklar kelib bizga aynan shunday, bekam-u ko'st, mutlaqo aniq o'lchaydigan asbob olib kelib berishganda ham quyidagi paradoks bo'lishi tabiiy. Metrologik nuqtayi nazardan o'lhash vositasing muayyan metrologik tavsiflari mavjud bo'lib, bu tavsiflarga ega bo'l-gandan so'nggina biz olingen natijani baholashimiz mumkin. Biz aytayotgan o'lhash vositasini metrologik tavsiflash uchun undan ham aniq o'lchaydigan boshqa asbob kerak bo'ladi. Bu xuddi analginning tarkibida kofein bor, kofeining tarkibida kodein, kodeinning tarkibida esa analgin bor, degandek gap. Xullas, kattalikning chinakam qiymatini o'lhab bo'lmaydi. Modomiki, chinakam qiymatni o'lhash imkon yo'q ekan, o'lhash amalida qiymati unga juda yaqin bo'lgan va uni o'rniiga ishlatalishi mumkin bo'lgan boshqa qiymat, ya'ni *haqiqiy qiymat* qo'llanadi. Bu xususda metrologiyaning uchta asosiy postulatlari mavjud va ularni ko'rib chiqamiz:

### 1-postulat

*O'lchanayotgan kattalikning chinakam qiymati mavjuddir.*

## 2-postulat

*Kattalikning chinakam qiymatini aniqlash mumkin emas.*

## 3-postulat

*O'lchash amalida kattalikning chinakam qiymati doimiydir.*

Endi aytishimiz mumkinki, o'lchanayotgan kattalikuung uchta qiymati bo'lar ekan:

**1. Chinakam qiymat** (uni aniqlash imkonи mavjud emas).

**2. Haqiqiy qiymat** (chinakam qiyinatga yaqin).

**3. Olingan qiymat** (tajribadan olingan qiymat).

Tabiiyki, haqiqiy qiymatni qayerdan olamiz? degan savol tug'ilishi mumkin. Yuqorida keltirgan misolimiz bo'yicha, olmani savdo do'koniga tarozisida bir necha marta takroriy o'lchab, natijalarning o'rtacha qiymatini olsak, shu **haqiqiy qiymat** deb olinishi mumkin.

### 2.3. Fizik kattaliklar birliklarining xalqaro tizimi (SI)

**Metrik tizimning vujudga kelishi va qabul qilinganligi.** Hammamizga ma'lumki, o'lchash uchun o'lchash vositalari va o'lchovlar bo'lishi lozim. Qadimdan o'lchov sifatida inson tanasining biror a'zosi, masalan, **qadam** (0,75 m), **qarich** (19 – 22,5 sm), **quloch** (166 – 170 sm), **barmoq** (20,8 – 22,8 mm), **tirsak** (50-81,3 sm), **chaqirim** qo'llanilgan. Chaqirim odam tovushini eshitish mumkin bo'lgan masofaning, taxminan 900 metr, hisobida qabul qilingan tarixiy o'lchov birligi bo'lib hisoblangan.

Og'irlik deb ataladigan massa birlklari esa **misqol** (4,095 g), **qadoq** (409,5 g), **pud** (16,38 kg), **botmon** (163,8 kg): yer maydoni yuzasining o'lchovi sifatida **tanob** (60x60 gaz) qo'llanilgan.

Don, un va shunga o'xshash mahsulotlar uchun o'lchov sifatida **lingcha** (taxminan 65 l), o'tin, paxsa devor miqdorini o'lchash uchun **sarjin** ( $0,5 \cdot 1,2 \text{ m}^3 = 1 \text{ m}^3$ ) o'lchovi mavjud bo'lgan va h.

Bu kabi o'lchovlarning har xilligi xalq orasida, ayniqsa, savdo-sotiq ishlarda kelishmovchilikka sabab bo'lgan, hatto davlatlararo munosabatlarda katta to'siqqa aylangan. Bu to'siqni bartaraf etishning birdan bir yo'li – yer yuzidagi barcha davlatlar bir xil o'lchov birligidan soydalanishga kelishib olishlari shartining bajarilishi edi. Shu tariqa birliklar tizimini yaratish g'oyasi namoyon bo'la boshladи. Birliklar tizimining asosiy shartlari quyidagi taqozo etadi: birliklar tizimi yagona va umumiy bo'lishi, ular muayyan o'lchashlarga ega bo'lishi va ularning o'zgarmas etalonlari mavjud bo'iishi kerak bo'lgan. Bularidan tashqari, har bir kattalik uchun yagona, faqat bitta birlik bo'lishi hamda karrali va ulushli birliklar

asosiy birliklardan 10, 100, 1000 va h. marta katta yoki kichik bo'lishi kerak. Birliklarni butun, o'nlik asosida qurish g'oyasi fransuz astronomi Muton (XIX asrda yashagan) tomonidan ilgari surilgan. Shunday qilib, o'lchovlarning metrik tizimining tuzilishiga asos solina boshlandi.

Metrik tizim 1875-yil 20-mayda Parijda 20 ta mamlakat vakillarining konferensiyasida qabul qilingan va *Metrik Konvensiya* nomini olgan. *Metrik Konvensiya* metrologiya bo'yicha ilmiy faoliyat ko'rsatuvchi birinchi xalqaro kelishuv hisoblanadi. Konvensiya metrik etalonlarni saqlash va tekshirish uchun ilmiy muassasa sifatida *O'lchovlar va tarozilar xalqaro byurosi* (*O'TXB*)ni ham ta'sis etdi.

Konvensiyaga 17 ta mamlakatning muxtor vakillari imzo qo'yishdi. Angliya, Gollandiya, Rossiya va Gretsiya O'TXB funksiyalari to'g'risida alohida mulohazalarga amal qilishgan edi. Shu sababli o'sha vaqida Konvensiyaga imzo qo'yishmagan, faqat bir qancha yillardan keyingina unga qo'shilishdi.

1889-yil birinchi *O'lchovlar va tarozilar bosh konferensiyasi* (*O'TBK*)da metr va kilogramning prototip (timsoli)larini va uch o'lchovli mexanik birliklarining tizimi **MKS** (metr, kilogramm, sekund) tasdiqlandi.

Rossiyada o'lchovlarning metrik tizimi 1899-yil 4-iyun kuni qonun bilan ixtiyoriy tartibda qo'llanishga, majburiy tartibda esa Rossiya XKSning 1918-yil 14.09dagagi dekretiga muvofiq qo'llanishga qabul qilingan.

1901-yilda uchinchi O'TBKda kilogramning xalqaro prototipi massa o'lchov birligi sifatida tasdiqlandi. Italiyatik olim Jorjining mexanik birliklar tizimi birlashtirilishi va to'rt o'ichov birligini qabul qilish taklifi qo'llab-quvvatlandi (**MKSA** – metr-kilogramm-sekund-amper yoki Om).

1921-yilga kelib, yettinchi O'TBKda Metrik Konvensiyani qayta ko'rib chiqish va O'TXB vazifalarini kengaytirish masalalari ko'rib chiqilgan.

1946-yili O'TBKda to'rt o'lchov birligi **MKSA** (*metr-kilogramm-sekund-amper*) tasdiqlandi.

1948-yili to'qqizinchli O'TBKda mavjud birliklar tizimiga to'rt o'lchov birligi qabul qilindi.

1951-yili o'tkazilgan O'TBKda yangi asosiy birliklar -- kelvin, kandelalar kiritilgan.

1960-yili o'n birinchi O'TBKda birliklarning yagona **xalqaro birliklar tizimi** (**SI**) qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi.

Qabul qilingan SIga uchta birliklar sinfi kirar edi: asosiy, hosilaviy va qo'shimcha (radian va steradian). O'TBKda radian va steradian birligi "qo'shimcha" deb tasriflandi, uning asosiy yoki hosilaviy ekanligi to'g'risidagi masala ochiq qoldirildi. Bu birliklarning ikkilanma tushunishni

bartaraf etish maqsadida O'TXB 1980-yil qo'shimcha SI birliklar sinfini o'lchamsiz hosilaviy birliklar sinfi deb tushunishga qaror qildi.

**Xalqaro birliklar tizimining rivojlanishi.** 1967-yili o'n uchinchi O'TBKda qo'zg'algan Seziy-133 atomining nurlanishi asosida sekund ta'rifiga, kandela ta'rifiga, suvning uchlasmchi nuqtasining termodinamik haroratidan kelvin ta'rifiga aniqlik kiritildi va qabul qilindi. Unga binoan, sekund Seziy-133 atomi asosiy holatining ikki o'ta nozik sathlari orasidagi bir-biriga o'tishiga muvofiq keladigan nurlanishning 9192631770 davridir.

**Kelvin** bu termodinamik harorat birligi bo'lib, u suvning uchlannia nuqtasi termodinamik haroratning  $1/273,16$  qismiga teng [**XII O'TBK** (1957-y.) 4-qaror].

**Kandela** bu berilgan yo'nalishda  $540 \cdot 10^{12}$  Hz chastotali monoxromatik nurlanishni tarqatuvchi va shu yo'nalishda energetik yorug'lik kuchi  $1/683$  W/sm ni tashkil etuvchi manbaning yorug'lik kuchidir. [**XVI O'TBK** (1979-y.) 3-qaror].

1971-yili o'n to'rtinchi O'TBKda Xalqaro birliklar tizimiga yangi asosiy birlik mol' kiritilgan. **Mol** bu massasi  $0,012$  kg bo'lgar uglerod- $12$ da qancha atom bo'lsa, o'z tarkibiga shuncha elementlarni olgan tiziiring modda miqdoridir. Molni tatbiq etishda modda elementlari gurunlangan bo'lishi lozim va ular atom, molekula, ion, elektron va boshqa zarrachalar guruhlardan iborat bo'lishi mumkin.

1979-yili o'n oltinchi O'TBKda yorug'lik kuchi birligi **Kandelaning** yangi ta'rifi qabul qilindi (kandelaning yangi ta'rifi yuqorida keltirilgan).

1983-yili o'n yettinchi O'TBKning qarorlariga muvofiq uzunlik birligi – **metri** yangi ta'rifi bo'yicha tekis elektromagnit to'lqinlarining vakuumda tarqalish tezligi qiymati  $s_{\sigma}=299792458$  m/sga teng deb qabul qilingan. Bu englamaga, shuningdek, qiymati  $8,854187817 \cdot 10^{12}$  F/m teng deb qabul qilingan vakuumning elektrik doimiyligi  $\epsilon_0$  ham kiradi.

Elektr birliklari o'lchamlarining aniqligini **Jozefson effekti** va **Xoll kvart effekti** asosida amalga oshirish maqsadida O'TXB tomonidan 1990-yil 1-yanvardan boshlab **Jozefson konstantasining** shartli qiymati  $K_{\sigma}=483579 \cdot 10^{12}$  Hz/v (aniq) [O'TXK 1-tavsiysi 1988-yil] va Klitsing konstantasining shartli qiymati  $R_{k-\sigma}=25812,807$   $\Omega$  [**O'TXK** 2-tavsiysi 1988-yil] deb kiritildi.

1995-yil yigirmanchi O'TBK (8-qaror) SIdan qo'shimcha birliklar sinfini olib tashlashga, boshqa hosilaviy SI birliklari uchun ifodalarda qo'laniш yoki qo'llanmasligi mumkin bo'lgan radian va steradianni SIning o'lchamsiz hosilaviy birliklari deb atashga qaror qildi.

2001-yil yigirma birinchi O'lchovlar va Tarozilar Bosh Konferensiyasida Siga "**katal**" katalizator aktivlik birligi kiritildi.

2005-yili Harorat bo'yicha maslahat qo'mitasi tomonidan suvning uchlamchi nuqtasining ampulasi uchun suvning izotop tarkibi aniqlandi. Shunday qilib, hozirda o'chashlarni qabul qilishda, fanda, amaliyotda, iqtisodda qo'llanish berasida 7 ta asosiy kattaliklar birliklari ishlatalib kelinmoqda (2.1-jadval). Ushbu asosiy kattaliklar asosida ularning hosilaviy birliklari hamda *o'nli, yuzli va mingli karrali ulushlari* keng doirada qo'llanilmogda.

Hozirda xalqaro birliklar tizimining yangilangan metrik tizimi dunyoning 130dan ortiq davlatlarida foydalaniлади.

### 2.1-jadval

#### Asosiy kattaliklar

Kattaliklar		Birliklari	
Nomi	O'lchamligi	Nomi	Belgisi
<b>Uzunlik</b>	<i>L</i>	metr	m
<b>Massa</b>	<i>M</i>	kilogramm	kg
<b>Vaqt</b>	<i>T</i>	sekund	s
<b>Elektr toki (elektr tokining kuchi)</b>	<i>I</i>	amper	A
<b>Termodinamik harorat</b>	<i>θ</i>	kelvin	K
<b>Modda miqdori</b>	<i>N</i>	mol	mol
<b>Yorug'lik kuchi</b>	<i>J</i>	kandela	cd

Dastavval Metrik konvensiyaga 17 ta davlat imzo qo'ygan bo'lsa, hozirda konvensiyaga qo'shilgan davlatlarning soni 51ga yetdi. Xalqaro metrologik faoliyatning samaradorligini oshirish va kattalik birliklarining milliy etalonlarining ekvivalentligini ta'minlash uchun konvensiyadagi doimiy a'zolari (51 davlat)dan tashqari, yana bir mavqe – assotsiatsiyalangan davlatlar ham nazarda tutilgan. Hozirgi vaqtida Metrik konvensiyaning assotsiatsiyalangan a'zosi sifatida 17 davlat kiradi. Bular qatorida Respublikamizning metrologik faoliyati bo'yicha yaqin hamkorlarimiz Belorussiya va Ukiainalar ham bor. 2.4-rasmda Metrik tizim va uning rivojlanish chizmasi keltirilgan.



**2.4-rasm.** *Fan va texnikaning turli sohalarida qo'llanilib kelgan dustlabki metrik tizimning tuzilmasi va shu asosda SIning yaratilishi.<sup>4</sup>*

**Xalqaro birliklar tiziminining (SI) asosiy va hosilaviy birliklari.** 1960-yilda O'lchov va Tarozilarning XI Bosh Konferensiysi Xalqaro birliklar tizimini qabul qilgan. Mamlakatimizda bu SI (Système international) xalqaro tizimi deb yuritiladi. Keyingi Bosh konferensiyalarda SI tizimiga bir qator o'zgartirishlar kiritilib, hozirgi holati va birliklarga kiritilgan qo'shimchalar va ko'paytirgichlar haqidagi ma'lumotlar 2.2- va 2.3-jadvallarda keltirilgan.

### Birliklarni va o'lchamlarni belgilash va yozish qoidalari

Kattaliklarning birliklarini belgilash va yozish borasida standartlar asosida me'yorlangan tartib va qoidalari mavjud. Bu qoidalari va tartiblar O'zDSt 8.012:2005 standartida atroflicha yoritilgan.

**2.2-jadval**

### Birliklarni va o'lchamlarni belgilash va yozish qoidalari

Kattalik		Birlik		
Nomi	O'lcha mliligi	Nomi	Belgi si	Ta'rif
Uzunlik	L	metr	m	Metr – yorug'likning $1/299792458$ s vaqt oraiig'ida vakuumda bosib o'tadigan

<sup>4</sup> MKS – metr, kilogramm, sekund; MKSA – metr, kilogramm, sekund, amper; MKSK – metr, kilogramm, sekund, kelvin; MSK – metr, sekund, kandela, SI – xalqaro birliklar tizimi

				masofasi
Massa	$M$	kilo-gramm	kg	Kilogramm massa birligi, xalqaro kilogramm timsolining massasiga teng
Vaqt	$T$	sekund	s	Sekund seziy-133 atomi asosiy holatining ikki o'ta nozik sathlari orasidagi bir-biriga o'tishiga muvofiq keladigan nurlanishning 9192631770 davri
Elektr toki (elektr tokining kuchi)	$I$	amper	A	Amper vakuumda bir-biridan 1 m oraliqda joylashgan, cheksiz uzun, o'ta kichik du-maloq ko'ndalang kesimli ikki parallel to'g'ri chiziqli o'tkazgichlardan tok o't-ganda o'tkazgichning har 1 m uzunligida $2 \cdot 10^{-7}$ N ga teng o'zaro ta'sir kuchini hosil qila oladigan o'zgarmas tok kuchi.
Termodinamik harorat	$\theta$	kelvin	K	Kelvin termodinamik harorat birligi bo'lib, u suvning uchlanma nuqtasi termodinamik haroratning $1/273,16$ qismiga teng
Modda miqdori	$N$	mol	mol	Mol massasi 0,012 kg bo'lgan uglerod - i2 da qancha atom bo'lsa, o'z tarkibiga shuncha elementlarni olgan tizimning modda miqdori. Molni ttabiq etishda elementlari guruhlangan bo'lishi lozim va ular atom, molekula, ion, elektron va boshqa zarrachalar guruhlaridan iborat bo'lishi mumkin
Yorug'lik kuchi	$J$	kandela	ed	Kandela berilgan yo'nalishda 540-10 Hz chastotali monoxromatik nurlanishni tarqatuvchi va shu yo'nalishda energetik yorug'lik kuchi $1/683$ W/srni tashkil etuvchi inanbaning yorug'lik kuchi.

*Izohlar:*

1. Kelvin haroratidan (belgisi  $T$ ) tashqari  $t = T - T_0$  ifoda bilan aniqlanuvchi Selsiy harorati ham (belgisi  $t$ ) qo'llanadi, bu yerda ta'rif bo'yicha  $T=273,15$  K. Kelvin harorati kelvitar bilan, Selsiy harorati Selsiy graduslari bilan ifodalanadi (xalqaro va o'zbekcha belgisi  $^{\circ}S$ ). O'lichovi bo'yicha Sel'siy gradusi Kelvinga teng. Selsiy gradusi bu "kelvin" nomi o'miga ishlatiladigan maxsus nomi.

2. Kelvin haroratlarining ayirmasi yoki oralig'i kelvinlar bilan ifodalanaadi. Selsiy haroratlari ayirmasini yoki oralig'ini kelvinlar bilan ham, Selsiy graduslari bilan ham ifodalashga ruxsat etiladi.

3. Xalqaro amaliy harorat belgisini 1990-yilgi xalqaro harorat shkalasida ifodalash uchun, agar uni termodinamik haroratdan farqish lozim bo'lsa, unda termodinamik harorat belgisiga "90" indeksi qo'shib yoziladi (masalan,  $T_{90}$  yoki  $t_{90}$ ).

SIning hosilaviy birliklari SIning kogerent hosilaviy birliklarini hosil qilish qoidalariiga muvofiq keltirib chiqariladi. SIning asosiy birliklaridan foydalaniib keltirib chiqarilgan SIning hosilaviy birliklarining namunalari 2.2-jadvalda keltirilgan.

SIning maxsus nomiga va belgilanishiga ega bo'lgan hosilaviy birliklari 2.3-jadvalda ko'rsatilgan. SIning elektr va magnit kattaliklarining birliklarini elektromagnit maydoni tenglamalarini ratsionallashtirilgan shakliga muvofiq hosil qilish lozim. Bu tenglamalarga vakuumning magnit doimiyligi  $\mu_0$  kiradi. Uning aniq qiymati  $4\pi \cdot 10^{-7}$  H/m yoki  $12,566\ 370\ 614... \cdot 10^7$  H/m (aniq).

### 2.3-jadval

#### Xalqaro birliklar tizimi (SI)ning asosiy birliklari yordamida tuzilgan hosilaviy birliklarning nomi va belgilanishi

Kattalik		Birlik		
Nomi	O'icha mliligi	Nomi	Belgisi	
Hajm, sig'diruvchanlik	$L^3$	metr kubi	$m^3$	$m^3$
Tezlik	$LT^{-1}$	metr taqsim sekund	$m/s$	$m/s$
Zichlik	$L^3 M$	kilogramm taqsim metr kub	$kg/m^3$	$kg/m^3$
To'lqin son	$L^{-1}$	metr darajasi minus bir	$m^{-1}$	$m^{-1}$
Solishtirma hajm	$L^3 M^{-1}$	metr kub taqsim kilogramm	$m^3/kg$	$m^3/kg$
Elektr toki zichligi	$L^{-2} I$	amper taqsim metr kvadrat	$A/m^2$	$A/m^2$
Magnit maydonining kuchlanganligi	$L^{-1} I$	amper taqsim metr	$A/m$	$A/m$
Komponentning molar konsentratsiyasi	$L^{-3} N$	mol taqsim metr kub	$mol/m^3$	$mol/m^3$
Ravshanlik	$L^{-2} J$	kandela taqsim metr kvadrat	$cd/m^2$	$kd/m^2$

2.4-jadvalga yassi burchak birligi – radian hamda fazoviy burchak birligi – steradian kiritilgan.

Xalqaro birliliklar tizimini 1960-yili XI o'Ichovlar va tarozilar bosh konferensiyasida qabul qilishda uchta birliliklar sinfi kirar edi: asosiy, hosilaviy va qo'shimcha (radian va steradian). O'TBK radian va steradian birligini "qo'shimcha" deb tasnifladi, uning asosiy yoki hosilaviy ekanligi to'g'risidagi masalani ochiq qoldirdi

XVII o'Ichovlar va tarozilar bosh konferensiyasining (1983-yil) qarorlariga muvofiq uzunlik birligi – metri yangi ta'rifi bo'yicha, tekis elektromagnit to'lqinlarining vakuumda tarqalish tezligining qiymati  $s_0$  - 299792458 m/s ga teng deb qabul qilingan. Bu tenglarnaga, shuningdek, qiymati  $8,854187817 \cdot 10^{-12}$  F/m teng deb qabul qilingan vakuumning elektrik doimiyligi  $\epsilon_0$  ham kiradi.

#### 2.4-jadval

**Xalqaro birliliklar tizimi (SI)ning maxsus nomi va belgilanishga ega bo'lgan hosilaviy birliliklari**

Kattalik	O'ichamlli-gi	Nomii	Birlik			Sining asosiy va hosilaviy birliliklari orqali ifodalanishi
			Belgisi	Xalqaro	Ruscha	
Chastota	$T^1$	gers	Hz	Gs		$s^{-1}$
Kuch	$LMT^2$	nyuton	N	N		$m \cdot kg \cdot s^{-2}$
Bosim	$L^2MT^2$	paskal	Pa	Pa		$m^{-1} \cdot kg \cdot s^{-2}$
Energiya, ish, issiqlik miqdori	$L^3MT^2$	joul	J	Dj		$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2}$
Quvvat	$L^2MT^3$	vatt	W	Vt		$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3}$
Elektr zaryadi, elektr imiqdori	$TI$	kulon	S	Kl		$s \cdot A$
Elektr kuchlanish, elektr quvvat, elektr quvvatlar ayirmasi, elektr yurituvchi kuch	$L^2MT^3T^1$	volt	V	V		$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3} \cdot A^{-1}$
Elektr sig'imi	$L^2M^{-1}T^1I^2$	farad	F	F		$m^{-2} \cdot kg^{-1} \cdot s^4 \cdot A^2$
Elektr qarshilik	$L^2M^1T^1I^2$	om	$\Omega$	Om		$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3} \cdot A^2$
Elektr o'tkazuvchanlik	$L^2M^1T^1I^2$	simens	S	Sm		$m^{-2} \cdot kg^{-1} \cdot s^3 \cdot A^{-2}$
Selsiy harorati	$\theta$	selsiy gradusi	$^{\circ}S$	$^{\circ}S$		K
Yorug'lik oqimi	$J$	lyumen	lm	lm		$cd \cdot sr$
Yoritilganlik	$L^{-1}J$	lyuks	Ix	Ik		$m^{-2} \cdot cd \cdot sr$
Katalizator aktivligi	$NT^1$	katal	kat	kat		$mol \cdot s^{-1}$

*Izoh* – O'TXBning 1- va 2- tavsiyalari elektr yurituvchi kuch birligi volt va elektr qarshilik birligi – Öm ta'rifi Xalqaro birliklar tizimida qayta ko'rib chiqilgan degan ma'noni bildirmaydi.

Elektr birliklari o'lchamlarining aniqligini Jozefson effekti va Xoll kvant effekti asosida oshirish maqsadida o'lchovilar va tarozilar xalqaro byurosi tomonidan 1990-yil 1-yanvardan boshlab Jozefson konstantasining shartli qiymati  $K_{k-90} = 4,83579 \cdot 10^{14}$  Hz/V [O'TXB 1 – tavsiyasi, 1988 yil] va Kltsing konstantasining shartli qiymati  $R_{k-90} = 25812,807 \Omega$  [O'TXB, 2 – tavsiyasi, 1988-yil] deb kiritildi.

2.5-jadval

### Xalqaro birliklar tizimi (SI)ning nomi va belgilanishi yordamida tuzilgan hosilaviy birliklari

Kattalik		Birlik			
Nomi	O'lchamli ligi	Nomi	Belgisi		Sining asosiy va hosilaviy birliklari orqali ifodalanishi
			Xalqaro	Ruscha	
Dinamik qovushqoqlik	$MT^2$	Nyuton taqsim metr	N/m	N/m	$\text{Kg} \cdot \text{s}^{-1}$
	$L^2 MT^{-1}$	Paskal-sekund	Pa·s	Pa·s	$\text{m}^{-1} \cdot \text{kg} \cdot \text{s}^{-1}$
Elektr zaryadning zichligi	$L^3 TI$	Kulon taqsim metr kub	$\text{S}/\text{m}^3$	$\text{Kl}/\text{m}^3$	$\text{m}^{-3} \cdot \text{s} \cdot \text{A}$
Dielektrik singdiruvchanlik	$L^3 M^{-1} T^2 F$	Farad taqsim metr	F/m	F/m	$\text{m}^3 \cdot \text{kg}^{-1} \cdot \text{s}^4 \cdot \text{A}^2$
Solishtirma energiya	$L^2 T^2$	Joul taqsim kilogramm	d/kg	Dj/kg	$\text{m}^2 \cdot \text{s}^{-2}$
Tizim issiqlik sig'imi, tizim energiyasi	$L^2 MT^2 \Theta^{-1}$	Joul taqsim kelvin	J/K	Dj/kg	$\text{m}^2 \cdot \text{kg} \cdot \text{s}^{-2} \cdot \text{K}^{-1}$
Solishtirma issiqlik sig'imi, Solishtirma energiya	$L^2 T^4 \Theta^{-4}$	Joul taqsim kilogramm-kelvin	J (kg · K)	Dj/(kg · K)	$\text{m}^2 \cdot \text{s}^{-2} \cdot \text{K}^{-1}$
Issiqlik o'tkazuvchanlik	$LMT^4 F^1 \Theta^1$	Vatt taqsim metr-kelvin	$W/(\text{m} \cdot \text{K})$	$Vt/(\text{m} \cdot \text{K})$	$\text{m} \cdot \text{kg} \cdot \text{s}^{-3} \cdot \text{K}^{-1}$
Molning ichki energiyasi	$L^2 MT^2 N^1$	Joul taqsim mol	J/mol		
Mol entropiya, mol issiqlik sig'imi	$L^2 M T^2 \Theta^1 N^1$	Joul taqsim mol-kelvin	J/(mol · K)	Dj/(mol · K)	$\text{m}^2 \cdot \text{kg} \cdot \text{s}^{-2} \cdot \text{K}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}$

Birliklarni ikkilanma tushunishni bartaraf qilish maqsadida O'Ichovlar va tarozilar xalqaro komiteti 1980-yil (1-tavsiya) qo'shimcha SI birliklari sinfini o'chamsiz hosilaviy birliklar sinfi deb tushunishga qaror qildi.

O'TBK hosilaviy SI birliklari uchun ifodalarda ularni qo'llash yoki qo'llamaslikni ochiq qoldirdi. 1995-yil XX O'TBK (8-qaror) SIdan qo'shimcha birliklar sintini olib tashlashga, boshqa hosilaviy SI birliklari uchun ifodalarda qo'llanish yoki qo'llanilmasligi mumkin bo'lgan (zaruratga ko'ra) radian va steradianni SIning o'chamsiz hosilaviy birliklari deb atashga qaror qildi.

### 2.6-jadval

**Xalqaro birliklar tizimi (SI)ga kirmaydigan birliklar SI birliklari bilan bir qatorda qo'llashga ruxsat etiladigan tizimdan tashqari birliklar**

Kattalik nomi	Nooni	Birlik			Foydalananish sohasi
		Xalqaro	Ruscha	SI birligi bilan o'zaro bog'lanishi	
Massa	Tonna	L	T	$1 \cdot 10^3$ kg	hamma sohada
	Massaning atom birligi	Pa·S	a.s.m	$1,6605402 \cdot 10^{-27}$ kg (taxminan)	Atom fizikasi
Vaqt	Minut soat sutka	min h d	min ch s	60 s 3600 s 86400 s	hamma sohada
Hajm, sig'diruvchanlik	metr	L	I	$1 \cdot 10^{-3} \cdot m^3$	hamma sohada
Energiya	Elektron-volt	eV	ev	$1,60218 \cdot 10^{-9}$ J (tahminan)	fizika
	Kilovatt-soat	KW·h	kVt·ch	$3,6 \cdot 10^6$ J	Elektr energiyasi hisoblagichlari uchun
Elektr zaryadi, elektr miqdori	Amper-soat	A·h	A·ch	$3,6 \cdot 10^6$ S	Elektr texnika
To'liq quvvat	Volt-amper	V·A	V·A		Elektr texnika
Reaktiv quvvat	Var	var	var		Elektr texnika

**SI birliklari bilan tizimdan tashqari ba'zi birliklarning  
o'zaro bog'lanishi**

Kattalik nomi	Birlik				SI birligi bilan o'zaro bog'lanishi	
	Nomii	Belgisi				
		Xalqaro	Ruscha			
Uzunlik	angestrem	Å	Å	$1 \cdot 10^{-10}$ m		
Bosim	mm s.u	mmHg	mm rt.st	133,322 Pa		
	torr	torr	-	133,322 Pa		
Dinamik qovushqoqlik	puaz	P	P	0,1 Pas		
Kinematik qovushqoqlik	stoks	st	st	$1 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2/\text{s}$		
Solishtirma elektr qarshiligi	Om-millimetrikvadrat taqsim metr	$\Omega \text{mm}^2/\text{m}$	$\Omega \text{mm}^2/\text{m}$	$1 \cdot 10^{-6} \Omega \cdot \text{m}$		
Issiqlik miqdori, termodinamik quvvat (ichki energiya, entalpiya, izoxor-izotermik potensial), fazoviy o'zgarish issiqligi, ximiyaviy reaksiya issiqligi	Kaloriya (xalqaro)	cal	kal	4,1868 j (aniq)		
	Kaloriya termoximiyyiyiy	cal <sub>th</sub>	kal <sub>rx</sub>	4,1840 j (taxminan)		
	Kaloriya 15-gradusli	cal <sub>15</sub>	kal <sub>15</sub>	4,1855 j (taxminan)		
Uzunlik	mikron	μ	mk	$1 \cdot 10^{-9}$ m		
Burilish burchagi	aylanish	r	ob	$2\pi \text{rad} = 6,28 \text{ rad}$		

**Xalqaro birliklar tizimi birliklar – o'nli karrali hamda ulushli birliklarning nomlari va belgilarini hosil qilish qoidalari.** SIning o'nli karrali va ulushli birliklarning nomlari va belgilanishi 2.8-jadvalda keltirilgan ko'paytuvchi va old qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi.

**SIning o'nli karrali va ulushli birliklarning nomlari va belgilanishini hosil qilish uchun foydalaniladigan ko'paytuvchi va old qo'shimchalar**

O'nli ko'paytuvchi	Old qo'shimcha	Old qo'shimcha belgisi	O'nli ko'paytuvchi	Old qo'shimcha	Old qo'shimcha belgisi
$10^{-24}$	iota	Y	$10^{-1}$	desi	d
$10^{-21}$	zetta	Z	$10^{-2}$	santi	s
$10^{-18}$	eksa	E	$10^{-3}$	milli	m
$10^{-15}$	peta	R	$10^{-6}$	mikro	u

$10^{12}$	tera	T	$10^{-9}$	nano	n
$10^9$	giga	G	$10^{-12}$	piko	p
$10^6$	mega	M	$10^{-15}$	femto	f
$10^3$	kilo	k	$10^{-18}$	atto	a
$10^2$	gekto	h	$10^{-21}$	zepto	z
$10^1$	deka	da	$10^{-24}$	iokto	y

### Izohlar:

1. Asosiy birlikning nomi – kilogramm “kilo” old qo’shimchasiga ega bo’lganligi sababli massaning karrali va ulushli birliklarini hosil qilish uchun massaning ulushli biriigi – gramm (0,001 kg) ishlataladi va old qo’shimchalar “gramm” so’ziga qo’shib yozilishi lozim, masalan, mikrokilogramm ( $\mu\text{kg}$ ) o’rniga milligramm (mg).

2. Massaning ulushli birligi – gramni old qo’shimchasiz ishlatalishga ruxsat etiladi (birlikning belgisi – g).

Birlikning nomiga yoki belgisiga ikki yoki undan ko’proq old qo’shimchalarni ketma-ket qo’shishga yo’i qo’yilmaydi. Masalan, birlik nomi mikromikrofarad o’rniga pikofarad yozilishi kerak.

Old qo’shimcha yoki uning belgisi birlikning nomiga yoki mos holda, belgisiga qo’shib yozilishi lozim.

Agar birlik birliklar ko’paytmasi yoki nisbati ko’rinishida tuzilgan bo’lsa, u holda old qo’shimchani yoki uning belgisini ko’paytma yoki nisbatga kiruvchi birinchi birlik nomiga yoki belgisiga qo’shib yozish lozim.

*To’g’ri:*

kilopaskal-sekund      paskal-kilosekund taqsim  
taqsim metr ( $\text{kPa}\cdot\text{s}/\text{m}$ ).      metr ( $\text{Pa}\cdot\text{s}/\text{m}$ ).

*Noto’g’ri:*

Asoslangan hollarda, bunday birlıklar keng tarqalgan hollarda bandning birinchi qismiga muvofiq tuzilgan birliklarga o’tish qiyin bo’lsa, old qo’shimchani ko’paytmaning ikkinchi ko’paytuvchisiga yoki nisbatning maxrajida ishlatalishiga ruxsat etiliadi, ya’ni, masalan, tonnakiometr ( $\text{t}\cdot\text{km}$ ), volt taqsim santimetrit ( $\text{V}/\text{sm}$ ), amper taqsim millimetrikvadrat ( $\text{A}/\text{mm}^2$ ).

Darajaga ko’tarilgan birlikning karrali va ulushli birliklar nomi old qo’shimchani asosiy birlik nomiga qo’shib yozish bilan hosil qilinadi. Masalan, yuza birligining karrali yoki ulushli birligini hosil qilish uchun old qo’shimchani asosiy birlik – metrga qo’shish kerak, kilometrning kvadrati, santimetring kvadrati va h.

Darajaga ko'tarilgan birlik olingan karrali va ulushli birliklarning belgilarini shu daraja ko'rsatkichini mazkur birlikdan olingan karra yoki ulush belgisiga qo'shib tuzish lozim, shunda ko'rsatkich karrali (yoki ulushli) birlikning (old qo'shimcha bilan birga) darajaga ko'tarilganligini ifodalaydi.

*Misollar:*

1.  $5 \text{ km}^2 = 5(10^3 \text{ m})^2 = 5 \cdot 10^6 \text{ m}^2;$
2.  $250 \text{ sm}^3/\text{s} = 250(10^{-2} \text{ m})^3/\text{s} = 250 \cdot 10^{-6} \text{ m}^3/\text{s};$
3.  $0,002 \text{ sm}^{-1} = 0,002(10^{-2} \text{ m})^{-1} = 0,002 \cdot 100 \text{ m}^{-1} = 0,2 \text{ m}^{-1}.$

Kattaliklar qiymatini yozish uchun birliklarni harflar yoki maxsus belgilar (...°, ...', ...») bilan belgilash lozim.

Birliklarning harfli belgilari to'g'ri shrift bilan bosilishi kerak. Birliklar belgilarida nuqta qisqartirish belgisi sifatida qo'yilmaydi.

Birliklarning belgilari kattaliklarning raqamli qiymatlardan keyin shu satrda (boshqa satrga o'tkazmasdan) joylashtirilishi lozim. Agar birlik belgisi oldidagi sonli qiymat egri chiziqli kasr ko'rinishida bo'lsa, u qavsga olinishi kerak.

Sonning oxirgi raqami va birlikning belgisi orasida bir harfli ochiq joy qoldirish lozim:

<i>To'g'ri:</i>	<i>Noto'g'ri:</i>
100 kW;	100kW;
80 %;	80%;
20 °S;	20°S;
(1/60) s <sup>-1</sup> .	1/60/s <sup>-1</sup> .

istisno hollarda satr ustiga ko'tarilib qo'yiladigan maxsus belgi va son o'rtaida ochiq joy qoldirilmaydi.

<i>To'g'ri:</i>	<i>Noto'g'ri:</i>
20°.	20 °.

Kattalikning sonli qiymatida o'nli kasr borligida birlikning belgisini hamma raqamlardan keyin joylashtirish lozim.

<i>To'g'ri:</i>	<i>Noto'g'ri:</i>
423,06 m	423 m 0,6
5,758° yoki 5°45,48'	5°758 yoki 5°45',48
yoki 5°45'28,8».	yoki 5°45'28»,8.

Kattaliklar qiymatlari chegaraviy og'ishlari bilan ko'rsatilganda sonli qiymatlari chegaraviy og'ishlari bilan qavs ichiga olinishi va birlikning belgisi qavsdan keyin qo'yilishi lozim. Yoki biriiklar belgisi kattalikning sonli qiymatidan keyin va uning chegaraviy og'ishidan keyin qo'yiladi.

$$\begin{array}{ll}
 To'g'ri: & Noto'g'ri: \\
 (100,0 \pm 0,1) \text{ kg} & 100,0 \pm 0,1 \text{ kg} \\
 50 \text{ g} \pm 1 \text{ g.} & 50 \pm 1 \text{ g.}
 \end{array}$$

Birliklar belgisi jadvalning ustun sarlavhalarida va satr nomlarida (yonboshlarida) qo'llanishiga yo'l qo'yiladi.

2.9-jadval

Nominal sarf, m <sup>3</sup> /h	Ko'rsatuvlarning, yuqori chegarasi, t <sup>3</sup>	Rolikning oxirgi o'ng tomonidagi bo'linmasining qiymati, t <sup>3</sup> , ko'pi bilan
40 va 60	100 000	0,002
100, 160, 250, 400, 600 va 1000	1 000 000	0,02
2500, 4000, 6000 va 10 000	10 000 000	0,2

2.10-jadval

Ko'rsatkich nomi	Tortish quvvatidagi qiymati, kW		
	18	25	37
Tashqi o'lchamlari, mm:			
Uzunlik	3080	3500	4090
Eni	1430	1 685	2395
Balandligi	2 190	2745	2770
Koliya, mm	1090	1 340	1 823
Oraliq, mm	275	640	345

Birliklar belgilarini formuladagi kattaliklarning belgilariga berilgan izohlarda qo'llashga ruxsat etiladi. Birliklar belgilarini kattaliklar o'rta sidagi yoki ularning son qiymatlari o'rta sidagi bog'lanishni ifodalovchi harflar shaklida keltirilgan formulalar bilan bir satrda joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

To'g'ri.

$$v = 3,6 \text{ s/t},$$

Noto'g'ri:

$$v = 3,6 \text{ s/t km/h},$$

bu yerda:  $v$  – tezlik, km/h;  $s$  – vaqt, s.  
 $s$ .

Ko'paytmaga kiruvchi birliklarning harfli belgilarini ko'paytma belgilaridek o'rta chizig'iga qo'yilgan nuqtalar bilan ajratish lozim. Bu maqsadda "x" belgisidan foydalanish mumkin emas.

To'g'ri:

$$N \cdot m;$$

$$A \cdot m^2;$$

$$Pa \cdot s.$$

Noto'g'ri:

$$Nm;$$

$$Am^2;$$

$$Pas.$$

Ko'paytmaga kiruvchi birliklarning harfli belgilarini, aqar bu anglashilmovchilikka olib kelmasa, ochiq joy qoldirib ajratishga yo'l qo'yiladi.

Birliklar nisbatining harfli beigilarida bo'lish belgisi sifatida faqat bitta qiya yoki gorizontal chiziq ishlatalishi lozim. Birliklar belgisining ko'paytmasi sifatida darajaga (musbat va manfiy) ko'tarilgan birliklar belgisi qo'llanishi mumkin.

Nisbatga kiruvchi birlikning birontasiga manfiy daraja ko'rinishida belgi kiritilgan bo'lsa (masalan,  $s^{-1}$ ,  $m^{-1}$ ,  $K^{-1}$ ,  $s^{-1}$ ), unda qiya yoki gorizontal chiziqnı qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

$$To\text{'g'ri}: \frac{W}{m^2 \cdot K}; \quad Noto\text{'g'ri}: \frac{W}{m^2 / K};$$

$$\frac{W}{m^2 \cdot K} \quad \frac{W}{\frac{m^2}{K}}$$

Qiya chiziq qo'llanganda suratdagi va maxrajdagi birliklar belgilarini bir satrda joylashtirish lozim, maxrajdagi birliklar belgilarining ko'paytmasi qavs ichiga olinadi.

$$To\text{'g'ri}: \frac{m/s}{W/(m \cdot K)}; \quad Noto\text{'g'ri}: \frac{m/s}{W/m \cdot K}.$$

Ikki va undan ortiq birliklardan tashkil topgan hosilaviy birlik ko'rsatilganda birliklarning belgisini va nomlarini kombinatsiyalash yoki bir birliklarning belgisini boshqalarining o'rniga keltirishga yo'l qo'yilmaydi.

$$To\text{'g'ri}: \frac{80 km/h}{80 \text{ kilometr soatiga}}; \quad Noto\text{'g'ri}: \frac{80 km/soat}{80 \text{ km soatiga}}$$

Maxsus belgilari birikmalarini ..., ..., ..., % va %<sub>oo</sub> birliklarning harfli belgilari bilan birgalikda ishlatalishga yo'l qo'yiladi, masalan, ...%/s.

## 2.11-jadval

### Axborot miqdori birliklari

	Birlik			Iloh
	Nomi	Belgi	Qiymati	
Axborot miqdori	Bit <sup>(1)</sup> bayt <sup>(2)(3)</sup>	bit V (byte)	1 1 V = 8 bit	Ikkilik sanoq tizimidagi axborot birligi (ikkilik axborot birligi)

<sup>1)</sup> "Axborot miqdori" atamasi axborotni raqamli qayta ishlash va uzatish qurilmalarida, masalan, raqamli hisoblash texnikasi (kompyuter)da eslab qoluvchi qurilmalar hajmini, kompyuter dasturida foydalilaniladigan xotira miqdorini yozishda qo'llanitadi.

<sup>2)</sup> IEC 600272 xalqaro standartiga muvofiq "bit" va "bayt" birliklari SI old qo'shimchaari bilan qo'llaniladi.

<sup>3)</sup> Tarixan shunday vaziyat mavjudki, bunda "bayt" nomi bilan SI old qo'shimchasi birmuncha noto'g'ri foydalaniilgan ( $1000 = 10^3$  o'rniqa  $1024 = 2^{10}$  qabul qilingan): 1 Kbyte = 1024 byte, 1 Mbyte = 1024 Kbyte, 1 Gbyte = 1024 Mbyte va h. Bunda  $10^3$  ko'paytuvchisini belgilashda foydalilaniladigan kichik "k" harfidan (farqli Kbyte belgisi katta "K" harfi bilan yoziladi).

**Kogerent<sup>5</sup> hosilaviy birliklarini tuzish qoidalari.** Xalqaro birliklar tiziunining kogerent hosilaviy birliklari (keyinchalik hosilaviy birliklar), odatda, kattaliklarni bog'laydigan sonli koeffitsiyenti 1ga teng bo'lган oddiy tenglamalar (aniglaydigan tenglamalar) orqali tuziladi. Hosilaviy birliklarni hosil qilish kattaliklarni bog'laydigan tenglamalarda kattaliklar belgilarini SI birliklarining belgilari bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi.

*Misol. Tezlik birligi mo'g'pu chiziqli va bir tekis harakatlanuvchi*

$$v = \frac{s}{t},$$

bu yerda,  $v$  – tezlik;  $s$  – o'tilgan yo'lning uzunligi;  $t$  – moddiy nuqtaning harakatdagi vaqt.

$S$  va  $t$  o'rniqa ularning SI birliklari qo'yilsa, quyidagi tenglama chiqadi:

$$[v] = [s]/[t] = 1 \text{ m/s}$$

Binobarin, SI tizimida tezlik biriigi sekundiga metr. U 1 s vaqtida nuqta 1 m masofaga siljiydigan to'g'ri chiziqli va bir tekis harakatlanuvchi meddiy nuqtaning tezligiga teng.

Agar bog'lanish tenglamasi 1dan farq qiluvchi son koeffitsiyentiga ega bo'lsa, unda SI kogerent hosila birligini hosil qilish uchun, SI birliklarining shunday son qiymatlari tanlab olinadiki, uni o'ng qismidagi koeffitsiyentga ko'paytirilishi natijasida umumiy son qiymati birga teng bo'lishi kerak.

*Misol. Agar energiya birligini hosil qilish uchun*

<sup>5)</sup> Kogerentlik (lot. "cohaerens" so'zidan olingan bo'lib, "aloqada joylashuvchi" ma'nosini anglatadi) – turli fan sohalariда qo'llanadi. Masalan, fizika, lingvistika va h. Fizikada kogerentlik vaqt bo'yicha to'lqin jarayonlari yoki bir necha tebranishlarning korrelatsiyaanganligi deb nomlanadi

$$E = \frac{1}{2}mv^2$$

tenglama ishlatsa, bu yerda,  $E$  – kinetik energiya,  $t$  – moddiy nuqta massasi,  $v$  – moddiy nuqtaning harakatlanish tezligi.

U holda SI tizimidagi kogerent energiyasining birligini hosil qiliish uchun quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$[E] = \left(\frac{1}{2}\right) (2[m] \cdot [v]^2) = \left(\frac{1}{2}\right) \cdot (2\text{ kg}) (1\text{ m/s})^2 = 1\text{ kg} \cdot \text{m/s}^2 \cdot \text{m} = 1\text{ N} \cdot \text{m} = 1\text{ J}$$

yoki

$$[E] = \frac{1}{2}[m](\sqrt{2}[v])^2 = \frac{1}{2}(1\text{ kg})(\sqrt{2}\text{ m/s})^2 = 1\text{ kg} \cdot \text{m/s}^2 \cdot \text{m} = 1\text{ N} \cdot \text{m} = 1\text{ J}$$

Shunday qilib, SI tizimida energiya birligi joul bo'ladi (nyuton metrga teng). Ko'rsatilgan misollarda u massasi 2 kg va harakat tezligi – 1 m/s yoki massasi 1 kg va harakat tezligi –  $\sqrt{2}$  m/s harakatlanuvchi jismning kinetik energiyasiga teng.

## 2.4. O'lhash turlari va usullari

Kattalikning sonli qiymatini, odatda, o'lhash ainali bilangina topish mumkin, ya'ni bunda ushbu kattalik miqdori birga teng deb qabul qilingan shu turdag'i kattalikdan necha marta katta yoki kichik ekanligi aniqlanadi.

*O'lhash deb, shunday solishtirish, anglash, aniqlash jarayoniga aytiladiki, unda o'lchanadigan kattalik fizik eksperiment yordamida, xuddi shu turdag'i, birlik sifatida qabul qilingan miqdori bilan o'zaro solishtiriladi.*


Bu ta'rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki, birinchidan, o'lhash bu har xil kattaliklar to'g'risida ma'lumot hosil qilishdir; ikkinchidan, bu fizik eksperimentdir; uchinchidan, o'lhash jarayonida o'lchanadigan kattalikning o'lchov birligining ishlatalishidir. Demak, o'lhashdan maqsad o'lchanadigan kattalik bilan uning o'lchov birligi sifatida qabul qilingan miqdori orasidagi nisbatni topishdir. Ya'ni o'lhash jarayonida o'lhashdan ko'zda tutiladigan maqsad izlanuvchi kattalik (bu shunday asosiy kattalikki, uni aniqlash, izlash, tekshirish vazifasi va maqsadi bo'lib hisoblanadi) va bunda o'lhash obyekti ishtirot etadi. O'lhash obyekti shunday yordamchi kattalikki, uning yordamida asosiy izlanuvchi kattalik aniqlanadi yoki bu shunday qurilnaki, uning yordamida o'lchanadigan kattalik qiyoslanadi.

**O'lhash** – bu izlanayotgan kattalik haqida ma'lumot qabul qilish va o'zgartirish jarayoni. Bundan ko'zda tutilgan maqsad shu o'lchanayotgan

kattalikni ishlatisht, o'zgartirish, uzatish yoki qayta ishlashlar uchun qulay formadagi ifodasini ishlab chiqish.

O'lhash fan va texnikaning qaysi sohasida ishlatalishiga qarab, aniq nomi bilan yuritiladi: elektrik, mehanik, issiqlik, akustik va h.

O'lchanayotgan kattalikning sonli qiymatini topishning bir necha xil usullari mavjud (2.5-rasm).



2.5-rasm. O'lhash natijalarini olish bo'yicha o'lhash turlari.

Quyida o'lhash natijalarini olish bo'yicha o'lhash turlari bilan tanishib chiqamiz:

**Bevosita o'lhash** – o'lchanayotgan kattalikning qiymatini tajriba ma'lumnotlaridan bevosita topish. Masalan, oddiy simobli termometrda yoki chizg'ich yordamida o'lhash.

$$u = s \cdot x;$$

bu yerda:  $u$  – muayyan birlikda ifodalanyotgan (o'lchanayotgan) kattalikning qiymati;  $s$  – shkalaning sonli qiymati;  $x$  – shkaladan olingan qaydnoma kattalikning birligi.


**Bilvosita o'lhash** – bevosita o'lchangان kattaliklar bilan o'lchanayotgan kattalik orasida bo'lgan ma'lum bog'lanish asosida kattalikning qiymatini topish. Masalan, tezlikni o'lhash, elektr kuchlanishini o'lhash va h.

$$u = f(x_1, x_2, \dots, x_n).$$

Bevosita va bilvosita o'lhash turlariiga misol tariqasida tarmoqdagi elektr ko'rsatkichlarini o'lhash 2.6-rasmida keltirilgan.

**Majmuiy o'lhash** – bir necha nomdosh kattaliklarning birikmasini bir vaqtta bevosita o'lhashdan kelib chiqqan tenglamalar tizimini yechib, izlanayotgan qiymatlarni topish. Masalan, har xil tarozi toshlarining massasini solishtirib, bir toshning ma'lum massasidan boshqasining massasini topish uchun o'tkaziladigan o'lhashlar, haroratni qarshilik termometri orqali o'lhash.

**Nisbiy o'lchash** – kattalik bilan birlik o'mida olingen nomdosh kattalikning nisbatini yoki asos qilib olingen kattalikka nisbatan nomdosh kattalikning o'zgarishini o'lchash.



2.6-rasm. O'lchash turlariga misol: a) bevosita o'lchash; b) bilvosita o'lchash

**Birgalikdag'i o'lchash** – turli nomli ikki va undan ortiq katalliklar orasidagi munosabatni topish uchun bir vaqtida o'tkaziladigan o'lchashlar. Misol, rezistorning  $20^{\circ}\text{C}$ agi elektr qarshiligi qiymatini turli haroratlarda o'lchab topish.

**Mutlaq o'lchash** – bir yoki bir necha asosiy kattaliklarni bevosita o'lchanishini valyoki fizikaviy doimiylikning qiyamatlarini qo'llash asosida o'tkaziladigan o'lchash.

**O'lchash usuli** – o'lchash qonun-qoidalari va o'lchash vositalaridan foydalaniib, fizikaviy kattalikni uning birligi bilan solishtirish usullari. Yuqorida ko'rsatilganidek, bevosita o'lchashlar boshqa barcha o'lchash turlarining asosi hisoblanib, shu sababli o'lchash usullari bevosita baholash va o'lchov bilan taqqoslash usullariga bo'linadi (2.7-rasm).


Amalda keng tarqaigan, eng sodda va operatordan yuqori malaka talab qilmaydigan usul **bevosita baholash usuli** hisoblanadi. Lekin bevosita baholash usuli o'lchashni yuqori aniqlikda bajarilishini ta'minlamaydi.

**Bevosita baholash usuli** kattalikning qiymati bevosita o'lchash asbobining ko'rsatishiga qarab to'g'ridan to'g'ri aniqlanadigan o'lchash usulidir. Masalan, prujinali manometr bilan bosimni o'lchash yoki ampermetr yordamida tok kuchini o'lchash.

Usullar ichida eng murakkab, lekin eng aniq usul – **o'lchov bilan taqqoslash usuli**.

**O'lchov bilan taqqoslash usuli** – o'lchanayotgan kattalikni o'lchov orqali yaratilgan kattalik bilan taqqoslash (solishtirish) usuli. Masalan, tarozi toshi yordamida massani aniqlash. Metrologiya amaliyotida o'lchov bilan taqqoslash usulining bir nechta turlari mavjud:

**Ayirmali o'lhash (differensial) usuli** – o'lchov bilan taqqoslash usulining turi hisoblanib, o'lchanayotgan kattalikning va o'lchov orqali yaratilgan kattalikning ayirmasini (farqini) o'lhash asbobiga ta'sir qilish usuli.




2.7-rasm. O'lhash usularining tasniflanishi.

Misol: uzunlik o'lchovini qiyoslashda uni komparatorda namunaviy o'lchov bilan taqqoslab o'tkaziladigan o'lhash. Yoki voltmetr yordamida ikki kuchlanish orasidagi farqni o'lhash, bunda kuchlanishlardan biri juda yuqori aniqlikda ma'lum, ikkinchisi esa iztanayotgan kattalik hisoblanadi:

$$\Delta U = U_0 - U_x; \quad U_x = U_0 - \Delta U$$


$U_x$  bilan  $U_0$  qanchalik yaqin bo'lsa, o'lhash natijasi ham shunchalik aniq bo'ladi.

**Nolga keltirish usuli** – bu ham o'lchov bilan taqqoslash usulining bir turi hisoblanadi. Bunda o'lchanadigan kattalikning va o'lchovning taqqoslash asbobiga bo'lgan ta'siri natijasini nolga keltirish lozim bo'ladi. Masalan, elektr qarshiligini qarshiliklar ko'prigi bilan to'la muvozanatlashtirib o'lhash (2.8-rasm).



2.8-rasm. Elektr qarshiligini muvozanat usulida o'lhash.

*Atmashlash (o'rindoshiik) usuli* – o'lchov bilan taqqoslash usuli bo'lib, bunda o'lchanadigan kattalik o'lchov orqali yaratilgan ma'lum qiymatli kattalik bilan o'rini almashtiriladi. Masalan, o'lchanadigan massa bilan toshlarni tarozining bitta pallasiga galma-gal navbati bilan joylashtirib o'lhash yoki qarshiliklar magazini yordamida tekshirilayotgan rezistorning qarshiligidini topish (2.9-rasm).



2.9-rasm. Qarshiliklar magazini yordamida tekshirilayotgan rezistorning qiymatini topish.

Bunda kalit "K"ni ikkala holatda (1, 2) qo'yganda  $\alpha_1 = \alpha_2$  shart bajarilishi kerak.

$$I_1 = U / R_\theta \rightarrow \alpha_1$$

$$I_2 = U / R_x \rightarrow \alpha_2$$

*Mos kelish usuli* – o'lchov bilan taqqoslash usulining turi. O'lchanadigan kattalik bilan o'lchov orqali yaratilgan kattalikning ayirmasini shkaldagi beigilar yoki davriy signallarni mos keltirish orqali o'tkaziladigan o'lhash. Masalan, kalibr yordamida val diametrini moslash, uzunlikni shtangensirkul yordamida o'lhash, jismning aylanish chastotasini stroboskop yordamida o'lhash.


Har bir tanlangan usul o'z uslubiyatiga, ya'ni o'lhashni bajarish uslubiyatiga ega bo'lishi lozim. O'lhashni bajarish uslubiyati deganda, ma'lum usul bo'yicha o'lhash natijalarini olish uchun belgilangan tadbir, qoida va sharoitlar tushuniladi.

**Statik, dinamik va diskret o'lhash usullari.** O'lchanadigan kattalikni o'lhash jarayonida o'zgarish xarakteriga ko'ra **statik** va **dinamik** o'lhashlarga ajratiladi.

**Statik o'lhash** deganda qiymati o'lhash jarayoni mobaynida o'zgarmaydigan kattalikni o'lhash tushunitadi. Bundan tashqari, davriy o'zgaruvchan kattaliklarning turg'un rejimidagi o'lhashlar ham statik o'lhashlarga kiradi. Masalan, o'zgaruvchan kattalikning amplituda va boshqa qiymatlarini turg'un rejimda o'lhash.

**Dinamik o'lchashlarga** qiymatlari o'lchash jarayonida o'zgarib turadigan kattaliklarni o'lchashlar kirdi. Dinamik o'lchashga vaqt bo'yicha o'zgaradigan kattalikning oniy qiymatini o'lchash misol bo'la oladi.

Yuqorida ko'rilgan o'lchash usu'llaridan tubdan farq qiluvchi *diskret* o'lchash usuli ham mavjud. Diskret o'lchash usuli shundan iboratki, unda vaqt bo'yicha uzlusiz o'zgaradigan kattalik vaqt bo'yicha diskretlanadi, miqdor bo'yicha esa kvantlanadi yoki, boshqacha qilib aytganda, vaqt bo'yicha uzlusiz o'zgaradigan kattalik vaqtning ayrim momentlariga tegishli uzuq qiymatlariiga o'zgartiriladi (2.10-rasm).



2.10-rasm. *Dinamik va diskret o'lchashlar grafigi.*


$X(t)$  – vaqt bo'yicha uzlusiz o'zgaradigan kattalikning o'zgarish grafi;  $X_k$  – kvant miqdorlari, ya'ni o'lchanadigan  $X=f(t)$  kattaligining  $t_1, t_2, t_3, \dots, t_n$  momentlariga tegishli uzuq qiymatlari. Demak, diskret o'lchash usuli bo'yicha o'lchanadigan kattalikning hamma qiymati ( $0+t$ ) emas, balki ayrim holatlarga tegishli qiymatigina ma'lum bo'ladi. Diskretlash – bu muayyan diskret (juda qisqa) vaqt oraliq'ida qaydnomalarini olish.  $t_1, t_2, t_3, \dots, t_n$  – diskretlash holatlari deyiladi va  $t_1+t_2$ gacha oraliq diskretlash qadami deyiladi. Kvantlash esa  $X(t)$  kattalikning uzlusiz qiymatlarini  $X_k$  diskret qiymatlarining to'plami (nabori) bilan almashtirishdir. O'lchanadigan kattalikning uzlusiz qiymatlari muayyan tartiblar asosida kvantlash darajalarining qiymatlari bilan almashtiriladi. Kodlashtirish esa muayyan ketma-ketlikda ifodalangan sonli qiymatlarni tavsiya etishdan iborat.

Uzlusiz o'zgaruvchan kattalikning diskret usuli asosida uzuq diskret qiymatlari, kodlarga o'zgartirilishi asosan 3 xil usulda amalga oshiriladi. (2.11-rasm. a, b, v).

**O'lchashlarni bajarish uslubiyatlari** istalgan o'lchashni kafolatlangan aniqlikda zarur natijalarni olishni ta'minlaydigan o'lchash operatsiyalari va qoidalarini belgilangan *majmui* deb ta'riflash mumkin.

Bunda o'lchash operatsiyalari o'lchash turi va yoki obyektiga qarab juda murakkab xarakterda bo'iishi mumkin, ularni bajarilishi esa nafaqat qator sharoitlarga rioya qilinishini, baiki yuqori malakali mutaxassislar jalg'etishni talab etadi.

O'lchashlar jarayonida, talab etilgan aniqlikda natijalarni olishni ta'minlaydigan o'lchash operatsiyalarini o'tkazishda operator imkoniyati boricha, nafaqat o'lchash xatoliklarining muhim (salmeqli) tashkil etuvchilarini hisobga olishi va shuning bilan birga qo'ilaniladigan o'lchash vositasining uslubiy xatoligini, xatoliklarning tashkil etuvchilarini, operatorning o'zini xatolarini va boshqalarini bartaraf etishi zarur.



2.11-rasm. a) ketma-ket hisoblash usuli; b) taqqoslash (solishirish) usuli;  
v) sanoq usuli;

Bundan tashqari, operator o'lchash obyektiga har xil omillarning ta'sirini minimallashtirish bo'yicha tadbirlarni qo'llashi, olingan tajriba natijalari ustida matematik qayta ishlashni o'tkazishi ham kerak.

## 2.5. O'lchashlarni bajarish uslubiyatlari

*O'lchashlarni bajarish uslubiyatlari (O'BU)* har xil malakali operator yordamida, har xil vaqtida va har xil komplekt qurilmalarda o'tkazilganda ularning qaytaruvchanligini va qayta tiklanishligini ta'minlashi zarur.

O'lchashlarni bajarish uslubiyatlari, qoida bo'yicha, nafaqat ishlataligan o'lchash vositalarining xatoliklarini aniqlashda zarur bo'lmay, balki amalda bilvosita o'lchashlarda, ayniqsa, *modda* va *materiallarning tarkibini aniqlash* bilan bog'liq bo'lgan o'lchashlarda katta ahamiyatga ega. Hozirgi paytda bunday sohalardagi o'lchashlarda O'BU o'lchashlarni bajarish uslubiyatlari asosiy vositalardan biridir.

O'lchashlarning istalgan sohasi o'ziga xos maxsus xususiyatlariga ega. U o'lchanadigan kattalikning fizikaviy tuzilmasiga, tarkibiga, foydalananiladigan o'lchash vositalarining texnik xususiyatlariga, eksperimental operatsiyalarga bog'liq.

Modda tarkibini aniqlashda maxsus xususiyatlar quyidagilar:

a) masalan, tekshirilayotgan moddaning qandaydir komponenti massasini topish o'ta murakkab hisoblanadi. Shuning uchun aniqlanadigan komponentning massasini o'lichashdan oldin, ko'pgina hollarda, bu komponentni modda matrisasidan holi qilish bo'yicha murakkab kimyoviy analitik operatsiyalarni o'tkazish kerak bo'ladi. Bu murakkablik moddaning aniqlanishi kerak bo'lgan komponentlarning ko'pligi bilan va elementlarning kimyoviy bog'liqligi variantlarning turli-tumanligi bilan yanada chuqurlashadi;

b) modda tarkibini xarakterlovchi kattalik birligini qayta tiklash uchun etalonlarning, kattalik o'lichamini qiyoslash sxemasi bo'yicha quiy tabaqa vositalarga uzatish maqsadida ishlataladigan sinash chizmalari yo'q;

v) kimyoviy analitik o'lichash xususiyatlarining haddan tashqari turlitumanligi, operatorning malakasiga yuqori talablar qo'yadiki, bunga olinadigan natijalarning to'g'riligi ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi;

g) ko'p funksional maxsus asboblar – xromatograflar, spektrometrlar, kvantometrlar va boshqa analizatorlarning ishlatalishi bu turdag'i asboblarning shkalasi individual darajalanib, vaqt bo'yicha yetarli barqarorlikka ega bo'lmaydi. Bu esa asboblarni standart namunasi bo'yicha yoki nazorat tajribasi bilan muntazam (vaqt-i-vaqt bilan davriy) darajalashni talab etadi.

O'lhashni boshlashdan oldin ko'pgina subyektiv xatoliklar ham bartaraf etilishi mumkin. Buning uchun ba'zida operatorning malakasiga yoki operatorning ba'zi fiziologik ko'rsatkichlari bo'yicha muayyan talablar qo'yiladi.

Shunga o'xhash uslub va tavsiyalarni ko'plab keltirish mumkin. O'lhashni boshlashdan oldin xatolikni bartaraf etishning asosiy qoidasi, har xil tashqi omillar ta'siridan hosl bo'ladigan xatolikni tashkil etuvchilari eng kichik qiymatda bo'lishi kerak.

### **3.4.3. Xatolikni o'lhash jarayonida bartaraf etish**

Muntazam xatolikni o'lhash jarayonida bartaraf etishning eng samaraliysi eksperimental usuldir. Bu usulda asosan tashqi ta'sirlardan

hosil bo'ladigan xatoliklar va asbobiy xatoliklar bartaraf etiladi. Xatolikni o'ichash jarayonida bartaraf etish maxsus o'ichash usullarini qo'llash bilan ainalga oshiriladi. Bu usullardan asosiyları quyidagilar hisoblanadi: xatolikni kompensasiyalash usuli, o'rindoshlik usuli, simmetrik kuzatuvlar, qarama-qarshi qo'yish. Qator takroriy o'ichashlarni o'tkazish zarurligi yuqorida ko'rsatilgan usullar uchun xosdir. Shuning uchun ham ular asosan muqobil hodisalar va ko'rsatkichlarni o'ichashda qo'llaniladi. Bundan tashqari, qayd qilingan usullarni qo'llanilishi o'ichash jarayonining davomiyligini ko'paytiradi va uning narxini oshiradi.

**O'rindoshlik usuli** asbobiy xatolikni bartaraf etishda eng ratsional va keng tarqalgan usullardan biridir. Bu usul shundan iboratki, bunda o'ichanadigan obyekt o'ichash zanjiridagi aniq o'chovi bilan o'rin almashtiriladi. Misol tariqasida massani Borda usuli bo'yicha aniq o'ichashni keltirish mumkin. Dastavval,  $m_1$  massaga ega bo'lган o'ichanadigan obyekt teng elkali tarozini bir pallasiga qo'yib, uni qandaydir  $m_2$  massa ("tara (idish)" massa) bilan tenglashtiriladi. Tarozi pallasidagi massalar muvozanatlashganda,

$$m_2 = Km_1,$$

bu yerda,  $K$  – tarozi elkalari uzunligining o'zaro teng emasligidan sodir bo'ladigan koefitsiyent.

Keyin o'ichash obyektini olib tashlanadi va oldingi muvozanat holati tarozini birinchi pallasiga aniq massa  $m_1$  qo'yish bilan erishiladi. Muvozanat holati qaytarilganda

$$m_1 = Km_2$$

ga teng bo'ladi.

O'ichashlar (ikkala holda) bir xil sharoitda o'tkazilgani uchun  $m_1 = m_2$  deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, o'ichash natijalaridan tarozi elkalarining teng emasligidan kelib chiqadigan xatolikni bartaraf etishga erishiladi.

Teng elkali tarozilarning sezgirligi uiarning yuklamasiga bog'liq va odatda, tarozining nominal yuklamasidan katta qiyamatga ega bo'ladi.

Tarozining to'liqsiz muvozanatlashuvidan hosil bo'ladigan xatolikni minimallashtirish maqsadida D.I.Mendeleyev bu usulni takomillashtirgan va bugunda uni takomillashtirilgan o'rin almashlash usuli deyiladi.

Takomillashtirilgan o'rin almashlash usuli shundan iboratki, dastavval teng elkali tarozining pallalaridan biriga aniq massali  $m_1$  toshning to'la komplekti qo'yiladi va bu komplekt o'zgarmas  $m_2$  massa bilan o'zaro muvozanatlashiriladi (tenglashtiriladi); keyin  $m_1$  massa qo'yilgan pallaga qo'shimcha  $m_3$  massali o'ichanadigan massa qo'yiladi, undan keyin, dastlabki muvozanat holatga keltirish uchun aniq massali toshning bir

qismi olib tashlanadi. Bu bilan aniq massa  $m_0$  o'chanadigan obyekt  $m_1$  massaga teng  $m_0$  qiymatga kamaytililadi.

O'rindoshlik usuli elektr zanjirining ko'rsatkichlarini – elektr qarshiligini, sig'imni, induktivlikni o'chanishda keng qo'llaniladi.

Odatda, bu usul yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlarni solishtirish asboblari yordamida o'chanishda qo'llaniladi.

**Xatolikni kompensasiyalash usuli** – bu ikki takroriy o'chanislarni o'tkazishdan iborat bo'lib, shunday tashkil qilinadiki, bunda hosil bo'lgan xatoliklar tabiat bo'yicha aniq, lekin qiymati bo'yicha noaniq va teskari ishorali bo'ladi. Xatolik bunda o'chanishlar natijalarini o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblashda bartaraf etiladi.

Agar  $x_1$  va  $x_2$  – takror o'chanishlar natijasi desak,  $\Delta x$  muntazam xatolik bo'lib, u tabiat bo'yicha aniq, qiymati bo'yicha noaniq;  $x_0$  o'chanadigan kattalikning qiymati bu xatolikdan  $x_0$ oli. U holda,

$$x_1 = x_0 + \Delta x, \quad x_2 = x_0 - \Delta x, \quad x_0 = \frac{x_1 + x_2}{2} \quad (3.4)$$

Shuni ta'kidlash kerakki, bu usul, asosan, tashqi ta'sirlar magnit maydoni, harorat ta'siridan kelib chiqadigan xatoliklarni bartaraf etishda qo'llaniladi.

Masalan, ko'rsatilgan usul bilan Erning magnit maydoni ta'siridan hosil bo'ladigan xatolikni bartaraf etish mumkin. Agarda ishlatalidigan o'chanish vositasi shunday maydon ta'sirida qo'llanilsa, bu holda birinchi o'chanishni, o'chanish vositasining istalgan holatida o'tkaziladi. Ikkinci o'chanishdan oldin o'chanish vositasini gorizontal tekislikda  $180^\circ$  burib o'rnatiladi. Agar birinchi o'chanishda Erning magnit maydoni, masalan, o'chanish vositasining xususiy magnit maydonini birmuncha kuchaytirgan bo'lsa (musbat xatolikni keltirgan), ikkinchi o'chanishda xuddi shu magnit maydon teskari yo'nalishda ta'sir etadi.

Kompensatsiyalash usuli lokal (mahalliy) xarakterga ega bo'lgan tashqi maydon ta'sirida vujudga keluvchi xatoliklarni bartaraf etishda ham ishlatalidi.

Lekin bunda xatolikni keltirib chiqaruvchi tashqi maydon bir maromli xarakterda taqsimlanganligiga ishonch bo'lishi kerak. Aks holda, o'chanish vositasining tekislikdagi holatining o'zgarishi xatolikning nafaqat ishorasini, uning qiymatini ham o'zgartirib yuborishi, hatto xatolik to'la kompensatsiya masligi ham mumkin.

Xatolikni kompensatsiya usuli elektr kattaliklarni o'chanishda keng qo'llaniladi. Masalan, elektr zanjirlarning o'tish kontaktlaridagi termoelektr yurituvchi kuch ta'siridan hosil bo'ladigan xatolikni bartaraf etishda ishlatalidi. Ayniqsa, bu xatolik o'zgarmas tokda olib borilgan o'chanishlarda sezilarli darajada bo'ladi.

*Qarama-qarshi qo'yish usuli* shundan iboratki, o'lhash ikki marta o'tkazilib, birinchi o'lhashda xatolikni keltirib chiqaruvchi sabab ikkinchi o'lhash natijasiga teskarri ta'sirda bo'ladi. Qarama-qarshi qo'yish usuli xatolikni kompensasiyalash usuliga o'xshashlik tomoni bo'lgani bilan bu usui, asosan, *asbobiy xatoliklarni bariaraf etishda* ishlataladi.

Misol tariqasida Gauss tamonidan taklif qilingan teng elkali tarozida massani aniqlash usulini keltirish mumkin.

Dastavval  $m_1$  massali o'lchanadigan obyekt tarozining bir pallasiga qo'yiladi va tarozini  $m_2$  massali toshlar bilan muvozanatlashtiriladi. U holda muvozanat holati quyidagicha bo'ladi:

$$m_x = m_1 \frac{1}{2},$$

bu yerda,  $\frac{1}{2}$  – tarozining haqiqiy yelka uzunliklarining nisbati. Keyin o'lchanadigan obyekt tarozining boshqa pallasiga qo'yiladi (o'lchanadigan obyekt va aniq massali toshlarning o'mi almashtiriladi) va ikkinchi marta muvozanatlashtiriladi.  $\frac{1}{2}$  – nisbat aniq birga teng bo'limgani sababli muvozanat buziladi va  $m_x$  massani muvozanatlash uchun umumiy massasi  $m_1$ , toshi ishlataladi. U holda yangi muvozanat holati quyidagicha bo'ladi:

$$m_x = m_1 \frac{1}{2},$$

Keltirilgan tenglamalarni birga yechib, quyidagini hosil qilamiz:

$$m_x = \sqrt{m_1 \cdot m_2}.$$


Bunday holda, izlanayotgan natija ( $m_x$ )  $m_1$  va  $m_2$  larning o'rtacha geometrik qiymati topiladi.  $\frac{1}{2}$  nisbat birdan farq qiladi (tarozilar teng yelkali hisoblanadi), shuning uchun  $m_1$  va  $m_2$  larning qiymatlari bir-biriga yaqin. Bunday holda  $m_1$  va  $m_2$  larning o'rtacha geometrik qiymatlarini uarning o'rtacha arifmetik qiymatlari bilan almashtirish mumkin. Shunday qilib, quyidagi ifoda hosil bo'ladi:

$$m_x \equiv \frac{m_1 + m_2}{2}, \quad (3.5)$$

Qarama-qarshi qo'yish usuli, shuningdek, muvozanatlashuvchi o'zgarmas tok ko'prigi yordamida elektr qarshiligini o'lhashda keng qo'llaniladi.

*Simmetrik kuzatishlar usuli.* Bu usul vaqt bo'yicha chiziqli o'zgaruvchan progressiv xatoliklarni bartaraf etishda qo'llaniladi. Simmetrik kuzatishlar usuli shundan iboratki, bunda o'lhashlar ketma-ket bir xil vaqt oralig'ida o'tkaziladi. O'lhashlar natijalarini qayta ishslashda kuzatishlar intervalini simmetrik o'rtacha nuqtasiga nisbatan istalgan ikki kuzatishlar natijalarining xususiyatlari ishlataladi. Bu xususiyat shundan iboratki, istalgan bir juft simmetrik kuzatishlar natijalarining xatoliklari intervalini o'rta nuqtasiga mos keladigan xatoligiga teng.

Progressiv xatolikning vazifasi 3.5-rasmida ko'rsatilgan.



3.5-rasm. Progressiv xatolikning grafigi

Masalan  $t_1$  momentidan boshlab 5 ta kuzatishlar o'tkazilgan bo'lib, unda xatolik  $\delta_i$  qiymatida bo'lgan. Agarda kuzatishlar toq sonli bo'lganda

$$\frac{\delta_1 + \delta_5}{2} = \frac{\delta_2 + \delta_4}{2} = \delta_3$$

Kuzatishlar juft sonli ham bo'lishi mumkin, u holda

$$\frac{\delta_1 + \delta_4}{2} = \frac{\delta_2 + \delta_3}{2}$$

Kuzatishlar uchta bo'lganda (kuzatishlar soni minimal) va boshlang'ich xatolik nolga teng bo'lsa, hisoblashlar osonlashadi.

Simmetrik kuzatishlar usulini termoelektrik o'lhash o'zgartkichlarini (termojuftlik) sinovdan o'tkazish misolida qo'llash mumkin. Bunda samaradorlikni ko'tarish uchun pechga namunaviy termojuftlik bilan bir vaqtida bir nechta (masalan, to'rtta) bir turli tekshiriladigan termojuftliklar joylashtiriladi va navbatma-navbat namunaviy ( $e_0$ ) va tekshiriladigan ( $e_i$ ) termojuftliklarning elektryurituvchi kuchlari o'lchanadi. Elektr yurituvchi kuchlarni o'lhash bir vaqtida o'tkazilmasligi sababli pech haroratining monoton o'zgarishidan katta xatolik hosil bo'lishi mumkin.

Bu xatolikni bartaraf etish uchun elektr yurituvchi kuchlarni quyidagi tartibda vaqtning bir xil -- teng oraliqlarida o'lhash kerak:

$$e_0 \rightarrow e_1 \rightarrow e_2 \rightarrow e_3 \rightarrow e_4 \rightarrow e_0 \rightarrow e_4 \rightarrow e_3 \rightarrow e_2 \rightarrow e_1 \rightarrow e_0$$

Bu qiyatlar pechning haroratiga mos bo'lib, o'lhash siklidagi vaqt intervalining o'rjasiga teng bo'ladi.

O'lhash jarayonida o'zgarmas muntazam xatotiklarni kamaytirish samarali usuli bu randomizasiyadir. Masalan, agar qandaydir kattalikni bir nechta bir turdag'i asboblar yoki har xil turdag'i asboblar yordamida o'ichab, olingan kuzatishlardan o'rtacha arifmetik qiymati hisoblanadi. Bunda shuni

kutish mumkinki, har bir aniq ishlatilgan asboblar uchun xos muntazam xatoliklar umuman tasodifiy kattalik sifatida namoyon bo'ladi.

### 3.4.4. Muntazam xatolikni tuzatma kiritish bilan bartaraf etish

O'lhash vositasi yordamida olingan  $X$  kattaligining qiymatida muntazam xatolik bo'lib, uni tuzatilmagan o'lhash natijasi deyiladi.

Bu muntazam xatolikni tuzatilmagan o'lhash natijasiga o'lhash jaronidan keyin aniq tuzatma kiritish bilan hisoblab bartaraf etish mumkin.

Tuzatma kiritishning keng tarqalgan usuli o'lhash natijasi va tuzatmani (uning ishorasiga qarab) algebraik yig'indisi hisoblanadi. Bu holda tuzatma son qiymati bo'yicha o'lchanadigan kattalikning birligida ifodaangan muntazam xatolikka teng, ishorasi esa teskari bo'ladi. Jamlash bilan kiritiladigan tuzatma -- *additiv* tuzatma deyiladi.

Boshqa hollarda o'lhash natijasini tuzatma ko'effitsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan xatolik bartaraf etiladi. Bunday tuzatma – *multiplikativ* tuzatma deb ataladi.

Tuzatma kiritish bilan faqat bitta muayyan muntazam xatolikni bartaraf etish mumkin. Shuning uchun o'lhash natijasiga ko'pincha kattaroq tuzatma sonini kiritishga to'g'ri keladi.

Bunga misol qilib obyekt massasining qiymatini teng yelkali tarozida tortish bilan aniqlashni keltirish mumkin:

$$m_x = k(m_n + q),$$

o'z navbatida,

$$q = m_o - m_n;$$

bu yerda:  $m_x$  – o'lchanadigan obyekt massasining aniqlangan qiymati;

$k = \frac{m_x}{m_n}$  – tuzatma ko'effitsiyenti bo'lib, tarozi yelkalari uzunliklarining haqiqiy qiymatlarining nisbatiga teng (multiplikativ tuzatma);

$m_n$  – muvozanatlashiruvchi toshlar massasining nominal qiymati;

$q$  – tosh massasining nominal qiymatiga tuzatma (additiv tuzatma);

$m_o$  – tosh massasining haqiqiy qiymati.

O'lhash natijasiga u yoki bu usul bilan tuzatma kiritishdan avval bu tuzatmani aniqlash zarur. Buning uchun o'lhash vositasi oldindan kalibrlanishi zarur.

Shunday qilib, ko'p hollarda asbobiy xatoliklarni bartaraf etishda tuzatma eksperiment yo'li bilan topiladi.

Uslubiy xatolikni bartaraf etish uchun ishlatiladigan apparaturaning ko'rsatkichlarini va ta'sir etuvchi kattaliklarning qiymatlarini bilish kerak,

chunki bular bilan o'lhash natijasiga kiritiluvchi tuzatmани hisoblash mumkin bo'lsin (agar umuman hisoblash mumkin bo'lsa).

Shuning uchun uslubiy xatolikni bartaraf etishda kiritiladigan tuzatma hisoblash yo'li bilan topiladi.

Tuzatma kiritish bilan o'lhash natijasini aniqlashda shuni esda tutish zarurki, o'lhash natijasining xatoligi ikkidan ortiq bo'limgan qiyamatli raqam bilan ifodalanishi qabul qilingan.

### 3.4.5. Bartaraf etilmagan muntazam xatoliklar chegarasini baholash

Ba'zi hollarda muntazam xatolikni bartaraf etish imkonи bo'lmaydi, shuning uchun bunday hollarda muntazam xatolikning chegarasi baholanadi. Bu, avvalo, muntazam xatoliklari yetarli o'rganilmagan o'lhash usullari uchun taalluqli.

Umuman, muntazam xatolikning tuzatma kiritilgandan keyin o'zgarmasdan qolishi, ya'ni qator elementar tashkil etuvchilardan iborat bo'lishi, u "*muntazam xatolikning yo'qotilmagan qoldig'i*" deb ataladi.

Yo'qotilmagan muntazam xatoliklarning elementar tashkil etuvchilari ma'lum qiyamatli bo'lishi kerak, lekin bu qiymatlar, odatda, aniq bo'lmaydi. Shu narsa aniqki, ular aniq  $\pm \Theta_{\max}$  chegarada (diapazonda) va o'rtacha kvadratik og'ish ( $O'KO$ ) se ma'lum bahoga ega. O'lhash natijalarining yo'qotilmagan muntazam xatoligi (keyinchalik – o'lhashdagi muntazam xatoligi) asbobiylar va subyektiv tashkil etuvchilardan iborat bo'ladi.

Agar muntazam xatolik faqat bitta xatolikdan (ya'ni uslubiy xatolikdan yoki o'lhash vositasining yoki operator xatoligidan) iborat bo'lsa, u holda *muntazam xatolik shu xatolik  $\pm \Theta$  diapazonida ifodalanadi*.

Muntazam xatolikning tashkil etuvchilarining chegarasi sifatida, masalan, o'lhash vositalarining xatoligining yo'l qo'yiladigan asosiy (oldindan belgilangan "normal" sharoit uchun) va qo'shimcha (normal sharoitdan chetlashganda aniqlanadigan) xatoliklari qabul qilinadi.

Yo'qotilmagan muntazam xatolikning chegaralari qo'shiluvchilar soni bir nechta (lekin 3 tadan ko'p bo'limgan) bo'lganda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Theta = \pm \sum_{i=1}^n |\Theta_i| \quad (3.6)$$

Agar yo'qotilmagan muntazam xatoliklar soni 3 tadan ko'p bo'lsa, uning chegaralari quyidagicha hisoblanadi:

$$\Theta(P) = \pm k \cdot \sqrt{\sum_{i=1}^n \Theta_i^2} \quad (3.7)$$

bu yerda,  $n$  – muntazam xatoliklarning soni;  $k$  – ayrim yo‘qotilmagan muntazam xatoliklar bir xil taqsimlanganda tanlangan ishonchli ehtimollik  $R$ ga bog‘liq bo‘lgan koefitsiyent. Bunda  $\Theta$  ishonchli kvazi tasodifiy xatolik deb qaraladi.

Masalan,  $R=0,68$  bo‘lganda  $k=1,0$ ;  $R=0,95$  da  $k=1,1$ ;  $R=0,99$  da  $k=1,4$ .

Bilvosita o‘lhashlarda muntazam xatolikning chegarasi  $\Theta_{(P)}$  ham  $\Theta$ , qiymatlarini qo‘yish bilan 3.6-3.7 formulalar bo‘yicha hisoblanadi:

$$\Theta_i = \Theta_z = \frac{\partial F}{\partial x_j} \cdot S_{zj}, \quad (3.8)$$

bu yerda,  $\Theta_z$  – bilvosita o‘lhashdagi muntazam xatolik,  $z$  – bilvosita usulda o‘lchanagan kattalik,  $F$  –  $z$  kattaligini bevosita o‘lhashlardan olingan ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqlik vazifasi,  $x_j$  –  $j$  argument (bevosita o‘lchanadigan kattalik),  $\frac{\partial F}{\partial x_j}$  –  $F$  vazifasining xususiy hosilasi.

O‘z navbatida,  $\Theta$ , quyidagi ifodadan aniqlanadi.

$$\Theta_z = \frac{1}{2} \cdot \sum_{j=1}^m \left( \frac{\partial^2 F}{\partial x_j^2} \right) \cdot S_{zj}^2 \quad (2.9)$$

bu yerda,  $m$  – argumentlar soni (bevosita o‘lchanadigan kattaliklarning).

Natijaviy muntazam xatolik o‘rtacha kvadratik baholanishi bilan ham yoki yo‘qotilmagan jamlangan muntazam xatoliklarning yig‘indisini o‘rtacha kvadratik og‘ishini baholanishi bilan ham tavsiflanadi. Bu xatolik FOCT 8.207-76, FOCT 8.381-80 ga muvofiq quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_\Theta = \sqrt{\frac{1}{3} \cdot \sum_{i=1}^n \Theta_i^2} \quad (3.10)$$

Agar bir nechta ( $n_1$ ) alohida yo‘qotilmagan qoldiq muntazam xatolik teng taqsimlangan (bir maromda) qonun bo‘yicha, boshqasi ( $n_2$ ) – normal qonun bo‘yicha taqsimlansa, u holda  $S_\Theta$  quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_\Theta = \sqrt{\frac{1}{3} \cdot \sum_{i=1}^{n_1} \Theta_i^2 + \sum_{j=1}^{n_2} S_{\Theta_j}^2} \quad (3.11)$$

### 3.5. Tasodifiy xatolik va uning tavsiflari

Odatda, bir kattalikning o‘zini teng aniqlik bilan qator o‘lhash natijalari bir-biridan farq qiladi. Bu natijalar (tarqoqligi)ning farqi, qoida bo‘yicha, tasodifiy xatoliklarning ta’siridan sodir bo‘ladi. Bunda teng

aniqlik bilan o'lhashlar deganda qandaydir kattalikni bir xil sharoitda, bir xil aniqlikdagi o'lhash vositalari yordamida qator o'lhashlar tushuniladi.

Tasodisiy xatoliklarning ta'siri sababli natijalarining o'lhashlar qatoridagi tarqoqligi, odatda, muntazam xatoliklar ta'siriga tuzatmaish kiritilgandan keyin miqdoriy baholanadi.

Natijalarining o'lhashlar qatoridagi tarqoqligi quyidagicha baholanadi:

- o'lhash natijalarining tarqoqlik ko'lamini  $R_n$ ;
- bir marotabali o'lhashdagi o'rtacha arifmetik xatoligi  $r$  (qator o'lhashlardagi);
- bir marotabali o'lhashdagi (teng aniqlik bilan o'lhashlardagi) o'rtacha kvadratik xatolik (yoki o'rtacha kvadratik og'ish – O'KO)  $S_r$ ;
- o'lhash natijalarining  $S_r$  o'rtacha kvadratik xatoligi (yoki o'rtacha kvadratik og'ish – O'KO yoki standart og'ish);
- bir marotabali o'lhashlar xatoliklarining ishonchli chegarasi  $\varepsilon_x$  (qator (teng aniqlik bilan) o'lhashlardagi);
- o'lhash natijalarining xatoliklarini ishonchli chegarasi  $\varepsilon_x$  (o'rtacha arifmetik qiymati bo'yicha).

O'lhash natijalarining tarqoqlik ko'lamini – bu kattaliklarning qator o'lhashlar qatoridagi eng katta  $x_{\max}$  va eng kichik  $x_{\min}$  qiymatlari orasidagi farq

$$R_n = x_{\max} - x_{\min}$$

Alohiba o'lhashlarning o'rtacha arifmetik xatoligi (qator o'lhashlardagi) – bu  $n$  ta mustaqil o'lhashlar natijalarining tarqoqligini umumlashgan tavsifi bo'lib, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$r = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n |x_i - \bar{x}|, \quad (3.12)$$

bu yerda,  $r$  – o'rtacha arifmetik xatolik – qator o'lhashlarga xos  $i$  ta xatoliklar absolut qiymatlarining o'rtacha arifmetik qiymati,  $x_i$  –  $i$ - o'lhashlar naijasи,  $\bar{x}$  – kattalikning ( $n$  ta o'lhashlardagi) o'rtacha arifmetik qiymati,  $(x_i - \bar{x})$  –  $i$ - o'lhashlardagi xatolikning absolut qiymati.

### 3.5.1. O'lhash xatoliklarining o'rtacha kvadratik og'ishi

O'lhash natijalarining o'rtacha kvadratik og'ishi yoki o'rtacha arifmetik qiymati bo'yicha  $S_r$  (yoki o'rtacha kvadratik og'ishini baiolanishi) yoki standart og'ish.

Bevosita ko'p marotabali o'lhashlar naijasidagi tasodisiy xatolikning baiolanishi quyidagi ifoda bo'yicha hisoblanadi:

$$S_x = S(\bar{x}) = \frac{S_x}{\sqrt{n}} = \sqrt{\frac{1}{n(n-1)} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}, \quad (3.13)$$

bu yerda,  $S_x$  – o'rtacha kvadratik xatolik yoki birlik o'lhashlardagi (teng aniqlik bilan qator o'lhashlardagi) o'rtacha kvadratik og'ishning (O'KO) baholanishi, yoki biror kattalikni bevosita, ko'p marotabali o'lhash natijalarini uning o'rtacha qiymati atrofida tarqoqlanishining baholanishi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$S_x = \sqrt{\frac{1}{(n-1)} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2} \quad (3.14)$$

bu yerda,  $x_i$  –  $i$ - birlik o'lhash natijasi;  $\bar{x}$  – o'lchanadigan kattalikni  $n$  birlik natijalaridan o'rtacha topilgan o'rtacha arifmetik qiymati.

(3.13) ifodadan ko'rinish turibdiki, o'lhash natijalarining o'rtacha kvadratik og'ishi – O'KO (yoki o'rtacha arifmetik qiymat bo'yicha)  $S_x$  birlik o'lhashlarning o'rtacha kvadratik og'ishi  $s$ , dan  $\sqrt{n}$  marta kichik bo'ladi. Shuning uchun xatolikning tasodifiy tashkil etuvchisini kamayirishda o'lhashlar ko'p marotaba o'tkaziladi.

Bilvosita o'lhashlarda, izlanayotgan  $Z$  kattaligining  $z$  qiymati bevosita (to'g'ridan-to'g'ri o'lhashlar) o'lchanadigan (boshlang'ich) kattaliklar  $x_j$ , bilan ma'lum bog'liqligi asosida hosil bo'ladi:

$$z = F(x_1, x_2, x_3, \dots, x_n) = F(x_j); \quad j = 1, 2, 3, \dots, m \quad (3.15)$$

$z$  ning o'rtacha arifmetik qiymati bir-biridan farq qiluvchi ikki usul bilan aniqlanadi.

**1-usul** shundan iboratki, (3.15) ifodadagi  $x_j$  larning c'rtacha arifmetik qiymatlari qo'yiladi, ya'ni

$$\bar{z} = F(\bar{x}_1, \bar{x}_2, \bar{x}_3, \dots, \bar{x}_n) = F(\bar{x}_j); \quad j = 1, 2, 3, \dots, m \quad (3.16)$$

**2-usul** o'lchanadigan kattaliklarni bevosita o'lhashdagisi xatoliklari orasida **korrelatsiya** mavjud bo'lganda ishlataladi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\bar{z} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n z_i \quad (3.17)$$

Agar o'lchanadigan kattalik  $Z$  bilvosita usulda o'lchanadiga o'rtacha arifmetik qiymati (3.16 ifoda) bo'yicha aniqlansa, u holda o'rtacha kvadratik og'ishning baholanishi quyidagi ifodadan topiladi:

$$S_{\bar{x}} = S(\bar{x}) = \sqrt{\sum_{j=1}^m \left[ \frac{\partial F}{\partial x_j} \right]^2 \cdot S_{\bar{x}_j}^2 + \sum_{\substack{i,j=1 \\ i \neq j}}^n \left[ \frac{\partial F}{\partial x_i} \right] \cdot \left[ \frac{\partial F}{\partial x_j} \right] \cdot r_{i,j} \cdot S_{\bar{x}_i} \cdot S_{\bar{x}_j}}, \quad (3.18)$$

bu yerda,  $\frac{\partial F}{\partial x_j} \cdot S_{\bar{x}_j}$  – bilvosita o'lchashlarning xususiy xatoliklari,  $r_{i,j}$  – o'rtacha arifmetik  $\bar{x}_i$  va  $\bar{x}_j$  kattaliklari orasidagi korrelyasiya koefitsiyenti,  $\frac{\partial F}{\partial x_i}$  – xususiy hosilaning qiymati,  $\bar{x}_i$  – argumentlarning o'rtacha arifmetik qiymatlarida hisoblanadi.

Agar  $r_{i,j} = 0$  bo'lsa, kattalikni bilvosita o'lchashlarda o'rtacha kvadratik xatolik (3.18) ifodaga asosan quyidagicha hisoblanadi:

$$S_{\bar{x}} = S(\bar{x}) = \sqrt{\sum_{j=1}^m \left[ \frac{\partial F}{\partial x_j} \right]^2 \cdot S_{\bar{x}_j}^2}, \quad (3.19)$$

Agar bilvosita o'lchangan kattalik Zning o'rtacha arifmetik qiymati (3.17) ifoda bo'yicha topilsa, o'rtacha kvadratik og'ishning baholanishi (3.13) yoki (3.14) ifodalardagi  $x_i$  va  $x$  larning o'miga  $z_i$  va  $z$ lar qo'yib hisoblanadi.

(3.13) va (3.14) ifodalar o'lchash natijalarining ehtimolligi normal qonun bo'yicha taqsimlanishida qo'llaniladi.

Agar ehtimoliikning taqsimot qonuni ma'lum bo'lmasa, u holda o'rtacha kvadratik og'ish quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$S_{\bar{x}} = S(\bar{x}) = \frac{S_x}{\sqrt{n}} = \frac{1}{n} \cdot \sqrt{\sum_{i=1}^n (x_i^2 - \bar{x}^2)}, \quad (3.20)$$

$$S_x = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (x_i^2 - \bar{x}^2)} \quad (3.21)$$

### 3.5.2. O'lchash xatoliklarining ishonchli intervali va ishonchli chegaralari

Tasodisiy xatolik qiymatlari intervali ichida joylashgan o'lchash natijalari xatoliklarining izlanayotgan qiymati o'lchash natijalari xatoliklarning *ishonchli intervali* deb ataladi.

Xatolikning ishonchli intervali har bir (alohiba) o'lchashlar uchun  $2tS$ , teng bo'lgan va o'lchash natijalari uchun (*o'rtacha arifmetik qiymat bo'yicha*)  $2tS_x$  – zonasini bo'yicha aniqlanadi; bu yerda,  $t$  – o'lchashlar soni  $n$ , ishonchli ehtimollik  $R$ , ehtimollikni taqsimot qonuni va o'lchashlarning boshqa qator tasnifiy tavsiflariiga bog'liq bo'lgan koefitsiyent.

Ishonchli intervalning yuqori va pastki chegaralari o'lchash xatoliklarining ishonchli chegaralari deb ataladi. Birlik o'lchashlar xatoliklarining ishonchli chegaralari (teng aniqlik bijan qator o'lchashlardagi)  $\varepsilon_1$  va o'lchash natijalarini xatoliklarining ishonchli chegaralari (yoki o'rtacha arifmetik qiymati bo'yicha)  $\varepsilon_2$  quyidagi ifodalardan topiladi:

$$\varepsilon_1 = t_p \cdot S_r, \quad \varepsilon_2 = t_p \cdot S_{\bar{x}} \quad (3.22)$$

Agar taqsimot qonuni ma'lum bo'imasda, o'lchash xatoliklarining ishonchli chegaralarini hisoblash uchun Chebishevning aniq ifodasidan kelib chiqadigan (3.23) formula ishlataladi:

$$\varepsilon_1 = \sqrt{1 - P \cdot m \cdot S_r}, \quad \varepsilon_2 = \sqrt{1 - P \cdot m \cdot S_{\bar{x}}} \quad (3.23)$$

Bu holda o'rtacha kvadratik og'ish  $S_r$  va  $S_{\bar{x}}$ lar (3.21) va (3.20) formulalarga muvofiq hisoblanadi.

Koeffitsiyent  $t_p$  o'lchashlarning turi yoki tasnifiy tavsiiflariga qarab, quyidagicha topiladi:

- agar o'rtacha kvadratik og'ish  $S_r$  va  $S_{\bar{x}}$ larning baholanishi eksperimental yo'l bilan chegaralangan o'lchashlar sonida ( $n < 30$ ) yoki (3.14) va (3.14) formulalar bo'yicha aniqsansa,  $t_p$  koeffitsiyent **Styudent koefitsiyenti**, aniqrog'i Styudent taqsimotining kvantili deb ataladi va Styudent taqsimotining formulasi bo'yicha yoki osonrog'i jadval (A ilovadagi A.1-jadvalga qaralsin)dan topiladi. Styudent koeffitsiyenti ishonchli ehtimoliikning  $P = 1 - q$  va erkinlik darajalar soni  $f = n - 1$ , ( $n$  – o'lchashlar soni,  $q$  – qiymatli ko'rsatkich)ga muvofiq bo'lishi kerak;

- agar o'rtacha kvadratik og'ish  $S_r$  va  $S_{\bar{x}}$ larning baholanishi (yetarli juda ko'p o'lchashlar sonida  $n = 30$ ) eksperiment yo'li bilan aniqlansa, u me'yoriy yoki texnik hujjatlarda keltirilgan bo'lsa yoki dispersiya  $\sigma^2$  yoki o'rtacha kvadratik og'ish  $\sigma^2$  berilgan (aniq) bo'lsa, u holda koeffitsiyent  $t$  ishonchli ehtimoliik  $R$  uchun normal taqsimotning kvantilini tasvirlaydi (bildiradi) va me'yorlangan normal taqsimotning integral vazifasini qo'llab hisoblanadi; buning uchun ishonchli ehtimoliik  $P$  qabul qilinadi, masalan,  $P = 0,95$ , keyin quyidagi ifoda bo'yicha

$$F(t_p) = \frac{P + 1}{2} \quad (3.25)$$

me'yorlangan normal taqsimotning integral vazifasi  $F(t)$ ning qiymati aniqlanadi va jadvaldan (A ilovadagi A.2-jadvalga qaralsin)  $t_p$  koeffitsiyentining qiymati topiladi;

- agar o'lchash bilvosita usulda o'tkazilgan bo'lsa va o'rtacha kvadratik og'ish (O'KO)  $S_r$  yoki  $S_{\bar{x}}$ larning baholanishi (3.17) yoki (3.19) formula-

lar bo'yicha aniqlangan bo'lsa, u holda ishonchli ehtimollik  $P=1-q$  va erkinlik darajalar soni  $f_{\phi}$  ga tegishli Styudent koeffitsiyenti A.1-jadvaldan olinadi.

Erkinlik darajalarining effektiv soni ( $x_i$  – argumentlarining bir xil sonlarida yoki  $n_1=n_2=n_3=\dots=n$ ) quyidagi ifoda bo'yicha hisoblanadi:


$$f_{\phi} = \frac{(n+1) \cdot \left( \sum_{i=1}^n \left( \frac{\partial F}{\partial x_i} \right)^2 \cdot S^2(\bar{x}_i) \right)^{1/2}}{\sum_{i=1}^n \left( \frac{\partial F}{\partial x_i} \right)^2 \cdot S^2(\bar{x})}, \quad (3.26)$$

bu yerda,  $n$  –  $x_i$ ning o'lchashlar soni;  $m$  – argumentlar soni;  $q$  – qiymatlik darajasi.

Agar o'lchash xatoligi ehtimollikning normal taqsimot qonuni bo'yicha taqsimlansa, u holda o'lchash xatoliklarining ishonchli chegaralarini hisoblash uchun (3.23) formuladan foydalaniladi.

**3.6-rasm**da xatoliklarning normal taqsimlanish grafigi keltirilgan bo'lib, abssissa o'qida  $\pm\sigma, \pm 2\sigma, \pm 3\sigma, \pm 4\sigma$  chegaralaridagi intervallar qo'yilgan. Bu intervallar uchun ishonchli ehtimolliklar 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, guruh kuzatishlardagi tasodifiy xatolikning baholanishi  $\pm\sigma$  intervalida ishonchli ehtimollikning 0,68 qiymatiga to'g'ri keladi. Bu esa o'lchashni yuqori darajada o'tkazilmaganligidan dalolat beradi, chunki jami kuzatishlar sonidan 32 % ko'rsatilgan interval chegarasidan chiqishi mumkin.



3.6-rasm. Ishaonchli intervallar.

3 I-jadval	
$t \sigma$	$P$
$\pm\sigma$	0,68
$\pm 2\sigma$	0,95
$\pm 3\sigma$	0,997
$\pm 4\sigma$	0,999

Tasodifiy xatolikning normal qonun bo'yicha taqsimlanishida (o'zgarishida) ishonchli interval  $+3\sigma \div -3\sigma$  gacha. ishonchli ehtimollik esa 0,9973 qabul qilinishi mumkin. Bu 370 ta tasodifiy xatolikdan bittasi o'zinig absolut qiymati bo'yicha  $\sigma$  dan katta bo'ladi va uni qo'pel xatolik deb hisoblab, o'lchash natijalarini qayta ishlashda hisobga olinmaydi degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun xatoliklarning normal taqsimlanishida ishonchli chegara (interval)  $\pm 3\sigma$  ni xatolikning maksimal ishonchli chega-

rasi deb qabul qilinadi, xatolik esa qator o'lhashlarda maksimal xatolik deb hisoblanadi. Ko'pincha texnik o'lhashlarda tasodifiy xatolikning baholanishi bir xil bo'lishiga erishish uchun ishonchli ehtimollikning 0,95 qiymati qabul qilinadi. Faqat alohida aniq o'lhashlarda va maxsus o'lhashlarda ishonchli ehtimollikning juda yuqori qiymatlarini qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

### 3.5.3. O'lhash natijalarining jamlangan xatoligi

O'lhash natijalarining xatoligi tasodifiy va muntazam xatoliklarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Tasodifiy va muntazam xatoliklarning yig'indisi taxminan yondashgan holda topilib, natijaviy xatolikning intervalli tavsiflarini topishga imkon beradi. Ya'ni bu usul bilan o'lhash natijalari umumiy xatoliklarning ishonchli chegarasi, ya'ni o'lhash xatoliklarining eng katta va eng kichik qiymatlari orasidagi interval aniqlanadi. Bu oraliqda o'lhash natijalaridagi xatoliklarning izlanayotgan qiymatlari berilgan ehtimolligi chegarasida yotadi.

O'lhash natijalarining jamlangan xatoligining ishonchli chegarasi  $\Delta$  standart bo'yicha quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$\Delta = t_{\Sigma} \cdot S_{\Sigma} \quad (3.27)$$

$t_{\Sigma}$  – koeffitsiyent esa

$$t_{\Sigma} = \frac{\Theta + \varepsilon_i}{S_{\Theta} + S_i} \quad (3.28)$$

va o'lhash natijalarining jamlangan o'rtacha kvadratik xatoligi – natijaning jamlangan xatoligi quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladigan (tasodifiy va yo'qotilmagan muntazam xatoliklardan tashkil topgan) o'lhash natijasining xatoligi:

$$S_{\Sigma} = \sqrt{S_{\bar{x}}^2 + S_{\Theta}^2}, \quad (3.29)$$

bu yerda,  $\Theta$  – yo'qotilmagan muntazam xatoliklar yig'indisining chegarasi bo'lib, (3.6) yoki (3.7) formulalar bo'yicha hisoblanadi.

$\varepsilon_i$  – o'lhash natijalaridagi tasodifiy xatoliklarning ishonchli chegaralari (3.22) yoki (3.7) formulalar bo'yicha hisoblanadi.

$S_{\bar{x}}$  – o'lhash natijalarining o'rtacha kvadratik xatoligining baholanishi, (3.13) yoki (3.20) formulalar bo'yicha hisoblanadi.

$S_{\Theta}$  – yo'qotilmagan muntazam xatoliklarining yig'indisini o'rtacha kvadratik xatoligi (3.10) yoki (3.11) formulalar bo'yicha hisoblanadi.

## Nazorat savollari

1. Xatolik deganda nimani tushunasiz? Uni keltirib chiqaruvchi sabablar nimalardan iborat?
2. Muntazam xatolik nima va u qanday tashkil etuvchilardan iborat?
3. Muntazam xatolikni qanday kamaytirish usullari mavjud?
4. Tasodifiy xatolik deganda qanday xatolikni tushunasiz?
5. Nima sababdan faqat tasodifiy xatoliklar baholanadi?
6. Tasodifiy kattalik ehtimolligining taqsimlanish qonuni deganda nimani tushunasiz?
7. Tasodifiy kattaliklar ehtimolligining qanday taqsimlanish funksiyalarini bilasiz?
8. Taqsimlanishning sonli tavsiflari deganda nimani tushunasiz?
9. Matematik kutilish, dispersiya nima?
10. Tasodifiy kattalikning tarqoqlanishi nima va nimaga bog'liq?
11. O'rtacha kvadratik og'ish nima va u qanday baholanadi?
12. 3 $\sigma$  qonuni nima? Uni tushuntiring. Styudent koefitsiyenti nima?
13. Ishonchli interval va chegera daganda nimani tushunasiz?

## IV BOB. O'LCHASH NATIJALARINI QAYTA ISHLASH VA NOANIQLIKNI BAHOLASH

### 4.1. O'lchash natijalarini qayta ishlash

3-bobda ta'kidlanganidek, o'lchashdan maqsad kuzatuvchini qiziqtiruvchi kattalik qiymatini uni o'lchashdagi xatoliiklarining ma'lum tafsiflari bilan topishdir. Kattalikning qiymatini olish bu uning haqiqiy qiymatini yoki uning o'rtacha arifmetik qiymatini aniqlashdan iborat.

Eslatib o'tilgan o'lchash tafsiflari har xil, bir-biridan farq qiluvchi o'lchashlarning qaysi sinfiga taalluqli ekanligiga bog'liq holda matematik ifodalar bo'yicha hisoblanadi.

Demak, bir marotabali va ko'p marotabali o'lchashlarning, bevosita va bilvosita, teng aniqlik bilan o'lchash jarayoni va matematik qayta ishlash tartibi har xil bo'ladi. Shuningdek, bir nechta qator o'lchashlar natijalarini qayta ishlash ham, ularni normal taqsimot qonuniga bo'ysunadigan va bo'ysunmaydigan o'lchash natijalarini qayta ishlash ham bir-biridan farq qiladi. Ko'rsatilgan xususiy hollarni alohida ko'rish lozim bo'ladi.

#### 4.1.1. Bir marotabali o'lchash natijalarini qayta ishlash

Bir marotabali o'lchash natijasi sifatida kattalikni alohida o'lchashda olingan qiymati qabul qilinadi. Agar oldindan o'lchash natijasining xatoligini tashkil etuvchilari ma'lum bo'lsa, o'lchash faqat bir marta o'tkaziladi.

Bir marotabali o'lchash quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- ishlab chiqarishdagi iqtisodiy zarurat tug'ilganda, o'lchashni takrorlash imkonи bo'lmaganda, masalan, birinchi o'lchashdayoq o'lchash obyektining buzilish ehtimoli bo'lganda;

- tasodifiy xatoliklarni hisobga olmaydigan darajada bo'lganda (ular yoki yo'qotilmagan muttazam xatoliklarga nisbatan hisobga olinmaydigan darajada kichik bo'lganda, yoki ularning ishonchli chegarasi yo'l qo'yiladigan xatolik chegarasidan chiqib ketmaganda).

Bir marotabali o'lchash natijalarining xatoliklarini baholash МИ 1552-86<sup>6</sup> uslubiy ko'rsatmaga muvofiq amalga oshiriladi.

**Bir marotabali o'lchash natijasining xatoligi** (bir marotabali o'lchash xatoligi) – bu bitta o'lchash xatoligi bo'lib (qator o'lchashlarga kirmaydigan), muayyan sharoitda o'tkazilgan o'lchash usuli va vositasining ma'lum xatoliklari assosida baholanadi.

Misol Detalning biror-bir o'lchami bir marotabali o'lchaniga uning qiymati 12,55 mm ga teng bo'ladi. Bunda o'lchashdan oldin shunisi ma'lumki, mikrometrning xatoligi berilgan diapazonda  $\pm 0,01$  mm ni tashkil

<sup>6</sup> МИ – Методика измерений

etadi va bu holda o'lhash usulining xatoligi (bevosita baholash usulida) nolga teng deb qabul qilinadi. Demak, muayyan o'lhashlar sharoitida hosil bo'lgan xatolik  $\pm 0,01$  ga teng bo'ladi.

#### 4.1.2. Ko'pmarotabali o'lhash natijalarini qayta ishlash

Ko'p marotabali o'lhash natijalarini qayta ishlash uslubiy ko'rsatma (МИ 1552-86, МИ 2083-90)ga muvofiq quyidagi ketma-ketlikda amalgashiriladi:

1. Muntazam xatolikni tuzatish  $q$  kiritish yo'li bilan bartaraf etiladi;
2. O'lchanadigan kattalik  $X$ ning o'rtacha arifmetik qiymati  $\bar{x}$  hisoblanadi;
3. Qo'pol xatolik va o'tkinchi xatoliklarning mavjudligini aniqlash va uni bartaraf etish;
4. O'lhash natijalarining normal taqsimlanishi to'g'risidagi gipoteza tekshiriladi (talab qilingan holda);
5. O'rtacha kvadratik og'ish  $S_x$  va  $S_{\bar{x}}$  lar hisoblanadi;
6. Tasodifiy xatoliklarning ishonchli chegaralari  $\varepsilon_x$  va  $\varepsilon_{\bar{x}}$  lar hisoblanadi;
7. Yo'qotilmagan muntazam xatoliklarning chegaralari hisoblanadi;
8. O'lhash natijalari xatoliklarning ishonchli chegaralari hisoblanadi.

O'lhash natijalarini qayta ishlash ketma-ketligi batafsil ravishda va uni hisoblash formulalari 4.1-jadvalda keltirilgan.

O'lhash natijalari uslubiy ko'rsatma (МИ 1317-86)ga muvofiq quyidagi ko'rinishda yoziladi:

–  $\bar{x} + \Delta, P$  agar o'lhash xatoliklarining ishonchli chegaralari simmetrik bo'lsa,  $\bar{x} + \Delta, P$  bu  $P$  ehtimollikdag'i o'lchaning kattalikning chinakam qiymati  $[\bar{x} - \Delta; \bar{x} + \Delta]$  ishonchli intervalida joylashadi degani;

–  $\bar{x}; S_{\bar{x}}; n; \Theta$  agar xatoliklarni tashkil etuvchilarining taqsimlanish vazifasi to'g'risida ma'lumotiar bo'lmagan taqdirda va o'lhash natijalarini keyinchalik qayta ishlash ko'zda tutilsa yoki xatoliklarni tahlil qilish; agar yo'qotilmagan muntazam xatoliklarning chegaralari (3.7) formula bo'yicha hisoblangan bo'lsa, qo'shimcha ishonchli ehtimollik  $P$  ni ko'rsatish lozim bo'ladi.

O'lhash natijalarining sonli qiymatlari, xuddi xatolik qiymatlari singari, o'nlik razradli raqamlari bilan tamomланади.

## 4.1-jadval

### O'chash natijalarini qayta ishlash ketma-ketligi.

Bajariladigan ishlar	Bevosita o'chash	Xatolikning normal taqsimlanish qonuniyati	Xatolikning noaniq taqsimlanish qonuniyati	Bilbosita o'chash	Xatolikning noaniq taqsimlanish qonuniyati
1. Muntazam xatolikni tuzatish $q$ ni kiritish yoki bilan bariarf etiladi	$x_i = x_i^* + q$			$x_i^* = x_i - q$	
2. O'chanaadigan kattalik $X$ ni ortacha arifmetik qiyamatini $\bar{X}$ hisoblash.		$\bar{X} = \frac{1}{n} \cdot \sum_{i=1}^n x_i$		$\bar{z} = F(\bar{x}_1, \bar{x}_2, \bar{x}_3, \dots, \bar{x}_m) = F(\bar{\bar{x}}_j), j = 1, 2, 3, \dots, m.$	
3. Qo'pol xatolik va o'tkinchi xatoliklarning mayvidligini aniqlash va uni bartaraf etish.			$t = \frac{x_{\text{max}} - \bar{X}}{S_x}, \text{ yoki } t = \frac{\bar{X} - x_{\text{min}}}{S_x}$	$\bar{x} = \frac{x_{\text{max}} - \bar{X}}{S_x}, \text{ yoki } t = \frac{\bar{X} - x_{\text{min}}}{S_x}$	
4. O'chash natijalarining normal taqsimlanishi to'g'risidagi gipotezani tekshirish.				Talab qilingan holda	Talab qilingan holda
5.1. O'rtacha kvadratik og'ish $S_x$ , baholashti hisoblash.	$S_x = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{n-1}}$		$S_x = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i^2 - \bar{x}^2)}{n}}$		

<p>5.2. O'rtacha kvadratik og'ish <math>S_x</math> baholashni hisoblash.</p>	$S_x = \frac{S_x}{\sqrt{n}} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{n(n-1)}}$	$S_x = \frac{S_x}{\sqrt{n}} = \frac{1}{n} \sqrt{\sum_{i=1}^n (x_i^2 - \bar{x}^2)}$	$S_x = \sqrt{\left( \sum_{j=1}^n \left( \frac{\partial F}{\partial x_j} \right)^2 \cdot S_{x_j}^2 + \sum_{i,j=1}^{n-1} \left( \frac{\partial^2 F}{\partial x_i \partial x_j} \right) \cdot r_{ij} \cdot S_{x_i} \cdot S_{x_j} \right)} \cdot S_x$ $S_x = \sqrt{\sum_{j=1}^n \left( \frac{\partial F}{\partial x_j} \right)^2} \cdot S_{x_j}^2$	$\varepsilon_x = \pm \sqrt{1-P} \cdot S_x$ $\varepsilon_x = \sqrt{1-P} \cdot S_x$ $\varepsilon_x = \pm \sqrt{1-P} \cdot S_x$ $\varepsilon_x = \pm \sqrt{1-P} \cdot S_x$ $\varepsilon_x = \pm \sqrt{1-P} \cdot S_x$ $\varepsilon_x = \sqrt{1-P} \cdot S_x$
<p>6. Yosodiy xatoliklarning ishonchli chegaralarini <math>\varepsilon_x</math> va <math>\varepsilon_{\bar{x}}</math> larni hisoblash.</p>	$\varepsilon_x = \pm t_x \cdot S_x, \quad \varepsilon_{\bar{x}} = \pm t_{\bar{x}} \cdot S_{\bar{x}}$	$\varepsilon_x = \sqrt{1-P} \cdot S_x$ $\varepsilon_{\bar{x}} = \sqrt{1-P} \cdot S_{\bar{x}}$	$\Theta = \pm \sum_{i=1}^n  \Theta_i $ $\Theta(P) = \pm K \sqrt{\sum_{i=1}^n \Theta_i^2}$ $\Theta_x = \frac{1}{2} \sum_{j=1}^n \left( \frac{\partial^2 F}{\partial x_j^2} \right) \cdot S_{x_j}^2$	$\Delta = t_x \cdot S_x \cdot \Delta = t_{\bar{x}} \cdot S_{\bar{x}}$ $t_x = [\Theta + \varepsilon_x]/[S_x + S_{\bar{x}}]$ $S_x = \sqrt{S_x^2 + S_{\bar{x}}^2}$ $S_{\bar{x}} = \sqrt{S_x^2 + S_{\bar{x}}^2}$
<p>7. Yo'qotilmaqan muntazam xatoliklarning chegaralarini hisoblash.</p>	$\Theta = \pm \sum_{i=1}^n  \Theta_i $ $\Theta(P) = \pm K \sqrt{\sum_{i=1}^n \Theta_i^2}$	$\Theta = \pm \sum_{i=1}^n  \Theta_i $ $\Theta(P) = \pm K \sqrt{\sum_{i=1}^n \Theta_i^2}$	$\Theta = \pm \sum_{i=1}^n  \Theta_i $ $\Theta(P) = \pm K \sqrt{\sum_{i=1}^n \Theta_i^2}$	$\Delta = t_x \cdot S_x \cdot \Delta = t_{\bar{x}} \cdot S_{\bar{x}}$ $t_x = [\Theta + \varepsilon_x]/[S_x + S_{\bar{x}}]$ $S_x = \sqrt{S_x^2 + S_{\bar{x}}^2}$ $S_{\bar{x}} = \sqrt{S_x^2 + S_{\bar{x}}^2}$
<p>8. O'lchash natijalari xatoliklarini ishonchli chegaralarini hisoblash.</p>				

#### 4.1.3. Qo'pol xatoliklarning namoyon bo'lishini aniqlash

Qo'pol xatoliklarning sodir bo'lishi va ularning bartaraf etilishi o'lhash natijalarining normal baholanmaslik mezoniga asoslanadi.

O'lhash natijasi x<sub>da</sub> qo'pol xatolik yo'qligi gipotezasini tekshirish uchun kattalikning taqsimlanishidan foydalanish mumkin:

$$t = \frac{x_{\max} - \bar{x}}{S_x} \text{ yoki } t = \frac{\bar{x} - x_{\min}}{S_x} \quad (4.1)$$

agar  $t < t_{\max}$  bo'lsa, [bu yerda,  $t_{\max}$  jadvaldan aniqlanadi (A.3-jadva!ga qaralsin)], gipoteza qabul qilinadi. Aks holda, uni inkor etish kerak bo'ladi va bu natija keyinchalik o'lhash natijalarini qayta ishlashda e'tiborga olinmaydi.

Qo'pol xatolik namoyon bo'lgan va bartaraf etilgan holda to'g'rigan o'lhash natijalarining o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblash va o'rtacha kvadratik og'ishni baholash endi yangitdan o'lhashlar soni  $n' = n - m$  uchun o'tkaziladi, bu yerda  $m$  – namoyon bo'lgan o'tkinchi xatoliklar soni.

Qator o'lhashlar sohalarida ( $x_i - \bar{x}$ ), xatolik ishonchli ehtimollikning 0,997 qiymatida  $3 \cdot S_x$  (yoki  $3 \cdot \sigma$ ) dan oshib ketadi va bu o'tkinchi xatolik deb hisobianadi. Bu qoida **uch sigma (3σ) qoidasi** deyiladi.

#### 4.1.4. O'lhash natijalarining ishonchli ehtimolligini aniqlash

Ishonchli ehtimollikning eksperiment natijasiga asoslanib  $S_x$   $\bar{x}$  qiymatlari bo'yicha va ishonchli interval  $[x_1; x_2]$  bo'yicha quyidagicha aniqlanadi:

$$t_1 = \frac{x_1 - \bar{x}}{S_x}, \quad t_2 = \frac{x_2 - \bar{x}}{S_x} \quad (4.2)$$

Bu formulalar bo'yicha o'lhash natijalari  $x_1$  va  $x_2$  larning o'rtacha arifmetik  $\bar{x}$  dan  $t_1$  va  $t_2$  me'yorlangan og'ishi chetlashuvni aniqlanadi. Ularning qiymatlari bo'yicha A.2-jadvaldan  $F(t_1)$  va  $F(t_2)$  integral funksiyalarining qiymatlari topiladi va

$$P = F(t_1) + F(t_2) \quad (4.3)$$

formula bo'yicha ishonchli ehtirollik  $P$  aniqlanadi.

#### **4.1.5. O'Ichash natijalarini yaxlitlash. Yaxlitlash qoidasi. Juda kichik xatoliklarning mezoni**

**Sonlarning qiymatli raqamlari.** Berilgan sonning qiymatli raqamlari – bu nolga teng bo'lmagan bиринчи chapdagi raqamlardan hammasi то'ngda yozilgan raqamlarning oxirigacha. Bunda,  $10^n$  ко'paytmadan keyingi nollar hisobga olinmaydi. Misollar:

1.  $12,0$  soni uchta qiymatli raqamga ega.
2.  $30$  soni ikkita qiymatli raqamga ega.
3.  $120 \cdot 10^3$  soni uchta qiymaili raqamga ega.
4.  $0,514 \cdot 10$  soni uchta qiymatli raqamga ega
5.  $0,0056$  soni ikkita qiymatli raqamga ega.

**Yaxlitlash qoidasi.** Yaxlitlash shundan iboratki, unda o'ng tarafdan boshlab qiymatli raqamdan to aniq raqam razradigacha tashlab yuboriladi.

Misol,  $132,48$  soni o'ngdan to'rtinch raqam yaxlitlanadi va u  $132,5$  bo'ladi. Agar tashlab yuboriladigan bиринчи raqam (chapdan o'ngga qarab hisoblaganda) 5ga teng yoki katta bo'lsa, unda oxirgi saqlanadigan raqam bittaga ko'paytiriladi.

Misollar:

1.  $0,145$  soni ikki qiymatli raqamgacha yaxlitlanadi va  $0,15$  bo'ladi.
2.  $0,156$  soni esa  $0,16$ ga yaxlitlanadi.

Sonlarni qiymatli raqamning istalgan sonigacha bosqichli emas, balki biryo'la yaxlitlash kerak.

Misol:  $565,46$  soni uchta qiymatli raqamgacha bevosita  $565$ ga yaxlitlanadi. Bosqich bo'yicha yaxlitlanganda I bosqichda  $-565,5$ ga, II bosqichda esa  $566$  (xato bilan)ga yaxlitlanishi mumkin edi.

Butun sonlar ham kasr sonlar kabi yuqoridagi qoida bo'yicha yaxlitlanadi.

Misol:  $12456$  sonining ikki qiymatli raqamgacha yaxlitlanishi  $12 \cdot 10^3$ ni, to'rtta qiymatli raqamgacha yaxlitlanishi esa  $1245 \cdot 10$ ni beradi.

**O'Ichash natijalarini yaxlitlash.** O'Ichash natijalari shunday yaxlitlanishi kerakki, o'Ichash natijalarining sonli qiymati, xatolik qiymati kabi o'nlik razradidagi raqami bilan tamomlansin.

Misol:  $\pm 0,000004$  xatolikda olingen o'Ichash natijasi  $23,45613234$   $23,456132$ gacha yaxlitlanadi.

**O'Ichash xatoligini yaxlitlash.** Odatda, o'Ichash natijasi ikkita, juda kam hollarda uchtagacha qiymatli raqamgacha yaxlitlanadi.

**Nihoyatda kichik xatoliklarning kriteriysi.**

$E_k$  xatoligi nihoyatda kichik deb hisoblanadi, agar

$$E_K < \left( \frac{S_{\bar{x}}}{3} \right) \text{ bo'lsa,} \quad (4.4)$$

bu yerda:  $E_K$  – xususiy xatolik;  $S_{\bar{x}}$  – o'rtacha arifmetik xatolik yoki jamlangan xatolik.

Kichik xatoliklar mezoni bilvosita o'lchashlar xatoliklari uchun ham, xususiy xatoliklar kvadratlari yig'indisi uchun ham ishlatalishi mumkin:

$$\sqrt{E_K^2 + S_{K+1}^2 + \dots} < \left( \frac{S_{\bar{x}}}{3} \right) \quad (4.5)$$

#### 4.1.6. O'lchash natijalarining tavsiya etish shakllari

O'lchash natijalarining tavsiya etilish shakllari ГОСТ 8.011-72 va МИ 1317-86 me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'lchash natijalari nomlangan va nomlanmagan sonlarda ko'rsatiladi (tavsiya etiladi).

Misol: 100 kW; 20 °S – nomlangan sonlar; 0,44; 2,765 – nomlanmagan sonlar.

O'lchash natijalarining sonli qiymatlari xuddi xatolik qiymatidek, o'shanday razrad raqami bilan tamomlanadi.

O'lchash natijalari bilan birga xatoliklarning tavsiflari ham yoki ularning statistik baholanishi va o'lchash sharoitlari ham ko'rsatilishi kerak.

Masalan,  $\bar{Q}_{\text{et}} = 10,75 \text{ m}^3/\text{s}$ ;  $\pm \Delta = 0,15 \text{ m}^3/\text{s}$  agar o'lchash xatoliklarining ishonchli chegaralari simmetrik bo'lsa, ( $|\Delta| < |\Delta|$  o'lchash xatoliklarining ishonchli chegaralari nosimmetrik);  $D=0,95$ . O'lchash sharoiti: harorat 20°C, havoning namligi 80 % bo'lsa.

O'lchanigan kattalikning chinakam qiymati ma'lum (ko'rsatiladigan) ishonchli ehtinollik bilan qoplanadigan oraliqdan chetga chiqmagan taqdirda o'lchash natijasining **ishonchli interval** bilan ko'rsatilishiga ruxsat etiladi. Masalan,  $[\bar{x} - \Delta; \bar{x} + \Delta]$  yoki  $[10,60 \text{ m}^3/\text{s}; 10,90 \text{ m}^3/\text{s}]$  yoki o'lchanadigan sarfning chinakam qiymati qabul qilingan ishonchli ehtimollik 0,95ga teng bo'lganda 10,60dan to 10,90  $\text{m}^3/\text{s}$  intervalida joylashadi. O'lchash sharoiti: harorat 20 °C, havoning namligi 80 %.

Agar o'lchash natijasi attestatlangan O'BU bo'yicha olingan bo'lsa, u holda o'lchash xatoligi tavsiflarining o'rniiga uslubiyatning ishlatalishida olingan o'lchash xatoliklarini guvohlovchi hujjat (attestat)ga ilova qilinishi mumkin. Masalan,  $\bar{Q}_{\text{et}} = 10,75 \text{ m}^3/\text{s}$ , o'lchash xatoligi va o'lchash sharoiti МВИ N:17 05.07.2003 attestat bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'p marotabali kuzatishlarning o'rtacha arifmetik qiymati  $n$  ta kuzatishlar soni ko'rsatilishi bilan tavsiya etiladi.

Agar xatoliklarning tashkil etuvchilarini taqsimot vazifasi to‘g‘risida ma‘lumotlar bo‘lmasa va xatoliklarning tahlilidan o‘lchash natijalarini keyinchalik qayta ishslash ko‘zda tutilsa, u holda o‘lchash natijasi quyidagi ko‘rinishda beriladi:  $\delta_{\alpha}$ ;  $S(X)$ ;  $n$ ;  $\Theta$ .

## 4.2. O‘lchashlarning sifat mezonlari

Har bir narşaning sifati bo‘lganligi kabi o‘lchashlarning ham sifati va uning mezonlari mavjud. Bu mezonlar o‘lchashlardagi asosiy tafsiflarni ifodalaydi. Bu mezonlar qatoriga quyidagilar kiritilgan:

**Aniqlik** mezon o‘lchash natijalarini kattalikning chinakam qiymatiga yaqinligini ifodalaydi. Miqdor jihatdan aniqlik nisbiy xatolik moduliga tesskari tarzda baholanadi. Masalan, agar o‘lchash xatoligi  $10^{-3}$  bo‘lsa, uning aniqligi  $10^3$  bo‘ladi, boshqacha aytganda, aniqlik qanchalik yuqori darajada bo‘lsa, o‘lchash natijasidagi muntazam va tasodifiy xatoliklar ulushi shunchalik kam bo‘ladi.

**Ishonchlilik** o‘lchash natijalariga ishonch darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi. O‘lchash natijalariga nisbatan ishonchlilik ehtimollar nazariyasi va matematik statistika qonunlari asosida aniqlanadi. Bu esa konkret holat uchun xatoligi berilgan chegaralarda talab etilgan ishonchlilikdagi natijalarni olishni ta‘minlovchi o‘lchash usuli va vositalarini tanlash imkonini beradi.

**To‘g‘rilik** – o‘lchash natijalaridagi muntazam xatoliklarning nolga yaqinligini bildiruvchi sifat mezon.

**Mos keluvchanlik** – bir xil sharoitlardagi o‘lchashlarning natijalarini bir-biriga yaqinligini bildiruvchi sifat mezoni. Odatda, o‘lchashlarning mos keluvchanligi tasodifiy xatoliklarning ta’sirini ifodalaydi.

**Qaytaruvchanlik** – har xil sharoitlarda (turli vaqtida, har xil joylarda, turli usullarda va vositalarda) bajarilgan o‘lchashlarning natijalarini bir-biriga yaqinligini bildiradi.

**O‘lchash xatoligi** – o‘lchash natijasini haqiqiy qiymatdan chetlashuvini ifodalovchi o‘lchashning sifat mezoni.

## 4.3. Noaniqliklar va ularni baholash

**O‘lchashlar noaniqligi** – o‘lchash natijalari bilan bog‘liq bo‘lgan va o‘lchanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo‘sib yozilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar tarqoqligini tafsiflovchi ko‘rsatkich.

Ko'rsatkich, masalan, standart og'ish (yoki unga karrali son) yoki ishonch intervali (oralig'i) kengligi bo'lishi mumkin.

Noaniqlik atamasi ruschada "неопределенность", inglizchada "uncertainty" so'zlarini bildiradi. O'lhash noaniqligi, odatda, ko'plab tashkil etuvchilarini o'z ichiga oladi. Bu tashkil etuvchilarning ba'zilari qator o'lhashlar natijalarining statistik taqsimlanishidan baholanishi va eksperimental standart og'ishlar bilan tavsiflanisni mumkin. Standart og'ishlar bilan tavsiflanishi mumkin bo'lgan boshqa tashkil etuvchilar ham tajribaga yoki boshqa axborotlarga asoslangan ehtimolliklarning taxmin qilingan taqsimianishidan baholanadi.

Shubhasiz, o'lhash natijasi o'chanayotgan kattalik qiymatining eng yaxshi bahosi bo'lib hisoblanadi hamda tuzatishlar va taqqoslash etalonlari bilan bog'liq bo'lgan, tartibli (doimiy) ta'sirlardan yuzaga keladigan tashkil etuvchilarini o'z ichiga olgan holda, noaniqlikning tashkil etuvchilari dispersiyaga hissa qo'shadi.

**Standart noaniqlik** – standart og'ish sifatida ifoda etilgan o'lhash natijasining noaniqligi.

**A tur bo'yicha noaniqlikni baholash** – qator kuzatuvlarni statistik tahlil qilish yo'lli bilan noaniqlikni baholash usuli.

**B tur bo'yicha noaniqlikni baholash** – qator kuzatuvlarni statistik tahlil qilishdan farq qiluvchi usullar bilan noaniqlikni baholash usuli.

**Yig'indi noaniqlik** – chegarasida o'chanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo'shib yozilishi mumkin bo'lgan qiymatlar taqsimotining katta qismi joylashgan o'lhash natijasi atrofidiagi oraliqni aniqlovchi kattalik.

**Qamrov koeffitsiyenti** – to'liq noaniqlikka erishish uchun yakuniy standart noaniqlikning ko'paytiruvchisi sifatida foydalilaniladigan son bilan ifodalangan koeffitsiyent.

**Kuzatib borish** – belgilangan noaniqliklarga ega bo'lgan solishtirishlar ning ajralmas zanjiri vositasida muvofiq etalonlar, ko'pincha milliy va xalqaro etaloniar bilan aloqa o'rnatish imkoniyatidan iborat bo'lgan o'lhash natijalari yoki etalon qiymatlarining xossalari.

**Pretcisionlik** – o'lhash natijalrining muayyan sharoitlarda olingan mustaqil natijalarining bir-biriga yaqinligi.

**Noaniqlik (o'lhashlar noaniqligi)** – bu o'lhash natijalari va qiymatlari yoyilishini tavsiflanishi bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni o'chanayotgan kattalik yetarli asoslash bilan yozish mumkin bo'lgan ko'rsatkich. "Noaniqlik" atamasi ta'rifidan u o'lhash natijasiga muvofiq o'lchovning miqdoriy aniqligi va o'chanadigan kattalik qiymati o'lhash shartlarida aniqlangan qiymat intervali ichida turishiga ruxsat etilishi mumkin bo'lgan

ishonchlilik darajasini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, noaniqlik o'lcoving miqdoriy jihatni bo'lib, o'lchanayotgan kattalikni va uni o'tkazishda olingen yoki o'lhash natijasini baholash qanchalik ishonchliligi bo'lib hisoblanadi. Noaniqliknii baholash bir xil o'lchanayotgan kattalikni turli o'lhash natijalarini yoki etalon qiyatlari bilan o'zaro solishtirish imkoniyatini beradi. O'lhash natijalariga ishonchlilik esa milliy savdoda, xalqaro tovar ayriboshlashda va atrof-muhitga zarari sababli xavf-xatarni baholashda ularning muhimligini solishtirish yordamida o'rnatiladi. Bu o'lhash natijalarini o'zaro tan olish to'g'risidagi kelishuvni tuzishda savdo va iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Amaliyotda o'lhash natijalarining noaniqligi ko'plab omillarning ta'siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Uiar, masalan, o'lhash usullari va protsedurasi qismida bo'ladigan o'lchanayotgan kattalikni noto'g'ri aniqlanishi, namunalarni noto'g'ri tanlash, atrof-muhit sharoitining noqulayligi, o'lhash vositasida qo'llaniladigan xatolik, o'lhash vositalarini kaiibrash va qiyoslashda qo'llaniladigan standart namunalar va etalonlar qiyatlarning noaniqligi, yaqinlashishi va ehtimolligi, shuningdek, tasodifiy o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

*Uslubiyatlar yaroqliliginibaholash.* Bunda o'lhashlarni bajarish uslubiyatlari va sinov uslubiyatlarining yaroqligini baholash tushuniladi.

Amaliyotda eskirgan o'lhashlar uchun qo'llaniladigan aniq maqsadli uslubiyatlarini ko'proq ularning yaroqliliginibaholash bo'yicha tadqiqotlar jarayonida belgilanadi. Bunday tadqiqotlarning natijalari usullarning umumiy tavsifnomalari bo'yicha ham, unga ta'sir etuvchi alohida omillar bo'yicha ham axborot beradi va bu axborotdan noaniqliknii baholashda foydalanish mumkin.

Uslublarning yaroqliliginibaholash (validation of methods) chet elda qabul qilingan o'lhashlar sifatini ta'minlash tizimining muhim tashkil etuvchisi bo'lib hisoblanadi. "Validation" atamasi tegishli tushunchalarining turli mazmuni sababli milliy metrologiyada qabul qilingan "attestatlash" atamasi bilan teng ma'noga ega emas. Qonunlashtiruvchi metrologiyada protsedura sifatida amalga oshiriladigan uslublarni attestatlash uslubning unga qo'yilgan metrologik talablarga muvofiqligini o'rnatishni maqsad qilib qo'yadi. Bunda diqqat markazda olingen natijalar xatoliklarining tavsifnomalari bo'ladi. Uslublarning yaroqliliginibaholash, odatda, samaradorlikning qator ko'rsatkichlarini belgilashdan (topish va aniqlash chegarasi, selektivlik/o'ziga xoslik, yaqinlashish va qayta ishlab chiqarish, barqarorlik va boshqalar) va ular asosida aniq o'lhash masalasini yechish uchun uslublarning yaroqliliginibaholash muhokama qilishdan iborat bo'ladi.

Yaroqlilikni baholash bo'yicha tadqiqotlar natijalaridan noaniqlikni (xatolik tavsifnomalarini) topishda foydaanish munkin.

Uslubiyatning yaroqiligidini baholash bo'yicha tadqiqotlar samaradorlikning umumiy ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadiga ega. Uslubiyatni ishlab chiqish va uning iaboratoriyalararo tadqiqoti jarayonida yoki ichki laboratoriya tadqiqoti dasturiga rioya etgan holda belgilanadi. Xatolikning yoki noaniqlikning alohida manbalari, odatda, pretcisionlikning umumiy tavsiflari bilan solishtirilganda aharniyatiroq bo'lganidagina ko'rib chiqiladi. Bunda asos tahlil natijalariga tegishli tuzatishlarni kiritishdan ko'ra, muhim samaralarning aniqlanishi va yo'qotilishiga qilinadi. Bu potensial muhim ta'sir o'tkazuvchi omillar umumiy pretcisionlik bilan solishtirilib, aharniyatliligi belgilanganda, tekshiriiganda bu omillarga e'tiborsizlik bilan qarash holatiga olib keladi. Bu sharoitlarda tadqiqotchilar ko'pchilik tartibli samaralarning aharniyatsizligi isboti va qolgan aharniyatli samaralarning ba'zi baholanishlari bilan bir qatorda, umumiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishadilar.

Uslubiyatlarning yaroqlilagini baholash bo'yicha tadqiqotlar, odatda, quyidagi tavsifnomalarning ba'zilari yoki barchasining aniqlanishini o'z ichiga oladi:

*Pretcisionlik – muayyan o'rnatilgan sharoitda olingen mustaqil o'lhash natijalarining bir-biriga yaqinlik darajasi. Mustaqil o'lhash (yoki sinash) natijalari – ilgari olingen natjalarga ta'sir etmaydigan yo'l bilan olingen, oynan xuddi shuning o'zi yoki unga o'xshash obyektni sinashda olingen natjalar.*

"Pretcisionlik"ni ko'rib chiqish zaruriyati bir xil holatlarda bir xil natijalarni bermaydigan, bir xil materiallarga mo'ljallangan o'lhashlarni bijarishda yuzaga keladi. Bu esa o'ziga xos har bir o'lhash tartibida tasodifiy xatoliklardan yuz beradigan va o'lhash natijalariga ta'sir etuvchi omillar to'liq nazorat qilinmasligini namoyon etadi.

Pretcisionlikning asosiy tavsiflari yaqinlashish va qayta ishlab chiqarishning standart og'ishlarini (ISO 3534-1:1993 va ГОСТ Р ISO 5725-2-2002), shuningdek, oraliq pretcisionlikni (ISO 3534-3:1994) o'z ichiga oladi. Yaqinlashish laboratoriya qisqa vaqt oralig'ida bitta operator tomonidan, bir turdag'i uskunada kuzatilgan o'zgaruvchanlikni tavsiflaydi va uni ushbu laboratoriya doirasida yeki laboratoriyalararo tadqiqotlar doirasida baholash mumkin. Muayyan usiubiyat uchun qayta ishlab chiqarishning standart og'ishini bevosita laboratoriyalararo tadqiqotlar yordamida baholash mumkin va u xuddi shu namunani bir necha laboratoriyalarda tahlil qilinganda natjalar o'zgaruvchanligini tavsiflaydi.

*Siljish.* Qo'llanilayotgan usulga bog'liq bo'lgan siljish, odatda, solishtirishning munosib namunalarini yoki ma'lum qo'shimchali namunalarini o'lhash yordamida belgilanadi. Muvofiq tayanch qiyatlarga tegishli umumiyl siljishni aniqlash qabul qilingan etalonlarga kuzatib borishni belgilashda muhim. Siljishni ajratib olish (kutilgan qiymatga bo'lingan kuzatilgan qiymat) ko'rinishida ifodalanishi mumkin. Analitikning vazifasi siljishga e'tibor bermasdan qarash yoki unga tuzatish kiritishni ko'rsatishdan iborat. Lekin har qanday holda ham siljishni belgilash bilan bog'liq noaniqlik umumiyl noaniqlikning ajralmas tashkil etuvchisi bo'lib qoladi.

*Chiziqlilik (to'g'ri mutanosiblik).* Chiziqlilik ba'zi diapazonda o'lhash uchun foydalilanligan usullarning muhim xossasi bo'lib hisoblanadi. Natija chiziqliliginiz toza moddalarda va real namunalarda aniqlash mumkin. Odatda, chiziqlilik miqdoriy aniqlanmaydi, uni ko'z bilan yoki nochiziqlilik ahamiyatliligining mezonlari yordamida tekshiriladi. Ahamiyatli nochiziqlilikni, odatda, nochiziqli darajalovchi tavsifnomalar yordamida hisobga olinadi yoki torroq ishchi diapazonni tanlash yo'li bilan bartaraf etiladi. Chiziqlilikdan qolgan har qanday og'ishlar, odatda, bir qancha o'lchanayotgan qiymatlarni qamrovchi umumiyl pretcisionlik bahosiga kiradi yoki darajalash bilan bog'liq bo'lgan noaniqlik chegarasida qoladi.

*Topish chegarasi.* Uslubiyatning yaroqliliginin baholash jarayonida topish chegarasi, odatda, ishchi diapazonning quyi chegarasini belgilash uchungina aniqlanadi. Ammo topish chegarasi yaqinidagi noaniqliklar alohida ko'rib chiqishni va maxsus talqin etilishni talab etishi mumkin, topish chegarasi qanday aniqlanganidan qat'i nazar noaniqliknin baholashga uning to'g'ridan to'g'ri aloqasi yo'q.

*Barqarorlik.* Ko'p hujjalalar tahlil usullarining yaroqliliginin baholash va ishlab chiqish bo'yicha aniq ko'rsatkichlarni o'zgartirishga natijalar sezuvchanligini bevosita tadqiqot qilishni talab etadi. Odatda, bu bir yoki bir necha omillarni o'zgartirish bilan chaqirilgan ta'sirlar tadqiqot qilinadigan "mustahkamlikka sinash" yordamida amalga oshiriladi. Agar bunday sinov ahamiyatli bo'lsa (o'z pretcisionligi bilan solishtirganda), u holda bu ta'sirning kengligini aniqlash va muvofiq yo'l qo'yilgan ishchi diapazonni tanlash uchun batafsil tadqiqot olib boriladi. Barqarorlik bo'yicha ma'lumotlar muhim omillarning o'zgarish natijalariga ta'siri haqida axborot berish mumkin.

*Selektivlik/ o'ziga xoslik.* Qandaydir o'lhash uslubiyati aniq o'lhash ko'rsatkichlariga bir ma'noda javob beradigan darajadir. Selektivlik tadqiqotlarida, odatda, mumkin bo'lgan halal beruvchi komponentlar ta'sirini bu moddalarni bo'sh namunalarga ham, ishchi namunalarga ham qo'shgan holda

va javobni kuzatgan holda o'rganiladi. Olingen natijalardan, odatda, haqiqiy halai beruvchi ta'sirlar unchalik ahamiyatga ega emasligini ko'rsatish uchun toydalaniлади. Bunday tadqiqotlarda bevosita javob o'zgarishi aniqlanganligi uchun bu ma'lumotlardan potensial halaqitlar bilan bog'liq noaniqlikni baholash uchun foydalanish mumkin. Bundan tashqari, bunda halaqit beruvchi moddalar konsentrasiyalari diapazoni haqida axborot olinadi.

*Kuzatib borish.* Turli laboratoriyalarda yoki har xil vaqtida olingen natijalarni ishonch bilan solishtirish imkoniga ega bo'lish muhim. Bu barcha laboratoriylar bir xil o'Ichash shkalasi yoki bir xil "sanash nuqtasi" dan foydalanishlari bilan ta'milanadi. Ko'p hollarda bunga dastlabki milliy yoki xalqaro etalonlarga, mukammal hollarda esa (uzoq muddatli kelishuv maqsadida) Xalqaro birliklar tizimi (SI)ga olib boruvchi kalibrash zanjirini o'rnatish bilan erishiladi. Analitik tarozilar yaxshi misol bo'lib hisoblanadi. Har bir tarozi etalon toshlari yordamida kalibrланади. ular esa o'z navbatida, milliy etalonlarga nisbatan kalibrланади. Shu tarzda kilogramning dastlabki etaloni bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ma'lum boshlang'ich qiymatga olib boruvchi taqqoslashlarning uzilmas zanjiri umumiy sanash nuqtasiga "kuzatib borish"ni ta'minlaydi va bu turli insonlarning bir xil o'Ichash vositalidan foydalanishlarini kafolatlaydi. Oddiy o'Ichashlarda turli laboratoriylar o'rtasidagi o'Ichashlarning kelishilganligiga (yoki bir vaqtida o'Ichashlarning kelishilganligi) o'Ichashlar natijasini olish yoki tekshirish uchun foydalilanidigan, bunga tegishli bo'lgan barcha oraliq o'Ichashlarni kuzatib borishni belgilash tufayli erishiladi. Shuning uchun kuzatib borish o'Ichashlarning barcha sohalarida muhim tushuncha bo'lib hisoblanadi.

Kuzatib borish noaniqlik bilan chambarchas bog'liq va kuzatib borish o'zaro bog'liq bo'lgan barcha o'Ichashlarni kelishilgan o'Ichash shkalasida joylashtirishga yo'l qo'yadi. Bunda noaniqlik bu zanjir xalqalarining "chidamliligi"ni va o'xshash o'Ichashlarni bajaruvchi laboratoriylar o'rtasidagi kutilgan kelishuv darajasini tavsiflaydi.

Umuman, aniq etalonga kuzatib boriladigan bo'lib hisoblanuvchi natija noaniqligi bu etalon noaniqligi va bu etalonga tegishli o'Ichash noaniqligi sifatida ifodalanadi.

Tahlillar uslubi natijasining kuzatib borilishi quyidagi jarayonlar ketma-ketligi (protsedura)ning qo'shilishi bilan belgilanishi lozim:

- kuzatib borilayotgan etalonlardan o'Ichash uskunasini kalibrash uchun foydalaniлади;
- dastlabki usulni amalga oshirish yoki dastlabki usul natijalari bilan solishtirish;
- taqqoslash namunalaridan toza moddalar sifatida foydalanish;

- matrisa jihatidan mos keluvchi standart namunalardan foydalanish;
- ma'lum, yaxshi aniqlangan uslub bilan solishtirish.

*O'lhash uskunasini kalibrlash.* Barcha hollarda foydalanilayotgan o'lhash uskunasini kalibrash muvofiq etalonga kuzatib borilishi lozim. Usulning o'lhash bosqichi ko'pincha miqdoriy tavsifnomasi Siga kuzatib boriladigan taqqoslash namunasi yordamida darajalanadi. Bunday amaliyot usiubiyatning bu qismi uchun natijalarning Siga kuzatib borilishini ta'minlaydi. Biroq o'lhash bosqichidan oldin bo'ladigan operatsiyalar uchun kuzatib borishni belgilash ham zarur.

*Taqqoslash namunalaridan toza moddalar sifatida foydalanish.* Kuzatib borishni ma'lum miqdordagi toza moddani tarkibiga oluvchi toza modda yoki namuna ko'rinishidagi taqqoslash namunasi yordamida ko'rsatish mumkin. Buni, masalan, ma'lum qo'shimchalarni bo'sh namunalarga yoki tahlil qilinayotgan namunaga qo'shish bilan amalga oshirish mumkin. Biroq har doim foydalanilgan etalon va tahlil qilinayotgan namuna uchun o'lhash tizimi javobidagi farqni baholash zarur. Afsuski, ko'p holiarda, xususan, ma'lum ko'shimchalarni qo'shishda, javoblardagi bu farqni tuzatish bu tuzatishning noaniqligidek katta bo'lishi mumkin. Bu tarzda natijaning kuzatib borilishi, umuman olganda, SI birliklariga o'rnatilishi munikin bo'lsa ham, amaliyotda eng oddiy holatlardan tashqari natija noaniqligi nomaqbtl bo'lishi yoki miqdoriy aniqlanmagan bo'lishi mumkin. Agar noaniqliknii miqdoriy aniqlash mumkin bo'lniasa, u holda kuzatib borish o'matilmaydi.

*Standart namunani qo'llash.* Kuzatib borishni matrisa jihatdan yaqin bo'lgan standart namuna (SN)da, bu SNning attestatlangan qiymati bilan olingan o'lhash natijalarini solishtirish yo'li bilan ko'rsatiladi. Bu mos keluvchi «matrisa» SN mavjud bo'Iganda, taqqoslash namunasini toza modda ko'rinishida qo'llash bilan taqqoslaganda noaniqlikni kamaytirishi mumkin. Agar SN qiymati Siga kuzatib borilgan bo'lsa, u holda bu o'lhashlar SI birliklariga kuzatib borishni ta'minlaydi. Biroq xatto shu holda ham natija neaniqligi, ayniqsa, namuna tarkibi va SN tarkibi o'rtasida yetarli muvofiqlik bo'lмаган hollarda nomaqbtl darajada katta, hatto miqdoriy aniqlab bo'lmaydigan bo'lishi mumkin.

*Ma'lum usul bilan solishtirish.* Natijalarning aynan bir xil taqqoslana olinishiga ko'pincha faqatgina yaxshi aniqlangan va umumqabul qilingan usul bilan erishish mumkin. Odatda, bu usul kirish ko'rsatkichlari atamalarida aniqlanadi; masalan, ekstraksiyaning aniq vaqtining, zarralar o'lchovining vazifalari va boshqalar. Bunday usulni qo'llash natijalari ushbu kirish ko'rsatkichlarining qiymatlari muvofiq etalonlarga nisbatan kuzatib boriladi. Natija noaniqligi me'yorlangan kirish ko'rsatkichlarining

noaniqliklardan ham, me'yorlanishning to'liq emasligidan ham, shuningdek, usulni bajarishda o'zgaruvchanlikdan ham yuzaga kelishi mumkin. Agar kutilayotganidek, muqobil usul natijalari umumqabul qilingan usul natijalari bilan taqqoslansa, u holda qabul qilingan qiymatlarga kuzatib borishga umumqabul qilingan va muqobil usullar bo'yicha olingan natijalarni taqqoslash yo'li bilan erishiladi.

#### **4.3.1. Noaniqliklarni baholash usullari**

Umuman olganda, noaniqliklarni baholash oddiy bo'lib hisoblanadi. Qandaydir o'lchash natijasiga xos bo'lgan noaniqlikn ni baholash uchun quyidagi amallarni bajarish zarur.

*1-bosqich. O'lchanayotgan kattalikni ifodalash.*

O'lchash kattaligi va u bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi nisbatni kiritgan holda aynan nima o'lchanayotganligini aniq ifodalash zarur (masalan, o'lchash kattaliklari, konstantalar, darajalash uchun etalonlar qiymatlari va b.) Mumkin bo'lgan joyda ma'lum muntazam effektlarga tuzatishlar kiritiladi. Bunday tasviriy axborot, odatda, muvofiq hujjatdagi uslubiyatga yoki uslubiyatning boshqa tasvirida keltiriladi.

*2-bosqich. Noaniqlik manbalarini aniqlash.*

Noaniqlik manbalarining ro'yxati tuziladi. U 1-bosqichda belgilangan xuddi o'sha nisbatda ko'rsatkichlar noaniqligiga hissa qo'shadigan manbalarни o'z ichiga oladi, lekin noaniqliknинг boshqa manbalarini, masalan, kinyoviy taxminlardan kelib chiqadigan manbalarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

*3-bosqich. Noaniqliknii tashkil etuvchilarini miqdoriy ifodalash.*

Har bir aniqlangan asosiy manbaga xos bo'lgan noaniqlik qiymati aniqlanadi va baholanadi. Ko'pincha noaniqlikn ning bir qancha manbalar bilan bog'liq bo'lgan yagona hissasini baholash yoki aniqlash mumkin. Shuningdek, mavjud ma'lumotlar noaniqlikn ning barcha manbalarini yetarli darajada hisobga olayotganligini ko'rib chiqish muhim va noaniqlikn ning barcha manbalarining mutanosib hisobga olinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha eksperimentlar va tadqiqotlarni puxta rejalashtirish zarur.

*4-bosqich. Yakuniy noaniqliknii hisoblash.*

3-bosqichda olingan axborot umumiyl noaniqlikka bo'lgan yoki alohida bir qancha manbalarning yakuniy samaralari bilan bog'liq bo'lgan miqdoriy tasvirlangan xossaiardan iborat. Bu xossalarni standart og'ishlar ko'rinishida ifodalash va mavjud qoidalarga muvofiq yakuniy standart noaniqlikn olish uchun ularni jamlash zarur. Kengaytirilgan noaniqlikn olish uchun tegishli qamrov koefitsiyentidan foydalanish zarur.

Xatolik va noaniqlikni baholashga yondashuvlar hamda ulaming o'xhashlik jihatlari 4.2-jadvalda keltirilgan.

4.2-jadval

### Xatolik va noaniqlikni baholashga yondashuvlar

Nº	Mumtoz yondashuv	Noaniqlik yondashivi
Postulatlar	$\alpha)$ o'lchanayotgan $x_0$ kattalikning chinakam qimayti mavjud; $\beta)$ chinakam qiymatni aniqlash mumkin emas; $\gamma)$ kattalikning chinakam qiyomi tasodifiy.	O'lhash natijasi $x_0$ -ga kattalik tasodifiy emas.
Aniqlik tavsiflari	<b>Sifat tavsiflari</b> Aniqliq: - chinakamligi (to'g'riliqi); - pretcisionligi.	Noaniqlik
Aniqlik tavsiflari	<b>Miqdoriy tavsifi</b> Aniqlanmaydigan $Xatolik \Delta = x - x_0$ Muntazam xatolik $\Delta = \bar{x} - x_0$ Aniqlanadigan Tasodify xatolik: - standart og'ishni aniqlash; - ishonchlilik chegarasi. Istisno qilinmagan muntazam xatolik: - istisno qilinmagan muntazam xatolik chegarasi; - istisno qilinmagan muntazam xatolik o'rtacha kvadratik og'ishi. Yig'indi xatolikning o'rtacha kvadratik og'ishi; Yig'indi xatolikning ishonchlilik chegarasi	A turdag'i standart noaniqlik. B turdag'i standart noaniqlik. Yig'indili standart noaniqlik (chiqish kattaligining noaniqligi) Kengaytirilgan (to'liq) noaniqlik
Aniqlik tenglamasi	Chiziqlanish usuii	Noaniqlikning yoyilish qonuni
Tashkil etuvchilarini yig'ish	Turli xil o'lhashlar uchun turli yo'llar	Dispersiyani yig'ishning yagona qoidasi
Interval baholash	Tashkil etuvchilarning yo'llariga bog'liq ravishda	Velch-Sattersveyt formulasi bo'yicha hisoblanadigan, erkinlik darajasining samarali soni bilan Student koefitsiyentiga yig'in di noaniqlikni ko'paytirish

A va B turdag'i noaniqlikni baholashda kirish kattaliklarining standart noaniqligini hisoblash 4.3-jadvalda keltirilgan.

4.3-jadval





### Kirish kattaliklarining standart noaniqligini hisoblash

A tur bo'yicha	B tur bo'yicha
<p>1. <math>i</math>- kirish kattaligini bir martalik o'chashning standart noaniqligi:</p> $u_{A,i} = \sqrt{\frac{\sum_{q=1}^n (x_{iq} - \bar{x}_i)^2}{n_i - 1}},$ <p>bu yerda <math>\bar{x}_i = \frac{1}{n_i} \sum_{q=1}^n x_{iq}</math> – <math>i</math>- kirish kattaligini o'chash natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati.</p> <p>2. <math>i</math>- kirish kattaligini o'chashning standart noaniqligi natijasi o'rtacha arifmetik formulari sifatida aniqlanadi:</p> $u_{A,i}(x_i) = \frac{u_{A,i}}{\sqrt{n_i}} = \sqrt{\frac{\sum_{q=1}^n (x_{iq} - \bar{x}_i)^2}{n_i(n_i - 1)}}$	<p>1. Agarda kirish kattaligining standart og'iishi aniqlangan bo'lsa, unda uni standart noaniqlik <math>u_B(x_i)</math> ga tenglashtirish qabul qilingan.</p> <p>2. Agarda kirish kattaligining yuqori va quyi chegaralari <math>a_+</math>, <math>a_-</math> ni baholash mumkin bo'lsa, unda standart noaniqlikni hisoblash kirish kattaligining ichki chegaralarini taqsimlanish turiga bog'liq holda 4.4-jadvalda keltirilgan formulalar bilan hisoblanadi.</p> <p>3. Agarda <math>p</math> ishonchlilik tenglamasi bilan <math>U_p</math> intervallari aniqlangan bo'lsa, unda B xildagi noaniqlik normal taqsimlanish qonuniyati bo'yicha aniqlanadi, ya'ni</p> $u_B(x_i) = U_p / k_p,$ <p>bu yerda <math>k_p</math> – normal taqsimlanish uchun qamrab olish koefitsiyenti, 0,9; 0,95 va 0,99 ishonchlilik darajalari uchun mos ravishda 1,64; 1,96 va 2,58ga teng.</p>

4.4-jadval

### Kirish kattaliklarining $a_+$ , $a_-$ chegaralari aniq bo'lgan holatlarda B turdag'i standart noaniqlikni hisoblash uchun formulalar

Taqsimlanish vazifasining ko'rinishi	Standart noaniqlikni hisoblash uchun formulalar	Qo'llanish holatlari
<p>To'g'ri burchakli</p>	$u_B(x_i) = \frac{(a_+ - a_-)}{2\sqrt{3}} = \frac{a}{\sqrt{3}}$	<p>Hujatlarda kirish kattaligining <math>a_+</math>, <math>a_-</math> taqsimlanish chegaralari ko'rsatilgan yoki diapazonning maksimal qiymati (<math>\pm a</math>) taqsimlanish ko'rinish va ishonchlilik darajasi ko'rsatilmagan bo'lsa, qo'llaniladi.</p>

<b>Trapesiyali</b>  $u_B(x_i) = \frac{(a_+ - a_-)}{2\sqrt{6}} \sqrt{1 + \beta^2} = \frac{a}{\sqrt{6}} \sqrt{1 + \beta^2}, \quad 0 < \beta < 1$	<p>1. Hujjalarda diapazonning maksimal qiymati (<math>\pm a</math>) keltirilgan (ishonchilik darajasi ko'rsatilmagan) simmetrik taqsimlanish, unda kirish kattaligining qiymati chegara yaqinida ehtimolligi kichikroq, ya'ni markaz yaqinida joylashgan bo'ladi.</p> <p>2. Qachonki kirish kattaligi yig'indi yoki ikkita kattalikning farqlari bo'lishi mumkin bo'lsa, turli qiymatli diapazonlar bilan ehtimolligi teng bo'lsa, qo'llaniladi.</p>
<b>Uchburchakli</b>  $u_B(x_i) = \frac{(a_+ - a_-)}{2\sqrt{6}} = \frac{a}{\sqrt{6}}$	<p>1. <math>\beta=0</math> bo'lganda chegaraviy holatlar trapetsiyali taqsimlansa.</p> <p>2. Agar kirish kattaligi yig'indi (jamlangan) bo'lishi mumkin bo'lsa yoki yoki ikkita kattalikning farqlari bo'lishi mumkin bo'lsa, bir xil qiymatli diapazonlar bilan ehtimolligi teng bo'lsa, qo'llaniladi.</p>
<b>Arksinusli</b>  $u_B(x_i) = \frac{(a_+ - a_-)}{2\sqrt{2}} = \frac{a}{\sqrt{2}}$	<p>Kirish kattaligi argumenti bilan vazifasi sinusoidal bog'liq bo'lsa, <math>[-\pi, \pi]</math> oraliqda ehtimolligi teng taqsimlangan bo'lsa, qo'llaniladi.</p>
<b>Assimetrik eksponensialli</b>  $u_B(x_i) = [(a_+ - x)(x - a_-) - (a_+ - 2x + a_-)/\lambda]^{\theta/2}$ $\lambda > 0 \quad \lambda < 0$	<p>Ehtimollik zinchligi vazifasi asimmetrik bo'lgan holatlarda, approksimasiyalangan ifoda bilan</p> $p(x_i) = A \exp[-\lambda(x_i - x)]$ <p>qo'llaniladi.</p>

### 4.3.2. O'chanayotgan kattalikni ifodalash

Noaniqlikni baholashda "o'chanash kattaligini ifodalash" aynan o'chanayotgan nafaqat bir ma'noli narsaning ifoda qilinishini, balki o'chanash kattaligini u bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar bilan bog'lovchi miqdoriy ifodalanishini taqdim etishni ham talab etadi. Bu ko'rsatkichlar boshqa o'chanash kattaliklari, to'g'ridan-to'g'ri o'chanmaydigan kattaliklar yoki

konstantalar bo'lishi mumkin. Shuningdek, namuna tanlash bosqichi usulga kiritilganmi yoki yo'qmi aniq belgilanishi lozim. Agar u kiritilgan bo'lsa, u hoida namuna tanlash usulii bilan bog'liq bo'lgan noaniqlikni baholash ham zarur. Bu barcha axborotlar uslubiy hujjatda aks etgan bo'lishi lozim.

Analiitik o'hashlarda, ayniqsa, foydalanilayotgan usulga bog'liq bo'l-magan natijalarni olish uchun mo'ljallangan va bunga mo'ljallanmagan o'hashiar o'rtasidagi farqni o'tkazish muhim. Oxirgilar ko'pincha empirik usullarda ko'rib chiqiladi.

### 4.3.3. Noaniqlik manbalarining namoyon bo'lishi

Eng avvalo noaniqlikning mumkin bo'lgan manbalari ro'yxatini tuzish zarur. Bu bosqichda miqdoriy jihatlarni hisobga olishga zarurat yo'q, faqtgina aynan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan narsaga nisbatan to'liq aniqlikni ta'minlash maqsad bo'lib hisoblanadi.

Noaniqlik manbalarining ro'yxatini tuzishda, odatda, oraliq kattaliklardan natijalarni hisoblash uchun foydalaniladigan asosiy ifodalardan boshlash qulay. Bu ifodadagi barcha ko'rsatkichlar o'z noaniqliklariga ega bo'lishlari mumkin va shuning uchun ular noaniqlikning asosiy manbalari bo'lib hisoblanadi. Buridan tashqari, aniq ko'rinishda o'chanayotgan kattalik qiymatini topish uchun foydalaniladigan ifodaga kirmaydigan, lekin shunga qaramay natijaga (masalan, ekstraksiya vaqt yoki harorat) ta'sir qiladigan boshqa ko'rsatkichlar ham bo'lishi mumkin. Noaniqlikning yashirin manbalari ham bo'lishi mumkin. Bu barcha manbalar ro'yxatga kiritilishi lozim.

Noaniqlik manbalari ro'yxati tuzilgandan so'ng ularning natijaga ta'sirini asosan har bir ta'sir ba'zi bir ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'lgan o'hashlarning rasmiy modeli deb yoki tenglamada o'zgaruvchan deb tasvirlash mumkin. Bunday tenglama natijaga ta'sir etuvchi individual omillar atamalarida ifodalangan o'hash jarayonining to'liq modelini tashkil etadi. Bu funksiya juda murakkab bo'lishi mumkin va uni ko'pincha aniq ko'rinishda yozish mumkin emas. Biroq u mumkin bo'lgan joyda bunday ifodalinish shakli umumiy holda noaniqlikning individual tashkil etuvchilarini jalilash usulini aniqlaganligi sababli uni bajarish zarur.

Noaniqlikning muvofiq bahosini olish uchun ulardan har birini alohida baholash mumkin bo'lganda, o'hash usulini operatsiyalarning mutazamligi ko'rinishida ko'rib chiqish (ba'zida ayrim operatsiyalar deb ataladigan) foydali bo'lishi mumkin. Bu, ayniqsa, o'hashlarning bir xildagi usullari bitta ayrim operatsiyalarni o'z ichiga olganda foydali

yondashuv bo'ladi. Har bir operatsiyaning alohida noaniqliklari u holda umumiylar hissa qo'shadi.

Amatiyotda tahliliy o'lchashlarda ko'proq odatiy bo'lib kuzatilayotgan pretcisionlik va solishtiruvning mos keluvchi namunalariga nisbatan siljish kabi usulning umumiylar samaraliligi elementlari hisoblanadi. Bu tashkii etuvchilar, odatda, noaniqlik bahosiga ortiqroq hissa qo'shadi va natijaga ta'sir etuvchi aiodhida samaralar ko'rinishida yaxshiroq tuziladi. Bunday holda boshqa mumkin bo'lgan hissalarni faqat ularni ahamiyatliliginini tekshirish uchun, ulardan faqat ahamiyatlilarini miqdoriy aniqlab bahoish lozim.

Noaniqlikning tipik manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

*Namuna tanlash.* Laboratoriya yoki bevosita tahlil obyektida bajariladigan namuna tanlash operatsiyalari tahliliy usul qismi bo'igan hollarda nainunalar o'rtasidagi tasodifiy farqlar va namuna tanlash protsedurasida siljish (muntazam xatotikning) yuzaga kelishi uchun har qanday imkoniyatlar kabi samaralar so'nggi natija noaniqligining tashkil etuvchilarini shakllantiradi

*Namunalarni saqlash sharoitlari.* O'chanayotgan (sinalayotgan) namunalar o'lchashlar bajarilgunga qadar qandaydir vaqt davomida saqlansa, saqlash shartlari natijaga ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun saqlash davomiyligi, shuningdek, saqlash shartlari noaniqlik manbalari sifatida ko'riliishi lozim.

*Apparatura ta'sirlari.* Bunday ta'sirlar, analistik tarozilar aniqlik chegaralarini; ro'yxatga olinganlaridan farq qiluvchi (berilgan chegaralar da) o'rtacha haroratni ushlab tura oladigan harorat rostlagichning mayjudligini; ortiqcha yuklashlarga duch kelishi mumkin bo'lgan avtomatik analizatorni o'z ichiga olishi mumkin.

*Reaktivlar tozaligi.* Hattoki boshlang'ich reaktiv tekshiriilgan bo'lsa ham bu tekshiruv usuli bilan bog'liq bo'lgan qandaydir noaniqlik qolganligi sababli titrash uchun eritma konsentrasiyasi absolyut aniqlikda belgilanishi mumkin emas. Ko'p reaktivlar, masalan, organik bo'yoqlar 100 %ga toza bo'lib hisoblanmaydi va tarkibida izomerlar va anorganik tuzlar bo'lishi mumkin. Bunday moddalar tozaligi tayyorlovchi temonidan kamida o'shanday darajada ko'rsatiladi. Tozalik darajasiga tegishli bo'lgan har qanday taxminlar noaniqlik elementini kiritadi.

*Taxmin qilingan stexiometriya.* Tahliliy jarayon aniqlangan stexiometriyaga bo'yusunadi, deb taxmin qilingan hollarda kuzilayotgan stexiometriyadan og'ishlarni yoki reaksiyaning to'liq emasligini yoki yordamchi reaksiyalarni hisobga olish zarur bo'lishi mumkin.

*O'lchash sharoitlari.* O'chovli shisha idish, masalan, u kalibriangan haroratdan farq qiluvchi haroratda qo'llanilishi mumkin. Katta harorat

samarasi tuzatishlar kiritish bilan hisobga olinishi lozim, biroq bu holda ham suyuqlik va shisha harorati qiymatlaridagi har qanday noaniqlik ko'rib chiqilishi lozim. Shunga o'xhash, agar qo'llanilayotgan materiallar namlikning mumkin bo'lgen o'zgarishlariga sezuvchan bo'lsa, atrofdagi havoning namligi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

*Namunaning ta'siri.* Murakkab matrisa tarkibi aniqlanayotgan komponentning chiqarib olinishiga yoki asbobning javobiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aniqlanayotgan komponentni topish shakliga sezuvchanlik bu ta'sirni yanada kuchaytirish mumkin.

Namuna yoki aniqlanayotgan komponent barqarorligi tahiil jarayonida issiqlik rejiminining yoki fotolitik effektning o'zgarishi sababli o'zgarishi mumkin.

Chiqarib olish darajasini baholash uchun ba'zi "mashhur qo'shimcha" ishlatalganda, aniqlanayotgan komponentning namunadan aniq chiqishi qo'shimchani chiqarib olish darajasidan farq qilishi mumkin, bu esa baholash lozim bo'lgen qo'shimcha noaniqlikni yuzaga keltiradi.

*Hisoblash effeklari.* Darajalash vaqtida mos kelmaydigan modelni tanlash, masalan, nochiziq javobda chiziqli darajalashdan foydalanish juda yomon moslashtirishga va ko'proq noaniqlikka olib keladi.

Raqamlarni olib tashlash va yaxlitlash oxirgi natijaning noto'g'rilinga olib kelishi mumkin. Madomiki, bu vaziyatlarni oldindan aytish qiyin ekan, ba'zi bir noaniqlikka joizlik to'g'ri deb topilishi mumkin.

*Bo'sh namunaga tuzatish.* Bo'sh namunaga tuzatish qiymatining ba'zi bir noaniqligi bu tuzatishning zaruriigiga shubha bilan barobar o'ringa ega bo'ladi. Bu, ayniqsa, izlarni tahlil qilishda muhim.

*Operatorning ta'siri.* O'Ichash asboblarining pasaytirilgan yoki ko'tarilgan ko'rsatkichlarini ro'yxatga olish mumkinligi. Usul talqinida ahamiyatga ega bo'lman farqlarning mumkinligi.

*Tasodifiy samaralar.* Tasodify samaralar barcha aniqlashlarda noaniqliklarga hissa qo'shadi. Bu bandni o'z-o'zidan ma'lum narsa sifatida noaniqlik manbalari ro'yxatiga kiritish lozim.

#### 4.3.4. Noaniqlikni taqdim etish

O'Ichash natijasi bilan birga taqdim etiladigan axborot uning keyingi foydalanish maqsadiga bog'liq. Bunda quyidagi tamoyillarni qo'llash lozim:

- agar yangi axborot yoki yangi ma'lumotlar paydo bo'lsa noaniqlik bahosini aniqlashtirishni o'tkazish uchun yetarli axborotni taqdim etish;
- yetarli bo'lman farqlarning qaraganda keragidan ortiq axborotni

taqdim etish afzal.

Agar o'chash tafsilotlari, noaniqlik qanday baholanganligini o'z ichiga olib, chop etilgan hujjatlarga tavsiyalar ko'rinishida berilgan bo'lsa, bu hujjatiar dolzarblashtirilishi va laboratoriyada qo'llanilayotgan usulga muvofiq bo'lishi lozim.

*Talab qilinayotgan axborot.* O'chash natijasining to'liq taqdim etilishi quyidagi axborotni yoki bunday axborotni o'z ichiga oigan hujjatlarga tavsiyani o'z ichiga olishi lozim:

- o'chash natijasini va uning noaniqligini tadqiqot kuzatishlari va kirish kattaliklari haqidagi ma'lumotlar asosida hisoblash uchun foydalilaniladigan uslubiyatni tasvirlash;

- hisoblashda ham, noaniqliklarni tahlil qilishda ham foydalilaniladigan barcha tuzatishiar va doimiyliklarning qiymatlari va maribalari;

- noaniqlikning barcha tashkil etuvchilarining ularning har biriga tegishli to'liq hujjatlari bilan ro'yxati.

Ma'lumotlar va ularning tahlili barcha muhim bosqichlarni oson kuzatib turish va, zarurat bo'lganda, so'nggi natijani hisoblashni qaytarish mumkin bo'ladigan tarzda taqdim etish lozim. Oraliq qiymatlarni o'z ichiga oigan natijani batafsil taqdim etish, talab etilgan hollarda hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- har bir kirish kattaligining qiymati, uning standart noaniqligi va uning qanday olinganligining ta'rifi;

- natija va kirish kattaliklari, shuningdek, bu samaraiarni hisobga olish uchun foydalilanilgan ayrim hosilalar, kovariasiyalar yoki korrelyasiya koefitsiyentlari o'rtasidagi o'zaro munosabat;

- har bir kirish kattaligining standart noaniqligi uchun erkinlik darajalari soni.

*Izoh. Funksional bog'liqlik juda murakkab bo'lgan yoki aniq ko'rinishda mavjud bo'lgan hollarda (masalan, u faqat kompyuter dasturi sifatida mavjud bo'lishi mumkin) u umumiyo'g'ini ko'rinishda yoki muvofiq manhaga tavsiya yo'li bilan ifodalanishi mumkin. Bunday holda kimyo'viy tahlil natijasi va uning noaniqligi qanday qilib olinganligi har doim aniq bo'lishi lozim.*

Oddiy tahlillar natijalarini taqdim etishda faqat kengaytirilgan noaniqlik qiymatini va k qiymatni ko'rsatish yetari bo'lishi mumkin.

*Standart noaniqlikni taqdim etish.*

Noaniqlikni  $u_c$  yakuniy standart noaniqlik ko'rinishida ifodalab (ya'ni bitta standart og'ish ko'rinishida), yozuvning quyidagi shakli tavsiya etiladi:

"(Natija):  $u_c$  (birliklar) standart noaniqlikda  $X$  (birliklar), [standart noaniqlik Metrologiya sohasidagi asosiy va umumiyligi atamalar Xalqaro

lug'ati, 2-nashr, ISO, 1993-yil hujjatiga muvofiq aniqlanadigan va bir standart og'ishga muvofiq keladigan joy]".

#### 4.3.5. Standart namunalarning noaniqligi

Ko'pchilik standart namunalar (SN) uchun ayniqa laboratoriyalaro eksperiment usuli biian attestatlanayotgan SNlar uchun metrologik tavsifnomalar sifatida xatolik tushunchasidan ko'ra, noaniqlik tushunchasidan foydalanish mantiqiy bo'ladi. Shu sababli SN ishlab chiquvchilar, ayniqa, G'arbiy Yevropa mamlakatlarining SN ishlab chiquvchilari, SNga sertifikatda ko'rsatilganidek, ularning attestatlangan qiymatlarini belgilash noaniqligi tavsifnomalarini keltiradilar.

SNning attestatlangan qiymatlarining noaniqligi quyidagi tarzda ifodalanishi mumkin:

Sertifikatda "kengaytirilgan" yoki "jamlangan" sifatlarsiz noaniqlik belgilangan. Masalan, "MVN Analytical Ltd" (Angliya) firmasi chiqargan O'zDSN 03.0305:2004 SN "Noaniqlik" tavsifnomasiga ega.

Sertifikatda qandaydir ( $P$ ) ishonchli ehtimolligida va ( $k$ ) qamrov koefitsiyentida kengaytirilgan noaniqlik belgilangan. Masalan, "Raragon Scientific Ltd" (Angliya) firmasi chiqargan O'zDSN 03.0241:2004 SN R=95 % ishonchli ehtimolligida va  $k=2$  qamrov koefitsiyentida ( $U$ ) kengaytirilgan noaniqliq tavsifnomasiga ega.

Sertifikatda qandaydir ( $P$ ) ishonchli ehtimolligida qamrov koefitsiyentini ko'rsatmasdan kengaytirilgan noaniqlik belgilangan. Masalan, "Petrolet Analyzer Corporation Gmbn" (Germaniya) firmasining SN " $(S_{\rho})$ " o'rtacha kvadrat og'ishga ega bo'lган usul bo'yicha ( $P$ ) ishonchli ehtimolligi laboratoriylar ( $n$ ) ishtirokida olingan  $U = (t \cdot S_{\rho}) / \sqrt{n}$  o'rtacha qiymatning kengaytirilgan noaniqligi".

Xatolik va noaniqlik tavsifnomalarining to'g'ridan-to'g'ri taqqoslanishi to'g'ri emas, shuning uchun qoidaga ko'ra bu metrologik asboblarning statistik baholari taqqoslanadi.

Agar standart yoki yakuniy noaniqlik berilgan bo'lsa, u holda ularning baholariga o'rtacha kvadratik og'ishlar mos bo'ladi:

$$\sigma(A) = u(A),$$

yoki

$$\sigma(A) = u_c(A), \quad (4.6)$$

bu yerda  $u(A)$  va  $u_c(A)$  – SNning attestatlangan qiymatini belgilashning mos standart va yakuniy noaniqligi;  $A$  – SNning attestatlangan qiymati;  $\sigma(A)$  – SNning attestatlangan qiymatining o'rtacha kvadratik og'ishi.

Agar ( $P$ ) ishonchli ehtimolligi va ( $k$ ) qamrov koefitsiyentida kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo'lsa yoki ( $U_p$ ) ishonchli ehtimolliligini ko'rsatish bilan va ( $k_p$ ) ishonchli ehtimolligini ko'rsatib qamrov koefitsiyentini ko'rsatish bilan kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo'lsa, u holda uning bahosiga o'rtacha kvadratik og'ish mos bo'ladi:

$$\sigma(A) = U(A)/k.$$

yoki

$$\sigma(A) = U_p(A)/k_p. \quad (4.7)$$

bu yerda  $U(A)$  va  $U_p(A)$  – SNning attestatlangan qiymatini belgilashning muvofiq kengaytirilgan va belgilangan ishonchli ehtimolligi bilan kengaytirilgan noaniqlik.

Agar qandaydir ( $P$ ) ishonchli ehtimolligida qamrov koefitsiyentini ko'rsatmasdan kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo'lsa va bunda yoki laboratoriylar, standart namunalarning metrologik tavsifnomalarini bahlash bo'yicha laboratoriylararo tadqiqot qatnashchilari soni yoki erkinlik darajasining muvofiq soni bilan (t-mezon) Styudent mezonini ko'rsatilgan bo'lsa, u holda uning bahosiga o'rtacha kvadratik og'ish mos keladi:

$$\sigma(A) = [U(A)\sqrt{n}]/t. \quad (4.8)$$

Noaniqliknin o'rtacha kvadratik og'ish ko'rinishida ifodalangandan so'ng SN tanlash xuddi o'lchash vositalari (SN) xatoligi teng ehtimolliklar qonuni bo'yicha taqsimlanganidek, o'lchash vositalari uchun amalga oshirilganidek, aniqlik bo'yicha amalga oshiriladi.

#### 4.4. Noaniqliknin bahlash tartibi va algoritmi

O'lchashlar noaniqligi PMF 43-2001 – “O'lchashlar noaniqligini ifodalash bo'yicha qo'llanma” va O'zT 51-147:2006 – Tavsiyalar. O'zbekiston Respublikasi o'lchashlarni ta'minlash davlat tizimi. Sinov va kalibrlash laboratoriylarida noaniqliknin qo'llash standartlariga muvofiq noaniqlik bo'yicha baholanadi.

Natijalarni noaniqlik bo'yicha bahlash quyidagi bosqichlardan iborat:

**1. Natijalar (o'lchashlar) noaniqligini bahlash.** Qo'llanilayotgan o'lchov qurilmalari, sinovlarni o'tkazish sharoitlari va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omillarni qo'shgan holda hisoblash uchun boshlan-g'ich ma'lumotiarni yig'ish.

Hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- sinovlarning rasmiy natijalari (sinov bayonnomasi bo'yicha);

- qo'llanilayotgan sinov qurilmalari va uning tavsiflari (metrologik, texnikaviy);
- hisobiash uchun me'yoriy hujjatlar;
- sinovlarni o'tkazish sharoitlari, qo'shimcha ta'sir qiluvchi omillar bilan birgalikda;
- sinov namunalarini tayyorlash usullari.

Sanab o'tilgan boshlang'ich ma'lumotlar doimiy hisoblanmaydi va aniq sinov turiga qarab aniqlanishi kerak.

**2. O'lchanayotgan qiymatning bayoni va uning modelini tuzish.** O'lhashni bayon qilish o'lchanayotgan qiymatni aniqlash talab qilinayotgan o'lhash aniqligiga bog'liq. O'lchanayotgan qiymatni, o'lhash bilan bog'liq amaliy maqsadlar uchun qiyamat yagona bo'lishi uchun talab qilinayotgan aniqlikka nisbatan yetarli to'liqlikda aniqlash kerak.

O'lhash modeli "o'lchanayotgan qiymatning bayoni" noaniqlikni baholashda o'lchanayotgan qiymatni u bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar bilan bog'lovchi miqdoriy qiymatni taqdim qilinishini talab etadi. Boshqa bilvositsa o'lchanadigan qiymatlar yoki konstantalar bu ko'rsatkichlar bo'lishi mu'mkin. Bu barcha ma'lumotlar noaniqlikni baholash uslubiga kiritilishi kerak.

**3. Noaniqlik manbalari.** Noaniqlikni baholashda, noaniqlikni bo'lishi mumkin bo'lgan manbalarining ro'yxatini tuzishda oraliq qiymatlardan natijani hisoblash uchun qo'llaniladigan asosiy qiymatdan boshlash qulay. Bu qiymatda barcha ko'rsatkichlar o'z noaniqliklariga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun ham ular noaniqlikning asosiy manbalari hisoblanadi. Shuningdek, noaniqlikning yashirin manbalari xam bo'lishi mumkin.

Noaniqlikning asosiy manbalari:

- o'lhash usuli (o'lhash modeli; kuzatishlar miqdori; o'lhash davomiyligi; o'lhash uslubini tanlash; o'lchov vositalari; standart namuna)
- o'lhash qurilmalari (kalibrlash noaniqligi; ko'rsatkichlar variasiysi; oxirgi kalibrlashdan keyingi o'tgan vaqt; sezuvchanlik ostonasi; harorat);
- atrof-muhit (harorat: namlik, bosim; xona tozaligi; magnit va gravitasion maydon; vibrasiya; turli nurlanishlar, yorug'lik);
- o'lchanuvchi obyekt (harorat; yuza; material; o'lchamlar);

- operator (ish tajribasi; o'Ichov vositasini tanlash; ma'lumoti; halolligi).

Standart noaniqliklarni baholash o'chanayotgan qiymat tabiat, qo'llanilayotgan o'Ichash usulini bilihga bog'liq. Qiymat va qiymatni mumkin bo'lgan o'zgaruvchanligi to'g'risida mavjud ma'lumotlardan kelib chiqib, kirish qiymatlarini standart noaniqligi A tur yoki B tur bo'yicha baholanadi. Noaniqliknini tashkil qiluvchilarni ko'pincha alohida omillarni eksperimental tadqiqotlaridan olish mumkin va maqsadga muvofiq. A tur bo'yicha baholash, ya'ni

$$\bar{\xi} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \xi_i , \quad (4.9)$$

$$u(\bar{x}) = S_x = \sqrt{\frac{1}{n(n-1)} \cdot \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2} \quad (4.10)$$

formulalar asosida aniqlanadi. Standart noaniqlikning B turi bo'yicha baholash

$$u = a/\sqrt{3}, \quad u = a/\sqrt{6} \quad (4.11)$$

formulalar asosida aniqlanadi) ilmiy mulohaza asosida quriladi.

Ma'lumotlar fondi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dastalbki o'Ichash ma'lumotlari;
- tajriba asosida olingan ma'lumotlar yoki tegishli material va priborlarni xususiyatlari to'g'risidagi umumiy bilimlar;
- ishlab chiqaruvchi tavsiotlari (ta'minotchi ma'lumotlari);
- qiyoslash to'g'risidagi yoki boshqa sertifikatlarda keltiriladigan ma'lumotlar;
- ma'lumotnomalardan olinadigan axborot;

**4. Korrelatsiyalar tahlili.** Ikkita kiruvchi qiymatlar mustaqil yoki bir-biri bilan bog'langan, ya'ni korrelatsiyalangan bo'lishi kerak. Korrelatsiya effektining qanchalik hisobga olinishi tegishli o'Ichash, o'Ichash usuli to'g'risidagi bilimlar va kirish qiymatlarini amalga oshirilgan baholashlariga bog'liq.

Korrelatsiya darajasi korrelatsiya koeffitsiyenti yordamida aniqlanadi.

#### **5. Yig'indi (jamlangan) standart noaniqlik**

$$u_c(x) = \sqrt{\sum_{i=1}^N \left( \frac{\partial f}{\partial x_i} \right)^2 u^2(x_i)} \quad (4.12)$$

formula bilan O'zT 51-147:2006 hisoblanadi.

**6. Kengaytirilgan noaniqlik.** Kengaytirilgan noaniqlikning chiqish

qiymati  $u_c(X)$  standart noaniqligining qamrov koeffitsiyenti  $k$  ga (4.5-jadval) ko'paytirish orqali hisoblanadi:

$$U(X) = \pm k \cdot u_c(X) \quad (4.13)$$

#### 4.5-jadval

#### Noaniqlikning qamrov koeffitsiyentini aniqlash

Ishonchlik darajasi, %						
	50 %	68,27 %	90 %	95 %	95,45 %	99 %
$k$	0,674	1	1,64	1,96	2	2,58
To'g'ri taqsimlanishda $k = \sqrt{3}$ , uchburghakli taqsimlanishda $k = \sqrt{6}$						

Jamlama standart noaniqlik erkinlikning oltita darajasidan ko'p bo'lmagan qo'shilgan ulushni eng kattasi bilan aniqlanadi,  $k$  amalda ishonchlilik ehtimoli 0,95da 2ga teng deb olinadi.

**7. Noaniqlik to'g'risida hisobot.** Ma'lumotlar va ularning tahlili shunday tarzda taqdim qilinishi kerakki, zarurat bo'lganda ularni oson kuzatish va yakuniy natijani qayta hisobiash mumkin bo'lsin.

Oraliq natijalarни o'z ichiga olgan, natijani to'liq taqdim kilish talab qilingan hollarda hisobot quyidagi larni o'z ichiga olishi kerak (4.6-jadval):

- har bir kirish kattalikning qiymati, uni standart noaniqligining va u qanday olinganligining bayoni;

- natija va kirish natijalari, kovariasiya yoki korrelyasiya koeffitsiyentlari orasidagi nisbat; .

- har bir kirish qiymati uchun standart noaniqlikning erkinlik darajalari soni.

#### 4.6-jadval

#### Noaniqlik bo'yicha hisobot (budget)ni tuzish shakli

Katta-lik	Kattalik-ning birligi	Qiyma ti	Noaniq-lik turi	Taqsim -lanishi	Stan-dart noaniq-lik	Sezgir-lik koeffi-siyenti	Yig'indi noaniqlik	%
1	2	3	4	5	6	7	8	9

**Bevosita ko'pmarotabali o'lchashlarni bajarish va uni qayta ishlash algoritmi quyidagicha amalga oshiriladi (4.1-rasm):**

1. O'lchashning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi, ya'ni o'lchash chizmasi, o'lchashlarni bajarish uchun sharoitlar to'g'risida ma'lumotlar, qo'llanilayotgan o'lchash vositasi va uskunalarning metrologik tavsiflari tahlil qilinadi.

2. O'lchanayotgan kattalik  $x_i$ ning  $x_{i,k}$  kuzatishlari  $n$  marta amalga oshiriladi, bunda  $k = 1, 2, \dots, n$ .

3. Kuzatishlar sonidan qo'pol xatolar bo'lgan natijalar istisno qilinadi.

4. Kuzatishlarning qolgan natijalaridan o'lchanayotgan kattalik  $x_i$  baholash uchun o'rtacha arifmetik qiymati hisoblanadi:

$$\bar{x}_i = \frac{1}{n-l} \sum_{k=1}^{n-l} x_{i,k} \quad (4.14)$$

bu yerda  $l$  – qo'pol xatoliklar bo'lgan istisno qilingan kuzatishlar soni.

5. O'lchash natijalari uchun qo'llaniladigan kirish kattaligi  $\gamma$ ning to'g'rilangan baholashni olib, barcha ma'lum bo'lgan muntazam samaralarga olingan to'g'rilanmagan baholashga tuzatishlar kiritiladi.

6. Tadqiqot kuzatish natijalarining standart og'ishi hisoblanadi.

$$s = \sqrt{\frac{1}{n-l-1} \sum_{k=1}^{n-l} (x_{i,k} - \bar{x}_i)^2} \quad (4.15)$$

7. O'lchash natijalarining tadqiqot standart og'ishi (o'rtacha arifmetik) hisoblanadi:

$$s(y) = s(x_i) = \frac{s}{\sqrt{n-l}} \quad (4.16)$$

8. Qolgan kirish kataliklari  $u_s(\Delta_w)$ ni 4.2- va 4.3-jadvallarda keltirilgan ishlarga va algoritmgaga muvofiq ravishda  $B$  turdag'i standart noaniqligi topiladi.

9. Noaniqliklar budjeti tuziladi (4.5-jadval)

10. Kirish kataliklarining mantiqiy korrelyasiyasi mavjudligi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

11. O'lchash natijalarining yig'indi noaniqligi hisoblanadi

$$u_c(Y) = \sqrt{s^2(y) + \sum_{w=1}^M u_s^2(\Delta_w)} \quad (4.17)$$

12. O'lchash natijalarining kengaytirilgan noaniqligi aniqlanadi:

$$U = k u_c(y), \quad (4.18)$$

Bu yerda  $k$  – erkinlik darajasi effektining soni  $s_{eff}$  uchun Student koefitsiyenti sifatida aniqlanadigan qamrov koefitsiyenti. Velcha-Satersveyt formulasidan kelib chiquvchi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$s_{eff} = (n-1) \left[ 1 + \frac{u_{ch}^2(Y)}{s^2(\bar{y})} \right]^{\frac{1}{2}} \quad (4.19)$$


Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kengaytirilgan noaniqlikning qiymatini bunday holatda hosil qilish kirish kattaligining taqsimlanish qonuniyatining real holatiga mutlaqo mutanosib emas. Monte-Karlo usulidan foydalanib, kengaytirilgan noaniqlikni yanada aniqroq baholash mumkin.

10. O'lhash natijalarini yozish, quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi:

$$Y = y \pm U, \quad p; \quad (4.20)$$

### Nazorat savollari

1. O'lhash natijalariga qanday tashqi omillar ta'sir etadi? Ular nimalardan iborat?
2. Muntazam xatolikni bartaraf etishning qanday usullari mavjud?
3. O'lhash xatoliklarining ishonchli intervali va ishonchli chegaralari deb nimaga aytildi?
4. Student koefitsiyenti nima? Ehtimoliy xatolik deb nimaga aytildi?
5. Ishonchli interval va ishonchli ehtimolliklar qanday qabul qilinadi?
6. Ko'pmarotabali o'lhash natijalarini qayta ishlash qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?
7. O'lhashlar noaniqligi nima?
8. Standart noaniqlik nima?
9. O'lhashlar noaniqligi qanday baholanadi?
10. Noaniqlikni baholash jarayoni necha bosqichdan iborat?
11. Noaniqliknig qanday turlari mavjud?
12. Noaniqlik va xatolikning o'xshash tavsiyalarini aytинг.
13. Noaniqlikni baholash algoritmini tushuntiring.
14. Noaniqlikni baholash bo'yicha qanday me'yoriy hujjatlarni bilasiz?
15. Noaniqlikni baholash bo'yicha hisobot tuzishda qanday ma'lumotlар keltiriladi?
16. O'lhashlar noaniqligini baholashning namunaviy algoritmini tushuntiring.



4. I-rasm. O'Ichashlar noaniqligini baholashning namunaviy algoritmi.

# V BOB. O'LCHASH VOSITALARI VA ULARNING METROLOGIK TAVSIFLARI

## 5.1. O'lchash vositalarining turlari va sinflanishi


Ma'lumki, har qanday o'lchashlarni biror-bir vositasiz bajarib bo'lmaydi. *O'lchash vositasi* deb metrologik xususiyatlari me'yorlangan xatolik chegarasida bo'lgan, ma'lum vaqt oralig'ida o'zgarmas deb qabul qilinadigan, kattalikning o'lchov birligini qayta tiklaydigan yoki saqlaydigan, o'lchashlar uchun mo'ljallangan texnik vositaga aytildi.

O'lchash vositalarining turlari xilma-xil. Ular sodda yoki murakkab, aniqligi katta yoki kichik bo'lishi mumkin. O'lchash vositalari me'yorlangan metrologik xossalarga ega bo'lishlari lozim va bu metrologik xossalar davriy ravishda tekshirilib turiladi. O'lchash amalida o'lchanayotgan kattalikning qiymati to'g'ri aniqlanishi aynan mana shu o'lchash vositasining to'g'ri tanlanishiga va ishlashiga bog'liq.

O'lchash jarayonida o'lchanadigan kattalikning qiymatini to'g'ri aniqlanishi ko'pincha o'lchash vositasining xususiyatlariga va ularni to'g'ri tanlab olinishiga bog'liq.

O'lchash vositalari turlicha sinflanadi: o'lchashlar birlilagini ta'minlash Davlat tizimida o'lchash vositasining bajaradigan vazifasi bo'yicha, avtomatlashtirish darajasi, ko'rsatkichi bo'yicha, standartlashtirish darajasi bo'yicha, o'lchanadigan kattalikka nisbatan o'lchash jarayonidagi vazifasi bo'yicha va bajaradigan ishi bo'yicha va h. 5.1-rasmda o'lchash vositalarining o'lchash jarayonidagi vazifasi va bajaradigan ishi bo'yicha sinflanishi keltirilgan.

O'lchash vositalarining turlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin (5.1-rasm): o'lchevlar; o'lchash asboblari; o'lchash o'zgartikchilari; o'lchash qurilmalari; o'lchash tizimlari.



5.1-rasm. O'lchash vositalarining o'lchash jarayonidagi vazifasi va amalga oshiradigan ishi bo'yicha sinflanishi.

O'lchovlar – keng tarqalgan o'lhash vositalaridan hisoblanadi. *O'lchov* deb, kattalikning aniq bir qiymatini hosil qiladigan, saqlaydigan quyi tabaqa o'lchov vositasiga uzatadigan o'lhash vositasiga aytildi. Masalan, tarozi toshi, elektr qarshiligi, kondensatori va shu kabilarni o'lchovlarga misol qilishimiz mumkin. O'lchovlarning turlari va xillari ko'p. Stan-dart namunalar va namunaviy moddalar ham o'lchovlar turkumiga kiritilgan.

*Standart namuna* – modda va materiallarning xossalari va xususiyatlarini tafsiflovchi kattaliklarni hosil qilish uchun xizmat qiladigan o'lchov. Masalan, g'adir-budurlikning namunalarini, namlikning standart namunalarini.

*Namunaviy modda* – muayyan tayyorlash sharoitida hosil bo'ladigan va aniq xossalarga ega bo'lган modda. Masalan, "toza suv", "toza metall" va h.lar. "Toza ruh" 420 °S haroratri hosil qilishda ishlataladi.

O'lchovlar ko'p qiymatli (o'zgaruvchan qarshiliklar, millimetrlarga bo'lingan chizg'ich) va bir qiymatli (tarozi toshi, o'lhash kolbasi, normal element) turlarga bo'linadi. Ba'zan o'lchovlar to'plamidan ham foydalaniлади.

Kattalikning o'lchamini hosil qilish va foydalanishda quyidagi qatorni yodda tutishimiz lozim bo'ladi:

Ishchi o'lhash vositalari, namunaviy o'lhash vositalari, ishchi etalon, solishtirish etaloni, nusxa etalon, ikkilamchi etalon, maxsus etalon, birlamchi etalon va davlat etaloni.

Fan va texnikaning taraqqiyoti natijasi o'laroq eng yuqori anqlik bilan ishlangan namunaviy o'lchovlar *etalonlar* deb ataladi. Etalonlar ishlatalidigan va davlat etalonlariga bo'linadi. Davlat etalonlari namunaviy o'lchov va asboblarni tekshirishda qo'llaniladi va Davlat standarti idoralarida saqlanadi.


*O'lhash asbobi* deb kuzatish uchun qulay shaklda o'lhash ma'lumoti signalini ishlab chiqishiga mo'ljallangan o'lhash vositasiga aytildi.

O'lhash asboblarining turli xil alomatları: o'zgartirish xususiyati; chiqish axborotining turi; axborotni taqdim etish xususiyati; o'lchanayotgan kattalikning turi; qo'llanilish sharoiti va boshqa alomatları bo'yicha sinflash mumkin. Bu alomatlarni hisobga olgan holda, o'lhash asboblarining sinflanishi 5.2-rasmida keltirilgan.

O'zgartirish xususiyati bo'yicha o'lhash asboblari o'zida aniqlangan hisoblash o'lhash o'zgartgichi va solishtirish qurilmasini namoyon etadi. Asbob tuzilmasining tasvirini shartli belgilash uchun funksional chizimadan foydalaniлади. Ularning barcha o'zgartirishini inobatga olib, o'lchanayotgan kattalik asbobning ishlash jarayonida aniqlanadi.

Barcha o'lhash asboblarini o'zgartirish xususiyati bo'yicha uchta turga: to'g'ridan-to'g'ri o'zgartiruvchi asboblar; o'zgarishni solishtiruvchi asboblar va aralash o'zgartiruvchi asboblarga bo'lish mumkin.

Ma'lumotni tavsif etishiga qarab, o'lhash vositalari quyidagilarga bo'linadi: shkalali o'lhash vositalari; raqamli o'lhash vositalari; o'ziyozar o'lhash vositalari.




5.2-rasm. O'lhash asboblarining sinflanishi.

Analogli (shkalali) o'lhash asboblari, o'z navbatida, mexanik, elektromexanik, magnitoelektrik o'lhash asboblar; elektromagnit o'lhash asboblari; elektrodinamik o'lhash asboblar; elektrostatik o'lhash asboblar va induksion o'lhash asboblariga bo'linadi.

Analogli o'lhash asboblari o'lchanayotgan kattalikning uzlusiz o'zgarish vazifasini ko'rsatuvchi asboblar deb ataladi. Bu asboblar soddaligi, arzonligi, yuqori mustahkamligi, turli sharoitlarda qo'llanilishi, aniqlik sinfi 0,05gacha ishlab chiqarilishi bilan farqlanib, elektrik o'lchashlarda asosiy texnik vositalarning guruhini tashkil etadi.

Analogli o'lhash asboblari yoki bevosita ko'rsatuvchi asboblar elektr o'lchashlar va, umuman, o'lhash texnikasida keng o'rin olgan asboblardan hisoblanadi. Bu turdag'i asboblarda ko'rsatuq qaydnomasi uzlusiz ravishda o'lchanayotgan kattalik bilan bog'liqlikda bo'ladi. Bu turdag'i asboblarning tarkibiy chizmasi 5.3-rasinda ko'rsaitlgan.

Bevosita ko'rsatuvchi elektr o'lhash asboblari, (xususan, elektromekanik asboblari) ikki asosiy qismdan, ya'ni o'lhash zanjiri va o'lhash mexanizmidan iborat, deb qarash mumkin.



5.3- rasm. Analogli o'lhash asboblaring tarkibiy chizmasi.

**O'lhash zanjiri** o'lchanadigan elektr kattalikni (kuchlanish, quvvat, chastota va hokazoni) unga proporsional bo'lgan va o'lhash mexanizmiga ta'sir qiluvchi kattalikka o'zgartirib beradi.

**O'lhash mexanizmi** unga beriladigan elektr energiyasini qo'zg'aluvchan qisim va u bilan bog'liq bo'igan ko'rsatkich harakatining mexanik energiyasiga aylantirib beradi. Elektr mexanik o'lhash mexanizmlari magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik, induksion va elektrostatik mexanizmlardan iborat bo'ladi.

O'lhash asboblari qaysi tizimga taalluqli mexanizmdan iborat bo'lishidan qat'i nazar, asbob qo'zg'aluvchan qismining harakatlanishi elektromagnit maydon energiyasining o'zgarishiga bog'liq.

O'lchanadigan kattalik ta'siri ostida hosil bo'lib, asbob ko'rsatkichini ko'payish tomoniga og'diruvchi moment aylantiruvchi moment deyilib, u umumiy holda quyidagicha ifodalanadi:

$$M = dW_e / d\alpha, \quad (5.1)$$

bu yerda,  $W_e$  – elektromagnit maydon energiyasi,  $\alpha$  – asbob qo'zg'aluvchan qismining burilish burchagi.

Yuqoridaq ifodani (5.1) boshqacha ko'rinishda yozish mumkin:

$$M = F(X, \alpha), \quad (5.2)$$


ya'ni aylantiruvchi momentni o'lchanadigan kattalik va asbob qo'zg'aluvchan qismining burilish burchagi vazifasi deb qarash mumkin. O'lhash asbobining qo'zg'aluvchan qismiga aylantiruvchi momentdan tashqari aks ta'sir etuvchi moment ham ta'sir etishi lozim. Aks ta'sir etuvchi moment bo'lmaganda, asbobning strelkasi shkalasidan chetga chiqib ketgan bo'lar edi. Aks ta'sir etuvchi moment aylantiruvchi momentga qarama-qarshi yo'nalgan bo'lib, qo'zg'aluvchan qisminiig burilish burchagi kattalashishi bilan ortishi lozim. Aks ta'sir etuvchi moment  $M_\alpha$  aylantiruvchi momentga tenglashguncha ( $M = M_\alpha$ ) qo'zg'aluvchan qism aylantiruvchi moment ta'siridan buriladi. Ko'p elektr

o'lchash asboblarida aks ta'sir etuvchi moment tortqi, prujina va osinalarning buralishi bilan hosil qilinadi. Bunday qurilmada aks ta'sir etuvchi moment qo'zg'aluvchan qismning burilish burchagiga to'g'ri proporsional bo'ladi, ya'ni  $M_\alpha = -W \cdot \alpha$ , bu yerda  $W$  tortqi yoki prujinaning materiali va uning o'lchamlariga bog'liq bo'igan o'zgarmas kattalik, bu  $\alpha$  burchagini birligiga ( $1^\circ$  yoki 1 radianga) mos keluvchi moment bo'lib, solishtirma aks ta'sir etuvchi moment deb ataladi.

Asbob qo'zg'aluvchan qismining turg'un burilish holati aylantiruvchi va aks ta'sir etuvchi momentlarning tengligidan topiladi  $M = M_\alpha$  va unumiy holda quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha = \frac{1}{W} F(X, \alpha) \quad (5.3)$$

bu holatni 5.4-rasmda ko'rsatilgan grafikdan ham kuzatish mumkin.



5.4-rasm. Ta'sir etuvchi momentlarning tengli

Asbob dinamik rejimda ishlaganida, boshqacha aytganda, asbob ko'rsatkichi joyidan qo'zg'alayotganida, yuqorida aytilgan aylantiruvchi va aks ta'sir etuvchi momentlardan tashqari, boshqa momentlar ham hosil bo'ladi. Bu momentlar qo'zg'aluvchan qismning inersiya momentidan, tashqi muhit qarshiligidan va metall elementlari bo'lgan holda hosil bo'ladi uyma tok va hokazolardan vujudga keladi.

Asbob qo'zg'aluvchan qismining harakatlanganida vujudga keladigan va uning harakatini tinchlantirishga intiluvchi moment – tinchlantiruvchi moment deyiladi.

$$M_T = P(d\alpha / dt) \quad (5.4)$$

Bu moment tinchlantirish koefitsiyenti  $P$ ga va qo'zg'aluvchan qismining burchakli tezligiga  $d\alpha / dt$  proporsional. Tinchlantiruvchi moment ma'lum darajada asbobning muhim ekspluatasion ko'rsatkichlaridan biri – tinchlaniш vaqtini belgilaydi.

**Chiqish signalini o'Ichaydigan qurilmalar.** O'chanayotgan qiymatning analogli yoki uzlusiz o'zgarishlar nisbiy holatini ko'rsatuvchi (qayd etuvchi, belgilovchi) shkalalar shaklda namoyon etiladi. Mexanik, pnevmatik yoki elektrik tizimlar bilan o'Ichash xossalari mavjud chiqish signalari taqdirm etuvchi shakliga bog'liq holdagi qurilmalar 5.5-rasmda keltirilgan.

### **Elektromexanik turidagi o'Ichash asboblarining turlari, ularning ishlashi, metrologik tavsiflari**

Uzunlik	Uzunlik	Sath	Aylanish chastotasi	Kuch
Shtangen sirkul	Soat turidagi indikator	Qalqovich	Markazdan qochuna regulator	Porshenli manometr
Membranali quti	Bosimli disk	Magnitoelektrik o'Ichash mexanizmli asbob	Issiqlik tizimli o'Ichash mexanizmli asbob	Bimetalli termometr

5.5-rasm. Analogli ko'rsatuvchi asboblar.

Subyektiv ta'sirlarni kamaytirish maqsadida, ayniqsa, vaqt bo'yicha tez o'zgaruvchi kattaliklarni o'Ichashda chiqish kattaligi qayd etiladi. Analogli qayd etuvchi asboblar uzlusiz yozuvchi, nuqtali yozuvchi, ulusiz yorug'likni yozuvchi, yorug'lik-nurli ossilogralar, elektron-nurli ossilograflar, magnit tasmasida qayd qiluvchi asboblar bo'lib hisoblanadi.

Elektromexanik turidagi asboblar magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik, ferrodinamik, elektrostatik va induksion tizimli asboblarga

bo'linadi. Bu tizimdag'i asboblar nisbatan keng tarqalgan bo'lib, quyidagi 5.1-jadvalda ularning tavsiflari keltirilgan.

**Magnitoelektrik o'lhash asboblari** – doimiy tok zanjirida elektr tok kuch, kuchlanish yoki elektr miqdorini o'lhash uchun mo'ljallangan asboblar. Magnitoelektrik asboblariring o'lhash mexanizmining harakatlanuvchi qismi doimiy magnitdagi magnit maydoni va o'tkazgichdagi tok bilan o'zaro ta'sirlashish natijasida harakatlanadi.

### 5.1-jadval


#### Elektromexanik turdag'i asboblar, magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik, ferrodinamik, elektrostatik va induksion tizimli asboblarning tavsiflari

Asbob tizimi	Shartli belgisi		Tok tur'i	Chastota diaapazoni	Aylantiruvchi momennt tenglamasi	Shhkala tenglamasi	Aniqlik siniflari	Vazifasi
	$M_{a\_mer}$	$M_{a\_el}$						
ME			-	0	$BswI$	$KX$	$0,1;0,2;0,5$	A, V, $\Omega$ , G
			-	0	$BswI$	$KX$	-/-	-/-
EM			$\approx$	kHz	$\frac{1}{2} I^2 \frac{dL}{d\alpha}$	$KX^2$	$0,5;1;1,5$	A, V, Hz, $\varphi$
ED			$\approx$	Bir necha e'n kHz larda	$I_1 I_2 \frac{dM_{1,2}}{d\alpha}$	$KX_1 X_2$	$0,05;0,1;0,2$	A, V, W, Hz, $\varphi$
FD			$\approx$	- // -	$KI_1 I_2$	$KX_1 X_2$	$0,5;1;1,5$	-/-
ES			$\approx$	MHz	$\frac{1}{2} U^2 \frac{dC}{d\alpha}$	$KX^2$	$0,5;1;1,5$	V
I			$\approx$	50 Hz	$c f \Phi_1 \Phi_2 i n \psi$	$KN$	$1;1,5;2$	W, Wh

Domiy magnit maydonida joylashgan harakatlanuvchi ramkali magnitoelektrik asboblar eng ko'p tarqalgan (5.6-rasm).

Ramkali g'altak bo'yicha tok o'tishida aylantiruvchi moment hosil qiluvchi kuch yuzaga keladi. Ramkaga tok prujina yoki uzaytirgich orqali o'tib, mexanik aylanish momentiga teskari ta'simi yaratadi.

Ikkala harakat natijasida ramkaving harakati ramkadagi tok kuchiga proporsional ravishda harakatlanadi. Bevosita ramkadagi g'altak orqali ko'p bo'lmasagan tok kuchi bir necha  $\mu$ A dan bir necha o'n mA gacha o'tkazib, g'altak va uzatuvchining qimirlamasligiga olib keladi. Tok va kuchlanish bo'yicha o'lhash chegaralarini kengaytirish uchun ramkaga shunt va qo'shimcha qarshiliklar ko'shiladi.



5.6-rasm. Magnitoelektrik asbob qurilmasi:

1 – doimiy magnit; 2 - magnito 'tkazgich; 3 – qubli uchlik; 4 — harakat-lanuvchi ramka; 5 – o'zak; 6 – asbobning sezgirligini rostlash uchun magnitli shunt; 7 – uzaytirgich; 8 – kuchaytirgich; 9 – ko'rsatuvchi strelka.

Magnitoelektrik o'lhash mexanizmlari ampermetr, voltmetr, ommetr va galvanometrlar vazifasida ishlataladi.

Bu asboblarning bir qancha afzalliklari mavjud: shkalasi to'g'ri chiziqli; sezgirligi yuqori; o'lhash xatoligi kichik.

Shuningdek, kamchiliklari bor: faqat o'zgarmas tok zanjirlaridagina ishlay oladi; bevosita katta qiymatdagи toklarni o'lchay oimaydi; tannarxi baland.

**Elektromagnit o'lhash asboblar.** Ularning ishlash prinsipi ferromagnit materialdan qilingan o'zak bilan o'lchanayotgan kattalik proporsional magnit maydon ta'sirilashuviga asoslangan.

Elektromagnit asboblarning asosiy elementi bu elektromagnit tizimida o'zgarmas yoki o'zgaruvchan tokda o'lchanayotgan kattalikni o'zgartiruvchi o'lhash chizmasi (5.7-rasin).

Elektromagnit tizimi g'altagida elektr toki g'altak bo'yicha o'tuvchi tok kuchiga proporsional kvadratda o'qning aylanish momenti yuzaga kelib, o'zak g'altakdan oqib o'tuvchi elektromagnit maydonni hosil qiladi. O'q harakati natijasida o'q aylanishiga proporsional va prujinada aylanish inomentiga teskari ta'sir qiluvchi momentni yaratadi. O'q momenti ta'sirida va unga bog'langan strelka o'lchanayotgan kattalik kvadratiga proporsional holda burchakka aylanadi. Momentlar tenglashganda strelka to'xtaydi.



5.7-rosm. Elektromagnit asboblarining asosiy elementlari:  
1 – g'altak; 2 – o'zak; 3 – o'q; 4 – strelka; 5 – shkala; 6 – prujina.

O'zgarmas tok zanjirida 50 Hz chastotada o'lhash uchun elektromagnit ampermetrlar va voltmetrlar ishlab chiqariladi. Tokni o'lhash zanjiriga elektromagnit ampermetrlarning o'lhash mexanizmining g'altagi ketna-ket va voltmetrlarda esa parallel holda ulanadi. Elektr magnit o'lhash mexanizmlari logomerlarda ham qo'llaniлади. Aniqlik sinfi 1,5 va 2,5 bo'lgan asboblardan keng foydalaniladi, shuningdek, 800 Hz chastotada ishlovchi aniqlik sinfi 0,5 va hatto 0,1 bo'lgan asboblar ham mavjud.

Bu asboblarning bir qator afzalliklari mavjud: ham o'zgaruvchan, ham o'zgarmas tok zanjirlarida ishlaydi; bevosita katta qiymatdagи toklarni ham o'lhashi mumkin; konstruksiyasi nisbatan sodda.


Shuningdek, ayrim kamchiliklarga ham ega: shkalasi notejis (kvadratik) darajalanadi; o'lhash xatoligi biroz katta (magnitoelektrikka nishbatan); sezgirligi yuqori emas.

**Elektrodinimik o'lhash asboblari.** Ularning ishlash prinsipi ikki o'tkazgich va ulardan elektr toki o'tishi natijasida o'zaro mexanik ta'sirlashishiga asoslangan. Elektrodinamik asboblar o'lchanayotgan kattalikni

Domiy magnit maydonida joylashgan harakatlanuvchi ramkali magnitoelektrik asboblar eng ko'p tarqalgan (5.6-rasm).

Ramkali g'altak bo'yicha tok o'tishida aylantiruvchi moment hosil qilluvchi kuch yuzaga keladi. Ramkaga tok prujina yoki uzaytirgich orqali o'tib, mexanik aylanish momentiga teskari ta'sirni yaratadi.

Ikkala harakat natijasida ramkaning harakati ramkadagi tok kuchiga proporsional ravishda harakatlanadi. Bevosita ramkadagi g'altak orqali ko'p bo'lмаган tok kuchi bir necha  $\mu$ A dan bir necha o'n mA gacha o'tkazib, g'altak va uzatuvchining qimirlamasligiga olib keladi. Tok va kuchlanish bo'yicha o'lhash chegaralarini kengaytirish uchun ramkaga shunt va qo'shimcha qarshiliklar ko'shiladi.



5.6-rasm. Magitoelektrik asbob qurilmasi:

1 – doimiy magnit; 2 - magnito'tkazgich; 3 – qibli uchlik; 4 – harakat-lanuvchi ramka; 5 – o'zak; 6 – asbobning sezgirligini rostlash uchun magnitli shunt. 7 – uzaytirgich; 8 – kuchaytirgich; 9 – ko'rsatuvchi strelka.

Magnitoelektrik o'lhash mexanizmlari ampermetr, voltmetr, om'metr va galvanometrlar vazifasida ishlataladi.

Bu asboblarning bir qancha afzalliklari mavjud: shkalasi to'g'ri chiziqli; sezgirligi yuqori; o'lhash xatoligi kichik.

Shuningdek, kamchiliklari bor: faqat o'zgarmas tok zanjirlaridagina ishlay oladi; bevosita katta qiymatdagi toklarni o'lchay oimaydi; tannarxi balland.

**Elektromagnit o'lhash asboblar.** Ularning ishlash prinsipi ferromagnit materialdan qilingan o'zak bilan o'lchanayotgan kattalik proporsional magnit maydon ta'sirilashuviga asoslangan.

Elektromagnit asboblarning asosiy elementi bu elektromagnit tizimida o'zzarmas yoki o'zgaruvchan tokda o'lchanayotgan kattalikni o'zgartiruvchi o'lhash chizmasi (5.7-rasin).

Elektromagnit tizimi g'altagida elektr toki g'altak bo'yicha o'tuvchi tok kuchiga proporsional kvadratda o'qning aylanish momenti yuzaga kelib, o'zak g'altakdan oqib o'tuvchi elektromagnit maydonni hosil qiladi. O'q harakati natijasida o'q aylanishiga proporsional va prujinada aylanish momentiga teskari ta'sir qiluvchi momentni yaratadi. O'q momenti ta'siri da yu'ning bog'langan strelka o'lchanayotgan kattalik kvadratiga proporsional holda burchakka aylanadi. Momentlar tenglashganda strelka to'xtaydi.



*5.7-rasm. Elektromagnit asboblarining asosiy elementlari:*  
1 – g'altak; 2 – o'zak; 3 – o'q; 4 – strelka; 5 – shkala.

O'zgarmas tok zanjirida 50 Hz chastotada o'lhash uchun elektromagnit ampermetrlar va voltnetrlar ishlab chiqariladi. Tokni o'lhash zanjiriga elektromagnit ampermetrlarning o'lhash mexanizmining g'altagi ketma-ket va voltmetrlarda esa parallel holda ulanadi. Elektr magnit o'lhash mexanizmlari logomerlarda ham qo'llaniladi. Aniqlik sinfi 1,5 va 2,5 bo'lgan asboblardan keng foydalaniladi, shuningdek, 800 Hz chastotada ululovchi aniqlik sinfi 0,5 va hatto 0,1 bo'lgan asboblar ham mavjud.

Bu asboblarning bir qator afzallikkleri mavjud: ham o'zgaruvchan, ham o'zgarmas tok zanjirlarida ishlaydi; bevosita katta qiymatdagи toklarni ham o'lhashi mumkin; konstruksiyasi nisbatan sodda.


Shuningdek, ayrim kamchiliklarga ham ega: shkalasi notekis (kvadratlik) darajalanadi; o'lhash xatoligi biroz katta (magnitoelektrikka nisbatan); sezgirligi yuqori emas.

**Elektrodinamik o'lhash asboblari.** Ularning ishlash prinsipi ikki o'tazglech va ulardan elektr toki o'tishi natijasida o'zaro mexanik ta'sir hisobiga asoslangan. Elektrodinamik asboblar o'lchanayotgan kattalikni

o'zgaruvcha yoki o'zgarmas tokka o'zgartiruvchi o'lhash o'zgartigichi va elektrodinamik tizimlarning o'lhash mexanizmidan iborat (5.8-rasm).

Harakatlanadigan g'altak ichiga o'q bilari strelka birgalikda joylash-tirilgan harakatlanuvchi g'altakli elektrodinamikli asboblar keng qo'llaniladi. 1- va 2- g'aitak o'ramlaridagi toklar va bu toklarning haqiqiy qiymati ko'paytmasi proporsional o'zaro ta'siri natijasida o'qni aylantiruvchi moment hosil bo'ladi. O'qqa bog'langan prujina tenglashtiruvchi momentni hosil qildi va bu tenglik natijasida strelka harakatdan to'xtaydi.

Elektrodinamik asboblar o'zgaruvchan va o'zgarmas tok zanjirlarida tok va kuchlanishning haqiqiy qiymatini aniqlash uchun eng aniq asboblardan hisoblanadi. G'altak o'rarnini ketma-ket ulashda strelkaning aylanish burchagi o'lchanayotgan kattalikning kvadratiga proporsional bo'ladi. O'ramlarni bunday holatda ulash tok kuchi va kuchlanishni o'lhash uchun (ampermetrlar va voltmetrlar) qo'llaniladi.



5.8-rasm. Elektrodinamik o'lhash asboobi:

1, 2 – harakatlanmaydigan va harakatlanadigan g'altak; 3 – o'q;  
4 – prujina; 5 – strelka; 6 – shkala.

Elektrodinamik o'lhash mexanizmlaridan quvvatni o'lhash (vatmetrlar) uchun ham foydalaniadi. Bunda o'lchanayotgan zanjirdagi proporsional kuchlanish harakatlanmaydigan g'altak orqali tok o'tkazib, proporsional tok harakatlanuvchi orqali keyin o'tkaziladi.

Asbobning ko'rsatkichi elektr quvvatining qiymatiga aktiv va reaktiv ravishda proporsional. Bunday asboblarning shkalasi notejis (kvadratik) xarakterga ega bo'ladi. Elektrodinamik o'lhash mexanizmlari ampermestr va voltmetrlar sifatida kam ishlataladi. Ular asosan quvvatni o'lhash uchun vattnetr sifatida va logometrik mexanizmi prinsipiда yasalganida esa fazometr va chastotomer sifatida ishlataladi.


Bu asboblarning quyidagi afzalliklari bor: ham o'zgaruvchan, ham o'zgarmas tok zanjirlarida ishlataladi; yuqori darajadagi aniqlikka ega; elektr quvvati sarfini hisoblashda qo'llanilishi mumkin; bir vaqtning o'zida ikkita kattalikni tekshirish mumkin.

Shu bilan ayrim kamchiliklarga ham ega: xususiy energiya sarfi katta; tushqi haroratga bog'liqligi kuchli; katta qiymatlarni bevosita o'lchay olmaydi.

**Elektrostatik o'lhash asboblar.** Elektrostatik o'lhash asboblarning ishlash prinsipi turli xil elektr zaryadlarini tutib turuvchi elektrodlarning mexanik o'zaro ta'siriga asoslangan. Elektrostatik asboblarda o'lchanadigan kattalik elektrostatik o'lhash mexanizmi aniqlayotgan doimiy tokni o'zgaruvchan kuchlanishga o'zgartiradi (5.9-rasm).

O'lchanayotgan kuchlanish strelka bilan biriktirilgan o'qqa mahkamlangan harakatlanadigan elektrodga va undan izolyasiyalangan harakatlanadigan elektrodga kiritiladi. Elektrodlarda hosil bo'ladigan zaryadlar ta'sirlanishi natijasida o'qqa ko'yilgan kuchlanish kvadratiga proporsional aylantiruvchi moment paydo bo'ladi.

O'qdagi mavjud prujini harakatlanuvchi elektrod o'qi burilish hurchagiga proporsional teskari ta'sir etuvchi momentni yaratadi. Aylantiruvchi va teskari ta'sir qiluvchi momentlarning o'zaro ta'sirida elektdedlarga berilgan kuchlanishlar kvadratiga proporsional o'lhash mexanizmi strelkasi burchakka aylanadi.



5.9-rasm. Elektrostatik o'lhash asbob'i:

1 – harakatlanuvchi elektrod; 2 – harakatlanmaydigan elektrod; 3 – o'q; 4 – prujina; 5 – strelka; 6 – shkala.

Asbobning shkalasi o'lchanayotgan kattalik birliklarida graduirovka qilinganda nochiziqli shkalani hosil qiladi. Odatda, elektrostatik asboblaridan o'zgaruvchan yoki o'zgarmas toklarni, shuningdek, odatda, yuqori chastotali kuchlanishlarni o'lhash uchun foydalaniлади.

Bu asboblar uchun chastotaga bog'liq bo'limgan ko'rsatkichlar energiyani kam iste'mol qilishi bilan ajralib turadi. Elektrostatik asboblarini ko'rsatishiga o'chanadigan kuchlanish chastotasi, atrof-muhit haroratinig o'zgarishi va tashqi maydonlar deyarli ta'sir etmaydi. Bunga qarama-qarshi o'laroq tashqi elektr maydonining ta'siri sezilarli darajada bo'ladi. Elektrostatik asboblarining xususiy energiya sarfi juda kam: masalan, o'zgarmas tokda u deyarli nolga teng.

Elektrostatik voltmetrlar kamquvvatli zanjirlarda juda katta, hatto 30 MHzgacha bo'lgan chastota diapazonida kuchlanishni o'chanashda ishlataladi. Aniqligi bo'yicha elektrostatik voltmetrlar ko'pincha 1,0-1,5 sinflariga mo'ljallab ishlanadi. Ar. iqligi 0,1; 0,05 bo'lgan maxsus ishlangan voltmetrlar ham mavjud.

Tashqi elektr maydon ta'sirini kamaytirish maqsadida elektrostatik ekran ishlataladi.

**Induksion asboblar.** Induksion asboblarni boshqa elektr o'chanash asboblari tizimidan farqli jihatni birta aniqlangan chastotada o'zgaruvchan tok zanjirida qo'llash mumkin. Uning kam o'zgarishlari ko'rsatkichning katta xatoligiga olib keladi.


Zamonaviy induksion asboblar chastotasi 50 Hz bo'lgan bir fazali va uch fazali o'zgaruvchan tok zanjirlari uchun elektr energiyasining hisoblagichi sifatida qo'llaniladi.

Induksion asboblar ishlash prinsipi bo'yicha asinxronli elektr dvigatellarga o'xshash bo'lib, asbobning ish zanjiri bo'yicha tok yuklanishi o'tadi va yuguruvchi yoki magnit maydonni aylantiruvchi, ya'ni harakatlanuvchi qisinda tok induksiyalanadi va uni aylantirishga olib keladi.

O'zgaruvchan magnit oqimi miqdori bo'yicha asbobning harakatlanuvchi qismida induksiyalovchi tokka nisbatan bir oqimli va ke'p oqimli induksion asboblarga bo'linadi.

Induksion asboblarning ishslash prisipi asbobning harakatlanuvchi qismida induktivlangan toklar bilan o'zgaruvchan magnit oqimlarining mechanik o'zaro ta'sirlashishiga asoslangan. Hisoblagichda potoklardan biri tarmoq kuchlanishiga ulanib (elektr energiyasi o'chanadi), o'tamda elektromagnitni yaratadi. Bu potok harakatlanuvchi aluminli diskni kesib o'tadi va uyurmali tokni induksiyalaydi, elektromagnit kuchianish qutblari izi atrofidagi tutashadi. Ikkinci potok tok zanjiriga navbatdagi ulangan o'tam elektromagnitni hosil qiladi. Bu potok diskda hamda uyurniali tok o'zining elektromagnit qutblari izi atrofidagi tutashuvga olib keladi.

Bir fazali uch potokli induksion hisoblagich tangensli magnit tizimli qurilma chizinasi 5.10-rasmida keltirilgan.



5.10-rasm. Induksion hisoblagichning ishlash prinsipi chizmasi:  
D-disk; M-magnit; 2-o'q; F-faza; P-potensial.

Induksion mexanizmlarda aylantiruvchi moment hosil bo'lishi uchun kamida ikkita yoki ikki tashkil etuvchidan iborat bitta, faza jahatidan bir-biridan farq qiluvchi va bir-biriga nisbatan uzoqroq joylashgan o'zgaruvchan magnit oqimlari bo'lishi kerak.


O'zgaruvchan magnit oqimlar orasidagi faza farqi  $90^\circ$ ga teng bo'lganida aylantiruvchi moment o'zining maksimal qiymatiga etadi. Aylantiruvchi moment o'zgaruvchan tok chastotasiga bog'liq.

Induksion tizimli o'lhash mexanizmlari asosan quvvat o'lhashda – vattmetr, elektr energiyasini hisoblashda – hisoblagich (schyotchik) sifatida ishlataladi.

**Raqamli o'lhash asboblar.** Raqamli o'lhash asbobi deb, o'lhash borasida uzlusiz o'lchanayotgan kattalikning natijasi raqamli qayd etish qurilmasida yoki raqamlarni yozib boruvchi qurilmada diskret tarzda o'zgartirilib, indikasiyalanadigan asbobiarga aytildi. Raqamli o'lhash asboblari hozirgi kunda juda keng tarqalgan.

Raqamli o'lhash asbobining funksional chizmasi 5.11-rasmda keltirilgan.


"X" analog signali kirishdagi analog o'zgartirkich KAO'da keyingi o'zgartirish uchun qulay formaga o'zgartiriladi, so'ngra analog-raqamli o'zgartirkich (ARO') yordamida diskretlashtiriladi va kodlanadi. Nihoyat, raqamli qayd etish qurilmasi RQQ o'lchanayotgan kattalik bo'yicha kodlangan ma'lumotni raqamli qaydnoma tarzida, operatorga qulay formada ko'rsatadi. Tavsiya etiladigan ma'lumotning qulay va aniqligi sababli raqamli o'lhash asboblari ilmiy-tekshirish laboratoriyalarida keng o'rin olgan.



5.11-rasm. Raqamli o'lhash asbobining funksional chizmasi:  
KAO' – kirish analog o'zgartikchi; ARO' – analog-raqamli o'zgartikch;  
RQQ – raqamli qayd etish qurilmasi.

Raqamli o'lhash asboblari analog o'lhash asboblariga nisbatan quyidagi *afzalliklarga ega*: subyektiv xatolikni bartaraf qilish hisobiga yuqori aniqlik; keng ish diapazoni; tezkorlik va o'lhash qiymatini oson ro'yxatga olish (yozish, nashr qilish va eslab qolish); o'lhash natijalarining qulay tarzda tavsiya etilishi; markaziy nazorat-o'lhash punktiga bog'lanib, texnologik jarayonlarni qulay nazorat qilish va avtomatiashadirilgan boshqaruva tarmoqlarga ulash mumkinligi; o'lhash jarayonini avtomatlashtirish imkoniyatining mavjudligi, elektron hisoblash qurilmalari dasturlariga muvofiq o'lhash xatoliklarni to'g'rilash va hokazolər.

5.12-rasmida analogii va raqamli o'lhash tizinlarining principial tuzilmasi keltirilgan.



5.12-rasm. Analogli va raqamli o'lhash tizimlarining principial tuzilmasi.

Raqamli o'lhash asboblaridan foydalanishda o'lhash xatoligi kvant qadamlarining kamayishiga (alohida o'lhash zvenolari keltirib chiqaradigan xatoliklarga bog'liq emas) bog'liq bo'ladi.

Raqamli o'lhash asboblari analog-raqamli o'zgartirishli bo'lishi mumkin: tizimining *kirishida* (faqt raqamli o'lhash tizimlarda) analogli-raqamli o'zgartkich tavsifi dastlabki o'lhash o'zgartkich bo'lib hisoblanadi; *chiqishda; oraliq o'zgarishlarda* (kattalik uzlusiz raqamga o'zgartiriladi).

Amaliyotda ko'proq kirishida analog-raqamli o'zgarishli, chiziqli va burchakli hamda chastota kattaliklarning dastlabki o'zgartiruvchili o'lhash tizimlaridan foydalilanildi.

Chiqishi analog-raqamli o'zgartiruvchi o'lhash tizimlari analog-raqamli o'zgartiruvchi analogli moslashtiruvchi (kuchaytirgich, hal qiluvchi qurilma va h.) qurilmaga qo'shiladi. Buning uchun, odatda, analog-raqamli o'zgartkichlar qo'llaniladi.

Lekin raqamli o'lhash asboblarining ham muayyan *kamchiliklari mavjud*: murakkab; tannarxi baland; nisbatan ishonchliligi pastroq.

Lekin integral chizmalarning tezkor rivoji natijasida yuqoridagi kamchiliklar tobora chekinib bormoqda.

Raqamli o'lhash asbobining asosi bo'lib ARO' hisoblanadi. Unda ma'lumot diskretlashtiriladi, so'ngra kvantlanib kodlanadi. Diskretlashtirish – bu muayyan (juda qisqa) diskret vaqt oralig'ida qaydnomalarni olish. Odatda, diskretlash qadamini doimiy qilishga harakat qilinadi. Kvantlash esa,  $x_0$  kattaligining uzlusiz qiymatlarini  $x_n$  diskret qiymatlarning to'plami bilan almashtirish hisoblanadi. Kattalikning uzlusiz qiymatlari muayyan tartiblar asosida kvantlash darajalarining qiymatlari bilan almashtiriladi. Kodlashtirish esa muayyan ketma-ketlikda ifodalangan sonli qiymatlarni tavsiya etishdan iborat.

Diskretlashtirish va kvantlash raqamli o'lhash asbobining asosiy xatolik manbalari hisoblanadi. Bundan tashqari, kvantlash darajalarining soni ham o'ziga yarasha xatoliklar kiritadi

Suyuq kristallii indikatorlarning tezkor rivoji raqamli o'lhash asboblarining ixchamlashuviga, energiya sarfining kamayishiga asos yaratmoqda.


**O'ziyozar asboblar.** O'lchanayotgan kattaliklar (tok, kuchlanish, quvvat va boshqalar)ni uzoq vaqt davomida yozish uchun qayd qiluvchi (o'ziyozar) asboblardan foydalilanildi.

O'ziyozar asboblar ko'rsatkichlarni yozish uchun maxsus qurilma va (ko'pchilik holatlarda ferrodinamik) tizimlardan iborat o'lhash mexanizmi mavjud. Asbobning yozuvchi qismi 5.13-rasmda ko'rsatilgan.


Qog'ozli tasma rulon 1, rolik 2ga qo'yilib, asbobni ishlash jarayonida doimiy tezlik bilan 3 rolikka o'raladi. Qeg'oz (diagrammali) tasma valik 4

bilan bog'liq kichik quvvatli dvigatel' (rasmida ko'rsatilmagan) yordamida o'rabi olinadi. O'lhash asbobining harakatlanuvchi qismi 5 o'q bilan (rasmida keltirilmagan) 6 richag orqali asbobning strelkasi 7 bog'langan Uzlusiz yozuv strelkaning oxirida joylashtirilgan pero 8 bilan amalgaz oshiriladi va qog'oz tasmaga egri chiziq ko'rinishadi qayd etib boriladi. Strelka bilan peroning holati o'lchanayotgan kattalikning qiymatini aniqlaydi.

*Yorug'lik nurli ossilograflar.* Yorug'lik nurli ossilograflar elektrik jarayonlar tezlik bilan o'tishini kuzatish va rasmga olish uchun mo'l-jallangan. Ossilografning asosiy elementi magnitoelektrik asbob tizimlariga o'xshash prinsipda ishlaydigan ossilografik gal'vanometr hisoblanadi.



5.13-rasm. O'ziyozar ashob qurilmasi.



5.14-rasm. Magnitoelektrik ossilograf qurilmasi.

NS doimiy magnit qutblari o'rtasida ingichka yoriqqa (5.14-rasm) harakatlanuvchi halqa 1ga bronzali sim joylashtirilgan. Halqaga oyna 2 mahkamlangan. Halqa magnit maydoni bilan halqa tokining o'zaro harakati natijasidi oyna harakatlanadi. Asbobning harakatlanish tizimining kichik inersiyaligi hisobiga tok qiymati bir onda proporsional oniy qiymat burchakka aylantiradi. Lampa 3dan nuqtali yorib o'tgan yorug'lik nuri optik tizinda qisqa bog'lamli fokuslanib oynaga uzatadi. Uni kesuvchi nur doimiy tezlik bilan harakatlanuvchi fotoqog'oz 4ga uzatadi. Bunda yorug'lik nuri yorug'lik sezuvchi fotoqog'oz qatlamiga tokning egri chiziq izlarini qoldiradi. Bu jarayon esa ossilogrammalash deb ham nomlanadi.

## 5.2. O'chanadigan axborot va signallar

**O'chanash axboroti** – axborotning eng ommaviy, eng muhim ahamiyatlari turi. Unga fan va sanoat, transport va energetika, savdo va sog'liqni saqlash, turmush va sportda ehtiyoj seziladi.

O'chanash axboroti fandagi buyuk ixtirolar va buyuk yanglishishlar, mahsulotning yuqori sifati va ishlab chiqarishdagi ommaviy nuqsonlarning manbai bo'lishi mumkin.

O'chanash axborotining ta'sir qilish xususiyati uning aniqligi va to'g'riliqi bilan belgilanadi.

Muayyan xalq xo'jaligi masalalarini yechish, ya'ni mamlakatda o'chanashlar birlilagini ta'minlash uchun zarur bo'lgan butun o'chanash axborotining aniqligi va to'g'riliqini ta'minlash muhim davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi.

Uning analiy yechimi uchun ikkita funksional tizimga – o'chanash axboroti aniqligi va to'g'riliqini uning foydalanish maqsadlari va shartlariga muvofiq miqdoriy me'yorlash tizimi va o'chanashlar natijalarining mamlakat miqyosida talab etilayotgan aniqlik va to'g'rilik darajasini ta'minlovchi metrologik xizmat tizimiga ega bo'lish zarur.

Bu ikkala tizim vazifasi mamlakatda o'chanashlar birlilagini ta'minlash bo'lgan o'chanashlar davlat tizimi doirasida birlashadi. Shu tarzda o'chanashlar birlilagini ta'minlash davlat tizimi (**O'zO'DT**) natijalari mamlakatning barcha tashkilotlari tomonidan foydalanadigan o'chanashlar aniqligini baholash va ta'minlash qismida ilmiy va amaliy faoliyatning metrologik ta'minotini me'yoriy-huquqiy asosi hisoblanadi. Standartlar va O'DTning boshqa hujjatlari esa metrologik ta'minotning me'yoriy bazasidir. Bunday o'chanashlar birliligiga va ta'lab etilayotgan aniqligiga erishish uchun zarur bo'lgan ilmiy va tashkiliy asoslar, texnik vositalar, qoidalar va me'yorlarni o'matish va qo'llash tushuniladi.

Fizik kattaliklarning qiymati to'g'risidagi yagona axborot o'chanash tizimi doirasida bir o'chanash vositasidan boshqasiga signallar yordamida uzatiladi.

Ko'proq signallar sifatida quyidagilardan foydalaniladi:

- doimiy tenglikdagi signallar (doimiy elektr tok kuchi va kuchlanishi, siqilgan gaz bosimi, yorug'lik oqimi);

- sinusoidal signallar (o'zgaruvchan elektr toki yoki kuchlanishi);

- to'g'riburchakli impulslar ketma-ketligi (elektrik yoki yorug'lik).

Signallar bir qator ko'rsatkichlarni tavsiflaydi. Birinchi holatda signallning yagona ko'rsatkichi uning tengligi bo'lib hisoblanadi. Sinusoidal sig-

nallar o'zining amplituda, faza va chastotasini tavsisiab, to'g'riburchakli ketma-ket impulslar esa amplitudali, fazali, chastotali, impulsarning kengligi yoki aniq bir oraliq vaqt davomida turli tenglikdagi impulsarning kombinatsiyalari bilan tavsiflanadi.

Buning uchun boshlang'ich signal o'lchanadigan bo'lishi lozim, uning biror-bir ko'rsatkichlari o'lchanayotgan fizik kattalik bilan funksional bog'liqligiga aloqador bo'lishi lozim.

Signalning bunday tanlangan ko'rsatkichini axborotii deb, qolgan barcha ko'rsatkichlari esa axborot bermaydigan deb nomlanadi. O'lhashlarda kirish signallarini o'zgartirish jarayoni, ya'ni axborot ko'rsatkichida bir qancha payde bo'layotgan manbalar, kirish signallari ko'rsatkichlardan birini o'zgartirish modulyatsiya deb ataiadi. O'lchanayotgan signallarning modulyatsiyalash turiga bog'liq holda quyidagi tarzda sinflash mumkin:

Biror-bir ko'rsatkichlarning doimiy tengligini tavsiflovchi signallar va bunda faqat tenglik bo'yicha modulyatsiyalananadi. O'lchanadigan kattalik o'lchovida signal teng hisoblanadi.

Sinusoidal signallari amplituda, faza yoki chastota bo'yicha modulyatsiyalishi mumkin. Bunday bog'liqlikda signal ko'rsatkichlari dan biri o'lchanayotgan kattalikning o'lchovi bo'lib hisoblanadi. Ya'ni amplituda-modulyatsiyalangan, faza-modulyatsiyalangan yoki chastota-modulyatsiyalangan bo'ladi.

To'g'riburchakli impulslar ketma-ketligi amplituda bo'yicha (amplituda-impulslari modulyatsiyalangan signallar), chastota bo'yicha (chastota-impulslari signallar), faza bo'yicha (faza impulslari signallar) yoki impulslar kengligi bo'yicha (kenglik-impulslari modulyatsiyalangan signallar) medulyatsiyalangan bo'lishi mumkin. O'lchanayotgan kattalikning qiymati turli xil bo'lgan signallar aniq turli xil darajadagi impulslar kombinatsiyasiga muvoziq kodli-impulslar yoki raqamli deb ataladi.

Darajasi bo'yicha sinalning axberot ko'rsatkichi hamda vaqt bo'yicha o'zgarishining tavsifiga bog'liq hoida o'lhash signallari quyidagilarga bo'linadi:

- darajasi bo'yicha uzluksiz yoki analogli, agarda ular axborotli ko'rsatkich bo'lsa, ixtiyoriy berilgan diapazonda qo'llash mumkin;

- darajasi bo'yicha diskretli yoki kvantli, agarda ular axborotli ko'rsatkich bo'lsa, berilgan oraliqlarida chegaralangan sonli qiymatlarda qo'llash mumkin;

- vaqt bo'yicha uzlusiz, agarda ular barcha o'lhash vaqt davomida mavjud bo'ladi va ularni istalgan paytda qayd qilish mumkin;
- vaqt bo'yicha diskretlangan yoki kvanlangan, agarda ular bir qancha oraliq vaqlarda o'lchanayotgan kattalik qiymati to'g'risida axborotlarni beradi. Masalan, bu guruhdag'i signallarga impulsli-modulyatsiyalangan signallar kiradi.

O'lhash signallarini tablil qilishda ularni vaqt bo'yicha yoki Fure va Laplas o'zgarishlariga asolangan spektrial taqdim qilish yordamida bayon etishlyozish qabul qilingan.

### **5.3. O'lhash vositalarining metrologik ko'rsatkichlari**

Berilgan aniqlikda mahsulotlarni tayyorlashdan kelib chiqib o'lhash vositasini tayyorlashda ularning metrologik ko'rsatkichlarini hisobga olish lozim. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

**1. Shkala bo'linmasining uzunligi** – bu ikkita qo'shni bo'lgan belgi (shtrixiar, nuqtalar va h.) shkalalarning o'zaro joylashishi.

**2. Shkala bo'linmasining qiymati** – bu ikkita qo'shni belgili shkalalarga muvofiq kattaliklar qiymatining farqi (masalan, mikrometrda 0,01 mm ga teng).

**3. Drajalash (graduirovka) tavsifi** – o'lhash vositasining kirish va chiqishida kattaliklar qiymatining o'zaro bog'liqligi. Graduirovaka tavsifi o'lhash natijalarini aniqlashtirish uchun bo'linadi. Misol uchun bunga o'lhash o'zgartirishining nominal statistik tavsifi, bir qiymatli o'lchovning nominal qiymati, shkala bo'linmasi qiymati va chegarasi, raqamli kodlarda natijalarni taqdim qilish uchun mo'ljallangan o'lhash vositasining raqamli kodi ko'rsatkichi va shaklini aytish mumkin.

**4. Ko'rsatish diapazoni** – boshlang'ich va yakuniy shkala qiymatlari, shkala qiymatlari sohasi, ya ni o'lchanayotgan kattalikning kichik va yuqori qiymatlari. Masa'an, IKV-3 optimetri uchun ko'rsatish diapazoni  $\pm 0,1$  mm ni tashkil qiladi.

**5. O'lhash diapazoni** – o'lhash vositasining me'yorlangan, ruxsat etilgan xatoligi bilan o'lchanayotgan kattalikning qiymatlari sohasi. Masalan, u opimetr asbobida 0-200 mm ni tashkil etadi.

**6. Asbobning sezgirligi** – o'lchanayotgan kattalikning o'zgarishiga o'lhash asbobining chiqish signalini o'zgartirish munosabati. Shunday ekan, agar diamerti  $d = 100$  mm bo'lgan valni o'lhashda ko'rsatuvchi qurilmaning strelkasi  $\Delta l = 10$  mm bo'isa, o'lchanayotgan kattalik o'zgarishi  $\Delta d = 0,01$  mm, asbobning mutlaq sezgirligi  $S = \Delta l / \Delta d = 10 / 0,01 = 1000$  ni tashkil

etadi. Shkalalii o'lhash aboblari uchun mutlaq sezgirlik uzatish miqdori munosabatiga teng bo'ladi.

7. *Asbob ko'rsatishining variasiyasi* (noturg'unligi) – bitta kattalikni o'zgarinas sharoitda ko'p marotaba o'lhash natijasida ularining katta va kichikligining o'zaro algebraik farqi.

8. O'lhash vositasining turg'unligi – vaqt bo'yicha uning metrologik tavsiflari (ko'rsatkichlari) o'zgarmasligini ifodalovchi xossa.

#### 5.4. O'lhash vositalarining metrologik tavsiflari

O'lhash vositalari boshqa texnik qurilmalar kabi ularning vazifa va qo'llanilishini belgilovchi qator texnik tavsiflariga ega.

O'lhash vositalarining sifatini, ularning texnik darajasini baholashda xizmat qiladigan va o'lhash natijalariga ta'sirini va xatoliklarini baholash maqsadida o'lhash vositalarining ba'zi tavsiflari ajratiladi. O'lhash vositalarining bunday xususiyatlari *metrologik tavsiflar* deyiladi. Ishlash rejimiga qarab, ular statik va dinamik tavsiflarga bo'linadi.

*Statik tavsif* deganda o'lhash vositalarining statik ish rejimidagi ko'rsatkichlari tushuniladi, boshqacha aytganda, kirish kattaligi o'lhash olib borilgan vaqt davomida o'zgarmaydi.

*Dinamik tavsif* deganda esa o'lhash vositasining dinamik rejimidagi xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlari tushuniladi, boshqacha aytganda, o'lhash vositasining kirish kattaligi o'lhash jarayonida o'zgaradi.

**Asosiy statik tavsiflarga o'zgartirish vazifasi, sezgirlik, sezgirlik ostonasi** kiradi.

*O'zgartirish vazifasi* – bu o'lhash vositasining kirishidagi ( $X$ ) va chiqishidagi ( $Y$ ) kattaliklar qiyamatlarining o'zaro funksional bog'liqligi.

*O'zgartirish vazifasi* analitik ifoda bo'yicha  $Y = f(X)$  o'zgartirish tenglamasi, grafik tarzda va jadval ko'rinishida berilishi mumkin.

*O'zgartirish vazifasi* ko'pincha o'lhash vositasining *graduirovkali tavsifi* deyiladi.

O'lhash vositasi uchun (yoki o'lhash vositasining konkret turi uchun) ko'rsatilgan o'zgartirish vazifasini o'lhash vositasining *nominal o'zgartish vazifasi*  $Y = f_n(X)$  deyiladi.

Ideal holda o'lhash o'zgartikichlari va o'lhash asboblarining nominal o'zgartish vazifasi chiziqli bog'liqlikda –  $Y = f_n(X)$  bo'ladi. Bunday asboblar bir tekis shkalalii bo lib, ularda ikki qo'shni belgilari orasidagi oraliq butun shkala bo'yicha bir xil, ya'ni proporsional bog'liq bo'ladi.

Asboblarda o'zgartirish vazifasining chiziqli bo'lishi qaydnomalarni olishni osonlashtiradi, subyektiv xatoliklarni esa kamaytiradi.

**Sezgirlik** – umuman sezgirlik – bu o'lhash vositasining tashqi signalga nisbatan ta'sirchanligi, sezuvchanligi. Umumiy holda sezgirlik o'lhash vositasining chiqish signali o'zgarishini shu o'zgarishning sababchisi – kirish signali o'zgarishiga nisbatidan aniqlanadi:

$$S = \lim_{\Delta O \rightarrow 0} \frac{\Delta Y}{\Delta O} \approx \frac{\Delta Y}{\Delta O}; \quad (5.5)$$

Sezgirlikning o'lchamligi kirish va chiqishdagi kattaliklarning o'lchamliklaridan aniqlanadi.

O'lhash vositalarining sezgirligining teskari qiymati  $-C = \frac{1}{S}$ , ularning doimiyligi deyiladi va u o'lhash o'zgartkichlari va asboblarining asosiy tavsiflaridan biri hisoblanadi.

Ko'rsatuvchi strelkali asboblarining sanoq qurilmasi (ko'rsatkichi) shkala va ko'rsatkichdan tuzilgan. Shkaladagi sonli qiymatlar ko'rsatilgan belgilari shkalaning sonli belgilari deyiladi. Shkalaning ikki qo'shni belgilari orasidagi oraliq *shkalaning bo'linmasi* deyiladi. Shkalaning ikki qo'shni belgisi mos kelgan kattalik qiymatlari ayirmasi *shkala bo'linmasining qiymati* deyiladi.

**Sezgirlik ostonasi** – bu o'lchanadigan kattalikning shunday eng kichik (boslang'ich sezuvchanlik) qiymatiki, u o'lhash asbobining chiqish signalini sezilarli o'zgarishiga olib keladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \frac{X_{\text{max}}}{X_{\text{min}}} \cdot 100\%, \quad (5.6)$$

bu yerda,  $X_{\text{max}}$  – o'lchanadigan kattalikning eng kichik (boslang'ich) qiymati.

Integrallovchi asboblar uchun "sezgirlik" tushunchasi ishlatalmaydi va, o'z navbatida, "sezgirlik ostonasi" tushunchasi esa istalgan o'lhash o'zgartkichlari va asboblari uchun qo'llanilishi mumkin.

**Xususiy energiya sarfi.** Bu xususiyat ham muhim hisoblanib, asbobning o'lhash zanjiriga ulanganidan so'ng kiritishi mumkin bo'lgan xatoliklarni baholashda ahamiyatli sanaladi. Ayniqsa, kamquvvatli zanjirlarda o'lhashlarni bajarishda juda muhim.

O'lhash vositalarining istalgan uning kirishiga yoki chiqishiga ulangan qismlari bilan (o'lhash obyekti, o'lhash vositasi) o'zaro ta'siri

o'lhash xatoligining asbobi tashkil etuvchisini o'zgartiradi va bu holatni baholashda o'lhash vositasining *kirish va chiqishidagi impedansi* (to'la qarshilik) kabi xususiyatlari ham ishlataladi. Metrologik amaliyotda ko'rsatilgan tushunchalar quyidagicha ta'riflanadi.

O'lhash vositalarining kirish (chiqishi) impedansi – bu o'lhash vositasining kirishi (chiqishi)ga ta'sir etuvchi umumlashgan kuchning, o'lhash vositasi kirish (chiqish) zanjiridagi jarayonni xarakterlovchi umumlashgan tezligiga nisbati. "Impedans" atamasini istalgan fizik tizimlar (mekanik, gidravlik, magnit, elektr) uchun qo'liash mumkin.

Masalan, elektr zanjirida umumlashgan kuch – elektr kuchlanishi, umumlashgan tezlik esa elektr toki hisoblanadi. Ko'rsatilgan kattaliklarning nisbati Om qonuni bo'yicha elektr qarshiligini bildiradi.

O'lhash vositalarining muhim metrologik xususiyatlaridan biri o'lhash diapazoni (chegarasi)dir.

O'lchanadigan kattalikning o'lhash vositalari uchun yo'l qo'yiladigan xatoliklarini me'yoriangan qiymatlari oralig'i o'lhash asbobi yoki o'lhash o'zgartkichining *o'lhash diapazoni* deyiladi.

Texnik asboblarda, odatda, o'lhash diapazoni bilan ko'rsatkichlar diapazoni mos keladi. O'lhash diapazonining eng kichik va eng katta qiymatlari *o'lhash chegarasi* deyiladi.

Masalan, statsionar o'lhash kuchlanish transformatorlarining o'lhash diapazoni  $0.8 \cdot U_{nh}$  dan  $1.2 \cdot U_{nh}$  gacha bo'lib, ( $U_{nh}$  – transformator kirishidagi nominal kuchlanishi) kuchlanishning  $0.8 \cdot U_{nh}$  dan kichik va  $1.2 \cdot U_{nh}$  dan yuqori kuchlanishlari uchun xatoliklar me'yorlanmaydi.

**Dinamik metrologik tavsiflari** – o'lhash vositalarining inersion xususiyatlarini aks ettiradi va o'lhash vositasida chiqish signali bilan vaqt bo'yicha o'zgaradigan kattaliklarning o'zaro bog'liqligidan aniqlanadi. Vaqt bo'yicha o'zgaruvchan kattaliklar kirish signalingining ko'rsatkichlari, tashqi ta'sir etuvchi kattaliklar va b.lar o'lhash vositalarining dinamik xususiyatlarini to'la ifodalash maqsadida ularni to'la va xususiy dinamik tavsiflarga bo'lamiz.

**To'la dinamik xususiyat** – bu o'lhash vositasining kirishidagi istalgan axborot yetkazuvchi yoki axborot bermaydigan ko'rsatkichlar xoni va chiqish signallarining rasi o'zgarishidan aniqlanadi.

To'la dinamik xususiyatlarga quyidagilar kiradi: o'tish tavsifi, impulsli o'tish tavsifi, amplituda-faza tavsifi, amplituda chastotali va faza chastotali tavsiflar majmui, uzatish vazifasi.

**Xususiy dinamik xususiyat** – o'lhash vositasining dinamik xususiyatlarini to'la aks ettirmaydi. Analogli o'lhash vositalarining

xususiy dinamik tafsiflariga istalgan funksional yoki to'la dinamik xususiyatlarning ko'rsatkichlari kiradi Bunday xususiyatlarga quyidagilar kiradi: o'lhash vositasining ta'sirlanish vaqi (asbob ko'rsatishining to'xtash vaqt), dempfirash koeffitsiyenti, xususiy rezonans chastotasining qiymati, amplituda-chastotali tafsifning rezonans chastotasidagi qiymati.

## 5.5. O'lhash vositalarining aniqlik sinflari

Odatda, o'lhash asbobi olinadigan natijaga kirituvchi xatoligini oldindan belgilash uchun xatolikning me'yorlangan qiymatidan foydalilanadi. Xatolikning me'yorlangan qiymati deganda berilgan o'lhash vositasiga tegishli bo'lgan xatolikni tushunamiz. Alovida olinagan o'lhash vositasining xatoligi har xil, muntazam va tasodifiy xatoliklarning ulushi esa turlicha bo'lishi mumkin. Ammo yaxlit olib qaralganda, o'lhash vositasining umumiy xatoligi me'yorlangan qiymatdan ortib ketmasligi kerak. Har bir o'lhash asbobining xatoliklarining chegarasi va ta'sir etuvchi koeffitsiyentlar haqidagi ma'lumotlar asbobning pasportida keltirilgan bo'ladi.

O'lhash asboblari ko'pincha yo'i qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoligi bo'yicha sinflarga bo'linadi. Masalan, elektromexanik turidagi ko'rsatuvchi asboblarda standart bo'yicha quyidagi aniqliklar ishlataladi:

$$\delta_{a,k} \in \{0,02; 0,05; 0,1; 0,2; 0,5; 1; 1,5; 2,5; 4\}$$

Odatda, asboblarning aniqlik sinflari asbobning shkalasida beriladi va ularning keltirilgan xatoligini bildirib, quyidagicha bog'langan bo'ladi:

$$\begin{aligned}\delta_{a,k} &= \beta_{k_{max}} \geq \beta_k; \\ \delta_{a,k} &= \beta_{k_{max}} \geq \beta_k = \Delta / A_{r_{max}}\end{aligned}$$

Agar o'lhash asbobining shkalasidagi aniqlik sinfi aylana bilan chegaralangan bo'lsa, masalan, 1,5, u holda bu asbobning xatoligi shkala oxirida 1,5%ga tengligini bildiradi.

Agar o'lhash asbobining aniqlik sinfi chiziqchasiz bo'lsa, u holda aniqlik sinfi raqami keltirilgan xatolikning qiymatini bildiradi. Lekin bir narsani unutmaslik lozim: agar asbob, masalan, ampermetr keltirilgan xatolik bo'yicha 0,5 aniqlik sinfiga ega bo'lsa, uning barcha o'lhash

diapazoni oralig'içagi xatoliklari  $\pm 0,5\%$ dan ortmaydi, devish xato bo'ladi. Chunki bu turdag'i asboblarda shkaiyaning boshlanishiga yaqinlashgan sari o'lhash xatoligi ortib boraveradi. Shu sababdan bunday asboblarda shkalanining boshlang'ich bo'laklarida o'lhash tavsiya etilmaydi.

Agar asbobning shkalasida aniqlik sinfi yonbosh kasr chizig'i bilan berilgan bo'lsa, masalan,  $0,02/0,01$ , u holda asbob shkalasining oxiridagi xatoligi  $\pm 0,02\%$ , shkalanining boshida esa  $\pm 0,01\%$  ekanligini bildiradi.

O'lhash vositasining barcha me'yorlanadigan metrologik tavsiflarini hisoblash murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Amaliyotda bunday aniqlik juda zarur emas. Shuning uchun amaliyotda doimiy foydalilanilayotgan o'lhash vositalari uchun ularning *umumlashgan metrologik tavsiflarini* beruvchi **aniqlik sinflariga** bo'lish qabul qilingan.

Metrologik tavsiflarga talablar muayyan o'lhash vositasining standartida belgilanadi.

O'lhash vositalarining aniqlik sinfi davlat qabul qilish sinovlari natijalarini hisobga olib qo'yiladi.

Aniqlik sinfi belgisi me'yoriy-texnikaviy hujjatlarda, o'lhash vositasining korpusi va qobiq devoriga (shit), siferblatalariga qo'yiladi. Aniqlik sinflari harflar (masalan, M, S va h.) yoki rim raqamlari (I, II, III va h.) bilan belgilanishi mumkin. ГОСТ 8.401-80 standarti bo'yicha aniqlik sinflarini belgilash quyidagi qo'shimcha belgilar bilan qo'llaniladi:


- ,5, 1,6, 2,5 va h. – keltirilgan xatoligi  $\gamma = \Delta/X_N$ , ya'ni me'yorlangan qiymatidan  $X_N$  ( $\Delta$  – ruxsat etilgan mutlaq xatolik chegarasi) 0,5, 1,6, 2,5 %ni tashkil qiladi Bunda  $X_N$ , agar nol' qiymat kirishchiqish signalidan chetga yoki o'lhash diapazonida bo'lmasa, o'lhash chegarasi modulidan kattalteng bo'lishi qabul qilingan;

- ol ✓ dindi holatlardagidek, ammo faqat  $X_N$  shkala bo'linmasi yoki uning qismiga teng bo'lganda belgi qo'llaniladi;


- (0,1), (0,4), (1,0) va h. – o'lchanayotgan kattalik  $x$ ning olingan qiymatidan bevosita nisbiy xatoligi  $\delta = \Delta/x$  0,1, 0,4, 1,0 %ni tashkil etgan asboblari uchun qo'llaniladi;

-  $0,02/0,01$  – o'lchanayotgan kattalik ko'rsatkich qayd etgan  $x$ ning qiymatidan farq qilmagan,  $[N + d \cdot (X_k/x) - 1] \%$  asboblar uchun qo'llaniladi, bu yerda  $N$  va  $d$  – belgilangan aniqlik sinfiga muvofiq surat va maxraji,  $X_k$  – o'lhash asbobining chegarasidan (moduli bo'yicha) kattasi.


Aniqlik sinflarini belgilashga misollar 5.15-rasmida keltirilgan.




a)




b)




v)



g)



d)



e)

- 5.15-rasm. Asboblarining yuz panellari:
- a – teng taqsimlangan shkalali, aniqlik sinfi 0,5 bo'lgan voltmetr;
  - b – teng taqsimlangan shkalali, aniqlik sinfi 1,5 bo'lgan ampermetr;
  - v – teng taqsimlangan shkalali, aniqlik sinfi 0,02/0,01 bo'lgan ampermetr;
  - g – teng taqsimlanmagan, aniqlik sinfi 2,5 bo'lgan megammetr;
  - d – nominal chastotasi 50 Hz, aniqlik sinfi 0,2 bo'lgan chastotamer;
  - e – pastki shkalasi teng taqsimlanmagan, aniqlik sinfi 0,5 bo'lgan fazometr.

## 5.6. O'lchash vositalarini metrologik attestatsiyalash

**Metrologik attestatsiya** – bu o'lchash\sinash vositasini uning metrologik vazifasi va metrologik tavsiflarini ko'rsatish bilan uning metrologik xossalalarini batafsil tadqiq qilish asosida qo'llash uchun qonunlashtirilgan deb tan olish. Metrologik attestatsiyalash O'zDSt 8.011:2004 standarti talablari asosida o'tkaziladi.

O'lchash vositasini attestatsiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- metrologik tavsiflarni aniqlash va ularni me'yoriy hujjalarga muvosifligini o'rnatish;
- qiyoslashda tekshirilishi lozim bo'igan metrologik tavsiflarning ro'yxatini belgilash.

Metrologik attestatsiya davlat yoki idoraviy metrologik xizmatlar tomonidan maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastur bo'yicha o'tkaziladi. Natijalar ma'lum shakldagi dalolatnoma ko'rinishda rasmiylashtiriladi. Natijalar ijobjiy bo'lganida, belgilangan shakldagi guvohnoma beriladi. O'lhash va sirash orasida farq mavjud bo'lib, u shundan iboratki, sinash xatoligi o'lhash xatoligidan va sinash rejimlarini qayta tiklash xatoliklaridan iborat. O'lhashni sinashning xususiy holi deb atash mumkin.

Shunga muvosif ravishda, o'lhash vositalarini va sinov qurilmasini attestatsiyalashda farq mavjud bo'lib, uning asosiy qoidalari O'zDSt 8.107-95da keltirilgan.

Sinov qurilmasini attestatsiyalashdan asosiy maqsad – mazkur qurilmaning ruxsat etiladigan og'ishlar chegaralarida sinash sharoitlarini qayta tiklash imkoniyatini tasdiqlash va uning vazifasiga mos ravishda foydaianishga yaroqliliginini aniqlashdan iborat.

Attestatsiya, qiyoslashdagi kabi birlamchi, davriy va takroriy bo'ladi.

**Birlamchi attestatsiya** sinov qurilmasining ishlatish hujjalarini ekspertizadan o'tkazish, texnik tavsiflarni eksperimental aniqlash va uning foydalanish uchun yaroqliliginini tasdiqlashdan iborat.

- sinash sharoitlari ko'rsatkichlarining me'yorlangan qiyatlardan og'ishlari;
- xodimlar xavfsizligining ta'minlanishi va atrof-muhitga zararli ta'sirning yo'qligi;
- jihozning attestatsiyalashda qiyoslanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlari ro'yxati va, shuningdek, uni qo'llash usullari, vositalari va davriyligi.

Davriy attestatsiya sinov qurilmasini ishlatish jarayonida uning tavsiflarining sinov uslubiyatiga oid me'yoriy hujjalari talablariga asosan rasmiylashtiriladi. Natijalar ijobjiy bo'lganida jihozga ma'lum shakldagi attestat beriladi va ishlatish hujjalarida yoziladi.

**Metrologik attestatsiya** deganda me'yoriy hujjalarga muvosif ko'rsatilgan ma'lumotlarga guvohlik berish va uning metrologik xossalarni aniqlash maqsadida metrologik idoralarning bajaradigan o'lhash vositalarini tadqiqot qilish tushuniladi.

O'lhash vositalarini metrologik attestatsiyalash natijalari bo'yicha aniqlangan metrologik tavsiflariga ko'ra, o'lhash vositasini namunaviy yoki ishchi o'lhash vositasi sifatida qo'llash imkoniyatlari aniqlanadi.

Odatda, hozirgi vaqtida metrologik attestatsiyalash deganda namunaviy yoki nostonart o'chashlarni hamda modda va materiallarning tarkibi, xossalariini hamma tomonlama tadqiqot qilish tushuniladi.

**Nostonart o'chash vositalari (NO'V).** Nostonart o'chash vositalarini ekspluatatsiya qilish vaqtida o'matilgan tartibda quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

- yagona nusxada chet eldan olib kelinayotgan vositalar;
- ularning metrologik tavsiflari uchun shart-sharoitlardan farq qiluvchi seriyali o'chash vositalarning yagona nusxalar;
- konstruksiysi va tizimiga o'zgartirish kiritilganda seriyali ishlab chiqarilayotgan namunaning metrologik tavsiflariga ta'sir etuvchi ta'sirlar bo'lganda.

NO'V metrologik ta'minlashning vazifalari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

1. NO'V texnik topshiriq yoki tayyorlovchi zavodning o'rmatgan talablariga muvofiq va metrologik tavsiflarini tadqiqot qilish.
2. NO'V maqbul nomenklaturasini belgilashda.
3. Attestatsiya vositalari bilan NO'V qiyoslash (MTH bo'yicha tekshirish), ishlab chiqarish, tayyorlash va ekspluatatsiyasida ta'minlash.
4. NO'V aniqligi uchun ine'yorlangan qo'llanilish bo'yicha doimiy yaroqligini ta'minlash.
5. Ishlab chiqarish, tayyorlash va ekspluatatsiya muddati va xaratjatlarini kamaytirish.

NO'V metrologik ta'minoti bo'yicha korxonalarining ilmiy-uslubiy faoliyatiga rahbarlikni Vazirlik, "O'zstandart" agentligi, va uning standartlashtirish va metrologik markazlari. SMSITI hamda metrologiya bo'yicha tayanch tashkilotlar amalga oshirishadi.

Ishlab chiqilgan yoki NO'V import qilinishi bo'yicha sotib olingan holatlarda saqat ularni metrologik attestatsiya qilinganidan so'ng qo'llashga ruxsat etiladi. Agarda O'zbekiston Respublikasida attestatsiyalangan, NO'Vlarini import qilishga o'chash vositalarining natijalarini o'zaro tan olish bo'yicha shartnomaga mavjud bo'lsa, attestatsiyalash talab etilmaydi.

NO'V ishlab chiqish, tayyorlash va ekspluatatsiya qilish (Davlat metrologik nazorati va tekshiruvi sohalari) ustidan nazorat hamda mahkamaviy nazorat, mualliflik va davlat nazoratidan o'tkaziladi.

Mualliflik tekshiruvi NO'V ishlab chiquvchi metrologik xizmat bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Unda NO'V metrologik attestatsiyalashga tayyorlash va o'tkazishda NO'V qiyoslash tashkilotlari va me'yoriy-texnik

hujjatlarni ishlab chiqishda yordam ko'rsatuvchilar ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

NO'V ishlab chiqish, tayyorlash, attestatsiyalash va qiyoslash ustidan metrologik nazorat vazirlig (mahkamaviy)ning metrologik xizmatlari tomonidan o'tkaziladi.

Davlat metrologik tekshiruv va nazorati qo'llaniladigan sohada foydalaniadigan yoki foydalanishga mo'ljallangan o'lhash vositalari metrologik attestatlanadi. Bunda quyidagilar attestatlanadi:

– donalab ishlab chiqariladigan O'V;

– chet mamlakatlardan donalab keltiriladigan O'V;

– o'zining bevosita vazifasi bo'yicha qo'llanilmaydigan, turini tasdiqlash-da o'matilgan qo'llanish sharoitlaridan farqlanuvchi sharoitlarda qo'llaniladigan, mahalliy yoki xorijda ishlab chiqarilgan, turi tasdiqlangan O'V;

– turini tasdiqlashda o'matilganlardan farqlanuvchi individual metrologik tafsilotlarni o'rnatishga imkon beruvchi texnik imkoniyatlarga ega, seriyalab ishlab chiqarilgan O'Vning dona nusxalari;

– ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini olib borishda tayyorlangan va metrologik attestatlashni o'tkazishni tashkillashtirishga va tartibiga umumiy talablarni o'rnatishda.

O'lhash vositalarini metrologik attestatlash – donalab ishlab chiqarilgan (yoki xorijdan donalab nusxalarda keltiriladigan) o'lhash vositalarini, bularning xossalarni sinchiklab tadqiq qilish asosida, davlat metrologik tekshiruvi va nazorati sohasida qo'llanishga huquqli ekanligini metrologik xizmat tomonidan tan olish.

O'lhash vositalarini metrologik attestatlash – metrologik tafsilotlarining haqiqiy qiymatlarini o'rnatish maqsadida tadqiq etish. O'lhash vositalarini metrologik attestatlash – ularning metrologik tafsilotlarining o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida tadqiq etish. Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati qo'llaniladigan sohaga kirmaydigan o'lhash vositalari ham metrologik attestatlanishi mumkin. Bunday attestatlash ixtiyoriy asosda o'tkaziladi.

Metrologik attestatlash O'Vning metrologik tafsilotlarining haqiqiy qiymatlarini aniqlash va yoki ularning o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi.

O'Vni metrologik attestatlashning asosiy vazifalari:

– O'Vning davlat metrologik tekshiruvi va nazorati sohasida o'z vazifasiga muvofiq qo'llanilishiga huquqli ekanligini o'rnatish;

– attestatlanadigan O'V metrologik tafsilotlarining O'Vni yaratishga texnik topshiriqda o'matilgan yoki O'Vdan foydalanuvchi (attestatlashni buyurtiruvchi)ning attestatlashga topshirig'i (so'rovnomasasi)ga binoan o'matilgan talablarga muvofiqligini baholash;

– O'Vning haqiqiy metrologik tafsilotlarini aniqlash;

– O'V texnik tafsilotlarining xavfsizlik talablariga, gigiyenik va xos sinovlar jarayonida o'matilgan boshqa maxsus talablarga muvofiqlikning to'liqligini baholash.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati sohasida qo'llaniladigan va turini tasdiqlash jarayonidan o'tmagan barcha o'lhash vositalari majburiy ravishda metrologik attestatlanadi.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati sohasidan tashqarida qo'llaniladigan, turini tasdiqlash protsedurasidan o'tmagan o'lhash vositalari birlamchi kalibrланishi lozim.

O'Vni metrologik attestatlash ularni ekspluatatsiyaga qabul qilish (ekspluatatsiya sharoiti o'zgargan) bosqichida yoki O'zbekiston bojxona chegarasidan o'tish, O'Vni chet eldan olib kirish bosqichida o'tkaziladi.

Metrologik attestatlashdan o'tgan O'V davriy, zarur bo'lganda esa, navbatdan tashqari yoki inspeksion qiyoslanadi.

O'Vni metrologik attestatlashni davlat metrologik xizmati yoki O'Vni attestatlash huquqiga akkreditlangan yuridik shaxslar o'tkazadi.

Xavfsizlik talablariga, gigiyenik yoki maxsus talablarga muvofiqligini sinash lozim bo'lgan O'V mos sinovlarni o'tkazgandan keyin metrologik attestatlanadi.

Metrologik attestatlash quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- attestatlashni o'tkazishga manfaatdor yuridik (jismoniy) shaxs (keyinchalik – Buyurtmachi) O'Vni metrologik attestatlash huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs (keyinchalik – Bajaruvchi)ga so'rovnoma topshiradi.

- attestatlash natijalari ijobji bo'lganda attestatlashni o'tkazgan yuridik shaxs (bajaruvchi) attestatlash natijalari to'g'risida "O'zstandart" Agentligiga xabar beradi va unga O'Vni attestatlash bayonnomasi, daloлатomasi, tavsifi va attestatlash sertifikatining nusxalarini o'n besh kun muddat ichida taqdim etadi.

### Nazorat savollari

1. O'lhashni asbobi nima?
2. O'lhashni asboblarning sinflanishini tushuntiring.
3. Turli tizimda ishlaydigan analogli o'lhashni asboblarning afzal va kamchilik tomonlarini tushuntirib bering.

4. O'lhash uchun qanday asbobdan foydalaniladi?
5. O'lhash asbobining sezgirligi deganda nimani tushunasiz?
6. O'lhash asbobining sezgirligini oshirish uchun qaysi ko'rsatkichlarga e'tibor berish lozim bo'ladi?
7. O'lhash asboblaridagi shartli belgilari nima uchun kerak?
8. O'lhash asboblarining metrologik ko'rsatkichlariga nimalar kiradi va ularni tushuntiring?
9. O'lhash asboblarining metrologik tavsiflariga nimalar kiradi? Ularni izohlang?

## VI BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'LCHASHLAR BIRLILIGINI TA'MINLASH DAVLAT TIZIMI

### 6.1. O'lchashlar birliliginini ta'minlash davlat tizimining umumiyl qoidalari

**O'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi (O'BTDT)** – bu davlat tomonidan tartibga solinadigan o'lchashlar birliliginini ta'minlash bo'yicha ishlarni o'tkazish talablari, qoidalari, nizomlari, me'yorlari va tartibini belgilevchi, o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiluvchi xalqaro, davlatlararo va milliy me'yoriy va uslubiy hujjatlar majmui. Bunday hujjatlar majmui metrologiya bo'yicha milliy idora tomonidan tasdiqlanadi va/yoki mamlakat hududida foydalanishga kiritiladi.

O'zO'DTning asosini metrologiya bo'yicha milliy idora ishlab chiqadigan va tasdiqlaydigan asos bo'lувчи me'yoriy hujjatlar tashkil etadi. Bunday me'yoriy hujjatlarda qonuniy metrologiya sohasidagi asosiy qoidalari va protseduralar o'rnatiladi. Asos bo'lувчи me'yoriy hujjatlarda birliklar, o'lchash usullari va vositaari, o'lchash laboratoriyalariiga davlat talablari, metrologik tekshiruv va nazorat subyektlari va obyektlarining harakat sohalari, huquqlari va vakolatlari aks ettiriladi.

Metrologik me'yorlar qoidalarni o'rnatuvchi va O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy kuchga ega bo'lgan o'lchashlar birliliginini ta'minlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlarini "O'zstandart" agentligi bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari, tad-birkorlik subyektlari o'z vakolatlari doirasida davlat metrologik tekshiruvni va nazorati qo'llani!maydigan sohada "O'zstandart" agentligining o'lchashlar birliliginini ta'minlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarni oydinlashtiruvchi va ularga zid kelmaydigan metrologiya doirasida me'yorlar va qoidalarni o'rnatuvchi me'yoriy hujjatlarni yaratishi va tasdiqlashi mumkin.

O'lchashlar birliliginini ta'minlashning me'yoriy asosini O'zbekiston Respublikasi hududida, kattaliklar birliklari o'lchamlarini uzatish tartibini hamda o'lchov vositalarini sinash, qiyoslash va kalibrash tartibini belgilovchi boshqa me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga olgan me'yoriy hujjatlar majmui tashkil etadi.

O'zbekiston o'lchashlar birligini ta'minlash Davlat tizimi (O'zO'DT) ning standartlashtirish asosiy obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- fizik kattaliklar birliklari;

- davlat etalonlari va MDH doirasidagi daviatlararo qiyoslash sxemalari;
- o'chash vositalarini qiyoslash usullari va vositalari;
- o'chash vositalarining me'yordanayotgan metrologik tavsiflari nomenklaturasi;
- o'chashlar aniqligi me'yorlari;
- to'g'rilikni baholash usuli va moddalar materiallarning xossalari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish shakllari;
- moddalar va materiallarning tarkibi va xossalari standart namunalariga qo'yiladigan talablar;
- o'chash vositalarining davlat sinovini, qiyoslanishini va metrologik attestatlanishini o'tkazishni tashkil qilish va tartibi;
- metrologiya sohasidagi atamalar va ta'riflar.

**"O'zstandart" agentligi amaldagi qonunchilikka binoan quyidagilarni amalga oshiradi:**

- o'chashlar birligini ta'minlash sohasida texnikaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;
- Davlat metrologiya xizmatini boshqarish;
- moddalar va materiallar tarkibi va xususiyatlarining standart namunalarini xizmatiga rahbarlik qilish;
- O'zbekiston Respublikasi o'chash vositalari davlat reyestrini yuritish;
- Davlat boshqaruvi boshqa organlari metrologik xizmatlari bilan xorijiy metrologik xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va ilmiy-uslubiy hamjihat harakatlanishlarini amalga oshirish;
- Davlat metrologik tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida o'chashlar birligini ta'minlash sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirish va umumiy texnikaviy rahbarlikni Metrologiya bo'yicha boshqarma amalga oshiradi.

## 6.2. O'chash vositalarini qiyoslash

**O'chash vositalarini qiyoslash** – davlat metrologiya xizmati (yoki boshqa rasmiy vakolatli idora, tashkilot) tomonidan o'chash vositalarining foydalanishga yaroqliliginini eksperimental aniqlanadigan metrologik tavsiflar asosida belgilash va ularning majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash.

**O'chash vositalarini qiyoslash** ularning ustidan metrologik nazorat va tekshiruv qoidalariaga muvofiq amalga oshiriladi

Qiyoslashni olib borish va tashkil etishning asosiy talablari metrologiya qoidalari va tavsiyalarida ko'rsatilgan. Qiyoslash uni olib borish huquqiga ega bo'lgan metrologik xizmatlar tomonidan bajariladi. Yaroqli deb topilgan o'lhash vositasiga qiyoslash guvohnomasi beriladi va qiyoslash tamg'asi qo'yiladi.

Amaldagi qonunchilikka binoan, davlat metrologik tekshiruvi va nazoratidan o'tishi lozim bo'lgan o'lhash vositalari ishlab chiqarilganidan yoki ta'mirdan keyin, import qilinganida va ishlatish jarayonida qiyoslanishi kerak. Qiyoslanishi lozim bo'lgan o'lhash vositalari guruhlari ro'yxatini "O'zstandart" agentligi O'zDSt 8.003:2005 standartiga muvofiq tasdiqlaydi. Qiyoslash sinov natijalari bo'yicha tasdiqlanadigan me'yoriy hujjalarga muvofiq o'tkaziladi.

Qiyoslash natijalari quyidagicha bo'ladi:

- o'lhash vositalarining qo'llanishga yaroqligini tasdiqlash. Bu holda unga va yoki texnik hujjatiga qiyoslash tamg'asi qo'yiladi va yoki qiyoslash haqidagi guvohnoma beriladi.

- *Qiyoslash tamg'asi* – o'matilgan shakldagi belgi bo'lib, qiyoslash natijasida yaroqli deb topilgan o'lhash vositalarga qo'yiladi. Tamg'alar qo'llanilishi O'zDSt 8.008:2000 standartiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

- o'lhash vositalarini foydalanish uchun yaroqsiz deb tan olish. Bu holda qiyoslash tamg'asi va yoki qiyoslash haqidagi guvohnoma bekor qilinadi hamda yaroqsizlik haqidagi guvohnoma yozib beriladi.

Tamg'a shakli va qiyoslash haqidagi guvohnoma, qiyoslash tamg'asini qo'yish tartibi O'zDSt 8.008:2000 va O'zDSt 8.003:2005 standartlarida belgilangan.

Qiyoslashning beshta turi ko'zda tutilgan bo'lib, o'lhash vositalarini birlamchi (boshlang'ich), davriy, navbatdan tashqari, inspeksiya va ekspert qiyoslashdan iborat.

**Birlamchi qiyoslash** o'lhash vositalari ishlab chiqarilgan vaqtida yoki ta'mirdan so'ng, shuningdek, xorijdan partiyalab olib kirilganida o'tkaziladi. Bunday qiyoslashdan, odatda, o'lhash vositalarning har bir nusxasi o'tkaziladi.

**Davriy qiyoslash** belgilangan vaqt oraliqlarida (qiyoslashlar o'rtaida- gi oraliqlarda) bajariladi. Ishlatilayotgan yoki saqlab qo'yilgan o'lhash vositalari bunday qiyoslashdan o'tkaziladi. Qiyoslanishi lozim bo'lgan o'lhash vositalarning aniq ro'yxatini ularning egalari – yuridik yoki jismoniy shaxslar tuzadilar. Davlat metrologiya xizmati idoralari (DMX) metrologik me'yorlar va qoidalarga rivoja qilinishi ustidan nazorat o'tkazayotganida bu ro'yxatlarning to'g'ri tuzilganligini tekshiradi. O'lhash vositalarining har

bir nusxasi davriy qiyos'ashdan o'tishi lozim. Uzoq vaqt saqlanishga qo'yilgan o'lchash vositalalar bundan mustasno bo'lishi mumkin. Bunday qiyoslash natijalari qiyoslashlar o'rtasidagi oraliq davomida haqiqiy. Birinchi oraliq o'lchash vositalari turini tasdiqlashda belgilanadi. Keyingi qiyoslash oraliqlari esa MI 2187-91 asosida aniqlanadi.

O'lchash vositalarini tekshiruvchi yoki o'lchash vositalarini ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot taqdimotiga asoslanib, "O'zstandart" agentligi qarori bilan o'lchash vositalari metrologik tafsiflarining barqarorligi, statistik ma'lumotlarga aseslanib, qiyoslash oralig'i o'zgartirilishi (uzaytirilishi yoki qisqartirilishi) mumkin.

**O'lchash vositasini navbatdan tashqari qiyoslash** uning davriy qiyoslash muddati tugaganidan oldin ushbu hollarda o'tkaziladi:

- qiyoslash tamg'asi buzilganida yoki qiyoslash haqidagi guvohnoma yo'qotilganda;
- o'lchash vositalarini uzoq saqlashdan keyin (bitta qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqdan ortiq) ishlatalishga yo'l qo'yilganida;
- o'lchash vositalariga ma'lumi yoki taxmin etilgan zarbalar ta'sir etganida yoki u qoniqarsiz ishlaganida qayta sozlash o'tkazishda;
- qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqning yarmiga teng muddat o'tganidan keyin sotilmagan o'lchash vositalarini iste'molchiga jo'natishda;
- qiyoslash o'rtasidagi oraliqning yarmiga teng muddat o'tganidan so'ng o'lchash vositalarini butlovchi qismlar sifatida qo'llanilganda.

**Inspeksion qiyoslash** metrologik xizmat idoralari tomonidan, o'lchash vositalarining holati va qo'llanilishi ustidan davlat nazorati yoki idoraviy tekshiruvni amalga oshirish chog'ida o'tkaziladi. Uni qiyoslash usulida ko'zda utilgan to'la hajmdan kamroq darajada o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Inspeksion qiyoslash natijalari dalolatnomada aks ettiriladi.

Ekspertlik qiyoslash normativ hujjatlar bo'yicha, o'lchash vositalarining soz (ishga tayyor va ularning foydalanishga yaroqli)ligi yuzasidan nizoli savollar yuzaga kelganida o'tkaziladi. Uni davlat metrologik xizmati idoralari manfaatdor shaxslarning yozma talablariga muvofiq o'tkazadi.

**O'lchash vositalarini qiyoslash bo'yicha qoidalari.** O'lchash vositalarini davriy qiyoslash O'zDSt 8.003:2005 standarti talablariga muvofiq tartiblashtiriladi. Bu hujjat quyidagi asosiy qoidalarga tayanadi:

- mamlakatda o'lchashlar birliligin ta'minlashning eng muhim yo'li o'lchash vositalarni qiyoslash;
- qiyoslash bilan ishlab chiqarilgan va ta'mirlangan, xorijdan sotib olingan, ishlatalayotgan va saqlashga qo'yilgan barcha o'lchash vositalari qamrab olinishi kerak;

- qiyoslashda metrologik va texnik talablarga muvofiqligi tasdiqlangan o'lhash vositalargina qo'llanish uchun yaroqli deb tan olinishi mumkin;

- ishlatalayotgan o'lhash vositalarini qiyoslash davriyligi ishlatalish sharoitlariga bog'liq va buzuq asboblarning o'z vaqtida aniqlanishini ta'miniashi lozim;

- qiyoslash maxsus tayyorlangan shaxslar tomonidan qiyoslash bo'yicha ilmiy-texnikaviy hujjalarga muvofiq bajariladi.

Ishlatilayotgan yoki saqlashga qo'yilgan o'lhash vositalar ma'lum qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqdan keyin davriy qiyoslashdan o'tkazilishi lozim.

Qiyoslanishi lozim bo'lgan o'lhash vositalarining aniq ro'yxatlarini yuridik va jismoniy shaxslar -- o'lhash vositalarining egalari tuzadilar. Qiyoslanishi lozim bo'lgan o'lhash vositalari ro'yxatlari Davlat metrologiya xizmati idoralariga yuboriladi. Davlat metrologiya xizmati idoralari metrologik qoidalar va me'yordarga rivoja qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish chog'ida qiyoslanishi lozim bo'lgan o'lhash vositalari ro'yxatlarining to'g'ri tuzilganligini tekshiradilar.

Uzoq muddat saqlashga qo'yilgan o'lhash vositalari davriy qiyoslashdan o'tmasligi mumkin.

Bir necha kattaliklarni o'lhash\qayta tiklash uchun mo'ljallangan yoki bir necha o'lhash diapazonlariga ega bo'lgan, biroq kamroq sondagi kattaliklarni o'lhash\qayta tiklash yoki kamroq sondagi diapazonlarda o'lhash uchun foydalaniladigan o'lhash vositalarni davriy qiyoslashni bosh metrolog yoki yuridik shaxs rahbarining qarori asosida faqat qo'llanilayotgan sondagi kattaliklar va ishlatalayotgan diapazonlar uchun o'lhash vositalarining yaroqliligini aniqlab beradigan qiyoslash bo'yicha normativ hujjalarni talablari bo'yicha ruxsat etiladi. Bunga mos yozuv ishlatalish hujjalarda aks ettirilishi lozim. Davriy qiyoslash natijalari qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqda amal qiladi.

Birinchii qiyoslashlar o'rtasidagi oraliq asbob turini tasdiqlashda belgilanadi. Davlat metrologiya xizmati idoralari va yuridik shaxslar davriy qiyoslashlar natijalarini, qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni, ularning qo'llanish xususiyatlarini hisobga olib, ularni korrektorlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishlari lozim. Qiyoslashlar orasidagi oraliqlarni aniqlashtirish Davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik shaxsning metrologik xizmati bilan kelishilgan holda o'tkaziladi. Tomonlar kelisha olmagan holda qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni o'zgartirish haqida xulosa chiqarishga imkon beradigan tadqiqotlar natijalari Davlat metrologiya markazlariga beriladi va ular tegishli xulosa chiqaradilar.

Davriy qiyoslash foydalanuvchi, Davlat metrologiya xizmati yoki qiyoslash huquqi bo'yicha akkreditlangan yuridik shaxs hududida o'tkazilishi mumkin. Qiyoslash joyini o'lhash vositalarining foydalanuvechisi iqtisodiy omillar hamda qiyoslanadigan o'lhash vositalarini tushib kelirish imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlaydi. O'lhash vositalarini ishlab chiqaruvchi yoki ta'mirdan chiqaruvchi, shuningdek, o'lhash vositalarini ishlatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar, o'lhash vositalarini tayyorlash, ta'mirlash yoki ishlatish joylarida, qiyoslash uchun maxsus qiyoslash qurilmalari, etalonlar talab qilinadigan hollarda tegishli qurilmalar va etalonlarga ega bo'lishlari va ularni Davlat metrologiya xizmati idoralari ixtiyoriga berishlari lozim.

O'lhash vositalarini tayyorlash, ta'mirlash yoki ishlatish joylarida Davlat metrologiya xizmati idoralari tomonidan qiyoslashlarni amalga oshirish vaqtida yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilarga amal qilishlari kerak:

- Davlat metrologiya xizmatiga tegishli bo'lgan etalonlarni va yordamchi vositalarni zarur bo'lgan hollarda qiyoslash joyiga olib kelish va olib ketishni ta'minlashlari;
- qiyoslashni bajarish uchun zarur bo'ladigan xonalar va yordamchi xodimiarni ajratishlari;
- zarur hollarda, Davlat metrologiya xizmatiga tegishli etalonlarni ularning tamg'asi ostida saqlab berishni ta'minlashlari;
- ko'chma qiyoslash laboratoriysi tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan holda turish joyini berishlari hamda elektr, gaz va suv ta'minoti tarmoqlariga ulanishini, shuningdek, uning saqlanishini ta'minlashlari.

O'lhash vositalari Davlat metrologiya xizmati idoralari talabiga muvofiq qiyoslash uchun ochilgan holatda, texnik tavsifi, ishlatish usuli, pasporti yoki so'nggi qiyoslash haqidagi guvohnomasi, zaruriy butlovchi qurilmalar bilan birga taqdim qilinishi lozim.

O'lhash vositalarini qiyoslash grafiklarini tuzish tartibi yuqorida sanab o'tilgan normativ hujjalarga muvofiq ravishda belgilanadi, korxona tomonidan ularning ishlatish sharoitlari va intensivligi hisobga olib tuziladi.

Fizik kattalik o'lchamining o'zgarish faktini bu o'zgarishni miqdoriy baholamasdan aniqlash uchun qo'llaniladigan o'lhash vositalari indikatorlar guruhiga kiritilishi mumkin va qiyoslanmaydi. Faqat indikator sifatida qo'llaniladigan o'lhash vositalarining old tomoniga "I" (indikator) belgisi qo'yiladi. O'lhash vositalarini indikatorlar guruhiga metrologik xizmatga ega bo'lgan korxonatashkilotlar o'tkazishlari mumkin, bunda

uning nizomi vazirlik idora metrologiya xizmati nizomi asosida ishlab chiqiigan bo'lib, "O'zstandart" agentligi bilan kelishilgan bo'lishi kerak. O'lhash vositalarini indikatorlar maqomiga o'tkazish mas'uliyati metrologik xizmat rahbari zimmasiga yuklanadi. Indikatorlar maqomiga o'tkazilgan o'lhash vositalari maxsus ro'yxatga kiritiladi va unda o'lhash vositalarining turi, zavod nomeri (tartib raqami), ishlafish bo'yicha vazifalarining tavsifi ko'rsatiladi. Indikatorlar sifatida qo'llaniladigan o'lhash vositalari ro'yxati nusxasini "O'zstandart" agentligining hududiy idorasiga topshiriladi. Agar metrologik nazorat o'tkazish vaqtida o'lhash vositalari indikatorlar maqomiga noto'g'ri o'tkazilgan yoki ularning vazifasi ro'yxatda ko'rsatilganiga mos kelmasa, u holda o'lhash vositalari – indikatorlar ro'yxati bekor qilinadi, metrologik xizmat o'lhash vositalarini indikatorlarga o'tkazish huquqidan ajraladi, o'lhash vositalari esa qiyoslashdan o'tkaziladi.

O'quv maqsadlarida (namoyish etish) qo'llaniladigan o'lhash vositalari davriy qiyoslashdan o'tkazilmaydi. Unga "O'" (o'quv) belgisi qo'yiladi. Boshqa maqsadlar uchun ular qo'llanilishi mumkin emas. ularning sozligi tegishli qoidalar bilan nazorat qilinadi va o'quv jarayoni talablariga mos bo'lishi kerak.

Ishlatilayotgan va saqlashga qo'yilgan o'lhash vositalarini qiyoslash ma'lum vaqt oraliqlaridan keyin qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarda bajariladi. Qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni belgilashda ikkita o'zaro zid talabni hisobga olishga to'g'ri keladi. Bir tomonidan, ma'lumki qiyoslash qancha tez-tez o'tkazilsa, o'lhash vositalarining metrologik ishonchliligi shuncha yuqori bo'ladi, demak, qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni qisqartirish lozim. Biroq o'lhash vositalarini qiyoslash uning o'ziga ham, ishlab chiqarish sohasidan o'lhash vositalarini jalb qilinishi va almashtiruvchi o'lhash vositalari fondini yaratish zarurligi natijasida ham ancha kam iqtisodiy xarajatlarni talab qiladi. Bu hisobga olinsa, qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni maksimal oshirish lozim. Shuning uchun qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqni tanlash muhim texnik-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Optimal qiyoslashlar o'rtasidagi oraliqlarni tanlash masalasi yetarlicha murakkab bo'lib, hali to'la hal qilinmagan. Bu oraliqning tanlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning xilma-xilligi bilan bog'liq. O'lhash vositalarining xatoligi ishlatilish jarayonida o'zgarmas bo'lib qolmaydi va ayrim hollarda ularning qiyatlari mazkur o'lhash vositalari uchun ruxsat etiladigan aniqlik sinfigan oshib ketishi mumkin. Shu munosabat bilan ba'zi mamlakatlarning (AQSh, Kanada) milliy metrologiya xizmati laboratoriyalarda qiyoslash natijalarining amal qilish muddati

ko'rsatilmaydi va bu bilan qiyoslashda aniqlangan xatoliklar (tuzatishlar) qiyatlari faqat qiyoslash vaqtida to'g'riliqi hamda vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Xatolik ruxsat etiladigan chegaralardan qachon ortib ketishini iste'molchining o'zi hal etishi lozim. Buning uchun xatolikning o'zgarish jarayoni modeliga ega bo'lish lozim.

Amaliyotda qiyoslashlar o'rtaqidagi oraliqlarni aniqlashning bir necha usullaridan foydalaniladi. Bularning hammasi quyidagiga asoslanadi: o'lhash vositalari joriy xatoliklari o'zgarishining matematik kutilishi va dispersiyasi vaqt ichida o'zgaradigan tasodifiy nostasionar jarayondir. Bu jarayonning ko'rsatkichlari o'lhash vositasining faqat turiga emas, balki ishlatalish sharoitlariga, ishlatalish intensivligiga ham bog'liq. Qiyoslash oralig'ining qiymati ruxsat etiladigan: ishlatmay qolish ehtimolligiga (metrologik yaroqlilik koeffitsiyentiga) ham bog'liq. Bu to'rtta asosiy omil qiyoslashlar o'rtaqidagi hisoblashda asos qilib olinishi mumkin.

Ba'zi o'lhash vositalari uchun bu omillar bir xil. Masaian, barcha ishchi etalonlar laboratoriya sharoitlarida, harorat va namlik doimiy bo'lganida, silkinishlar, vibrasiyalar, tajovuzkor muhit bo'lganida ishlataladi. Bu o'lhash vositalarini ishlatalish intensivligi taxminan bir xil va faqat o'lhash vositalarining turiga bog'liq. Ishlamay qolishning ruxsat etiladigan ehtimolligi ishonchlilik ehtimolligining vazifasi bo'lib, qiyoslash sxemasi bilan aniqlanadi. Shu sababli ishchi etalonlar uchun qiyoslashlar o'rtaqidagi oraliqlar, bu vositalar davlat metrologiya idoralarida yoki mahkamaviy idoralar metrologiya xizmatlaridan foydalanishidan qat'i nazar, mamlakat doirasida bir xil qilib belgilanishi mumkin. Masalan, elektr kattaliklarining ishchi etalonlari uchun ushbu qiyoslash davriyligi belgilangan:

- o'lhash transformatorlari – 5 yilda 1 marta;
- sig'im, o'zgaruvchan tok induktivligi va sig'imi o'lchovlari – 2 yilda 1 marta;
- elektr kattaliklarining boshqa ishchi etalonlari – bir yilda 1 marta.

### 6.3. O'lhash vositalarini kalibrlash

Davlat metrologiya nazorati va tekshiruvi majburiy bo'lмаган faoliyat sohasida o'lhash vositasining metrologik sozligini ta'minlash uchun *kalibrash* qo'llaniladi.


**Kalibrash** (*kalibrash ishlari*) – davlat metrologik nazorati va tekshiruvidan o'tishi lozim bo'lмаган o'lhash vositasining metrologik tavsiflarining haqiqiy qiyatlarni aniqlash hamda tasdiqlash va yoki ishga yaroqliligin tasdiqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmuasi.

**O'lchash vositalarini kalibrlash** – o'lchash vositalarining haqiqiy metrologik tavsiflarini aniqlashda ushbu o'lchash vositasi ko'rsatgan miqdorni etalon orqali olingan mos keluvchi miqdor bilan o'zaro nisbatini aniqlashdagi operatsiyalar majmui. Agar o'lchash vositalari majburiy metrologik nazorat va tekshiruvdan o'tmasa, unda ular kalibrashdan o'tadi.

Kalibrash natijalari bo'yicha o'lchash vositasining haqiqiy qiymati aniqlanadi yoki uni ko'rsatishiga tuzatmalar kiritiladi.

Kalibrash o'lchash vositasining xatoligini va qator metrologik tavsiflarini baholash imkonini beradi. Birliklar kattaligini birlamchi etalonlardan ishchi etalonlarga uzatish metrologik zanjiri 6.1-rasmda ko'rsatilgan, birlik kattaligini uzatish o'lchash orqali amalga oshiriladi.

**Kalibrash tizimi** – Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati qo'llanilmaydigan sohada o'lchashlar birlilagini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyat va kalibrash ishlarini bajaruvchi va kalibrash ishlarini tashkillash-tirish va o'tkazishga o'matilgan talablar asosida harakat qiluvchi subyektlar majmui.



6.1-rasm. Birlik kattaligini birlamchi etalonlardan ishchi etalonlarga uzatishning metrologik zanjiri.

**Kalibrash to'g'risidagi sertifikat** – o'lchash vositalarining kalibranganligini va uning natijalarini tasdiqiovchi hujjat. Bu hujjat kalibrashni bajargan tashkilot tomonidan beriladi.

**Kalibrash belgisi** – kalibrash natijalarining ijobiy ekanligini tasdiqlash maqsadida o'lchash vositasiga va/yoki ularning ekspluatasion hujjatlariga bosiladigan tamg'a.

O'zbekiston Kalibrar tizimi (O'zKT) O'zbekiston Respublikasida o'lchashlar birlilagini ta'minlash umumiy tuzilmasining tarkibiy qismi bo'lib, davlat metrologik tekshiruvi va nazoratidan tashqari sohada metrologik ishlarni tashkillashtirish va o'tkazishda o'lchashlar birlilagini

ta'minlash davlat tizimida o'rnatilgan me'yorlar va qoidalarga rioya qilinishini ko'zda tutadi.

O'zKT quyidagi tamoyillarga asoslangan holda tuziladi:

- tizimiga ixtiyoriy ravishda kirish;

- kalibrash ishlarini bajarishda talablarni majburiy bajarish;

- davlat etalonlardan va boshlang'ich o'lchash vositalardan birliklarning o'lchamiarini kalibrلانuvchi o'lchash vositalariga majburiy berish.

Kalibrash tizimidagi faoliyatning asosiy vazifalari:

- akkreditlovchi idoraлarni ro'yxatga olish;

- metrologik xizmatlarni kalibrash ishlarini bajarish huquqiga akkreditlash;

- o'lchash vositalarini kalibrash;

- O'zKTning asosiy tamoyillarini va qoidalarini o'rnatish;

- O'zKTning faoliyatini tashkiliy, uslubiy va axborot bilan ta'minlash;

- akkreditlangan metrologik xizmatlar tomonidan kalibrash ishlarini bajarishda talablarga rioya qilinayotganligini inspeksion tekshirish.

Metrologiya bo'yicha Milliy idora ("O'zstandart" agentligi), Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (SMSITI), Hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari (SSM), yuridik shaxslarning akkreditlangan metrologik xizmatlari o'z vazifalarini ushbu hujjatning talablariga muvofiq bajaruvchi O'zKTning tashkiliy asosi quyidagilardan iborat:

- O'zKTning Markaziy idorasi;

- O'zKTning Kengashi;

- O'zKTning akkreditlash idoralari;

- kalibrash ishlarini bajarishga akkreditlangan yuridik shaxslarning metrologik xizmatlari.

Kalibrash ishlarini o'tkazish uchun kalibrash tizimi yaratilgan bo'lib, ular davlat metrologiya nazorati va tekshiruvidan o'tishi lozim bo'lmagan sohalarda o'lchashlar birligini ta'mirlashga yo'naltirilgan subyektlar faoliyati va kalibrash ishlari majmuasidir. Kalibrash tizimi kalibrash ishlarini tashkil etish va o'tkazishga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Kalibrash tizimi faoliyati O'zDSt 8.018:1997 bilan tartibga solinadi.

O'lchash vositalarining kalibrash tizimining asosiy yo'nalishlari:

- yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining kalibrash ishlarini o'tkazish huquqini akkreditlashni amalga oshiruvchi idoraлarni qayd qilish;

- yuridik shaxslar metrologik xizmatlarining kalibrash ishlarini o'tkazish bo'yicha huquqini akkreditlash;

- o'lchash vositalarini kalibrash;

– O'zbekiston Respublikasi kalibrlash tizimining asosiy prinsiplari va qoidalari belgilash, tashkiliy uslubiy va axborot faoliyatini ta'minlash;

– akkreditlangan metrologik xizmatlarning kalibrlash ishlarini o'tkazish tartiblariga rivoja qilishlari ustidan inspeksiya nazoratini o'rnatish.

Kalibrlash ishlarini o'tkazishga doir talablar O'zRH 51-071-98 rahbariy hujjatida keltirilgan.

Kalibrlash ishlarini bajaradigan tashkilot quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

– qiyoslangan va identifikatsiyalangan kalibrlash vositalari – kalibrlashda belgilangan qoidalarga muvofiq ravishda qo'llaniladigan etalonlar, qurilmalar va boshqa o'lchash vositalari;

– kalibrlash ishlarining tashkil etilishini va o'tkazilishini tartibga soluvchi hujjatlar. Bular jumlasiga akkreditlash sohasiga oid hujjat, o'lchashlar va kalibrlash vositalariga oid hujjatlar, kalibrlash, kalibrlash tartibi va uning ma'lumotlaridan foydalanishga doir davlat me'yoriy hujjatlar kiradi;

- kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan va malakali xodimlar;
- me'yoriy talablarni qanoatlantiradigan binolar.

Kalibrlash natijalari o'lchash vositasiga yoziladigan kalibrlash nishoni bilan yoki kalibrlash haqidagi guvohnoma bilan, shuningdek, ishlatish hujjatlariga yozish bilan tasdiqlanadi.

#### **6.4. Qiyoslash\kalibrlash tartibi va qiyoslash sxemalari**

Turli guruhiar va turlarga oid o'lchash vositalarini qiyoslashni o'tkazish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq qiyoslashni o'tkazishning uslubiy asoslari barcha o'lchash vositalari uchun, asosan, umumiyligida.

O'lchash vositalarini qiyoslashni o'tkazishda qiyoslovchi ishchi va namuna o'lchash vositalarini qiyoslashga oid davlat, tarmoq standartlari, korxonalar standartlari va boshqa ilmiy-texnikaviy hujjatlar (ITH)ga amal qiladi.

Qiyoslash jarayoni ayrim bosqichlardan iborat bo'ladi. "Qiyoslash operatsiyasi" bosqichida qiyoslovchi operatsiyalarni o'tkazish ketma-ketligi tekshiriladi. Bunda shuni hisobga olish zarur: ayrim operatsiyalarni o'tkazishda salbiy natijalar olingan holda qiyoslash to'xtatilishi lozim. Qiyoslash bo'yicha operatsiyalarni tayyorlashda qiyoslash uchun quyidagilarni nazarda tutishi lozim: qiyoslanayotgan o'lchash vositalarining ayrim metrologik ko'satkichlarini aniqlaydigan operatsiyalarning nomlarida "qiyoslash" atamasini o'rniiga "aniqlash" so'zini qo'llash, ko'satkichlarni aniqlashga oid bo'limgan hollarda esa

"tekshirish" so'zini qo'llash lozim (o'lhash vositalari elementlarining o'zaro ta'siri va h.). Qiyoslashga tayyorlanish jarayonida qiyoslovchi namuna va yordamchi qiyoslash vositalarining ro'yxatini tekshiradi. Yordamchi qiyoslash vositalari jumlasiga yordamchi o'lhash vositalari, yordamchi qurilmalar va qiyoslash moslamalari kiradi.

Namuna va yordamchi o'lhash vositalari uchun ro'yxatda ularning me'yoriy-texnik tavsiflari, ya'ni mazkur o'lhash vositalariga oid standartlar tartib raqamlari, tiplarining standartlarda belgilangan yoki Daviat reyestrida qabul qilingan belgilari, namuna o'lhash vositalari uchun esa umumdaylat qiyoslash sxemalarida qabul qilingan razradlari ko'rsatilgan.

Yordamchi qurilmalar va qiyoslash moslamalari uchun ro'yxatda ularning texnik tavsiflari, ularga oid ITHda qabul qilingan belgilashlari yoki standartlar tartib raqamlari ko'rsatiladi. Qiyoslanayotgan o'lhash vositalarining metrologik tavsiflarini talab qilinayotgan aniqlik bilan topish uchun ro'yxatga bitta operatsiyaning o'zi uchun bir-birini takrorlaydigan qiyoslash vositalari kiritilishi mumkin.

Qiyoslash shartlari bilan tanishishda mas'ul shaxs qiyoslanayotgan o'lhash vositalarining metrologik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi fizik kattaliklarni, ularning nominal qiymatlarini va og'ishlarni qiyoslashda ruxsat etiladigan chegaralarini ko'rsatib, tekshiradi. Ta'sir etuvchi kattaliklarga harorat, narmlik, atrofdagi havo bosimi, qiyoslash o'tayotgan muhitning bosimi, harorati va fizikaviy-kimyoiy xossalari: ta'minot tokining chastotasi va kuchlanishi; titrash va silkinish; magnit va elektr maydonlari; garmonikalarning borligi kiradi.

**"Qiyoslashga tayyorgarlik"** bosqichida qiyoslovchi tayyorgarlik ishlari ro'yxati va ularni bajarish usullari bilan tanishadi. Bunday ishlar jumlasiga qiyoslanadigan o'lhash vositalarini o'rnatish va tayyorlash; qiyoslanayotgan o'lhash vositalarini ta'sir etuvchi kattaliklar ta'siri ostida ochiq ushlab turish, o'lchevlarni yuvish; moylash qobig'ini tozalash; asboblarni tok ostida qizdirish; ekranlash, germetiklikni, ulanish kontaktlarini, yoritiiganlikni tekshirish; tutashtirib ularash qurilmalarini ularash; erga ularash; xavfsizlik texnikasi bo'yicha tadbirlar o'tkazish va boshqalar kiradi. Tashqi ko'rikdan o'tkazishda o'lhash vositalarining butligi, sanoq qurilmalari bo'limiarining qiymati tekshirilib, o'lhash vositalarining qoplamlari va elementlaridagi nuqsonlar aniqlanadi, ular mavjud bo'lgan taqdirda bu vositalarni qo'llashga ruxsat etish mumkin emas.

Qiyoslovchi har bir operatsiya uchun metrologik ko'rsatkichlarga oid standartlarda belgilangan ruxsat etiladigan og'ishlar chegaralarini bilishi zarur. Ishlatilganidan keyin qiyoslashga keladigan o'lhash vositalari uchun nazorat idoralari ruxsati bilan metrologik ko'rsatkichlarning ishlab

chiqarishdan kelgan o'lhash vositalariga oid ITHda ko'zda tutilganidan farqi og'ish me'yorlari belgilashga ruxsat etiladi. Qiyoslash o'tkazish chog'ida qiyoslovchi bu xususiyatga, chunonchi o'lhash vositasi qiyoslashga ishlatisidan yoki ishlab chiqarishdan kelgan yoki kelmaganligiga va tegishli ITHga biror-bir o'zgartirish kiritilgan yoki kiritilmaganligiga alohida e'tibor berishi kerak.

**"O'lhash natijalarini ishlab chiqish"** bosqichi, odatda, qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki butun operatsiya mos ITH bilan qat'iy reglamentlangan.

**"Qiyoslash natijalarini rasmiylashtirish"** bosqichida qiyoslovchi o'lhash vositalarini ishchi yoki namuna vositalar sifatida qo'llanilishini hisobga olib, belgilangan talablarni yaxshi bilishi kerak.

Ijobiy qiyoslash natijalarini qiyoslovchi quyidagi yo'l bilan ta'minlaydi:

- o'lhash vositalarini ularning konstruktiv xususiyatlari, tamg'a qo'yish usullari va joyiga bog'liq ravishda tamg'alah;

- "O'zstandart" agentligi belgilangan shaklda davlat qiyoslashi haqida guvohnoma berishi;

- idoraviy qiyoslash haqida guvohnoma berish;

- asbobsızlik yoki asbob ta'mirlash korxonasining attestat\pasportida davlat qiyoslash natijalarini yozish va qiyoslash tamg'asini bosish bilan tasdiqlash;

- davlat qiyoslash natijalarini ishlatish pasportida uning o'rmini bosadigan hujjatda yozish va qiyoslash tamg'asi bilan tasdiqlash;

- namuna o'lhash vositasini qiyoslash haqida guvohnomaning old temonida yoki ishlab chiqarish attestatida "namunaviy" muhrini yoki yozuvini qo'yish.

Qiyoslash jarayonida, odatda, dalolatnomalar yuritiladi va unda quyidagilar aks etiriladi:

- qiyoslanayotgan o'lhash vositasining nominal tafsiflari va ko'rsatichlari va formal belgilari, jumladan, o'lhash vositasining nomi, ish-lab chiqargan zavod, zavod belgisi, tartib raqami, o'lhash diapazonlari va h.;

- qiyoslash sharoitlari, shu jumladan, bino va muhit harorati (zarur hollarda havo bosimi va uning nisbiy namligi), shuningdek, boshqa o'ziga xos sharoitlar;

- qiyoslashda qo'llanilayotgan namuna o'lchovlar va asboblar (ularning tartib raqamlari ko'rsatiladi), shuningdek, qurilmalar va yordamchi apparatura nomlari;

- o'lhash jarayonida amalga oshirilgan har bir operatsiyaning natijalari.

Keyin bu natijalar tahlil qilinadi va matematik ishlov beriladi, masalan xatoliklar, ko'rsatishlar variasiyasi, o'rtacha qiymatlar, tuzatmalar, tuzatish ko'paytmalari hisoblanadi va h.

Qiyoslash natijalari salbiy bo'lganida va zarur bo'lganda tahlil qilishdan so'ng qiyoslovchi o'lhash vositasining yaroqli yoki yaroqsizligi haqida xulosa chiqaradi; tamg'alarini o'chirish bo'yicha operatsiyalarni bajaradi; hujjatlarda qiyoslangan o'lhash vositalarining yaroqsizligi haqida qiyoslash natijalarini va ularni ishlab chiqarish, qo'llashni taqiqlash haqidagi natijalarni rasmiylashtirish bo'yicha tegishli yozuvlarni kiritadi.

Qiyoslash dalolatnomasi yuridik ahamiyatga ega hujjat, shu sababli uni yuritishga tegishli e'tibor qaratilishi zarur. Masalan, ularni ayrim qog'oz varaqlariga yozib, keyin ko'chirib yozish yoki shubhali tuyuladigan natijalarni tashlab yuborish mumkin emas. Bunda dalolatnomada birlamchi hujjat sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi (ko'chirib yozishda xatoliklar yuzaga kelishi mumkin).

Qiyoslash tugatilanidan so'ng uning natijalari o'lhash vositalarining pasportlariga, attestatlariga, guvohnomalariga va boshqa hujjatlarga kiritiladi (dalolatnomalarga, kuzatish natijalariga ishlov berish bo'yicha hisob-kitoblarga kiritiladi, ularga jadvallar, grafiklar va boshqa hisoblash ma'lumotlari ilova qilinishi mumkin).

**Qiyoslash sxemalari.** O'lhash vositalarini qiyoslashni amalga oshirish uchun fizik kattalik birligi o'lchamini davlat etalonidan, dastlabki namunaviy o'lhash vositasidan ishchi o'lhash vositalariga uzatish tartibini yoki tizimini o'rnatish zarur. Bunday tizimni birlik o'lchovini etalonidan yoki dastlabki o'lhash vositasidan ishchi o'lhash vositasiga uzatish vositalari, usullari va aniqligini reglamentlovchi, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan hujjatni ifoda etadigan qiyoslash sxemalari belgilaydi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida davlatlararo qiyoslash sxemalari (sobiq umumittifoq) va mahalliy (Davlat metrologik xizmati yoki Mahalliy metrologik xizmatining alohida idoralari) qiyoslash sxemalari farqlanadi. Birinchi mahalliy qiyoslash sxemalarini tuzish namunaviy va ishchi o'lhash vositalarini qiyoslash usullari va vositalariga standartlar va usullarni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlatlararo qiyoslash sxemalari davlat standartlari sifatida tasdiqlanadi. Davlatlararo qiyoslash sxemasi elementlari bo'lib barcha etalonlar, namunaviy o'lhash vositalari, ishchi o'lhash vositalari va, shuningdek, birlik o'lchamini uzatish usullari hisoblanadi.

Mahalliy qiyoslash sxemalari fizik kattaliklar birligi o'lchamini uzatishning ikkidan ortiq bosqichi bo'lganda tuziladi va davlatlararo qiyoslash sxemalariga zid kelmasligi lozim.

Mahalliy qiyoslash sxemalariga fizik kattalikning foydalanishda bo'lgan yoki muomalaga chiqarilayotgan barcha ishchi o'lhash vositalari kiritiladi.

Mahalliy qiyoslash sxemasini elementlari bo'lib namunaviy o'lhash vositalari, ishchi o'lhash vositalari, shuningdek, qiyoslash usullari nomlari hisoblanadi; qiyoslash sxemasiga nusxa – etalonlar va ishchi etalonlar nomlarini kiritishga yo'l qo'yiladi.

Qiyoslash sxemasida, odatda, faqat bitta fizik kattalik birligi o'lchamini uzatish ko'rsatilishi lozim.

Mahalliy qiyoslash sxemasini davlat metrologik xizmati (DMX) idorasi bilan kelishilgandan so'ng korxona me'yoriy hujjati sifatida ishlab chiqiladi. Mahalliy qiyoslash sxemalarini, shuningdek, metrologik institutlar yoki DMX yuqori idoralari bilan kelishadigan DMX hududiy idoralari tuzadilar.

Fizik kattaliklarni o'lhash vositalari uchun davlatlararo qiyoslash sxemalarini ushbu kattalik birligining davlat etalonini saqlovchi bo'lib hisoblanuvchi davlat etalonlari bosh markazi ishlab chiqadi.

Etalondan ishchi o'lhash vositalariga o'lhash birliklari o'lchamini to'g'ri uzatishni ta'minlash uchun davlat etalonni, razradli etalonlar va ishchi o'lhash vositalarining metrologik tengligini o'matuvchi qiyoslash sxemalari tashkil etiladi.

Markazlashgan holda qayta tiklashda birliklar o'lchami to'g'risidagi axborotlarni uzatish sxemalari qiyoslash deb ataladi.

*Qiyoslash sxemasi – bu hujjailarda o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan davlat etalonidan yoki boshlang'ich namunaviy o'lhash vositasidan ishchi o'lhash vositalari fizikaviy kattaliklar birligining o'lchamini uzatish usuli va aniqligini belgilovchi vosita.*

Qiyoslash sxemasi davlat va mahalliy qiyoslash sxemalari bo'lishi mumkin.

*Davlat qiyoslash sxemasi* mamlakat niqyosida birliklar o'lchami to'g'risida ma'lumotlarni uzatishni o'rnatadi. Unga davlat yoki maxsus etalonlar boshchilik qiladi.

Mahalliy qiyoslash sxemalari davlat va yuridik shaxslarning metrologik xizmatlari uchun mo'ljallagan bo'ladi. Barcha qiyoslash sxemalari davlat qiyoslash sxemasida ani'ingan metrologik tengligi talablariga muvofiq bo'lishi lozim. Davlat qiyoslash sxemalari "O'zstandart" agentligining "Milliy etalonlar markazi" davlat muassasasi va Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (SMSITI) tomonidan ishlab chiqiladi. Mahalliy qiyoslash sxemalari ushbu

mahkamaning o'ziga xos xusisyatlariga davlat qiyoslash sxemalarini qo'llash talablarini aniqlashtiradi. Unga ishchi etalonlar boshchilik qiladi.

Davlat qiyoslash sxemalarini "O'zstandart" agentligi, mahalliy qiyoslash sxemalarini esa mahkamaviy metrologik xizmatlar yoki korxona rahbariyati tasdiqlaydi.


6.2-rasmda davlat etalonlaridan ishchi o'lhash vositalariga birliklar o'lchamini uzatish to'g'risidagi axborotlarni uzatish sxemalarining variantlaridan biri keltirilgan. Unda ko'rinish turibdiki, ikkilamchi etalonlardan quyi turuvchi (1-, 2-, 3- va 4- razradli) etalonlarga va ishchi o'lhash vositalariga birliklar o'lchami to'g'risidagi axborotlarni uzatish tartibi keltirilgan.

Boshqa o'lhash vositalariga birliklar o'lchami to'g'risidagi axborotni uzatish uchun ishchi o'lhash vositalaridan foydalanish ruxsat etilmaydi.

Davlat qiyoslash sxemasining umumiy ko'rinishi tarkibini ko'rib chiqamiz (6.2-rasm). Etalonlarning nomi va ishchi o'lhash vositalari oddiy to'rtburchakda (davlat etaloni ikki chiziqli to'rtburchakda) joylashtirilgan. Bu yerda ushbu sxema pog'onasi uchun metrologik tafsiflarni ko'rsatadi.

Sxemaning quyi qismida ishchi o'lhash vositalari aniqlik sinfi darajasiga (ya'ni o'lhash xatoligi) bog'liq ravishda beshga bo'lingan: eng aniqlik, o'ta aniqlik, yuqori aniqlik, o'ttacha aniqlik va eng past aniqlikdagi ishchi o'lhash vositalari joy olgan. Eng yuqori aniqlik, odatda, davlat etaloni o'lhash vositasi xatoligi darajasi bo'yicha solishtiriladi. Qiyoslash sxemasining har bir pog'onasi birliklar o'lchamini uzatish tartibi bilan reglamentlanadi. Qiyoslash uslubiyatlarining nomlari ovallardan o'rin oladi, ya'ni qiyoslash uslubiyatlarining ruxsat etilgan xatoligi ko'rsatiladi.

O'lhash vositalarini texnik sertifikatlashtirish layoqatlik (omilkorlik) va mustaqillikka akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriylari\markazlarining sinov natijalarini hisobga olib va akkreditlangan o'lhash vositalarini sertifikatlashtirish idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Sinovlarni o'tkazish faqat texnik layoqatligiga akkreditlangan laboratoriya\markazlarda, sertifikatlashtirish idorasi bilan litsenziya kelishuvi mavjud bo'lganda ruxsat etiladi. Bunday holatlarda natijalarning xolisonaligi va ishonchliligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Sertifikatlashtirish idoralarini akkreditlashtirish milliy akkreditlashtirish tizimidagi akkreditlashtirish idorasi tomonidan amalga oshiriladi.



6.2-rasm Davlat qiyoslash tizimining umumiy ko'rinishi.

Davlat tekshiruvi va nazorati qo'llaniladigan sohalarda foydalananiladigan, ishlab chiqariladigan va import bo'yicha keltiriladigan

o'lchash vositalari (O'V) davlat sinovlaridan o'tkazilib, ularning turini tasdiqlanishi yoki metrologik attestatlanishi lozim.

Davlat sinovlarini o'tkazish, turini tasdiqlash va O'Vni Davlat ro'yxatiga kiritish ishlarini "O'zstandart" agentligi bajaradi.

Tayyorlovchi tasdiqlangan O'Vga yoki ularning ekspluatatsion hujjatlariga Davlat ro'yxatining belgisini yozishi shart.

Boshqa davlatlarning o'lchash vositalarini sinash va metrologik attestatlash natijalari tuzilgan shartnomalar va bitimlarga muvofiq tan olinadi.

O'Vning turini tasdiqlash maqsadida sinovlarni tashkillashtirish, o'tkazish tartibi va mazmuniga talablar va davlat metrologik tekshiruvi va nazorati sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan O'Vning turini tasdiqlash tartibi O'zDSt 8.009:2004 davlat standartida o'rnatilgan.

O'zDSt 8.009:2004 standartning talablari O'zbekiston Respublikasida yaratiladigan va yoki seriyali ishlab chiqarilishi mo'ljallangan O'Vga va O'zbekiston hududiga import bo'yicha to'pi bilan keltiriladigan o'lchash vositalariga nisbatan qo'llaniladi.

## **6.5. O'lchash vositalarini sertifikatlashtirish va turini tasdiqlash**

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati qo'llaniladigan sohadan tashqarida qo'llaniladigan yoki qo'llanishga mo'ljallangan O'V ixtiyeriy ravishda sinovga va keyinchalik turini tasdiqlashga taqdim etilishi mumkin.

O'V uning qonun talablariga muvofiqligini tasdiqlash sxemasining elementi bo'lib hisoblanadi va bunday tasdiqlash "O'zstandart" agentligi tomonidan o'rnatilgan tartibda o'tkaziladi.

To'pi bilan import bo'yicha keltiriladigan, gigiyenik talablarga, xavfsizlik talablariga, maxsus talablarga sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan o'lchash vositalari ushbu jarayonlardan o'rnatilgan tartibda o'tgandan keyin va zarur sertifikatlarni "O'zstandart" agentligiga taqdim etgandan so'ng xilni tasdiqlash maqsadida sinovlarga topshiriladi.

O'zbekiston hududida yaratiladigan va yoki to'pi bilan chiqarishga mo'ljallangan va gigiyenik talablarga, xavfsizlik talablariga, maxsus talablarga muvofiqligi sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan o'lchash vositalari bu talablarga muvofiqligini o'rnatilgan tartibda baholash maqsadida sinovlarga taqdim etiladi.

O'Vning turini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni metrologiya bo'yicha milliy idora – "O'zstandart" agentligi qabul qiladi.

O'Vning turi O'Vning namunalarini nusxalarini sinash natijalari bo'yicha tasdiqlanadi. Sinash jarayonida O'V namunalarining tafsilotlari

har tomonlama tadqiq qilinadi va bu tafsilot\tafsisflarning mazkur O'Vning turiga oid me'yoriy hujjalarning talablariga muvofiqligi aniqlanadi.

O'Vning turini tasdiqlash maqsadida sinovlar qabul komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Komissiya tarkibini "O'zstandart" agentligining bunga qarashli tuzilmalari va O'zbekiston Respublikasi metrologik xizmati Bosh markazi (O'zMXBM) vakillari kiritilishi lozim. O'zMXBMning vazifasi SMSITiga yuklatilgan.

O'Vning turini tasdiqlash maqsadida O'Vning namuna\nusxalarini sinash O'zDSt ISO/IEC 17025:2007 va O'zDSt 8.006:1999 bo'yicha akkreditiangan sinov laboratoriyalarda o'tkaziladi.

O'Vning turini tasdiqlash maqsadida sinovlarni bunday sinovlarni o'tkazishi uchun "O'zstandart" agentligi tayinlagan tashkilotning rahbari tasdiqlagan sinovlar dasturi va usuliga muvofiq o'tkaziladi.

O'Vning turini tasdiqlash maqsadida sinovlarni O'Vni sinash namunaviy dasturlari bo'yicha o'tkazish ham ruxsat etiladi.

O'Vning turini "O'zstandart" agentligi ilmiy-tehnikaviy komissiyasi ning takliflariga asosan tasdiqlaydi.

O'Vning turi tasdiqlangandan keyin turini tasdiqlash maqsadida sinovlarni o'tkazgan tashkilotning rahbari O'V tekshirish usulini (ilgari tasdiqlangan usul yo'q bo'lgan hollarda) va O'V turining tavsifini tasdiqlaydi. "O'zstandart" agentligi O'zbekistonda seriyali ishlab chiqarishga mo'ljallangan O'V uchun texnik shartlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

"O'zstandart" agentligi tasdiqlangan O'V turini O'zRH 51-019:2005 rahbariy hujjat talablari bo'yicha Davlat ro'yxatiga kiritadi. Tasdiqlangan hujjatlar majmui O'V davlat reyestri ro'yxatida saqlash uchun topshiriladi.

O'lchash vositasini tayyorlovchi tashkilot turi tasdiqlangan O'Vga, O'zbekistonda seriyali chiqariladigan O'Vga va ularning ekspluatatsiya hujjatlari (ГОСТ 2.601 bo'yicha)ga O'V Davlat reyestrining belgisini O'zDSt 1.19:1999 standarti talablari bo'yicha yozib qo'yadi.

Turi tasdiqlangan O'Vga "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlangan tartibda, turini tasdiqlash to'g'risidagi sertifikat beriladi.

## Nazorat savollari

1. O'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi deganda nima tushuniladi?
2. O'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimiga nimalar kiradi?
3. O'lchash vositalarini qiyoslash deganda nima tushuniladi?
4. O'lchash vositalarini qiyoslash qanday amalga oshiriladi?
5. Kalibrlash deb nimiaga aytildi?
6. O'lchash vositalarini qiyoslash deganda nimani tushunasiz?

7. Namunaviy, ishchi o'lhash vositalari qanday maqsadiarda ishlataladi?
8. Birlik o'lchamlarini uzatishning qanday usullari mavjud?
9. Qiyoslash sxemasi nima? Uning tuzilmaviy elementlari nimalardan iborat bo'ladi?
10. Qiyoslash sxemasi qanday turlarga bo'linadi?

## VII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA METROLOGIYA XIZMATI VA METROLOGIK TA'MINOT

### 7.1. O'zbekiston Respublikasida davlat metrologiya xizmati

**Metrologik xizmat** – Davlat idoralari va yuridik shaxslar metrologik xizmatlarining tarmoqlari va ularning o'lchashlar birliligini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyati.

O'lchashlar birliligini ta'minlash tizimining tashkiliy asosi davlat metrologik xizmati va yuridik shaxslarning metrologik xizmatlaridan tashkil topgan O'zbekiston Respublikasining metrologik xizmati bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati** quyidagilardan tuzilgan:

- Metrologik xizmatlar ko'rsatish respublika markazi va hududiy bo'linmalar tarkibidan iborat Davlat metrologiya xizmati;
- vazirliklar va idoralarning bazaviy metrologik xizmati ;
- yuridik va jismoniy shaxslar metrologik xizmati.

O'zbekiston Respublikasining "Milliy etalonlar markazi" (MEM) davlat muassasasida to'plangan Davlat etalonlari bazasi o'lchovlar yagonaligi davlat tizimining texnik asosini tashkil etadi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (SMSITI) bosh ilmiy-amaliy markazdir. O'zbekiston Respublikasida o'lchovlar yagonaligi sohasidagi ishlarni muvosiflashtirish va umumiy texnikaviy rahbarlikni Metrologiya bo'yicha boshqarma amalga oshiradi.

**"O'zstandart" agentligi amaldagi qonunchilikka binoan quyidagilarni amalga oshiradi:**

- O'lchovlar yagonaligini ta'minlash sohasida texnikaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;
- Davlat metrologiya xizmatini boshqarish;
- moddalar va materiallar tarkibi va xususiyatlarining standart namunalarini xizmatiga rahbarlik qilish;
- O'zbekiston Respublikasi o'lchov vositalari davlat reestrini yuritish;
- Davlat boshqaruvi boshqa idoralari metrologik xizmatlari bilan xorijiy metrologik xizmatlarning faoliyatini muvosiflashtirish va ilmiy-uslubiy jihatdan birgalikda harakatlanishlarini amalga oshirish;
- Davlat metrologik tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi.

**"O'zstandart" agentligi boshqaradigan davlat metrologiya xizmatiga Qoraqalpog'iston Respublikasidagi, viloyatlardagi va Toshkent shahridagi davlat metrologiya xizmati idoralari kiradi.**

Davlat metrologik xizmat idoralari davlat metrologik tekshiruvi va nazoratini, shuningdek, qonun hujjaligiga muvofiq faoliyatning boshqa turlarini ham bajaradi.

Davlat metrologik xizmatiga "O'zstandart" agentligi rahbarlik qiladi.

"O'zstandart" agentligi nomidan milliy idora vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- metrologiya sohasida, metrologik faoliyatni hududlararo va tarmoqlararo muvofiqlashtirishda yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va asrash qoidalarini o'rnatish va ularning xalqaro darajada taqqoslanishini ta'minlash;
- o'lchashlar vositalariga, usullariga va natijalariga umumiy metrologik talablarni belgilash;
- davlat metrologik tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish;
- metrologik masalalar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining barcha hududiarda majburiy kuchga ega bo'lgan hujjatlarni boshqa davlat boshqaruv idoralari bilan birgalikda qabul qilish;
- metrologiya sohasida ilmiy va muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash;
- O'zbekiston Respublikasining metrologiya sohasida xalqaro shartnomalariga rioya qilinishini tekshirish;
- xalqaro tashkilotlarning metrologiya masalalari bo'yicha faoliyatida qatnashish;
- O'zO'BTTning ishini va rivojlanishini, xalqaro o'lchashlar tizimi va boshqa mamlakatlarning o'lchashlar tizimlari bilan uvg'unlashtirishni ta'minlash;
- iste'molchilarining huquqlarini, insonlarning sog'ligi va xavfsizligini, atrof-muhitni va davlat manfaatlarni o'lchashlar ishonchhsiz natijalarining salbiy ta'sirlaridan himoya qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

"O'zstandart" agentligi to'g'risida Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 05.08dag'i №373-sonli Qarori bilan tasdiqlangan.

Davlat metrologik xizmatiga quyidagilar ham kiradi:

- Milliy etalonlar markazi;
- Metrologik xizmat Bosh markazi;
- Standart namunalar Bosh markazi;
- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (SMS ITI) Malaka oshirish markazi (MOM) bilan birge;
- sinov va sertifikatlashtirish hududiy markazlarining (SSM)ning metrologik laboratoriyalari;

- standartlashtirish va metrologiya hududiy boshqarmalari (SMB);

- Axborot-ma'lumotnomma markazi.

“Milliy etalonlar markazi” davlat muassasasi O‘zbekiston Respublikasi etalon zaxirasini rivojlantirish va takomillashtirish, kattaliklar birliklarning davlat etalonlarini yaratish, saqlash va qo‘llanish bo‘yicha ishlarni olib boradi.

Metrologik xizmat Bosh markazining vazifalari SMSITIga yuklatilgan bo‘lib, o‘lchashlar birliligini ta’minlash ilmiy-uslubiy, texnik-iqtisodiy, tushkiliy, me’yoriy asoslarini yaratadi, metrologiya sohasida kadrlar tayyorlash va malaka oshirish ishlarni bajaradi.

Standart namunalar Bosh markazi, buning vazifalari ham SMSITIga yuklatilgan, moddalar va materiallar tarkibi va xossalaring standart namunalarini davlat xizmatiga ilmiy-uslubiy rahbarlik qiladi, yuridik shaxslarning standart namunalarini chiqarish va qo‘llanish tartibi bo‘yicha faoliyatlarini muvofiqlashtiradi, manlikatimizda chiqariladigan davlat standart namunalarini ekspertiza qilish va attestatlashni amalga oshiradi.

Metrologik xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha markaz, hududiy SSMning metrologik iaboratoriyalari, hududiy SMB o‘lchashlar birliligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi, davlat metrologik tekshiruv va nazorati qo‘llaniladigan sohada metrologik tekshiruv va nazoratni O‘zDSt 8.002:2002 “O‘zO‘DT. Metrologik tekshiruv va nazorat. Asosiy nizomlar” bo‘yicha o‘tkazadi.

Axborot-ma'lumotnomma markazi me’yoriy hujjatlar jam‘ armasini saqlaydi va O‘zO‘BTT qatnashchilarini axborotlar bilan ta’minlaydi.

**Yuridik shaxslarning metrologik xizmati** – o‘lchashlar birliligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni bajaruvchi va ushbu korxona tashkilotda metrologik tekshiruv va nazoratni amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

Yuridik shaxslarning metrologik xizmati o‘lchashlar birliligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni bajarish va metrologik tekshiruvni o‘tkazish zarur bo‘lgan hollarda tashkil etiladi.

Bunda bosh, tayanch metrologik xizmatlar tadbirkorlik subyektlarida o‘z faoliyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda, davlat va xo‘jalik boshqaruv idoralari tomonidan tashkil etiladi.

Yuridik shaxslarning metrologik xizmatlarining huquqlari va majburiyatları davlat metrologik xizmati idoralari bilan kelishilgan nizomlarda belgilanadi.

Yuridik shaxslarning metrologik xizmati Namunaviy nizomi O‘zRH 51-011-93 “O‘zO‘DT. O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxsning metrologik xizinati to‘g‘risida namunaviy nizom” da keltirilgan.

**Metrologik tekshirish** – o‘lchash jarayonida qatnashuvchi elementlar tafsilotlarining me’yoriy hujjatlarning talablariga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash bo‘yicha vaklatli idoralar va shaxslarning faoliyatini.

Metrologik tekshirish quyidagilardan iborat:

- o‘lchash vositalarining turlarini sinash va tasdiqlash;
- o‘lchash vositalarini metrologik attestatlash;
- sinov vositalarini attestatlash;
- o‘lchash vositalarini qiyoslash;
- o‘lchash vositalarini kalibrlash;
- o‘lchashlarni bajarish va bajarish sifatini baholash usullarini metrologik attestatlash;

-me’yoriy va texnik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o‘tkazish;

-metrologik xizmatlar, markazlar, laboratoriyalarni o‘lchash vositalarini qiyoslash, sinash, o‘lchash vositalarini, o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlarini metrologik attestalash, o‘lchash vositalarini kalibrlash va bu ishlarning bajarilishini metrologik ta’minalash sifatini baholash maqsadida boshqa muayyan metrologik faoliyaiga akkreditlashda qatnashish;

-o‘lchash vositalarini tayyorlash, sotish va ijara ga berish faoliyatini ro‘yxatga olish;

-muayyan metrologik tekshirish va nazorat turlarini amalga oshiruvchi xodimlarni attestatlash.

Davlat metrologik tekshiruvi turlari:

-o‘lchash vositalari turlarini sinash va tasdiqlash;

-o‘lchashi vositalari va o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlarini metrologik attestatlash;

-o‘lchash vositalarini, shu jumladan, etalonlarni qiyoslash, kalibrlash;

-metrologik xizmatlar, markazlar, laboratoriyalarni sinash, qiyoslash, o‘lchash vositalarini va o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlarini metrologik attestatlash, o‘lchash vositalarini bajarish uslubiyatlarini metrologik attestatlash, o‘lchash vositalarini kalibrlash va boshqa muayyan metrologik faoliyat turlariga akkreditlash;

-tadbirkorlik subyektlarining o‘lchash vositalarini tayyorlash, sotish, ijara ga berish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalashtirishda o‘rnatilgan metrologik me’yorlar va qoidalarga rioya qilinishini baholash va tasdiqlash;

-o‘lchashlarni bajarish va metrologik faoliyatning boshqa turlari sifatini baholash.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati idoralari tomonidan metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya qilinishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati metrologiya sohasidagi qonun tahlublariga muvosiq bajariladi.

**Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati** quydagilarga taalluqli:

- sog'liqni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni asrash;
- moddiy qadriyatlar va energetik zahiralar hisobi;
- savdo-tijorat, boj, pochta va soliq operatsiyalarini o'tkazish, telekommunikatsion xizmatlar ko'rsatish;
- zaharli, tez alanganuvchi, portlovchi va reaktiv moddalarni saqlash, tushish hamda yo'qotish;
- davlat mudofaasini ta'minlash;
- mehnat xavfsizligi va transport xavfsizligini ta'minlash;
- sertifikatlanayotgan mahsulotning xavfsizligini va sifatini aniqlash;
- geodezik va gidrometeorologik ishlari;
- o'lchov vositalarini davlat sinovlaridan, qiyoslashdan, kalibrashdan, tu'mir va metrologik attestasiyalashdan o'tkazish;
- foydali qazilmalarni otish;
- milliy va xalqaro sport rekordlarini ro'yxatdan o'tkazish.

**Metrologik nazorat** – o'lhash jarayoni elementlarining holatini va qo'llanilishini hamda o'rnatilgan metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya qilinishini tekshirish bo'yicha vakolatlangan idoralar faoliyati.

Davlat metrologik xizmati o'tkazadigan metrologik nazoratga quyidagilar kiradi:

- o'lhash vositalarini chiqarish, ularning holati va qo'llanilishi, attestatlangan o'lhashlarni bajarish uslubiyatlari, o'lhashlarning bir xilligini ta'minlash, metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;
- akkreditlangan metrologik xizmatlar, markazlar va laboratoriylar metrologik faoliyatining muayyan turlarini bajarayotganda metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya qilinayotganligini tekshirish;
- savdo ishlarini bajarayotganda tasarrufidan chiqariladigan mollar miqdorini nazorat qilish;
- har qanday idishda qadoqlangan mollar miqdorini nazorat qilish.

"O'zstandart" agentligining qarori bo'yicha, davlat metrologik tekshiruvi va nazorati qo'llaniladigan sohada, zarur bo'lган hollarda, metrologik nazoratning boshqa turlari va shakllari o'rnatilishi mumkin.

O'Ichash vositalarini chiqarish, ularning holati va qo'llanilishi, sinashlar, o'lchashlarni bajarish uslubiyatlari, o'lchashlar birliligini ta'minlash, metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya qilinishi ustidan davlat metrologik nazoratini o'tkazishda mos me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan me'yorlar va qoidalarning xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilayotganligi tekshiriladi va baho beriladi.

Bunda quyidagilar tekshiriladi:

- o'lchov birliklarining to'g'ri qo'llanilayotganligi;
- o'lchash va sinov vositalarining holati;
- o'lchash va sinov uslubiyatlarining qo'llanilishi va ularga rioya qilinishi;
- sinovlar, metrologik attestatlash, o'lchash vositalarini qiyoslash, kalibrlashni o'tkazish metrologik shart-sharoitlariga rioya qilinayotganligi;
- o'lchash vositalarini chetdan keltirish, ishlab chiqarishda tayyorlab chiqarish, sotish, ta'mirlash, ijaraga berishda metrologik qoidalarga rioya qilinishi;
- metrologik ishlarni bajaruvchi xodimlarning o'rnatilgan talablarga muvofiqligi.

Metrologik nazoratning bunday turlarini o'tkazish va mazmunini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Akkreditlangan metrologik xizmatlar, markazlar va laboratoriyaarning faoliyati ustidan metrcologik nazorat akkreditlangan subyekt tomonidan metrologik me'yorlar va qoidaiarning bajarilayotganligini tekshirish va baholashdan iborat.

Savdo ishlarini bajarishda tasarrufdan chiqariladigan mollar miqdori ustidan Davlat metrologik nazorati iste'molchining huquqlarini himoyalash maqsadida amalga oshiriladi hamda massa, hajm, uzunlik va boshqa fizik kattaliklarda ifodalangan mollar miqdorining to'g'ri aniqlanganligini tekshirish, foydalaniadigan o'lchash vositalarining to'g'riliгини aniqlashdan iborat.

Nazoratning bunday turlarini o'tkazish tartibini "O'zstandart" agentligi o'rnatadi.

Har qanday idishda qadoqlangan mahsulot miqdorini, ularni qadoqlashda va sotishda davlat metrologik nazorati, qadoqlangan idishni ochish bilan bog'liq bo'lgan, idishdagi mahsulotning massasi, hajmi, uzunligi yoki boshqa ko'rsatkichlari mahsulotning etiketasida ko'rsatilgan hollarda o'tkaziladi.

Daviyat metrologik nazoratining ko'rsatilgan turini o'tkazish tartibi O'zDSt 8.022:2002 standartida belgilangan.

Yuridik shaxsnинг metrologik xizmati amalga oshiradigan metrologik nazoratda, odatda, quyidagilar o'tkaziladi:

- o'lchash vositalarining holatini va qo'llanilishini tadqiq qilish;
- o'lchashlarni bajarish uslubiyatlarining holati va qo'llanilishini tekshirish;
- o'lchashlarning to'g'ri bajarilayotganligini baholash;
- o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrashga o'z vaqtida taqdim etilishini tekshirish;
- o'lchash vositalaridan foydalanish sharoitlariga, kalibrashni o'tkazish qoidalariga, kalibrash va o'lchash laboratoriylarida ishlarni bajarish shart-sharoitlariga rioya qilinishini tekshirish;
- metrologiya bo'yicha me'yoriy hujjatlarning talablariga rioya qilinishini tekshirish.

Metrologik xizmatlar to'g'risidagi nizomlarda yoki boshqa me'yoriy hujjatlarda metrologik nazorat bo'yicha boshqa ishlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Shu maqsadda yuridik shaxs metrologik xizmatni yoki boshqa kichik bo'linmani tashkil qiladi, "O'zstandart" agentligi ishlarning mazkur turiga akkreditlangan chet tashkilotlarning xizmatlaridan, shuningdek, davlat metrologik xizmati xizmatlaridan foydalanadi.

## **7.2. O'lchashlar birliligini ta'minlash bo'yicha davlat inspektorlarining majburiyatları va huquqlari**

Davlat boshqaruvin idoralarining vakillari standartlarning majburiy talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi **Davlat inspektori** bo'lib hisoblanadi.

Davlat inspektori quyidagi huquqlarga ega:

- xo'jalik faoliyati subyektlarining ishlab chiqarish va xizmat binolariga o'rnatilgan tartibda kirish (O'zR 2006-yil 10.10dagagi №O'RQ-59 Qonunining tahriridagi xatboshi);
- davlat nazoratini o'tkazish uchun xo'jalik faoliyati subyektidan zaruriy hujjatlar va ma'lumotlarni olish;
- davlat nazoratini o'tkazish vaqtida xo'jalik faoliyati subyektlari mutaxassislarini jalb qilish va texnik vositalaridan foydalanishi muunkin;
- tekshirilayotgan xo'jalik faoliyati subyektining ishlab chiqarishini to'xtatishga, sinovlarni o'tkazishga (o'lchashlarga, tahlil qilishga) xarajatlar va sarflangan namunalar tannarxi bilan ularni standartlarning majburiy talablariga muvofiqligini nazorat qiliш uchun mahsulot namunasi

va namunani tanlash standartlashtirish bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjalarga muvofiq o'tkazadi;

- mahsulotni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishga tayyorlash, uni ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish, foydalanish, saqlash, tashish va utilashtirish bosqichlarida standart talablari buzilganiligi aniqlanganda, ularni bartaraf qilish to'g'risida buyruq chiqarish;

- xo'jalik subyekti tekshirishdan bosh tortgan holatlarda mahsulotni sotishni to'xtatish.

Standartlar va o'lchashlar birligini ta'minlash ustidan nazorat va tekshiruv bo'yicha O'zbekiston Respublikasi **Davlat bosh inspektori**, standartlar va o'lchashlar birligini ta'minlash ustidan nazorat va tekshiruv bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlari Davlat bosh inspektorlari quyidagi huquqlarga ega:

- standartlar talablarini buzishga aybdorlar, xo'jalik faoliyati subyektlari va xususiy tadbirkorlarning mas'ul shaxslariga ma'muriy undirishlarni qo'llash;

- tekshirilayotgan mahsulot standartlarining majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan holatlarda uning yetkazib berishni, sotishni, foydalanishni to'xtatish yoki ishlab chiqarishni taqiqlash to'g'risida buyruq chiqarish;

- davlat ro'yxatidan o'tmagan va standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan import qilinayotgan mahsulotlarni sotishni to'xtatish.

Davlat inspektorining tekshirilayotgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan holatlarda uni yetkazib berishni, sotishni, foydalanishni to'xtatish yoki ishlab chiqarishni taqiqlash to'g'risidagi buyrug'ini xo'jalik faoliyati subyektlari va xususiy tadbirkorlar bajarmaganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bosh inspektori, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat Davlat bosh inspektorlari huquqbazarlikda aybdor bo'lgan xo'jalik faoliyati subyektlari tan olingan holatlarda jarimalarni ixtiyoriy to'lash va jarimalarda ko'rsatilgan to'lovlar sud orqali amalga oshiriladi (O'zR 2006-yil 10.10-dagi №O'RQ-59 Qonuniga muvofiq).

Davlat inspektori chiqargan buyruq va qarorlarni xo'jalik faoliyatlarini subyektlari bajarmagan holatlarda zaruriy materiallar va ma'lumotlar prokuratura idoralari yoki sudga taqdim etiladi.

Davlat inspektori davlat va tijorat sirlarini oshkor qilmasligi, majburiyatiga yuklatilgan vazifalarni tegishli tarzda bajarishi, bajarmagan holatda o'rnatilgan qonunchilik bo'yicha javob beradi.

## 7.3. Metrologik ta'minot va uning asosiy jihatlari

*O'lchashlarning metrologik ta'minoti*: deganda talab etilgan o'lchash aniqligi va birligiga erishish uchun zarur bo'lgan texnik vositalar, qoida va me'yorlar, ilmiy va tashkiliy asolarna o'rnatish va qo'llash tushuniladi.

Batafsil va kengroq ma'noda *o'lchashlarning metrologik ta'minoti* – bu mamlakatda zaruriy etalonlar, namunaviy va ishchi o'lchash vositalarini yaratish; ularni to'g'ri tanlash va qo'llash; metrologik qoida va me'yorlarni ishlab chiqish va qo'llash; iqtisodiyotda, vazirlik\mahkamalarda, korxonalarda, ish joylarida talab etilgan o'lchash sifatini ta'minlash uchun metrologik ishlarni bajarishga yo'naltirilgan metrologik va boshqa xizmatlarning faoliyati.

Metrologik ta'minot tushunchasi juda keng, ya'ni texnik o'lchashlarni amalga oshirishdan o'lchashlar birlilagini ta'minlashgacha va qonunlashtiruvchi metrologiyani qo'llab, asosan, o'lchash, sinash va nazoratga munosabati bo'yicha faoliyatda qo'llaniladi hamda bir vaqtida *ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining metrologik ta'minoti* tushunchasi qo'llanilishiga ham ruxsat etilgan.

Metrologik ta'minotning tashkil-uslubiy asoslarini tashkil etuvchi faoliyatlar quyidagilar:

1. Metrologik ta'minot asoslari;
2. Metrologiyaning me'yoriy-huquqiy asoslari;
3. Metrologik xizmatlar va tashkilotlar.

Ishlab chiqarish korxonalari, o'lchash vositalari ishlab chiqaruvchilar va ulardan foydalanuvchilar uchun metrologik ta'minotning korxona metrologik xizmati faoliyati bilan bog'liq qismi amaliy qiziqishni namoyon etadi.

Va shuning uchun "korxona metrologik ta'minoti" va "ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti" atamalari keng qo'llaniladi.

Ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti asosan quyidagilardan iborat:

- o'lchashlar holatini tahlil qilish;
- belgilangan aniqlikka mos keluvchi o'lchash vositalari (etalonlar va ishchi o'lchash vositalari)dan foydalanish va o'lchanayotgan kattaliklarning ratsional nomenklaturasini o'rnatish;
- o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlashdan o'tkazish;
- o'rnatilgan aniqlik me'yorlarini ta'minlash uchun o'lchashlarni bajarish uslubiyatini ishlab chiqish;
- konstruktorlik va texnologik hujjatiarni metrologik ekspertizadan o'tkazish;

- zaruriy me'yoriy hujjatlar (xalqaro, davlat, tarmoq va tashkilot standartlari)ni joriy qilish;
- texnik omilkorlikka akkreditlash;
- metrologik nazoratni o'tkazish.

Bozor munosabatlari sharoitida foydalanilayotgan o'ichash vositaliarini asosiy fond qismi sifatida maksimal toyda olishda ishchi holatda bo'lishi korxonaning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.


Ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti korxona va texnologik jarayonlarini, tayyorlanayotgan mahsulot sifatini ta'minlovchi va jarayonlarni turg'unlashtirish maqsadida aniq bir darajada optimal boshqarishni ta'minlashi lozim. Bunda ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti uchun xarajatlar ishlab chiqarish ko'lamiga, texnologik siklining murakkabligiga mos bo'lishi va uning yakuniy hisobida nafaqat qoplashi, balki daromad olib kelishi lozim. Ishlab chiqarishni metrologik ta'minotining iqtisodiy samaradorligi va mosligini baholash ilmiy-tadqiqot institutlarning metrologik xizmati yoki MI 2240-92 "DO'T. Korxona, tashkilot birlashmalarda o'ichashlar, nazorat va sinash holatlari tahlili" tavsiyasi asosida tashkiliy va uslubiy jihatdan mumkin.

Bu hujjat metrologik ta'minotini takomillashtirish dasturini ishlab chiqish uchun texnik emilkorlikka akkreditlashtirishda, sifat tizimini ishlab chiqish va sertifikatlashtirishda foydalaniladi. Unda "korxonada metrologik ta'minot, o'ichashlar, nazorat va sinashlar holatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi baholash usuli" keltirilgan.

Uning 2-ilovasi "Axborot ta'minoti. Korxonada o'ichashlar, nazorat, sinashlar holatini tahlil qilish bo'yicha axborotlari avtomatlashgan qayta ishlash uchun dialog va algoritmlar ssenariyalar"i juda ham dolzarb va zarur. Ushbu materialga qo'shicha ravishda dasturiy ta'minotlar va texnik vositalarga muvofiq korxonaning metrologik xizmat ishlarini avtomatlashtirish va operatsiyalar hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishni metrologik ta'minotining iqtisodiy samaradorligini hisoblashni soddalashtirish va uning samaradorligini oshirishga tavsiyalar keltirilgan.

Turli xil ko'rsatkichlar va kelgusida ularning iqtisodiy samaradorligi; ishlab chiqarishning optimal metrologik ta'minotini avtomatlashtirilgan qidiruv (tanlash)ni ta'minlash bo'yicha variantlari bilan ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti variantlarini modellashtirish istiqbolli bo'lib hisoblanadi.

Metrologik ta'minotning to'rtta tashkil etuvchisi (7.1-rasm):



7. I-rasm. Metrologik ta'minotning asoslari.

**1. Ilmiy asosi:** metrologiya – o'lchashlar haqidagi fan;

**2. Tashkiliy asosi** – davlat va yuridik shaxslarning metrologik xizmatdan tashkil topgan O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati;

**3. Texnikaviy asoslari** – kattaliklar birligining davlat etalonlari, kattaliklar birligini etalonlardan ishchi vositalarga uzatish, o'lchash vositalarini yaratish va ishlab chiqishni yo'lga qo'yish, o'lchash vositalarining majburiy davlat sinovlari va ularni bajarish uslublarining metrologik attestatsiyasi, o'lchash vositalarini ishlab chiqishda, ta'mirlashda va ishlashda majburiy davlat qiyoslashidan o'tkazish, modda va materiallarning tarkibi va xossalari bo'yicha standart namunalarni

yaratish, standart ma'lumotnomalar, mahsulotning majburiy davlat sinovlari.

**4. Me'yoriy-uslubiy (qonuniy) asoslari** – respublikaning tegishli qonunlari, davlat standartlari, davlat va tarmoqlarning me'yoriy hujjatlari.

Metrologik ta'minotning o'z oldiga qo'ygan **asosiy maqsadlari**:

- mahsulot sifatini, ishlab chiqarish va uni avtomatlashtirishning samaradorligini oshirish;
- detallar va agregatlarning o'zaro almashuvchanligini ta'minlash;
- moddiy boyliklarning va energetik resurslarning hisobini olib borish ishonchligini ta'minlash;
- atrof-muhitni himoya qilish;
- salomatlikni saqlash va h.lar.

Metrologik ta'minot darajasi mahsulotning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Bu ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida metrologik profilaktika ishlariiga va ishlab chiqarishni tayyorlashdagi metrologik ta'minot masalalariga alohida ahamiyat beriladi. Bu esa o'z vaqtida respublikamizda bozor munosabatlarini yanada chuqurroq shakllanishiga va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport imkoniyatini eshirilishiga munosib zamin yaratadi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarida metrologik xizmatlarning asosiy vazifasi ishlab chiqarishni metrologik tomondan ta'minlash hisoblanadi. 7.2-rasmida mahsulot hayotiy siklining bosqichlarida metrologik ta'minotni tashkillashtirish yanada qulay ko'rinishda keltirilgan.

Mahsulot ishlab chiqarishni metrologik ta'minlash jarayonida talab qilingan sifat ko'rsatkichlariga har bir texnologik jarayonlarning nazoratini o'lchashlarni bajarish yordamida erishiladi. Bu bosqichda o'lchash vositalari va usullari aniqlanib, o'lchash nazorati va o'lchash jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha ishlar bajariladi, o'lchashlarni bajarish uslubiyati ishlab chiqiladi va attestatsiyalanadi. Agarda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi nazarda tutilgan bo'lsa, texnologik jarayonlar va texnikaviy hujjatlar metrologik ekspertizadan o'tkaziladi.


O'lchash axborotiga nafaqat miqdor bo'yicha talablar, baiki sifat bo'yicha talablar ham qo'yiladi. Bunga o'lchashning aniqligi, ishonchligi, tannarxi va samaradorligi kabi tavsiflar kiradi.

Bu barcha sifat tavsiflarining asosida metrologik ta'minot yotadi. **Metrologik ta'minetni** shunday ta'riflash mumkin: o'lchashlar birligini ta'minlash va talab etilgan aniqlikka erishish uchun zarur bo'lgan texnikaviy vositalar, tartib va qoidalarning, me'yorlarning, ilmiy va tashkiliy asoslarning belgilanishi va tatbiq etilishi.

Ushbu tavsifdan kelib chiqib aytish mumkinki, *metrologik ta'minotning vazifasiga* quyidagilar yuklatilgan:

- o'lchash vositalarining ishga yaroqliligini tashkil etish, ta'minlash va tatbiq etish;
- o'lchashlarni amalga oshirish, uning natijalarini qayta ishslash va tavsiya etish borasidagi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish;
- hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish;
- o'lchash vositalarining davlat sinovlari;
- o'lchash vositalarining va uslublarining metrologik attestatsiyasi va h.lar.

Metrologik ta'minot ilmiy, tashkiliy, texnikaviy va me'yoriy-uslubiy asoslarga bo'linadi (7.2-rasm):



7.2-rasm. *Metrologik ta'minotu tashkillashtirish*.


Ishlab chiqarish tarmoqlarini asosan sanoat korxonalar tashkil etadi va bu korxonalar bevosita mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarish, montaj qilish va ekspluatatsiya qilish faoliyatları bilan o'z faoliyatini olib boradi. Demak, umumlashgan holda korxonaning metrologik ta'minotiga to'xtalib o'tamiz.

## **7.4. Ishlab chiqarish tarmoqlarida metrologik ta'minot**

Korxonada metrologik ta'minotning asosiy vazifalari quyidagicha:

- 1) mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish va sinashda o'lhashlar birliligini ta'minlash;
  - 2) texnologik qurilmalar tavsiflarining nazorati, texnologik jarayonlarning ko'rsatkichlari, mahsulot sifati ko'rsatkichlarini nazorat qilishda o'lhashlar aniqligini optimal normalar va o'chanayotgan ko'rsatkichlarning ratsional nomenklaturasini o'rmatish va tahlil qilish;
  - 3) o'lhash vositalariga metrologik xizmat ko'rsatish: hisobini yuritish, saqlash, qiyoslash, kalibrlash, o'rmatish, ta'mirlashni tashkillashtirish va ta'minlash;
  - 4) zaruriy aniqlikni kafolatlovchi o'lhashlarni bajarish usiubiyatini ishlab chiqish va ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish;
  - 5) metrologik qoida va me'yorlarga rivoja qilinishi ustidan hamda mavjud ekspluatatsiya sharoitlarida o'lhash, nazorat va sinov qurilmalari uchun nazoratni amalga oshirish;
  - 6) konstruktoriik va texnologik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazash;
  - 7) sinov qurilmalariga o'matilgan talablarga muvofiq hisobini yuritish, attestatsiyalash, ta'mirlash kabi metrologik xizmatlar ko'rsatishni tashkillashtirish va ta'minlash;
  - 8) o'lhash vositalari hisobini yuritish, attestatsiyalash va ta'mirlash metrologik xizmatini tashkillashtirish va ta'minlash;
  - 9) o'lhash tizimlarining o'lhash kanallari hisobini yuritish, attestatsiyalash, qiyoslash, kalibrash metrologik xizmatlarini tashkillashtirish va ta'minlash;
  - 10) o'ta aniqlikdagi o'lhashlarni tashkillashtirish va bajarish;
  - 11) materiallar, xomashyo va yonilg'i-energiya resurslari sarfini to'g'ri va aniq hisobini ta'minlash;
  - 12) zamonaviy o'lhash usullari va vositalarini, avtomatlashtirilgan nazorat-o'lchov qurilmalari, o'lhashli tizimlarini joriy qilish;
  - 13) yetishmaydigan o'lhashlarni texnikaviy va iqtisodiy jihatdan baholash;
  - 14) metrologik ta'minot masalalarini tartiblashtiruvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy qilish;
  - 15) iqtisodiy samaradorlikni baholash.
- Ushbu vazifalardan kelib chiqib, ishlab chiqarishni metrologik ta'minotini yaxshilash bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilishi lozim.

## Korxonaning metrologik ta'minoti



*7.3-rasm. O'rnatilgan talablarga korxona metrologik ta'minotining muvofiqiligidagi ko'rsatkichlarini shakllantirish sxemasi:*

*O'V-o'lchash vositasi; O'U-o'lchash usuli; SQ-sinov qurilmasi;*  
*ME-metrologik ekspertiza.*

Korxona metrologik ta'minotiga muvofiq asosiy ko'rsatkichlarni shakllantirishni 7.3-rasmda keltirilgan holatda tasvirlash mumkin. Keltirilgan sxemadan III darajali elementlarning holatini to'liq tavsiflovchi metrologik ta'minotga o'rnatiladigan talablarga muvofiq bo'lishi lozim. 7.4-rasmda ishlab chiqarishning metrologik ta'minotini rejallashtirish jarayoni algoritmi va 7.5-rasmda korxonada O'V va SQ ustidan metrologik nazorat jarayoni algoritmi, 7.6-rasmda ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti jarayonlarining natijaviyligi algoritmi keltirilgan.

Ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishni ta'minlovchi chora-tadbiriar quyidagicha:

1) "zarur va yetarli" prinsipidan kelib chiqib, nazorat, o'lchash va sinov qurilmalari (NO'SQ) parkini tekshirish va optimallashtirish;

2) manan eskirgan NO'SQ parkini zamonaviy qurilmalar bilan almashtirish, yangi o'lchash usullarini joriy qilish;

3) o'lchash jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot-o'lchash tizimlarini joriy qilish;

4) quyidagi iqtisodiy inezonlar bo'yicha o'lchashlar aniqligini optimallashtirish:

- o'lchanadigan axborotlarni muhimlik darajasi bo'yicha tahlil qilish;

- aniqligi katta bo'lgan O'V foydalanishga mas'uliyatli uchastkalar, qærلarda aniqlik sinfi past bo'lgan O'V foydalanish maqsadga muvofiqligi;

- o'lchashlarning jamlama xatoligini hisoblash tahlili, qærلarda arifmetik yig'indidan geometrik yig'indiga o'tish maqsadga muvofiqligi.

5) iqtisodiy samaradorlikni hisobga olib (yangi etalonlarni joriy qilish, metrologik xizmatlarni attestatsiyalash) O'V qiyoslash, kalibrlash, ta'mirlash jarayonlarini takomillashtirish;

6) korxonada NO'SQ oiiishga talabnomalar bilan birga konstrukturlik va texnologik hujjatlarning metrologik ekspertizasini tashkillashtirish;

7) o'lchashlarni bajarish uslubiyatini ishlab chiqish va joriy qilish;

8) metrologik ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi xodirlarning kasbiy darajasini oshirish;

9) metrologik ta'minot bilan shug'ullanuvchi xizmatlar tuzilmasini tartiblashtirish;


10) ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti bo'yicha ISO 9001 standarti talablariga muvofiq hujjatlarni ishlab chiqish.

Korxonaning metrologik xizmati nafaqat talab etilgan o'lchashlar aniqligi va birligini ta'mirlash bo'yicha ishlarni, balki bular ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini uning hayotiy siklining barcha bosqichlaridagi ishlarni ham bajaradi. Buning uchun bundan tashqari "Metrologik xizmat to'g'risida Nizom" bo'lishi va unda quyidagiler bo'lishi lozim:

- korxona metrologik xizmatining sifat tizimi, sifat tizimining har bir elementi bo'yicha faoliyatlarining maqsadlari o'rnatilgan, bu elementlarni boshqarish bo'yicha asosiy faoliyatlar, javobgar shaxslar aks etirilgan bayon etilgan "Metrologik xizmatning Sifat bo'yicha qo'llanmasi";

- metrologik ta'minot bo'yicha barcha turdag'i (O'V qiyoslash va kalibrlash, qo'llaniladigan O'V ro'yxati, texnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi, sinov qurilmalarini attestatsiyalash va h.) faoliyatlarni bayon etuvchi korxona stadartlari, ya'ni bir tomonidan "Metrologiya to'g'risida"gi Qonunga, ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti bo'yicha me'yoriy hujjatlarga, O'zDSt ISO 9001:2009 "Sifat menejmenti tizimlari. Talablar" standartiga, ikkinchi tomonidan esa korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oigan holda bo'lishi lozim.

O'tgan yil davomidagi MX  
faoliyatini tahlil qilish



7.4-rasm. Ishlab chigarkishi metrologik ta'minotini rejalashtirish jarayoni algoritmi:


*O'V-o'lchash vositasi; SQ-sinov qurilmasi; KL-kalibrash laboratoriyası*

- 11) Olinayotgan natijalarining ishonchsizligi darajasini, aniq emasligini baholash.


Texnologik jarayonlardagi o'lichashlar samaradorligini ta'minlashda ko'plab metrologik masalalar taxminan to'g'rilovchi metrologik usul va vositalarni qo'llash imkoniyati chegaralanganligi hisobiga hal qilinadi.

Shu sababli, o'lichashlar xatoligini baholashning aniq emasligi mavjud yo'qotishlarga olib kelgan holatlarda olingen natijalarning ishonchsizlik darajasini, aniq emasligini baholash zarur. Faqt bunday axborotlarni hisob olib qarorlarni qabul qilish o'lichashlarning samaradorligiga olib kelib, yanada haqqoniyoqligini ta'minlaydi.

Masalan, o'lichash tartibidagi datchik yetarli darajada metrologik tavsiflarga ega bo'lishi mumkin, biroq uning qurilmasi, tashqi sharoitlar, signallarni qayd qilish va qayta ishlash usullari yakuniy hisobda o'lichashlar xatoligini katta bo'lishiga ta'sir etadi.



7.5-rasm. Korxonada O'V va SQ ustidan metrologik nazorat jarayoni algoritmi.



7.6-rasm. Ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti jarayonlarining natijaviyligi algoritmi.

12) Talab qilinayotgan o'lchash aniqligini ta'minlovchi unifikatsiyalangan avtomatlashtirilgan o'lchash vositalarini qo'llash.

Qo'llanilayotgan o'lchash texnikasining darajasi yaratilayotgan mahsulot darajasini aks ettiradi, shuning uchun ishlab chiqarish va sinash komplekslarini, korxonaning metrologik xizmati va boshqa bo'linmalardagi O'V, avtomatlashtirish tizimini qurilmalar bilan ta'minlash ishlab chiqarilayorgan mahsulotning sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

13) Metrooglarning malakasini tizimli ravishda oshirish:

- yangi olib kelingan o'lchash vositalari bilan ishlash, qiyoslash va ka!ibrash usullarini o'zlashtirish;
- "Metrologiya to'g'risida"gi qonunni, kasbiga aloqador qonunchilik hujjatlarini, metrologiya bo'yicha yangi me'yoriy hujjatlarni o'rganish;
- SMSITI va boshqa etakchi metrologik institutlar o'tkazayotgan turli seminarlarga, qayta tayyorlash kurslarida ishtirot etishi:
- metrologiya bo'yicha olimpiada, tanlovlarda ishtirot etishi;
- metrologiya bo'yicha davriy nashrlarni o'rganishi lozim.

14) Yangi axborotlarni paydo bo'lishi bilan avtomatik yangilanadigan va axborotiarni qidirish ta'minlangan tizimlaridan, elektron ma'lumotlar bazalaridan faol foydaianish:

- Davlat reyestriga kiritilgan o'lchash vositalarining texnik tavsiflari va foydalanish to'g'risida;
- davlat metrologik xizmatlari va yuridik shaxslarning metrologik xizmatlari o'tkazadigan qiyoslash va ta'mirlash ishlari to'g'risida;
- metrologiya sohasidagi me'yoriy va ma'lumot hujjatlari to'g'risida;
- yuqori aniqlikdagi qurilmalar va etalonlar to'g'risida;
- ishlab chiqarilayotgan asboblarning elektron kato'logi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlangan axborot tizimlari bo'lishi lozim.

15) Boshqa bo'linmalardagi (konstrukturlik, texnologik, ishlab chiqarish, sinov bo'limlari) mutaxassislarning metrologiya sohasidagi bilimlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar.

Konstrukturlik va texnologik hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazishda bitta va aynan shu xatolik (me'yoriy hujjatlar va atamalarning nomlanishi, kattalik birliklarini noaniq tarjima qilish, kattalikning miqdoriy qiymatini va uning xatoligini noto'g'ri yozish, o'lchash topshiriqlarini bajarish uchun o'lchash vositasini yoki usulini noto'g'ri tanlash, yetarli bo'limagan axborotlar va boshqalar) qaytariladi.

Buning uchun kelgusida xatolar yana qaytarilmasligi uchun yo'l qo'yilgan xatoliklarning tahlili va tizimlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'tkazish hamda boshqa bo'linmalarning mutaxassislarini metrologiya bo'yicha bilimini oshirish lozim.

Buning uchun turli xil ish usullaridan foydalanish mumkin, bular quyidagilar:

- korxonaning Sifat bo'yicha doimiy faoliyatdag'i komissiyasining yig'ilishlarida ushbu masalalarni muhokama qilish;
- texnikaviy hujjatlarda doim uchraydigan xatolar va noaniqliklarning tarkibiy ro'yxati va tahlili bo'yicha "Xizmat xatlar"ni chiqarish;

- foydalı ma'lumotlardan tarkib topgan "Eslatma"larni rasmiylashtirish, masalan, "O' Ichash natijalari xatoligini baholashni miqdoriy yaxlit-lash va hisoblash qoidalari", "Sonlarni yozish qoidalari" bo'yicha rasminiy hujjatlar;

- korxona mutaxassislarining metrologiya bo'yicha bilimlarini oshirishga yo'naltirilgan korxona standartlarini ishlab chiqish.

16) Korxona metrologik xizmati hududiy standartlashtirish va metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazlari (XSMM) va boshqa tashkilotlarning metrologik xizmatlari bilan o'zaro faoliyatlarni yo'lga qo'yish.

Bunday hamkorlik ishlab chiqarish metrologik ta'minotini yuzaga keluvchi metrologik muammolarni hal etishda tajriba almashish va o'zaro yordam hisobida yaxshilanadi.

### Nazorat savollari

1. Metrologik xizmat nima?
2. Metrologik ta'minot nima?
3. O'zbekiston Respublikasida metrologik xizmatlar qanday amalga oshiriladi?
4. Metrologik ta'minotning qanday asosiy jihatlari mavjud?
5. Metrologik ta'minot nimalardan iborat?
6. Metrologik xizmat bilan metrologik ta'minotning qanday o'zaro farqli tomonlari mavjud?
7. Metrologik ta'minotning tashkil etuvchi asoslarini aytib bering.
8. Nima uchun metrologik ta'minotning ilmiy asosi metrologiyadan iborat deyiladi?
9. Ishlab chiqarishning metrologik ta'minotini tushuntiring.
10. Ishlab chiqarishining metrologik ta'minotining elementlari nimadan iborat?
11. Ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti natijaviyligi qanday aniqlanadi?
12. O'matilgan taablarga korxona metrologik ta'minotining muvofiqlik ko'rsatkichlarini shakllantirish sxemasini tushuntiring.
13. Ishlab chiqarishning metrologik ta'minotini rejalashtirish jarayoni algoritmini tushuntiring.
14. Korxonada O'V va SQ ustidan metrologik nazorat jarayoni algoritmini tushuntiring.
15. Ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti jarayonlarining natijaviyligi algoritmini tushuntiring.

## VIII BOB. STANDARTLASHTIRISH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

### 8.1. O'zbekistonda standartlashtirishning tarixiy jarayonlari

Markaziy Osiyo mamlakatlarining, xususan O'zbekistonda standartlashtirishning boshlanishi haqida aniq bir raqamli vaqt va makonni keltirish avvalgi bo'limning ba'zi bir holatlariga takror bo'lishi tabiiy. Alloma donishmandlarimizning tarixiy asarlariga nazar solsangiz, bunga hech shubha qolmaydi. Qadimdan Eron va Turon Zaminida ishlab chiqarish munosabatlari, jarayonlari, savdo, iqtisodiy, ilmiy-texnik ishlari o'zaro yaqin va chambarchas holatda olib borilgan. Shu munosabat bilan Eron mutaffakkiri Kaykovusning XI asida yozilgan "Qobusnoma" asaridan bir parchani eslash kifoya: "*Hozirgi men yashayotgan zamonda inson qo'l urgan har qanday ish bo'lmasisin ularni tartibsiz qoldirib bo'lmash, har narsada tartibni anglash zarur*". Har qanday sohada me'rosni (an'ana, oda, tarbiya) tartibli holatda qoldirilishini aniq tasdiqlagan. Kaykovus vaqt kelganda ko'p ishga ulgurishni nazarda tutgan edi. Asarda san'at, haykaltaroshlik, musiqa va boshqa sohalarda inson faoliyati xulq-atvoriga qo'yilgan talablar shu kunnalarda ham o'z ifoda va mazmuniga ega. Qadimgi allomalarimiz asarlaridagi va ota-bobolarimizning "etti o'lchab, bir kes", "o'ylamasdan so'zlama" kabi hikmatli o'gitlari standartlashtirish jarayonlarining elementlaridir.

Standartlashtirish elementlari Turon zaminidagi mamlakatlar, xususan, O'zbekiston mintaqasida buniyod etilgan noyob me'morchilik boyliklarida, standart g'ishtlarni rango-rang bezaklar bilan uyg'unlashgan o'lchovlarda qo'llanilishi insonni mahliyo qiladigan Go'ri amir, Bibixonim, Pahlavon Mahmud, Xiva tashqi va ichki qal'alari, Ulug'bek madrasasi, Kalon minorasi, Ko'kaldosh madrasasi va boshqalarda mujassamlashgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va O'zbekistonda qadimdan: qadoq (400 g atrofida), *chaksa* (6 kg), *pud* (16 kg), *botmon* (160 kg) kabi massa birliklari; *enlik* (panja eni, 2 sm atrofida) *so'yam* (bosh barmoq va ko'rsatkich barmoq o'lchovi – 18 sm atrofida), *qarich* (bosh barmoq bilan chinchaloq barmoq o'lchovi – 23 sm), *qadam* (ikki cyoqni yurishdag'i o'rtacha oralig'i – 0,75 m atrofida), *quloch* (ikki qo'lning elka sathida cho'zilishdag'i uzunlik – 1,5 m atrofida), *bir tosh* (taxminan 0,75 km), *bir chaqirim* (taxminan 3 tosh) kabi uzunlik birliklari; *tanob* (100 m<sup>2</sup> atrofida) sirt birliklari standart birliklar sifatida keng qo'llanilib kelingan. Kirpich so'zining – qirbich, koibasaning – qo'lbos, utyug (dazmol)ning – o't yuk

kabi protiplarining turkiy tilda mavjudligi, algebraning al-jabr, meditsining – madadi sino kabi tushunchalar bilan uyg‘unligi ham Markaziy Osiyo mamlakatlari Standaartlashtirish obyekti va jarayonlari tarixining yetaricha chuqur va mazmunliligidan dalolat beradi. Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda standartlashtirishning rasmiy bosqichi *1923-yil Toshkent shahrida “O‘Ichov va tarozilar mahkamasi Turkiston markazi”* tashkil etilishdan boshlandi. Bu markazning Qo‘qon, Samarqand, Ashxobed, Olma-Ota shaharlarida tarkibiy shahobchalari tuzildi.

1926-yilda O‘zbekiston ishechi-dehqon inspeksiyasi xalq komissariati huzurida standartlashtirish mahkamasi tashkil etildi. U davrlarda standart uch xil turda tasdiqlanar edi: sinaladigan, tavsiya etiladigan, majburiy qo‘llanadigan.

O‘zbekistonda standartlashtirish ishlari Markazqo‘m tasdiqlagan, sohalar tahliliga ko‘ra tuzilgan yillik rejalar asosida olib borilar edi.

1932-yil mart oyida “O‘zbekiston mintaqalarini 2 xil vaqt kamariga o‘tkazish to‘g‘risida” Sovnarkom qarori qabul qilindi: 4-vaqt kamari (Moskva vaqtiga + 2 soat) va 5-vaqt kamari (Moskva vaqtiga +3 soat).

O‘zbekistonda standartlashtirishning zamonaviy bosqichi *1973-yili O‘zbekiston Respublikasi davlat Standart boshqarmasi* (O‘zdavstandart) tashkil etilganidan boshlanadi va 1991-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, ya’ni 1992 yil mart oyidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini tashkil to‘g‘risida”gi 93-qarori qabul qilingandan buyon, standartlashtirishning *yangi davri* boshlandi.

1993–1998 va 2000–2003-yillarda O‘zbekistonda standartlashtirishni jadailashtirish borasida bir qator o‘ta muhim hukumat qarorlari chiqdi, muayyan chora-tadbirlar belgilandi. 2002-yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 342-qaroriga binoan “O‘zdavstandart” – “O‘zstandart” agentligi nomi bilan yangicha bosqichda faoliyat olib bormoqda. Standartlashtirishni rivojlantirishning xalqaro standartlashtirish jarayoni bilan uyg‘unlashgan asosiy yo‘nalishlari belgilanib, sohalar standartlari, me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha vakolatli davlat muassasalari, nazorat qilish va kuzatib borish bo‘yicha idora, tashkilotlar belgilandi.

2009-yildan Texnik jihatdan tartibga solish tizimining qonuniy va tashkiliy asoslari shakllanib, bu bo‘yicha ishlar amaliyotga tatbiq qilib kelinmoqda.

Standartlashtirish bilan qadimdan insonler shug'ullanib kelishgan. Buni eramizdan 6 ming yil oldin Misr va Shumerda yozish, sanoqlarning paydo bo'lishi bilan bog'lashimiz mumkin. Unda keltirilgan belgilar, pikto-grammalar va boshqa turli xil shakllarni yozilgan xatlarda ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'sha davriardagi standartlashtirishning yaqqol bir ko'rinishi.

Sonlarni vavilonliklar eramizdan oldingi 4000-yillarda kashf etishgan va foydalanishgan. O'nlik sanoq tizimi ham aynan shu Vavilon (Bobil) davlatida yaratilgan. Nota yozuvlari ham qadimiy me'yorlashtirilgan til sifatida Gretsiyada eramizdan oldin 200-yillarda paydo bo'lganligini aytishimiz mumkin.

Xitoya eramizdan oldingi 206–220-yillarda xaritalardagi shahar va qishloqlarning shartli belgilari bilan belgilanishi ham haqiqatdir.

Eramizdan oldingi 1700–1600-yillarda Feste saroyidagi disklar quymasini aynan bir xilligi ham standartning bir ko'rinishidir.

Xitoy imperatori Sin Shixuandi (taxminan 2200 yil oldin) soliqlarni yig'ishda og'irlik toshlari, o'lchovlar va tangalarni bir xillashtirgan. U ierogliflarni bir xillashtirib, kamon o'qlari va ularning bir xil uzunligi ta'minlagan.

Qadimiy Misrda taxminan bundan 7 ming yil oldin o'lhash san'ati mavjud bo'lgan. Misr ehromlarida eta'on uzunliklari bo'lib, piramidalor qurilishida uzunligi 52,6 sm, ya'ni "shohlar tirsagi" uzunlik birligi deb qabul qilingan. Eramizdan oldingi XVIII asrda qiroq Xammurapi standartlashtirilgan og'irlik va o'lchovlar to'g'risida qonun qabul qilgan.

Bunda og'irlik o'lchov toshi va o'lchovlarni keng qo'llash bilan birkalikda ularni qalbakilashtirishning oldini olish uchun har tomonlama qonuniy jazolar ishlab chiqilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'lhash hajmi amali me'yoriy-qonunlar bilan muvofiqlashtirilgan. Uzoq o'tmish tariximizdan ma'lumki, O'zbekistonda hozirgi kundagi tarixiy yodgorliklar, ya'ni bino va inshootlarning qurilishida standartlashtirish faoliyati ham muhim o'rinn tutgan. O'sha davrdagi qurilish ashyolarini bir xillashtirish, ya'ni peshtoqlardagi handasaviy naqshlar, panjara va to'sinlar hamda poydevor va devorlardagi g'ishtlarning tarkibiy tuzilishi, o'lchamlarida standart andozalar qo'llanilganligi standartlashtirishdan foydalanganlikning yorqin misolidir.

1785-yili Fransuz muhandisi Leblan 50 dona quroq-aslaho qulflarini yaratdi. Ularning har biri boshqa quroq-aslahalar uchun qo'shimcha ishlovsiz tushar edi, ya'ni bular o'zaro almashtinuvchan bo'lgan.

1846-yilda esa Germaniyada temir yo'llarning enligi (koleyasi)ning va vagon ułashi ilashmasining unifikatsiyasi (bir xillashtirilishi) amalga oshirildi. 1869-yilda esa temir yo'l relsi profili o'lchamlari bo'yicha standart namunalar to'plami chikdi.

1870-yilda Yevropaning bir qator mamlakatlarida "Standart" g'ishtlar ishlab chiqarila boshlangan.

1891-yilda Angliyada, keyinchalik esa boshqa Yevropa mamlakatlarida standart, o'lchamlari ma'lum tartibga solingan burama kertik (rezba)lar ishlab chiqarila boshlandi.

XIX asrning oxirlariga kelib Yevropa mamlakatlari, ayniqsa, ko'p va mayda mamlakatlar asosida shakllangan Germaniyada standartlashgan deb atalishi mumkin bo'lgan mahsulotlar soni juda ko'payib ketgan. Chunki katta bir mamlakat ichida kichik-kichik respublikalar mavjud bo'lib, hali umumlashgan talablar shakllanmagan, o'lchovlar tasodify tanlangan edi. Masalan, uzunlik Genrix-II tirsakka teng o'lcham "lokot" nomi bilan, buyuk Karl oyog'i o'lchamiga teng birlik "fut" nomi bilan yuritilgandi.

1790-yilda Fransiyada ilk bor uzunlik birligi sifatida "metr" yaratilib, u er meridiani chorak uzunligining o'n milliondan birini tashkil etdi. Oradan 85 yil o'tgach, Parij konvensiyasida xalqaro o'lchov va tarozilar mahkamasi uzunlik birligi sifatida "metr"ni qabul qildi. Bu voqeа ilmiy-texnik taraqqiyotning muhim hodisalaridan biri bo'ldi.

## 8.2. Standartlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalar va ta'riflar

Faraz qilaylik, endi dam olay deb, dam olish xonasiga kirib, chiroqni yoqqan edik, lip etib yondi-yu o'chdi. Nima qilamiz? Darhol boshqa lampochkani olib, almashtiramiz. Xo'sh, buning nimasi g'ayritabiyy? Siz bunda kuygan lampochkaning o'rniga boshqasi aynan ham kuchlanish bo'yicha, ham quvvati bo'yicha, ham o'lchamlari bo'yicha to'g'ri kelishining ostida qanchalar inson mehnati yotganligini hech o'ylab ko'rganmisiz?

Odatda, biz standart bo'yicha degan iborani ko'p ishlatamiz.

Xo'sh, standart nima? *Standart – bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarda eng maqbul durajali tertiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga yoki natijalariga tegishli bo'lgan umumiyligini takror qo'llaniladigan qoidalar, umumiyligini qonun-qoidalar, tafsiflar, talablar, usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiglangan me'yoriy hujjatdir.*

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan, jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Standartlar darajasiga ko'ra *xalqaro*, *mintaqaviy*, *davlatlararo*, *milliy* va *korxona* miqyosida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga qo'yish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlerini yaratish va o'zlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste'molchi oralaridagi murossabatlarni yaxshilashga yo'naltirilgan.

Standartlashtirish tizimi yangi buyumga o'z vaqtida yuqori sifatli loyiha-konstrukturlik hujjatlari berish, korxonaning yangi mahsulotini berilgan sifat ko'rsatkichlariga asosan tayyorlashni va, kerak bo'lsa, mahsulotning ishlab chiqarishdan olib tashlashni belgilaydi.

Standartlashtirish mahsulot muomalada bo'lganida va sotish bosqichlarida mahsulotni joylashtirish (qadog'i)da yaxshi tartib va sharoitlar yaratishga, yuklashga va joylashtirishga, saqlashga, omborlarda mahsulot sifatini buzilmay saqlashga, transportda olib yurishda, buyumni tarqatish, sotish tashkilotlariga muayyan talablarni belgilaydi.

Standartlashtirish tub mohiyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarador formalari haqidagi fandir.

Standartlashtirish iqtisod, texnologiya va fundamental fanlar singari asosiy yo'nalishlarni bir-biriga bog'lovchi vosita hamdir.

Ko'pgina texnikaviy jihatidan ilg'or mamlakatlarda standartlashtirish masalalariga qiziqishning oshib borishi qayd qilinmoqda, uning asosi bo'lgan standartlashtirishning nazariyasiga ham katta e'tiber berilmoqda.

Standartlashtirishni texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarishda eng ratsional joriy qilish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat xarajatlarini va moddiy resurslarni tejash vositalaridan biri sifatida ko'rilmoxda.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik dastur va loyihalarni amalga oshirish standartlashtirishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonunda bayon etilgangan: "To'liq yoki qisman respublika byudjet mablag'larini moliyalashiruvchi davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulotning sifatini me'yoriy ta'minlanishi bo'yicha bo'limiar ko'zda tutilishi shart".

Tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar vujudga kelishini hisobga olgan holda, iqtisodiyot obyektlarining xavfsizligini ta'minlash ham standartlashtirishning maqsad va vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Davlat standartlashtirish tizimi (O'zDST)da asosiy atamalar va ta'riflar O'zDSt 1.10:1998 standartiда qabul qilingan va u

ISO/IEC 2:1996 xalqaro qo'llanmaga mos keladi. Ushbu qo'llanmaga ko'ra standartga quyidagicha ta'rif berilgan:

**Standart** – umumkeishuv (konsensus) asosida ishlab chiqilgan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan va ma'lum sohada maqbul darajada tartibga solishga yo'naltirilgan hujjat. Tan olingan idorada barcha uchun va ko'p marta foydalanishga mo'ljallangan faoliyatning turli yo'nalishlariga yoki ularning natijalariga tegishli qoidalar, umumiy prinsiplar yoki tavsiflar o'rnatiladi.

"Standart" ta'rifidagi barcha ibora va jumlalar "Standartlashtirish" ta'rifidan kelib chiqqan, shuning bilan birga ta'rifdagi ba'zi so'zlar alohida ta'riflanadi. Faqat "tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan" va "konsensus" so'zları tushuntirishni talab etadi.

Standartlarni tasdiqlash darajalariga qarab standartlashtirish darajalari uniqlanadi. O'zSDTning asosiy nizomlarida o'rnatilgan "tan olingan idoralar" ma'nosi kelib chiqadi.

Konsensus umumkelishuv ma'nosini anglatadi. Umumkelishuvda manfaatdor tomonlarning ko'pchiligidagi mahim masalalar bo'yicha jiddiy e'tirozlar bo'lmaydi va barcha tomonlarning fikrini hisobga olishga hamda mos kelmaydigan nuqtayi nazarlarни bir-biriga yaqinlashtirishga intiluvchi protsedura natijasida umumiy kelishuvga erishiladi. Konsensus to'liq yakdillikni bildirishi shart emas, chunki standartlashtirishning murakkab obyektlari bo'yicha to'liq yakdillikka amalda erishib bo'lmaydi.

**Standartlashtirish** – haqiqiy mavjud yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan masalalarda barcha tomonidan ko'p marta foydalanish uchun mu'lum sohada nizomlar o'rnatish vositasida maqbul darajada tartibga solishga yo'naltirilgan faoliyat.

Bu ta'rif mazmuni standartlashtirishning mohiyatini yetarlicha aniq va chuqur tushunishga imkon beradi. Standartlashtirish faoliyati oddiy tartibga solish emas, balki ma'lum sohada tartiblashtirishga yo'naltirilgan. Tartibga solishning darajasi va me'yori ham aniqlangan, ya'ni standartlashtirishda eng maqbul darajada tartibga solish ko'zda tutiladi. Tartibga solishga qanday yo'l bilan erishiladi? Nizomlar (qoidalar, me'yorlar, talablar va b.)ni o'rnatish vositasida erishiladi. Bu nizomlar barchaga va ko'p marta foydalanish uchun mo'ljallangan. Bunda qanday masalalar hal etiladi? Haqiqiy mavjud bo'lgan masalalar, ya'ni shu kunning ehtiyojlari va ilmiy-tehnikaviy taraqqiyotni va doimiy o'zgarib turuvchi va tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda kelajak ehtiyojlari hal etiladi.

"Standartlashtirish obyekti" tushunchasini keng ma'noda ifodalash uchun "mahsulot, jarayon, xizmat" iboralari qabul qilingan bo'lib, buni har

qanday materialga, tarkibiy qismlarga, asbob-uskunalarga, tizimlarga, ularni mosligiga, qonun-qoidasiga, ish olib borish uslubiga, vazifasiga, usuliga yoki faoliyatiga teng darajada daxldor deb tushunmoq lozim (8.1-rasm).

*Standartlashtirish obyekti* – standartlashtirilishi lozim bo‘lgan obyekt. Standartlashtirish obyektlariga mahsulotlar, jarayon yoki xizmatlar, shuningdek, har qanday materiallar, komponentlar, uskuna-jihozlar, tizimlar, ularning o‘zaro mos keluvchanligi, protseduralar, bayonnomalar, vazifalar, ularning faoliyat usullari kiradi. Standartlashtirish har qanday obyektning ma’lum jihatlari bilan cheklanishi mumkin. Masalan, poyabzalga nisbatan uning o‘lchamlari va puxtalik mezonlari alohida standartlashtirilishi mumkin.

Shu bilan birga, standartlashtirish obyektlarining ko‘p xossalarga ega ekanligini va obyektning o‘z ichida va undan tashqarida bog‘lanishlarning murakkabligi bilan tavsiflanishini nazarda tutish kerak.

Standartlashtirish har qanday obyektning muayyan xususiyatlari bilan cheklanishi mumkin. Masalan, oyoq kiyimga nisbatan yondashiladigan bo‘lsa, uning katta-kichikligi va pishiqligini alohida standartlashtirish mumkin.

Standartlashtirish obyekti sifatida xizmat – xalqqa xizmat qilishni (xizmat shartlarini qo‘sib) va korxona hamda tashkilotlar uchun ishlab chiqarish xizmatini o‘z ichiga oladi. Standartlashtirishning boshqa obyektlari faoliyatining biriktirilgan sohalarida O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.


Demak, standartlashtirish obyekti – standartlashtiriladigan yoki unga yo‘naltirilgan mahsulot, ishlar va xizmatlardir.

Standartlashtirish jihat – tanlangan standartlashtirish obyektni standartlashtirish yo‘nalishi bolib, unga korsatilgan talablar turini aniqlaydi.

O‘z-o‘zidan standartlashtirish jihat muayyan bir guruhdagi mahsulot yoki xizmatlar bo‘lib, unda atama va ta‘riflar, sinflanishi, asosiy ko‘rsatkichiga talablar, saqlash, tashish va vosita hamda usullariga talablar, nazorat usullari va vositalari, usullariga talablar va boshqalar hisoblanadi.

Standartlashtirish sohasi o‘zaro aloqador standartlashtirish obyektlari majmuasi deb ataladi. Kimyo sanoati, mashinasozlik, transport, oziq-ovqat sanoati, tibbiyot, ekologiya va boshqalar standartlashtirish sohasi hisoblanadi. Masalan, kimyo sanoati standartlashtirish sohasi bo‘lsa, kimyo

sharoatining standartlashtirish obyektlari bo'lib texnologik jarayonlar, mahsulotlari, qurijimalarning xavfsizligi va ekologikligi va boshqalar hisoblanadi.



8.1-rasm. Standartlashtirish obyektlarining sinflanishi.

Standartlashtirish turli darajalarda amalga oshiriladi. Standartlashtirish darjasasi dunyoning siyosiy, geografik, iqtisodiy hududi qabul qilingan standart ishtirokchilarining aloqadorligi bilan farqlanadi. Jami to'rtta asosiy darajaga: xaiqaro, davlatlararo, hududiy, milliy va korxonatashkilot darajalariga bo'linadi.

Standartlashtirish obyekti, jihatni va darjasasi standartlashtirish sohasini tashkil etadi. Uni uch o'lchamli to'g'riburchakli kordinata tizimlarida grafik shaklda tasvirlash mumkin (8.2-rasm).


## *Standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlarini optimallash-tirish*

– standartlashtirishning iqtisodiy, texnik, ijtimoiy samaralarini moddiy va mehnat sarflari hamda tabiiy boyliklar sarfi bilan nisbatini aniqlash, shuningdek, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish imkoniyatlarni xalq xo'jaligining va aholining ehtiyojlari bilan kelishtirish.

Standartda "Standartlashtirish sohasi", "Standartlashtirish darajasi", "Kompleks standartlashtirish", "Ilgarilanma standartlashtirish", "Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita", "Standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilot", "Asos bo'luvchi standart", "Bir xillashtirish" va b. atamalarning ta'riflari berilgan.

Odatda, xalqaro, mintaqaviy, milliy standartlashtirish idoralari mavjud.

**Xalqaro standartlashtirish** faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin.



8.2-rasm. Standartlashtirish sohulari.

**Mintaqaviy standartlashtirish** deganda dunyo miqyosida birgina geografik yoki iqtisodiy mintaqasiga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin holda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan standartlashtirish tushuniladi.

**Milliy standartlashtirish** – bu muayyan bir mamlakat doirasida o'tkaziladigan standartlashtirish faoliyati.

Standartlashtirish har xil faoliyat turlari va uning natijalariga daxldor qoidalar, umumiy qonun-qoidalar yoki tavsislarni o'zida qamrab olgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

*Me'yoriy hujjat* atamasi standartlar, texnikaviy shartlar, shuningdek, umumiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va qoidalar tushunchasini ham qamrab oladi.

Standartlashtirish maqsadlari ko'p qirrali bo'lib, ular, asosan, quyidagilardan iborat: bir xillashtirish (har xilikni boshqarish), qo'llanishlilik, moslashuvchanlik, o'zaro almashuvchanlik, sog'liqni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, tashqi muhitni asrash, mahsulotni himoyalash, o'zaro tushunishlikka erishish, savdodagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash va b.lor. Bir maqsad amalga oshishida bir vaqtida boshqa maqsadlar ham amalga oshishi mumkin.

*Standartlashtirishning ahamiyati va mohiyati.* Ixtiyoriy ixtisoslikdagi mutaxassis ish faoliyati jarayonida ko'plab takrorlanuvchi masalalarni hal etishga, ya'ni namunaviy hujjatlarni tuzish, namunaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish, takrorlanuvchi o'tchashlarni bajarish, turli qurilmalar, texnikaviy tizimlar yoki odamlar jamoalarini boshqarish bo'yicha bir xil smallardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu masalalarni hal etishning turli xil variantlari mavjud. Standartlashtirish masalalarini optimal hal etish, yana da to'g'riroq va iqtisodiy variantlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

*Standartlashtirish* – bu aniqlangan sohada tartiblashtirish darajasini maqbulligiga erishishga yo'naltirilgan, fan, texnika va iqtisodiyot nohalarida takrorlanuvchi masalalarni hal etilishini topishga xulosalovchi faoliyat.


Standartlashtirish obyekti ta'rifidan kelib chiqib, mahsulot (xomashyo, materiallar, detallar, buyumlar, qurilmalar), jarayonlar (turli xil operatsiyalarni bajarish usullari), atamalar, belgilashlar, xizmatlar va ishlar standartlashtirishning obyekti bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun standartlashtirish mohiyatini quyidagi shaklda bayon etish mumkin:

Standartlashtirish obyektini tanlash, ya'ni aniqlangan soha faoliyatini tahlil qilish va ko'p marotabali takrorlanuvchi obyektlarni aniqlashni qamrab oladi. Boshqa obyekt (alomat, xossa)lar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni aniqlash jarayonida standartlashtirish obyektni modellashtirish.

Optimal modelni standartlashtirish, ya'ni me'yoriy hujjatni ishlab chiqish. Aynan me'yoriy hujjat bevosita standartlashtirish natijasi bo'lib hisoblanadi. Me'yoriy hujjat bir vaqtning o'zida standartlashtirish vositasi ham bo'lishi mumkin. Uni umumiy va ko'p marotaba qo'llash va

kelgusidagi masalalarni hal etishda kutilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa samarani berishi mumkin:

Masalan, elektr va elektron qurilmalarning sxernalarini tuzishda yanada yaqqol va qulay belgilashni qo'ilash uchun namunaviy elementlari belgilanishi keltirilib, ularni shartli belgilash variantlari ishlab chiqilgan va me'yoriy hujjatlarda majburiy ravishda keltirilgan va tasdiqlangan (8.3-rasm).



8.3-rasm Rezistorni shartli belgilash evolyusiyasi.

### 8.3. Standartlashtirish va sifat

**Standartlashtirish haqiqiy mavjud** yoki **sodir bo'lishi mumkin bo'lgan** masalalarni yechishga, **sifat** esa belgilangan va mo'ljallangan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Bunda standartlashtirish bo'yicha faoliyatning eng muhim natijalari mahsulot (jarayonlar, xizmatlar)ning o'z vazifasiga muvofiqlik darajasini oshirish, ya'ni belgilangan va mo'ljallangan ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'ladi. "Me'yoriy hujjat" tarkibiga standartlar va texnik shartlar kiradi. Me'yoriy hujjatlar faoliyat turlariga oid tavsiflarni o'matadi.

Standartlashtirish obyekti bo'lmish inson faoliyati sohasi juda keng: fan va texnika; ishlab chiqarish, texnikaga mo'ljallangan mahsulotni va xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish; tibbiyot, ta'llim, maishiy, sayohat, transport va h. sohalardagi xizmatlardan iborat. Har qanday sohada ham faoliyat sifatiga talablar me'yoriy hujjatlarda belgilab quyiladi. Bunda nafaqat mavjud, balki mo'ljallangan vazifalarni hal etish, ya'ni nafaqat belgilangan, balki mo'ljallangan ehtiyojlarni ham qondirish ko'zda tutiladi.

Aytiganlardan ma'lum bo'lishicha, belgilangan va mo'ljallangan ehtiyojlarning qoniqarli bo'lishini ta'minlovchi mahsulot/xizmatlar tavsiflari majmui me'yoriy hujjatlarda belgilanar ekan. Shu sababli me'yoriy hujjatarning o'zini ham yuqori ilmiy-texnik darajada bo'lishini ta'minlash zarur. Bu masala quyidagi yo'l bilan hal etiladi:

- xalqaro, davlatiararo, hududiy standartlarni qo'llanish;
- mamlakatiiniz me'yoriy hujjatlarini xalqaro, hududiy standartlar bilan uyg'unlashtirish;

v) me'yoriy hujjatlarda an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlardan iigarilanuvchi, keljakka mo'ljallangan dastlabki talablarni o'matish (zuvchi, oldirdan standartlashtirish);

g) mahsulot xizmatlarning texnik saviyasini va ~~sifatini~~ oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish maqsadida me'yoriy hujjatlarning ayrim tafsilotlarini o'xshash mahsulotga xorijiy standartning ko'rsatkichlari bilan taqqoslash.

"Mahsulot sifatining darajasi" va "mahsulotning texnik saviyasi" tushunchalarini farqlash kerak.

*Mahsulot sifatining darajasi* – baholanadigan mahsulot sifat ko'rsatkichlarning qiyamatlarini mos ko'rsatkichlarning asos qiyamatlari bilan taqqoslashga asoslangan, mahsulot sifatining nisbiy tafsiloti,

*Mahsulotning texnik saviyasi* – baholanadigan mahsulotning texnik tukomillashganligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning qiyamatlarini mos ko'rsatkichlarning asos qiyamatlari bilan taqqoslashga asoslangan, mahsulot sifatining nisbiy tafsiloti.

Bir turdag'i mahsulot guruhlari sifat ko'rsatkichlarning nomenklaturasi iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari bo'yicha 320dan ortiq sifat ko'rsatkichlari tizimiga oid xalqaro standartlar – MSKT (to'rtinch'i tarmoqlararo tizim)da belgilangan. Qurilish materiallariga MSKTni belgilovchi qator O'zbekiston davlat standartlari tasdiqlangan.

Umumiy holda me'yoriy hujjatning ilmiy-texnikaviy darajasini nisbiy baholash lozim bo'lgan sifat ko'rsatkichlarning tafsilotlariga quyidagilar kiradi:

*1 Vazifa ko'rsatkichlari* – o'zi bajarishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni aniqlovchi mahsulot xossalarni tavsiflaydi va qo'llanish sohasini belgilaydi.

Vazifa kursatkichlari uchta kichik guruhg'a ajraladi:

a) vazifa va texnik samaradorlik ko'rsatkichlari: ish unumi; gazlamaning puxtaligi; oziq-ovqat mahsulotlarining kaloriyaliligi va b.

b) konstruksiya ko'rsatkichlari: gabarit o'lchamlari (eng katta tashqi o'lchamlari); yig'ish koeffitsiyenti (bloklik koeffitsiyenti); o'zar olnashinuvchanlik koeffitsiyenti va b.;

v) tarkib va tuzilma ko'rsatkichlari: po'latda legirlovchi qo'shimchalarning foiz miqdori; kislotalarda turli aralashmalar konsentrasiyasi; gazlamada sintetik tolalar miqdori; oziq-ovqat mahsulotlarida foydali moddalar miqdori va b.

## *2 Puxtalik ko'rsatkichlari*

a) *buzilmay ishlash* – obyektning ma'lum vaqt davornida yoki ma'lum hajmdagi ishni bajarish davrida o'zining ish imkoniyatini uzlusiz saqlash xususiyatini tavsiflaydi.

Buzilmay ishlashlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: *buzilmay ishslashlik ehtimoli; buzilish jadaliig; buzilishgacha bajargan o'rtacha ish hajmi; buzilishgacha bajargan gamma-foiz ish hajmi va b.*

b) *Ko'pga chidamlilik* (umrboqiylik) – obyektning belgilangan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tizimida chekka holatga kelguncha o'zining ish qobiliyatini saqlash xususiyatini tavsiflaydi.

Ko'pga chidamlilik ko'rsatkichlari: o'rtacha ish resursi; belgilangan ish resursi; gamma-foiz resursi; resurs va b.

v) *ta'mirga yaroqlilik* – obyektning buzilishlarni oldiri olishga va buzilish sabablarini aniqlashga hamda ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish yo'li bilan buzilish oqibatlarini bartaras etishga moslanganlik xususiyatlarini tavsiflaydi.

Ta'mirga yaroqlilik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: ish qobiliyatini tiklash ehtimolligi; ish qobiliyatini tiklashga sarflanadigan o'rtacha vaqt va b.;

Tiklanuvchanlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: sifat ko'rsatkichining belgilangan qiymatigacha tiklash o'rtacha vakti; tiklash darajasi (tiklangandan keyin sifat ko'rsatkichi qiymatining ushbu sifat ko'rsatkichining belgilangan yoki boshlang'ich qiymatiga nisbati) va b.

g) *saqlanuvchanlik* – obyektning tuzuklik va ishga qobiliyatliik holatini yoki mahsulotning iste'mol kilishga yaroqlilik holatini saqlash davomida va saqlashdan keyin va/yoki tashishdan keyin saqlash xususiyatini tavsiflaydi.

Saqlanuvchanlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: saqlanuvchanlikning o'rtacha muddati; saqlanuvchanlikning gamma-foiz muddati va b.

3. *Boyliklar (resurslar)ni tejash ko'rsatkichlari* – mahsulotning xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiyani va foydalanish (iste'mol qilish)da mehnat resurslarini talab etishi darajasi bo'yicha uning texnik mukammalligini aks ettiruvchi xossalalarini tavsiflaydi.

Boyliklarni tejash ko'rsatkichlari uchta kichik guruhga ajraladi:

a) xomashyo va materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish ko'rsatkichlari, jumladan, xomashyoning solishtirma sarfi; materiallarning solishtirma sarfi; belgilangan sharoitlarda xomashyoning nobud bo'lishi; belgilangan (reglamentlangan) sharoitlarda materiallarning nobud bo'lishi va b.

b) energiya iste'molining tejamlilik ko'rsatkichlari, jumladan, yoqilg'ining solishtirma sarfi; energiya (energiya tashuvchi)ning solishtirma sarfi; foydali ish koeffitsiyenti va b.

Energiyadan tejamli foydalanish ko'rsatkichlari sifatida, odatda, solishtirma ko'rsatkichlardan, ya'ni sarflanadigan energiya va yoki yoqilg'ining ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilgan foydali ish hajmiga (ish birligiga) nisbatidan foydalaniadi.

v) mehnat resurslaridan tejamli foydalanish ko'rsatkichlari: mahsulotdan foydalanganda (iste'mol qilinganda) umumiy mehnat sarfi; mahsulotdan foydalanganda (iste'mol qilganda) asosiy ko'rsatkich birligiga solishtirma mehnat sarfi va b.

Xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va mehnat resurslaridan tejamli foydalanishni tavsiflovchi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar sifatida mahsulotni ishlab chiqish, tayyorlash va foydalanish (iste'mol qilish)dagi mafz-xarajatlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar qo'llanishi mumkin.

**4. Ergonomik ko'rsatkichlar** – “inson – buyum” (jumladan, “inson – mashina”) tizimini tavsiflaydi va inson hayotida sodir bo‘ladigan gigiyenik, antropometrik, fiziologik va psixologik xususiyatlar majmuini hisobga oladi

Ergonomik ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: shovqin darajasi; yorug'lik darajasi; xarorat darajasi; mahsulot konstruksiyasining insonning tezlik imkoniyatlariga muvofiqligi; mahsulot konstruksiyasining insonning kuch imkoniyatlariga muvofiqligi va b.

**5. Estetik ko'rsatkichlar** – axborotning ma'nолиги, shaklning maqbulligi, tuzilish (kompozisiya)ning butligi va mukammal tayyorlananligi bilan tavsiflanadi va quyidagi ko'rsatkichlardan iborat: asl nusxaligi; uslubiy muvofiqligi; modaga muvofiqligi; vazifasi-konstruksiysi jihatdan moslanganligi; hajmiy-fazoviy tuzilmaning tartibliliqi; kolorit; sirtning puxta qoplanganligi va bezatilganligi; firma belgilari, ko'rsatkichlari, o'ramlari va b.ning aniq va puxta bajarilganligi va b.

**6. Texnologiklik** – mahsulot tarkibi va tuzilmasini yoki konstruksiya-sining ishlab chiqarishda, foydalanishda va sifat ko'rsatkichlarini, ishlab chiqarish va ishlarni bajarish sharoitlarini tiklashda xarajatlar-ning eng kam bo'lishini ta'minlay oladigan xossalalarini tavsiflaydi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi: mahsulotni tayyorlashdagi solishtirma mehnat sarfi; materialning solishtirma sarfi; energiyaning solishtirma sarfi; ushbu turdagji texnik xizmat ko'rsatish (ta'mir)ning bir martalik o'rtacha mehnat sarfi.

**7. Tashishga moslanganligi** – mahsulotning ochiq joyda ko'chishga (tashishga), ya'ni mahsulotdan foydalanish (iste'mol qilish) bilan bog'liq, bo'lmagan harakatlarga moslanganligini tavsiflaydi.

Tashishga moslanganlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: mahsulotni tashishga tayyorlash o'rtacha vaqt; mahsulotni tashishga tayyorlashda o'rtacha mehnat sarfi; mahsulotni ma'lum turdag'i tashish vositasiga ortishda o'rtacha vaqt sarfi; mahsulotni ma'lum turdag'i tashish vositasidan tushirishda o'rtacha vaqt sarfi; tashish vositasining sig'imidan foydalanish koeffitsiyenti.

**8. Standartlashtirish va bir xillashtirish ko'rsatkichlar** – mahsulotning standart, bir xillashtirilgan va original tarkibiy qismlar bilan boyitilganligini, shuningdek, boshqa buyurnlar bilan bir xillashtirilish darajasini ifodalaydi.

Standartlashtirish va bir xillashtirish ko'rsatkichlariga: qo'llanuvchanlik; takrorlanuvchanlik; bir xillashtirilish koeffitsiyentlari va b. kiradi.

**9. Patent-huquqiy ko'rsatkichlar** – mahsulotda foydalanilgan texnik yechimlarning yangilanganlik darajasini, ularning patent bilan himoyalanganligini, shuningdek, mamlakat ichida va xorijda xaridga to'siqsiz qo'yish imkonini tavsiflaydi.

Patent-huquqiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: patent bilan himoyalanganlik ko'rsatkichi; patent tozaligi ko'rsatkichi va b.

**10. Ekologik ko'rsatkichlar** – mahsulotdan foydalanganda yoki iste'mol qilganda sodir bo'ladigar atrof-muhitga zararli ta'sir darajasini tavsiflaydi. Bu ko'rsatkichlarni tanlash va aniqlashda atrof-muhitni muhofazalash talablari hisobga olinadi.

Ekologik ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: atrof-muhitga chiqarib yuboriladigan zararli aralashmalarning ruhsat etilgan miqdori; mahsulotni saqlash, tashish, ishlatish yoki iste'mol qilishda atrof-muhitga zararli zarrachalar, gazlar, nurlanishlarni chiqarib yuborishi ehtiymolligi va b.

**11. Xavfsizlik ko'rsatkichlar** – mahsulotning ishlatishda (iste'mol qilishda) inson hayotiga, sog'ligiga va mulkiga, atrof-muhitga xavfsizligi xossalarni va xususiyatlarini tavsiflaydi.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari O'zRH 51-010:1998ga asosan mahsulot turlari bo'yicha shakllantiriladi, masalan, elektrotexnik jixozlar va buyumlarning xavfsizlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: elektr tokidan shikastlanishdan saqlanish klassi; boshqarish, xizmat ko'rsatish, ekspluatatsiya qilishda mehnatning xavfsizligi; izolyasiyanı doimiy tekshiruvchi qurilmaning mavjudligi; shovqin darajasi; ozet oksidlari, karbon (uglerod) va b.ni atrof-muhitga chiqarib yuboriladigan solishtirma miqdori.

Sut va sut inahsulotlari uchen: kislotalilik; mikrobiologik ko'rsatkichlar; pestisidlar, og'ir metallar, aflatoksinlar va b.ning qoldiq miqdori.

Demak, MSKT standartlarida ko'rsatilgan mahsulot tavsiflari majmui va O'zbekiston me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan rioya qilish majburiy bo'lgan talablar majmui mahsulot sifatiini tashkil etadi va standartlashtirish bilan ta'minlanadi.

#### **8.4. Standartlashtirish vazifasining mohiyati va tamoyillari**

Bozor iqtisodiyoti sharotida standartlashtirish uchta: iqtisodiy, ijtimoiy va kommunikativ vazifani bajaradi.

*Iqtisodiy vazifasi* barcha qiziquvchi tomonlarga aniq va qulay shaklda mahsulet to'g'rsidagi ishonchili ma'lumotlarni olishga imkon beradi. Kontrakt shartlarida standartga ilova qilinishi kafolatlangan sifat standartiariga muvofiq mahsulotlarni yetkazib berishiga majbur etadi. Sinash usullarini standartlashtirish mahsulotning raqobatbardoshigini baholashda muhim bo'lgan mahsulotning solishtirilayotgan tavsiflarini olishga imkon beradi.

*Ijtimoiy vazifasi* standartlashtirish obyektiining sifat ko'rsatkichlarini standartlar talablariga, ya'ni mehnatoi muhofazalash va sanitار-gigiyenik me'yorlar yordamida kiritishdan iborat.

*Aloqa uchun vazifasi* jamiyatdagi axborotlar almashinuvida o'zaro tushunchalarga erishish bilan aloqadordir. Buning uchun standartlashtirilgan atamalar, tushunchalarni sharhlash, simvollar, ish yuritishda yagona qoidalar lozim bo'ladi.

Standartlashtirish faoliyatini quyidagi uchta ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar ni bajarishga yo'naltirilgan:

1) ilmiy-texnikaviy ijodiy mehnat jarayonida yaratilayotgan obyektlarni (mahsulotlar, ishlar va xizmatlarni) tartiblashtirish;

2) standartlashtirish bo'yicha hujjatlarda optimal tashkiliy-texnikaviy, umumtexnikaviy, texnik va texnik-iqtisodiy talablar aniqlash;

3) standartlashtirish bo'yicha hujjatlarda aniqlangan optimal talablarga rioya qilish va ixtiyoriy bajarish.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tanolingga eng muhim yo'nalishdagi ishlar sifatida xavfsizlik va ekologiya, axborot texnologiyalari, resurslar tejamkorligi hamda mahsulot sifatini me'yoriy ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

Standartlashtirishning namunaviy vazifasi quyidagidan iborat. Bir qator masalalar (narsalar yoki jarayenlar) mavjud (yoki bo'lishi mumkin) bular shartli ravishda A, B, C, D, E,... bo'lsin. Faoliyat davomida bularidan bir qanchasi qaytariladi, ya'ni A, B, C, B, D, E, B, G, J, B .... Qaytarilayotganlar ichida variantlar mavjud: A, B<sub>1</sub>, C, B<sub>2</sub>, D, E, B<sub>3</sub>, G, J,

$B_4 \dots$  Bu variantiardan ilmiy tahlil asosida optimali tanlanadi (yoki yaratiladi) va standart ko'rinishida rasmiylashtiriladi:  $B_1, B_2, B_3, B_4 \dots > B_3 = \text{opt} = \text{const}$ . Standartlashtirishning namunaviy vazifasini sxema ko'rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (8.4-rasm):

Shunday qilib, standartlashtirish qayerda qaytariladigan vazifalar bo'lsa, uni bajarish variantlari mavjud bo'lsa, o'sha yerda paydo bo'ladi. Standartlashtirish faoliyatining eng muhim yakuniy natijasi standartlashtirish obyektlarining maqsadli yoki vazifaviy qo'llanilishini; savdoda texnik to'siqlarni bartaraf qilishni; ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni va hamkorlikni oshirish bo'lib hisoblanadi.

*Standartlashtirishning asosiy ramoyillariga* quyidagilar kiritiladi:

–me'yoriy hujjatlarni ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy zarurati va maqbulligini inobatga olgan holda ularni ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi;

– obyektlarga quyiladigan talablarni kelishib olish va me'yoriy hujjatlarni amalga joriy etish muddatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan metrologik ta'minlashni qo'shib hisoblab o'zaro bog'langan obyektlarni standartlashtirishning kompleksligi;

–me'yoriy hujjatlarni fan va texnikani hozirgi zamon yutuqlariga, ilg'or tajribaga, qonun hujjalari muvofiqligini ta'minlash;


–standartlashtirishning hamma bosqichlarida me'yoriy hujjatlarni o'zaro bog'liqligini va kelishilganligi, boshqarishning barcha pog'onalarida ularni o'xshash obyektlari uchun qaytadan ishlab chiqilmasligi;

–amaldagi me'yoriy hujjatlar, standartlashtirish bo'yicha dasturlar va ish rejalari to'g'risidagi axborotlarni oshkoraliligi;

–ko'pchilik daxldor tomenlarning kelishuviga erishish asosida me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

–me'yoriy hujjatlarning sertifikatlashtirish maqsadlari uchun yaroqliligi;

–standartlashtirish sohasida zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalarni qo'llash va hakozo.



8.4-rasm. Standartlashtirishning namunaviy vazifasini masalalari ketma-ketlizi.

### Nazorat savollari

1. Standartlashtirishning qisqa tarixini izohlang.
2. Markaziy Osiyo mamlakatlarda standartlashtirish jarayonini ta'riflang?
3. O'zbekistonda standartlashtirish bosqichlarini izohlang?
4. Standartlashtirishni jadallashtiruvchi omillar haqida nimalar deya olasiz?
5. "Standartlashtirish", "Standart" atamalarini izohlab bering.
6. Standartlashtirish obyekti nima va ularga misollar keltiring?
7. Standartlashtirish sohalarini tushuntiring.
8. Nechta sifat ko'rsatkichlari mayjud va ularning qaysi birlari asosiy hisoblanadi?
9. "Mahsulot sifatining darajasi" va "Mahsulotning texnik miyosi" tushunchalarini qanday farqlaysiz?
10. Ishonchliik qanday sifat ko'rsatkichi va nechta asosiy elementlarni o'z ichiga oladi?
11. "Saqlanuvchanlik" va "Ta'mirlanuvchanlik"ni izohlang.
12. Standartlashtirishning mohiyati va tamoyillarini tushuntiring.
13. Standartiashtirishning namunaviy vazifasini sharhlang.

# **IX BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STANDARTLASHTIRISH TIZIMI**

## **9.1. Standartlashtirishning maqsadi va vazifalari**

*Standartlashtirishning asosiy maqsadlari* quyidagilardan iborat:

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning (keyingi o'rinnarida mahsulotlar deb yuritiladi) aholining hayoti, salomatligi va mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligi, resursiarni tejash masalalarida iste'molchilarning va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- mahsulotlarning o'zaro bir-birining o'mini bosishini va bir-biriga monandligini ta'minlash;
- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek, aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq mahsulotlarning sifati hamda raqobatbardoshligini oshirish;
- resurslarning barcha turlarini tejashga, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;
- tabiiy va texnogen falokatlar, boshqa favqulotda vaziyatlar yuzaga kelishini, xavf-xatarni hisobga olgan holda xalq xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini ta'minlash;
- iste'molchilarни ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va sifati to'g'risidagi to'liq va ishonarli axborot bilan ta'minlash;
- mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorlarligini ta'minlash;
- o'ichovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash;
- ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijro etuvchi) ma'lum qilgan mahsulot sifati to'g'risidagi ko'rsatkichlarni tasdiqlash.

*Standartlashtirishning asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat:

- iste'molchi va davlatning manfaati yo'lida mahsulotning sifati va nomenklurasiga nisbatan eng maqbul talablarini qo'yish;
- Davlat, Respublika fuqarolari va chet el ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarini belgilovchi me'yoriy hujjatlar tizimini va uni ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek, hujjatlardan nazorat qilish;
- standart talablarining sanoati rivojlangan chet mamlakatlarning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlari talabari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

- bir-biriga mosliligining barcha (konstruktiv, elektrik, elektromagnitli, informasiyoning, dasturli va boshqalar) turlarini, shuningdek, mahsulotning o'zaro almashinuvchanligini ta'minlash;
- ko'rsatkich va turlar o'lichevi qatorlarini, tayanch konstruksiyalarni, buyumlarning konstruktiv jihatdan bir xil qilingan modullashgan bloki tarkibiy qismlarini aniqlash va qo'llash asosida bir xillashtirish;
- mahsulot, uning tarkibiy qismlari, buyumlari, xomashyo va materiallar ko'rsatkichlari va tavsiflarining kelishib olinishi va bog'lanishi;
- material va energiya sig'imini kamaytirish, chiqindini kamchiqaruvchi texnologiyalarni qo'llash;
- mahsulotning ergonomik xossalariiga talablarning belgilanishi;
- metrologik me'yor, qoida, nizom va talablarning belgilanishi;
- standartlashtirish bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanishni keng rivojlanatirish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;
- xorijiy mamlakatlarning talablari O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirgan hollarda ularning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlarini hamda mamlakat standartlari, texnikaviy shartlari tariqasida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash tajribasini kengaytirish;
- texnologik jarayonlarga talablarni belgilash;
- mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik qilish yuzasidan ishlarni tashkil qilish;
- texnik-iqtisodiy axborotni tasniflash va kodlash tizimini yaratish, joriy qilish;
- sinovlarni me'yoriy-texnika jihatidan ta'minlash, mahsulot sifatini sertifikatlashtirish, baholash va nazorat qilish.

## 9.2. Standartlashtirishning qonuniy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish to'g'risida" (1992-yil mart) qarori bilan belgilangan standartlashtirishning tashkiliy asoslari va O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida" Qonuni bilan qonunlashtirilgan. Qonun 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan, 1994-yil 28-fevralda ommaviy axborot vositalarida chop etilgan va shu kundan boshlab kuchga kirgan. 2009-yilda esa standartlashtirish faoliyatini bilan bog'liq bo'lgan "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan.

“Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonunda standartlashtirishning asosiy maqsadlari belgilangan:

- iste’molchilar va davlatning mahsulot/xizmatlarning aholi hayoti, sog‘ligi va mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligi masalalari bo‘yicha manfaatlarini himoya qilish;
- mahsulotning o‘zaro almashinuvchanligi va mos keluvchanligini ta’minlash;
- mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- barcha turdagи boyliklarning tejalishiga ko‘maklashish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;
- təbiiy va texnogen halokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarning sodir bo‘lishi ehtimolini hisobga olgan holda, xalq xo‘jaligi obyektlarining xavfsizligini ta’minlash;
- o‘lchashlarning birliligini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida” qonunida belgilanganki, respublikada standartlashtirish bo‘yicha ishlarni o‘tkazish umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini belgilovchi O‘zSDT faoliyat ko‘rsatadi. Bu qoidalarning o‘zi “O‘zstandart” agentligi tomonidan o‘matiladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi (qurilish, qurilish industriyasi, shu jumladan, loyihalash va konstruksiyalash sohasida), O‘zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi (tabiiy boyliklardan foydalanish va atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta’sirlardan saqlash sohasida), O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi (tibbiyotga mo‘ljallangan mahsulotlar, tibbiyot texnikasi buyumlari, dori-darmonlar sohasida, shuningdek, respublikada chiqariladigan va import bo‘yicha keltiriladigai mahsulotda inson uchun xavfli aralashmalar borligini aniqlash masaialari bo‘yicha) o‘zining vakolati doirasida standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish, muvofiqlashtirish va ta’minlash ishlarni olib boradi. Respublikada qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar ro‘yxati keltirilgan: xalqaro (davlatlararo, hududiy) standartlar; O‘zbekiston davlat standartlari; tarmoqlar standartlari; texnik shartlar; ma’muriy-hududiy standartlar; korxonalarning standartlari; xorijiy mainlakatlarning milliy standartlari.

Standartlashtirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, standartlashtirish bo‘yicha qoidalar, me’yorlar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlar tasnidflagichlari ham kiradi.

Xalqaro (davlatlararo, hududiy), xorijiy me'yoriy hujjatlar "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda qo'llaniladi. Yagona va uzlusiz ta'lim davlat tizimida davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar mamlakatimiz va xorijiy fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslanishi va xalqaro savdo uchun ortiqcha to'siqlar paydo qilmasligi lozim. Raqobatbardosh-likni ta'minlash uchun o'zuvchi (oldindan tuzilgan) standartlar yaratilishi mumkin.

Mahsulotni me'yoriy hujjatlarsiz ishlab chiqarish va xaridga qo'yish man etiladi.

Mahsulotning aholi hayoti, sog'ligi, mulkiga xavfsizligini ta'minlaydigan me'yoriy hujjatlarning talablari, mahsulotning mos keluvchanligi va o'zaro almashinuvchanligini, bularni tekshirish usullarining bir xilligini va bir xil tamg'alanishini ta'minlash uchun riosa qilinishi shart.

Standartlar va o'lchashlar birlilagini ta'minlash ustidan davlat nazorati idoralari, obyektlari va subyektlari, davlat nazoratini bajaruvchi davlat inspektorlarining huquqlari va mas'ulligi, shuningdek, davlat nazorati subyektlarining va bularga rahbar shaxslarning standartlashtirish to'g'risida qonuntlarni buzganligi uchun, shuningdek, standartlardagi majburiy talablarni buzganligi uchun javobgarliklari belgilangan.

Davlat nazorati idoralariga quyidagi huquqlar berilgan:

- aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatma berish;
- jarima solish;
- tadbirkor subyektlarning lavozimli shaxslarini ma'muriy javobgarlikka tortish;
- tekshirilgan mahsulotni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki xaridga qo'yish (yetkazib berish, sotish)ni, foydalanish (ekspluatatsiya qilish)ni to'xtatish;
- standartlarning majburiy talablariga mos kelmaydigan va davlat ruyxatidan o'tmagan import mahsulotning xaridga qo'yilishini taqiqlash;
- mahsulotni ishlab chiqarish yoki xaridga qo'yishni (yetkazib berish, sotishni) taqiqlash to'g'risidagi davlat inspektorining ko'rsatmasini buzganligi uchun jarima yozish.

Jarima sud tononidan belgilanadi, agar tadbirkor subyekt qoidani buzganlikdagi aybini o'z bo'yniga olsa va jarimani o'z ixtiyori bilan to'lashga rozi bo'lsa, bu to'g'rida qaror davnazorat idoralari tomonidan qabul qilinadi.

O'zbekisyun Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-noyabrdagi №235-qarori bilan Davlat nazorati to'g'risidagi Nizomga jarimaga tortish qismida o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan (Nizom 1994-yil 12-avgustdagи № 410-hukumat qarori bilan tasdiqlangan).

a) 4-modda beshinchи abzas quyidagicha tahrirda bayon etiladi:

"xo'jalik faoliyatini yurituvchi subyektlarga nisbatan standartlarning majburiy talablarini buzganligi uchun, lavozimli shaxslarga ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin yil davomida takror buzilishga yo'l qo'yganligi uchun xaridga chiqarilgan mahsulot narxining 50 % miqdorida jarimalarni qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish";

b) quyidagi mazmunda 9-moddaga qo'shimcha kiritilsin:

"9. Xo'jalik faoliyati subyektining oxirgi hisobot sanasida joriy aktivlarining sunimasidan 20 %dan ortiq jarimalarni undirish qaror qabul qilingan kundan boshlab 6 oyga har oyda to'lash sharti bilan cho'zilishi mumkin"

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ishlар ro'yxati belgilangan:

– xalqaro, davlatlararo, hududiy me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish yoki qatnashish;

– standartlashtirishning muayyan obyektlari bo'yicha qonun hujjatlarining loyihalarni ishlab chiqish;

– asos bo'luvchi tashkiliy-usulbiy va umum texnikaviy me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va uning ishlashini ta'minlash;

– texnik-iqtisodiy axborot tasniflagichlarini ishlab chiqish, bular to'g'risida rasmiy axborot tayyorlash va chop etish, shuningdek, barcha foydalanuvchilarga tarqatish;

– umum davlat ahaniyatidagi ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni bajarish;

– standartlarning majburiy talablariga rivoja qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– me'yoriy hujjatlar davlat jamg'arnasini shakllantirish va olib borish. Standartlarni, mahsulot va xizmatlar katalogini belgilangan tartibda xaridga qo'yishdan olingan mablag'lar, shuningdek, standartlashtirish to'g'risidagi qonunlarni buzganligi uchun jarimaga tortishdan olingan mablag'larning bir qismi ham moliyalash manbalari bo'lishi mumkin.

Davlat hyudjeti mablag'laridan moliyalashtiriladigan davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulot sifatini me'yoriy ta'minlash bo'limlari nazarda tutilishi lozim.

Muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot chiqaruvchi korxonalarini, shuningdek, an'anaviy texnologiya imkoniyatlariden

o'zuvchi, istiqbolga mə'ljallangan talabiar standarti bo'yicha mahsulot ishlab chiqargani uchun iqtisodiy yordam va rag'batlantirish davlat kafolati Qonunda ko'zda tutilgan.

### **9.3. Standartlashtirish tizimining tashkiliy va huquqiy asosi**

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 2-martdagи 93-sorli "O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish to'g'risida" qarorining mohiyati.* Mustaqillik qo'lga kiritilgach, olti oy o'tib, Vazirlar Mahkamasida yuqorida qayd etilgan qaror qabul qilindi.

Qarorda belgilanishicha, standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish "O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qilish munosabati bilan standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish respublika milliy tizimini yaratish zarurligidan kelib chiqqan holda, shuningdek, MDH davlatlari o'itasida xo'jalik, savdo, ilmiy-texnikaviy va boshqa munosabatlarni saqlash, jahon mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikda texnik to'siqlarni bartaraft etish maqsadida" faoliyat olib borilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sobiq ittifoq Davstandarti tashkilotlari va muassasalarini birlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi huzurida O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish davlat markazi (O'zdavstandart) tashkil etildi va unga standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha respublika milliy idorasi vazifalari yuklatildi. O'zdavstandart, shuningdek, sobiq ittifoq Davstandartning O'zbekistondagi vorisi deb belgilandi.

O'zdavstandart tarkibiga quyidagilar kiritildi:

a) Sobiq ittifoq Davstandartning Butunittifoq malaka oshirish institutining Sharq filiali O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini beshqarish sohasidagi tadqiqotlar va mutaxassislar tayyorlash instituti (O'zTMTI)ga aylantirilgan holda O'rta Osiyo tarixida birinchi bo'lib, O'zbekistonda standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlari bo'yicha himniy tashkilot yaratildi;

b) "Etalon" O'zbekiston ishlab chiqarish birlashmasi (O'zIB)ning O'zbekiston hududidagi filiallari va sexlari bilan birgalikda O'zdavstandart tarkibiga uslubiy ishlar bo'yicha kiritildi, ma'muriy jihatdan esa, O'zeltexsanoat assotsiatsiyasiga kiritildi;

- c) Toshkent 2-sonli “Standartlar” do‘konisi;
- d) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Qo‘qon va Chirchiq standartlashtirish va metrologiya markazlari ularni standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish hududiy markazlariga (SMSHM) qayta o‘zgartirish yo‘li bilan kiritildi.

O‘zdavstandart idoralarini ishlab chiqarishga yaqinlashtirish maqsadida SMSHM joylarda tashkil etildi. Jumladan, keyingi yiilarda Olmaliq, Bekobod va Toshkent SMSHM tashkil etildi.

Qarorda respublikamizda qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar ro‘yxati belgilandi, O‘zbekiston standartlashtirish davlat tizimi (O‘zSDT)ning standartlashtirishning asosiy maqsadlarini beigilovchi standartlashtirish idoralari va xizmatlari va ularning vazifalari aniqlandi; me’yoriy hujjatlardagi majburiy va tavsiya etiladigan talablarni belgilovchi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga korxonaning standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash huquqini beruvchi asosiy tamoyillar tasdiqlandi.

“O‘zdavstandart to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Uning asosiy vazifasi mamlakatimiz mahsulotining sifati va raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston standartlashtirish davlat tizimi (O‘zSDT), O‘lchashlar birliligini ta’minalash davlat tizimi (O‘zO‘DT), sertifikatlashtirish milliy tizimi (O‘zSMT)ning ishlashi va takomillanishini ta’minalashdan iborat.

O‘zdavstandartga mahsulotning texnik darajasini va sifatini oshirishga ko‘maklashmaydigan va iste’molchilarning talablariga hamda amaldagi qonunlarga zid keladigan me’yoriy hujjatlarni bekor qilish, amal qilish muddatini qisqartirish yoki qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida bajarilishi majburiy qarorlarni qabul qilish huquqi berilgan.

Shunday qilib, O‘zdavstandart va uning hududiy idoralari, me’yoriy hujjatlarga rioya qilish ustidan davlat nazoratini o‘tkazish bilan bir vaqtda barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarga mahsulotning sifatini va raqobatbardoshligini oshirishda usulbiy va amaliy yordam ko‘rsatishga chaqirilgan.

*Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 3-oktabrdagi 342-sonli “Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining mohiyati.* Qarordagi asosiy vazifa – xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni takomillashtirish, shuningdek, xalqaro standartlardan keng foydalanish asosida mamlakatimiz mahsulotining sifatini ta’minalash va raqobatbardoshligini oshirish belgilangan. Shu maqsadda mahsulet va

xizmatlarni, bunga yaqin sohalarni ham standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni boshqarish tubdan qayta tashkillashtirildi.

“O‘zdavstandart” O‘zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi – “O‘zstandart” agentligiga o‘zgartirildi va unga “O‘zdavstandart”ning huquq va majburiyatlarini yuklatildi. Qarorda “O‘zstandart” agentligining, uning hududiy idoralarining tashkiliy tuzilmalari, shuningdek, agentlik to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish hududiy markazlari (SMSHM) asosida standartlashtirish va metrologiya hududiy boshqarmalari (SMB) hamda sinov va sertifikatlashtirish hududiy markazlari (SSM) tashkil etildi. Agentlik huzurida ishlarning yo‘nalishlari bo‘yicha kollegiya, boshqarma va bo‘limlar tuzilgan. Hududiy boshqarmalarda: standartlashtirish; akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralarini va sinov laboratoriyalarini tekshirish; o‘lchash vositalari ustidan metrologik nazorat va tekshiruv; standartlar ustidan davlat nazorati; alkogol mahsulotlar sifati bo‘yicha inspektorlar bo‘limlari tashkil etilgan.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha Mahkamalararo kengash tashkil etilgan. Bunga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

- ustuvor yo‘nalishlarni ariqlash va standartlashtirish; metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida qonun va me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni tashkil qilish;

- standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va yaratish kompleks dasturlarini ishlab chiqish va hukumatga taqdim etish;

- standartlashtirish bo‘yicha tarmoq texnik qo‘mitalarining faoliyatini muvofiqlashtirish.

“O‘zstandart” agentligi qoshida maxsus jamg‘arma tuzilgan. Bu jamg‘arma xo‘jalik yurituvchi subyektlardan standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi qonunlarni buzganligi uchun undiriladigan jarimalar; standartlashtirish idoralarini va sinov laboratoriyalarini akkreditlash uchun olinadigan to‘lovlar; metrologik xizmat ko‘rsatiqanligi uchun keladigan pul mablag‘lari; Respublika sinash va sertifikatlashtirish markazi va uning tarkibiga kirgan akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralarini va sinov laboratoriyalarning daromadlari hisobiga shakllantiriladi.

“O‘zstandart” agentligining asosiy vazifalari, ishlari va huquqlari O‘zdavstandartning huquqiy meroxsxo‘ri sifatida ilgaridek saqlanadi. Sertifikatlashtirish, shtrixli kodlash tizimini joriy etish bo‘yicha ishlar kengaytirildi.

“O‘zstandart” agentligiga quyidagi huquqlar berilgan:

- davlat idoralari va xo‘jalik boshqarmalari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, qo‘shma xorijiy sheriklar rahbarlarining agentlik vakolatidagi masalalar bo‘yicha hisobotlarni Mahkamalarero kengash majlisida eshitish;
- yuridik shaxslar birlashmalaridan standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar va tayanch tashkilotlar tuzishni talab etish;
- nashriyotchilik faoliyatini amalga oshirish va b.lar.

*Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-avgustdagи 373-sonii “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O‘zbekiston agentligi tuzilmasini takomillashtirish va faoliyatini tashkillashtirish to‘g‘risida” qarorini qabul qildi.* Qaror “O‘zstandart” agentligining asosiy vazifalari saqlangan holda uning tuzilmasini takomillashtirish va faoliyatni tashkillashtirishga yo‘naltirilgan. Axborot-ma’lumotnomma markazi tuzildi, xalqaro aloqalar’ bo‘limi sektorga aylantirildi, axborot texnologiyalarini joriy etish va sifat tizimini joriy etish bo‘limlari tugatilib, ularning ishlari tegishli boshqarmalarga berildi. Moliya-iqtisod bo‘limi boshqarmaga aylantirildi.

Standartlashtirish va metrologiya boshqarmalarida standartlashtirish va standartlar ustidan davlat nazorati bo‘limlari birlashtirildi. Maxsus jamg‘arma mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari kengaytirildi: standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditlash bo‘yicha xalqaro va hududiy tashkilotlar bilan hamkorlik tadbirlariga va bu tashkilotlarga a’zolik badallarini to‘lash; kadrlar tayyorlash; asosiy fondlarni kapital ta’mirlash; davlat nazorati va b.lar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish to‘g‘risida”gi 1992-yil 2-martdagи 93-sonli qaroriga va Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-apreldagi “Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 122-sun qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish “O‘zstandart” agentligi standartlashtirish bo‘yicha Milliy idora hisoblanadi (9.1-rasm).

“O‘zstandart” agentligi tarkibida standartlashtirish va mintaqaviy siyosat bo‘yicha boshqarma mavjud. Boshqarma xalqaro, mintaqaviy,

xorijiy - barcha miqyoslarda ma'lumot bilan ta'minlash me'yoriy hujjatlar Davlat jamg'armasini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash va ro'yxatga olishdan oldin ekspertizadan o'tkazadi; vazirlik, muassasa, tashkilot, korxona, birlashmalar bilan "O'zstandart" agentligi boshqarmalari, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengash va Evroosiyo ittifoqi bilan ish olib boradi.

2001-yildan Davlat unitar korxonasi O'zbekiston Respublikasi milliy etalon markazi faoliyat ko'rsata boshladi. "O'zstandart" agentligi huzurida shtrix kodlash markazi, respublika va mintaqaviy sifat mahkamalari va boshqalar ishlab turibdi. Respublikada standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish, muvofiqlashtirish va ta'minlash Davlat idoralari va iqtisodiy soha bo'yicha korxonalar birlashuvi tomonidan amalga oshiriladi. Vazirlik, muassasa, birlashma va korxonalar sohalarda standartlashtirish bo'yicha ishlarni o'zlarining vakolati doirasida olib boradilar.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 342-qarorini bajarish yo'lida "O'zstandart" o'zining viloyat boshqarmalarini (SMSHM) tuzib, ularning ishlariiga har taraflama ko'mak ko'rsatmoqda. Respublikadagi sinov laboratoriyalarini akkreditlash ishlari jadal qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Farg'on'a, Qo'qon, Qarshi, Buxoro, Samarkand shaharlaridagi sinev laboratoriyalari akkreditlanib, hozirda ular turli sinov amallarini o'tkazmoqdalar. Faqat Farg'onadagi sinov laboratoriyasida o'tkazilgan sinovlar natijasiga ko'ra "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi, Quvasoy chinni zavodi, Rishton kulolchilik mahsulotlari zavodi, "Quvamebel" ishlab chiqarish birlashmasi mahsulotlari muvofiqlik sertifikatini olishga sazovor bo'ldilar (9.2-rasm). Ularning tarkibi va tashkiliy tarkiblari rivojlanish jarayonida takomillashib boradi.


"O'zstandart" agentligi tarkibidagi oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tekshiruvchi sinov laboratoriysi akkreditlangan laboratoriyalardan hisobianib, shu kungacha ko'pgina muayyan turdag'i mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati berildi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida ilmiytadqiqot ishlari ham o'z yo'naliishiga ega. "O'zstandart" agentligi qoshidagi "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiytadqiqot instituti" (SMSITI) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida bosh ilmiy-uslubiy baza hisoblanadi. Ushbu


institut yuqorida qayd etilgan sehalar bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borishi bilan bir qatorda respublikada ushbu sohalar bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti hamdir. Shu sohalardagi belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun u:

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati sohalarida hozirgi xalqaro talablarga javob beradigan milliy ilmiy baza yaratadi;
- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati milliy tizimlarini yaratishda ularning ilmiy va uslubiy asoslarini ishlab chiqadi;
- mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan, atrof-muhitni ishonchli darajada himoya qilishga, inson sog'lig'ini saqlashga, mehnat havfsizligini ta'minlashga, mudofaa qobiliyatini oshirishga qaratilgan xalqaro me'yoriy va tashkiliy-uslubiy hujjatlar bilan uyg'unlashadigan, asos bo'lувчи hujjatlar ishlab chiqadi va joriy etadi;
- standartlashtirish va metrologiya sohalaridagi mavjud yoki uchraydigan muammolarni tadqiqot qilish, davlat tilida me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, lug'alar yaratadi;
- yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlaydi;
- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatining ilmiy masalalari bo'yicha xalqaro, milliy va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida ishlayotgan mutaxassislarning malakasini oshirishni ta'minlaydi;
- sertifikatlashtirish sohasida ishlaydigan ekspert-auditorlarni tayyorlaydi va boshqalar.

Institut tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tmaganligiga qaramay shu kunga qadar respublika hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator hujjatlar yaratdi va yaratmoqda. Bu hujjatlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, shu sohalardagi ishlarga qo'yilgan birinchi poydevorlardan hisoblanadi.



9 1-rasm. "O zstandart" agentligi markaziy apparatining tuzilmasi.



9 2-rasm. "O'zstandart" agentligi va standartlashtirish idoralarining tashkiliy tuzilmasi

#### **9.4. Standartlashtirish bo'yicha davlat boshqaruvi idoralari**

O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni olib borish tashkiliy-texnikaviy qoidalarini belgilovchi standartlashtirish davlat tizimi (O'zSDT) amalda qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tiziminining asosiy tamoyillari Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 2-mart №93-sonli "O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan. "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq respublikada standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, muvofiq-lashtirish va ta'minlashni quyidagilar bajaradi:

- xalq xo'jaligi tarmoqlarida – O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi),
- qurilish, qurilish industriyası, shu jumladan, loyihalash va konstruktiviyasini tuzish sohasida – O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;
- taibiliy boyliklardan foydalanishni tartibga solish va atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta'sirlardan muhofazalash – O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
- tibbiyotga mo'ljallangan mahsulot, tibbiyot texnikasi buyumlari, dori-darmon vositalari sohasida, shuningdek, respublika sanoatida ishlab chiqariladigan va import bo'yicha yetkazib beriladigan mahsulotda inson uchun zararli moddalarning borligini aniqlash bo'yicha masalalarda – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari o'zlarining vakolatlari doira-sida standartlar va texnik shartlar (keyinchalik – standartlar), shuningdek, "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunni qo'llanish bo'yicha yo'riqnomalar va tushuntirishlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi, chop etadi.

"O'zstandart" agentiigiga Qonun bo'yicha, respublikada standartlashtirish ishlarini olib borish umumiy qoidalarini o'rnatish bilan bir qatorda manfaatdor tomonlarning davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari bilan hamkorlik qilish shakllari va usulularini aniqlash vazifasi ham yuklatilgan.

"Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq standartni tusdiqlagan idoralar standartlarning axboret-tarmoq jamg'armalarini yaratadi va olib boradi, manfaatdor iste'molchilarni xalqaro\ davlatlararo\ hududiy standartlar, O'zbekiston Respublikasining standartlari, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek, standartlashtirish sohasida xalqaro shartnomalari, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborot davlat

tasniflagichi, standartlashtirish bo'yicha qoidalalar, me'yorlar va tavsiyalar to'g'risida axborotlar bilan ta'minlaydi. Standartlarni nashr etish va qayta chop etishni ularni tasdiqlagan idora bajaradi. "O'zstandart" agentligi respublikada standartlashtirish ishlarini tashkillashtirish, muvofiqlashtirish va ta'minlash uchun mahsulotni standartlashtirish, metrologiya, sinash va sertifikatlashtirish masalalarida davlat boshqaruv idoralarini, tegishli vazirliklar, mahkamalar, assotsiatsiyalar, konsernlar, korxonalar, tashkilotlar, jamoa birlashimlarini jalb etish huquqiga ega.

O'zSDT (O'zDSt 1.0:1998)ning asosiy qoidalarda belgilanishicha, davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari o'z vakolatlari doirasida va "O'zstandart" agentligi bilan kelishilgan holda standartlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashadi, O'zSDT doirasida standartlashtirish tarmoq tizimlarini ishlab chiqishi va tasdiqlashi mumkin.

Iqtisodiyot tarmoqlarida va faoliyatning boshqa sohalarida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, rejalash va muvofiqlashtirish uchun xos boshqaruv idoralari standartlashtirish bo'linmalarini yaratadi va yoki standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlarni tayinlaydi. Davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari davlat va tarmoq standartlashtirish dasturlari bo'yicha standartlashtirish ishlarini olib boradi.

## **9.5. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar**

Bir turdag'i mahsulot va tarmoqlararo foydalilanidigan mahsulot uchun me'yoriy hujjatlarni yaratish bo'yicha faoliyat ishchi idoralari – standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar (TQ) tomonidan olib boriladi. Bunday amaliyot xalqaro tashkilotlar ishida qo'llaniladi. Jumladan, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO (International Standards Organization) o'z vazifalarini 200dan ortiq TQ, 2000 ta yordamchi qo'mitalar va ishchi guruhlar orqali bajaradi. Xalqaro elektrotexnik komissiyasi IEC (International Electrotechnical Commission) ham 100ga yaqin TQ, 1000dan ortiq yordamchi qo'mita va ishchi guruhlar tuzgan. Mazkur turdag'i mahsulotni ishlab chiqarishda etakchi bo'lgan har bir mamlakat – xalqaro tashkilot a'zosi TQni beshqaradi. Xalqaro tashkilotlarning texnik qo'mitalari har yili o'rtacha 500-800 nomli standartlarni, qo'llanmalarni, qoida va me'yorlarni ishlab chiqadi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo kengash ishtiroychi mamlakat boshqaradigan davlatlararo texnik qo'mitalar tuzgan. Ipak va paxta bo'yicha TQni O'zbekiston olib boradi. Xalqaro va davlatlararo texnik qo'mitalarni bunday ish olib borish

imaliyoti davlatlarning savdo-iqtisodiy o'zaro hamkorligidagi savdo va texnik to'siqlarni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 3-oktabrdaqи №342-qaroriga muvofiq, O'zstandart Agentligining asosiy vazifalaridan biri sifatida bir turdagи mahsulot standartlarini ishlab chiqish bo'yicha tarmoq tuzilmalarini tushkiilashtirishga ko'maklashish, ularning faoliyati ustidan ilmiy-usulbiy rahbarlikni ta'minlash va tekshirish vazifasi yuklatilgan "O'zstandart" agentligiga iqtisodiyot tarmoqlari bilan birga standartlashtirish bo'yicha TQni belgilangan tartibda shakllantirishda qatnashish vazifasi qo'yilgan.

O'zRH 51-013:1993 "O'zSDT. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita to'g'risida namunaviy nizom"da standartlashtirish bo'yicha TQning umumiy qoidalari, asosiy vazifalari, shuningdek, ularning tuzilmani va tarkibi belgilangan. TQ manfaatdor tomonlarning mutaxassislar - vakolatlangan vakillaridan iborat bo'lib, mahsulotning ma'lum turlari, texnologiyalar va standartlashtirishning boshqa obyektlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan va davlat hamda mahsulotxizmatlar iste'molchilar/buyurtmachiilarining manfaatlarida davlat, tarмоq, davlatlararo va xalqaro standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida ishlarni olib borish uchun eng yuqori ilmiy-texnik salohiyatga ega tashkilotlar asosida tuziladi.

TQni rais boshqaradi. Rais tashkilotlar, korxonalarning rahbarlari yoki ularning muovinlari, Bosh konstrukturlar, bosh texnologlar, tashkilot bo'linmalarining rahbarlari, TQ tarkibiga kirgan etakchi olimlar va mutaxassislar ichidan saylanadi. TQ raisining muovinlari etib asosiy iste'molchi va "O'zstandart" agentligi (O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqi naqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining vakolatlari doirasida) vakillari tayinlanadi.

TQ o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi standartlashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tayanadi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- davlatlararo, davlat va tarмоq yangi standartlarini ishlab chiqadi, qayta ko'rib chiqadi yoki amaldagilariga o'zgartirishlar kiritadi;
- standartlashtirish bo'yicha xalqaro va hududiy tashkilotlarning TQning ishlarida qatnashadi;
- davlatlararo, davlat va tarмоq standartlashtirish dasturlariga tukliflarni ishlab chiqadi;
- standartlashtirish bo'yicha xalqaro, davlatlararo, hududiy tashkilotlarda ovoz berish uchun O'zbekiston fikrini tayyorlaydi;

tasniflagichi, standartlashtirish bo'yicha qoidalar, me'yorlar va tavsiyalar to'g'risida axborotlar bilan ta'minlaydi. Standartlarni nashr etish va qayta chop etishni ularni tasdiqlagan idora bajaradi. "O'zstandart" agentligi respublikada standartlashtirish ishlarini tashkillashtirish, muvofiqlashtirish va ta'minlash uchun mahsulotni standartlashtirish, metrologiya sinash va sertifikatlashtirish masalalarida davlat boshqaruv idoralarini, tegishli vazirliklar, mahkamalar, assotsiatsiyalar, konsernlar, korxonalar, tashkilotlar, jamoa birlashimalarini jalb etish huquqiga ega.

O'zSDT (O'zDSt 1.0:1998)ning asosiy qoidalarida belgilanishicha, davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari o'z vakolatlari doirasida va "O'zstandart" agentligi bilan kelishilgan holda standartlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashadi, O'zSDT doirasida standartlashtirish tarmoq tizimlarini ishlab chiqishi va tasdiqlashi mumkin.

Iqtisodiyot tarmoqlarida va faoliyatning boshqa sohalarida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish, rejalah va muvofiqlashtirish uchun xos boshqaruv idoralari standartlashtirish bo'linmalarini yaratadi va yoki standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlarni tayinlaydi. Davlat va xo'jalik boshqaruv idoralari davlat va tarmoq standartlashtirish dasturlari bo'yicha standartlashtirish ishlarini olib boradi.

## 9.5. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar

Bir turdag'i mahsulot va tarmoqlararo foydalilaniladigan mahsulot uchun me'yoriy hujjatlarni yaratish bo'yicha faoliyat ishchi idoralari – standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar (TQ) tomonidan olib boriladi. Bunday amaliyot xalqaro tashkilotlar ishida qo'llaniladi. Jumladan, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO (International Standards Organization) o'z vazifalarini 200dan ortiq TQ, 2000 ta yordamchi qo'mitalar va ishchi guruhlar orqali bajaradi. Xalqaro elektrotexnik komissiyasi IEC (International Electrotechnical Commision) ham 100ga yaqin TQ, 1000dan ortiq yordamchi qo'mita va ishchi guruhlar tuzgan. Mazkur turdag'i mahsulotni ishlab chiqarishda etakchi bo'lgan har bir manifikat – xalqaro tashkilot a'zosi TQni boshqaradi. Xalqaro tashkilotlarning texnik qo'mitalari har yili o'rtacha 500-800 nomli standartlarni, qo'llanmalarni, qoida va me'yorlarni ishlab chiqadi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo kengash ishtiroychi mamlakat boshqaradigan davlatlararo texnik qo'mitalar tuzgan. Ipak va paxta bo'yicha TQni O'zbekiston olib boradi. Xaiqaro va davlatlararo texnik qo'mitalarni bunday ish olib borish

mmaliyoti davlatlarning savdo-iqtisodiy o'zaro hamkorligidagi savdo va texnik to'siqlarni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 3-oktabrdagi №342-qaroriga muvofiq, O'zstandart Agentligining asosiy vazifalaridan biri sifatida bir turdag'i mahsulot standartlarini ishlab chiqish bo'yicha tarmoq tuzilmalarini tushkilashtirishga ko'maklashish, ularning faoliyati ustidan ilmiy-usulbyj mhibarlikni ta'minlash va tekshirish vazifasi yuklatilgan "O'zstandart" agentligiga iqtisodiyot tarmoqlari bilan birga standartlashtirish bo'yicha TQni belgilangan tartibda shakllantirishda qatnashish vazifasi qo'yilgan.

O'zRH 51-013:1993 "O'zSDT. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita te'g'risida namunaviy nizom"da standartlashtirish bo'yicha TQning urumiy qoidalari, asosiy vazifalari, shuningdek, ularning tuzilmayni va tarkibi belgilangan. TQ manfaatdor tomonlarning mutaxassislar - vakolatlangan vakillaridan iborat bo'lib, mahsulotning ma'lum turlari, texnologiyalar va standartlashtirishning boshqa obyektlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan va davlat hamda mahsulotxizmatlar iste'molchilaribuyurtmachilarining manfaatlarida davlat, tarmoq, davlatlararo va xalqaro standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida ishlarni olib borish uchun eng yuqori ilmiy-texnik salohiyatga ega tushkilotlar asosida tuziladi.

TQni rais boshqaradi. Rais tashkilotlar, korxonalarning rahbarlari yoki ularning muovinlari, Bosh konstrukturlar, bosh texnologlar, tashkilot bo'linmalarining rahbarlari, TQ tarkibiga kirgan etakchi olimlar va mutaxassislar ichidan saylanadi. TQ raisining muovinlari etib asosiy iste'molchi va "O'zstandart" agentligi (O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni nuqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining vakolatlari doirasida) vakillari tayinlanadi.

TQ o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi standartlashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjalarga tayanadi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- davlatlararo, davlat va tarmoq yangi standartlarini ishlab chiqadi, qayta ko'rib chiqadi yoki amaldagilariga o'zgartirishlar kiritadi;
- standartlashtirish bo'yicha xalqaro va hududiy tashkilotlarning TQning ishlarida qatnashadi;
- davlatlararo, davlat va tarmoq standartlashtirish dasturlariga takliflarni ishlab chiqadi;
- standartlashtirish bo'yicha xalqaro, davlatlararo, hududiy tashkilotlarda ovoz berish uchun O'zbekiston fikrini tayyorlaydi;

— barcha darajalardagi me'yoriy hujjatlarning ilniy-texnik ekspertizasini bajaradi.

TQ ta'sis etuvchilar-korxonalarining birgalikdagi buyrug'i, shuningdek "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qiliish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi (biriktirilgan faoliyat sohalari bo'yicha) buyrug'i bilan tuziladi.

TQning faoliyat sohasi juda keng: tarmoq va davlat standartlash-tirishdan tortib xalqaro va davlatlararo standartlashtirishgacha. TQ tarkibida yordamchi qo'mitalar (YoQ) va ishchi guruhlar (IG) tuzilishi mumkin. TQning standartlashtirish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish, vakolatlarini kengaytirish maqsadida TQ faoliyati natijalari bo'yicha qabul qilingan bayonnomaning TQga a'zo barcha tashkilotlar bilan kelishilganligini tasdiqlash belgilangan (9.3-rasm).

TQ-1 «Neft va gaz mahsulotlari»	TQ-6 «Alkogol mahsulotlar»	TQ-7 «Aloqa va informatika»	TQ-8 «Urug'chilik»	TQ-9 «Avtomobilsozlik»
TQ-2 «Paxta»				TQ-10 «Go'sht-sut»
TQ-3 «Donchilik»				TQ-11 «Qurilish sanoati»
TQ-4 «Oziq-ovqat mahsulotlari»		O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar		TQ-12 «Kimyo sanoati»
TQ-5 «Ipak»				TQ-13 “Yengil sanoat”
TQ-17 «Sport va jismoniy	TQ-16 “Transport sohasi”	TQ-15 «Mudofaa sohasi»		TQ-14 «Charm va poyafza»
zaniy»				
	TQ-18 “Ta'lim standartlari”	TQ-19 “Turizm”	TQ-20 “Energetika”	

9.3-rasm. O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar.

## 9.6. Korxonalarda standartlashtirish xizmatlari

Standartlashtirishning asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda va amaldagi qonun talablarining bajarilishini ta'minlash uchun tadbirkorlik subyektlari standartlashtirish bo'limlarini tashkil etadi. Bu bo'limlar

standartlashtirish bo'yicha ishlarga tashkiliy-uslubiy va ilmiy-texnik ruhbarlik qiladi, standartlashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik va boshqa ishlarni bajaradi, korxonaning boshqa bo'limlari qilib borayotgan standartlashtirish buyicha ishlarni bajarishda qatnashadi.

Standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirishda siyosatning birliligini va bir xil yondashishni ta'minlash maqsadlarida O'zRH 51-051-96 "Korxonalarda (tashkiletlarda) standartlashtirish xizmatlari to'g'risida nomunaviy nizom" tasdiqlangan. Bu Nizomda mulkdorlik shaklidan qat'iy nizar korxonalar va tashkilotlar standartlashtirish xizmatlarining umumiyligi nizomlari, asosiy vazifalari va huquqlari o'rnatilgan.

Standartlashtirish xizmatlari tadbirkorlik subyekt (bo'lim, sho"ba, guruh)larining bo'limlaridan iborat bo'ladi. Kichik korxonalarda muhandis-texnik xodimlar senining kamligi sababli maxsus bo'lim tuzishga imkon bo'limganda, standartlashtirish bo'yicha ishlarga mas'ullik muhandis-texnik xodimlardan biriga yuklatiladi.

Standartlashtirish xizmatlariga quyidagi vazifalar yuklatiladi;

- korxonaning me'yoriy hujjatlari tizimini tuzish buyicha ishlarni minjanuni bajarish;
- standartlashtirishning istiqbolli va yillik rejalariga oid takliflarni, surur bo'lganda, boshqa bo'limlar bilan birgalikda ishlab chiqish;
- ilmiy-texnik dasturlarga mahsulotning texnik darajasi va sifat ko'rsatkichlarini oshirish istiqboliarini aniqlash qismida qatnashish va takliflar tayyorlash, shuningdek, mahsulotga istiqbolli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashish;
- me'yoriy hujjatlarning loyihalari bo'yicha fikr-mulohazalarni tayyorlashni tashkillashtirish;
- korxonaning iqtisod xizmati bilan birgalikda standartlashtirishning texnik-iqtisodiy samarasini aniqlash;
- davlat nazorat idoralari tomonidan o'tkazilayotgan me'yoriy hujjatlarga rioya qilinayotganligini tekshirishlarda qatnashish;
- ilmiy-texnik, tajriba-konstrukturlik ishlari va mahsulotni ishlab chiqarishga qo'yish jarayonida xavfisizlik, boyliklarni tejash, atrof-muhitni muhofazalash, o'zaro almashinuvchanlik va mos keluvchanlik talablarini hisobga olgan holda jahon bozerida raqobatbardosh mahsulot chiqarishni in'minlovchi ko'rsatkichlarning o'rnatilishini ta'minlash;
- MHni joriy etish va rioya qilishni tashkiliy-uslubiy jihatdan ta'minlash;
- xalqaro, davlatlararo, hududiy standartlashtirish, standartlashtirish sohasida ikki tomonlarna haimkorlik, shuningdek, xalqaro standartlarni va

chet mamlakatlarning milliy standartlarini qo'llanish bo'yicha ishlarni bajarish. Bundan tashqari, standartlashtirish xizmatlariga majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, chiqarilayotgan mahsulotning sertifikatlashtirilishini ta'minlash bo'yicha vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

Korxonalarda standartlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni asosiy ishlarni turiga kiradi. Jahon amaliyoti korxonalarda mavjud bo'lgan o'qitilgan va tajribali mutaxassislar bilan jamiangan standartlashtirish xizmatlarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

## **9.7. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va toifalari**

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar davlat boshqaruvi idoralari, xo'jalik faoliyati subyektlari ishiab chiqish, ishlab chiqarishiga mahsulotni tayyorlash, uni ishlab chiqish, yetkazish, sotish, foydaianish, saqlash, tashish ya utillashtirish, xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarishda, texnik (konstrukturlik, texnologik, loyihalash) hujjatlarni ishlab chiqishda hamda texnik shartlar, mahsulotga (ko'rsatiladigan xizmatlarga) qo'yiladigan katalog varaqalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida standartlashtirish obyektlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlarning quyidagi toifalari amal qiladi:

- xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar;
- O'zbekiston Respublikasining standartlari;
- tarmoq standartlari;
- tashkilotlarning standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

**Xalqaro standart (ISO va h.)** – bu standartlashtirish bilan (standartlashtirish bo'yicha) shug'ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilar ommasi foydalana oladigan standart.

**Mintaqaviy standart (МГС)** esa standartlashtirish bilan shug'ullanadigan mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilar ommasi foydalana oladigan standartdir.

**Davlatlararo standart (ГОСТ)** – bu standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengash yoki qurilish va texnik me'yorlash davlatlararo ilmiy-texnik komissiyasi qabul qilgan va iste'molchilar ommasi foydalana oladigan standart.

**Milliy standart (O'zDSt)** – bu standartlashtirish bo'yicha milliy idora tomonidan qabul qilingan va isie'molchilar ommasi foydalana oladigan standartdir.

**Tarmoq standarti (TSt)** – bu xalq xo'jaligi (sanoat) tarmog'ini boshqarish davlat idorasi tomonidan uning vakolatiga muvofiq tasdiqlangan standartdir.

**Tashkilot standarti (Ts)** – bu mahsulotga, xizmatga yoki jayayonga korxonaning tashabbusi bilan ishlab chiqiladigan va uning tomonidan tasdiqlangan standart. Standartlarni qo'llashda turli usullar mavjud. Bir mamlakat doirasida standartlar yangidan yaratilishi mumkin hamda xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo standartlar ham to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi mumkin. Standartlardan tashqari rahbariy hujjatlar, texnikaviy shartlar, standartlashtirish bo'yicha tavsiyanomalar, yo'riqnomalar ham mavjud.

**Rahbariy hujjat (RH)** deganda standartiashtirish idoralarining va xizmatlarning vazifalarini, burchlarini va huquqlarini, ularning ishlari yoki ishlarinayim ayrim bosqichlarini bajarish usullari, tartibini va mazmunini belgilaydigan me'yoriy hujjat tushuniladi.

**Texnikaviy shartlar (O'zTSh)** – bu buyurtmachi bilan kelishiqliq holda, ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan aniq mahsulotga (xizmatga) bo'lgan texnikaviy talablarni belgilovchi me'yoriy hujjat.

**Yo'riqnomalar** – bu ishlarni yoki ularning ayrim bosqichlarining mazmuni va tarkibini belgilovchi me'yoriy hujjat. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarga, shuningdek, rahbariy hujjatlar, me'yorlar va qoidalar (qurilish, sanitariya, ekologik qoidalar va b.), tavsiyalar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborot tasniflagichlari ham kiradi.

Xalqaro va hududiy standartlar O'zDSt ISO/IEC 21:2001 bo'yicha O'zbekiston davlat standartlariga qayta rasmiylashtirilib qo'llaniladi. Chet el standartlari – O'zDSt 1.7:1998 bo'yicha qayta rasmiylashtiriladi.

Uzlksiz ta'lim tizimida O'zbekiston davlat standartlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Ixtiyoriy me'yoriy hujjatlarni qo'llash maqsadida respublikada texnik reglament mavjud bo'lganda qo'llanilishi majburiy bo'lмаган me'yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi.

Me'yoriy hujjatlarni belgilash tartibi o'matilgan:

a) davlat ahaliyatidagi me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston davlat standarti – O'zDSt; O'zbekiston umum davlat tasniflagichi – O'zDT; O'zbekiston rabbariy hujjati – O'zRH; O'zbekiston tavsiyanomalari – O'zT.

b) tarmoq darajasidagi me'yoriy hujjatlar: tarmoq standarti – TSt; – tarmoq tasniflagichi – TT; rahbariy hujjat – RH; tavsiyalar – T.

v) ma'muriy-hududiy axamiyatdagi me'yoriy hujjatlar: ma'muriy-hududiy standart – MNSt; tavsiyanomalar – T.

g) korxona ahamiyatidagi me'yoriy hujjatlar: texnik shartlar – TSh; tashkilot standarti – Ts.

Demak, barcha darajadagi me'yoriy hujjatlarning belgisi hujjat matning qaysi tilda yozilganligidan qat'iy nazar, davlat tilida lotin yozuvidagi qisqartmalar (abbreviaturalar) bilan belgilanadi.

Abbreviaturalar quyidagilarni ifodalaydi: O'z – O'zbekiston; D – Davlat; T – Tasniflagich, Tarmoq, Tavsiyanoma; R – Rahbariy; H – Hujjat, Hududiy; Sh – Shart; Ts – Tashkilot; M – Mamuriy; St – Standart

Davlatlararo standart belgisi ( $\Gamma\Omega\Gamma\Gamma$ ) rus tilida saqlanadi. Standartlar darajasi, ularning tasdiqlash darajalari va O'zSDT standartlarining turlari 9.4-rasmdagi sxemada keltirilgan. Xalq iste'moli nooziq mollarini tayyorlash va haridga chiqarish uchun namunalarning texnik tavsiflarini ishlab chiqish ruxsat etiladi. Texnik tavsiflar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi, chunki ular ushbu guruhdagi bir turli mahsulotga umumiy talablarni o'rnatuvchi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.


Xaridga chiqariladigan mahsulotga barcha darajadagi me'yoriy hujjatlar "O'zstandart" agentligining idoralarida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Davlat ro'yxatidan o'tmagan me'yoriy hujjatlar haqiqiy bo'lmaydi. Mahsulotga me'yoriy hujjatlar, odatda, har besh yilda, agar boshqa muddat o'rnatilmagan bo'lsa, qaytadan ko'rib chiqiladi.

Import qilinadigan mahsulot O'zbekiston hududida amaldagi me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan majburiy talablarga muvofiq kelishi lozim. Bu sertifikat bilan tasdiqlanadi. Me'yoriy hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va xaridga chiqarish ruxsat etilmaydi. Me'yoriy hujjatlarni nusxalash tartibi asosiy qoidalarda belgilangan. Me'yoriy hujjatlarni va ularga kiritilgan o'zgartirishlarni nashr va qayta chop etish bu hujjatlarni tasdiqlagan\qabul qilgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro, davlatlararo va hududiy tashkilotlarning me'yoriy hujjatlarini O'zbekiston hududida nashr va qayta chop etish huquqi "O'zstandart" agentligiga berilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazorati qonunda belgilangan tartibda ainalga oshiriladi.

**O'ZBEKISTON STANDARTLASHTIRISH DAVLAT  
TIZIMI**



9 4-rasm. Standartlar derajalari, ularni tasdiqlash darajalari va O'zSUT standartlarining turlari.

## 9.9. Standartlarning turlari

Standartlashtirish obyektining o'ziga xos xususiyatidan va unga o'rnatilgan talablaridan kelib chiqib quyidagi turdag'i standart ishlab chiqiladi: asos bo'luvchi standartlar; mahsulot\xizmatga standartlar; ishlarga standartlar; nazorat usullari (sinash, o'Ichash, tahlillar) standartlari.

**Asos bo'luvchi standartlar** aniqlangan faoliyat sohasi uchun umumiy tashkiliy-texnik holatlarni o'rnatadi hamda umumtexnik talablar, me'yor va qoidalarni va quyidagilarni ta'minlaydi:

- jamiyat hayoti va sog'lig'i uchun mahsulotni yaratish va foydalanish jarayonlariga, atrof-muhitni muhofazalash, mahsulot xavfsizligi, jarayon va xizmatlarga qo'yiladigan umumiy talablarni;
- turli faoliyat sohalarida boshqarish jarayonlari bilan aloqadorlikni (fan, texnik, ishlab chiqarish);
- standartlashtirish obyektining bir xil ma'noli va ma'lumotlarni bir-biriga mosligini tushunish;
- mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarishni tayyorlash, saqlash, tashish, ekspluatatsiyasi va ta'mirlashning o'rnatilgan umumiy usullari.

Asos bo'luvchi standartlar aniqlangan tizimlarni hosil qilish, Davlat (davlatlararo, xalqaro) va tarmoq standartlari uchun tarkib topgan tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari bilan davlat hisobiga qo'shishda qoidalari sisatida yuzaga keladi. Ushbu standartlar asosiy\umumiy qoidalari, tartibi, atarna va tushunchalar, umumiy talablar yoki me'yorlar, usullar, ruxsat etilgan chegaralar, namunaviy texnologik usullardan iborat bo'ladi.

**Mahsulot\xizmatga standartlar** bir turdag'i mahsulot\xizmatlar guruhiга yoki aynan bitta mahsulot\xizmatga bo'lgan talablarni o'rnatadi. Bunday standartlar quyidagilarni o'rnatadi:

- mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga hamma tomonlama talablarni;
- mahsulotning o'zaroalmashinuvchanligi va unifikatsiyasini ta'minlovchi tur o'Ichamlari va ko'rsatkich qatorlarini;
- mahsulotni tashish va ishlatishda uning tarkibi saqlanuvchanligini ta'minlash.

Mahsulotga standartlar va texnik shartlarni standart va texnik shartlarga, informasion reglamentlarga, konstruktiv, metrologik, ergonomik, texnologik, ekspluatasion va chidamliliklariga mosligi va mahsulotning barcha hayotiy bosqichlarida yuqori ilmiy-texyik darajada ta'minlanishi hamda bularning barchasini o'zaro bog'liq holda shakllantirish lozim.

Texnik shartlar aniq bir turdag'i mahsulotga ishlab chiqilib, standartlar bo'yicha (o'zaro faoliyat) qat'iy muvofiqligi asosida bir turdag'i mahsulotlar guruhiga kiruvchi aniq mahsulot ishlab chiqilgan bo'lishi shart.

Bunday standartlar mahsulotning asosiy ko'rsatkichlari va yoki o'lchamlari, turlari, markasi, navini aniqlovchi sifat belgilari, konstruksiya si va o'lchami, umumiy texnik talablari, tamg'alashi, qadoqlanishi, tashish, saqlanishi, ekspluatatsiyasi, ta'mirlanish, umumiy texnik shartlar, texnik shartlarga aloqador bo'ladi.

*Ishtarljarayonlarga standartlar* mahsulotni tayyorlash, saqlash, tashish, ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va utilashtirish texnologik jarayon-larini ishlab chiqishda turli xil ishlarni bajarish usullari (usullari, qabul qilish, ishlar tartibi, rejim va me'yorlari)ga asosiy talablarni o'rnatadi.

Yangi mahsulotlarning qisqa vaqtida o'zlashtirilishida loyihalash-tirishning avtomatlashtirilgan tizimi standartlari buyumlarni tayyorlash texnologik jarayenlarining prinsipial sxemalari bo'yicha va modulli konstruksiya tashda muhim ahamiyat kasb etadi. Namunali texnologik jarayonlar ishlarga tipik standart obyektlari hisoblanadi.

Ishlarjarayonlarga standartlarda texnologik jarayonlarni o'tkazish-dagi tabiat muhitini himoya qilish va aholi sog'lig'i hamda hayoti uchun xavfsizlik talablaridan tarkib topgan bo'lishi lozim. Bunday ta'sirlar kimyoiy (tashlanadigan zararli ximikatlar), fizik (radiasiyadan nurlanish), biologik (mikroorganizmlarning zaharlanishi) va mexanik tavsiflarda bo'lishi mumkin.

Mahsulotxizmatlarning sifatini ta'minlash tizimi doirasida boshqarish jarayonlariga standartlar zamonaviy bosqichlarda katta ahamiyat kasb etmoqda.

*Nazorat usullari (sinash, o'lhash, tahlil)ga standartlar* mahsulotni yaratishda, sertifikatlashirish va soydalanishda sinovdan o'tkazish, o'lhash hamda tahlil qilish (usullari, qabul qilish, uslubiyati va boshqa) usullarni o'rnatadi. Bunday standartlarga mahsulotxizmat sifatiga majburiy talablarlar baholash natijalarining aynan aslidek, xolisonalik va aniqliklari eng yuqori darajada bo'lishi tegishli bo'ladi. Bu shartlarni bajarish aytarli darajada o'lhash xatoliklari to'g'risidagi ma'lumot standartlariga bog'liq bo'ladi.

Tekshirish usullari, qabul qilish va uslublarning turli-tumanligiga qaramasdan, uiamni ajratish va umumiy qoidalarini standartlashtirish lozim. Bunday standartlarga tekshirish vositasi va yordamchi qo'shimcha qurilmalar, tekshirishga tayyorlash va o'tkazish tartibi, natijalarni qayta

ishlash qoidalari va rasmiylashtirish hamda sinovda yo'l qo'yilgan xatoliklar tegishli bo'ladi.

Standartda o'tkaziladigan amallar ketma-ketligi aniqlangan bo'lishi va olingen natijalarni qayta ishlash qoidalari, sinov qurilmasining sxemasi, mahsulot to'pidan olingen namuna miqdoriy tavsifi, joyi va xususiy xolati hamda natijalarning aniq va solishtirilgan bo'lishiga nisbatan tavsiyalarini beradi.

Masalan, aytish mumkinki, mahsulot xizmatlarga standartlarida tekshirish usularining bo'lishi va ular qo'shilgan aralash standartlar bo'lishi mumkin.

## **9.10. Davlat standartlarini ishlab chiqish tartibi**

Davlat standartlari O'zDSt 1.1:1992 "O'zSDT O'zbekiston standartlarini: ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi"ga muvofiq ishlab chiqiladi. Standartlar standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar (TQ), standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar (STT), tadbirkorlikning boshqa subyektlari tomonidan ishlab chiqilishi mumkin.

Standartning mazmuniga va texnik-iqtisodiy asoslanganligiga va ko'rsatkichlar, me'yorlar va talablarning fan va texnikaning zamonaviy darajasiga muvofiqligi uchun ishlab chiquvchi-tashkilot va standartni tasdiqlagan idora mas'ul bo'ladi.

Standartni ishlab chiqishda tashkiliy-uslubiy birlilikka erishish maqsadida, shuningdek, ish bosqichlarining bajarilishini tekshirish uchun standart ishlab chiqishning to'rt bosqichi o'rnatilgan:

1-bosqich – standartni ishlab chiqishga texnik topshiriqni ishlab chiqish va tasdiqlash (zarur bo'lganda amalga oshiriladi);

2-bosqich – standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahrir) va fikrlarni olish uchun tarqatish;

3-bosqich – fikr-mulohazalarni o'rganib chiqish, standart loyihasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va uni tasdiqlashga taqdim etish;

4-bosqich – standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Izoh: standartni ishlab chiqish bosqichlarini birga qo'shib bajarish ruxsat etiladi.

*1-bosqich. Standartni ishlab chiqishga texnik topshiriqni ishlab chiqish va tasdiqlash (zarur bo'lganda amalga oshiriladi)*

Texnik topshiriq me'yoriy hujjatni ishlab chiqish ishlarini bajarish bosqichlarini o'rnatish maqsadida buyurtmachi tashkilot bnlan kelishiilgan

holda, ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan tuziladi va, odatda, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- standartlashtirish obyekti va qo‘llanish sohasi;
- standartning bo‘limlari va standartda o‘rnatiladigan asosiy talablar ro‘yxati;
- standartni ishlab chiqish bosqichlari;
- standart bilan birga taqdirm etiladigan hujjatlar ro‘yxati;
- standart loyihasini kelishish lozim bo‘lgan boshqaruv idoralari va yoki korxonalar ro‘yxati;
- buyurtmachining boshqa talablari.

***2-bosqich. Standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahrir) va fikrlarni olish uchun tarqatish.***

Standart loyihasi manfaatdor tashkilotlarning takliflari asosida va yoki tayyorlovchi korxonalarning tashabbusi bilan ishlab chiqiladi.

Standartning loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtida standart loyihasiga tushuntirish yozuvi tuziladi va zarur bo‘lganda, standartni joriy etish bo‘yicha asosiy tashkiliy-texnik tadbirlar rejasining loyihasi (keyinchalik – asosiy tadbirlar rejasining loyihasi) ishlab chiqiladi. Standart loyihasi tushuntirish yozuvi bilan birga va asosiy tadbirlar rejasining loyihasi bilan nusxasi ko‘paytiriladi va fikr olish uchun quyidagi ro‘yxat bo‘yicha manfaatdor tashkilotlarga tarqatiladi:

- buyurtmachi-tashkilot (asosiy iste’molchi)ga yoki standartning loyihasini kelishish bo‘yicha tayanch tashkilot deb tayinlangan uning tashkilotlaridan biriga;
- standart loyihasida vakolatlari qarashli talablar o‘rnatilgan bo‘lsa, davlat nazorati idoralari qarashli, sog‘liqni saqlash vazirligiga, atrof-muhitni muhofazalash qo‘mitasiga;
- mahsulotning biriktirilgan turlari bo‘yicha standartlashtirish tayanch tashkilotlariga;
- standartni joriy etuvchi va joriy etilishini ta’minlovchi tashkilotlar va korxonalariga.

Korxona va tashkilotlar taqdim etilgan standart loyihasini ko‘rib chiqib, o‘z fikr-mulohazalarini yozadi va standartni ishlab chiquvchiga, standart loyihasini olgan kundan boshlab 15 kundan kechiktirmay jo‘natadi.

***3-bosqich. Fikr-mulohazalarini o‘rganib chiqish, standart loyihasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va uni tasdiqlashga taqdim etish.***

Ishlab chiquvchi etakchi tashkilot olingan fikr-mulohazalar asosida fikr-mulohazalar to‘g‘risida ma’lumot tuzadi.

Ishlab chiquvchi - etakchi tashkilot va hamkor bajaruvchi tashkilotlar fikr-mulohazalar asosida standart loyihasining oxirgi tahririni ishlab chiqadi va tushuntirish yozuviga va asosiy tadbirlar rejasining loyihasiga aniqlik kiritadi.

Ishlab chiquvchi tashkilot va boshqa manfaatdor tashkilotlar o'tasida standart loyihasi bo'yicha kelishmovchilik bor bo'lsa, ishlab chiquvchi tashkilot kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish bo'yicha asosiy manfaatdor tashkilotlar vakillarining, shu jumladan, standartning ko'rilar yozuviga loyihasi bo'yicha qaror qabul qilishga vakolatlangan buyurtmачilar (asosiy iste'molchilar)ning vakillari ishtirokida kelishuv majlisini o'tkazadi.

Standart loyihasining aniqlik kiritilgan tahririning alohida moddalari bo'yicha kelishmovchiliklar bor bo'lsa, majlis bayonnomasida tashkilotlarning vakillari bu moddalar bo'yicha alohida fikrga ega, deb ko'rsatiladi. Majlisda qabul qilingan qarorlar asosida standart loyihasining oxirgi tahriri tuziladi, tushuntirish yozuvi va asosiy tadbirlar rejasining loyihasiga aniqlik kiritiladi. Standart loyihasining oxirgi tahririni tasdiqlashga taqdim etish oldidan ishlab chiquvchi tashkilot buyurtmachi tashkilotga (asosiy iste'molchiga) kelishishlik uchun jo'natadi. Standart loyihasini kelishishlik standart loyihasi keltirilgan kundan boshlab ko'pi bilan 15 kun muddat ichida amalga oshiriladi.

Yangi takomillashtiriladigan mahsulot yaratish bo'yicha ishlari tarkibida olib boriladigan standart loyihasini ishlab chiqishda standart loyihasini qabul komissiyasi, badiiy-texnik kengash (BTK), degustasiya (sifatini aniqlash) komissiyasi va boshqalar, manfaatdor tashkilotlarning mas'ul vakillari ishtirokida kelishib oladi. Standart loyihasining kelishilganligini tasdiqlovchi hujjat tajriba nusxaning qabul dalolatnomasi (BTK bayonnomasi)dan iborat bo'ladi.

Standartga kiritiladigan o'zgartirishlar, agar ilgari kelishishgan tashkilotlarning manfaatlariiga ta'sir etmasa, faqat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishib olinadi. Standart loyihasining oxirgi tahririni tasdiqlashga taqdim etishda oldin tayanch tashkilot yoki o'ziga biriktirilgan mahsulotga oid yoki faoliyat sohasida standartlashtirish bo'yicha TQ standartni ilmiy-texnik va huquqiy ekspertizadan o'tkazadi.

#### *4-bosqich. Standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.*

Ishlab chiquvchi-tashkilot standart loyihasini tasdiqlashga quyidagi hujjatlar bilan birga taqdim etadi:

- ilova xati;
- standart loyihasining oxirgi tahririga tushuntirish yozuvi;
- asosiy tadbirlar rejasining loyihasi;
- standart loyihasi 4 nusxada, bundan ikkitasi birinchi bo'lishi lozim;

- standart loyihasining kelishilganligini tasdiqlovchi asl hujjatlar;
- standart loyihasiga fikr-mulohazalar to'plami;
- kelishmovchiliklar to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- elektron versiya;

Standartni tasdiqlagan idoraning qarori bilan standart tasdiqlanadi va amalga kiritiladi. "O'zstandart" agentligi standartni davlat ro'yxatidan o'tkazadi. Eksport uchun mo'ljalangan mahsulotga qo'shimcha talablar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi. Standart davlat ro'yxatiga 4 nusxada taqdim etiladi: asli, ikkinchi nusxa (dublikat) va ikkita nusxa. Standartning ikkinchi nusxasi standart asliga o'xshash bo'lishi va undan zarur sifatli nusxa olishni ta'minlashi kerak. Standart davlat ro'yxatiga ikki tilda: davlat va rus tillarida taqdim etilishi lozim.

Standartga zarur bo'lganda kiritiladigan tuzatishlar qo'ldan qora tush', pasta, siyoh bilan aniq yozilishi, birinchi varaqning orqa betida izohlangan va rahbar (rahbar muovini) imzosi va ro'yxatdan o'tkazishga taqdim etgan idoraning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Standart davlat ro'yxatidan ko'pi bilan 5 kun muddatda o'tkaziladi. Standartni belgilash, standartni tasdiqlagan tashkilotdan qat'iy nazar, "O'zstandart" agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Standart belgisi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hujjat indeksi – O'zDSt
- ro'yxatga olingan tartib raqami;
- ikki nuqta bilan ayrilgan tasdiqlash yilining to'rtta raqami: masalan, O'zDSt 789:1997

Standart asli, ikkinchi nusxasi va ikkita nusxasining birinchi betlarida ro'yxatga oluvchi idora ro'yxatga olgan idora nomi, sana va davlat ro'yxatidan o'tgan nomeri ko'rsatilgan shtamp bosiladi. Standartning ikki nusxasidan birinchi nusxasi "O'zstandart" agentligida qoladi. Standart usliyati va ikkinchi nusxasi ishlab chiquvchiga qaytariladi.

**Tushuntirish yozuvi.** Standart loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtida standart loyihasiga tushuntirish yozuvi tuziladi. Tushuntirish yozuvining nomida standartning darajasi va to'liq nomi, standart loyihasi tahririning tartib raqami va yoki standartni ishlab chiqish bosqichi to'g'risida ma'lumot keltiriladi. Misol:

#### *Tushuntirish yozuvi*

O'zbekiston davlat standartining loyihasi \_\_\_\_\_ ga

(standart nomi)

(fikr olishga tarqatiladigan birinchi tahriri).

Standart loyihasiga tushuntirish yozuvining bo'limlari quyidagi navbatda joylashtiriladi:

- 1) standartni ishlab chiqishga asos;
- 2) standartni ishlab chiqish maqsadlari va vazifalari;
- 3) standartlashtirish obyektining tafsiloti;
- 4) standartning ilmiy-texnik darajasi;
- 5) standartni joriy etishdan olinadigan texnik-iqtisodiy samaradorlik;
- 6) joriy etish, standartni amalga kiritish (amal muddati) va standartni tekshirish;
- 7) boshqa me'yoriy hujjatlar bilan o'zaro bog'liqligi;
- 8) fikr-mulohazalar uchun jo'natilganligi to'g'risida ma'lumot standartning birinchi tahriridan boshqa barcha tahrirlariga fikr olish uchun jo'natilganligi to'g'risida ma'lumot;
- 9) standart loyihasining tasdiqlashga taqdim etiladigan faqat oxirgi tahririga oid kelishi!ganlik to'g'risida ma'lumot;
- 10) axborot manbalari;
- 11) qo'shimcha ma'lumotlar.

Tushuntirish yozuvi standart loyihasining har bir tahririga tuziladi, tushuntirish yozuvida standart loyihasiga birinchi tahririga nisbatan kiritilgan asosiy ko'rsatkichlar, me'yorlar, tafsilotlar, talablardagi o'zgartirishlar aks ettiriladi va o'zgartirishlarni texnik-iqtisodiy asoslash keltiriladi.

**"Standartni ishlab chiqishga asos"** bo'limida standartning qanday manbaga asosan ishlab chiqilishi ko'rsatiladi.

**"Standartni ishlab chiqish maqsadlari va vazifalari"** bo'limida ishlab chiqiladigan standartni qo'llanish natijasida erishiladigan oxirgi natijalar va standartni ishlab chiqishda hal etiladigan masalalar keltiriladi.

**"Standartlashtirish obyektining tafsiloti"** bo'limida standartning birinchi marta ishlab chiqilayotgani to'g'risida ma'lumot yoki standart loyihasini ishlab chiqish boshlanishida amal qiliyayotgan standartlar, texnik shartlar va boshqa hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar va ularning maqbulligini texnik-iqgisodiy asoslash keltiriladi.

**"Standartning ilmiy-texnik darajasi"** bo'limida standartning ilmiy-texnik darajasini baholash natijalari va uning jahon darajasi talablariga muvofiqligi hamda qanday xorijiy o'xshash standartlarga moslanganligi va ular to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

**"Standartni joriy etishdan olinadigan texnik-iqtisodiy samaradorlik"** bo'limida standartlashtirish obyektining iqtisodiy afzallikkleri, tejasiv asosiy manbalari va uning moddiy va pul hisobidagi qiymati yoki ijtimoiy samarasini keltiriladi.

**"Joriy etish, standartni amalga kiritish\amal muddati va standartni tekshirish"** bo'limida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) standartni amalga kiritish sanasini asosiy tadbirlar rejasini bajarishga vaqtini hisobga olgan holda asoslash;

2) standartning amal muddatini cheklamasdan tasdiqlashni asoslash yoki standartning amal qilinishini cheklash mo'ljallangan muddatini asoslash, shuningdek, standartni birinchi tekshirish va navbatdagi tekshirishlar muddatini asoslash.

“Fikr-mulohazalar uchun jo‘natilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar” bo‘limida quyidagilar kelтирildi:

- 1) standart loyihasi fikr olish uchun jo‘natilgan tashkilotlar (korxonalar) soni;
- 2) fikrlarini yubidora tashkilotlar korxonalar soni;
- 3) fikrlarni ko‘rib chiqish natijalari (jamlangan fikrlarni)

## **9.11. Davlat standartlari talablariga rioya qilishi ustidan Davlat tekshiruvi va nazorati**

Tekshiruv to‘g‘risida gapirilganda ko‘pincha “nazorat” va “kontrol” tushunchalari bilan uchrashamiz. Bu atamalar quyidagilarni anglatadi:

**Tekshiruv** – “tekshirish” so‘zidan olingan, biror narsaning to‘g‘riliqga ishonch hosil qilish uchun tekshirish o‘tkaziladi, nazorat qilish, kontrol qilish maqsadida tekshirish, taftish o‘tkaziladi. Bunday ta‘rif asosida “kontrol” atamasi davlat tilida “tekshirish” deb qabul qilindi.

**Nazorat** – biror narsa ustidan “nazorat qilish” so‘zidan kelib chiqqan. Biror narsa ustidan kuzatuv olib boruvchi shaxslar guruhi, idora.

**Kontrol** – mos o‘lhashlar, sinashlar, tahlil bajariladigan kuzatuvlar va mulohazalar yo‘li bilan muvofiqlikni baholash tartibi.

O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida” qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-avgustdagisi №410-qarorida *standartlar va o‘lhashlar birliligini ta‘minlash ustidan davlat tekshiruvi va nazorati* (keyinchalik – davlat nazorati) nazarda tutilgan. Davlat nazoratining asosiy vazifasi davlat va xo‘jalik boshqarish idoralari, tadbirkor subyektlar tomonidan quyidagilarning bajarilishini ta‘minlashdan iborat:

- me’yoriy hujjatlar va metrologik qoidalarning o‘z vaqtida joriy etilishini va ularga aniq rioya qilinishini; o‘lhashlar birliligini ta‘minlash;
- me’yoriy hujjatlar va o‘lhash vositalarining ilmiy-texnikaviy darajasini tahlil qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnikaviy istiqbolni tezlashtirish, mehnat unumdarligini oshirish, inahsulotning texnik saviyasi va sifatini oshirish maqsadida me’yoriy hujjatlarni va o‘lhash vositalarini ishlab chiqishda fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanishga ko‘maklashish (Standartlar va o‘lhashlar birliligini ta‘minlash ustidan davlat nazorati to‘g‘risida Nizom).

Bu Nizomga muvofiq davlat nazorati idoraları:

– me'yoriy hujjatlarning va metrologik qoidalarning, shu jumladan mahsuletning aholi hayoti, sog'ligi va mulkiga xavfsizligiga atrof-muhit muhofazasiga, boyliklarning tejalishiga, o'zaro almashinuvchanlikka majburiy talablarni o'rnatuvchi qoidalarning o'z vaqtida joriy qilinishi va ryoja qilinishini tekshiradi, shuningdek, bularni tekshirish usullarining bir xilligini, tamg'alash bir xilligini, mahsulotni ishlab chiqishi, ishlab chiqarish va yetkazib berishga shartnomaga kiritilgan, qonunda ko'zda tutilgan boshqa tajablarning bajarilishini tekshiradi.

– standartlashtirish mahkama xizmatları va metrologik xizmatlar ishini tekshiradi;

– o'zida yaratilgan mahsulotning alohida turlarini laboratoriyalarda sinovdan o'tkazadi;

– standartlar va o'lchashlar birligini ta'minlash ustidan davlat nazorati natijalarini umumiiashtiradi, bularni ishlab chiqishda fan va texnika yutuqlaridan samaraliroq foydalanishga ko'maklashadi, me'eriy hujjatlar va metrologik qoidalarning o'z vaqtida joriy etilmaslik, buzilish sabablarini tahlil qiladi, davlat nazorati idoralarining ish samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi va o'tkazadi;

– agar me'yoriy hujjatlar mahsulotning texnik saviyasi va sifatini ta'minlay olmasa yoki amaldagi qonunlarga zid kelsa, ularni bekor qiladi yoki bekor qilish, amal muddatini cheklash yoki qayta ko'rib chiqish to'g'risida belgilangan tartibda taklif kiritadi.

– me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazishda ularning ekspertizasini o'tkazadi;

– me'yoriy hujjatlar, o'lchash vositalari, sertifikatlashtirish qoidalarini joriy qilish va ularga ryoja qilishni tekshirish jarayonida aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'radi.

*Davlat nazorati subyektlariga* davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari, tadbirkorlik subyektlari kiradi.

Davlat nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan hayotiy siklining barcha bosqichlarida (tadqiq qilish, ishlab chiqish, tayyorlash, tashish, xaridga chiqarish, saqlash, foydalanish (iste'mol qilish), ta'mirlash, qayta foydalanishda amalga cshiriladi).

*Davlat nazorati obyektlariga* standartlar, shu jumladan, mahsulotga majburiy talablarni o'rnatuvchi standartlar, jarayonlar, ishlari, xizmatlar (keyinchalik – mahsulot), shu jumladan eksport qilinadigan, import qilinadigan va sertifikatlashtirilgan mahsulot (bunda sertifikatlashtirish idoralari oldindan xabardor qilinadi), shuningdek, o'lchash vositalari kiradi.

Davlat nazorati davriy va doimiy bo‘lishi mumkin.

*Davriy davlat nazoratida obyektlar va tekshirish davriyligi davlat nazorati rejasiga binoan aniqlanadi.*

*Doimiy davlat nazorati* chiqariladigan mahsulot sifatiga noroziliklar muayyan ravishda bo‘lganda va mahsulotni standartlar talablariga muvofiq barqaror chiqarish uchun sharoitlar yo‘q bo‘lganda va bunday sharoitlarda ishlab chiqarishni (metallurgiya, kimyo sanoati, bolalar ovqati – uzlusiz texnologik jarayonni) to‘xtatib bo‘limganda amalga oshiriladi. Doimiy davlat nazorati mahsulotni qabul qilishning alohida tartiboti shaklida bajariladi.

Davlat nazorati standartlar va o‘lchashlar birliligini ta’minlash ustidan tekshirish va nazorat bo‘yicha davlat inspektori malakasiga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda attestatlangan, davlat nazorati idoralarining lavozimli shaxslari tomonidan bajariladi.

Davlat nazorati idoralarining lavozimli shaxslarini davlat nazoratiga ruxsat etish belgilangan namunadagi mahsus guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Tekshiruvchi idoralarning faoliyatini mahsus vakolatlangan idora muvoqiflashtiradi, bu idoraning tekshiruvga oid qarorlari majburiy bo‘ladi.

Standartlashtirish sohasi bo‘yicha ham davlat nazorati ish olib bormoqda. Uning asosiy vazifasi vazirlik, mahkama va korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan standartlar talablariga qat’iy amal qilinishini, yangi standartlarni tatbiq etishni ta’mindash va nazorat etish hisoblanadi.

Davlat nazoratining yana bir muhim yo‘nalishi – turli standart toifalarini davlat qaydnomasidan o’tkazishdan oldin ekspertiza qilish.

### Nazorat savollari

1. Standartlashtirish qanday asosiy maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan?
2. Standartlashtirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Standartlashtirishning qonuniy asoslarini tushuntiring.
4. Standartlashtirishning tashkiliy va huquqiy jihatlarini tushuntiring.
5. Standartlashtirish bo‘yicha davlat boshqaruv idoralari va tashkilotlarining vazifalarini tushuntiring.
6. Standartlashtirish bo‘yicha qo‘mitalarning vazifalari nimalardan iborat?
7. Standartlashtirish bo‘yicha tayanch tashkilotlarining faoliyatini tushuntiring.
8. Standartlashtirishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

9. Standartlashtirish bo'yicha qanday me'yoriy hujjalarni bilasiz va ularga ta'rif bering?
10. Standartlarning turlarini ayting va ularga misollar keltiring.
11. O'zbekiston davlat standartlashtirish tizimida qanday me'yoriy hujjalalar mavjud?
12. Davlat nazorat idoralarining asosiy faoliyati nimalardan iborat?
13. Davlat standartlarini ishlab chiqish tartibini tushuntiring.
14. Standartlar talablariga rioya qilinishi ustidan Davlat nazorati va tekshiruvini tushuntiring.

# X BOB. TEHNİK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH TIZIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI HAMDA ASOSIY TAMOYILLARI

## 10.1. Texnik jihatdan tartibiga solishning asosiy maqsad va vazifalari

Texnik jihatdan tartibiga solishning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga mahsulot\xizmatlarning harakatlanish yo'llarida xavfsizlik darajasini optimallashtirishda barcha balanslashtirilgan choralarни bevosita ishlab chiqish va qo'llash, ma'muriy aralashuvlarni minimallashtirishni ta'minlash bo'lsa-da, bir tomondan bozorda qalbaki va xavfli mahsulot\xizmatlarning paydo bo'lishiga barham berish bo'lsa-da, ikkinchi tomondan ishlab chiqaruvchilar uchun texnik to'siqlarni minimallashtirish hisoblanadi.

Texnik me'yorashtirish sohasida davlat boshqaruvining vazifasi majburiy texnik talablarning bajarilishi va qo'llanilishi (ishlab chiqish va tasdiqlash)ni o'rnatish sohasida huquqiy boshqarish munosabati hisoblanadi.

Texnik jihatdan tartibga solish xavfli mahsulotlardan iste'molchilarni himoya qilish va ulardan foydalanishda mahsulot xavf-xatari tahliliga asoslanuvchi bozorda ishlab chiquvchilar va iste'molchilarning o'zaro mansaftalarini zaruriy balansiga erishishga yo'naltirilgan.

Texnik reglamentlarga o'tishdan yana bir asosiy maqsad – hozirgi paytda turli xil hujjatlarda o'rnatilgan, shu jumladan, turli xil davlat idoralarini va xo'jalik boshqaruvlari qabul qilgan xavfsizlik bo'yicha talablarni yagona hujjatga toplash.

"Texnik jihatdan tartibiga solish to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning moi-mulki xavfsizligini ta'minlash;
- atrof-muhitning muhofaza qilinishini, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishni ta'minlash;
- savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish;
- mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligi xususida iste'molchilarni chalg'ituvchi harakatlarning oldini olish.

Ushbu Qonunning maqsadi mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

## 10.2. Texnik jihatdan tartibga solishning qonuniy asoslari

Xalqaro tajribada mahsulot\xizmat\jarayonlarga bo‘lgan majburiy talablar texnik reglamentlarda belgilanadi. Texnik reglamentlarga tegishli qonunlar, direktivalar va hukumat idoralari tomonidan berilgan farmoyishlar kiradi. Standartlar talablari esa majburiy emas. Shu sababli texnik reglamentlar amaldagi qonunchilikda muhim ahamiyatga ega.

Butunjahon savdo tashkilotining “Savdodagi texnik to’siqlar bo‘yicha kelishuv”i talablarini bajarish maqsadida, “O‘zstandart” agentligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi tomonidan bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirilmoqda.

Butunjahon savdo tashkilotiga kirish maqsadida Respublikamizda olib borilayotgan siyosat, avvalambor, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbaodshligini, eksport salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Butunjahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo kengashni tashkil etish to‘g‘risida”gi 1995-yil 10-noyabrdagi 45-sonli va “2007-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qonun loyihalarini ishiab chiqish bo‘yicha ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2006-yil 22-dekabrdagi 264-sonli qarorlarini bajarish maqsadida ishlab chiqilgan va 2009-yilning 23-aprelida qonuniy kuchga kirgan “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarning debochasidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida” Qonuni 2008-yil 11-noyabrdagi Qonunchilik palatasi temonidan qabul qilingan bo‘lib, 2009-yil 27-martda Senat tomonidan ma‘qullangan.

Ushbu qonun quyidagi boblar va moddalaridan iborat: 1-bob. Umumiy qoidalar (1 – 6-moddalar); 2-bob. Davlat idoralarining va boshqa idoralar hamda tashkilotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari (7 – 14-moddalar); 3-bob. Texnik reglamentlar (15 – 23-moddalar); 4-bob. Yakunlovchi qoidalar (24 – 28-moddalar).

Qonuning i-moddasiga muvofiq, ushbu Qonunning maqsadi mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo‘llash va bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat, deb ifodalangan.

“Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunda quyidagi atamalar va ta’riflar keltirilgan:

**texnik jihatdan tartibga solish** – mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo‘llash va bajarish;

***mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligi*** – mahsulotni ishlab chiqarish, undan foydalanish, saqlash, tashish, sotish va utilizatsiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning holati bo'lib, bunda insonning hayotiga, sog'lig'iga, atrof-muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtiynoli bilan bog'liq yo'l qo'yilmaydigan xavf mavjud bo'lmaydi;

***texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar*** – texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalalar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;

***texnik reglament*** – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

***uruumiylar texnik reglament*** – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdag'i mahsulot\ish\xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

***maxsus texnik reglament*** – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, uinumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulot\ish\xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

***savdodagi texnik to'siqlar*** – mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligiga doir inajburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo'lgan tafovutlar yoki o'zgarishlar oqibatida savdoda yuzaga keladigan to'siqlar.

### **10.3. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining tuzilmasi**

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi idoralar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Ushbu tizimni shakllantirish, takomillashtirish va Qonun bilan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat idoralari tayinlangan (10.1-rasm):

– O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralarining umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati deirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;

-- O'zbekiston Respublikasi Seg'lijni saqlash vazirligi mahsulot\ish\xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog'ligi uchun zararli moddalar, kasallik tug'diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarning kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiyot buyumlari, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish hamda qo'llash bo'yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi shaharsozlik faoliyatida mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

-- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof-muhitni iflos'anish va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilishda mahsulot\ish\xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

-- Davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari o'z vakoiatlari doirasida "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan vazifalarni amalga oshiradi.



10. I-rasmi: Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi.

Qonunda texnik reglamentlarni ishlab chiqish jarayoni ushbu soha ekspert kengashlariga yuklatilgan. Ishlab chiqilgan texnik reglament

loyihalarini ekspertizadan o'tkazishni esa vakolatli davlat idoralarini huzurida tashkil etiladigan ekspert komissiyalari bajaradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida me'yoriy hujjatlarni to'plash va ular to'g'risida ma'lumotlarni yetkazish masalalarini tizimli ravishda hal etish maqsadida davlat fondi tashkil qilingan.

#### 10.4. Texnik jihatdan tartibga solish tizimining asosiy tamoyillari

O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga binoan, texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari belgilangan, bular:

- texnik reglamentlarni qo'llashning majburiyligi, chunki texnik reglament bir turdag'i mahsulot, ish va xizmatlar xavfsizligiga majburiy talablarini o'rnatuvchi normativ hujjat hisoblanadi;
- texnik reglamentlarni qo'llashning bir xilligi, ya'ni texnik reglament O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qo'llaniladi;
- texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi.

Ta'rif bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar tarkibiga quyidagilar kiradi: texnik reglamentlar; standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar; sanitariya, veterinar-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari; shaharsozlik, ekologiya normalari va qoidalari; texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar; texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e'lon qilish tartibi to'g'risidagi axborotning ochiqligi.

"O'zstandart" agentligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning so'rovlariga ko'ra:

- amaldagi, ishlab chiqilayotgan va qabul qilingan texnik reglamentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- mahsulot, ish va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi va xalqaro shartnomalardagi ishtiroti to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- qabul qilingan va ishlab chiqilayotgan texnik reglamentlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarni e'lon

qilishning rasmiy manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish yuklatilgan.

Texnik reglament quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha qabul qilinish mumkin: biologik xavfsizlik; mexanik xavfsizlik; kimyoiy xavfsizlik; yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik; yong‘in xavfsizligi; elektr xavfsizligi; mashina va uskunalarini ishlatalish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligi; binolar, inshootlardan va ularga tutash hududidan foydalanish xavfsizligi; ekologik xavfsizlik; veterinariya xavfsizligi; sanoat va isnlab chiqarish xavfsizligi; portlash xavfsizligi; axborot xavfsizligi; o‘lchovlar va sinovlar usullarining bir xilligini ta‘minlash, shuningdek, mahsulotlisch\xizmatlar xavfsizligiga qo‘yiladigan boshqa talablar ham belgilab qo‘yilishi mumkin.

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi (O‘zTJTSĐT)ga tarmoqlararo standartlashtirish tizimining 18 sinfi berilgan. Bu sohadagi normativ hujjatlar davlat fondi “O‘zstandart” agentligi tomonidan hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat idoralari tomonidan shakllantiriladi. Mazkur normativ hujjatlar davlat fondi umumiy va maxsus texnik reglamentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

## **10.5. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, ro‘yxatga olish tartibi**

Mahsulotlisch\xizmatlarga umumiy texnik reglamentlar va maxsus texnik reglamentlarni, shuningdek, ularga kiritiladigan o‘zgartishlar va qo‘shimchalami hamda ularni bekor qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish umumiy qoidalarini belgilaydi hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat idoralari, texnik jihatdan tartibga solish sohasida o‘z vakolatlari doirasida faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralari hamda texnik reglamentlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va qo‘llash bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik subyektilari amalga oshiradi.

Har qanday mamlakat hududidan import qilinadigan mahsulotlisch\xizmatlarga texnik reglamentlar tomonidan taqdim etiladigan tartib mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilgan o‘xshash tovarlarga va boshqa mamlakatda yaratilgan xuddi shunday tovarlarga taqdim etiladigan tartib kabi qulay bo‘lishi kerak.

Texnik reglamentlar xalqaro savdoda ortiqcha to‘sirlarni yuzaga keltirmasligi yoki ularning yuzaga kelishiga olib kelmasligi va shu

maqsadda texnik reglamentlar tomonidan xavfsizlikni ta'minlashga oid qonuniy maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgandan ko'ra, yanada chegaralovchi ta'sir savdoga nisbatan ko'rsatilmasligi kerak.

Texnik reglamentlar xavf darajasini hisobga olgan holda belgilanadigan muvofiqlikni baholash qoidalari va shakllarini, texnik jihatdan tartibga solish har bir obyektga oid muvofiqlikni baholash uchun oxirgi muddatlarni, muvofiqlikni tasdiqlash uchun zarur bo'lgan nazorat, sinovlar va o'lchovlar usullarini, shuningdek, atamalarga, o'rov-idishga, timg'alarga yoki yorliqlarga hamda ularni aks etirish qoidalariiga doir talablarini va davlat nazoratini amalga oshirish tartibini o'z ichiga olishi mumkin.

Zararli mikroorganizmlar va qo'shimchalar, kasalliklar, kasallik turqatuvchilar, ifloslantiruvchi moddalar, toksinlar, zararkunandalar va begona o'simliklar kirib kelishi yoki tarqalishi munosabati bilan yuzaga keladigan insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zarar yetkazilishi xavfi darajasi hamda zarami bartaraf etish hisobga olingan holda texnik reglamentlarda sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlarni ham ko'rsatiladi.

Sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlarida quyidagilar belgilab qo'yiladi:

- mahsulotga, uni sinash, tekshirish tartibiga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya xulosasini berish tartibiga qo'yiladigan majburiy talablar;
- karantin va veterinariya-sanitariya qoidalari, shu jumladan, hayvonlar va o'simliklarni tashish bilan bog'liq talablar;
- namunalarni olish usullari va tartibi, insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zarar yetkazilishi xavfini tadqiq etish hamda baholash usullari hamda ekologik normalar va boshqa talablar.

Texnik reglamentlarda ayrim toifadagi fuqaro'lар hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlaydigan hamda transchegaraviy xavfli ishlab chiqarish obyektlariga oid xavfsizligiga qo'yiladigan maxsus talablar bo'lishi mumkin.

Mahsulot\ish\xizmatlardan uzoq muddat foydalanish oqibatida va yoki yo'l qo'yiladigan xavf darajasini aniqlash imkoniyatini bermaydigan boshqa omillar ta'siri sababli insonning hayoti va sog'lig'iga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazadigan mahsulotlar, ishlxizmatlarga qo'yiladigan talablar texnik reglamentlarda bo'limasligi kerak. Shu bilan birga texnik reglamentlarda ehtimolda ko'zda tililgan zarar to'g'risida hamda insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof-

muhitga zarar yetkazilishi xavfi qaysi omillarga bog'liq bo'lsa, shu omillar haqida iste'molchilarни xabardor qilishiga doir talablar bo'lishi mumkin.

Texnik reglamentlarga kiritiladigan o'zgartishlar va qo'shimchalar hamda ularni bekor qilish bo'yicha takliflar texnik reglamentlarni ishlab chiqish uchun belgilangan qoidalar bo'yicha ishlab chiqiladi.

Texnik reglamentlar quyidagi tuzilimali elementlarni o'z ichiga olishi mumkin: titul varag'i; so'zboshi; qo'llanish doirasi; ta'riflar; himoyalovchi izoh; bozorga kirish qoidalari; texnik talablar; muvofiqlik prezumsiyasi; muvofiqlikni tasdiqlash; muvofiqlikni baholash bo'yicha ishlar natijalarini o'zar olish; o'tish davri; davlat nazoratini amalga oshirish tartibi; ilova.

**Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi.** "O'zstandart" agentligi texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqa davlat xo'jalik boshqaruvi idoralari asoslangan takliflari bo'yicha shakllantiradi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ekspert kengashlar texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiquvchilar bo'ladi. Ekspert kengashlar texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiqishda O'zDSt 1.1, O'zDSt 1.6, O'zDSt 1.24, O'zDSt 18.0, O'zDSt ISO/IEC 51, O'zDSt 1052, O'zRH 51-010 me'yoriy hujjatlari hamda mahsulotishva xizmatlarni xavfsizlikka milliy va xalqaro talablarga doir xavfsizlik talablarini belgilanadigan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ va normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

Texnik reglamentlar loyihasini ishlab chiqish uchun asos sifatida xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy va O'zbekiston davlat standartlaridan hamda boshqa davlatlarning ekvivalent texnik reglamentlaridan to'liq yoki qisman foydalansa bo'ladi.

O'zDSt 1.7 va O'zDSt ISO/IEC 21 standartlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan shartda ishlab chiqaralayotgan standarlardan belgilangan darajada foydalanishga ruxsat beriladi. Bunda belgilangan tartibda texnik reglamentlarda ko'rsatilgan standartlar matnlari to'liq yoki qisman keltiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- manfaatdor foydalanuvchilar loyihasi bilan tanishishga imkon berish uchun aniq texnik reglamentni ishlab chiqish to'g'risida "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi,

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasini naborot nashrda bildirishnomani ishlab chiqish vaqtidan ikki haftadan kechikmay dastlabki bosqichda chop etadi;

- tuzatishlar kiritish va mulohazalar inobatga olinishi mumkin bo'lganda, ishlab chiqishning dastlabki bosqichida bildirishnomma chop etadi;
- rasmiy talab asosida to'liq tavsiflar yoki amaldagi xalqaro standartlar bilan jiddiy farqlanishlarni ko'rsatib, ishlab chiqilayotgan texnik reglament loyiha nusxasini manfaatdor soydalanuvchilarga taqdim etadi;
- manfaatdor tomonlarga mulohazalarini tayyorlash, muhokama qilish va ishlab chiquvchi ushbu muhokamani inobatga olishi uchun vaqt nijratib beradi.

Ishlab chiquvchining texnik reglamentiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqish usuli yoki tovarlarni moslashtirishga ishlab chiqaruvchiga vaqt berish uchun texnik reglamentlarni chop etish va ular kuchga kirishi orasida aniq vaqtini nazarda tutadi.

**Texnik reglament loyhasini kelishish tartibi.** Texnik reglament loyihasi oxirgi tahrirni ishlab chiqishni tugatish ekspert kengashi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomani ekspert kengashning hamma a'zolari imzolaydi.

Texnik reglament loyihasi ekspert kengashning bayonnomasi qaroriga muvofiq barcha manfaatdor tashkilotlar kelishilgan deb hisoblanadi. Ekspert kengashning tarkibiga asosiy manfaatdor tashkilotlarning vakili (vakillari) kiritilmagan holat bundan mustasno. Kelishuv 30 kun ichida yozma ravishda o'tkaziladi.

**Umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash tartibi.** Ekspert kengashlar qoidada belgilangandek, ekspert komissiyasi tomonidan ekspertizani o'tkazish uchun (o'z vakolat doirasida) "O'zstandart" ngentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga texnik reglamentlar loyihalarini quyidagi hujjatlar to'plami bilan kiritadi:

- ilova xat;
- loyiha risola holda ikkita nusxada – davlat tili va rus tilida;
- loyihami ishlab chiqish to'g'risida bildirishnomaning nusxasi;
- ishlab chiqish va texnik reglamentni joriy etish texnik-iqtisodiy asoslanishi;
- texnik reglamentga qo'yiladigan talablarga rioya etishni ta'minlaydigan, mintaqaviy (Yevropadagi), davlatlararo, xalqaro

standartlar ro'yxatini yoki boshqa standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni qamrab oladigan ilova;

- taqrizlar ma'lumoti;
- tushuntirish xati;
- kelishmovchilik to'g'risida ma'lumot (kelishmovchilik mavjud bo'lganida);
- texnik reglamentni ishlab chiqadigan va joriy etadigan davlat va xo'jalik boshqaruvi idoraalar tomonidan tasdiqlangan texnik reglamenti joriy etish bo'yicha texnik-tashkiliy chora-tadbirlarning rejasi.

Hamma sanab chiqilgan hujjatlar hamda boshqa kerakli hujjatlar, ilova xatidan tashqari, elektron shaklda ham taqdim etiladi.

Ekspert komissiyaning ijobiy xulosasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlashga kiritish uchun "O'zstandart" agentligiga Vazirlar Mahkamasining qaror loyihasini, eksport komissiyasining xulosasi bilan texnik reglamentlar loyihasi, tushuntirish xatini muqovalatilgan holda to'rtta nusxada kiritadi. Mulohazalar mavjudligida texnik reglamentlar loyihasi eksport komissiyaning xulosasi bilan oxirga yetkazish uchun ishlab chiquvchiga qaytariladi.

Texnik reglamentlar, ularga o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish va bekor qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. Tasdiqlangan texnik reglamentlar, ularga o'zgartish va/yoki qo'shimchalar, hamda ularni tasdiqlash bo'yicha tashkiliy-boshqaruv hujjatlari qoidada belgilangan tartibda davlat fondini komplektlash uchun yuboriladi.

**Maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlash tartibi.** Ekspert kengashlar qoidada belgilangandek, komplektida eksport komissiyasi tomonidan ekspertizani o'tkazish uchun (o'z vakolat doirasida) "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga texnik reglamentlar loyihalarni kiritadi.

Ekspert komissiyasining ijobiy xulosasida "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolat

dorasida texnik reglamentlarni tasdiqlaydi yoki tegishli davlat boshqaruv idoraligiga tasdiqlash uchun yuboradi.

“O‘zstandart” agentligi xo‘jalik boshqaruvi idoralari tomonidan ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni tasdiqlaydi. Texnik reglamentlar vakolatli va boshqa davlat idoralari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qarorlar/buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Muloqazalar mavjudligida, texnik reglamentlar loyihasi ekspert komissiyasining xulosasi bilan oxiriga yetkazish uchun ishlab chiquvchiga quytariladi. Tasdiqlangan texnik reglamentlar, ularga o‘zgartish va/yoki qo‘srimchalar hamda ularni tasdiqlash bo‘yicha tashkiliy boshqariladigan hujjatlar qoidada belgilangan tartibda davlat fondini butlash uchun yuboriladi.

**Texnik reglamentni amalga kiritish.** Umumiy va maxsus texnik reglamentlar rasmiy e’lon qilingan paytdan e’tiboran, kainida olti oy o’tgunch amalga kiritiladi. Texnik reglamentni kiritish sanasi ekspert kengashlar tomonidan o’matiladi. Texnik reglamentlar vakolatli va boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralari qaror/buyruqlar va xo‘jalik yurituvchi subyektlari buyruq/farmoyishlari bilan joriy qilinadi.

**Texnik reglamentlarni belgilash.** Texnik reglamentlar davlat roystriga kiritilganda, tasdiqlash darajasiga qaramasdan texnik reglamentlar belgilishi “O‘zstandart” agentligi tomonidan beriladi.

## Nazorat savollari

1. “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?
2. Texnik jihatdan tartibga solish tizimi “standartlashtirish”ga qanday munosabatlarni belgilaydi?
3. Texnik jihatdan tartibga solish bo‘yicha qanday atamalarni bilasiz?
4. Texnik jihatdan tartibga solishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini tushuntiring.
6. Texnik jihatdan tartibga solish tamoyillarini tushuntiring.
7. Umumiy va maxsus texnik reglamentlar qanday talablarni belgilaydi.
8. Umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini tushuntiring.
9. Texnik jihatdan tartibga solish tizimida qanday xavfsizliklar keltirilgan?
10. Texnik reglamentlarning mohiyatini tushuntiring.

# XI BOB. STANDARTLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

## 11.1. Standartlashtirishning umumiy tamoyillari

Standartlashtirish fan va texnika taraqqiyoti, xorijiy va ilg'or usullar, jamiyat rivoji, hozirgi va kelgusi ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi hisobida ushbu sohadagi rivojlanishlar amalga oshirilishi lozim.

Standartlashtirishning umumiy tamoyillari deb quyidagilarni ham keltirish mumkin:

**1) Tomonlar qiziqishini balanslashtirish.** Standartlashtirish barcha qiziquvchi tomonlar, ya'ni mahsulotni iste'molga tayyorlovchilar, ishlab chiqaruvchilarining o'zaro intilishiga va fikrlariga, har bir tomon uchun mahsulotni ko'pqirrali boshqarish bo'yicha uning sifati, iqtisodiy ko'rsatkichi, qo'llanuvchanligi, o'rinn bosishi va o'zaro almashinuvchanligi, uning atrof-muhit, jamiyat hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizligi va boshqa masalalar bilan o'zaro kelishilgan va asoslangan bo'lishi lozim.

**2) Tizimli tamoyil.** Tizim deganda yuqori samaradorlik va kanixarajatli maqsadni bajarish uchun olib boriladigan ishlar va o'zaro bog'liq elementlar majmui tushuniladi. Tizim elementlari aloqalari miqderi aniqlanilgan yoki tasodifiy bo'lishi mumkin. Tizimga kiradigan turli darajada elementlarning o'zaro bog'liqligi va ularning majmu'i ierarxik bog'liqlikda tuzulmani hosil qiladi. Standart talablarini optimallashtirish, odatda, standartlashtirish obyektlarini ko'rsatkichini optimallashtirish bilan bog'liq bo'ladi.

**3) Ishlarning istiqbolligi** kelajakda optimal bo'ladigan hamda standartlashtirish obyektlariga o'matiladigan talablar va me'yordarning yetarli darajada oshirishga bog'liqligi bo'yicha chiqarilayotgan mahsulotni oldindan standartlashtirish tushuniladi. Ilmiy-texnik bashoratlash oldindan standartlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Standartlar buyumlarni asosiy texnik ko'rsatkich darajalari va sifati chegeralari hamda ayni paytda yetarli tavsiflari ko'rib chiqilishi lozim.

**4) Standartlashtirishning o'zgaruvchanligi.** Standartlarni davriy ravishda ularga o'zgarish kiritilishi, bekor qilinishi yoki ularni ko'rib chiqilishini hamda tekshirishni ta'minlaydi.

Amaldagi standartlar muddati bo'yicha uning amal qilishi muvofiqligiga tekshiriladi. Tekshirish paytda ularning ilmiy-texnik darajasi va eskirgan ko'rsatkichlar, me'yorlar, tavsiflar, talablar, atamalar, tushunchalar va belgilashilar asoslangan holda, zarur bo'lsa, yangilari ishlab chiqiladi.

**5) Standartlashtirishda maqbullashtirish.** Standartlashtirish obyekti ning foydasiz ko'rsatkichlari aniqlansa, uslubiy va me'yoriy-texnik hujjatlarida bunday natijalar aks etishi bilan takomillashtirish va ularni unifikasiyalash hamda maqbul (optimal)lashtirish usullari ishlab chiqiladi.

Standartlashtirish bo'yicha ishlarda, texnologik jarayonlarni optimal-lashtirish hamda sifatni oshirishni ta'minlash uchun takomillashgan optimallashtirish usullari keng va samarali qo'llanilib kelinmoqda.

**6) Mahsulot xizmatlarni o'zaro almashinuvchanligi, bir-biriga mosligi va xavfsizligini ta'minlash usuli standartlarni ishlab chiqishda muhimligi.** Bu ko'rsatkich davlat ahamiyatiga molik bo'lib, buning uchun ularni standartlashtirish, mahsulot, xizmat va jarayonlarni sertifikatlash-tirish va ularni bajaralishini tekshirishni amalga oshirish hisoblanadi.

Standartlarda majburiy talab va usullar ularni xolisona tekshirish va ko'rsatilgan talablarga javob berishi "majburiy standartlar" aniq qilib belgilangan matn bo'yicha keltiriladi.

**7) Uyg'unlashganlik tamoyili.** Uyg'unlashgan (o'zaro aloqador) standartlarni ishlab chiqilishi qaratadi. Bitta obyektga bizning davlat standartlashtirish tashkiloti qabul qilgan hamda xalqaro (hududiy) tashkilotlar ishlab chiqqan o'zaro aloqador aynan o'xhash standartlardan foydalanishda hujjatlarning bir xillagini ta'minlanishi tushuniladi.

**8) Standartning aniq rasmiylashtirilishi.** Standartlarda me'yor va talablarning ikki xil mazmunga ega bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

**9) Standartlashtirishning samaradorligi** ijtimoiy va iqtisodiy samara sanaladi. Iqtisodiy samara standartlarda texnikaviy va axborot ma'lumotlarni bir-biriga to'g'ri kelishini, materiallar sarfini kamaytirishni, chidamlligini oshirish va resurslarni tejashni ta'minlaydi. Ijtimoiy samara standartlarda insonlar hayoti va sog'lig'i hamda atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlarini yaratadi.

## 11.2. Maqbul sonlar qatori tizimi

Maqbul sonlar va o'lcharmlar ko'rsatkich, o'lcharmlarning tarmoq hamda tarmoqlararo moslashuvlarini ta'minlaydi. Bu esa buyum elementlarining o'zaro almashinuviga, egiluvchan ishlab chiqarish tizimlarini tuzishga, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga, asbob-uskunalar, moslamalar, tekshirish (o'lhash, sinash, tablil qilish) vositalarining asossiz xilma-xillagini qisqartirishga yordam beradi.

Zamonaviy standartlashtirishning nazariy asosini maqbul sonlar tizimi tashkil etadi. *Maqbul sonlar yangidan yaratilayotgan buyum uchun barcha*

*ko'rsatkich kattaliklarini belgilashda, ayniqsa, olibidan tanlashni tavsiya etadigan sonlar ham deyiladi.* Fan va texnikada maqbul sonlar qatori o'lchamlarni tanlash asosida keng qo'llaniladi. Standartlashtirishda maqbul sonlar qatoridan foydalanishni ko'rsatkich standartlashtirish deb ham ataladi. Ko'rsatkich standartlashtirishning, asosan, ikki xil turi mavjud bo'lib, bular geometrik va arifinetik progressiya ko'rinishida bo'ladi. Har bir hadi avvalgi hadga doimiy sonni qo'shish (arifmetik progressiya) yoki doimiy songa ko'paytirish (geometrik progressiya) bilan olinadigan sonlarning ketma-ket maqbul sonlar qatorlaridir.

#### ***Standartlashtirishda geometrik progressiyuning qo'llanilishi.***

Maqbul sonlar qatori ISO tavsiyalari asosida ГОСТ 8032 standarti bilan me'yorlangan. Ushbu standart bo'yicha to'rtta asosiy (R5, R10, R20, R40) va ikkita qo'shimcha (R80, R160) o'nlik maqbul sonlar qatori belgilangan bo'lib, faqat alohida texnik asoslangan holatlarda qo'llashga ruxsat etiladi. Bu qatorlar geometrik progressiya asosida  $\varphi$  qiymati bo'yicha tuzilib, quyidalarga teng:

$$\begin{aligned} R5 (1,00; 1,60; 2,50; 4,00 \dots) \text{ qatori uchun } \varphi &= \sqrt[4]{10} \approx 1,6 \\ R10 (1,00; 1,25; 1,60; 2,00 \dots) \text{ qatori uchun } \varphi &= \sqrt[10]{10} \approx 1,25 \\ R20 (1,00; 1,12; 1,25; 140; \dots) \text{ qatori uchun } \varphi &= \sqrt[20]{10} \approx 1,12 \\ R40 (1,00; 1,06; 1,12; 1,18 \dots) \text{ qatori uchun } \varphi &= \sqrt[40]{10} \approx 1,06 \\ R80 (1,00; 1,03; 1,06; 1,09 \dots) \text{ qatori uchun } \varphi &= \sqrt[80]{10} \approx 1,03 \\ R160 (1,00; 1,015; 1,03; 1,045 \dots) \text{ uchun } \varphi &= \sqrt[160]{10} \approx 1,015 \end{aligned}$$

Bular kichik tomondan va katta tomondagi tugallanmas qiymatlar hisoblanadi. Kattalashtirish yoki kichiklashtirish yo'nalishida o'lchamlar yoki ko'rsatkichlarning chegaralarinagan o'zgarishiga ruxsat etilgan.


Maqbul sonlar qatorining raqami o'nlik oraliq (1dan 10gacha)dagi qator elementlari miqdorini ko'rsatadi. Bunda 1,00 soni o'nlik oraliqqa kirmsandan, faqat (0,10 dan 1,00 gacha) o'nlik oraliqqa o'tishdagi yakunlovchi son bo'lib xizmat qiladi.

Maqbul sonlar qatorini mikroprotsessor yoki protsessorlarning o'lchamlarini belgilanishi misolida ko'ramiz. Bu qurilma kompyuter ishini boshqarish, barcha hisob-kitobiari va buyruqlarning bajarilishini ta'minlaydi. U kichkina, to'rtburchak elektron sxema sekundiga bir necha yuz million amallarni bajaradi (11.1-rasm).



*11.1-rasm. Kompyuer mikroprotsessorining urumiyy ko'rinishi.*

Uning tezligi Megagerslarda hisoblanadi va protsessor nomidan keyin yoziladi, masalan, Pentium 700. Geometrik progressiyaning grafik chizmasi 11.2-rasmda keltirilgan.



*11.2-rasm. Geometrik progressiyaning grafigi.*

Mavjud qator uchun har bir maxsus 2, 3 yoki  $n$ - qatorlar tanlanmani hosil qilishda ruxsat etilgan. Asosiy qatordan tarkib topganning har uchinchi qiymati birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qiymatidan boshlanganligi sababli  $R^{10/3}$  qatori hosil bo'ladi, masalan:

R10	1,00	1,25	1,60	2,00	2,50	3,15	4,00	5,00	6,30	8,00	10,00	12,50
R10 <sup>3</sup>	1,00			2,00			4,00			8,00		
R10 <sup>3</sup>		1,25			2,50			5,00			10,00	
R10 <sup>3</sup>			1,60			3,15			6,30			12,50

Maxsus qatorlar bilan geometrik progressiyaning  $\varphi$  maxrajini qatorning turli oraliqlarida hosil qilish mumkin. Standartlashtirishda geometrik progressiya qatorlari o'zining foydali xususiyatlari bilan ahamiyatli.

1. Qatorning deyarli bir-biriga o'xshamas istalgan barcha elementlari doimiy bog'liq bo'ladi. Bu xususiyat bilan geometrik progressiya o'zining tabiatini yoritib beradi. Masalan,  $1 - 2 - 4 - 8 - 16 - 32 - 64 - \dots$  qatorida  $\varphi = 2$  bilan progressiyaning boshqa istalgan navbatdagi elementlari 100 %ga katta.

2. Progressiyani istalgan elementini boshqa bir songa ko'paytirish yoki bo'linishi hosil bo'lgan son ham shu progressiyaning elementi hisoblanadi.

Bu xossaladan bitta maqbul sonlar qatori chegarasida standartlashtirilgan ko'rsatkichalarni o'zaro bog'lashda foydalaniadi. Kelishilgan ko'rsatkichlar standartlarni sifatli ishlab chiqishda asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Geometrik progressiya ko'rsatkichlar o'zaro kelishishda faqat chiziqli emas, balki kvadratik va kubik bog'lanishda ham bo'ladi.

TOCT 8032 bo'yicha texnikaviy asoslangan hollarda R asosiy qator o'rniда maqbul sonlar atrofida R' va R'' qatorlarni qo'llashga ruxsat etilgan.

Radioelektronikada E qatordan tashkil topgan maqbul sonlar qisman foydalaniadi. Ular Xalqaro elektr texnika komissiyasi (IEC) tomonidan o'matilgan bo'lib, geometrik progressiya quyidagi qiymatlar bilan almash-tirilgan: E3 qator uchun  $\varphi = \sqrt[3]{10} \approx 2,2$ ; E6 qator uchun  $\varphi = \sqrt[6]{10} \approx 1,5$ ; E12 qator uchun  $\varphi = \sqrt[12]{10} \approx 1,2$ ; E24 qator uchun  $\varphi = \sqrt[24]{10} \approx 1,1$ .

Kompyuterning tezkor xotira mikrosxemalari – kompyuterning vaqtin-chalik xotirasi (11.3-rasm). Undan dasturlar ishlash jarayonida zarur bo'lган ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniadi.



*11.3-rasm. Kompyuterning tezkor xotira mikrosxemalari.*


Kompyuter o'chirilgandan keyin shu xotiradagi ma'lumotlar yo'qotiladi. Uning xotira hajmi 16, 32, 64, 128, 256, 512, 1024 Mb o'lchamlarda bo'lishi geometrik progressiya qonuniyati bo'yicha kompyuterning tezlik darajasini qisman belgilaydi.

**Standartlashtirishda arifmetik progressiyaning qo'llanilishi.** Standartlashtirishda ba'zan arifmetik progressiya bo'yicha tashkil topgan maqbul sonlar qatorlari ham qo'llaniladi. Tikuvchilik, kosibchilik va shunga o'xshash bir qancha sanoatlarda buyumlarning o'lchamini o'matishda standart o'lchamlar qatorini arifmetik progressiya asosida hosil qilish mumkin bo'ladi.

Sonlarning arifmetik progressiya bo'yicha tuzilgan qatori ikki qo'shni hadlar qiymatining har xilligi (intervali) qatorning barcha diapazonida o'zgarinas bo'lib qolishi bilan tavsiflanadi:

$$N_n - N_{n-1} = d = \text{const},$$

bu yerda  $N_n$  va  $N_{n-1}$  – qatorning yonma-yon turgan hadlarining qiymatlari. Arifmetik progressiyaning grafigi 11.4-rasmda keltirilgan.



11.4-rasm. Arifmetik progressiyaning grafigi.


Misollar: 1-3-5-7-9; 101-103-105-107-109.

Bundagi sezilarli kamchiliklar:

- kichik kattaliklar doirasida qiyatlarning siyrakligi;
- katta kattaliklar doirasida qiyatlarning tig'izligi;

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko'pincha pog'onali-arifmetik qatorlar qo'llaniladi.

Pog'onali-arifmetik progressiyada bir xil bo'lмаган turli progressiyalar foydalilanildi. Pog'onali-arifmetik progressiyaning grafigi 11.5-rasmda keltirilgan. Qiymatlarning har xilligi barcha qator uchun emas, balki qatoming bir qismi uchungina doimiy bo'lgan sonlar qatoridir. Kichik tur o'lchamlar uchun kichik har xillik tanlanadi, kattalari uchun katta har xillik tanlanadi. Masalan, quyidagi ketma-ketlikdagi sonlar qatori:



11.5-rasm. Pog'onali-arifmetik progressiyaning grafik ko'rinishi.

Bunday progressiyalarai hosil qilish va uni amalda ishlatalishini milliy valuta birligi qiyatlari, ya'ni 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000 so'm misoldida ko'rishimiz mumkin.


Buyumlarning chiziqli nominal o'lcamlarini (diametrlari, uzunligi, balandligi va h.) tanlash uchun 0,001dan 100000 mm gacha o'lcamlar maqbul sonlar qatori FOCT 6636 "Nominal chiziqli o'lcamlar" standarti asosida ishlab chiqilgan. Ushbu standartda qatorlar Ra5, Ra10, Ra20, Ra40 va Ra80 ko'rinishida belgilangan.

Chiziqli o'lcam (diametr, uzunlik, balandlik, kenglik)larning kattalik solishtirma og'irligi va ularning geometrik ko'rsatkichlar bo'yicha o'zaro almashinuvini ta'minlashda qator chiziqli o'lcovlarni ular uchun baza sifatida qo'llanilayotgan o'lcovlarning miqdorini chegaralovchi maqbul sonlarni qabul qilgan holatda reglamentlash maqsadga muvofiq. O'lcovlar Ra5, Ra10, Ra20, Ra40 bo'yicha tuzilgan va ular quyidagicha:

1	0,010	0,100	1,00	10,0	100	1000	10000
2	-	0,105	1,05	10,5	105	1060	10600
3	0,011	0,110	1,10	11,0	110	1120	11200
.....							
12	0,019	0,190	1,90	19,0	190	1900	19000
13	0,020	0,200	2,00	20,0	200	2000	20000
.....							
38	0,085	0,850	8,5	85	850	8500	
39	0,090	0,900	9,0	90	900	9000	
40	0,095	0,950	9,5	95	950	9500	


Maqbul sonlar qatorining geometrik tasvirlarini rasmlarda keltirilgan misollar tariqasida ko'rib chiqaylik. Bular quyidagicha:

Geometrik progressiya bo'yicha 3,15 – 50 qator uchun  $\varphi=1,6$  (11.6-rasmda keltirilgan).




11.6-rasm. Geometrik progressiyaning grafik tasviri.

Arifmetik progressiya bo'yicha 3,15 – 50 qator uchun  $d=7,81$  (11.7-rasmda keltirilgan).



11.7-rasm. Arifmetik progressyaning grafik tasviri.




I – arifmetik progressiya. II – pog'onali arifmetik, III – geometrik progressiya.

3.8-rasm. Maqbul sonlar qatorlarining o'zaro bog'liq grafigi.

Maqbul sonlariga davlat standartlari mahsulotlarning barcha turlarini miqdoriy ko'rsatkichlari va son qiymatlari, ko'rsatkichlarini o'rnatish, ularni iqtisodiyotning barcha sohalariga qo'llash zaruriyati hamda umumsanoat ahamiyatga molik bo'ladi. Maqbul sonlardan foydalanish yangi mahsulotlarni ishlab chiqish jarayonini tezlashtirishga, loyihalashtirish jarayonida son tavsiflari va to'g'ri ko'rsatkichlarni tanlashga hamda hisoblashni soddalashtirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtida buyumlar, mashina va qurilmalarning ko'rsatkich qatorlarini qurishda maqbul sonlar qateridan foydalanib, geometrik progressiya bo'yicha qurish kengroq tarqalgan. Masalan, FOCT 18200-79, FOCT 14965-85 va boshqa standartlarga ko'ra, R10 qatori bo'yicha elektr dvigatellar va generatorlarning nominal quvvati belgilangan. Temirchilik-press mashinalarining asosiy ko'rsatkichlarining qiymati R5 va R10 sonlar qatorlariga muvofiq (11.9-rasm).

Biroq, pog'onali, hosil qilingan va kombinatsiyalashgan qatorlardan istisno tariqasida foydalanishga ruxsat etiladi. Masalan, FOCT 11247-74da lentali-arralashda stanogi uchun yog'ochni uzunasiga arralashda quyidagi ketma-ket sonlar qatoriga muvofiq asosiy ko'rsatkichlar o'rnatiladi: eng yuqori balandlik uchun – R20/2; arralash uzatmasi diametri uchun – R40/4; ishchi jarayonida aravachani yuqori uzatish tezligi uchun – R10 va oddiy yurishida – R10/2.



11.9-rasm. Preslarning konstruktiv-unifikatsiyalashgan qatori.

### 11.3. Standartlashtirish usullari

Standartlashtirishning keng tarqalgan usullari sifatida bir xillashtirishni, agregatlashtirishni va turlashni olishimiz mumkin. Aynan shu usullar yordamida o'zaro almashuvchanlikni ta'minlash mumkin. Endi shu usullarni birma-bir ko'rib chiqaylik.

Standartlashtirish bo'yicha faoliyat murakkab va ko'pqirrali. Yuqori sifatli standartlashtirishga erishish bir qator usullardan foydalanishga mo'ljallangan.

Usul (gr. "methodos") – aniqlangan masalani hal etishda nazariy yoki amaliy tadqiqotlarni qabul qilish, qo'llash yo'li. Usul – bu ko'p marotabali takrorlanishlar uchun oldindan rejalashtirilgan va maqbul bo'lgan murakkab faoliyatni bajarish yo'li.

Standartlashtirishda quyidagi kompleks usullardan foydalaniladi: falsafiy; umumilmiy; maxsus.

#### *1. Falsafiy usullar.* Bunga quyidagilar taalluqli:

- teng huquqlilik usuli – nazariy tadqiqotlarning ilmiy usuli bo'lib, o'zida obyekt to'g'risidagi abstrakdan, muayyan hamma tomonlama o'rGANISHGA harakat qilingan fikrlarni ifoda etadi;

- tarixiy usul – vaqt bo'yicha o'zgarish va rivojlanishga faoliyat sifatida imkon berishga mansub usul;

- mantiqiy usul – turli nazariyalar ma'lumotlariga tayanib, ishonchli bilimni kafolatlovchi, mantiqiy aloqadorlikni va munosabatni aniqlaydi.

*2. Umumilmiy usullar.* Bu usullar ilmiy bilishning empirik va nazariy darajasida turli maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Bularga quyidagilar mansub:

- empirik (kuzatuv, solishtirish, eksperiment, o'lchash) usullar;
- nazariy (ideallashtirish, shakllantirish, aksiomali) usul, ekstrapolatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish);
- empirik-nazariy usullar (mavhumlashtirish, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtirish, tizimlashtirish, sinflashtirish).

### *Optimallashtirish usullari:*

- Matematik optimallashtirish usuli – optimallashtirilgan standartlash-tirish obyektining ishchi holati va matematik modelini batafsil yaratishni tashkil etish asosidagi usul. Bu usul ilgarilanma standartlarni ishlab chiqishda sifatni bashoratlashni ta'minlashi va yuqori aniqligi bilan farqlanadi. Biroq undan faqat yaxshi o'rganilgan obyektlar, ularni yaratish shartlari va qo'llanilishini optimallashtirishda foydalanish mumkin.

- Ekstrapolatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish) yordamida to'g'ridan to'g'ri bashoratlash usuli. Bosh usuli o'tgan vaqt statistikasidan foydalanish bo'lib, vaqt bo'yicha o'zgarishni hisobga olish imkonini bermaydi. Shuning uchun ekstrapolatsiya usulidan qisqa davr vaqtini bashoratlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

- Funksiya-qiymatli tahlil asosida optimallashtirish usuli, ya'ni iqtisodiy samaradorlik, vaqt bo'yicha xarajat, samarani solishtirish va bu asosida eng yaxshi variantlarni tanlash. Ammo bu yerda standartlashtirish obyekti qo'llanilishidan samara variatsiya tahlili nazarga olinmaydi.

- Muhandislik hisoblari (mustahkamlik, aniqlik, chidamlilik, ishlab chiqaruvchanlik va boshqa ko'rsatkichlari) asosidagi usul. Taniqli hisoblash usullariga usulning aniqligi juda ham yetarli, ammo u turli obyektlarni solishtirib baholash uchun foydalanib bo'lmaydi, faqat bir turdag'i obyektlarga qo'llash samara beradi.

**Ekspertli usullar.** Ekspertlarning tajribasi, ziyrakligi, bilimdonligiga asoslangan. Ekspertlarning xulosalari yuqori aniqlikda, ishonchli, asoslangan, yanglishmagan, jamoa fikridan mustaqil, yangilangan, dadil va keng ko'lamli bo'lishi lozim. Ekspert usullari obyekt to'g'risida nazariy yo'l bilan yoki eksperimental usullar bilan ma'lumotlar olish umkonli bo'lмаган hollarda qo'llaniladi.

Quyidagi ekspert usullari mavjud: evristik (aqliy hujum, ssenariyli, anketali) va jamoali ekspertizalar. Yanada xolisona va istiqbolli usul bo'lib, ekspertlar guruhi doirasida jamoali ekspertiza usuli hisoblanadi. Biroq muayyan sharoitlarga bog'liq holatlarda bu usullar kombinatsiyalashgan holda qo'ilaniladi.

**3. Maxsus usullar.** Amaliyotda ko'proq ishlatiladigan standartlashtirishning maxsus usullari quyidagilar:

- unifikatsiya (bir xillashtirish);
- tiplashtirish (turlash);
- agregatlashtirish;
- modullashtirish.

Shuningdek, ko'rsatkich standartlashtirish, kompleks standartlashtirish va ilgarilanma standartlashtirish kabi maxsus usullar ham mavjud. Ko'proq va kengroq miqyosda qo'llaniladigan usullarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

#### **11.4. Amaliyotdagi umumilmiy standartlashirish usullari**

Standartlashtirish obyektlarini tizimlashtirish standartlashtirishning muayyan obyektlari majmuiyni ilmiy ketma-ketlik bilan tasniflash\sinflash va muayyan tartiblashtirishdan iborat.

Ixtiyoriy obyektni tizimlashtirish foydalananish uchun qulay, aniqlangan tizimni shakllantirish va ularni ketma-ketlikda joylashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Tizimlashtirishning eng oddiy tizimi turli lug'at va ma'lumotlardan foydalaniladigan alifbo hisoblanadi. Standartlashtirish obyektlarini tartib bo'yicha raqamlashtirish yoki ularni voqealar ketma-ketligiga asoslangan holda joylashtirishda qo'llaniladi. Masalan, FOCT, O'zDSt standartlarini o'sib borish tartibi bo'yicha raqamlashtirish va undan so'ng qabul qilingan yili ko'rsatiladi.

Kompyuter texnologiyalari asrida yagona tamoyillarni ishlab chiqish va usullarni tizimlashtirishda axborot moslashuvchanligini ta'minlash maqsadida sinflashtirish, identifikatsiyalash va kodlashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Har xillikni tizimlashtirishning asosi sinflashtirish\tasniflashtirish hisoblanadi.

**Tasniflashtirish\sinflashtirish** – obyektlar to'plamini qabul qilingan usulga muvofiq aniqlangan alomatlar asosida farqlash yoki ularni kelib chiqishi bo'yicha tasnifiy guruhlash (taksonlar)ga ajratish.

**Alomatlar** – obyekt shaklini boshqalaridan farqlovchi obyektning o'ziga xos xossasi. Obyektlarni tasniflashtirishda ularni umumiy alomatlariga bog'liq bo'lgan sinf, sinfosti, turi, razradlar guruhi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha joylashturish hamda bir-biriga bo'ysingan obyektlar tizimi yaratiladi.

Umumiy tasniflash o'zida ixtiyoriy obyektlar ketma-ketligi usulini namoyon etib, uni qo'llash universal, shuning uchun bu usul aniqlashtirish-

ni talab etadi. Faqat "tasniflashtirish\tasniflashgan" tushunchasining 900dan ortiq ta'rifi ma'lum. Ulardan eng ko'p tarqalgani va sinflash ma'nosi to'g'risida yetarlicha aniq tushunchani beruvchisi quyidagilar hisoblanadi: obyektlar tasnifi yoki bu tushunchajarning o'zaro bog'liqligini o'matish vositasi sifatida foydalilanligan, inson faoliyati yoki bilimlar sohasida u yoki bu ketma-ket bog'langan tushunchalar (obyektlar tasnifi) tizimi.


Tasniflashtirish va kodlashtirish fikrlash jarayoni faolligi bilan bevosita bog'liqdir, ayniqsa, uning asosiy qismi bo'lmish bu ma'lumotni o'zlashtirishga javob beradi.

Shu jihat bilan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo'yicha bajaruvchining ishlarini optimallashtirishga bog'liq. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarida ma'lumotlarni haddan ziyod hajmda bo'lishini hisobga olib, uni aniq ishlashi uchun amaldagi vaqt rejimida ulardagi ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlash lozim. Bundan ma'lumotlarni sifatlari sinflashda kompyuter texnologiyalarini qo'llash bilan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning optimallashtirish hamda shu tartibda vaqtini qisqartirgan holda ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Tasniflashtirish\sinflashtirish usuli to'plam va to'plam ostilariga bo'lish usuli bilan aloqadorligi darajasi muhim ahamiyatga ega. Obyektlarni tasniflashning ikkita asosiy, ya'ni ierarxik va fasetli usuli mavjud.

*Ierarxik usul* bo'yicha tasniflashtirish quyidagi ketma-ketlik bo'yicha amalga oshiriladi:

- obyektning birlamchi to'plamini aniqlash;
- tasniflashtirish obyektning asosiy (mavjud) alomatlarini aniqlash;
- alomatlarning ketma-ketligi tartibini tanlash – ularni miqdori va bo'linish darajasi.



11.10-rasm. Ierarxik usul bo'yicha tasniflashtirish chizmasi.

Tasniflashgan guruhlarning umumiy miqdori  $E_0$  tasniflagichi hajmida shakllanib, quyidagi teng:

$$E_0 = n_1 + n_1 n_2 + n_1 n_2 n_3 + \dots + n_1 n_2 n_3 \dots n_k = \sum_{j=1}^k n_j \Sigma P \quad (11.1)$$

Tasniflashtirishning fasetli usuli birlamchi obyekt to'plamini muayyan masalani hal etish uchun aniqlanilgan alomatlarini namoyon etuvchi mustaqil to'plamostilariga bo'lish natijasida amalga oshiriladi.

Fasetli usul bo'yicha tasniflashtirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- obyektning birlamchi to'plamini aniqlash;
- tasniflashtirish obyektini barcha tomonlama tavsiflovchi asosiy (mavjud) alomatlarini aniqlash;
- fasetlarda bir turdag'i alomatlarni guruhlash va ularni kodlashtirish;
- to'plamostini hosil qilish uchun fasetli formulani aniqlash.

Fasetli usul obyektning muayyan turli tavsiflari yig'indisi asosida "xususiydan umumiyya" tamoyili bo'yicha to'plam ostini shakllanishi bilan o'ziga xosdir.

Kodlashtirish – obyektga yoki obyektlar guruhiga uning nomini bir qancha ramzlar bilan almashadirish imkonini beruvchi yagona belgi (kod)ni qo'yish va belgilash.

Kod – qabul qilingan usulga muvofiq o'zlashtirilayotgan obyektni identifikasiyalash maqsadidagi belgi yoki belgilar majmuasi. Kod belgilashlar alifboli, razradli, tuzilmali, uzunli va nazorat sonli kodlashlar bilan tavsiflanadi.

Alifbo – kodni belgilash uchun qabul qilingan ramzlar tizimi.

Razrad kodi – kodda belgilar holati.

Tuzulmali kod – tarkibni shartli belgilash va nomlanish darajasi uzunligiga bu belgilarga muvofiq, kodda belgilar ketma-ket joylashishining grafik tasviri.

Kodda belgilar soni uning tuzulmasi va obyektlar miqdoriga, to'plamostiga kiruvchi, har bir uzunlik darajasini shakllantiruvchlariga bog'liqligi bilan aniqlanadi. Har bir uzunlikda belgilar sonini aniqlashda yangi obyektlarning paydo bo'lishi mavjudligini inobatga olib, zaxira kodlari nazarda tutilishi lozim.

Kodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- obyektlarni va yoki obyektlar guruhini bir xil ma'noli identifikasiyalash va identifikator bo'lishi lozim;
- belgilar soni minimal (minimal uzunlikda) va berilgan to'plamning barcha obyekt (alomat)larini kodlash uchun yetarli bo'lishi lozim;

- kodlashtiriladigan to'plam obyektlari paydo bo'lgan holatlar uchun yetarli zaxiraning mavjudligi;

- odamlar foydalanishi uchun hamda kodlashtirilgan ma'lumotlari kompyuterda qayta ishlash uchun qulay bo'lishi lozim;

- kompyuter tizimiga kiritishda xatoliklarni avtomatik nazorati imkoniyatini ta'minlash.

Kod uzunligi – koddagi probellarsiz belgilar soni.

Nazorat soni – kod yozuvlarini tekshirish uchun foydalaniladigan hisoblangan son.

Texnik-iqtisodiy ma'lumotlarni kodlashtirish ketma-ket, parallel, tartibli va seriyali-tartibli usullarga bo'linadi.

Ketma-ket kodlashtirish usulida ierarxik sinflashtirish usulida olingan bir-biriga bog'liq joylashgan ketma-ketlikdagi kodlardan foydalanish bilan obyekt va'yoki guruhni sinfli kodi shakllantiriladi.

Parallel kodlashtirish usuli fasetli sinflashtirish usulida olingan mustaqil guruhlangan kodlardan foydalanish bilan sinflashgan obyekt va'yoki sinflangan guruh kodini shakllantrish va uni kiritishdir. Bu holatda kod tuzulmasi fasetli formula bilan aniqlanadi.

Tartibli kodlash usuli natural sonlar qatoridan shakllantirish va undan foydalanish bilan farqlanadi.

Seriiali-tartibli kodlashtirish usuli natural sonlar qatoridan, bir xil alomatlari bilan sinflashgan obyektlari uchun bu sonlar diapazoni yoki alohida seriyasini shakllantirishdan hosil qilinadi.

Tizimlashtirishning boshqa turi identifikatsiyalash bo'lib, bunda obyektga boshqa obyekt to'plamlaridan uni bir xilligini belgilash imkonini beruvchi, yagona nom, belgi, shartli belgilash, alomat yoki alomatlarni yig'indisini berishdir. Mahsulotlarni identifikatsiyalash – mahsulotning bir-biriga aynan o'xshash mavjud alomatlari tavsiflarini o'rnatish.

Masalan, Mahsulotlar umumdavlat tasniflagichi (MUT)da kodlar sinfli (S-MUT) va assortimentli (A-MUT) qismlardan tashkil topgan. Assortimentli kodlash aynan obyekt haqidagi ma'lumotni muayyanlash-tiruvchi, obyekt sinfi to'plamidan bir xilligini belgilovchi mahsulot identifikatsiyasini anglatadi.

Turli darajalarda boshqarish masalalarin hal etish uchun foydalaniladigan na'lumotlarni tasniflash\sinflash va kodlashtirish "Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni tasniflash va kodlashtirish yagona tizimi" (TIIIM FK Yat.- ESKK TESI) deb nomlangan kompleks davlat standartlari bilan belgilanadi.

Shunday qilib, identifikatsiyalash, tasniflash va kodlashtirishdan ma'lumotlar bilan ishslash uchun xorijiy va mahalliy standartlashtirish amaliyotida keng qo'llaniladi. Bu usullarsiz standartlashtirishning maxsus usullaridan: unifikatsiya, tiplashtirish, agregatlashtirish, modullashtirish, optimallashtirishda foydalanish mumkin emas.

#### 11.4.1. Bir xillashtirish usuli

Standartlashtirish obyektlarini simplifikatsiyalash – bu ko'plab ishlataladi-an elementlarni oddiy qisqartirishga asoslangan unifikatsiyalashtirishning elementar ko'rinishi. Ixtiyoriy darajada simplifikatsiyalashni amalga oshirish mumkin. O'zDSt 1.0-1998da bir xillashtirish atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

**Bir xillashtirish** – muayyan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng ma'qul o'lchamlar sonini yoki mahsulot, jarayon yoki xizmat turlarini tanlash. Bir xillashtirish unifikatsiya deb ham yuritiladi. Bu so'z lotincha *uni* – bir, *unio* – birlik (birdamlik) ma'nolarini anglatadi.

Bir xillashtirish eng katta texnik-iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida yangi ishlanmalar hisobiga yoki oddiy qisqartirish (simplifikatsiya) hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Unifikatsiyaning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

- 1) buyumlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishga tayyorlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash muddatlarini qisqartirish yo'li bilan ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanishini tezlashtirish;
- 2) buyumlarni va ularning tarkibiy elementlarini o'zaro almashinuvchanligi va yuqori sifatliligini ta'minlash;
- 3) buyumlarni loyihalash va tayyorlash xarajatlarini kamaytirish;
- 4) tayyorlash mashaqqatini kamaytirish.

Mashina va apparatlarda unifikatsiyalashgan detallar va uzellar qanchalik ko'p bo'lsa, loyihalash va tayyorlash, chizmalar soni, yangi ishlab chiqilayotgan texnologik jarayonlar, loyihalanadigan jihozlar miqdori shunchalik qisqarib boradi. Unifikatsiya ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va seriyali ishlab chiqarishni oshishiga, yangi mahsulotni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish tezligini ta'minlashga, maxsus ishlab chiqarishni tashkil etishga imkon yaratadi. Unifikatsiyaning vazifalari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- yangi yaratilayotgan mahsulotlar guruhi bir xilligi yoki tarkibiy element (agregat, uzel, detal)larini ishlab chiqarishda o'zlashtirilgan, vazifa viy qo'llanilishi oldin loyihalashtirilgan mahsulotlardan foydalanish;

- yangi yaratilayotgan yoki modernizatsiyalangan buyumlami qo'llash uchun unifikatsiyalashgan tarkibiy elementlarni ishlab chiqish;
- konstruktiv-unifikatsiyalashgan buyumlar qatorini ishlab chiqish;
- buyum va materiallar qo'llanilishiga ruxsat etilayotgan nomenklaturalarni maqsadli minimumga qisqartirish.

Bir xillashtirishga turli talqinlar berishadi. Umuuniy olganda bir xillashtirishni elementlarning turli-tumanligini ular qo'llanadigan tizimlarning turli-tumanligiga nisbatan qisqartirilishi deb tushunish ko'proq maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bir xillashtirish asosan 3 ta darajada o'tkaziladi: korxona darajasida; tarmoq darajasida; tarmoqlararo darajada.

Keyingi paytlarda xalqaro bir xillashtirish ham keng rivojlanmoqda. Bir xillashtirish muayyan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda uning yo'nalishi, turi va darajasi belgilanadi. So'ngra bir xillashtiriladigan buyumlarning chizmalarini va ularning tahliliy ina'lumotlari yig'iladi va bu chizmalar oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra tabaqalanadi. Shundan so'ng yoki yangi konstruksiya ishlab chiqiladi yoki amalda bo'lganlarini ichidan boshqalarining o'mini bosishi mumkin bo'igani tanlanadi.

Bir xillashtirish darajasi namuna o'lchamlari doirasidagi qo'llanish koeffitsiyenti asosida aniqlanishi mumkin.

Buyumlarning standart va bir xillashtirilgan detallar va tarkibiy qismlar bilan ta'minlanganlik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

### 1. Qo'llanishlik koeffitsiyenti bilan, %da

$$K_{np} = \frac{n - n_0}{n} \cdot 100 \quad (11.2)$$

bu yerda  $n$  – buyumda detallar va tarkibiy qismlarning umumiy miqdori;  $n_0$  – tanlangan namuna o'lchamlar soni.

### 2. Takrorlanishlik koeffitsiyenti bilan, %da


$$K_n = \frac{m - m_0}{m - 1} \cdot 100 \quad (11.3)$$

Shunga o'xshash qo'llanishlik koeffitsiyentini qiymat bo'yicha aniqlash mumkin.

Endilikda bir xillashtirishni standartlashtirishning bir usuli sifatida emas, balki alohida, mustaqil bir faoliyati sifatida qaralmoqda.

Amaliyotda sanoat tarmoqlarida butlovchi buyumlarning unifikatsiyasi bo'yicha tadbirlar qabul qilinib, namunaviy elektr qurilmalari, elektr dvigatellar, aylanish podshipniklari, uzutmalar tasmalarini qo'llash bo'yicha chegaralangan standartlarni yaratish yo'li bilan tarmoqlararo unifikatsiyalash qo'llanilmoqda. Masalan, qurilishda yuk ko'tarish kranlari uchun FOCT 13355-79 "Qurilish minora kranlari. Asosiy ko'rsatkichlari" standartida

harakatlanuvchi sakkizta tip o'lchamlari va uchta qadama kranlarning tip o'lchamlari qurilishdagi ehtiyojlarni to'liq ta'minlashi nazarda tutilgan (11.11-rasm).




11.11-rasm. Standart uzellardan komponovkalangan minorali kranlarning konstruktiv-unifikatsiyalangan qatori.

Kimyo sanoati mashina va apparatlari ko'plab turli xil sharoitlarda, ya'ni turli xil bosimlar – juda ham chugur vakuumdan  $2500 \text{ kgf/sm}^2$  gacha va undan yuqori bosimlar, minus  $196 {}^\circ\text{C}$ dan plus  $2000 {}^\circ\text{C}$ gacha haroratlarda, tajovuzli yong'in va portlashga xavfli muhitlarda, issiqlik va mexanik kuchlanishlarning turli davriyliklarida ishlashi uchun mo'ljallangan. Bunday turli-tuman ishchi sharoitlari ko'plab miqdorda apparat va mashinalar, ularning detallari va uezellarini yaratishni keltirib chiqaradi. Kimyoviy mashinasozlik zavodlarida tayyorlanayotgan qurilmalar nomenklaturasining 4000 turdan ko'p o'lchamlari mavjud.


Keyingi yillarda kimyoviy apparatlarining payvandlangan detallari va unifikatsiyalangan uzellari asosida standartlar ishlab chiqilgan: konus, yassi, yarimshar shaklidagi po'lat bochkalar tubi; jezli, misli va aluminli bochka tublari, gardishli birikmalar; ajratilgan qismlarsiz qobiqlar; tirkakli vertikal va gorizontal idishlar, shtuserlar (rezbali truba parchalari); va b.lar (11.12-rasm).

Kimyoviy apparatlar va qurilmalar detallari va uezellariga standartlarni yaratish alohida unifikatsiyalangan uzellar va detallardan apparatlarni yig'ishning keng imkoniyatlarini yaratib, nafaqat ularni sig'imli, issiqlik almashinuv va kolonnali apparatlarga, balki sentrafuga, kompressorlar va boshqa mashina hamda apparatlarga joriy etish mumkin (11.13 va 11.14-rasmlar).

*Tarmoqlararo unifikatsiyalashtirish.* Yo'l-qurilishi mashinasozligida unifikatsiyalashtirish usulining qo'llanilishi shatak asosida turli xil maqsadlarga mo'ljallangan mashinalarni yaratish imkonini berdi.




11.12-rasm. Kimyo sanoati uchun mashina va apparatlarning standartli va unifikatsiyalangan detal va uzellari: 1 – gardish; 2 – bochka tubi; 3 – gardishli (flansli) apparatlar; 4 – gardishli quvurli o'tkazgichlar; 5 – trubasimon naylar; 6 – qopqoqli tuynik va shtuser (rezbali quvur)lar; 7 – qalpoqcha va tarelkalar; 8 – tutib turuvchi ustunlar; 9 – kirish o'tkazishlar va chiqish o'tkazishlar; 10 – aralashirgich.



11.13-rasm. Standartli va unifikatsiyalashgan uzellardan yig'ilgan kimyoviy apparatlar: 1 – to'plagich; 2 – issiqlik almashtirib beruvchi qurilma; 3 – aralashirgichli reaktor; 4 – kolonnali apparat.

Bir o'qli shatakli bir kovushli va rototli ekskavatorlar, aylanadigan va aylanmaydigan kranlar, greyder-ekskavator, skreper, g'altakli mola, orqa yoki yonlanma yuklovchi tuproq tashuvchi samosval, suv sepuvchi-yuvuv-

chi mashina, kompressorli stansiya, nasosli stansiya, panel tashigich, bitum tashigich, seiment tashigich, kabel taxlovchi va moy zapravka mashinalari yaratildi (11.15-rasm).




11.14-rasm. 12 ta unifikatsiyalashgan detallardan yig'iladigan turli xil qo'llanishga mo'ljalangan kimyoviy apparatlarning konstruktiv-unifikatsiyalashgan qatori.


Ikki o'qli shatakli – buta qirqadigan mashina, iildiz (to'nka) kovlaydi-gan mashina, universal yeryumshatgich mashina, sovuq quinloq yemi yumshatuvchi mashina, plugli va rotorli qor tozalash mashinasi, qiyalikni

tozalash mashinasi, kuchsiz qumloq yerlarda ishlash uchun ekskavator, turli tipdagi ariq tozalagich va boshqa mashinalar (11.16-rasm).


Tayanch mashinalar 11.17-rasmida ko'rsatilgan. Bu barcha mashinalar maxsus mo'ljallangan va yuqori ishlab chiqarish quvvati ta'minlagan.



11.15-rasm. Bir o'qli shatak asosida yaratilgan turli maqsadlarga mo'ljallangan mashinalar: 1 – meliorativ ishlar uchun mashinalari; 2 – umummo'ljallangan qurilish mashinalari; 3 – kommunal xo'jaligi uchun mashinalar.



**11.16-rasm.** Ikki o'qli shatak asosida yaratilgan turli maqsadlarga mo'ljallangan mashinalar: 1 – yuklash ishlari uchun mashinalar, 2 – o'rmon ishlari uchun mashinalar.



**11.17-rasm.** Tayanch mashinalar: 1 – bir o'qli shatak; 2 – ikki o'qli shatak; 3 – ikki o'qli uzun tayanch shatak; 4 – ikki o'qli o'ziyurar shassi; 5 – maxsus shassi.

#### 11.4.2. Turlash usuli

Standartlashtirishning **turlash (tipizatsiya) usuli** – funksional vazifalariga bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan turli obyektlarni yaratishda asosiy sifatida qabul qilingan majmuaga uchun obyekt turlarini belgilashga qaratilgan usul hisoblanadi.

Turlashi ba'zan "bazaviy konstruksiyalar" deb ham ataladi. Chunki turlash jarayonida optimal xossalari bo'yicha olingan majmuuga xos bo'lган obyekt tanlanadi. Aniq bir obyekt – buyum yoki texnologik jarayon qabul qilinganda esa tanlangan obyekt faqat qisman o'zgarishi mumkin. Shunday qilib, turlash kamsonli obyektlarga ko'p sonli funksiyalarni tafbiq etish hisoblanib, bunda berilgan majmuadagi alohida tur obyektlarining saqlanishini ta'minlaydi.

Turlashning samaradorligi yangi buyum ishlab chiqarilayotganda oldin tekshirilgan, sinashda bo'igan yechimlarni qo'llash, ishlab chiqarishni tayyorlashni tezlashtirish va tannarxini pasaytirish, alohida tur obyektlarini ishlatish sharoitlarini yengillashtirish va ularni modifikatsiyalash asosida umalga oshiriladi.

Turlash standartlashtirishning samarali usullari qatorida uchta asosiy yo'nalishda rivojlanadi:

- umummo'ljallangan namunaviy buyumlarni standartlashtirish;
- namunaviy texnologik jarayonlarni standartlashirish;
- muayyan bir ishlarni, amallarni, sinovlarni yoki hisoblarni bajarish tartibini belgilovchi me'yoriy hujatlarni yaratish.

Ko'pgina ishlab chiqarish tizimlarida, buyum konstruksiyalarini tezda almashitish lozim bo'lган hollarda, namunaviy texnologik jarayonlarni alohida bir tur, muayyan buyumga nisbatan emas, baiki undan bir nechta alohida tur detallarini, bo'lakiarini tayyorlashda ishlatish imkonini beradigan bo'lishini me'ljallab yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik jarayonlarni turlashtirishga katta e'tibor qaratiladi. Bu analogik detallarni tayyorlashda mavjud ko'plab turli-tuman texnologik jarayonlarni bog'liqligini oqlamaydi, ya'ni mahsulotni tayyorlash tannarxini oshishiga olib keladi. Juda ham ko'p holatlarda buyumni tayyorlash yangi texnologik (qayta ishlash yoki yig'ish) jarayoni mavjud tijribani hisobga olmasdan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, turli zavodlarda bitta ana shu detaliga turli xil texnologik jarayonlar yaratilgan bo'lishi mumkin. Shu tur uchun aloqador konstruktiv-unifikatsiyalashgan ko'rsatkichlar asosini saqlab, muhim bo'lmaagan o'zgarishlar bilan ularni barcha nomenklaturalari buyumdan buyumga o'tishi 70-80 %gacha konstruksiyaning alohida elementlari uchun vaqt o'rnatilgan, texnologik jarayonlar oldin ishlab chiqilganlari bilan takrorlanadi.

#### 11.4.3. Agregatlashtirish usuli

**Agregatlashtirish** – geometrik va funksional o'zaro almashuvchanlik asosida turli buyumlarni yaratishda ko'p marta ishlataluvchi, alohida, standart, bir xillashgan buyumlardan iborat mashinalarni, asboblarni va jihozlarni yaratish hamda ishlatish usuli hisoblanadi.

Agregat (lotincha *agrego* – birikaman, birikish ma'nosini anglatadi) texnikada alohida vazifani mustaqil bajaruvchi, to'liq o'zaro almashinuvchanlikni o'zida namoyon etuvchi (mashina kompleksi) unifikatsiyalangan mashinalar uzellarini yaxlitlash. Masalan, A tavsiflari: elektr dvigatellar,

reduktorlar, nasoslar va boshqalar. Ba'zan "A" atamasi ikkita qu'ilma yoki undan ortiq mashinalarni belgilash uchun xizmat qiladi.

Agregatlashtirish mashina va jihozlarni ishlash sohalarini kengaytiradi, ishlash muddatini uzaytiradi, ulardan foydalanishni o'senlashtiradi.

*Agregatlash* – masbina, jihozlarni o'zaro almashinuvchi agregatlardan tuzish usuli.

*Agregat* – mashinaning (mashinalar, jihozlar majmuuning) to'liq o'zaro almashinuvchanlikka ega bo'lgan, ayriun funksiyalarni mustaqil bajera-digan yirik bir xillashtirilgan usuli (yoki -- ikki yoki bir necha har xil mashinalarning umumiyyi ishi uchun birikma).

Agregatlashtirishning yana bir muhim xususiyatlaridan biri -- asosiy turlarni modifikatsiyalanishi hisobiga mashina va jihozlarning nomenklaturasining ko'payishi. Bundan tashqari, agregatlashtirilgan jihozlar konstruktiv qaytaruvchanlikka ega bo'iadi. Bu esa standart agregat va bo'laklarni ishlab chiqarish obyektlarining konstruksiyalarini o'zgartirishda va joiz bo'lganda yangi turdag'i mahsulotlarga o'tishdagi moslashuvlarda takror ishlatish imkoniyatlarini yaratadi.

Agregatlashtirish prinsipi bir xillashtirish elektron bloklar, o'lchash o'zgartigichlari va elementlaridan tashkil topgan tekshiruv o'lchash asboblarini yaratishda keng qo'llaniladi.

Ma'lumki, bir necha o'n yillar muqaddam ishlab chiqarilgan, elektron lampalarda ishllovchi, ikki-uch xonali uylarning o'lchamidek bo'lgan dastlabki EHMLarni ko'rmagan bo'lsangiz kerak. Bir xillashtirish va agregatlashtirishni qo'llash natijasida ularning o'lchami keskin kichraydi. Yangi elektron texnologiyalarning rivojidan keyin esa hozirgi siz foydalanadigan o'lchamlarga ega bo'ldi. Agar kompyuteringizning disk yurituvchi qurilmasi ishdan chiqqan bo'lsa, o'miga bemaloi boshqasini o'matishingiz mumkin. Kompyutering ichida hech qanday radiometraj ishlari qilish shart emas. O'matish joylari ham yangisinkiga mos keladi.

Bu narsalar oddiydek tuyuladi. Lekin buning tagida qanchalar katta mehnat, izlanishlar, tajribalar yotganini ko'z oldiga keltirish qiyin. Avtomatik ishlab chiqarish va agregatli stanoklarni yaratish be'yicha yig'ilgan stanoksozlik ishlar tajribasi qurilma konsruksiyasining ko'plab elementlarini standartlashtirish qamrab olganligini tasdiqlash imkonini beradi. Stanok ishlab chiqaruvchi zavodlar ishlab chiqargan stanoklardan iste'molchi-zavodlar standartli va unifikasiyalashgan elementlerdan foydalanib, ko'plab avtomatlashtirilgan stanoklar va avtomatik ishlab chiqarish yaratilgan.

Standart elementlardan agregatli stanoklarning muhim afzalligi ularni tezlik bilan qayta komponovkalash imkoniyati hisoblanadi. Ishlab chiqarish obyekti smenasida xuddi shunday standart elementlardan stanoklar tekshirib ko'riladi va stanoklarning yangi komponovkasi yig'iladi.

#### 11.4.4. Modullashtirish

**Modullashtirish** – unifikatsiyalangan uzellar va agregatlardan foydalanib, mashina, asbob, apparatura va boshqarlarini yaratish usuli. Modul deganda qat'iy qayd qilingan ko'rsatkichlarni (vazifaviy, geometrik o'lchamlar va boshqa tavsiflarni) namoyon etuvchi, standartli yig'iladigan yoki konstruktiv va texnologik tugatilgan unifikatsiyalashgan qism tushuniladi. Modular turli xil turdag'i va tip o'lchamlarida murakkab bo'lgan, boshqa tavsiflari bilan tizimni olish maqsadida modernizatsiyalash yoki ta'mirlashda almashinadigan, oson biriktiriladigan bo'ladi.

Shunday qilib, unifikatsiya, tiplashtirish, agregatlashtirish va modullashtirish asosida texnikani qurish, buyumni tayyorlash va loyihalashtirish muddatini qisqartiradi, mehnat va materialli resurslarni tejaydi; uning sifatini oshirib, ta'mirlash va modernizatsiya qilishni soddalashtiradi, tezlashtiradi.

#### 11.4.5. O'zaro almashuvchanlik asoslari

Yuqorida biz tez-tez o'zaro almashuvchanlik degan iborani tilga oldik. Xo'sh, o'zaro almashuvchanlik deganda nimani tushunamiz?

**O'zaro almashuvchanlik** – alohida tayyorlangan detallar, bo'laklar va agregatlarning mashina, qurilma yoki asbob kabilarni yig'ishni qulay va to'siqsiz amalga oshirish xossalariini bildiradi, shuningdek, detallar va bo'laklar buyumga nisbatan texnikaviy talablarni og'ishmay bajarilishini ta'minlash.

Masalan, standartlashtirishda elektr lampechkasi misolini yana bir bor eslang. Yoki kompyuterning disk yuritmasiga diskni joylayotganimizda "disket (disk) diskovotga sig'armikan yoki yo'qmi" deb, deyarli hech kim o'ylamasa kerak (11.18-rasm *bular egiluvchan va kompakt disklardagi ma'lumotlarni o'qish va ularga saqlash ishlarni bajaradigan qismi*). Vaholanki, aksariyat hollarda disk yuritmasi boshqa korxonada, disk esa boshqasida ishlab chiqarilgan bo'lishi mumkin. Endi ushbu moyillikni saqlash uchun nafaqat bir xildagi disklarni ishlab chiqarish, balki disk yuritmalari ham bir talablar asesida ishlab chiqarilishi shart ekan.



11.18-rasm. Disk yurituvchilarning umumiy ko'rinishi.

O'zaro alinashuvchanlik quyidagicha bo'lishi mumkin: to'liq o'zaro almashuvchanlik; cheklangan o'zaro almashuvchanlik; tashqi o'zaro almashuvchanlik; ichki o'zaro almashuvchanlik.

To'liq o'zaro almashuvchanlik – qo'shimcha ishlovsiz, sozlash yoki moslashsiz va tanlovsiz buyum yoki qurilmalarni yig'ish imkonini beradigan anqlikdagi ko'rsatkichlarni olish va ta'minlash. O'zaro almashuvchanlikning ushbu turida buyumni yig'ish va ta'mirlash va uni avtomatlashtirish aucha osonlashadi, u bilan bog'liq sarf-harajatlar esa kamayadi.

*Cheklangan o'zaro almashuvchanlik* – bu usul yig'ish paytida detalarni guruhlab tanlash (selektiv yig'ish), kompensatorlarning ishlatalishi, holatni sozlash, moslash kabi tadbirlar yo'l qo'yilishi bilan tavsiflanadi.

*Tashqi o'zaro almashuvchanlik* – bu sotib olinadigan buyum va bo'laklarning foydalanish ko'rsatkichlari, o'chamlari va shakllari bo'yicha o'zaro almashuvchanligi.

*Ichki o'zaro almashuvchanlik* – buyumning tarkibiga kiruvchi alohida detal, bo'lak va uzellarni o'zaro almashuvchanligini bildiradi.

Davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tobora rivojlanib borayotganligi va bozor munosabatlari keng tatbiq etilayotganligini hisobga olgan holda, o'zaro almashuvchanlikning bu turi hozirgi kunlarda juda dolzarb hisoblanadi.

*O'zaro almashinuvchanlik* – bir buyum, jarayon yoki xizmat o'miga xuddi o'sha talablarni bajarish maqsadida boshqa buyum, jarayon yoki xizmatdan foydalanish uchun yaroqliligi (funksional o'zaro almashinuvchanlik, geometrik (o'chovli) o'zaro almashinuvchanlik).

*Bir-biriga moslik* – mahsulot, jarayon yoki xizmatning tulablarni bajarish uchun berilgan sharoitlarda qo'shma (birgalikdagi), nomaqbul o'zaro ta'sirlarni keltirib chiqarmaydigan foydalanishga yaroqliligi.

*Tizimlashtirish* – predmet, hodisa yoki tushunchalarining belgilangan tartibda va ketma-ketlikda joylashishi (alfavit, TST sinflari; MH belgilanishi, maqbul sonlar va b.lar).

**Tasniplash** – tizimlashtirishning turi – predmet, hodisa yoki tushunchalarning ularning umumiy belgilariga bog'liq holda sinflar, kichik sinflar, razradlar bo'yicha joylashishi.

## 11.5. Kompleks standartlashtirish

**Kompleks standartlashtirish (KS)** – bir maqsadga yo'naltirilgan va o'zaro bog'liq talablar tizimini qo'llash va KSning obyektiiga va uning asosiy elementlariga ta'sir qiluvchi moddiy va moddiy bo'Imagan omillarni hamda aniq masalalarni optimal hal qilishni ta'minlash maqsadida olib boriladigan standartlashtirish.

Kompleks standartlashtirish elementlariga quyidagilar kiradi:

- moddiy kirish (xomashyo, materiallar, butlovchi qismilar, yarimfabrikatlar);
- nomoddiy kirish (ishlab chiqish, loyihalash, sinovlar, ishlab chiqarishga qo'yish va b.);
- texnologik kuzatib borish (texnologik jarayonlar, yo'rinqnomalar, teglamentlar, retsepturalar, texnologik va sinov asbob-uskunalarini va h.larni tashkil qiladi).

Kompleks standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- xomashyo, moddiy, butlovchi buyunlar kabi o'zaro bog'liq elementlar, ularni tayyorlash texnologiyasi, taxlab joylashtirish idishi, tushish va foydalinishda talab me'yorini ma'lum darajada belgilab qo'yish;
- pirovard natijada yuqori sifatli mahsulot yoki xizmatlarni ro'yobga chiqaradigan, o'zaro bog'langan vositalari bo'yicha standartlarni ishlab chiqish, joriy etish kabi ishlarni belgilab qo'yish;
- umumtexnika va soha komplekslari bo'yicha nomoddiy (hujjatlashtirish tiziini) obyektlarga o'zaro bog'liq me'yor va talablarni o'rnatishdan iborat.

Kompleks standartlashtirish dasturiy hujjat bo'lib, ishlab chiqariladigan yoki qayta ishladanigan pirovard mahsulot texnik darajasi va sifatiga ashyo, material, butlovchi qismilar, jihozlar, metrologik ta'minot bo'yicha muvozanatlangan me'yoriy hujjatlar kiradi. Ishlarni bajarish muddatlarini va tadbiriar ro'yxati bo'yicha ko'zda tutilgan barcha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish va joriy etish jarayonlarini to'la qamrab olingenligini anglatadi.

Kompleks standartlashtirish obyektlari va ularni təniash me'zonlari. Kompleks standartlashtirish obyektlari ba'zi mahsulot yoki standart turlari bo'yicha chuqurlashtirilgan talablar bo'yicha hamda bir turli obyekt

guruhlari va murakkab obyekt tizimlari ko'rnishida bo'lishi mumkin. Masalan,

a) rangli televideniye muammosini hal etishda nafaqat qabul qilish tizimini, balki maxsus uzatish vosita va tizim (stansiya)larni xalqaro talablar darajasida amalga oshirish dasturlari majmuasini yaratish zarur bo'lishi muunkin.

b) yarimo'tkazgichli asboblar guruhi: diodlar, tunelli diodlar barqarorlashtirgichlari, tranzistorlar va h.

c) ayrim mahsulot turi, qo'llanadigan ashyo material, butlovchi qismlar bilan birgalikda;

d) zarur bo'lganda standartlarning ba'zi talablari, sifat ko'rsatkichi bitta bo'lishiga qaramay, o'zaro bog'liq omillarini chuqurroq tahlil etilishi.

Kompleks standartlashtirish obyektlarini tanlash mezonlari sifatida quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni olish mumkin:

- kompleks standartlashtirish obyekti bo'la oladigan darajada iqtisodiy maqsadga muvofiq ishlab chiqarish hajmi;

- ish unumdorligini oshirishda samara beradigan mehnatni qayta taqsiinlash, ilmiy tashkil qilish, ba'zi bir buyum va butlovchi elementlarni alohida ajratilgan holda ishlab chiqarish;

- sifatni va raqobatbardoshlikni oshishidan iqtisadiy samara beradigan obyektlar;

- konstrukturlik, texnologik va ekspluatatsiya ko'rsatkichilarini o'zaro bog'ligidan iqtisodiy samara beradigan obyektlar.

Kompleks standartlashtirishning yuqori texnik-iqtisodiy samaradorligi eng muhim prinsiplarga rioya etilganda quyidagi ta'minlanadi:

**Tizimlilik** – o'zaro bog'langan talablarni obyektaing ham o'ziga, obyektni yaratish va ishlatishda foydalilanidigan elementlarga ham o'rnatish.

**Komplekslik va maqbul cheklov** – obyekt sifatiga ko'plab elementlardan eng muhim ta'sir ko'rsatuvchi va hal qiluvchi omillarni standartlashtirish kerak.

**Istiqbollilik** – ilgarilanma standartlarni yaratish.

**Amaadagi me'yoriy hujjatlar bilan bog'lash** – me'yoriy hujjatlar mavjud joylardan maqsadga muvofiq hajmda foydalanish.

**Amalga oshirish** – standartlashtirish natijalarini joriy etish.

Kompleks standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish ko'plab ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning harakatini muvofiqlashtirishga imkon beradigan kompleks standartlashtirish dasturlarini (KSD) ishlab chiqish va amalga oshirish bilan ta'minlanadi.

KSD mahsulotning eng muhim turlarini: tarmoqlararo qo'llash mahsulotlarini; bir turdag'i mahsulotning eng muhim terlarining guruhlarini qamrab oladi.

KSD tuzilishiga quyidagi bo'limlar kiradi: oxirgi mahsulot, oxirgi mahsulotning tarkibiy qismlari; xomashyo, materiallar, yarimfabrikatlar, butlovchi qismlar; xarid buyumlari; ishlab chiqarishning texnik vositalari; ishlab chiqarishni tayyorlash usullari va boshqalar.

## 11.6. Ilgarilanma standartlashtirish

*Ilgarilanma standartlashtirish (IS)* – an'anaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan oshuvchi talablarni belgilash bilan obyektni standartlashturish.

Ilgarilanma standart ishlab chiqilishida quyidagilarga e'tibor beriladi:

1) talablar, sifatning farqlangan hamda joriy etish muddatiga ega bo'lган pog'onalari ko'rinishida belgilanadi;

2) standart, mahsulot hayotiy siklining oldingi bosqichida ishlab chiqiladi.

Ilgarilanma standartlashtirishga, odatda, mahsulotning texnik darajasi va sifatiga qo'yiladigan talablarning uchta pog'onasi belgilanadi:

– erta o'zlashtirilgan mahsulotning ehtiyojlarni qondiruvchi darajasi;

– ishlab chiqarishga qo'yilishi lozim bo'lgan va jahon darajasiga mos bo'lgan, qaytadan ishlab chiqilayotgan (zamonaviylashtirilayotgan) mahsulot darajasi;

– jahon darajasiga mos bo'lgan (yoki oshuvchi) yuqori daraja.

Oldinlovchi standart ishlab chiqarishni texnik tayyorlash davrida yoki oxirida ishlab chiqiladi. Shubhasiz, oldindan standartlashtirish ilmiyatdagi ishlarining natijalari bo'yicha erishilgan tavsiflar bilan tasdiqlangan holatda maqbul deb hisoblash kerak.

*Ilgarilanma standartlashtirish* – standartlashtirish obyektiga erishilgan me'yoriy talablarning yanada yuqoriroq darajasini, ya'ni bashoratlashga asosan kelajakda maqbul bo'ladijan darajasini o'matish demak.

Keltirilgan ta'rifga binoan ilgarilanma standartlashtirish mahsulot, xizmat va barcha jarayonlarga talablarni va me'yirlarni vaqt bo'yicha avvaltoq o'matib, pirovard natijada ularning sifatini yuqori texnik iqtisodiy samara heradigan darajada ta'minlash nazarda tutilishini maqsad qilib qo'yadi. Bu borada ilgarilanma standartlashtirish bashorati asosida analiy yechimni qabul qiladigan imkonli sohalardan biri hisoblanadi.

Ilgarilanma standartlashtirishning asosiy vazifasi ishlab chiqarishni va mahsulot sifatining oshishini xolis va aniq yo'nalishda rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat.

Ilgarilanma standartlashtirish standartlari jumlasiga:

- mahsulot, xizmat, loyihalash, ishlab chiqish va boshqa jarayonlarda kuchga ega standartlashgan qoida va talablarni yanada optimal me'yollarini belgilaydigan standartlar;

- kuchdag'i standartiar faoliyatiga istiqbolliroq yangi ishl usullarini joriy etishni ta'minlab, yanada optimalroq me'yolar o'matadigan standartlar;

- bir yoki faqat bir necha korxonalardagina o'zlashtirilib o'zining sifat ko'rsatkichlari analoglaridan tubdan farq qiladigan loyiha va buyum ishlab chiqarish qoida va talablariga optimal me'yer o'matadigan standartlar kiradi.

Ilgarilanma standartlashtirish mohiyatiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:

1. Vaqt bo'yicha o'zish: mahsulot tajriba namunasini yaratish bo'yicha loyiha konstruktorlik ishlarining boshi; buyum ishlab chiqarish sanoatini texnik tayyorlashning boshi; mahsulotni yalpi ishlab chiqarishning boshi.

2. Tarqalish doirasida o'zish: korxona doirasida; davlat doirasida; mintaqaga doirasida; global dunyo doirasida.

3. Standartlashgan mahsulotga nisbatan to'la bo'lrnagan o'zish: assortiment bo'yicha; mahsulot belgilari bo'yicha; yangi mahsulot elementlarining merosiy qabul qilinganligi bo'yicha; mahsulotning ko'rsatkich va belgilari qiymati bo'yicha.

Ilgarilanma standartlashtirishni bashoratlesh tadtqiqot obyektining qonuniyatları va usellarini, umuman, standartlashtirishni xususan o'rganadigan ilmiy faoliyatdir.

Standartlashtirish sohasida bashoratlashning maqsadi quyidagilar:

- yaratilgan yoki yaratilajak yangilik barqarorligi ehtimolini o'rganish;

- ishlab chiqarilgan mahsulot bilan yangilik o'tasidagi beg'anishni o'rganish;

- standartlashtirish obyekti bo'la oladigan ilmiy-texnik daraja, ya'ni mahsulot sifatiga erishishni aniqlash;

- istemol va ishlab chiqarish hajmini aniqlash;

- sarf-xarajatni aniqlash;

- ekologiya ko'rsatkichlarini baholash.

Standartlashtirish sohasida bashoratlashning axborot manbalari quyidagilar:

- xalq xo'jaligi va soha taraqqiyotining uzoq muddatli bashoratlanishi;
- sohalar bo'yicha bashoratlashlar;
- uzoq va yaqin muddatga mahsulotning sifati va iste'mol darajasi bashoratlari;
- iqtisodiyotning uzoq muddatli rejalar;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati bo'yicha statistik ma'lumotlar;
- tajriba namunalarini sinash bo'yicha bayonnomalar;
- patentlar, mualliflik guvohnomalar, litsenziyalar;
- ijtimoiy so'rovlar natijalar;
- standartlar, texnik shartlar va shu kabi boshiqa ilmiy-texnik axborotlar.

Standartlashtirishning zamонавиј тареққијот holatida 100dan ortiq har xil soha bo'yicha turli darajali ilmiy asosga ega bashoratlash ilmiy-texnik usullari mavjud bo'lib, ilgarilanma standartlashtirishda keng tarqalganlari asosan quyidagilar:

- tadqiqotlanadigan ilmiy yoki texnik obyektni fan taraqqiyotining ma'lum yo'nalishlari haqida statistik ma'lumotga tayanadigan ekstropolatsiyalash usuli;
- taraqqiyotning yangi yo'nalishlarida qo'llaniladigan evristik usullari;
- real jarayonga o'ta yaqinlashtirib istiqbollash, shu bilan birga o'ta murakkab bo'lgan modellashdirish usullari.

**Ekstropolatsiyalash** – eng ko'p qo'llaniladigan va eng sodda bo'lish bilan birga samaradorligi yuqori emas, ko'p hollarda faqat qisqa vaqt oralig'idagi yaqin kelajakni bashoratlashdagina yaroqli.

Evristik usullar texnik vazifalarni rejalashtirish ayniqsa ularni tasdiqlash besqichida ko'p qo'llaniladi.

Bu ikki usul standartlar ta'sir doirasidan tashqariga chiqishni hisobga oloimaydi. Modellashdirish usulining qo'llanish doirasini keng, imkonli ancha katta va istiqbolli bo'lib, obyekt va jarayonlarni fizik, matematik, matematik-statistik va uyumli modellashish bilan ancha uzoq muddatga bashoratlash imkonini beradi.

Ilgarilanma standartlarni yaratish va yuritish. Bu xildagi standartlarni yaratish va kuchga kiritish quyidagi etap va bo'limlarni o'z ichiga oladi: tayyorlash; yaratish; kuchga kiritish. Ilgarilanma standartlashtirishning tayyorlash etalonidagi ishlar mazmuni ma'lumot yig'ish, taraqqiyot yo'nalish istiqbelini tadqiqotlash, mahsulot sifatini tubdan o'zgartirish, mumkin bo'lgan onil va ko'rsatkichlarni taqsimlash orqali standartlashtirish istiqbollarini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bu reja har tamonlama tahsil asosida ilgari-

lanma standartlashtirishga zarur ko'rsatkich yoki talablarni boshlashga yordam beradi.

Mazkur bosqichda buyum (mahsulot) taraqqiyot yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlarni toplash, tizimlashtirish asosida rivojlanish yo'nalishi qoidalarini belgilash, iqtisodiy samaradorlik imkoniyatlarni hisoblash, u yoki bu xilda qarer qabul qilish uchun mahsulot bo'yicha kuchdag'i standartlar majmuasidan tajribalarni umumlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Ilgarilanma standartlarni yaratish etapidagi ishlar mazmuni standartni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlashdan iborat bo'lib, buyum yoki mahsulotning istiqbollni ko'rsatkichlarini har tamonlama asosli ravshda shu buyum va niahsulotlarning kelajak taraqqiyotini ko'zlab me'yoriy hujjat barpo etishga qaratilgan bo'ladi.

Ma'lum bir ishlab chiqarish doirasida bunday ilgarilanma standartlarni amalda joriy etish oldingi jarayonlarda kelajakni ko'ra bilgan sharoitlarda maxsus dastur va tadbirlar majmuida, rejalashtirilgan sharoitlarda olib borilishi va amalgalash oshirilishi zarur. Bunday yondashuv ilgarilanma standartlarni joriy etishni va bu asosda xalq xo'jaligini boshqarishning tezkor boshqariluvini ta'minlaydi.

## 11.7. Standartlashtirish obyektlari ko'rsatkichlarini maqbullashtirish

**Maqbullah** (*optimallash*) – ko'plab mumkin bo'lgan variantlardan eng maqbul variantni barcha mumkin bo'lgan variantlarni solishtirma baholash yo'li bilan tanlash.

**Ko'rsatkich** – jarayon, hodisa, tizim, texnik qurilmaning qandaydir xossalasini (massa, ishqalanish koeffitsiyenti, issiqlik sig'imi, elektr qarshilik, induktivlik, sig'imi) tavsiflovchi kattalik.

**Standartlashtirish obyektlari ko'rsatkichlarini maqbullah** (*SOPM*) – bu ko'rsatkichlarning standartlashtirish obyektining maksimal mumkin bo'lgan (ushbu sharoitlarda) samaradorligiga erishiladigan qiyomatlarini belgilash.

Standartlashtirish obyektlari ham ichki, ham tashqi murakkab aloqalariga ega bo'lishi mumkin. Murakkab aloqalarning real fizikaviy modelini tuzish mumkin emas. U holda tadqiqotlar matematik modeillashtirish yordanida olib boriladi.

**Model** – obyektning tuzilishi va harakatini aks ettiruvchi, o'xshatuvchi (odatda, kichraytilgan ko'rinishda - masshtabda) qurilma.

**Modellashtirish** – bilim obyektlarini ularning modellarida real mayjud jonli va jonsiz tizimlar modellarini o'rganish yo'li bilan tadqiqot qilish.

**Matematik modellashtirish** – tuzish mumkin bo'lmagan obyekt, fizikaviy modelni matematik apparat yordamida o'trganish.

Obyekt xossalarini tavsiflovchi kettaliklar standartlashtirish obyekting ko'rsatkichlari deb ataladi. Standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlarini maqbollashtirish xalqaro standartlarni qo'llanish, standartlashtiriladigan obyektlar, ko'rsatkichlarining qiyimalrini maqbul qiyamatlarga yaqinlashtirish hisobiga mahsulotning ilmiy-texnikaviy darajasini va sifatini oshirish maqsadida davlat, tarmoq darajasida va korxonalar darajasiagi obyektlarga nisbatan bajariladi. Standartlashtirishning tizimligi, majmuiligi, oldindan tuzilishi va dinamiklik prinsiplari maqbullikni ta'minlashning nuhim shartidir.

Standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlari obyektning fizik, kimyoviy, texnikaviy, ijtimoiy, estetik, ergonomik va boshqa xossalarini tavsiflaydi.

Standartlashtirish obyektlarini maqbullashtirish me'yoriy hujjalarda mahsulot sifatining ko'rsatkichlarini shakllantirishda miqdoriy talablarni nazarda tutadi. Maqbullashtirish tartibi ko'rileyotgan ko'rsatkichlarning shunday bir qiyamlarini va shunday bir dinamik (vaqt ichida) o'zgaruvchiliginini ta'minlashdan iboratki, bunda ko'rsatkichlarning berilgan sharoitlarda eng katta yoki eng kichik qiyamlariga erishiladi. Maqbullashtirish, masalan, boyliklarga cheklovlari bo'limaganda berilgan aniqlikka erishish bilan tavsiflanadi yoki ma'lum vaqt sarflanganda berilgan o'lchamli ishlov berishni ta'minlashi mumkin. Boshqaicha so'z bilan aytganda, maqbullashtirish eng kam xarajatlar bilan eng ko'p samarani (masalan, ish unumini) ta'minlaydi va h.

Umumiy holda maqbullashtirish muayyan standartlashtirish obyektiغا nisbatan samaradorlik va sarflarning nisbati bilan tavsiflanadi. Maqbullashtirish ishlarini o'tkazish uchun quyidagilarni tahlil qilish va belgilash kerak:

- standartlashtirish obyekti ko'rsatkichining asosiy ko'rsatkichi;
- standartlashtirish obyektning o'zaro bog'langan, tobe ko'rsatkichlari va ko'rsatkichlari;
- ishlab chiqarishdan yoki ko'rsatiladigan xizmatdan kutiladigan (hisoblangan) samara;
- standartlashtirish obyektidan foydalanish yoki iste'mol qilishdan kutiladigan foyda. Bunda ekspluatatsiya sarflar (xomashye, yoqilg'i-moy materiallari sarfi va b.) hisobga olinadi;
- obyektni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish xarajatlari.

Umumiylarda maqbullashtirish obyektnini baholash quyidagi prinsiplarda olib boriladi;

– obyektning texnik tafsilotlarini, masalan, quvvati, aylanishiar soni, FIK va b. baholash;

– iqtisodiy tavsiflarini, masalan, narxi, obyektning samaradorligi, nisbiy (solishtirma) sarflari va b. ni baholash;

– ijtimoiy, ergonomik tavsiflarini, masalan, og'irlilik (vazniy) koefitsiyent, ball, foydalilik shkalasi va b. yordamida baholash.

Standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlarini maqbullashtirish algoritmiga quyidagi amallar kiradi:

– obyektning asosiy kutilayotgan sifat ko'rsatkichlarini o'rganish, tahlil qilish va mavjud ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, obyekt ko'rsatkichini tanlash bo'yicha o'ziga xos qarorlarni qabul qilish;

– obyektning optimallashtirish mezonini tanlash yoki tanlangan mezon bo'yicha obyektni optimallashtirish;

– hisoblash dasturini tuzish va kirish ma'lumotlarining sonli qiymatlarini va obyektning kutilayotgan ko'rsatkichlarining hisobiy qiymatlarini olish. Kirish ma'lumotlarini ishlab chiqilgan va tayyorlangan, metrologik attestatlashdan o'tgan uskuna yoki moslamalar yordamida tajriba yo'li bilan olish mumkin;

– hisob natijalarini tajriba ma'lumotlari bilan solishtirish, zatur bo'lganda dasturlar va tajribalarga tuzatish kiritish;

– tahlil natijalari bo'yicha obyekt ko'rsatkichlarini maqbullashtirish matematik modelini tuzatish va shakllantirish;

– me'yoriy hujjatni shakllantirish va tasdiqlash.

Texnik yechim va iqtisodiy asoslash masaialarini maqbullashirish matematik modellarining turlarini tanlash va qo'llanishda asos bo'ladi. Bunda erishiladigan yutuq dinamika (vaqt bo'yicha o'zgarish)ni va iste'molchilbozoring o'ziga xos talablarini hisobga oluvchi matematik modelning aniq ishlashiga va o'z vaqtida tuzilganligiga bog'liq.

Standartlashtirish obyektlarini optimallashtirish matematik modelini ishlab chiqishda bu ishga matematik modellashtirish, dasturlash va maqbullashtirish masalalarini egallagan dasturchi-matematiklarni jalb qilish kerak. Marketingni tadqiq qilish, axborot tahlili va xalqaro, hududiy, inahsulotni iste'mol qiluvchi mamlakatlarning milliy standartlaridagi talablarni tahlil qilish natijalari matematik modellash usulini tanlashda asos bo'ladi va standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlarini maqbullashtirishda obyektiv natijalarni olishga sharoitlar yaratadi.

*Standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlarini maqbulashtirishda* nazariy usullardan, matematik modellashtirishning nazariy-eksperimental va tajriba-eksperimental usullaridan foydaliladi. Maqbulashtirishning nazariy usullariga maqsadni va resurslarga cheklovlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan miqdoriy usullar kiradi.

Bular matematik modelni tozishda barcha vazniy omillarni hisobga oladi va optimallashtirish ko'rsatkichlarining maqbul qiyamatlarini hisoblash uchun zarur bog'lanishlarni tavsiflaydi. Maqbulashtirishning matematik modelini shakllantirish maqsadlarni va standartlashtirish obyektnining ish vazifalarini matematik ifodalash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda boyliklar, xavfsizlik texnikasi, tabiatni muhofazalash shartlari va talablari va mahsulotning iste'mol xossalari va bozer munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa talablarga asoslanadi.

SOKM uchun kirish ma'lumotlari bo'lib vektor va skaiyar funksiyalar xizmat qiladi:

1.  $\Phi_j = (l_1, l_2, \dots, l_u)$  effektning maqbulovchi ko'rsatkichlarga va  $t_s$  kiritish vaqtiga,  $T_s$  standartning amal qilish davriga (jarayonga),  $t$  hozirgi vaqtga bog'liqligi:

$$\varTheta_j = f_{\Phi_j}(P_1, P_n, t_s, T_s, t), j = 1, 2, \dots, u \quad (11.4)$$

2. Standartlashtirish obyektni ilmiy-tadqiqot ishlariiga, ishlab chiqishga, ishlab chiqarish va ishlatishga (foydalanishga)  $\beta = (\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_s)$  sarflarning xuddi shu ko'rsatkichlarga bog'liqligi:

$$\beta_k = f_{\beta_k}(P_1, P_n, t_s, T_s, t), k = 1, 2, \dots, b \quad (11.5)$$

3. Standartlashtirish obyektni ishuab chiqarish va qo'llash maqsadining effektlar, sarflar va vaqtga bog'liqligi:

$$Z_l = f_{Z_l}(\varTheta_1, \dots, \varTheta_u; \beta_1, \dots, \beta_s); l = 1, 2, \dots, c \quad (11.6)$$

4. Standartlashtirish obyektnining ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning aniq darajasida ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarni (cheklovlarini) tasvirlovchi ko'rsatkichlari o'rtaсидаги bog'liqliklar:

$$E_m = f_{E_m}(P_1, \dots, P_n, t); m = 1, 2, \dots, d \quad (11.7)$$

5. Ishlab chiqarish imkoniyatlarini, xomashiyo, materiallar, butlovchi qismlar, kadrlar, mablag'lar bilan ta'minlanganligini, xavfsizlik texnikasi talablarini tasvirlovchi tengsizlik ke'rintishidagi  $H = (H_1, \dots, H_e)$  chekloviar:

$$H_n \leq f_{H_n}(P_1, \dots, P_n, t), n = 1, 2, \dots, e \quad (11.8)$$

Sanab o'tilganlardan tashqari kirish ma'lumotlari alohida maqbulovchi ko'rsatkichlarning vaqtida o'zgarishini tasvirlovchi bog'liqliklarni, matematik modellerni tanlash maqsadga muvofiqligining

Umumiy holda maqbullashtirish obyektnini baholash quyidagi prinsiplarda olib boriladi;

- obyektning texnik tafsilotlarini, masalan, quvvati, aylanishlar soni, FIK va h. baholash;
- iqtisodiy tavsiflarini, masalan, narxi, obyektning samaradorligi, nisbiy (solishtirma) sarflari va b. ni baholash;
- ijtimoiy, ergonomik tavsiflarini, masalan, og'irlik (vazniy) koefitsiyent, ball. foydalilik shkalasi va b. yordamida baholash.

Standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlarini maqbullashtirish algoritmiga quyidagi amallar kiradi:

- obyektning asosiy kutilayotgan sifat ko'rsatkichlarini o'rGANISH, tahlil qilish va mavjud ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, obyekt ko'rsatkichini tanlash bo'yicha o'ziga xos qarorlarni qabul qilish;
- obyektning optimallashtirish mezonini tanlash yoki tanlangan mezon bo'yicha obyektni optimallashtirish;
- hisoblash dasturini tuzish va kirish ma'lumotlarining sonli qiymatlarini va obyektning kutilayotgan ko'rsatkichlarining hisobiy qiymatlarini olish. Kirish ma'lumotlarini ishlab chiqilgan va tayyorlangan, metrologik attestatlashdan o'tgan uskuna yoki moslamalar yordamida tajriba yo'li bilan olish mumkin;
- hisob natijalarini tajriba ma'lumotlari bilan solishtirish, zarur bo'lganda dasturlar va tajribalarga tuzatish kiritish;
- tahlil natijalari bo'yicha obyekt ko'rsatkichlarini maqbullashtirish matematik modelini tuzatish va shakllantirish;
- me'yoriy hujjatni shakllantirish va tasdiqlash.

Texnik yechim va iqtisodiy asoslash masalalari maqbullashtirish matematik modellarining turlarini tanlash va qo'llanishda asos bo'ladi. Bunda erishiladigan yutuq dinamika (vaqt bo'yicha e'zgarish)ni va iste'molchi bozorning o'ziga xos talablarini hisobga oluvchi matematik modelning aniq ishlashiga va o'z vaqtida tuzilganligiga bog'liq.

Standartlashtirish obyektlarini optimallashtirish matematik modelini ishlab chiqishda bu ishga matematik modellashtirish, dasturlash va maqbullashtirish masalalarini egallagan dasturchi-matematiklarni jalg qilish kerak. Marketingni tadqiq qilish, axborot tahlili va xalqaro, hududiy, mahsulotni iste'mol qiluvchi mamlakatlarning milliy standartlaridagi talablarni tahlil qilish natijalari matematik modellash usulini tanlashda asos bo'ladi va standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlarini maqbullashtirishda obyektiv natijalarni olishga sharoitlar yaratadi.

*Standartlashtirish obyektlarining ko'rsatkichlarini maqbullashtirishda* nazariy usullardan, matematik modellashtirishning nazariy-eksperimental va tajriba-eksperimental usullaridan foydalaniadi. Maqbullashtirishning nazariy usullariga maqsadni va resurslarga cheklovilarni rasniylashtirish bilan bog'liq bo'lgan miqdoriy usullar kiradi.

Bular matematik modelni tuzishda barcha vazniy omillarni hisobga oladi va optimallashtirish ko'rsatkichlarining maqbul qiyamatlarini hisoblash uchun zarur bog'lanishlarni rausiflaydi. Maqbullashtirishning matematik modelini shakllantirish maqsadlarni va standartlashtirish obyektning ish vazifalarini matematik ifodalash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda boyliklar, xavfsizlik texnikasi, tabiatni muhofazalash shartlari va talablari va mahsulotning iste'mol xossalari va bozor munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa talablarga asoslanadi.

SOKM uchun kirish ma'lumotlari bo'lib vektor va skalyar funksiyalar xizmat qiladi:

1.  $\Phi_j = \Phi_1, 2, \dots, n$  effektning maqbullovchi ko'rsatkichlarga va  $t_s$  kiritish vaqtiga,  $T_s$  standartning amal qilish davriga (jarayonga),  $t$  hozirgi vaqtga bog'liqligi:

$$\mathcal{D}_j = f_{\Phi_j}(P_1, \dots, P_n, t_s, T_s, t), j = 1, 2, \dots, a \quad (11.4)$$

2. Standartlashtirish obyektni ilmiy-tadqiqot ishlariga, ishlab chiqishga, ishlab chiqarish va ishlatishga (foydalanishga)  $3 = (3_1, 3_2, \dots, 3_c)$  sarflarning xuddi shu ko'rsatkichlarga bog'liqligi:

$$\mathcal{I}_k = f_{3_k}(P_1, \dots, P_n, t_s, T_s, t), k = 1, 2, \dots, b. \quad (11.5)$$

3. Standartlashtirish obyektni ishuab chiqarish va qo'llash maqsadining effektlar, sarflar va vaqtga bog'liqligi:

$$Z_l = f_{Z_l}(\mathcal{D}_1, \dots, \mathcal{D}_a; 3_1, \dots, 3_c), l = 1, 2, \dots, c \quad (11.6)$$

4. Standartlashtirish obyektning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning aniq darajasida ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarni (cheklovilarni) tasvirlovchi ko'rsatkichlari o'tراسidagi bog'liqliklar:

$$E_m = f_{E_m}(P_1, \dots, P_n, t), m = 1, 2, \dots, d \quad (11.7)$$

5. Ishlab chiqarish imkoniyatlarini, xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar, kadrlar, mablag'lar bilan ta'minlanganligini, xavfsizlik texnikasi talablarini tasvirlovchi tengsizlik ke'rinishidagi  $H = (H_1, \dots, H_t)$  cheklovilar:

$$H_n \leq f_{H_n}(P_1, \dots, P_n, t), n = 1, 2, \dots, e \quad (11.8)$$

Sanab o'tilganlardan tashqari kirish ma'lumotlari alohida maqbullovchi ko'rsatkichlarning vaqtida o'zgarishini tasvirlovchi bog'liqliklarni, matematik modellarni tanlash maqsadga muvofiqligining

mezonlarini va boshqa axborotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Kirish bog'liqliklaridan maqsadli funksiya quyidagi ko'rinishni oladi:

$$U = f_U(\varTheta_1, \dots, \varTheta_a; 3_1, \dots, 3_s, t_r, T_s, t) \quad (11.9)$$

Qolgan bog'liqliklar chekiovlar bo'lib hisoblanadi.

Maqbullash vazifasi hisoblash natijasida cheklovlariga rioya etilgan holda maqsadli funksiya  $U$  maksimal (yoki minimal) qiymatiga erishadigan buyumlar ko'rsatkichlarining qiymatlaridan  $P_i (i=1, 2, \dots, u)$  va ularning vaqtida o'zgarishidan iborat.

"Ko'rsatkich", "maqsadli funksiya", "cheklovlar" tushunchalarini aniqlash va maqbullash vazifalarini tashkil qilish jarayoni uchun oddiy misol, aniq qalinlikdagi yog'ochli po'latning minimal sarfiда  $10 \text{ m}^3$  (kub.m.) sig'imdagи silindrik rezervuarining o'lchovlarini (radius  $r$  va balandlik  $h$ ) aniqlash.

Maqsadli funksiya – yuza maydoni:

$$S = 2\pi r^2 + 2\pi r h \quad (11.10)$$


Cheklov – obyekt hajmi:

$$V = \pi r^2 h = 10 \text{ m}^3 \quad (11.11)$$

**Bashoratlash** – maxsus ilmiy tадqiqot asosida kelajak haqidagi ehtimolli mulohaza.

**Bashoratlashtirish** – o'zero ta'sirda vektor va skalyar funksiyalarni tadqiqot qilishri anglatuvchi ko'plab omillar bilan bog'liq murakkab ilmiy-tehnikaviy muammo.

Ko'rsatkichlar qiymatlarining bashoratlashtirish xatolari yuzaga keltirgan maqbullardan chekinishi tufayli talafotlarni bashoratlashtirishning aniqligi oshishi bilan kamayadi (I – egri chiziq). Aniqlik oshishi bilan bashoratlashtirishga vositalar va vaqt sarfi o'sadi (II – egrи chiziq). Bashoratni ishlab chiqishga yakuniy sarflar (III – egri chiziq) minimumga ega (O nuqta – bashorat aniqligi maqbul) 11.20-rasm. Standartlashtirish obyektlari ko'rsatkichlarida bashoratlashtirish grafigi.



## Nazorat savollari

1. Standartlashtirishning nazariy asosi mohiyatini qonday tushunmasiz?
2. Standartlashtirishning asosiy tamoyillarini ifodalang.
3. Standartlashtirishning qanday usullari mavjud?
4. Sonlar ketma-ketligi qatori qanday xossalariiga ko'ra standartlashtirishning nazariy asosi sifatida xizmat qiladi?
5. Arifmetik va geometrik progressiya xossalarini ayting.
6. Ko'rsatkichli qator mohiyatini tushuntiring.
7. Chiziqli o'chamlar qatori nimadan iborat?
8. Asosiy va qo'shinicha ko'rsatkichli qatorlarni qanday tushunasiz?
9. R5(...40...) nimani anglatadi?
10. R5/2(...10)ni izohlang.
11. R10/3(...75...100)ni qanday tushunasiz?
12. R5>R10>R20>R40 ko'rsatkichli qatorning maqbul yo'nalishini (ko'payishi yoki kamayishi yo'nalishida) ko'rsating.
13. Maqbullashtirishning maqsad va vazifalariga nimalar kiradi?
14. Modellashtirish va uning turiarini ayting.
15. Kompleks standartlashtirishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
16. Kompleks standartlashtirishning uslubiy tamoyillarini ayting?
17. Ugarilanma standartlashtirishning mechiyati, maqsad va vazifasini tushuntiring.
18. Modellashtirish nima?
19. Ugarilanma standartlashtirish nima?
20. Ugarilanma standartlashtirish bosqichlaridagi ishlar mazmunini talqin qiling.
21. Simifikasiyaga ta'rif bering.
22. Unifikatsiyalashga ta'rif bering va ishlab chiqarishdagji ahamiyati qanday ko'rsatkichlar bilan baholanadi?
23. Unifikatsiyalashirilganlik darajasi nima va u qanday aniqlanadi?
24. Buyumlarning qanday tarkibiy qismlari unifikatsiyalashiriladi?
25. O'zaro almashinuvchanlik nima?
26. Agregatiashtirish usulining mohiyati va qo'llanishini ayting?

## XII BOB. TARMOQLARARO STANDARTLASHTIRISH

### 12.1. Tarmoqlararo standartlashtirishaing umumiyo tavsisi

Ishlab chiqarish miqyosining kengayganligi sababli keng tarmoqlararo bog'lanishlar umumtexnikaviy standartlarning kompleks tiziini yaratish zaruriyatini kelib chiqardi. Bu tizim keyinchalik standartlashtirishning tarmoqlararo tizimi (STT) deb nom olgan.

STT ko'p yillar davomida yaratila bordi va har bir tizimda mahsulot hayotiy siklining barcha bosqichlarini va inson faoliyatining barcha muhim sohalarini o'z ichiga qamrab olgan o'nlab va minglab standartlarni birlashtirgan. STT standartlashtirishda ilmiy-texnikaviy darajaning oshganligi bilan tavsiflanuvchi muhim bosqich bo'ldi. Standartlashtirishda ilmiy-texnikaviy darajani oshirish zaruriyati O'zbekiston iqtisodiyotidagi ilmiy-texnikaviy istiqbol va rivojlanishi talablaridan kelib chiqdi.

Kompleks standartlashtirishning o'ziga xos shakli yirik iqtisodiy masalalarni va yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish smaradorligini oshirishni ta'minlashga yo'naltirilgan tarmoqlararo standartlashtirish tizimi bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida quyidagi tarmoqlararo (kompleks) standartlashtirish turlari muvjud (12.1-jadval).

12.1-jadval

#### STT tizim sinfi, shartli belgilari va tizim nomi ko'rsatilgan ro'yxati

Tizim sinfi	Tizimning shartli belgisi	Tiziuning nomi
1	2	3
1	O'z SDT	O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi
2	KHYaT O'z KHYaT	Konstrukturlik hujjalarning yagona tizimi O'zbekiston konstrukturlik hujjalarning yagona tizimi
3	THYaT	Texnologik hujjalarning yagona tizimi
4	MSKT	Mahsulot sifati, puxtaligi va umrboqiyligi ko'rsatkichlari tizimi
5	O'z SMT	O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi
6	HBT TKT	Hujjalarning bir xillashtirilgan tizimi. Iqtisodiy, hisobga olish, statistik, mol bilan qo'shib jo'natiladigan, iste'mol, transport, bank, tashkiliy-boshqaruv va boshqa hujjalar tizimi O'zbekiston texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash

		va kodlash yagona tizimi
7	AKNIT	Axborot, kutubxona, nashriyot ishlari bo'yicha standartlar tizimi
8	O'z O'DT	O'zbekiston o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi
9	ZEHYaT	Materiallar va buyumlarni zanglash va eskirishdan himoyalash yagona tizimi
10		Zahira
11		Zahira
12	MXST	Mehnatni ilmiy tashkillashtirish, sanoat sanitariyasi, gigiyenasi, mehnat xavfsizligi standartlari tizimi
13	-	Reprografiya, mikrografiya, kopirografiya
14	ITIT	Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash yagona tizimi
15	MYaT	O'zbekiston mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish tizimi
16	O'z AT	O'zbekiston akkreditlash tizimi
17	TMST	Tabiat muhofaza va tabiiy boyliklardan foydalanishni yaxshilash doirasidagi standartlar tizimi
18	-	Zahira
19	DHT	Dasturiy hujjatlar yagona tizimi
20	O'z MST	O'zbekiston mahsulotni sinash tizimi
21	QLHT	Qurilishlar uchun loyihami hujjatlar tizimi
22	-	Zahira
23	-	Buyumlarning yovilishbardoshligini ta'minlash
24	-	Boshqarishning avtomatik tizimi (BAT) uchun texnik hujjatlar tizimi
25		Mustahkamlikka hisoblash va sinashlar
26		Zahira
27	TP	Texnika puxtaligi
28		Zahira
29		Zahira
30	ETEST	Ergonomika va texnik estetika standartlari tizimi
31		Zahira
32		Axborot texnologiyalari
-	O'z ST	O'zbekiston sifat tizimi
-	-	O'zbekiston xizmatlar sohasi

Kompleks standartlardagi dastlabki birinchi yoki ikkinchi raqamlar nuqta bilan ajratilgan shartli belgi bo'lib, bu raqamlar qaysi kompleksga aloqadorligini belgilaydi.

Mavjud komplekslarni komplektlash jarayoni haligacha davom etib kelmoqda. Bir qancha komplekslar endilikda to'liq shakllanmoqda (masalan, loyihalashtirish avtomatlashtirilgan tizimi – SAPR), lekin kompleks raqami to'liq tashkil topgani yo'q. Boshqalari faqat tashkil etilishi mo'ljal-

lanmoqda, masalan, qisman bo'lsa-da, o'ta ahamiyatli deb aytishimiz mumkin bo'lgan elektron ma'lumotlar almashinuv tizimi.

## 12.2. Konstrukturlik hujjatlarining yagona tizimi

Konstrukturlik hujjatlarining yagona tizimi (KHYaT) barcha korxona-tashkilotlar uchun konstrukturlik hujjatlarini ishlab chiqish, bajarish, rasmiylashtirish va ularga murojaat qilishning yagona qoidalari belgilab berida. KHYaT standartlarida ISO va IEC tavsiyalari bilan mosligi ta'minlangan va chizmachilik xo'jaligi tizimi standartlarining qoidalari saqlanib qolingan.

KHYaTning asosiy vazifasi quyidagiicha:

- konstrukturlarning mehnat unumдорligini oshirish;
- chizmachilik hujjatlarining sifatini yaxshilash;
- qayta rasmiylashtirishsiz tashkilotlar va korxonalarining o'zaro konstrukturlik hujjatlarini o'zaro almashinishi;
- sanoat mahsulotlarining loyihasini ishlab chiqishda bir xillikni chuqurlashtirish;
- konstrukturlik hujjatlari, grafik tasvirlar, ularga o'zgartirish kiritish shakllari soddalashtirish;
- texnikaviy hujjatlarni va ularda axborot mavjudligini mexanizasiyalash va avtomatik qayta ishslash;
- hujjatlarni samarali hisobini yuritish, saqlash, ko'paytirish, uning hajmini kamaytirish;
- hujjatlar aylinishini tezlashtirish;
- texnik qurilmalarini eksplutasiya qilish va ta'mirlash sharoitlarini yaxshilash.

Konstrukturlik hujjatlarining yagona tizimi (KHYaT) – quyidagi tasniflash guruhlari bo'yicha talablarni o'rnatuvchi o'zaro bog'langan standartlar majmui: 0 – asosiy nizomlar; 1 – umumiyl nizomlar; 2 – Buyumlarni konstrukturlik hujjatlarida tasniflash va belgilash; 3 – chizmalarni bajarish umumiyl qoidalari; 4 – mashinasozlik va priborsozlikda chizmalarni bajarish qoidalari; 5 – konstrukturlik hujjatlarining muomala (hisobga olish, saqlash, nusxalash, o'zgartirishlar kiritish) qoidalari; 6 – foydalanish (ekspluatatsiya) va ta'mirlash hujjatlarini bajarish qoidalari; 7 – sxernalarni bajarish qoidalari; 8 – kemasozlik hujjatlarini bajarish qoidalari; 9 – h.lar.

KHYaT yakuniy mahsulotni tayyorlash bo'yicha xorijiy korxonalar bilan hamkorlikni tashkillashtirish, litsenziyalar, tovarlarni sotish bilan xalqaro bozorlarga chiqishda xorijiy mamlakatlar bilan texnikaviy

hujjalarni keng miqyosda almashishga yordam beruvchi universal tizimi bo'lib tanilgan.

Kompyuter grafikasi, avtomatik loyihalashtirish va mahsulotni ishlab chiqarish tizimlarining rivojlanishi KHYaTUI ishlab chiquvchilar oldiga "qo'qozsiz" konstruktorlik hujjalarni bajarish, rasmiylashtirish va muloqotda bo'lishga zamenaviy talablarni ifodalash bo'yicha vazifalarni qo'yimoqda.

### 12.3. Texnologik hujjalarning yagona tizimi

Texnologik hujjalar ishlab chiqarishning qaysi texnologik usullarda, qanday qurilma, uskuna, jihozdan foydalanib ishlab chiqarilayotganligining texnikaviy darajasini aniqlaydi. Texnologik hujjalar asosida texnik-ijtisodiy va rejali-me'yorli hisoblarni o'tkazish, rejashtirish va ishlab chiqarishni rostlash, uni to'g'ri tashkillashtirish, tayyorlash, boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish uchun qo'llaniladigan ko'plab axborotlar yaratiladi.

THYaT standartlaridan tarkib topgan kompleks standartlarning asosiy vazifasi – bu barcha tashkilot va korxonalarda yagona o'zaro aloqador qoidalar, me'yorlar va nizomlarni bajarish, rasmiylashtirish, butlash va munosabatda bo'lish. Texnologik hujjalarni standartlashtirish va unifikatsiyasini ta'minlashdir.

THYaTni joriy etish quydagi imkoniyatlarni beradi:

- ishlab chiqilayotgan texnologik hujjalarning hajmini kamaytirish;
- texnologlarning mehnat unumdarligini oshirish;
- umum mo'ljallangan (texnologik jarayon kartalari, o'ziga xos xususiyatlar) hujjalarning tarkibiy shakli va nomenklaturasini tartiblashdirish;
- texnologik jarayonlarni rasmiylashtirish (hujjalar shakli), o'zgartirishlarni kiritish va rasmiylashtirish qoidalarini o'rnatish;
- namunaviy texnologik jarayonlarni samarali joriy qilish;
- tarmoq va korxonani boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi uchun birlamchi axborotlar bazasini yaratish.

Texnologik hujjalarning yagona tizimi (THYaT) – quydagi tasniflash yurulular bo'yicha talablarni o'rnatuvchi standartlar majmu: 0 – umumiylar; 1 – ishlab chiqish bosqichlari; turlari, rasmiylashtirish qoidaları, butlari; hujjalarning turlari, atamalari va ta'riflar; 2 – belgilash, butlash, qilish va qo'llanish, hujjalarni izlash tizimlari; 3 – detallar, tarkibiy qilmlar va texnologik moslamalarning qo'llanuvchanligini hisoblash usullari; 4 – asosiy ishlab chiqarish hujjalarni rasmiylashtirish qoidaları; 5 – tekshirish (o'lehash, sinash, tahlil) hujjalarni rasmiy lash-tirish qoidaları;

6 – yordamchi ishlab chiqarish hujjatlarini rasmiylashtirish qoidalari; 7 – metallarga ishlov berishda turli operatsiya'ar (amallar) uchun operatsiyalarni va o'tishlarni yozish qoidalari; 8 – zahira; 9 – me'yoriy va ma'lumotnomma hujjatlarini yaratish qoidalari.

#### 12.4. Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha kompleks standartlar

Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi hukumati qabul qilgan qonnular, qarorlarga muvosif tuziladi.

Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha standartlashtirish uchta kompleks standartlashtirishdan tashkil topgan. Bular FOCT tizimida 12 kod bilan belgilangan "Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (MXST)", 17 kod bilan belgilangan "Tabiatni muhofazalash va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash sohasidagi standartlar tizimi (TMST)" va 22 kod bilan belgilangan "Favqulotda holatlarda xavfsizlik (FHX)" tizimlaridan iborat.

**Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (MXST)** ishlab chiarishda va turmushda insonlarning sog'lig'ini muhofazalash maqsadida avariya va baxtsiz holatlarni oldini olish bo'yicha muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Unda 350 dan ortiq standartlar mavjuddir.

Bu tizim dorasida mehnat xavfsizligi bo'yicha barcha rnavjud me'yoriy va me'yoriy-texnikaviy hujjatlarni, shuningdek, tarmoq uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish sanitariyasi va texnika xavfsizligi bo'yicha ko'plab me'yor va qoidalarni tizimlashtirilishi va o'zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi. MXST o'zida mehnat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan ko'pdarajali o'zaro aloqador standartlar tizimini namoyon etadi.

MXST tizimi (FOCT 12.0.001 standati bo'yicha) quyidagi guruhlardan tarkib topgan:

0 – Tashkiliy-uslubiy standartlar;

1 – Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining turlari bo'yicha talab va me'yorlariga standartlar;

2 – Ishlab chiqarish quriimalariga xavfsizlik talablari standartlari;

3 – Ishlab chiqarish jarayonlariga xavfsizlik talablari standartlari;

4 – Ishchilarining himoya vositalariga talablar standartlari.

"0" guruhi standartlari quyidagilarni o'rnatadi:

- mehnat xavfsizligi sohasida standartlashtirishning tashkiliy-uslubiy asoslarini (tizimning maqsadi, vazifasi va tuzilmasi, MXST standartlarini

joriy qilish va rivoj etilishi ustidan nazorat, mehnat xavfsizligi sohasidagi atamalar, ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillarini sinflanishi va h.);

-mehnat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan ishlarni tashkillashirishga (qoidalar) talablar (ishlovchilarni mehnat xavfsizligi bo'yicha o'qitish, xodimiarni attestatsiyalash, mehnat xavfsizlik holatlarini baholash usullari va h.).

*"1" guruh standartlari quyidagilarni o'rnatadi.*

-ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillarining turlari bo'yicha talablarini, ularning ko'rsatkichlarini ruxsat etilgan qiymatlari va tavsiflarini;

-ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillarining me'yoranadigan ko'rsatkichlari va tavsiflarini nazorat qilish usullarini;

-ishlovchilarni ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillaridan himoyalash usullarini.

*"2" guruh standartlari quyidagilarni o'rnatadi:*

-ishlab chiqarish qurilmalariga xavfsizlikning umumiy talablarini;

-ishlab chiqarish qurilmalarining alohida guruhiга xavfsizlik talablarini:

-xavfsizlik talablarining bajarilishini nazorat qilish usullarini.

*"3" guruh standartlari quyidagilarni o'rnatadi:*

-ishlab chiqerish jarayonlariga xavfsizlikning umumiy talablarini;

-texnologik jarayonlarning alohida guruhiга xavfsizlik talablarini;

-xavfsizlik talablarining bajarilishini nazorat qilish usullarini.

*"4" guruh standartlari quyidagilarni o'rnatadi.*

-himoya vositalarning turlari va xillari hamda alohida sinflariga talablarini,

-himoyalash vositalarigi tekshirish usullarini;

-himoyalash vositalarining sinflanishini.

Mehnat xavfsizligi sohasidagi standartlashtirish xalq xo'jaligining barcha darajadagi boshqaruvarini qamrab oladi. Bundan tashqari barcha toifadagi standartlarda va mateiallar, moddalar, ishlab chiqarish qurilmalarining texnik shartlarida hamda ishlab chiqarish jarayonları, binolari, inshoatlari agarda ular xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining manbalari bo'lib hisoblansa, "Texnika xavfsizligi" bo'lim alohida holda majburiy ravishda bajarilishi nazarda tutilgan.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi korxonalarda MXST standartlari asosida MXST standartlarini ishlab chiqish, nazorat qilish va rivoj qilish, ishlarni tashkillashtirish tartibi hamda mehnat xavfsizligi bo'yicha boshqa me'yoriy hujjadar, yong'in va portlash xavfsizligini

ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkiilashtirish tartibini belgilovchi mehnat xavfsizligi bo'yicha korxonai stadartlari ishlab chiqiladi.

MXST standartlari talablari va me'yorlari majburiy ravishda barcha turdag'i konstruktorlik, texnologik, loyiha hujjatlariiga hamda mehnatni muhofazalash bo'yicha yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarda keltiriladi. MXST standartlarining asosiy qoidalari davlat standartlashtirish tizimining tarmoq standartlarida keltirilgan.

Ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi, jarayonlar, mahsulotlar va xizmatlarning xavfsizligi hozirgi vaqtida ishlab chiqarish obyektlarini majburiy sertifikatlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham MXSTning standartlari majburiy sertifikatlashtirish tizimining asosiy me'yoriy bazasi bo'lib hiso'lanadi.

Xalqaro standartlashtirishda xavfsizlik masalalariga katta e'tibor qaratiladi ISO va IEC tashkilotlari xavfsiziik talablari keltirilgan xaiqaro standartlarni qo'llash yo'li bilan xavfsizlikni ta'minlashga intilishadi. Bular faqat xavfsizlik talablaridan yoki boshqa texnikaviy talablar bilan bir qatorda xavfsizlik talablaridan tarkib topgan standartlar bo'lishi mumkin. Xavfsizlik standartlarini tayyorlashda mahsulotning har bir tavsifi bo'yicha xavfsizlikni e'rnatish usullari va atrof-muhit, insonga salbiy ta'sir elishi mumkin bo'lgan standartlashtirish obyektlari tavsiflari sifatini aniqlanadi. Ammo *xavfsizlik sohasida standarilashdirishning asosiy maqsadi surʼi xildagi xavflardan sagianishni qidirishdan iborat*.

Masalan, IEC tashkiloti quyidagi faoliyat sohalarida: jarohat xavfsizligi, elektrtoki urishi xavfi, texnik xavfi, yong'in xavfi, portlash xavfi, kimyoziy xavfi, biologik xavfi, qurilmalardan nurlanish xavflari (tovush, infraqizil, radiochastotali, ul'trabinafsha, ionlashevchi, rasiasion va h.) masalalari bo'yicha faol shug'ullanuvchi tashkilot sifatida faoliyat yuritadi.

*Tabiatni muhofazalash va tabiiy resurslordan foydalanishni yaxshilash sohasidagi standartlar tizimi (TMST)* o'zida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklash va ularni saqlashga yo'naltirilgan o'zaro aloqader standartlar majmuasini namoyon etadi.

*Tabiatni muhfazalash* (GOST 17.0.0.01 standarti bo'yicha) -- bu inson sog'lig'i va tabiatga jumiyati faoliyatini natijalarining to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita zararli ta'sirlarni olidini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy boyliklarni saqlash va qayta tiklashni ta'minlovchi, atrofdagi tabiiy muhitni va inson faoliyatining o'zaro faliyatini muvofiqligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.

Bu tizim ekologik, sanitar-gigiyenik, texnik va iqtisodiy talablari hisobga olingan amaldagi qonurchilikga muvofiq ishlab chiqiladi.

Tabiatni muhofazalash sohasidagi standartlar tizimi 9 guruhdagi standartlardan tarkib topgan (12.2-jadval).

12.2-jadval

### TMSTning tasnifiy guruhlari

Guruh raqami	Nomlanishi	Kodli nomlanishi
0	Tashkiliy-uslubiy standartlar	Asosiy qoidalari
1	Suvdan oqilona foydalinish va himoyalash sohasidagi standartlar	Gidroferra
2	Atmosferani himoyalash sohasidagi standartlar	Atmosfera
3	Biologik resurslar sohasidagi standartlar	Biologik resurslar
4	Tuproqdan oqilona foydalinish va himeyalash sohasidagi standartlar	Tuproq
5	Yerdan foydalinishni yaxshlash sohasidagi standartlar	Er
6	Florani himoyalash sohasidagi standartlar	Flora (habodot olami)
7	Faunani himoyalash sohasidagi standartlar	Fauna (hayvonot olami)
8	Er osti boyliklaridan oqilona feydalanish va himoyalash sohasidagi standartlar	Er osti boyligi

TMSTning standartlari standartlashtiriladigan obyektning tafsiflariga bog'liq holda turlarga bo'linadi (12.3-jadval).

12.3-jadval

### TMSTning tasnifiy turlari

Tur raqami	Turning nomlanishi
0	Asosiy qoidalari
1	Atamalar, ta'riflar, sinflanishi
2	Chiqindi va tashlanmalardan ifloslanish, tabiiy resurslardan foydalinish jadalligini o'chash usullari va me'yorlari
3	Tabiatni himoyalash va tabiiy resurslardan oqilona foydalish qoidalari
4	Tabiiy obyektlar holati va xo'jalik ta'sirlarning jadalligi ko'rsatkichlarini aniqlash usullari
5	Atrofdagi tabiiy muhit holatini o'chash va nazorat qilish vositalariga talablar
6	Ifloslanishdan atrof-muhitni himoyalash bo'yicha inshootlar, qurilmalar va appartlarga talablar
7	Boshqa standartlar

TMST tiziuni standartlarini belgilanishini FOCT 17.1.3.13-86 "Tabiatni muhofazaish. Gidrosfera. Suv yuzasini ifloslanishdan himoyalashga umumiy talablar" standarti misolida ko'rib chiqamiz.

FOCT 17	3.13 - 86	Standartning ro'y xatga olingan yili
		Standartning tartib raqami
		Turraqami
		Guruh raqami
		(TMST) tizim raqami

*Favqulotda holatlarda xavfsizlik (FHX)* tizimida keltirilgan kompleks standartlarning asosiy maqsadi quyidagicha:

- aholi va xalq xo'jaligi obyektlarini tabiiy, texnogen, biologik-ijsitmoyi va harbiy favqulotda holatlarda xavfsizligini ta'minlash uchun barcha darajadagi (davlat, hududiy, mahalliy) favqulotda holatlarni yo'qotish va ogohlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

- favqulotda holatlар ziyonini olib olish yoki kamaytirish;

- favqulotda holatlarni oldini olish va yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlarni o'tkazishda material va mehnat resurslaridan samarali foydalanimish va tejash.

FHX kompleksiga 12.4-jadvalda keltirilgan tasnifiy guruhslar kicadi.

"0" guruh standartlari quyidagilarni o'rnatadi:

- kompleks standartlarning (qo'llanilishi, tuzilmasi, sinflanishi) asosiy qoidalari;

- favqulotda holatlardan xavfsizligini ta'minlash sohasidagi asosiy atama va ta'riflar,

- favqulotda holatlarning sinflanishi;

- mahsulot, jarayon, xizmat va xalq xo'jaligi obyektlari va elarning xavfligi bo'yicha sinflanishi;

- favqulotda holatlardan manbalarining ta'siri va paydo bo'lishi omillarining nomenklaturasi va sinflanishi;

- favqulotda holatlardan manbalarining ta'siri va paydo bo'lishi omillarining ruxsat etilgan darajasi (konsentrasiyasi);

- favqulotda holatlarda texnikaviy tizim holatini metrologik nazorati qoidalari va asosiy nizomlari.

**FHXning tasnifiy gruhlari**

Guruh raqam	Nomlanishi	Kodli nomlanishi
0	Asos bo'luvchi standartlar	Asosiy qoidalar
1	Monitoring va bashoratlar sohasidagi standartlar	Monitoring va bashoratlash
2	Xalq xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini ta'minlash sohasidagi standartlar	Xalq xo'jaligi obyektlari xavfsizligi
3	Aholi xavfsizligini ta'minlash sohasidagi standartlar	Aholi xavfsizligi
4	Oziq-ovqat, oziq-ovqat xomashyosi va ozuqalar xavfsizligini ta'minlash sohasidagi standartlar	Oziq-ovqat xavfsizligi
5	Qishloq xo'jaligi hayvonlari va o'simliklarining xavfsizligini ta'minlash sohasidagi standartlar	Hayvonlar va o'simliklar xavfsizligi
6	Suv manbalari va suv ta'minoti tizimlarining xavfsizligini ta'minlash sohasidagi standartlar	Suv xavfsizligi
7	Aloqa va xabar berish, boshqarish usullari va vositalariga standartlar	Boshqarish, aloqa, xabar berish
8	Faqulotda holatlarni tugatish sohasidagi standartlar	Faqulotda holatlarni tugatish
9	Avariya-qutqaruvni shakllantirishni texnikaviy ta'minlash, maxsus himoya vositalari va qutqaruvchilarni shaylantirish sohasidagi standartlar	Avariyaligi-qutqaruv vositalari
10-11	Zaxira	

**12.5. Mahsulot yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish tizimi**

Yangi buyumlarni yaratish, o'zlashtirish va ishlab chiqarish jarayonida tashkiliy-texnik va uslubiy jahbadagi ma'lum muammolar paydo bo'ladi, mahsulotning sifati, texnik darajasi va raqobatbardoshligi bu muammoarning to'g'ri hal qilinishiga bog'liq.

Mahsulot yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish tizimi (*O'zMYaT*)ning asosiy maqsadi iste'molchilarining manfaatlari uchun mahsulotning yuqori texnik darajasi, sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashning yagona tashkiliy-uslubiy asosini shakllantirishdan iborat. *O'zMYaT*da quyidagi yo'naliishlarni belgilovchi nizomlar o'mailgan:

- mahsulotni yaratish yoki takomillashtirish imkonini va maqsadga muvofiqligini asoslash;

– yangi texnologiyalarni qo'llanish va mahsulotga majburiy talablarga muvosiflikni hisobga olgan holda ilmiy-texnikaviy istiqbolning zamonaviy yutuqlariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotni yaratish (ishlab chiqish), o'zlashtirish va ishlab chiqish;

– mahsulotni yaratish, o'zlashtirish, ishlab chiqarish va feydalanishga topshirish muddatlarini va harajatlarini qisqartirish;

– mahsulot sifati tarkibining xalqaro standartlarga va bozor talablariga muvoziqligini asoslash.

O'zMYaT standartlashirish obyektlariga mahsulot hayotiy siklining bosqichlarida ishlarning bajarilishini va manfaatdor tomonlarning o'zaro birga harakatini ta'minlash kiradi. O'zMYaT faoliyati boshqa standartlashtirish umumtexnikaviy tarmoqlararo tizimlarining standartlari bilan o'zaro harakati bilan ta'minlanadi.

O'zMYaT standartlarining tuzilish strukturasi mahsulot hayotiy siklining barcha bosqichlari bo'yicha taqsimlanadi. O'zMYaTni shakllantirishda mahsulot hayotiy siklining bosqichlari bo'yicha taqsimlangan va o'zaro bog'langan barcha bajariladigan ishlarni maqsadli va kompleks qamrash tamoyilidan foydalilaniladi. O'zMYaTda ishlarni modul prinsipida tashkilashtirish bozor munosabatlari o'tish davrida xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro aloqalari tashkiliy-texnik mexanizmini ta'minlashga mo'ljalangan. Xo'jalik yurituvchi subyektlar quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

– Qonun hujjatlarining me'yoriy hujjatlarga, me'yoriy hujjatlarining ishlab chiqarishda qabul qilingan tashkiliy-texnik nizomlarga nisbatan ustunligi, bu esa turli iqtisodiy-huquqiy vaziyatlar sharoitlarida o'matiladigan talablarning (manfaatdor tomonlar faoliyatini belgilovchi talablarning) tarkibini kengaytirishga imkon beradi;

– O'zMYaT qatnashchilarining faoliyatini mahsulot hayotiy siklining barcha bosqichlarida, O'zMYaTni turli boshqaruv shakllaridan foydalaniib, tartibga tushirish;

– ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik talablarini qondiradigan mahsulot chiqarish bo'yicha O'zMYaTning so'nggi maqsadiga erishishg;

– O'zMYaT muammolarini hal qilishda iste'molchining usunligi.

Nol guruhi standartlari quyidagilarni o'rnatadi:

– O'zMYaT standartlarini shakllantirish, tuzish va tasniflashda tizim yasovchi prinsiplari bo'yicha umumiyligi nizomlar;

– mahsulot sifatini ta'minlash;

– mahsulot hayotiy siklining bosqichlari;

– mahsulot hayotiy siklining bosqichlari bo'yicha ishlarni tashkillashtirish modullari va modellari.

Birinchi guruhi standartlari quyidagilarni o'taatadi:

– mahsulotning tajriba nushalarini ishlab chiqish iimiy-texnikaviy yo'llarini izlash bo'yicha ishlarni bajarishga texnik topshiriq (TT) yoki uning o'rmini bosuvchi hujjatning tuzilishi, mazmuni, bayon etilishi, kelishish tartibiga va qabul qilishga buyurtmachining boshlang'ich talablarini ishlab chiqishga talablari; shuningdek, juda murakkab (va yalpi qo'llaniladigan) mahsulotni shartnomaga (yoki tashabbus) asosida ishlab chiqishning imkoniyatini va maqsadga muvosifqligini texnik-iqtisodiy usoslash bo'yicha pesh loyihami bajarishga TT;

– tadqiqot va pesh loyihami bajarishga talablari; bularni bajarish va qabul qilish qoidalari, ishlab chiqish, kelishish va qabul qilish qoidalari;

– tadqiqot va pesh loyiha natijalarini amalga oshirish tartibi.

Ikkinci guruh standartlari quyidagilarni o'rnatadi:

– buyumlarni ishlab chiqish takomillashtirish bo'yicha tajriba-konstrukturlik ishlarini (TKI) va buyum tarkibiga kiruvchi materiallarni ishlab chiqish bo'yicha tajriba-teknologik ishlarni (TTI) bajarishga TT (yoki uning o'rmini bosuvchi hujjatning tuzilishi, mazmuni, bayon etilishi, kelishish tartibi va qabul qilishga talablari;

– TKI, TTI ni bajarishga va qabul qilishga talablari, ularning bosqichlari; TKI va TTIning bosqichlarida hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish va qabul qilish tartibi;

– TKI va TTI bo'yicha ishlarni amalga oshirish tartibi;

– TKI va TTIning o'tkazilishini ta'minlaydigan ishlarni bajarishga talablari (sinashlar, asosiy namunalarni sinash dasturlari va usullari, tajriba nusxa bo'yicha mahsulot turini sertifikatlashtirish va h.).

Uchinchi guruh standartlari quyidagilarni o'rnatadi:

– mahsulotni ishlab chiqarishga (tayyorlanish, o'zlashtirish va chiqarishga) qo'yish tartibiga talablari;

– birlik (bir martalik buyurtmalar bo'yicha takrorlanuvchi) va seriyali mahsulotni tayyorlashga; nuqsonli (nomuvefiq) mahsulotni va ishlab chiqarishning foydalanimaydigan chiqindilardan qayta foydalanishga talablari;

– me'yoriy, konstruktorlik va texnologik hujjatlarning talablarini va ishlab chiquvchi hamda tayyorlovchining kafolatlangan majburiyatlarini bajarishni ta'minlash;

– mahsulotni sertifikatlashtirish (muvosiflikni tasdiqlash)ga va ishlab chiqish sharoitlariga talablari;

– mahsulotni ishlab chiqarish va (zarur bo'lганда) foydalanish (yoki iste'mol qilish) jarayonida mualliflik nazoratini o'tkazish tartibi.

To'rtinchi guruh standartlar quyidagilarni o'rnatadi:

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari va me'yoriy hujjatlarining

iste'molchilarning huquqlarini himoyalash va mahsulotni yetkazib berish qoidalari qismida talablarning bajarilishini ta'minlash tartibi;

– Mahsulot muomalasi (idishlarga joylash, taxlash, saqlash va tashish) va uni buyurtmachi (iste'molchi)ga berish bo'yicha talablar;

– Muomalada mahsulot xavfsizligini, sifatning saqlanishini ta'minlash bo'yicha talablar.

Beshinchi guruh standartlari mahsulotdan iste'molchilarda (savdo tashkilotlarida) foydalanish bo'yicha talablarni, shu jumladan, mahsulotni foydalanishga qo'yish tartibi va (zarur bo'lganda) qayta foydalanish tartibini o'rnatadi.

Oltinchi guruh standartlari ta'mirbop mahsulot uchun quyidagilarni o'rnatadi:

– mahsulotni ta'mirlash korxonasiga qo'yish, shu jumladan, ta'mirlashga tayyorlanish va ta'mirlashni o'zlashdirish tartibi;

– birlik (bir martaq) buyurtma bo'yicha va seriyali ta'mirlashda mahsulotni ta'miriashga talablar;

– ta'mirlashga tayyorlash va ta'mirlashga qabul qiliшda, ta'mirlash ishlarni bajarishda va mahsulotni ta'mirdan qabul qilib olichda ta'mir hujjatlari talablarining bajarilishini ta'minlash tartibi;

– ta'mirlash ishlab chiqarishining sharoitlariga talablar.

Ettinchi guruh standartlari quyidagilarni o'rnatadi:

– yetkazib beriladigan mahsulotga e'tirozlar, shikoyatlar va da'volar bilan ishlash (e'tirozlarni bildirish va qeniqtirish) tartibi;

– mahsulot to'g'risida axborot berish tartibi (byulletenlar, axborotnomalar, reklamuning qisqacha bayoni va h.);

– mahsulotdan foydalanish jarayonida texnik nazorat (monitoring)ni o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish tartibi;

– mahsulotning belgilangan imkoniyatlarini, xizmat muddatlarini va saqlash muddatlarini cho'zish tartibi;

– murakkab komplekslarni va boshqa stansionar obyektlarni foydalanishga kiritish tartibi;

– foydalanish va ta'mirlash hujjatlari, ehtiyoj asbob-moslamalar va mahsus vositalar, o'qitish, tekshirish, o'lchash, sinash, mahsulotga texnik xizmat ko'rsatish, foydalanish va ta'mirlash vositalari bilan ta'minlash tartibi;

– mahsulotni foydalanishdan olish va undan qayta foydalanish bo'yicha ishlarni o'tkazish tartibi.

Sakkizinchchi guruh standartlari buyumlarni va materiallarni ishlab chiqarishdan olishga talablarni o'rnatadi.

To'qqizinchi guruh standartlar zahira guruh bo'lib, O'zMYaTni rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

Bir nechta tasniflash guruhlari uchun taflablarni o'rnatuvchi standartlar birinchi tartib raqamlarining kattalashish tartibi bo'yicha guruhga kiritiladi. O'zMYaTning barcha standartlari 15 sinfiga kiradi.

## 12.6. Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlash

Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish yagona tizimi (TIIA TKYaT) texnik-iqtisodiy axborotlarni tasniflagichlarini yaratish bo'yicha ishlar tarkibi va mazmuniini, utarga o'zgartirishlar kiritish yo'li biian dolzarblikga qayta ko'rib chiqish (yuritish) holati hamda tasniflagichlarni ishlab chiqish tartibini va ularni amaliy qo'llanishni belgilaydi.


*Tasniflagich (klassifikator)* – umumiy alomatli nomlanishning tizimlashtirilgan to'plami.

TIIA TKYaT asosiy vazifalari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- boshqaruv tizimida foydalaniladigan axborotlarni tartiblashtirish, unifikasyailash, tasniflash va kodlashtirish;
- turli xil darajadagi boshqaruv idoralari masalalarini hal etish uchun zaruriy tasniflagichlar majmuini ishlab chiqish;
- axborotlarni xalqaro almashini bilan bog'liq masalalarini hal etish uchun xalqaro tasniflagichiardan maksimal holda foydalanish;
- avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bankini yaratish va axborot (ma'lumot)larni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- axborotlashgan tizimlar bilan o'zaro faoliyati yuritishda axborotlar moslashuvchanligini ta'minlash.

TIIA TKYaTda tasniflash va kodlashtirish obyektlari iqtisodiy va ijtimoiy obyektlarni va ularning xossalari, statistik ma'lumotlar, bank ishining moliyaviy va huquqni himoyalash faoliyati, buxgalteriya hisobi, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, mahsulotlarni ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, bojxona ishi, savdo va tashqi iqtisodiy faoliyat va boshqaruv masalalarini hal etish uchun boshqa zaruriy axborotlarda ma'lumotlar hisoblanadi.

Masalan, Mahsulotlar umum davlat tasniflagichi (klassifikatori) uchun kodlar tuzilmasi 12.1-rasmida keltirilgan.



*12.1-rasm. Mahsulotlarni umum davlat tasniflash uchun kodlar tuzilmasi.*

Mahsulot umum davlat tasniflagichi (MUT) yetkazib berish predmeti hisoblangan mahsulot nomi va kodlarining tizimlashtirilgan to‘plamini o‘zida namoyon etadi. MUT tasnifiy (T-MUT) (sinfiy) va assortimentli (A-MUT) qismlardan tarkib topgan. Tasnifiy (sinfiy) qismi aniqlangan alomatlar bo‘yicha mahsulotlarni tizimlashtiruvchi tasnifiy guruhingan nomlar va kodlar (sinf – sinfosti – guruhi – guruhosti – tur)ni o‘zida namoyon etadi. Assortiment qismi muayyan mahsulot markasini identifikasiyalovchi nomlar va kodlar majmuasidir.

*Misol:*

54 sınıf mahsulotlari MUTda kodli begilanishini ko‘rib chiqamiz:

54 (sinf) – selluloza-qog‘oz sanoati mahsuloti;

546 (sinfosti) – məktəb daftarlari, oboj va oq qog‘ozli tovarlar;

5463 (guruhi) – oq-qog‘ozli tovarlar;

54631 (guruhi osti) – məktəb daftarlari va kundaliklari;

546314 (tur) – qalam bilan yozish uchun daftarlari;

546314 0001 – nashriyot oq silliq qog‘ozdan blok va qattiq qog‘ozdan muqovalangan, hajmi 48 varaq, 144x203 mm o‘lchamli qalam bilan yozish uchun daitar (turli xillik – assortiment qismi – muayyan mahsulot markasining identifikasiyasasi).

Tasniflashgan qismida mahsulot (sinf – tur)lar umumiy alomatlari (mo‘ljallanganligi va h.) bo‘yicha obyektiar qatori (selluloza-qog‘oz sanoati mahsulotlari) tartiblashtirish tartibida bo‘linadi. Assortiment qismida muayyan alomatlar qismi (konstruksiyasi va h.) bo‘yicha tartiblashtiriladi. Shuning uchun ham tasniflagichlarni ishlab chiqish juda murakkab va mashaqatli ishlardan hisoblanadi.

Buning eng mashaqatli jihatni standartlashtirish sohasida ko'rilayotgan muayyan aynan bir xil standartlashtirish obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni sifatli tasnifiy tizimlar (ST)ni ishlab chiqish bo'lib hisoblanadi. Buning uchun tabiiy turiga qanchalik yaqinlashish imkoniyatini hisobga olish zarur. Agarda obyektlarni identifikatsiyalash uchun zaruriy va yetarli mavjud xossalariiga tayangan bo'lsa hamda bu obyektlar tuzilmasini qurish mantiqan muvofiq bo'lsa tabiiy tasniflash deb ataladi. Shunday qilib, yuqori sifatli tasniflashni olish uchun u qaratayotgan sohada barcha obyektlar, ular ushbu sohasidagi munosabati va kelib chiqishi jarayonlari maksimal darajada aniq aks ettirilish lozimi. Faqatgina bunday holatlardagina (standartlashtirish sohasi) tartiblashgan tuzilma elementlarini ifodalab, ya'ni uni dunyo bo'yicha ifodalashni amalga oshirish mumkin.

Tasniflagichlarni ishlab chiqish va olib borish asosiy nizomlarini; atamalar va ta'riflar, shtrix kodlashni avtomatik identifikatlash asosiy nizomlari; EAN va O'zTNT kodlarini ro'yxatga olish, tayyorlash, qayta ko'rib chiqish va bekor qilish tartibini belgilovchi O'zDSt amalga kiritilgan. O'zbekistonda quyidagi xalqaro va hududiy standartlar asosida quyidagi tasniflagichlar yaratilgan va amalga kiritilgan: KTUT, KOU, TIFUT, VT, O'BTT va boshqalar.

## **12.7. Ishlab chiqariladigan mahsulot va tovarlarni shtrixli kodlash**

Ba'zan bitor mahsulot xarid qilganimizda uning ko'rinarli joyida yoki etiketkasida har xil qalinlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shakllarni ko'rishimiz mumkin. Ularga shtrix-kod nomi berilgan. Xo'sh, shtrix-kodlar nima va qachon paydo bo'lgan?

Shtrix-kodlardan mahsulotlarga nisbatan tatbiq etish g'oyasi ilk bora 30-yillarda AQShning Garvard biznes maktabida yaratilgan bo'lib, undan amalda foydalanish bir necha o'n yillardan so'nggina, ya'ni, 60-yillardan boshlangan. Shtrix-kodlarni dastlabki qo'llovchilar temir yo'lchilar bo'lib, shu usul orqali temir yo'l vagonlarini identifikatsiyalashgan. Mikroprosesor texnikasining gurkirab rivojlanishi 70-yillardan boshlab shtrix-kodlardan keng ravishda foydalanish imkonini yaratdi. 1973-yil AQShda Mahsulotning Universal Kedi (IPC) qabul qilinib, 1977-yildan boshlab esa Yevropa Kodlash Tizimi EAN (European Article Numbering) ta'sis etildi va hozirda undan nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham keng ravishda foydalanishmoqda.

Shtrix-ked ketma-ket almashinib keluvchi qora (shtrix) va oq (probel) rangli, turli qalinlikdagi chiziqlardan iborat bo'lib, bu chiziqlarning o'l-

chamlari standartlashtirilgan. Shtrix-kodlar maxsus optik qurilmalar -- skannerlar yordamida o'qishga mo'ljallangan. Uning vositasida, mikro-protses-sorlar orqali shtrixlar raqamlarga dekoderlanib, mahsulot haqidagi ma'lumotlar kompyuterga uzatiladi.

Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlarda mahsulotning o'ramida (upakovkasida) shtrix-kodning bo'lishi majburiy sanaladi. Aks holda savdo tashkilotlari mahsulotdan voz kechishlari mumkin. Bu xalqaro savdoga ham tegishlidir. Ushbu tizimning iqtisodiy jihatdan samaraliligi mahsulotning 85 foizidan ko'pi kodlashirilganda yaqqol namoyon bo'ladı. Bundan tashqari, mahsulotga nisbatan bo'lgan talab va ehuiyojlarni shakllantirish, jamlash, hisobga olish, mahsulotni kelish-ketishi hisobini yuritishda va hujjatlarni rasiniylashtirishda, hamda mahsulotlarni saqlash va sotuvidagi nazoratlarni amalga oshirishda alohida o'rın tutadi.

O'zbekiston tovərlarining ichki va xorijiy bozorlarda raqobatbardosh-lilagini oshirish, tovar ishlab chiqaruvchini tovarlarni raqamlashning xalqaro tizimlari doirasida identifikatlashtirish, iste'molchi huquqlarini himoya qilish, tovarlar ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan hisobini yuritishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1999-yil 21-sentabrda № 438-sonli qaror qabul qildi. Bunga binoan quyidagilar belgilangan:

– "EAN International" tovarlarni raqamlash Xalqaro Uyushmasi (Belgiya) tomonidan O'zbekiston Respublikasiga 478-raqamli identifikatlashturish kodi berildi;

– O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan xalqaro talablarga muvofiq, tovarlari EAN shtrixli kodlari bilan tamg'aلانадиган тадбиркорлик фаoliyatи subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda tovarlarni identifikatlashtirish tizimidan foydalanuvchilar faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish uchun "EAN Uzbekistan" tovarlar va xizmatlarni avtomatik identifikatlashtirish markazi tashkil etish belgilangan;

– "O'zstandart" agentligi tomonidan shtrixli kodlarning original maketlarini tayyorlash markazi tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi;

– O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlarni shtrixli kodlash tizimini joriy etish bo'yicha yagona siyosatni ainalga oshirish yo'liga qo'yildi;

– O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlar shtrixli kodlarining davlat reyestri yuritila boshladi;

– O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariiga muvofiq shtrixli kodlash tizimi qo'llash tartibini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni va uslubiy materiallarni ishlab chiqildi;

- Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarini turli manbalardagi shtrixli kodlar original-maketlari bilan ta'mirlash funksiyalari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi hamda "O'zstandart" agentligi bilan birgalikda 1999-yil sentabr oyida Toshkent shahrida sanoat, qishloq xo'jaligi va savdo korxonalarining vakillarini ko'rsatib o'tilgan tizimni qo'llash xususiyatlari bilan tanishitirish uchun "O'zbekiston Respublikasida tovarni raqamlash (shtrixli kodlash)" navzida respublika seminari o'tkazsin.

Mulkchiiukning barcha shakllaridagi yuridik shaxslarga tovarlarni shtrixli kodlashni:

- Ekspert qilinayotgan mahsulotlarni, yangi tovarlarni va ular uchun yangi etiketkalar yoki o'rash-joylash buyumlari buyurtma qilinayotgan tovarlarni tamg'alashi;

-- Boshqa barcha tovarlarni tamg'alashni joriy etish tavsiya qilindi.

Ushbu qarorda belgilab qo'yilganki, o'z mahsulotiga "EAN International" shtrixli kodini uchinchi mamlakatlarda o'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari undan ushbu qaror qabul qilingan vaqtidan boshlab bir yil mobaynida foydalanishlari mumkin.

**Shtrixli kod bilan tamg'alash** - shtrixli kodni tovar birligi yuzasiga qo'yish;

**EAN shtrixli kod** - tovar birliklarini identifikatshtirish va ularni tamg'alash uchun "EAN International" tovarlarni raqamlash Xalqaro Uyushmasi qoidalarida belgilangan o'lchamlar bilan va joylashtirilgan holda izchil joylashtirilgan parallel shtrixlar va ular o'rtasidagi oraliqdagi kombinatsiyalar bilan ifodalangan raqamli kod;

Asosan, EANning ikki kodidan ko'proq foydalaniledi: 13 razradli va 8 razradli raqamli kodlar. Bunda eng ingichka shtrix birlik sifatida olinadi. Har bir raqam (yoki razrad) ikki shtrix va ikki probeldan iborat bo'ladi (12.2 va 12.3- rasmlar). 13 razradli kodning tarkibida quyidagi kodlar ko'rsatiladi:

- davlat kodi ("davlat bayrog'i");
- korxona (firma) - tayyorlovchi kodi;
- mahsulotning kodi;
- nazorat soni.

EAN assotsiatsiyasi turli davlatlar uchun kodlar ishlab chiqqan bo'lib, ushbu kodlardan foydalanish uchun markazlashtigan tarzda hitsenziyalar tavsiya etadi. Masalan, Fransiya uchun dovlat kodi sifatida 30-37, Italiya uchun 80-87 oraliqlari tavsiya etilgan Ba'zi davlatlarning kodlari uch xonali sondan iborat. Masalan, Gresiya - 520, Rossiya - 460, Braziliya - 789.

chamlari standartlashtirilgan. Shtrix-kodlar maxsus optik qurilmalar -- skannerlar yordamida o'qishga mo'ljallangan. Uning vositasida, mikro-protses-sorlar orqali shtrixlar raqamlarga dekoderlanib, mahsulot haqidagi ma'lumotlar kompyuterga uzatiladi

Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlarda mahsulotning o'tramida (upakovkasida) shtrix-kodning bo'lishi majburiy sanaladi. Aks holda savdo tashkilotlari mahsulotdan voz kechishlari mumkin. Bu xalqaro savdoga ham tegishlidir. Ushbu tizimning iqtisodiy jihatdan samaraliligi mahsulotning 85 foizidan ko'pi kodlashirilganda yaqqol namoyon bo'ladı. Bundan tashqari, mahsulotga nisbatan bo'lgan ta'lab va ehuyojlarini shakllantirish, jamlash, hisobga olish, mahsulotni kelish-ketishi hisobini yuritishda va hujjatlarni rasminiylashtirishda, hamda mahsulotlarni saqlash va sotuvidagi nazoratlarni amalga oshirishda alohida o'rın tutadi.

O'zbekiston tovarlarining ichki va xorijiy bozorlarda raqobatbardosh-lilagini oshirish, tovar ishlab chiqaruvchini tovarlarni raqamlashning xalqaro tizimlari doirasida identifikatlashtirish, iste'molchi huquqlarini himoya qilish, tovarlar ishlab chiqarishning avtomatlashirilgan hisobini yuritishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1999-yil 21-sentabrda № 438-sonli qaror qabul qildi. Bunga binoan quyidagilar belgilangan:

– "EAN International" tovarlarni raqamlash Xalqaro Uyushmasi (Belgiya) tomonidan O'zbekiston Respublikasiga 478-raqamli identifikatlashtirish kodi berildi;

– O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan xalqaro talablarga muvofiq, tovarlari EAN shtrixli kodlari bilan tamg'alanadigan tadbirkorlik faoliyati subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda tovarlarni identifikatlashtirish tizimidan foydalanuvchilar faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish uchun "EAN Uzbekistan" tovarlar va xizmatlarni avtomatik identifikatlashtirish markazi tashkil etish belgilangan;

– "O'zstandart" agentligi tomonidan shtrixli kodlarning original maketlarini tayyorlash markazi tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi;

– O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlarni shtrixli kodlash tizimini joriy etish bo'yicha yagona siyosatni ainalga oshirish yo'liga qo'yildi;

– O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlar shtrixli kodlarining davlat reyestri yuritila boshladi;

– O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq shtrixli kodlash tizimi qo'llash tartibini tartibga scluvchi me'yoriy hujjatlarni va uslubiy materiallarni ishlab chiqildi;

- Tadbirkorlik faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarni turli manbalardagi shtrixli kodlar original-maketlari bilan ta'mirlash funksiyalari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi hamda "O'zstandart" agentligi bilan birgalikda 1999-yil sentabr ovida Toshkent shanrida sanoat, qishloq xo'jaligi va savdo korxonalarining vakillarini ko'rsatib o'tilgan tizimni qo'llash xususiyatlari bilan tanishitirish uchun "O'zbekiston Respublikasida tovari raqamlash (shtrixli kodlash)" mavzuida respublika seminari o'tkazsin.

Mulkchilikning barcha shakllaridagi yuridik shaxslarga tovarlarni shtrixli kodlashni:

- Eksport qilinayotgan mahsulotlarni, yangi tovarlarni va ular uchun yangi etiketkalar yoki o'rash-joylash buyumlari buyurtina qilinayotgan tovarlarni tamg'alashi;

- Boshqa barcha tovarlarni tamg'alashni joriy etish tavsiya qilindi.

Ushbu qarerda belgilab qo'yilganki, o'z mahsulotiga "EAN International" shtrixli kodini uchinchi mamlakatlarda olgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari undan ushbu qaror qabul qilingan vaqtidan boshlab bir yil mobaynida foydalanishlari mumkin.

**Shtrixli kod bilan tamg'alash** - shtrixli kodni tovar birligi yuzasiga qo'yish;

**EAN shtrixli kodi** - tovar birliklarini identifikatsiashtirish va ularni tamg'alash uchun "EAN International" tovarlarni raqamlash Xalqaro Uyushmasi qoidalarida belgilangan o'lchamlar bilan va joylashtirilgan holda izchil joylashtirilgan parallel shtrixlar va ular o'rtaqidagi oraliqdagi kombinatsiyalar bilan ifodalangan raqamli kod;

Asosan, EANning ikki kodidan ko'proq foydalaniлади: 13 razradli va 8 razradli raqamli kodlar. Bunda eng ingichka shtrix birlik sifatida olinadi. Har bir raqam (yoki razrad) ikki shtrix va ikki probeldan iborat bo'ladi (12.2 va 12.3- rasmlar). 13 razradli kodning tarkibida quyidagi kodlar ko'rsatiladi:

- davlat kodi ("davlat bayrog'i");
- korxona (firma) - tayyorlovchi kodi;
- mahsulotning kodi;
- nazorat soni.

EAN assotsiatsiyasi turli davlatlar uchun kodlar ishlab chiqqan bo'lib, ushbu kodlardan foydalanish uchun markazlashigan tarzda litsenziyalar tavsiya etadi. Masalan, Fransiya uchun dovat kodi sifatida 30-37, Italiya uchun 80-87 oraliqlari tavsiya etilgan Ba'zi davlatlarning kodlari uch xonali sondan iborat. Masalan, Gresiya – 520, Rossiya – 460, Braziliya – 789.

EAN 13 razradli shtrix kodning hisoblash ketma-ketligi. Misol tariqasida 12.2-rasmda keltirilgan shtrix kodning raqamlaridan foydalab va quyidagi amallarni bajariladi.

1. Shtrix kodning juft o'rindagi raqamlarining yig'indisi  
 $7+0+1+5+0+1=14$

2. Hosil bo'lган yig'indini 3 soniga ko'paytiramiz  $14*3=42$

3. Shtrix kodning toq o'rindagi raqamlarining yig'indisi (faqat nazorat soni hisoblanmaydi)  $4+8+0+5+0+0=17$

4. 2 va 3 bosqichdagi hosil bo'lган sonlarni qo'shamiz  $42+17=59$


5. Yig'indidan o'nlik soni ayiramiz  $59-50=9$

6. 10 sonidan 5 bosqichda hosil bo'lган soni ayiramiz  $10-9=1$

Demak, oxirgi olingan natija  $10-9=1$  nazorat soni 1ga teng bundan ko'rinaradiki, shtrix kodi to'g'ri tuzilgan.

Tayyorlovchi korxonaning kodi har bir davlatda tegishli idoralar tomonidan tuziladi. Odatda, bu kod beshta raqamdan iborat bo'lib, davlat kodidan keyin keladi.

Mahsulot kodi tayyorlovchi tomonidan tuziladi va u ham beshta raqamdan iborat bo'ladi. Bu kodning rasshifrovkasi standart emas, u mahsulotga taalluqli bo'lган muayyan xususiyatlarni (belgilarni) yoki faqat tayyorloving o'zigagina ma'lumi bo'lган va shu mahsulotning qayd etish tartib raqamini ifodalashi ham mumkin.




12.2-rasm. EAN 13 razradli kodi.

Nazorat soni EAN algoritmi bo'yicha kodni skaner vositasida to'g'ri o'qilganligini tekshirish uchun xizmat qiladi. EAN-8 kodi uzun kodlarni

belgilab bo'lmaydigan kichik o'rmlar (upakovkalar) uchun mo'ljallangan (12.3-rasm). EAN-8 kodi quyidagi kedlar tartibidan iborat:

- davlat kodi ("davlat bayrog'i");
- korxona (firza) - tayyorlovchi kodi;
- nazorat soni.



12.3-rasm. EAN 8 razradli kodi.

Ba'zan, tayyorlovchi korxona kodining o'rniiga mahsulotning qayd etish tartib raqami keltirilishi ham mumkin.

Raqamlar qatori skaner uchun emas, baiki xaridorlar uchun mo'ljallangan. Arizachi\xaridor uchun ma'lumot faqat mahsulot tayyorlangan davlatni bildirish bilan chegaralanadi, chunki davlat kodi maxsus nashrlarda va ma'lumotnomalarda keltirilib turadi yoki ma'lumot bazalarida va banklarida saqlanishi numukin. To'liq shtrixli kod tashqi savdo tashkilotlariga yoki savdo obyektlariiga mahsulotning aniq kelib chiqish rekvizitlari bilish va kerak bo'lsa mahsulotning shartnema talablariga mos kelmaydigan ko'rsatkichlari va ko'rsatkichlari borasida aniq manzilga raddiya yoki norozilik bilditish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida shtrix-kodlar tebora keng tafbiq etilib bermoqda. 1999-yili "O'zstandart" agentligi qoshidagi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot institutida shtrix-kodlar masalalari bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil etildi. Ushbu markazning ta sis etilishidan maqsad mahsulotlarni avtomatlashtirilgan tarzda identifikatsiyalash borasidagi muammolarni bal etish va bu faoliyatni keng ravishda targ'ib etish Albatta, bunda xalqaro me'yoriy hujjatlarni hisobga olgan holda kodlashning standartlashtirilishi alohida ahamiyatga ega.

Shtrixli kodlash ishlab chiqarish korxonalar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining tatbiq etilishini osonlashtiradi;
- ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash va realizatsiya qilish kabi faoliyatlardagi hisob-kitob ishlarining samaradorligini oshiradi;
- resurslarni chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi;
- hujjatlar aylanishini qisqartiradi;
- mahsulotni realizatsiya qilish va harakati haqidagi ishonchli ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ishni yo'lga qo'yish mumkin;
- boshqaruv va nazorat idoralariga tezkor ravishda mahsulot xususidagi ma'lumotlarni tavsiya etish.

Biroq xaridor sotib olayotgan mahsulotining faqat tayyorlangan davlati borasidagi ma'lumotnigina emas, balki tegishli barcha ma'lumotlarni ham bilishni istaydi. Bu muammo ham vaqt kelib standartlashtirish vositasda hal etilishi mumkin. Biroq buning uchun sertifikatlashtirish yo'lli bilan tasdiqlanuvchi, standartlarning majburiy talablarining ro'yxatini kengaytirish lozim bo'ladi.

## **12.8. Standartlashtirishning davlat nazorati**

Standartlashtirishning Davlat nazorati (SDN) sanoat ishlab-chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot bo'limlari, birlashmalar, ilmiy-kostrukturlik va loyihalash tashkilotlari, transport, savdo, maishiy xizmat va beshqa ommaviy tashkilotlarda standartlar hamda shu kabi tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning amalga oshirilishi faoliyatini nazorat qilish maqsadida tashkil etiladi.

Standartlashtirishning Davlat nazorati mahsulot, xizmat va faoliyatini barcha turiga ta'sir doirasini o'tkazadi. Uning asosiy vazifasi fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini Vazirliklar, muassasalar, korxona va tashkilotlarida joriy etilishini, o'lchash aniqliklari, turlari, vositalari bo'yicha sohalarda bir xillikni ta'minlash, nazorat natijalarini tahlil qilish asosida taklif va tavsiyalar kiritishdan iborat.

SDN "O'zstandart" agentligi idoralari tamonida amalga oshiriladi. Standartlashtirish markazi, metrologiya va setifikatlashtirish bo'limiari, Standartlashtirishning Davlat nazorati laboratoriyalari bu horada xizmat qiladi.

SDN ishlari barcha mahsulot yoki xizmat turiari bo'yicha etakchi tashkilotlar mutaxassislari, ilmiy-tadqiqot, loyiha, konstrukturlik tashkilotlari yuqori malakali mutaxassislari, ishlab chiqarishning novatorlari hamda tashkilotchilik vakillari jalb etiladi. Davlat nazorati ideralarining faoliyatları va mansabdor shaxslarning xuquq va

majburiyatlar. "O'zstandart" agentligi davlat nazorat idoralari standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha keng qamrovli faoliyat ko'rsatadi, jumladan:

- standartlashtirish va metrologiya xizmatlari ishlarini nazorat qilish;
- mahsulot sifati nazorati bo'yicha taftish hay'ati ishiarini boshqarish va muofiglashtirish bo'yicha uslubiy boshqarish;
- SDN ishlarini umumlashtirish;
- davlat sinovlari o'tkazish;
- standartlar va texnik shatlarini ro'yxatga olish va ekspertlash;
- mahsulot sifatini shaxodatlashda qatnashish;
- muhim mahsulot va xizmat turlari bo'yicha bosh korxonalarini shaxodatlash kabi ishlarni tizimli olib boradi;

SDN mansabdar shaxstariga davlat tomonidan quyidagi huquqlar beriladi:

- standartlashtirish va metrologiya talablarini qondirmaydigan konstruktorlik, texnologik va boshqa ishlarni buyurtmachaiga berilishini ta'qilash;
- standartlashtirish va metrologiya talablariga mos kelmagan mahsulotlarni ishlab chiqish, tashish, saqlash va foydalanishini taqilash;
- standartlashtirish me'yor va talablarini buzib ish ko'rib, kelayotgen korxona va tashkilotlarga iqtisodiy sanksiya choralarini qo'llash yo'rinnomasini bitish;

SDN "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlangan yillik rejalar asosida muhim mahsulotlar sifatini oshirish, standartlashtirish ishlarni joriy qilish, ularni buzilishbige yo'l qo'ymaslikka qaratilgan xalq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan tadbirlarini amalga oshirib boradi.

Yillik rejalar nafaqat etakchi korxona va tashkilotlar faoliyati, balki barcha o'zaro munosabatdagi korxona va bo'limlar faoliyatini tekshirish bo'yicha butjam nazorat ke'sinshida tuzilgan va amalga oshirilgan bo'lmog'i lozim.

Nazorat tartibari va tekshiruv mazmuni. Tekshiruv mazmuni, korxona, birlashma va tashkilotlar faoliyatiga bog'liq holda quyidagicha bo'lmog'i darter:

- ilmiy-tadqiqot, loyiha konstruktorlik-texnologik tashkilotlarda korxona, davlat soha standartlari talablariga rivoja qilinishini, chiqailayotgen mahsulot sifati va boshqa ko'rsatmalarini standartlar talablariga to'g'ri kelishini;

- standartlar ishiab chiqiladigan tashkilotlarda, ularni sifati va maqsadli ishlab chiqilishi, joriy etilish holati, sinash va joriy etilish ketma-ketlik bosqichlarining to'g'riligi va shu kabilar;

- transport va xizmat sohalarida ko'rsatilayotgan xizmat yoki transport vositalarining mahsulotga mosligi, qadoqlash, tamirlash, yuklash-tushirish, tashish sharoitlarining talabga javob berishi;

- savdo tashkilotlarda mahsulot sifati, uni saqlash va savdoga chiqarish holatlarining muvofiqligining standart talablariga mos kelishi;

- soydalanadigan va iste'mol qiladigan tashkilotlarda, to'g'ri soydalanish va to'g'ri iste'mol qilish talablariga mos kelishi, saqlash, ishlatish, muddatlarining me'yordan oshib ketmasligi.

Ko'rsatilgan barcha obyektlarda nazoratning metrologik ta'minoti, qoida (qanday o'chab, qanday nazorat qilish), vositalariga alohida e'tibor beriladi.

#### Standartlarga rioya etilganlik nazorati:

Konstrukturlik-teknologik hujjalarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki buyumga mosligi, texnologik jarayonni standart talabida tashkil etilganligi, mahsulot yoki buyumni vaqt-vaqt bilan tekshirib, sinab turish imkonlari mavjudligi kabi ishlarni o'z ichiga olmog'i zarur.

Korxonalarda standartlarni qo'llanilishi va ularga amal qilish tartiblari quyidagicha bosqichma-bosqich kuzatish yo'li bilan nazorat qilinishi mumkin.

#### 1. Tekshiruvdan avvalgi tanishuv bosqichi.

Bu bosqichda korxona va u ishlab chiqarayotgan buyum yoki mahsulot haqida dastlabki ma'lumotlar belgilab olinadi, jumiadan:

- korxonaning asosiy ixtisoslashtirilganligi;
- tekshirilayotgan mahsulotning boshqalarga nisbatan ulushi;
- namunaning mavjudligi;
- bosh tashkilot yoki korxona tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijalarining mavjudligi.

#### 2. Kerxonada tanishuv. Korxonada muayyan tekshiruv yuzasidan barcha ma'lumotlar bilan bevosita tanishib chiqiladi.

Me'yoriy hujjalarni, jumladan, standartlarning qo'llanilishi, ularga rioya qilinishi, ko'rilmagan va ko'rilibayotgan chora tadbirlari. Standartlarni joriy etilishidagi buyruqlarning mavjudligi, ularning bajarilishi. Konstrukturlik-teknologik hujjalarning sifati, mavjudligi, ularga amal qilinish holatlari va h.

Tekshiruv haqidagi buyruq chiqqanidan so'ng zarur namunalar tanlab olinadi va nazorat boshlanadi.

3. Mahsulot yoki buyumni ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan standart, texnik shart va texnologik reglamentlarga rivoj qilinishning to'g'ri kelishligi. Texnologik reglamentlarning buzilmaganligi, texnologik xaritaga mosligi nazorat qilinadi.

4. Mahsulet sifati nazorati bo'yicha barcha omillarni, o'lcnov asboblarining metrologik holati tekshiriladi.

5. Qo'llanilayotgan standart talablarining buzilmaganligi, uni takomillashtirish borasidagi yangi standarlarni qo'llanilish rejalarining mavjudligi nazorat qilinadi.

6. Barcha tekshiriigan jarayonlar ma'lumotlarini umumlashtirilganligi haqida aktlar tuzilib, imzolanadi va ular tegishliy joyga taqdim etiladi.

## 12.9. Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligi

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida standartlashtirishning o'mi va ahamiyati oshganligi munosabati bilan "maqbul darajada tartiblashtirishga qaratilgan faoliyat"ni, etandartlashtirish ta'rifida ko'satilganidek, har tomonlama texnik-iqtisodiy asoslash to'g'risidagi masala dolzarb bo'lmoqda.

Bundan standartlashtirish samaradorligining asosiy yunalishlari kelib chiqadi:

- ilmiy-texnikaviy jarayoni tezlashtirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini, shu jumladan muhandislik va boshqaruv faoliyatini oshirish;
- mahsulotga talablarni mamlakat mudosaasi ehtiyojlari bilan bog'lanishni ta'minlash;
- ekspertni kengaytirish uchun sharoitlarni ta'minlash;
- iqtisodiyot boshqaruvini tashkillashtirishni takomillashtirish;
- mahsulotni loyihalash va ishlab chiqarish doirasida ixtisoslashtirishni rivojlantirish;
- barcha turdag'i boylikiarni tejash;
- aholi sog'ligini saqlash va ishlochilar mehnatining xavfsizligini ta'minlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish,
- xalqaro iqtisodiy, texnik va madaniy xamkorlikni rivojlantirish.

Tejamkorlik manbalari mahsulotning xayetti siklining barcha bosqichlarida aniqlanadi. Asosiy manbalar quyidagilardan iborat:

*Ishlab chigish loyihalash bosqichida:*

– standart texnik hujjalardan ko‘p maria foydalanish, standart shanli grafik tasvirlarni qo‘llanish, standart hisoblash usullaridan foydalanish va h. hisobiga ishlab chiqish loyihalashga mehnat sarfini kamaytirish;

– loyihalar sonini kamaytirish, ishlab chiqiladigan texnik hujjalar birlik sonlarini qisqartirish;

– tajriba nushalarni tayyorlash va sinashga sarflarni kamaytirish.

*Ishlab chiqarish bosqichida:*

– ishlab chiqariladigan buyumlar nomenklaturasini qisqartirish, bit xillashtirish, seriyalikni oshirish;

– materiallarni sarflash me’yorlarini kamaytirish;

– jihozlarni qayta sozlashga mehnat sarfini kamaytirish;

– sotib olinadigan standartlashtirilgan tarkibiy qismlarga va butlovchi buyumlarga xarajatlarni kamaytirish;

– ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat sarfini kamaytirish;

– buyumlarning sinashga ajratib olinadigan sonini kamaytirish va sinovlarni arzonlashtirish;

– brakni kamaytirish;

– buyumni tamg’alash va joylashga xarajatlarni kamaytirish;

– jihozlardan foydalanishni yaxshilash;

– ishlab chiqarish siklining davom etish vaqtini qisqartirish;

– mehnatning xavfsizligini oshirish.

*Foydalanish (iste’mol qilish) bosqichida:*

– ekspluatatsion sarflarni qisqartirish (xomashyo, yoqilg‘i, materiallar va asboblar sarfini kamaytirish va h.);

– ehtiyyot qismlar, asbob va moslamalarni kamaytirish;

– ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishga mehnat sarfini kamaytirish;

– foydalaniladigan jihozlarning ish unumini oshirish;

– mahsulot tafsilotlari (xossalari)ni yaxshilash;

– mahsulotni tashish va saqlashda uning saqlanuvchanligini oshirish;

– transport vositalaridan foydalanishni yaxshilash;

– omborxonalardan foydalanishni yaxshilash;

– foydalanishda mehnat xavfsizligini oshirish.

*Tashqi savdo sohasida:*

– eksportga chiqariladigan mahsulot hajmini oshirish;

– sifati yaxshilangan eksportbop mahsulotga narxni oshirish;

– sotib olinadigan import mahsulot hajmini kamaytirish.

Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

*Moddiy ifodalangan yillik tezari* – mahsulot hayotiy siklining barcha bosqichlarida moddiy va mehnat boyliklarining o‘zgaruvchan

ko'rsatkichlari bo'yicha, standartni joriy qilishgacha va joriy qilingandan keyin bir yilga hisoblab topitadi.

*Narxda ifodalangan yillik tejam* – standartni joriy qilishgacha va joriy qilgandan keyin mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish, muomala va foydalanish luste'mol qilishga xarajatlar o'rtaсидagi bir yilga hisoblangan farq.

*Yillik iqtisodiy samara* – narxda ifodalangan yillik tejam va standartni ishlab chiqishga va joriy etishga yillik xarajatlar o'rtaсидagi farq.

*Ishlab chiqarish xarajatlari* – mahsulotning ma'lum turini ishlab chiqarishga jonli va ilgarigi mehnat sarflari.

*Asosiy kapital xarajatlari* – ishlab chiqarish fondlarining yangisini yaratish, qayta tuzish va amaldagi ishiab chiqarish fondlarini kengaytirishga sarflangan xarajatlar.

*Keltirish koeffitsiyenti* – turli vaqtlardagi sarflar keltirish koeffitsiyenti yordamida bir hisobiy yilga keltiriladi.

*Keltirish me'yori* – keltirish koeffitsientini aniqlash uchun qo'ilaniladi, 0,1ga teng o'zarmas kattalikdan iborat.

*Me'yoriy foyda* – kapital mablag'lar iqtisodiy samaradorligi me'yoriy koeffitsiyentining kapital mablag'lar hajmi ko'rsatkichiga ko'paytmasiga teng bo'lgan keltirilgan xarajatlarning tashkil etuvchisi. Me'yoriy foyda kapital mablag'lar summasidan foiz hisobidagi chegirina kabi aniqlanadi.

*Kapital mablag'larning iqtisodiy samaradorligi me'yoriy koeffitsiyenti* – 0,15ga teng o'zarmas kattalik bo'lib, kapital mablag'larning har bir so'mi kamida me'yorti, ya'ni kamida 15 tiyin foyda keltirishi lozimligini ifodalaydi.

*Aylanma fondlar* – ishlab chiqarishda foydalaniладigan mehnat predmetlari (xomashyo, materiallar, yoqilg'i, yonilg'i va b.). Aylanma fondlar har bir ishlab chiqarish siklida ishlataladi va o'zlarining tabiiy shakllarini yo'qotadi. Ularning narxi darhol tayyorlanadigan mahsulotga ko'chadi.

*Aylanma mablag'lar* – korxonaning hali sotilmagan tayyor mahsulotda, bankdag'i hisobida, g'aznasida, hisoblarida turgan mablag'lari. Aylanma mablag'larga aylanma fondlar va muomala fondlari kiradi.

*Asosiy fondlar* – ko'p ishlab chiqarish sikllarida ko'p marta qatnashuvchi, bunda o'zining tabiiy shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalari (binolar, insheetolar, uzatish qurilmalari, mashina va jihozlar, transport, asbob, ishlab chiqarish asbob-uskunalar, ishchi va mahsuldar hayvon, ko'p yillik ekinlar, o'rmonzorlar va suvli yerlar).

*Keltirilgan xarajatlar* – tannark va me'yoriy foyda yig'indisi.

*Ishlab chiqarish fondlari* – ishlab chiqarish vositalari, asosiy fondlar va aylanma fondlarni o'z ichiga oladi.

Kapital mablag'arning iqtisodiy samaradorlik hisobiy koefitsiyenti – yillik tejamning standartni ishlab chiqish va joriy etishga bir yilga keltirilgan xarajatlari nisbati.

*Mahsulotning tannarxi* – mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari.

*Kapital mablag'arning qoplanish muddati* – qoshimcha kapital mablag'-xarajatlarning yillik tejamga nisbati.

*Vaqt omili* – turli vaqtlardagi xarajatlarni keltirish koefitsiyenti yordamida bir, hisobiy yilga keltirish.

*Iqtisodiy samaradorlik* – iqtisodiy natijalarga erishish maqsadlari va vositalarini bir butun qilib birlashtiruvchi, maqsadga yo'naltirilgan tizimlarning mukammal ishlashini ifodalovchi tushuncha.

*Tejam* – boyliklarni tejab-avaylab sarflaganda olinadigan foyda.

*Iqtisodiy samara* – topshiriqdagi maqsadga erishishga ketgan xarajatlarni chiqargandan keyin qolgan tejam.

Standartlaltirishning samaradorligini aniqlash yangi texnikani joriy etishdan ko'rildigan iqtisodiy samarani aniqlash umumiyligiga fomulalariga asoslangan. Umumiy holda hisoblarda to'rtta asosiy ko'rsatkich qo'llaniladi:

1. *Kapital mablag'lar*. Kapital mablag'arning yillik hajmining o'zgarishi  $\Delta K$  quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta K = K_2 - K_1, \quad (12.1)$$

bunda  $K_2$  – tadbirlar bajarilgandan keyin kapital mablag'arning yillik hajmi, so'm;  $K_1$  – tadbirlar bajarilmasidan oldin kapital mablag'arning yillik hajmi, so'm.

2. *Tannarx* – Tannarx yillik hajmining o'zgarishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta C = C_1 - C_2, \quad (12.2)$$

bunda  $C_1$  – tadbirlar bajarilmasidan oldingi tannarxning yillik hajmi, so'm;

$C_2$  – tadbirlar bajarilgandan keyingi tannarx yillik hajmi, so'm.

3. *Kapital mablag'arning qoplanish muddati*. Kapital xarajatlarning qoplanish muddati  $T_a$  (yil) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$T_a = \frac{\Delta K}{\Delta C} = \frac{K_2 - K_1}{C_1 - C_2}, \quad (12.3)$$

4. *Kapital mablag'arning iqtisodiy samaradorlik koefitsiyenti* quyidagicha farqlanadi:

–  $E_h$  – hisobiy koefitsiyent quyidagicha aniqlanadi:

$$E_h = \frac{\Delta C}{\Delta K} = \frac{1}{T_a}, \quad (12.4)$$

-  $c_n$  normativ koefitsiyent  $c_n = 0,15$  – o'zgarmas kattalik.

$c_1 \geq c_n$  bo'lganda tadbirlar iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning asosiy tamoyili tadbirlar bajarilmasidan oldingi keltirilgan xarajatlarni tadbirlar bajarilganidan keyingi harajatlarga taqqoslashdan iborat:

$$\mathcal{Z}_2 = Z_1 - \mathcal{Z}_1, \quad (12.5)$$

bunda  $\mathcal{Z}_1$  – yillik iqqisodiy samara, so'm;  $Z_1$  – tadbirlar bajarilmasidan oldingi keltirilgan yillik xarajatlar, so'm;  $\mathcal{Z}_2$  – tadbirlar bajarilganidan keyingi keltirilgan yillik xarajatlar, so'm.

Keltirilgan xarajatlarning yillik hajmi  $Z$  so'mlarda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi;

$$Z = C + \mathcal{E}_n K, \quad (12.6)$$

bunda  $\mathcal{E}_n K$  – me'yoriy normativ foyda, ya'ni kapital mablag'larning har bir so'mi har yili 15 tiyin foyda keltirishi lozim.

Keltirilgan xarajatlar qiymatini (4.6) formulaga qo'yib, yillik iqtisodiy samaradorlikni olamiz:

$$\mathcal{Z}_2 = (C_1 + \mathcal{E}_n K_1) - (C_2 + \mathcal{E}_n K_2). \quad (12.7)$$

Amalda solishtirma ko'satskichlar orqali ifodalangan, boshqacha ko'rinishdagi formuladan foydalaniadi:

$$\mathcal{Z}_2 = [(c_1 + \mathcal{E}_n K_1) - (c_2 + \mathcal{E}_n K_2)] \cdot A_2, \quad (12.8)$$

bunda  $A_2$  – ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik hajmi, ushbu turdag'i mahsulot (xizmatlar) uchun qo'llanilgan o'lkoch birliklarida.

Izoh. Iqtisodiyot formulalarida harfi belgilarning indekslaridagi raqamlar, odatda, quyidagilarni ifodalaydi: "1" – tadbirlar bajarilmasidan oldingi kattaliklar, "2" – tadbirlar bajarilganidan keyingi kattaliklar.

Solishtirma kapital mablag'lar quyidagicha hisoblanadi:

$$\kappa = \frac{K_{op}}{A}, \quad (12.9)$$

bunda  $K_{op}$  – asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik narxi, so'm  $K_{op}$  nomli mahsulot ishlab chiqarishda solishtirma kapital mablag'lar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\kappa = \frac{K_{op}}{C} \cdot c, \quad (12.10)$$

bunda  $s$  – har bir qisindagi mahsulot birligining tamarxi, so'm.

Yangi texnika bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish so'ngra me'yoriy hujjatni ishlab chiqish bir necha yilga cho'zilishi mumkin:

ITI so'ngra tajriba-konstrukturlik ishlari 1-2 yil, ishlarning natijalarini joriy etish ham 1-2 yil davom etadi. Demak, xarajatlar ishlab chiqish va o'zlashtirmalarniig butun davrida davom etadi. Bunda kapital mablag'lar hajmi yillar bo'yicha jiddiy farqlanadi. Yillik iqtisodiy samaradorlik, odatda, ma'lum bir yilga hisoblanadi. Tadbirlarni bajarishga turli vaqtarda sarflangan xarajatlarni aynan ana shu hisobiy yilga keltirish kerak. Buning uchun turli vaqtarda sarflangan xarajatlarni hisobiy yilga keltirish koeffitsiyenti yordamida *vaqt omili* hisobga olinadi:

$$\alpha_i = (1 + \varepsilon)^t, \quad (12.11)$$

bunda  $\varepsilon$  – keltirish normativi, 0,1ga teng o'zgarmas kattalikdir;  $t$  – xarajatlarni va ushbu yil natijalarini hisobiy yil boshidan yillar sonini ifodalovchi yillar soni:

$$t = T_{NT} - n, \quad (12.12)$$

bunda  $T_{NT}$  – yangi texnikani yaratish va o'zlashtirishning umumiyl davom etish yillari;  $n$  – yaratish va o'zlashtirish tartib yillari.

Hisob yili boshlanishigacha sarflangan xarajatlar va olingan natijalar  $\alpha_i$  ga ko'paytiriladi, hisobiy yil boshlangandan keyin esa, ushbu koeffitsiyentga bo'linadi. Bular quyidagicha ifodalanadi:

$$K_{\Sigma} = \sum_{n=1}^{T_{NT}} K_n \alpha_i, \quad (12.13)$$

yoki

$$K_{\Sigma} = \sum_{n=1}^{T_{NT}} K_n \frac{1}{\alpha_i}, \quad (12.14)$$

bunda  $K_{\Sigma}$  – yangi texnikani yaratish va o'zlashtirish davrida vaqt omilini hisobga olgan holda sarflangan jami kapital mablag'lar, so'm;  $K_n$  –  $n$  yildagi kapital mablag'lar hajmi, so'm.

$\alpha_i = (1 + \varepsilon)^t$  formula bo'yicha hisoblangan vaqt omili bo'yicha keltirish koeffitsiyentlari maxsus jadvalda keltiriladi. Jadvalda  $T_{NT} = 1-10$  yil uchun  $\alpha_i$  ning qisman qiymatlari keltiriladi.

### 12.5-jadval

#### Keltirish koeffitsiyentlari

$\dot{\alpha}_{i0}$	$\alpha_i$	$\frac{1}{\alpha_i}$	$\dot{\alpha}_{i0}$	$\alpha_i$	$\frac{1}{\alpha_i}$
1	1,1000	0,9091	6	1,7716	0,5645
2	1,2100	0,8264	7	1,9487	0,5132
3	1,3310	0,7513	8	2,1436	0,4665
4	1,4641	0,6830	9	2,3579	0,4241

5	1,6105	0,6209	10	2,5937	0,3855
---	--------	--------	----	--------	--------

Shuni hisobga olish kerakki, standartlashtirish yangi texnika bo'yicha ishlarning bir qismi bo'ladi. Shuning uchun standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligi umumiy iqtisodiy samaradorlikning bir ulushi kabi aniqlanadi.

Tashkilotnint yoki bosqichning umumiy iqtisodiy samaradorlikda qatnashish ulushi koeffitsiyenti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$D_i = \frac{\sum_{i=1}^n R_i}{\sum_{i=1}^n R_i}. \quad (12.15)$$

Bunda:  $R_i$  –  $i$ -tashkilot yoki bosqichning harajatlari;  $n$  –  $i$ -tashkilot yoki bosqich ishlarning qiymatdorlik koeffitsiyenti;  $n$  – tashkilotlar yoki bosqichlar soni.

Izoh – umumiy harajatlар to'g'risida ma'lumotlar yo'q bo'lsa, maosh fondidan soydalinish ruxsat etiladi.

Standartlashtirishga (yoki muayyan tashkilotga) to'g'ri keladigan iqtisodiy samaradorlik  $E_{st}$  quyidagicha hisoblanadi:

$$\mathfrak{E}_{CT} = D_i \mathfrak{E}_{\Sigma}. \quad (12.16)$$

Bunda:  $\mathfrak{E}_{\Sigma}$  – yangi texnik bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishdan olingan umumiy iqtisodiy samaradorlik.

Ishlarning qiymatdorlik koeffitsiyentlari 12.6-jadvalda keltirilgan.

Yangi texnika bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishdan umuman ko'tilgan iqtisodiy samaradorlikni va, jumladan, standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda hisoblarning ma'lum tartibiga riyoq qilish kerak.

12.6-jadval

### Ishlarning qiymatdorlik koeffitsiyentlari

Ishlarning nomi	$R_i$
Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari	5
Me'yoriy hujjatlarni ishiab chiqish	4
Me'yoriy hujjatlarni joriy qilish bo'yicha tadbitlar	1

Quyida hisoblarni bajarish tartibi keltirilgan:

1. Kirish qismi;

– standartlashtirish bo'yicha tadbirlarning mohiyati (mahsulotga me'yoriy hujjat, kompleks standartlashtirish dasturi, atrof-muhitni muhofazalashga standart, bir xillashtirish bo'yicha tadbirlar va h.k.);

– ko'rsatkichlarni qiyoslash uchun asos (ilgari amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlar, chiqariladigan mahsulot, ko'rsatiladigan xizmatlar)ning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari;

– Iqtisodiy samaradorlikning namoyon bo'lish sohalari (ishlab chiqish, loyihalash, tayyorlash, foydalanish, iste'mol qilish, tashish, saqlash, ta'mirlash va b.);

– iqtisodiy samaradorlikni olish manbalari;

– foydalanilgan me'yoriy va boshqa hujjatlar (davlatlararo, davlatlar, tarmoq va boshqa me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar, usullar).

2. Hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar.

Boshlang'ich ma'lumotlar qulaylik va yaqqol ko'rinishi uchun 12.7-jadvalda keltiriladi.

12.7-jadval

**Boshlang'ich ma'lumotlar**

Ko'rsatkich ning nomi, o'lechov birligi	Ko'rsat- kichning harfli belgisi	Ko'rsatkichning qiymati		Ko'rsatkichni olish manbalari	
		Asos ko'rsatki chning	Standart lashtirila digan	Asos ko'rsat kichi	Standartlashti riladigan ko'rsatkichni
1	2	3	4	5	6

Jadvalning 1-grafasida tannarx, qo'shimcha kapital mablag'lar, mahsulot ishlab chiqarish (ishlar) yillik dasturi (yoki kutilayotgan hajmi); xizmat muddati, sarflar me'yoriy ko'rsatkichlari, tayyorlash, ta'mirlar, xizmat ko'rsatishda mehuat sart'i va b. keltiriladi.

2-grafadagi harfli belgilarning umumiqabul qilinganlari qo'llaniladi.

3- va 4-grafalarda asosiy va standartlashtiriladigan ko'rsatkichlarning qiymatlari ko'rsatiladi. 5- va 6- grafalarda tayyorlovchilar yoki iste'molchilarning ma'lumotlari, hisobi yoki iste'mol bilan olingan ko'rsatkichlar, smeta narxi, me'yoriy ma'lumotlar va boshqa manbalar ko'rsatiladi.

Bu bo'limning o'zida ITI, TKI, me'yoriy hujjatni ishlab chiqish va joriy qilishga ketgan harajatlar aniqlanadi.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari 12.8-jadvalda keltiriladi.

12.8-jadval

### Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkich qiymati
Yillik tejam, natural birliliklarda	
Yillik tejam, ming so'm	
Yillik iqtisodiy samaradorlik, ming so'm	
Iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti	

**Standartlashtirish bo'yicha ishlarga mehnat sarfi va ishlar narxi normativlari** buyurtmachi bilan asosiy bajaruvchi o'rtaida shartnoma tuzishda, shuningdek, ishlarni bajarish rejalarini ishlab chiqishda va standartlashtirish doirasida ilmiy-texnikaviy mahsulotga baholarni o'rnatishda ularning narxini baholashda asosli yondashishga imkon beradi.

Mehnat sarfi va narx normativlari quyidagilarni aniqlash uchun zarur bo'ladi:

- standartlashtirishni rejalashtirishda me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, ularga o'zgartirishlar kiritish yoki qayta ko'rib chiqish smeta narxi;
- me'yoriy hujjatlarni bajaruvchilar va hamkor bajaruvchilar tomonidan ishlab chiqishga mehnat sarfi va smeta narxi;
- ilmiy-texnikaviy mahsulot narxi;
- me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy qilish iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Bunda quyidagi asosiy atamalar va ta'riflar qo'llaniladi:

**Normativ mehnat sarfi** – muayyan ishni bajarish uchun zarur bo'lgan, kishi-soat yoki kishi-kunlarda o'lchanadigan, ish vaqt sarfining hisoblangan qiymati;

**Vaqt normasi** – mos operasion-texnikaviy sharoitlarda mos malakali bir ishchi yoki ishchilar guruhi tomonidan ishlarning ma'lum hajmini bajarishga zarur vaqt sarfi.

Standartlashtirish bo'yicha ish deganda, standartlashtirish bo'yicha mu'lum tashkiliy, uslubiy yoki texnik masalani yechishga qaratilgan, ilmiy xodimlar, mutaxassislar yoki texnik bajaruvchilar tomonidan bajariladigan ishlarni majmui (ilmiy-tadqiqot ishlari, asos bo'lувчи yoki bir turli mahsulotning muayyan turiga yoki guruhiga me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, bularga o'zgartirishlar kiritish, ekspertiza o'tkazish) tushuniladi.

Mehnat sarfini aniqlashga quyidagi bosqichlar kiradi:

- ishlab chiquvchi-tashkilot uchun mehnat sarfi normativlari asosida mehnat sarfini hisoblash;
- hamkor bajaruvchining qatnashish ulushini hisobga oлган holda ishlarga mehnat sarfini hisoblash;
- ishlarga ta'sir etuvchi omillarni hisobga oлган holda ishlarga umumiy mehnat sarfini hisoblash.

Mehnat sarfi normativlari me'yoriy hujjatni ishlab chiqishning barcha bosqichlarida ishlarga sarflanadigan ish vaqtini miqdori bilan aniqlanadi. Ishlab chiqish bosqichlari: loyihalarni ko'rib chiqish va kelishish; ilmiy-texnikaviy va kelishuv kengashini o'tkazish; ilmiy-texnikaviy ekspertiza va b. dan iborat. Agar me'yoriy hujjatni ishlab chiqishdan oldin ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari o'tkaziladigan bolsa, bu ishlarga sarflangan harajatlar ham hisobga olinishi lozim.

Mehnat sarfi normativlari ishlab chiqitadigan me'yoriy hujjat turiga va standartlashtirish darajasiga bog'liq.

Umumiy mehnat sarfi asosida ishlar narxi aniqlanadi.

Me'yoriy hujjatning turiga qarab uni ishlab chiqishga mehnat sarfi kishi-soatlarda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$T_r = T_{b1} + T_{b2}(I + K_n + K_a + K_m + K_k + K_t), \quad (12.17)$$

bunda  $T_{b1}$  – me'yoriy hujjatni ishlab chiqishdan oldin o'tkaziladigan ilmiy-texnik va tajriba-konstrukturlik ishlariga mehnat sarfining bazaviy (asos ) normativi, kishi-soat;

$T_{b2}$  – me'yoriy hujjatni ishlab chiqish bazaviy normativi, kishi-soat;

$K_n$ ,  $K_a$ ,  $K_m$ ,  $K_k$ ,  $K_t$  – yangilik darajasini, axborot hajmini, kelishishning murakkabligini, obyektning konstruktiv murakkabligini, tasdiqlovchi tashkilotlar sonini hisobga oluvchi mos koeffitsiyentlar.

$T_{b1}$ ning qiymati 173 dan 469 kishi-kun,  $T_{b2}$  160dan 430 kishi-kungacha boradi;  $T_b$  qiymati standartlashtirish bo'yicha ishlarning turiga qarab, 5dan 225 kishi-kungacha bo'ladi.

Me'yoriy hujjatni ishlab chiqishda hamkor tashkilotlar qatnashganda  $T_{mh}$  umumiy mehnat sarfi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T_{mh} = T_p(1 + 0,2n), \quad (12.18)$$

bunda  $n$  – hamkor bajaruvchilar-tashkilotlar soni.

Standartlashtirish bo'yicha ishlar narxi (S) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$C = 3_{\text{sa}} \times \frac{T_{\text{sa}}}{21,2} (1 + K_g)(1 + K_{\text{is}}) + K_{\text{ax}}, \quad (12.19)$$

bunda  $Z_{\text{sa}}$  – o'rtacha oylik maosh, so'm;

$K_g$  – qo'shimcha to'lanadigan haqqa chegirma koefitsiyenti;

$K_{\text{is}}$  – ijtimoiy sugurtaga chegiria koefitsiyenti;

$K_{\text{ax}}$  – qo'shimcha xarajatlar koefitsiyenti.

Qo'shimcha to'lanadigan ish haqiga chegirma, ijtimoiy sug'urtaga chegirma xarajatlar koefitsiyentlari reja bo'limidan olinadi.

Hisoblashda quyidagi mumkin bo'ladigan variantlarni ham hisobga olish lozim:

a) o'z tarkibiga ikki va bundan ortiq me'yoriy hujjatni kiritgan bir me'yoriy hujjatni ishlab chiqishda umumiy mehnat sarfi  $K_1=0,66$  koefitsiyent yordamida to'g'rilangan jarni sarf kabi aniqlanadi.

b) me'yoriy hujjat varaqlarining soniga bog'liq bo'lgan ishlab chiqishga umumiy mehnat sarfi  $K_2$  koefitsiyenti yordamida ko'paytirilishi mumkin:

– hujjat hajmi 10dan 60 varaqgacha bo'lganda  $K_2=1,05$ ;

– hujjat hajmi 60 varaqdan ortiq bo'lganda  $K_2=1,10$  olinadi;

v) me'yoriy hujjatni maxsus mavzu bo'yicha ishlab chiqishda asosiy mehnat sarfi  $K_3=1,20$  koefitsiyent yordamida oshiriladi.

### Nazorat savollari

1. Tarmoqararo standartlashtirishning umumiy tavsiflarini tushuntiring.
2. KHYaTning mohiyati nimada?
3. THYaTning mohiyati nimada?
4. KHYaT va THYaT nimalari bilan farqlanadi?
5. KHYaTda bir xillashtirish (unifikatsiyalash) nima uchun zarur?
6. THYaTning qisqa ta'rifini ayting va uni qo'llashda qanday maqsadni amalga oshirish nazarda tutilgan?
7. Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha kompleks tandartlashtirish tizimini tushuntiring.
8. Mahsulot yaratish va ishlab chiqarishni tashkillashtirish tizimini tushuntiring.
9. Texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axbortlarni tasniflash va kodlashtirish yagona tizimining mohiyatini tushuntiring.

10. Standartlashtirishning Davlat nazoratining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
11. Standartlashtirishning Davlat nazorati ma'sul xodimining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
12. Davlat nazorat idorasining asosiy faoliyati nimalardan iborat?
13. Tekshiruvning mazmunini nima tashkil etadi?
14. Qanday tashkilot va kimlar Davlat nazoratiga jalb etiladi?
15. Tanishuv qanday amalga oshiriladi?
16. Tekshiruv qanday amalga oshiriladi.
17. Shtrix kod atamasiga ta'rif bering.
18. Shtrix kodlashning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi hukumatining qanday hujjati tashkil etadi?
19. O'zbekistonda shtrix kodlashning joriy etilishi munosabati bilan "O'zstandart" agentligiga qanday vakolat yuklangan?
20. O'zbekistonda qanday tasniflagichlar joriy etildi?
21. EAN – 13ni izzohlang va shtrix kodlashning qanday ahamiyati bor?
22. Shtrix kod va shtrix kodlash atamasini asoslab bering?
23. O'zbekiston Respublikasida shtrix kodlash bo'yicha "O'zstandart" agentligi zimmasiga qanday vazifalar yukiangan?
24. EAN-13 va EAN-8 shtrix kodlarining strukturasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
25. Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?

## XIII BOB. XALQARO VA HUDUDIY STANDARTLASHTIRISH FAOLIYATI

### 13.1. Xalqaro va hududiy standartlashtirishning maqsad va vazifalari

Global bazorni yaratish, mamlakatning yaratgan alohida o'ziga xos rivojlanishi, teng huquqli hamkorlik sharoitlarida mahsulot va xizmatlarni barcha joylarda erkin ayriboshlash bilan amalga oshirilib faqat ma'muriy va texnik to'siqlar bartaraf etish yo'lli bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu maqsadlarga erishish uchun mahsulot va xizmatlarni o'zaro tan olinishi va texnikaviy uyg'unlashgan, savdodagi to'siqlarni bartaraf etishini ta'minlovchi mexanizmlardan foydalaniлади. Yetakchi mamlakatlarning iqlisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosi xalqaro hamkorlikda o'zaro kelishuv asosida mahsulot, jarayon va xizmatlarga ishlab chiqilgan standartlar bo'lib hisoblanadi.

Bu masalalarni hal etishda xalqaro standartlashtirish tashkiloti xalqaro standartlarni ishlab chiqish, nashr etish va xalqaro miqyosda ularni qo'llash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish ishlarni amalga oshirish bilan katta hissa qo'shamdi. Asosiy e'tibor a'zo qo'mitalar, standartlarni ishlab chiqish jarayonini uslubiy ta'minlash bo'yicha texnikaviy qo'mitalar ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni almashtirish ishlariغا qaratilgan.

Xalqaro standartlashtirishga qiziquvchi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik standartlashtiriga taalluqli masalalarni o'rganish, yagona bozorni yaratish sifatida rivojlantiriladi.

2002-yilda global bozorni shakllantirish g'oyasiga muvofiq yangi birlashmalarni yaratish bo'yicha haqiqatda ishlarni olib borish tadbirlari qabul qilindi.

Uchta yirik xalqaro tashkilotlar – Xalqaro elektrotexnik komissiyasi (inglizcha International Electrotechnical Commission – IEC), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (inglizcha, International Organization for Standardization – ISO) va Xalqaro elektroaloqa ittifoqi (inglizcha, International Telecommunication Union, ITU) bu tashkilotlarning prezidentlar huzuridagi hamkorlik masalahat guruhlari 1992-yilda yaratilgan qarorni almashtirishga qaror qabul qilishdi.

Standartlashtirish bo'yicha Butunjahon kengashi uning tarkibi, fuoliyati sohasi, maqsadlari aniqlanib, xususan quyidagi vazifalar qo'yildi:

- to'plangan tajribalar to'g'risidagi ma'lumotlarni almashtish va hamkorlik hamda muvofiq siyosat usularidan foydalinish bilan IEC, ISO va ITU ixtiyoriy kelishilgan xalqaro standartlashtirish taraqqiyoti ta'minlash va mustahkamlash;

- dunyo miqyosida samarali va iqtisodiy maqsadlarga muvofiq kelishilgan xalqaro standartlashtirishga amal qilinishini targ'ibot qilish;
- muvofiqlashtirishning past daraja olishi kerak bo'lgan qarorlari olinmagan holatlarda uchta tashkilot hamkorlikda muaimmoni tezkorlik bilan hal etadi.

Bundan tashqari Standartlashtirish bo'yicha butunjahon Kengashi quyidagilarni bajarishi lozim:

- Butunjahon tashkiloti, iste'molchilar assotsiatsiyasi va boshqa xalqaro tashkilotlar, hukumat muassalalari, iqtisodiy jamiyatlar, ishlab chiqarish doirasida uyg'unlashgan xalqaro standartlar taraqqiy etish siyosati va strategiyasini ishlab chiqadi;

- muhandis-boshqaruvi kadrlarni tayyorlash, shuningdek, ta'lim muassalari va u bilan shug'ullanish uchun yo'naliishlarga muvofiq standartlashtirish targ'iboti dasturlarini ishlab chiqish va joriy jish;

- zarurat bo'lganda, texnikaviy masalalarni hal etishda prezidentlar huzuridagi hamkorlik masalahat guruhlari faoliyati jo'natish va ish sohalarni bo'lish. ITU bu bilan bog'liq prezidentlar huzuridagi hamkorlik masalahat guruhlari yig'ilishlarida qatnashishga taklif etiladi;

- o'zaro qiziqishlarni o'yg'otuvchi masalalarni hamda bu tashkilotlarning javobgarligi sohasida turuvchi muammolarni ko'rib chiqish;

- zarurat bo'lganda, qo'shilgan sohalarda turuvchi muammolarni hal etilishini ta'minlovchi maxsus texnik gurug'larni tuzish.

Shunday qilib, bozorni umumiyligi rivojlantirish munosabatlarda ISO, IEC va ITU tashkilotlari Butunjahon savdo tashkiloti bilan hamkorlikda strategiyalarni amalga oshirib, umumiyligi maqsadda erkin va odilona global savdo tizimini shakllantirishga yordam beradi.

BMT EIK (Birlashgan millatlar tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi) bilan aloqa va axborot texnik vositalari foydalanish sohasida elektron axborot almashinuvning standart usullarini qo'llash bilan sanoat ehtiyoji va provayder xizimatlari qanoatlantirish maqsadidagi ar'anaviy hamkorlik, jumladan, elektron biznes bo'yicha qabul qilinavotgan shartlarni qaytarilishini kamaytirish maqsadida va standartlashtirish masalalariga raqabatchilik va turli xil ta'sirlar xatarini kamaytirish maqsadida izolangan ISO, IEC, BMT EIK va ITU tashkilotlari o'rtasida elektron biznes masalalari bo'yicha o'zaro tushunish to'g'risidagi Memorandum hisobiga mustahkamlandi.

Barcha aytib o'tilgan tashkilotlar Butunjahon savdo tashkiloti (BST) qo'mitasi bilan Savdoda texnik to'siqlar (STT) bo'yicha (BST/STT) STT/BST Kelishuvni bajarish yuzasidan chambarchas hamkorlik qilishadi.

Umumyevropa bezorini yaratish maqsadi quyidagi bir-biriga o'xshash yo'llar biian amalga oshiriladi:

Yevropa Ittifoqi (EI) majburiy texnik reglamentlar bo'lib hisoblangan Direktiv asesida Yevropa (fransuzcha, Comite' European de Normalisation – CEN, Comite' European de Normalisation ELECtrotechnique – CENELEC va ruschada Европейский комитет по стандартизации – SEN, Европейский комитет по стандартизации и электронике – SENELEK) va milliy standartlar ishlab chiqilmoqda shuningdek, EI a'zo mamlakatlari bir vaqtida CEN, CENELEC, IEC va ISO a'zolari bo'lib hisoblanib, xalqaro standartlar, hududiy va milliy standartlarni uyg'unlashtirish jarayoni parallel amaliyotga qo'llanilmoqda.

Vaholanki, bu tashkilotlarning maqsad va vazifalari bir-biriga mos tushadi, ammo Yevropa darajasida bezorni nazorat qilish va tartiblashtirish masalalariga sezilarli katta e'tibor qaratiladi. CEN va CENELEC ishlab chiqayotgan Yevropa standartlari (EN) va uyg'unlashgan standartlar (HB)ning xalqaro standartlardan farqlanishi o'xshash obyektga qo'llaniladigan milliy standartlarni almashtirish va milliy standartlar fondaiga majburiy qo'shish va aynan shu sohaga qo'llashni mavjudligidir.

EN va HBlarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi bir qator ketma-ketliklardan iborat.

Yangi standartlarni ishlab chiqish tashabbusi Yevropa hamjamiyati Komissiyasi (YHK), Yevropa professional tashkilotlari yoki standartlashtirish bo'yicha Milliy idoralariga tegishli.

### 13.2. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti

Birinci standartlashtirish milliy tashkiloti – Britaniya Assotsiatsiyasi /British Engineezing Standards Accociation/ 1901-yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918-y.), Amerika qo'mitasi (1918-y.) va b.lar tashkil topdi.

Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqazo qildi. Shu maqsadda 1926-yili standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlarning Xalqaro Assotsiatsiyasi (ISA) paydo bo'ldi. ISAning tarkibiga 20 mamlakat vakillari kirdi.

1938-yili Berlin shahrida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro syezd ochildi. Uning tarkibi turli texnika sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalardan tashkil topdi. 1939-yili boshlangan ikkinchi jahon urushi ISAning faoliyatini to'xtatib qo'ydi.

Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946–1947-yillari tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuriti-

ladi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda.

ISOning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni yengillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir.

Bu maqsadlarni amalgalashish uchun:

– dunyo ko'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni yengillashtirish uchun choralar ko'rish;

– xalqaro standartlarni ishlab chiqish va chop etish (agar har bir standart uchun uning faol tashkili va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab ovoz bersa va umumiylashtirishga qo'mitalarining beruvchilarining to'rtadan uch qismi yoqlab chiqsa, standart ma'qullanishi mumkin);

– o'z qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarning ishlari haqida axborotlar almashinuvini tashkil qilish;

– sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutiladi.

ISO rahbar va ishchi qo'mita idoralaridan tashkil topgan. Rahbar idoralar tarkibiga Kengashning yuqori idorasi – Bosh Assambleya, Kengash, ijroiya byurosi, texnikaviy byuro, kengashning texnikaviy qo'mitalari va markaziy kotibi yaratildi.

ISOda prezident, vise-prezident, g'aznachi va bosh kotib lavozimlari mavjud. Bosh Assambleya ISOning Oliy Rahbari bo'lib, ISOning yig'ilishi uch yilda bir marta bo'ladi. Uning sessiyasida prezident uch yil muddatga saylanadi.

Bosh Assambleya o'tkazish vaqtida sanoat sohasida etakchi mutaxassislar ishtirokida xalqaro standartlashtirishning muhim muammolari va yo'nalishlari muhokama qilinadi.

ISO kengashi yiliga bir marta o'tkazilib, unda tashkilotning faoliyati, xususan, texnikaviy idoralarning tuzilishi xalqaro standartlarning chop etilishi, kengash idoralarining a'zolarini hamda texnikaviy qo'mitalarning raislarini tayinlaydi va boshqa masalalar ko'rildi.

ISO tarkibini ikkita tashkilot tashkil etadi, ya'ni ISA va 1944-yilda asos solingan, BMT qoshidagi standartlarni muvofiqlashtirish qo'mitasi – UNSCC, uning qarorgohi Londonda joylashgan. ISOning yaratishdan maqsad – "... xalqaro miqyosda sanoat standartlarini unifikasiyalashdirish va muvofiqlashtirishni yengillashtirish...". Hozirgi kunda 150 ta mamlakat ISO tashkilotining a'zosi hisoblanadi.

ISO xalqaro nohukumat tashkilotidir. ISOning rasmiy tili rus, ingliz va fransuz tillari deb tan olingen. Tashkilotning byudjeti yillik a'zolik to'lov-lidan va ISO nashrlaridan olingen foydaardan iarkib topgan. ISOning qonunchilik idorasi Bosh assamleyasi bo'shib, har uch yilda bir marotaba yig'iladi. Bosh assambleyaning sessiyalari orasida ISO rahbariyati prezident boschchiligidagi Kengash o'tkazadi. ISO Kengashining faoliyatini ISOning bosh direktori ijro qo'mitasi va Markaziy kotibiyat orqali amalga oshiradi.

ISOning asosiy qo'mitalari bo'shib, standartlashtirish bo'yicha ilmiy-teknik axborotlar tamoyilini o'rganish bo'yicha doimiy qo'mita -- INFCO, Mahsulotlarni attestatsiyalash bo'yicha qo'mita -- SERTICO, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish qo'mitasi -- DEVCO sanaladi.

ISOning eng muhim idorasi bo'shib Standartlashtirish tamoyillarini ilmiy o'rganish bo'yicha doimiy qo'mita (The Standing Committee for Study of Scientific Principles of Standardization) hisoblanadi. Uni qisqartirgan holda ISO/STAKO yoki oddiyigina STACO deb nomlanadi.

ISOning asosiy vazifasi maxsus tashkil etilgan texnik qo'mitalari (ISO/TK) va qo'mita osti qo'mitalari (ISO/TK/PK) xalqaro standartlarni ishlab chiqishni bajaradi. 1994-yilga kelib, ISO tarkibiga 100 ta milliy tashkilotlar, jumladan, ular qatoriga MDH mamlakatlari ham a'zo bo'ldi. ISOning eng muhim yo'nalishlari bo'shib sifat, axborot texnologiyalari, xalqaro standartlar bilan ishlovchi boshqa kooperatsiyalar, atrof-muhit, ta'lif yo'nalishi hisoblanadi.

ISO quyidagi hujjalarni nashr etadi:

- harfli indeksi va sonli raqami mavjud bo'lgan xalqaro standartlarni (masalan, ISO 1000);


- guruhli mavzulari va qo'llianish sohasi bo'yicha joylashtirilgan xalqaro standartlarning yillik katologini (ISO Catalogue);

- ISO tuzilmasi va uning har bir texnikaviy qo'mitasining faoliyat sohasi haqidagi axborotlardan tarkib topgan yillik ma'lumotlarni (ISO Memento).

ISO a'zolari yoki muxbir-a'zolari mamlakatda standartlashtirishning rivojlantirish darajasiga aloqadorligidan kelib chiqib, standartlashtirish bo'yicha milliy standartlashtirish tashkiloti bo'lishi mumkin ISO tarkibiga kirish to'g'risidagi takliflar ISO markaziy kotibiyatiga jo'natiladi (Shveysariya, Jeneva shahri).

1972-yilgacha standartlashtirish bo'yicha ISO hujjalariiga tavsiya sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtida bunday hujjalar ISOga a'zo mamlakatning barchasi uchun xalqaro standartlar mavqiega ega. Hozirgi paytda ISO turistik, mehmonxona, moliyaviy, sug'urtalash xizmatlarni, xo'jalik

texnikalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar va kadrlarni tayyorlash va ta'lim bo'yicha xizmatlarni standartlashtirish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarni rivojlantirmoqda.



13.1-rasm. ISO tashkilotining tashkiliy tuzilmasi.

ISO 1995-yilda Internetda o'zining Welcome to ISO Online <http://www.iso.ch> nomli sahifasini ochdi.

ISO tashkilotining tashkiliy tuzilmasi 13.1-rasmida keltirilgan. Bosh boshqaruvi idorasi Bosh assambleyasi hisoblanadi. Bosh assambleya sessiyalari o'rtasidagi vaqtida tashkiliy ishlarni standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlarning vakillari kiruvchi ISO Kengashi boshqaradi.

ISO Kengashiga yettita STACO, PLACO, CASCO, DEVCO, COPOLCO va REMCO qo'mitalari bo'yisinadi.

STACO ISO Kengashiga xalqaro standartlarni ishlab chiqish usuli va prinsiplari bo'yicha uslubiy va axborot yordam ko'rsatadi.

U asos soluvchi standartlashtirish prinsiplarini o'rganish va ushbu sohadagi optimal natijalarga erishish bo'yicha tavsiyalarini tayyorlaydi. STACO savdoni rivojlantirish uchun xalqaro standartlarni qo'llash bo'yicha terminologik va seminarlarni tashkillashtirish bilan ham shug'ullanadi. PLACO tomonlarning ishlarini tashkillashtirish va texnikaviy muvofiq-lashtirish, ISOning ishlarini rejalashtirish bo'yicha tavsiyalarini tayyorlaydi.

CASCO mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar va sifat tizimi standartlari talablariga muvofiqlikni tasdiqlash, sinov laboratoriyalarini layoqatliligi va sertifikatlashtirish idorlariga tegishli masallar bilan shug'ullanadi. CASCOning eng muhim ishi – milliy va hududiy sertifikatlashtirishlarni qabul qilish va o'zaro tan olish, hamda muvofiqlikni tasdiqlash va sinash sohalarida xalqaro standartlardan foydalanishga ko'makashadi.

DEVCO standartlashtirish sohasida rivojlanayotgan mamlakatlar takliflari o'rganadi va ushbu sohada bu mamlakatlarga ko'maklashish bo'yicha tavsiyalarini ishlab chiqadi.

COPOLCO iste'molchilar qiziqishlarini va standartlashtirish orqali ko'maklashish imkoniyatlarni ta'minlash masalalarini o'rganadi hamda xalqaro standartlar to'g'risidagi zaruriy ma'lumotlarni ularga yetkazish bilan shug'ullanadi. Bunda uni nashr etayotgan: "Iste'mol mahsulotlarini solishtirish sinovlari", "Iste'molchilar uchun mahsulotlar to'g'risida axborotlar", "Iste'mol mahsulotlarini ekspluatatsiya qilish tafsiflarini o'lchash usullari standartlarini ishlab chiqish" va boshqa qo'llanmalarini eng katta o'rinn tutadi.

REMCO standart namunalarga taalluqli masalalarbo'yicha qo'llanmalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, REMCO halqaro metrologiya tashkilotlari, xususan, Qonunlashtiruvchi metrologiya bo'yicha xadqaro tashkiloti (fransuzcha Organisation Internationale de Métrologie Légale -- OIML, inglizchada International Organization of Legal Metrology) bilan standart namunalar bo'yicha ISOningfaoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro standartlarning loyihalarini texnikaviy qo'mitalar ishlab iqishadi. Texnikaviy qo'mitalar (TQ) muayyan texnika sohasida ishlovchi umumtexnik va qo'mitalarga bo'linadi. TQ doirasida qo'mita osti qo'mitalari (QQ) va ishchi ruhlar (IG) ishlashadi.

ISOning xalqaro o'lchash birliklarini ishlab chiqishi; rezbalarning metrik tizimini qabul qilishi; barcha turdag'i transportlarda yuklarni tashish

uchun konteynerlarning standart o'chamlari va konstruksiyasi tizimini qabul qilishi muhim ahamiyatga ega bo'igan yutuqlarga erishgan. Hozirgi paytda juda muhim bo'igan, ISO 9000 seriyali standartlarni ishlab chiqish TQ 176 "Sifatni ta'minlash tizimlari" qo'mitasining ishi ekanligi bilan dolzARB hisoblanadi.

ISO xalqaro standartlari majburiy bo'lib hisoblanmaydi, biroq har bir davlat ularni to'liq qabul qilmasligi yoki umuman qabul qilmaslik huquqiga ega. Amino o'zining mahsulotlarini xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash uchun bu standartlarni qabul qilishga o'z-o'zidan majbur. Shuning uchun bir qacha davlatlar standartlashtirish obyektlariga o'zining milliy standartlarini yaratmasdan mavjud bo'lgan mos standartlarni qo'llashga intilishadi.

### 13.3. Xalqaro elektrotexnika komissiyasi

Elektrotexnika sohasida xalqaro hamkorlik bo'yicha ishlari 1881-yilda boshlangan. Bunda Elektr bo'yicha birinchi xalqaro kongress tuzildi. 1904-yilda Sent-Luisda (AQSh) hukumat vakillarining Elektr bo'yicha xalqaro kongresi majlisida elektr mashinalar atamalarini va ko'rsatkichlarini standartlashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus idora tuzish zarurligi to'g'risida qaror qabul qilindi.

Bunday idora – Xalqaro elektrotexnik komissiya (IEC) rasmiy ravishda 1906-yilda Londonda 13 mamlakat vakillarining konferensiyasida tuzildi.

1946-yilda ISO tuzildi va unga IEC o'zining noliyaviy va tashkiliy masalalarda mustaqilligini saqlagan holda alohida huquqlar bilan qo'shildi.

Bu tashkilotlarning kotibiyatlari hududiy jihatdan bir binoda Jenevada joylashgan.

ISO va IECning faoliyat sohalari aniq chegaralangan – IEC elektrotexnika, elektronika, radioaloqa, priborsozlik sohasida, ISO esa qolgan barcha sohalarda standartlashtirish bilan shug'ullanadi.

Mamlakatlар o'zlarining milliy qo'mitalari bilan IECda qatnashadi. Milliy qo'mitalar sanoatning barcha sohalari manfaatlarini ifodalaydi. Ko'pchilik mamlakatlarda bunday milliy tashkilotlar qatnashadi. Bu bilan bir qato'da, ba'zi mamlakatlarning IEC da qatnashuvchi milliy qo'mitalar standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlardan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi (masalan, bunday mamlakatlarga Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya va b. kiradi).

Hozirgi vaqtida 41 milliy qo'mita IEC a'zosidir. Bu mamlakatlarda jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 95 %ni iste'mol qiluvchi

er sharining 80 % aholisi yashaydi. Bular asosan sanoati rivojlangan mamlakatlar. Shuningdek, sanoat tarmoqlariga ega bo'lgan rivojlanib kelayotgan qator mamlakatlardan iborat. IECning rasmiy tili – inglizcha, fransuzcha va ruscha.

IECning asosiy vazifasi yuqorida nomi kelitirilgan sohalarda Xalqaro standartlarni yaratishdan iborat.

IECningoliy rahbar idorasi Kengash bo'lib, bunda mamlakatlarning barcha mitliy qo'mitalari qatnashadi. Saylanuvchi lavozimli shaxslarga prezident uch yillik muhlatga saylanadi, vitse-prezident, haznachi va bosh sekretar' kiradi.

IEC texnik idoralarining tuzilmasi ISOdag'i kabi: texnik qo'mitalar (TQ), kichik qo'mitalar (KQ) va ishchi guruhlar (IG)dan iborat. Umuman, IECda 80dan ortiq TQ bor bo'lib, bularning bir qismi xalqaro umumtexnik va tarmoqlararo xarakterdagi standartlarni (masalan, atamalar bo'yicha, grafik tasvirlar, standart kuchlanishlar va chastotalar, iqlim sinovlari va b.), bosqqa qismi esa mahsulotning muayyan turlari uchun (tarnsformatorlar, elektron texnika buyumlari, maishiy radioelektron apparatlari va b.) standartlarni ishlab chiqadi.

IEC standartlarini yaratish protsedurasi uning Ustavi, Protsedura qoidalari va texnik ishlar bo'yicha Umumiyl direktivalar tomonidan belgilanadi. Har 1-1,5 yilda TQ (KQ) majlislarda o'z ishlarining dasturlarini tuzadi (yoki to'g'rileydi). Har yili IEC dasturiga 500gacha va bundan ham ortiq yangi, xalqaro standartlarni yaratishni ko'zda tutuvchi mavzular kiritiladi. ISO/IEC ishlab chiqqan va 1990-yil 1-fevraldan amalga kiritilgan Direktivalarga muvofiq amaldagi standartni qayta ko'rib chiqish yangi mavzuni ishlab chiqish kabi qaraladi.

ISO kabi 1972-yilda IEC o'z tavsiyanomalarini xalqaro standartlar deb nomladi.

IECning tashkiliy tuzilmasi 13.2-rasmida keltirilgan bo'lib, IEC yuqori rahbariy idorasi Kengash hisoblanadi.


Asosiy muvofiqlashtiruvchi idorasi faoliyat Qo'mitalari hisoblanib, unga quyidagi yo'naliishlar va maslahat guruhlari bo'yisinadi:

- ACOS maslahat qo'mitasi – elektr xo'jalik asboblari, radioelektron apparatlar, yuqori kuchlanishli qurilmalar va boshqalarining elektr xavfsizligi masalalari bo'yicha maslahat qo'mitasi;

- ASET maslahat qo'mitasi – elektr xavfsizligi masalalari bilan shug'ullanuvchi ACOS singari elektronika va aloqa masalalari bo'yicha maslahat qo'mitasi;

- Muvofiqlashgan guruh EMMMG – elektromagnit moslashuvchanlik bo'yicha muvofiqlashtiruvchi guruh;

- Muvofiqlashgan guruh ATMG – axborot texnikalari bo'yicha muvofiqlashdiruvchi guruh;



13.2-rasm. IEC xalqaro tashkilotining tashkiliy tuzilmasi

O'chamlarni muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh.

Hozirgi vaqtida 2 mingdan ortiq xalqaro IEC standartlari yaratilgan, bunda IEC standartlari o'zlarida mahsulotga va mahsulotni sinov uslubiyatlariiga texnik talablarning mavjudligi nuqtayi nazardan ISO standartlariga nisbatan ancha to'liq tuzilgan bo'ladi. Buni, bir tomonidan, IECning faoliyat sohasiga kirgan mahsulotga talablarda xavfsizlikka oid talablar asosiy hisoblanishi bilan tushuntirish mumkin, boshqa tomonidan esa, ko'p o'n yilliklar davomida to'plangan ish tajribasi standartlashtirish masalalarini ancha to'liq hal qiliishga imkon beradi.

### **13.4. Davlatlararo standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish**

Milliy idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish uchun 1992-yilda MDH mamlakatlarining (Boltiq-bo'yisi mamlakatlaridan tashqari) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo standartlashtirish kengashi (DSK) tuzildi.

MDH mamlakatlari hukumatlarining boshliqlari 1992-yil 13-martda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosatni olib borish to'g'risida Bitimga imzo chekdi.

Bu Hamkorlik davlatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralarning imkoniyatlarini va boyliklarini birlashtirishga, ilgari to'plangan tajribalar va me'yoriy hujjatlardan bирgalikda foydalanish va ularni takomillashtirishga, shuningdek, faoliyatning bu sohalarida yagona texnik siyosatni amalga oshirishga imkon berdi. DSKning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi idora sifatida ishlari MDHda quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

- yagona me'yoriy baza – davlatlararo standartlar, tasniflagichlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni qo'llanish va rivojlanish;
- yagona etalon baza va o'lchanishlar birliligini ta'minlash tizimlarini, shu jumladan, vaqt va chastotalar, moddalar va materiallarning tarkibi va xossalariiga oid standart ma'lumotnomasi ma'lumotlari davlatlararo xizmatlarini shakllantirish;
- mahsulot va xizmatlarni sinash va sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish.

DSKning texnik siyosati a'zo-davlatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralari, ilmiy-tehnikaviy komissiyalar (ishchi guruhlari) va standartlashtirish bo'yicha davlatlararo TQ tomonidan shakllantiriladi.

DSK faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tehnikaviy komissiyalar yoki ishchi guruhlar, vaqt va chastotani bir xil o'lchanishini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida hukumatlararo Bitimni bajarish bo'yicha vakolatli vakillarining Kengashi, shuningdek, standartlashtirish bo'yicha 230dan ortiq davlatlararo TQ doimiy ishlamoqda. Hozirgi vaqtida Kengashning ishchi idorasi Minskda joylashgan standartlashtirish bo'yicha Byurodan iborat. Kengashni rotasiya asosida DSK a'zo mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralarining rahbarlari boshqaradi.

Kengash davlatlararo standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida qator hukumatlararo bitimlarni tayyorladi va bular MDH mamlakatlari hukumat boshliqlarining majlislarida qabul qilingan. Bunday bitimlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosatni o'tkazish to'g'risidagi Bitim (1992.13.06, Moskva);
- Vaqt va chastotani o'lchash bir xilligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida Bitim (1992.09.10, Bishkek);
- Qiyo slash va metrologik attestatlash maqsadida chegaradan olib o'tiladigan me'yoriy hujjatlar, etalonlar, o'lchash vositalari va standart namunalarni olib o'tishga bojxona to'lovlari, soliqlardan va maxsus ruxsatnomalarni berishdan ozod qilish to'g'risida Bitim (1995.10.02., Almati);

– O'zaro yetkazib beriladigan mahsulotga mehnat muhofazasi bo'yicha kelishilgan me'yorlar va talablarni ishlab chiqish va rioya qilish tartibi to'g'risida Bitim (1996.12.04., Moskva);

– Erkin savdo hududida texnik to'siqlar bo'yicha Bitim (2000.20.06., Moskva);

– MDH davlatlarida sayohat sohasida davlatlararo standartlarni va sertifikatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha Konsepsiya.

MDH mamlakatlarida amaldagi texnik qonunlarni uyg'unlashtirish maqsadida DAK da model qonunlar ishlab chiqilgan:

- "Standartlashtirish to'g'risida" (Parlamentlararo assambleyaning (PAA) 10-yalpi majlisida qabul qilingan);
- "O'lchashlar birlilagini ta'minlash to'g'risida" (MDH PAAning 11-yalpi majlisida qabul qiligan).

– DSK doirasida quyidagi bitimlar tuzilgan va bajarilmoqda:  
– Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish va o'zaro tan olish prinsiplari to'g'risida (1992.04.06., Krasnodar);

– Davlat sinovlari va turini tasdiqlash, metrologik attestatlash, o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash natijalarini, shuningdek, sinovlarni, o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash laboratoriyalarini akkreditlash natijalarini o'zaro tan olish to'g'risida (1992.06.10., Toshkent);

– Moddalar va materiallar tarkibi va xossalarning standart namunalarini yaratish va qo'llanish bo'yicha hamkorlik to'g'risida (1992.06.10., Toshkent);

– Moddalar va materialarning fizik konstantalari va xossalari to'g'risida ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha

hamkorlik to‘g‘risida (1992.06.10., Dushanbe);

– DSK standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (ISO, IEC) va Yevropa Ittifoqi (CEN) standartlashtirish bo‘yicha tashkiloti, standartlashtirish bo‘yicha hududiy tashkilot tomonidan tan olingan va unga ISO va IECda qabul qilingan qoidalarga muvofiq “Standartiashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha Evro-Osiyo tashkiloti (EASC) nomi berilgan.

Yuqoridagi nomi keltirilgan tashkilotlar bilan hamkorlik, axborot va me’yoriy hujjatlar bilan almashinish va o’tkaziladigan tadbirlarda ishtirot etish to‘g‘risida uzoq muddatli kelishuvlar imzolangan.

EASC imzolangan kelishuv (bitimlar) ga asosan xalqaro va Yevropa standartlarini davlatlararo standartlar orqali, EASCning alohida a’zo mamlakatlari esa, milliy standartlar orqali qo’llanish huquqiga ega. Bu davlatlararo va milliy standartlarni ham xalqaro, ham Yevropa standartlari bilan yuqori darajada uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Bunday huquqdan EASCning a’zo-davlatlari, bu tashkilotlarda a’zolik statusidan qat’iy nazar, foydalanadi.

Hozirgi vaqtida MDH davlatlararo standartlarining jamg‘armasida 19000 dan ortiq me’yoriy hujjatlar bor. 1992-yildan boshlab 3800dan ortiq davlatlararo me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Jamg‘arma DSKning standartlashtirish bo‘yicha Byurosi tomonidan, DSK a’zo davlatlarning milliy idoralari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Davlatlararo me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ularning talablari xalqaro, hududiy va ilg‘or milliy standartlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu MDH mamlakatlarining savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikda texnik to‘silqlarni bartaraf etishga yo’naltirilgan yagona me’yoriy-texnik ta’minotni saqlash uchun sharoit yaratadi, shuningdek, DSK a’zo davlatlarda ishlab chiqariladigan mahsulotni xalqaro va Yevropa bozoriga chiqarishga ko‘maklashadi.

DSK ishtirokida davlatlararo standartlashtirish faoliyati amalga oshilib, bunda ГOCT 1.0 standartiga muvofiq *davlatlararo standartlashtirish* deganda davlatlararo qiziqish o‘yg‘otuvchi obyektlarni standartlashtirish tushuniladi.

MDH mamlakatlari vakillari standartlashtirish sohasida siyosatni yuritish va Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatashtirish bo‘yicha davlatlararo kengash va qurilishda texnikaviy me’yorlash va sertifikatlashtirish tashkil etish bo‘yicha kelishuv imzolashgan.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatashtirish bo‘yicha milliy idoralar va Kelishuvning 12 qatnashchi-davlat rahbarlari DAKning a’zolari hisoblanadi (13.1-jadval).

**Kelishuvdagagi Davlat-qatnashchi va ularning standartlashtirish,  
metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoralari**

Davlat nomi	Metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora nomi
Ozarbayjon Respublikasi	Oz davstandart
Armaniston Respublikasi	Arma davstandart
Belarusiya Respublikasi	Belarusiya davstandart
Gruziya	Gruz standart
Qozog'iston Respublikasi	Qozog'iston Respublikasi davstandarti
Qirg'iziston Respublikasi	Qirg'iz standart
Moldova Respublikasi	Moldova standart
Rossiya Federasiyasi	Rossiya davstandart
Tojikiston Respublikasi	Tojik standart
Turkmaniston	Turkmaniston Bosh davlat inspeksiyasi
O'zbekiston Respublikasi	"O'z standart" agentligi
Ukraina	Ukraina davstandarti

### **13.5. Standartlashtirish bo'yicha hududiy tashkilotlar**

Yevropa iqtisodiy uyushmasi (EIU)ning standartlashtirish sohasidagi faoliyati EIUni tashkil etish to'g'risida 100-Rim shartnomasining EIU a'zo-davlatlari qonun, boshqaruv va ma'muriy qarorlarini yaqinlashtirishni buyuruvchi moddasiga asoslangan.

"Texnik uyg'unlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida yangicha yondashish to'g'risida" 1985-yil 7-may Qarorida EIU Kengashi quyidagi prinsiplarni tasdiqladi:

- qonunlarni uyg'unlashtirish 100-moddaga muvofiq direktivalar doirasida xavfsizlik asosiy talablarini o'rnatish bilan cheklanadi. Bu uyushma doirasida ushbu mahsulot uchun erkin savdo sharoitlari ta'minlanishi lozimligini anglatadi;

- sanoat buyumlarini standartlashtirish uchun mas'ul idoralarga texnologiyaning rivojlaniш darajasini hisobga olgan holda texnik reglamentlarni ishlab chiqish vazifasi yuklatiladi. Bunday reglamentlarga asosan, Uyushma a'zolari direktivalarda o'rnatilgan umumiyl talablarga riyoq qilgan holda mahsulot yaratishi va foydalanishga qo'yishi mumkin;

- bunday texnik reglamentlar majburiy emas, balki ixtiyoriy qo'llaniladigan standartlar bo'lib qoladi;

— ayni bir vaqtida Uyushma ma'muriyatga uyg'unlashtirilgan standartlar (yekin vaqtinchalik milliy standartlar) bo'yicha tayyorlangan mahsulotning direktivada o'matilgan "umumiyl talablarga" muvosifligini o'matish vazifasi yuklatiladi. Buning ma'nosi shuki, ishlab chiqaruvchi mahsulotni bu standartlarsiz ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, ishlab chiqaruvchiga o'z mahsulotining direktivadagi umumiyl talablarga muvosifligini isbotlashiga to'g'ri keladi.


O'tish davrida, yagona standart qabul qilinishigacha, eng yaxshi milliy standartlardan keng foydalanishga katta ahamiyat beriladi. Uyushma mamlakatlarining integrasiya jarayonlariga talablarni qondiruvchi xaqaro standartlarni qo'llanish ko'zda tutilgan, agar bunday standartlar yo'q bo'lsa, Yevropa standartlari (CEN/CENELEK standartlari) ishlab chiqiladi. Bunday standartlar kelajakda xalqaro standartlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yevropa standartlariga afzallik beriladi, natijada G'arbiy Yevropada hududiy standartlashtirshni mustahkamlash va rivojlantirish mumkin bo'ladi.

**Standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi (CEN).** EIU doirasida birlashgan bozorni yaratish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish munosabati bilan "texnik to'siqlarni" bartaraf etish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Bunday texnik to'siqlar buyumlarga standartlardagi farq, ulardan foydalanish qoidalarining zidligi, xavfsizlik texnikasi bo'yicha farqlanuvchi me'yorlar, sog'liqni saqlash va tabiatni asrash me'yorlaridagi farqlar hisobiga paydo bo'ladi.

Bu muammoni hal qilishda Yevropa standartlashtirishiga birinchi navbatda ahamiyat beriladi. EIU va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EESA) vakillarining 1961-yil 23-martda Parijda bo'lib o'tgan majlisida CENning tashkil etilganligi e'lon qilindi (CEN 1970-yilgacha Standartlarni muvosiflashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi, deb atalgan). CEN a'zolari EIU va EESAning 18 mamlakati: Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gretsya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Islandiya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, GFR, Fransiya, Shvetsiya va Shveysariya standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlaridan iborat. Bu yopiq tashkilot bo'lib, G'arbiy Yevropa mamlakatlarining yuqorida keltirilgan iqtisodiy guruh a'zolarini birlashtiradi.

CENning birinchi majlisidayoq Ustav va protsedura Qoidalari tasdiqlandi. 1970-yilda CEN Ustavi qayta ko'rib chiqiladi. Bunda Ustavga ma'lum o'zgartirishlar bilan birga Yevropa standartlari (EN)ni majburiy yaratish ham kiritilgan. Standartlarni yaratish bo'yicha barcha ishlar texnik qo'mitalar tomonidan olib boriladi. Bunday texnik qo'mitalarda texnik sekretariatlar iqtisodiy guruh mamlakatlaridan biri tomonidan boshqariladi.

CEN doirasida 140dan ortiq TQ tuzilgan. TQ bilan bir qatorda, alohida masalalarni hal etish uchun maslahat guruhlari tashkil etilgan. Assotsiativ a'zolar CENning maqsadlariga erishishiga qodir bo'lishi lozim. CENning tashkiliy tuzilmasi 13.3-rasmida keltirilgan.



### 13.3-rasm. SENning tashkiliy tuzilmasi.

CENning vazifasi quyidagilar vositasida xizmatlar savdosini va almashi-nishni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat:

- CEN a'zo mamlakatlarida yaratilagan standartlarni uyg'unlashtirish va Yevropa standartlarini ishlab chiqish;
- o'zlarining direktivalarida va boshqa rasmiy hujjatlarida ilova qila qolishlari uchun Yevropa standartlarini EIU, EESAg, shuningdek, boshqa hukumatlararo tashkilotlarga taqdim etish;
- elektrotexnikada standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi va standartlashtirish masalalari bo'yicha boshqa ilmiy-texnik va iqtisodiy hududiy hukumat tashkilotlari bilan hamkorlik;
- ISO va IEC orqali xalqaro standartlashtirishga va Yevropada ISO standartlarini va boshqa xalqaro standartlar va tavsiyanomalarni bir xilda qo'llanishga ko'maklashish;
- Yevropa standartlari asosida sertifikatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni berish.

CENDa standartlashtirish bo'yicha ishlar ko'p jihatdan ISOda erishilgan natijalalarga asoslanadi yoki ularni to'ldiradi. CEN quyidagi sohalarda standartlar yaratadi: aviasiya jihozlari, suv isitish gaz priborlari, gaz ballonlari, ko'tarish mexanizmlarining detallari, oshxona gaz plitalari, lifilar va yuk ko'targichlar, payvandlash va qirqish, quvurlar va truboprovodlar, nasos stansiyalari (foydalanish va xizmat ko'rsatish), stekloplastikadan tayyorlangan sisternalar va boshqalar.

### **Elektrotexnikada standartlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi (CENELEK)**

CENELEK 1972-yilda ikkita tashkilot – EESA (CENEL) a'zo mamlakatlarining elektrotexnik standartlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi va EIU mamlakatlarining elektrotexnik standartlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Yevropa qo'mitasi (CENELCOM)ning bir-biriga qo'shilishi natijasida tuzildi. CENELEK a'zolari 17 Yevropa davlatlari: Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Finlandiya, Fransiya, GFR, Shveysariya, Shvetsiyaning milliy elektrotexnik qo'mitalaridan iborat. Bu davlatlar (Lyuksemburgdan tashqari) bir vaqtida IEC a'zosi hisoblanadi.

CENELEKnинг rasmiy tillari – engliz, fransuz va nemis. CENELEKnинг tashkiliy tuzilmasi 13.4-rasmida keltirilgan.

CENELEKnинг asosiy maqsadlari EIU bilan yaqin hamkorlikda elektrotexnik standartlar to'plamini yaratish, shuningdek, Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi Sekretariatining yordamida bu hudud mamlakatlarida mollar va xizmatiarning yagona bozorini ta'minlashdan iborat. CENELEK a'zo – milliy qo'mitalarning to'liq o'zaro kelishuvi bilan yaratilgan standartlarga bu vazifani ta'minlash uchun muhim vosita sifatida qaraladi. CENELEKnинг asosiy faoliyat a'zo mamlakatlar milliy standartlari o'rtaсидиги va buyumlarning standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirish protseduralари o'rtaсидиги barcha texnik farqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Bunday faoliyat savdoda texnik to'siqlarga yo'l qo'ymaslik uchun zarur. Bu ish mollarining g'arbiy Yevropa darajasida erkin yurishi uchun zarur kafolat deb hisoblanadi.



13.4-rasm. CENELEKning tashkilish tuzilmasi.

### Nazorat savollari

1. Xalqaro standartlashtirish nima uchun kerak?
2. 1926-yildan boshlab standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlarni sanang.
3. Sandartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO)ning asosiy maqsadi nimadan iborat?
4. Xalqaro elektrotehnika komissiya (IEC) qanday masalalarni hal qiladi?
5. Xalqaro elektr aloqa ittifoqi nima uchun yaratilgan?
6. Standartlashtirish bo'yicha tashkilotlar va bu soha bo'yicha ishlarda yetakchi tashkilotlarning o'zaro farqlari nimadan iborat?
7. Standartlashtirish bo'yicha ishlarda yetakchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarni aytинг.
8. Xalqaro standartlarni qo'llash majburiyatlari nima?
9. Xalqaro va huddiy standartlashtirish deganda nimani tushunasiz?
10. Xalqaro standartlashtirish jamiyatiga ta'rif bering.

11. ISOning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati.
12. Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (ISO, IEC) nomining berilishi.
13. DSK qanday davlatlararo me’yoriy hujjatlarni qabul qildi va bu hujjatlar nima deyiladi?
14. Hududiy standartlashtirish to‘g‘risida siz qanday tushunchaga egasiz?
15. Standartlashtirish bo‘yicha qanday hududiy idoralarni bilasiz?
16. CEN tashkilotining CENELEC tashkilotidan farqi nimada?

## XIV BOB. SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATI

### 14.1. Sertifikatlashtirishning rivojlanish tarixi

Hozirgi vaqtida sertifikat degan atamani tez-tez uchratib turamiz. Bu qanday atama deb so'rasangiz turlicha talqin olishingiz mumkin: kimdir bি-  
ror malaka olganlik to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjat desa, yana kimdir  
mahsulotning sifati to'g'risidagi hujjat, ba'zi birovlar esa mahsulotni hudu-  
dimizga olib kirish yoki olib ketish uchun bojxonaga ko'rsatilishi lozim  
bo'lgan hujjat deb ta'rif beradi. O'yaynizki, darsliginizing ushbu bobla-  
rini o'qib va o'rganib chiqib shu bilan birga ma'lum ko'nikmaga ega bo'l-  
ganingizdan so'ng ushbu atamaga albatta aniq va mukammal javob topasiz.

Sertifikat so'zining ma'nosini keltirishdan oldin mavzudan biroz  
chetga chiqarniz.

Ma'lumki, Sharq, jumladan, O'zbekistonimiz chet ellarda nafaqat go'-  
zal tabiatи va mehnatsevar xalqi bilan, balki o'zining ko'zni qamashtiradi-  
gan, rang-barang meva, sabzavot va turli mahsulotlarga serob bozoriari  
bilan ham mashhur. Bundan tashqari, bizning bozorlardagi yana bir o'zga-  
chalik ham bor. Agar rastalar oralab yuradigan bo'lsangiz, sotuvchilar,  
dehqonlar meva-chevalardan uzatib, totib ko'rishni taklif etishlarini guvohi  
bo'lasiz (albatta, totib ko'rganlik uchun haq so'ralmaydi). Buning tagida  
bir ma'no yetadiki, u ham bo'lsa, mahsulotning sifatiga xaridorning o'zi  
bahо bersin, ya'ni taklif qilinayotgan mahsulot sifati va unga so'ra layot-  
gan narx mutanosib ravishda belgilanayotganiga o'zi ishonch hosil qilsin.

Qadimdan bizda bir tushuncha bor. Xarid paytida savdo mukammal va  
to'liq bo'lishi uchta tomon ishtirot etishi kerak. Birinchi tomon –  
oluvchi (xaridor), ikkinchi tomon – sotuvchi (tayyorlovchi) va uchinchi –  
xolis tomon. Uchinchi tomon sotilayotgan buyum yoki mahsulotga qo'yil-  
gan narx ushbu mahsulot ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga mutanosib  
ekanligi to'g'risida kafolat bergan. Bunda uchinchi tomon albatta mahsulot  
to'g'risida o'zining xolisona fikrini haqqoniy bildira oishi, juda ko'p vaqt-  
dan buyon shu faoliyat bilan shug'ullanayotganligi sababli sotilayotgan  
mahsulotning shu vaqtida va shu bozordagi narxi bir-biriga mos tushushini  
belgiiay oladigan mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Savdoning bu turi  
asosan katta miqdordagi yoki qimmatbaho xarid paytida qo'llanilgan bo'-  
lib, bu hozatni hozir ham qoramol, qo'y yoki ot savdolarida uchratishimiz  
mumkin. O'tada turuvchi xolis tomon (ularni dalloollar deb yuritilgan)  
savdoni bir muqim bo'lshiga yordam berib, savdo obyektiga xos bo'lgan  
sifat ko'rsatkichlariga tavsif beradi va xolisona baho beradi. Bu shaxsni

hezirda ko'p qo'llanilayotgan **broker** bilan tenglashdirish maqsadga muvo-  
tiq emas, chunki broker sotilayotgan yoki olinayotgan mahsulotning sifat  
ko'rsatkichlari to'g'risida yetarli baho bera oladigan shaxs sifatida emas,  
balki satuvchi tomonidan beigilangan narxda mahsulotni sotish yoki sotib  
olish bilan shug'ullanadi. Biz sertifikatlashtirishni tushuntirish maqsadida  
tanlagan misolimizda savdo tugagandan so'ng sotuvchi tomon o'z savdosiga  
otuvchi tomen esa xarididan va savdo obyektining mavjud sifat ko'r-  
satkichlaridan ishorich hosil qilib, qoniqish hissiga ega bo'ladi. Bu savdo  
ning yana bir muhim xususiyati – uchinchi xolis tomon sifatida alohida  
ishonchga va nufuzga ega bo'lgan, rostgo'y shaxslargina ishtirok etishi  
mumkin. Bizdagi mana shu savdo turi bir necha yuz yillardan beri mavjud  
bo'lib, chet davlatlarda sertifikatlashtirish deb ataluvchi faoliyatga aynan  
shu asos solgan bo'lsa ham ajab emas.

**Sertifikatlashtirish** guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch  
bildirish ma'nolarini bildiruvchi *certifus* ("sertifikat" so'zi lotinchadan  
turjima qilinganda "to'g'ri bajarilgan" ma'nosini anglatadi) so'zidan  
olangan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga  
yoki texnika-viy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan  
tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Garchi "Sertifikat" atamasi kundalik hayotda va tijorat amaliyotida  
yaqinroq solishtirilganda XIX asrdan "Sertifikat" atamasi bi'an tanilib,  
sertifikatlashtirish jarayoni sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

F.A.Brokguaza va I.A.Efronalarning 1900-yilda nashr qilingan  
ensiklopedik lug'atida sertifikat "guvohnoma" tariqasida izohlangan,  
ammo iqtisodchilar sertifikatni "aniqlangan summaga pui guvohnomasii"  
yoki "davlat zaymining maxsus obligatsiyasi" deb ta'rif berishgan.

Tovarni ishiab chiqaruvchilar o'zining mahsulotini sifati kafolatlan-  
ganligini, shuningdek, uni yozma ravishda ta'miclanganligi, ya'ni (zamo-  
naviy terminologiya bo'yicha) "muvofiqlik to'g'risida da'vo qilish"  
to'g'risidagi guvohnomasiga ega bo'lishgan.

Metrologiyada sertifikatlashtirish asboblarni (toshlar, taroziali) tam-  
g'ulash va rasmiy tekshirish bo'yicha faoliyat sifatida allaqachon ma'lum  
bo'lib tanilgan. Tamg'ulash asbobning metrologik va konstruktiv tavsiflari  
bo'yicha sertifikatlashtirish talablarini qanoatlantirishi to'g'risida guvohlik  
bergan. "Sertifikat" atamasi 100 yildan ortiqroq xalqaro metrologik amali-  
yotda qo'llanilib kelinagan. 1879-yilda Rossiya kilogramma portotipiqa  
olangan ilova hujjati quyidagicha nomga ega bo'lgan: "O'Ichov va tarozilar  
xalqaro qo'mitasi. №12 kilogramm portotipi uchun O'Ichov va tarozilar  
xalqaro byurosi Sertifikati, Rossiya Imperiyasining Moliya vazirligiga

berilgan". Bu kilogramni portotipi uchun "sertifikatlashtirish sinovi" o'tkazilgan. Barcha guruhdagi portotiplier uchun (jam'i 42 ta) xalqaro (bosh) portotiplier bilan o'zaro taqqoslashtirish uchun 1092 tortish o'tkazilgan, ya'ni, o'z navbatida, arxivdagi kilogramlar bilan solishtirilgan.

Bayon etilgan tajriba O'lclov va tarozilar xalqaro byurosi – uchinchi tomon sertifikatlashtirishiga misol bo'ladi.

Iqtisodiyetda yetakchi inamlakatlar XX asrning 20-30-yillarida sertifikatlashtirish jarayonlari rivojlantirishni boshlashgan. Nemis standartlar instituti (DIN) Germaniyada standartlarga muvofiqlik belgisi DINni joriy qilib savdo belgilarini himoya qilish to'g'risidagi qonunga muvofiq GFRda ro'yxatga olingan.

1984-yilda sobiq ittifoqda eksport qilinayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish to'g'risida qaror qabul qilingan. 1986-yildan Gosstandart tononidan Mashinasozlik mahsulotlarini sertifikatlashtirishning vaqtinchalik tartibi amalga kiritilgan.

1988-yilda Iqtisodiy o'zaro yordam Kengashi (Совет Экономической Взаимопомощи – СЭВ)ga a'zo mamlakatlar o'zaro yetkazib berilayotgan mahsulotlarning sifatini baholash va sertifikatlashtirish tizimi (SEPRO SEV) to'g'risida Konvensiya imzolashgan. Ushbu tizim 1988-yildan boshlab amalga kiritilgan. SEPRO SEV tizimi CЭB standartlari sifatida boshqa xalqaro me'yorlar va eng yaxshi milliy standartlardan foydalaniib sertifikatlashtirishni o'tkazish nazarda tutilgan.

Ushbu tizim sinov laboratoriyalarini xalqaro attestatsiyalash va xalqaro akkreditlashtirishni arma'da kiritdi. 1991-yilga kelib 14 ta sinov markazlari faoliyat yuritgan va bir qancha ishlab chiqarish attestatsiyalangan.

O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish faoliyati 1993-yildan "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonunga muvofiq xalq iste'mol tovarlarini majburiy sertifikatlashtirish bilan rasman boshlangan.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Sifat ko'rsatkichlari esa ma'lum, belgilangan talablarga mos kelishi lozim. Muvo'lilik o'z navbatida ma'lum standartga yoki boshqa me'yeri yujjalarga mos kelishini talab etadi. Muvo'lilikni sertifikatlashtirish tasdiqlash mumkin.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashuvish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tononidan ishlab chiqilib va bu muhim tushuncha "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriya iiarining akkreditlash sohaiaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan.

Xalqaro standartlashtirish tashkilotining qayta ishlangan qo'llanmasida "sertifikatlashtirish" atamasiga sa'fatgina izoblar berilgan:

*Sertifikatlashtirish umumiy atama bo'sib, mahsulet, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlashtirishda (muvofiglikni tasdiqlashda) uchinchi tomonning qatuashishi va unga xolisona baho berishi tushuniadi.*

Sifat tizimini baholash sohasidagi taraqqiyot sifat tizimini sertifikatlashtirish (tashkilotning sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini sertifikatlashtirish) bo'yicha yangi dozarb yo'nalishni keltirib chiqardiki, ushbu yo'nalish bugungi kunda keng qo'llanilib, bozor iqtisodiyotidagi taqobathbardoshlik, o'zaro savdo-sotiqning samarasi va istiqbolilik darajalarini belgilab beradigan omillardan esosiysi sifatida sahnaga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng sertifikatlashtirish sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham bu sohaning rivojlanishi, xalqaro miq'yosda tan olinishi ustida "O'zstandart" agentligi tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Binobarin, 1992-yil mustaqillikning ilk yillardayoq Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi ("O'zdavstandart") va keyinchalik, 2002-yilda ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida mustaqil "O'zstandart" agentligi tashkilotiga aylantirilishi Hukumatimiz tomonidan bu sehiba berilayotgan ahamiyatning mahsuli sifatida qarash mumkin. Davlatimiz tomonidan sertifikatlashtirish ishlarini tashkillashtirish, uni tartibga tushirish va bu sohaning qonuniy asosini yaratish maqsadida 1993-yil "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, buning natijasida ishlab chiqarilayotgan va chetdan olib kirilayotgan mahsulotlarning xavfizligi to'g'risida Qaroring qabul qilinishi, uni amalga oshirish maqsadida qator chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi ham aytib o'tilgan so'zlarning yaqqol misolidir.

#### **14.2. Sertifikatlashtirish sohasidagi atama va ta'riflar**

Sertifikatlashtirish mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash shakillaridan biri sifatida butun dunyoda tan olingan. Sertifikatlashtirish uchun sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlariga yagona talablarning belgilagan me'yoriy hujjatlari bo'lishi shart.

Atamalar va ta'riflarning bir xilligi qo'yilgan vazifalarni to'g'ri tushunish va sertifikatlashtirish protseduralarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun surur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro standart ISO/IEC 2:1996 "Standartlashtirish va yondosh faoliyat turlari. Unumiy lug'at" asosida yaratilgan OzDSt 5.5:1999 "O'zSMT. Asosiy atamelat va ta'riflar" va sifat menejmenti tizimlari bo'yicha O'zDSt ISO 9000:2009 standartlariga mos bo'lgan quyidagi atama va ta'riflar mutanosiblik bilan qo'llaniladi:

*Sertifikatlashtirish jarayoni.* shunday uslubki, unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar datajasiga mosligini e'tirof qildi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan ko'rsatkichlarga javob berishi kerak. Bu ko'rsatkichlar esa ma'lum belgilangan talablarga muvofiq (mos) kelishi lozim. Muvofiglik o'z navbatida mahsulot yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlardagi shu mahsulot yoki xizmatlarga belgilangan ko'rsatkichlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiglikni sertifikatlashtirish mumkin. Xo'sh, sertifikatlashtirish tushunchasi nima?

*Sertifikatlashtirish* deganda talab etilgan ishonchilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofigligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalari" asosiy atarnalari va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kintilgan.

*Muvofiglik sertifikati* – bu kerakli ishonchilik bilan mahsulot yoki xizmat, identifikatsiyalangan shakida muayyan standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofigligini bildirishini, ta'minlovchi sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalari bo'yicha berilgan hujjat.

*Muvofiglik* atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga oladi. Bunda muvofiglikning uchia ko'rinishi: *muvofiglik bayonoti, muvofiglikni attestatlash, muvofiglikni sertifikatlashtirish* degan tushunchalar mavjud.

*Muvofiglik bayonoti* deb yetkazib beruvchining niahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga to'la-to'kis muvofigligi haqida butun ma'suliyatni o'z ustiga olganligini bayon etishiga aytildi. Bu atamani so'nggi vaqtarda "o'z-o'zini sertifikatlashtirish" tushunchasi bijan almashilayotgani qayd qiliinmoqda. O'z-o'zini sertifikatlashtirish deganda mahsulot ishlab chiqaruvchi tomon butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda mahsulotning talab etilgan

darajada sifatligi haqidagi kasolatni o'z zimmasiga oladi.

**Muvosiqlikni attestatlash** deganda uchinchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarini belgilovchi ma'lum standartlar yeki boshqa hujjatlar bilan muvosiq ekanligini bayon etishiga aytildi.

**Sertifikatlashirish jarayoni** deganda mahsulot\buyum\mol yoki xizmat muayyan standart yoki texnikaviy shart talablariga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot\buyum\molning o'matilgan talablarga iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat – sertifikat beriladi.

Yana bir zarur atamalardan biri "sertifikatlashirish tizimi" bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi:

**Sertifikatlashirish tizimi** – muvosiqlikning sertifikatlashirish faoliyatini o'tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega bo'lgan tizim.

"Sertifikatlashirish tizimi" atamasidan tashqari Sertifikatlashirish xemasi kiritilib, ushbu faoliyat muvosiqlikni sertifikatlashirishda uchinchi tomon faoliyatining olib boradigan ish hajmi, ketma-ketligi, tartibi va sertifikatlashirish subyekti bilan o'zaro munosabatini belgilaydi.

Sertifikatlashirish faoliyatida qo'llaniladigan uchta tushuncha to'g'risida to'xtalib o'tamiz: sertifikatlashirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashirish tizimi n'zosi.

**Sertifikatlashirish tizimidan foydalanish** – guvohnoma talabgoriga sertifikatlashirish tizimining qoidalariga muvosiq berilgan sertifikatlashirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

**Sertifikatlashirish tizimida qatnashuvchi** – deb ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko'rsatadigan, lekin tizimni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan sertifikatlashirish qatnashuvchisi tushuniladi.

**Sertifikatlashirish tizimi a'zosi** deganda ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko'rsatadigan va tizimni boshqarishda ma'lum darajada ishtiroy eta oladigan sertifikatlashirish qatnashuvchisi tushuniladi.

Sertifikatlashirish ikki xil bo'ladi: *majburiy* va *ixtiyoriy*. Ishlab chiqarilgan yoki iste'mol etiladigan mahsulot uchun uning tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'siri asosiy mezon hisobianadi. Tashqi muhitga, inson salomatligi va uning xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar, majburiy sertifikatlashirilishi maqsadga muvosiq bo'ladi. unday mahsulotlar ro'yxati Davlat tomonidan tasdiqlanib, bu ro'yxatga kiritilmagan mahsulotlar esa sertifikatlashirilishi ixtiyoriydir.

*Majburiy sertifikatlashtirish* deganda sertifikatlashtirish xуquqiga ega bo'lgan idora tonionidan tasdiqlangan ro'yxatga kiritilgan mahsulot, jarayon, xizmatning standartlardagi talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

*Ixtiyoriy sertifikatlashtirish* deganda ishlab chiqaruvchi/bajaruvchi, sotuvchiga/minlovchi yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan mahsulot sertifikatlashtirilishi tushunitadi.

Hozirgi sharoitda tashqi mamlakatlar bilan savdoni, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni, fan va texnikani rivojlanishi uchun hamda chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash, ularning raqobatdoshlik qobiliyatini oshirish uchun muntazam ravishda sinovlardan o'tkazish ehtiyoji ortib bormoqda. Sinovlarni ko'pincha uchinchi tomon deb ataluvchi tashkilot amalga oshiradi. Uchinchi tomon tarafidan olib boriladigan sertifikatlashtirish ishlab chiqaruvchilarning ishonchiga sazovor bo'lmoqda va shu sababli bunday yo'l keng qo'llanilib, samarali olib borilmoqda. Turli mamlakatlarda uchinchi tomon tarafidan bajarilayotgan sertifikatlashtirish tizimi tashkil etish amalda shuni ko'rsatmoqdaki, uni turlicha tashkil qilish mumkin ekan. Sertifikatlash-tirish tarixini ko'rib chiqadigan bo'lsak bu faoliyat bilan ishlab chiqaruvchi assotsiatsiyalar, yirik iste'molchilar, standartlashtirish milliy tashkilotlari shug'ullanib turli tizimlarni yaratganlar. Masalan, Fransiya va Angliyada 60-yillar boshida iste'molchilar temoni dan harbiy maqsadlar uchun ishlatiladigan elektronika mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimi yaratildi.

Sertifikatlashtirish tushunchasi keng ma'noda uchinchi tomon tarafidan o'tkaziladigan texnikaviy me'yorga, ish ushubiga, qoidaga muvofiqligini qamrab olgan har qanday tekshiruvdir. Shuning uchun sertifikatlashtirishni tekshiruv deb hisoblab, bosim ostidagi idishlarni, portlash xavfidan himoyalangan qurilmalar, kemalar, suzish vositalari, sannoietlar, aviatsiya qurilmalari, atom reaktorlarining va tog' texnikasining ishlatilishidagi xavfsizligini ta'minlash maqsadida texnikaviy nazorat o'rnatuvchi idoralar sharli tekshiruvni amalga oshiradi.

*Akkreditatsiya* – bu nufuzli idora tomonidan, boshqa bir tashkilot yoki shaxsni rasmiy ravishda aniq ishlarni bajarishda to'la huquqli vakolat berilganligini e'tirof etishi.

*Akkreditlash tizimi* – akkreditlashni amalga oshirish uchun protsedura va boshqaruvning o'z qoidalariiga ega bo'lgan tizim.

*Mahsulot* – ma'lum faoliyat yoki jarayon natijasi. Mahsulot tushunchasiga quyidagicha izohlar keltirilgan:

1. Mahsulotning to'rtta toifasi bor;

- xizmatlar (yuk tashish, bank xizmati, sug'urta faoliyati va h.);
- dasturiy vositalar (kompyuter dasturi, iug'at, o'quv dasturlari);
- texnik vositalar (motorning qismi);
- qayta ishlanadigan materiallar.

Mahsulotning turlari uning turli umumiy teifalariga kiradigan vazifalar yoki shu vazifani bajarish uchun qo'llanilayotgan elementlarni o'z tarkibida mujassam qilinishi bilan belgilangan. Mahsulotni xizmatlar, dasturiy vositalar, texnik vositalar yoki qayta ishlanadigan inateriallar qatoriga kiritish shu mahsulot uchun belgilangan vazifaning ustunlik qiladigan elementiga bog'liq. Masalan, yetkazib beriladigan mahsulot – "avtomobil" – texnik vositalar (masalan, shinalar), qayta ishlanadigan materiallar (yonilg'i, sovutish suyuqligi), dasturiy vositalar (motorni dasturli boshqarish, haydovchi uchun qo'llanma) va xizmatlar (avtomobildan foydalanish to'g'risidagi souvchi tomonidan beriladigan tushuntirishlar)dan iborat.

**2. Xizmat** – yetkazib beruvchi va iste'molchining o'zaro hamkorligida amalga oshirilgan kamida bitta harakat natijasi. Xizmatlar, odatda, nomoddiy bo'ladi. Xizmat ko'rsatish quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- iste'molchi yetkazib bergan moddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, ta'mir talab avtomobil),
- iste'molchi yetkazib bergan nomoddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, soliq miqdorini aniqlash uchun zatur bo'lgan daromad to'g'risida ariza);
- nomoddiy mahsulotni berish (masalan, bilimlarni berish ma'nosidagi axborot);
- iste'molchilar uchun qulay sharoitlarna yaratib berish (masalan, mehmonxonalar va oshxonalarda).

Dasturiy vosita axborctga ega bo'ladi va u, odatda, nomoddiy bo'ladi, shuningdek, yondashuvlar, operatsiyalar yoki protseduralar shaklida ham bo'lishi mumkin.

Texnik vosita, odatda, moddiy bo'ladi va uning miqdori hisoblab topiladigan tavsif bilan ifodalanadi. Qayta ishlanadigan materiallar, odatda, moddiy bo'ladi va ularning miqderi uzliksiz tavsif bilan ifodalanadi. Texnik vositalar va qayta ishlanadigan materiallar ko'pincha tovarlar deb ataladi.

**Usul** – faoliyatni rasmiy amalga oshirish yo'li. Uslublar ma'lumki, odatda, hujjatlashtiriladi va hujjatlashtirilgan uslublar o'zida quyidagilarni ifoda etadi:

- faoliyatning maqsadi va doirasasi;
- kim tomonidan va nima bajarilishi kerak;

- qachon, qayerda va qay tarzda amalga oshirilishi kerak;
- qanday manbalar, hujjatlar va qanday jihezlar ishlatalishi kerak;
- bular qay yo'sinda nazorat qilinishi va qayd etilishi kerak.

Uslublar ma'lumki, odatda, bir necha xodimlarning javobgarlik va vakolatini aniqlaydi hamda sifat sohasi dasturiga yoki xususiyatlarga tayanadi.

Ishchi yo'riqnomalari ko'pincha uslublardan yoki texnologiyadan ko'chirma bo'ladi va bir xodimga yoki ish o'miga yoziladi, shu sababli tayanchga ehtiyoj sezilmaydi.

**Inspeksiya tekshiruvi** – sertifikatlashtirish va akkreditlashda o'matilgan talablarga muvofigligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulet, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tiziunlari, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinov laboratoriya\markazlarining faoliyatini takroriy baholash protsedurasi.

**Sertifikatlashtirish** – protsedura bo'lib, buning vesitasida uchinchi tomon mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning topshiriqdagi talablarga muvofigligini yozma shaklda tasdiqlaydi.

**Sertifikatlashtirish bo'yicha idora** – sertifikatlashtirishni o'tkazuvchi idora. Sertifikatlashtirish bo'yicha idora muvofiglikka sinash va tekshirishni o'zi o'tkazishi yoki uning topshirig'i bo'yicha boshqa idoralar tomonidan o'tkaziladigan bunday faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirishi mumkin.

**Sinov laboratoriysi** – sinovlarni o'tkazadigan laboratoriya. "Sinov laboratoriysi" atamasi yuridik yoki texnik idora yoki ikkalasini ifodalevchi ma'no sifatida foydalaniishi mumkin.

**Sinash** – o'matilgan protseduraga muvofig bir yeki bir nechta tafsilotlarni aniqlash.

Yetkazib beruvechi muvofiglik to'g'risidagi **deklaratsiya** – bu "yetkazib berilayotgan mahsulotni muayyan me'yoriy hujjatlar talablariga muvofigligini (yaratilgan javobgarlikni isbotlash) yozma ravishda kafolatlash"

**Muvofiglikni deklaratsiyalash** – me'yoriy hujjatlar (texnik reglamentlar) talabiariga mahsulot muvofigligini tasdiqlash shakli:

**Muvofiglik to'g'risida deklaratsiya** – ishlab chiqarilayotgan mahsulotga aloqader me'yoriy hujjatlar (texnik reglamentlar) talablariga muvofigligini tasdiqlavechi hujjat.

**Sertifikatlashtirish idorasи** – sertifikatlashtirish ishlarini bajarish uchun o'matilgan tartibda akkreditlangan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagisi korxona.

#### **14.3. Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi, vazifalari va faoliyat turlari**

Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi muvofiqlikni sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun tadbirlar, tartiblar va boshqaruvin qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

Sertifikatlashtirish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar:

- sertifikatlashtirishda qo'llaniladigan hujjatlarning yagona tizimi ni tashkil qilish;
- yagona atarna va ta'riflarni ishlab chiqish;
- bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirishning qoida va tartiblarini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish uchun o'tkaziladigan sinevlarning qoidalarini ishlab chiqish (bundan keyin sertifikatlashtirish sinoviali);
- sertifikatlashtirish qatnashchilarining davlat boshqaruvi idoralari bilan o'zaro hamkorlik tartiblarini aniqlash.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi O'zbekiston Respublikasining qonuniy va me'yoriy hujjatlariga muvofiq faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi da quyidagi faoliyat turlari olib boriladi:

- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;
- sifat tizimlarini va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish;
- majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazorat olib borish;
- yuqoridaq keltirib o'tilgan faoliyat yo'naliishlari bo'yicha ekspert-auditerlarni tayyorlash va attestatlash kabi faoliyat turlarini yuritadi.

O'zbekiston Sertifikatlashtirish milliy tizimi (SMT) sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi chet davlatlar tizimi va shaxslari, tashkilotlar uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalarini tan olish sharti bilan ochiq deb hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish mahsulot\jarayon\xizmatlarning quyidagi talablarga muvofiqligini yoki nomuvofiqligini tasdiqlash bo'yicha ish olib boradi:

- davlatlararo standarlarga (MDH);
- mahsulotga talabiarni belgilovchi O'zbekiston Respublikasi hududi-da qabul qilingan va rasman nashr qilingan me'yoriy hujjatlarga (keyinchalik MH);
- O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimiga Sertifikatlashtirish idorasiga a'zo bo'lgan sertifikatlashtirish tizimiari doirasidagi xalqaro va milliy chet el standarlariiga.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi quyidagi tizimlar bilan o'zaro bog'lanishda faoliyat olib boradi:

- O'zbekiston Respublikasi davlat standartlashtirish tizimi (O'zDST);
- O'zbekiston Respublikasi o'chashlar birligini ta'minlash davlat tizimi (O'zO'DT);
- O'zbekiston Respublikasi akkreditlash tizimi (O'zAT);
- MDH davlatlarining sertifikatlashtirish milliy tizimlari, shuningdek, bu ishni boshqarish uchun maxsus huquqga ega bo'lgan davlat boshqaruv idoralari boshchiligidagi faoliyat ko'rsatayotgan muvofiqlikni tekshiruvchi boshqa tizimlar (Sanoatgeokontexnazorati, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi) bilan o'zaro bog'liqlikda faoliyatini olib boradi.

#### **14.4. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy asoslari**

Har qanday faoliyat yoki yo'nalish niha maqsadni ko'zlashidan qat'iy nazar albatta qonunlashtirilishi, tartibga tushirilishi, faoliyatni olib borish esa ma'lum me'yoriy hujjatlar asosida olib borilishi ta'lab etiladi. Xuddi shuningdek, sertifikatlashtirish faoliyat ham bundan mustasno emas.

Quyida ushbu sohaning qonuniy asosi va qonunosti hujjatlari to'g'risida tushuncha bermoqchimiz. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy asoslari 14.1-rasmida keltirilgan.

*O'zbekiston Respublikasi Oly Majlisini tomonidan sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha qabul qilingan qonunlar:*

- O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Iste'molehilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "O'simliklarning karantini to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonuni va h.

**QONUNLAR**

**QONUNIY HUJJATLAR**

Prezident farmonlari, hukamat qarorlari	"O'zstandart" agentligi qarorlari	Vazitliklar va mahkamaviy me'yoriy hujjatlar
---	-----------------------------------	--

**SERTIFIKATLASHTIRISH ME'YORIY ASOSI**

Sertifikatlashtirish tartibi va qoidalar bo'yicha tashkiliy-uslubiy hujjatlar	Sertifikatlashtirishni o'tkazish jarayoni talablariga me'yoriy hujjatlar	Sertifikatlashtirishda muvoqiqlikni baholash usuli (tartibi) me'yoriy hujjatleri
Sertifikatlashtirish bo'yicha qoidalar va tartiblar	Xalqaro, davlatlararo, Davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar	Davlat standartlari va uslubiy qo'llanmalar, boshqalar

*14.1-rasm. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy asosi.*

Mahsulotlarning xavfsizligi va yuqori sifatliliginin ta'minlash shakllaridan biri sifatida sertifikatlar dunyoda tan olindi.

Sertifikatlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish sohasida to'plangan xalqaro tashkilotlar tajribalari MDHningbarcha davlatlarida keng qo'llanilib ketinmoqda. O'zbekistonda 1992-yildan sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tizim ishlarida qatnashish va kelishivi sertifikatlashtirishning qonuniy asosini yaratdi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlari oldin mahalliy mahsulotning me'yoriy hujjatlarini ISO, IEC va boshqa xalqaro tashkilotlarning xalqaro standartlariga mos (davlat standartlari, texnik shartlar) keltirish bo'yicha, hamda bu mahsulotlarga me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, mahsulotga sertifikatlashtirish talablarini o'rnatish bo'yicha "O'zstandart" agentligi bilan hamkorlikda manfaatdor vazirliliklar va mahkamalar ishlar olib borishdi.

Sertifikatlashirish bo'yicha to'plangan tajriba ishlari O'zbekiston Respublikasida mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishni keng qamrovli yuritish va bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyatini berdi.

Respublikada sertifikatlashirish aslida 1993-yil 28-dekabrda Respublika Oliy Majlisining O'zbekiston Respublikasi "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bilan kiritilgan.

Qonunda aytulganki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi (O'zdavstandart) O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idorasi bo'lib hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 3-oktabrdagi №342 sonli "Standartlashtirish, metrologiya va mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan O'zdavstandart O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi)ga o'zgartirildi.

Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan majburiy sertifikatlashtirishda turuvchi mahsulot va xizmatlar ro'yxati bo'yicha hamda, ularning qonunchilik aktlarida ko'rilgan holatlar bo'yicha sertifikatlashtirish amalga oshiriladi. Dastlabki ro'yxat 1994-yil Vazirlar Mahkamasining №409 sonli qaroriga kiritilib va keyinchalik 2004-yil 6-iyulda №318 sonli majburiy muvofiqlikni tasdiqlashga kiruvchi mahsulot va xizmatlarning yangi qisqartirilgan ro'yxati kiritildi. Bundan tashqari, muvofiqlikni tasdiqlash jarayonini soddalash tirish maqsadida bu ro'yxatda belgilangan bir qancha mahsulot turlari muvofiqligini ta'minotchi deklaratsiyalash yo'li bilan tasdiqlashi mumkin. Bular katta xavf-xatarlariga bog'liq bo'limgan turdag'i mahsulot va xizmatlardir. Qaror, shuningdek, o'matilgan talablarga mahsulot muvofiqligini tasdiqlash va deklaratsiyalash tartiblarining zamonaviy tizimlarini kiritish to'g'risidagi talablardan tarkib topgan.

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkilash-tirishda "O'zstandart" agentligi yoki uning topshiriqlari bo'yicha boshqa shunga o'xshash majburiy sertifikatlashtirish idoralari va ularni akkreditlashtiruvchi idoralari katia hissalarini qo'shishgan.

Majburiy sertifikatlashtirish qatnashchilarini "O'zstandart" agentligi, akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari, sertifikatlashtirish bo'yicha shunga o'xshash ishlarni olib boruvchi vakolatli akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlar), talabgor, tayyorlovchi va boshqa mahsulot ta'minotchilari bo'lib hisoblanadi.

Qonunda “O’zstandart” agentligi va majburiy sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni olib berishda o'z hissasini qo'shan boshqa sertifikatlashtirish idoralari, bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini yaratish huquqi berilib, muvofiqlikni tasdiqlash yo'llarini tanlashni amalga oshirishi ko'riigan. Sertifikatlashtirishni bevosita akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari va sertifikatlashtirish sinovlarini — akkreditlangan sinov laboratoriyalari amalga oshirishadi.

Qonun №342-sonli qaromi hisobga olib, sertifikatlashtirish milliy tizimi subyektlarini akkreditlashtirish muvofiqlashtirish bo'yicha ishlarni olib boruvchi “O’zstandart” agentligi tarkibida yaratilgan akkreditlashtirish milliy idorasi (Akkreditlashtirish va inspeksiya nazorati bo'yicha beshqarma) amalga oshirishi belgilangan.

Qonunda import qilinayotgan mahsulotlarni olib kelish shartlarini aniqlangan. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha tuzilayotgan shartnomalarning shartlarida majburiy sertifikatlashtirishda turgan mahsulotlarning o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqllovchi muvofiqlik belgisi va sertifikatlarining mavjudligi nazarda tutilgan. Belgilangan sertifikatlashtirish va muvofiqlik belgilari O'zbekiston Respublikasining vakolatlari idoralari tomonidan berilgan va tanoligan bo'lishi kerak.

Milliy tizim yoki “O’zstandart” agentligi tan olgan boshqa davlatlar sertifikatlari va muvofiqlik belgilari talabgor (ta'minotchi) respublika bududidan boshqa davlatga mahsulotni olib chiqishga ruxsat olish uchun bojxona nazorati idorasiga, yuk bojxona deklaratsiyasi bilan birgalikda sertifikatlarni taqdim qilish zururiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

Bojxona nazorat idoralari olib kelinayotgan mahsulotning xavfsizligini tasdiqllovchi hujjat mayjud bo'lмаган holda, “O’zstandart” agentligini xabardor qiladi va sertifikatlashtirish milliy tizimining qoidalari bilan xorijiy sertifikat tan olinadi yoki mahsulotni sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risidagi qarorgacha uni olib kelish taqiqlanadi.

Qonun ixtiyoriy sertifikatlashtirish sohasida qonuniy manosabatlarni boshqaradi. U yuridik va jismoniy shaxslarning qiziqishlari bo'yicha sertifikatlashtirishni o'tkazishi va me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun ixtiyoriy mahsulotlarni sertifikatlashtirishga undashi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni “O’zstandart” agentligi o'matilgan tartibda akkreditlangan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirish huquqiga ega.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimining sertifikatlashtirish tartibi va qoidalari tavsiflarini "O'zstandart" agentligi bilan kelishuv bo'yicha akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari o'rnatadi.

"Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonun majbuliy sertifikatlashtirish qoidalariiga rioya qilinishi bo'yicha nazorati va tekshirish masalalarini ham boshqaradi.

Sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifatni boshqarish tizimi, ishlab chiqarish, akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish idoralari va sertifikatlashtirish sohasidagi nazorat idoralarining inspeksiya nazoratlarini "O'zstandart" agentligi o'rnatgan tartibda ekspert-auditorlar amalga oshiradi.

Shuningdek, Qonunda sertifikatlashtirishni o'tkazish bilan bog'liq baxslarni ko'rib chiqish bo'yicha masalalar ifoda etilgan. Qiziquvchi tomonlar sertifikatlashtirish natijalariga norozi holatlarda "O'zstandart" agentligining Apellatsiya kengashiga murojaat qilish huquqiga ega. Apellatsiya kengashi sinov laboratoriyalari (markazlari) xulosalari va sertifikatlashtirish idoralarining qarorlari bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Qonunda tayyorlovchi (tadbirkorlar, sotuvchilar, bajaruvchilar) majbuliy sertifikatlashtirish qoidalariни buzganligi uchun javobgarliklari nazarda tutilgan. Majbuliy sertifikatlashtirishda turgan, sertifikatlashtirilmagan mahsulotdan foydalanilganligi uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartibda foydalanilgan mahsulot qiymati o'lchamida jarima solinadi. Majbuliy sertifikatlashtirish qoidalariiga rioya qilish nazorati qarori bo'yicha davlat boshqaruv idorasi mansabdar shaxsi jarimani undiradi. Jarimaga tortish sertifikatlashtirishni o'tkazish majbuliyatidan xalos etmaydi.

Respublika Oliy Majlisi 1996-yil 26-aprelda mamlakatda majbuliy sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun yana bir turki bo'luvchi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Majbuliy sertifikatlashtirishda turuvchi mahsulotlarni foydalanish vaqtida iste'molchilarga uni sertifikatlashtirilganligi to'g'risida ma'lumotni taqdim etishi lozimligi tafsilotlari aytib o'tilgan. Zaruriy ma'lumotlar mavjud bo'lmasa taqdirda davlat boshqaruv idorasi buyrug'i bo'yicha ushbu mahsulotdan foydalanishni to'xtatib qo'yadi. Uzoq muddatli foydalaniladigan barcha turdag'i mahsulot va xizmatlarga tayyorlovchi kafolat muddatini o'rnatishi lozim.

Davolash, oziq-ovqatga mo'ljalangan va maishiy kinyoviy mahsulotlarda chiqarilgan muddati, yaroqlilik muddati va saqlash sharoitlari ko'r-

satilishi shart. Sotuvchilarни yaroqlilik muddatisiz yoki yaroqlistik muddati tugagan mahsulotlarni qabul qiliishi va sotishi qat'yan man etilgan.

Iste'molchilar tayyorlovchidan sotib olingan mahsulotlarini (ishi, xizmati) tayyorlanganligi yoki bajarilganligi yo sanitar-gigiyenik talablarga, hamda radiologik, epidemiyaga qarshi va boshqa me'yoriy va qoidalarga rioya qilib bajarganligiga hamda atrof-muhit, inson hayoti va sog'lig'iga xavtsiz bo'lganligi shuningdek, uning mol-mulkiga zarar yetkazmasligi kafolatini so'rash huquqiga ega.

Atrof-muhit va iste'molchilar sog'lig'i, hayoti, mol-mulki uchun xavf tug'diradigan mahsulotlarni chiqarish uchun qonunchilikka muvofiq tayyorlovchi (bajaruvchi), muvofiqlik sertifikatni beruvchi idora, me'yoriy hujjatlarni tasdiqlovchi tashkilot hamda sog'liqni saqlash, tabiatni muhofazalash idoralari, veterinariya xizmatlari yoki xavfli mahsulotni ishlab chiqarishga va foydalanishga ruxsat beruvchi boshqa ideralar javobgarlikni o'z ziinmasiga olishadi.

Sertifikatlashtirishning qonuniy asoslardan biri "Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifati to'g'risida"gi qonundir, u gigiyenik sertifikatni rasmiylashtirish zarurligini, hamda Sog'liqni saqlash Vazirligi va oziq-ovqat mahsulotlariga muvofiqlik sertifikatini, davlat qoidalarida belgilangan tartibda ro'yxatiga olish zarurligini belgilaydi.

**"Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifati to'g'risida"**gi Qonunda (1997-yil 30-avgustda chiqqan) man'lakat aholisini xavfsiz va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashning qonuniy asosini belgiladi. Qonunning ta'lablari oziq-ovqat, parfyumeriya, kosmetik mahsulotlar va tamaki mahsulotlariga hamda ularni tayyorlash, qadoqlash va tashish uchun mo'ljallangan, ular bilan bevosita aloqadagi qurilmalarga qo'llaniladi. Bu qonun oziq-ovqat mahsuletlari sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat boshqaruvida ko'zda tutilgan quyidagi zaruriyatlarini o'rnatadi:

- davlat me'yorlariga solish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini davlat ro'yxatiga olish;
- sertifikatlashtirish;
- davlat nazorati va tekshiruvi.

Davlat me'yorlariga solish sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, gigiyenik qoidalariga aloqador xavfsizlik ta'lablari, hamda davlat standartlari va texnikaviy shartiarda o'rnatilgan sifat ko'rsatkichlari ta'lablarining kiritilishi yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qonun bo'yicha davlat ro'yxatiga olishni avval akkreditlangan davlat sanitariya nazorat idoralari bergan gigiyenik sertifikatlar asosida "O'zstandart" agentligida amalga oshirililar edi. Keyinchalik bu ta'labiar

qayta ko'rib chiqildi va Sog'liqni saqlash Vazirligi oziq-ovqat mahsulotlarini davlat ro'yxatiga olishni boshladi.

Qonunda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizlik va sifat ko'rsakichlari majburiy bo'lib va muvofiqlikni sertifikatlashtirish zarurligi belgilangan va shu bilan birga qadoqlangan mahsulotlarni chiqarishda, quyidagilardan tarkib topgan yorliq bo'lishi lozim:

- mahsulot va tayyorlovchi nomi;
- mahsulot belgisi va belgilanishi;
- oziq qiymati va murakkab birikmalarning (ingredientlar) nomi;
- saqlash sharoiti;
- tayyorlash va yaroqlilik muddatlari;
- muvofiqlik belgisi va mahsulotlar me'yoriy hujjatining raqami.

1997-yilda chiqqan "O'simliklar karantini to'g'risida"gi qonunga muvofiq O'zbekistonga olib kelinayotgan o'simlik mahsulotlari va uni mamlakat orqali olib o'tish qoidalari belgilangan. Karantindagi har bir mahsulotlar o'simliklar karantini bo'yicha davlat inspeksiya idorasi beradigan fitosanitariya sertifikatli ilova qilinishi iozim. Olib kelishda fitosanitariya nazoratigacha qo'shimcha ravishda import qilishga ruxsat rasmiylashtiriladi.

Davlat tabiatni muhofazalash qo'mitasi atrof-muhit va tabiiy resurslarni himoyalash sohasida obyektlarni sertifikatlashtirish tiziminining qonunini joriy qilgan.

**Ekologik sertifikatlashtirishning maqsadi** – ishlab chiqaruvchilarni atrof-muhitni minimal ifloslantirish va iste'molchilarga uning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va yashash muhiti uchun mahsulotlar xavfsizligi kasolatini beruvchi mahsulotiarni ishlab chiqish va bunday texnologik jarayonlarni joriy qilishga qiziqtirishdan iborat.

Bu sohaga aloqador obyektlar belgilangan. Ular uch guruhga bo'linadi:

- davlat standartlarida ekologik talablari ifoda etilgan mahsulot, jarayonlar, ishlari va xizmatlar;
- O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi (O'zRSMT) qoidalari bo'yicha sertifikatlashtirish yo'naltirilmagan o'ziga xos ekologik kuchdag'i obyektlar;
- atrof-muhit va uning barcha tarkiblari uchun ishlab chiqilmagan bir qancha sertifikatlashtirish jarayonlari va me'yoriy hujjatlarining muvjudligi bo'yicha.

"Sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish sog'liqni saqlash va xodimlar xavfsizligi navbat bilan ularni sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy qilish uchun asosni yaratadi.

*O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining asos*

### *bo'likchilik me'yoriy hujjatlari:*

- O'zDSr 5.0:1998 O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy qoidalar;
- O'zDSr 16.10:2009 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idorasiga umumiy talablar;
- O'zDSr 5.4-98 O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Tekshirish va nazorat idoralariga qo'tyiladigan talablar;
- O'zDSr 5.5:1999 O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy atanalar va ta'tiflar;
- O'zDSr ISO/IEC 17021:2009 Muvofiqlikni baholash. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish va audit o'tkazuvchi idoralarga talablar;
- O'zDSr 5.8:2006 O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Muvofiqlik belgisini tasdiqlash. Qo'llash qoidalari;
- O'zRH 51-014:2006 O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat bo'yicha Ekspert-auditorlar. Tayyorlash va baholash talablari;
- O'zRH 51-024-94 O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirish bo'yicha hujjatlarni ekspert baholash;
- O'zRH 51-026-94 O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Apellatsiyalarni ko'rib chiqish tartibi;
- O'zRH 51-032:1999 O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi. Ishlar haqini to'lash tartibi va b..

### **14.5. Muvofiqlikni baholash va uning qonuniy hamda me'yoriy asoslari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 25-dekabrdagi 278-soni Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qonun joyihalarini ishlab chiqish Rejasiga"ga binoan, "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun joyihasi ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan. Mazkur Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2013-yil 6-iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2013-yil 22-avgustda ma'qillangan.

Qonunning g'oyasi, texnik jihatdan tartibga solish obyektlariga yo'naltirilgan me'yoriy-huquqiy talablarni "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiqlashtirish hamda muvofiqlikni baholash sohasidagi qonun hujjatlarini xalqaro qonunchilik talablari, shu jumladan savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf eish bo'yicha Butunjahon savdo tashkilotining kelishhevlariga uyg'unlashtirishdan iborat.

Qonunni ishlab chiqishning asosiy maqsadlari:

– muvofiglikni baholashning yagona turi bo'lgan sertifikatlash-tirishdan deklaratsiyalashni o'z ichiga olgan ko'p turli muvofiglikni baholash tizimini tashkil qilishning qonuniy bazasini yaratish;

– xalqaro tajriba va mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi omillarini inobatga olgan holda milliy akkreditatsiyalash tizimining qonuniy, texnikaviy va tashkiliy asoslarini yaratish;

– respublikamizning rivojlangan davlatlar bilan iqtisodiy hamkorligini oshirish maqsadida, Butunjahon savdo tashkilotining kelishuvlari bilan belgilangan talablarni bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etishni ta'minlash;

– respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar xavfsizligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, ichki bozorni xavfli mahsulotlardan himoyalash;

– xalqaro savdoni rivojlantirish maqsadida, savdodagi texnik to'siqlarning bartaraf etilishini ta'minlash;

– sinov, kalibrlash va qiyoslash laboratoriyalari, sertifikatlashtirish idoralari, inspeksiya va muvofiglikni baholash sohasidagi boshqa tashkilotlarning texnik omilkorligini oshirish hamda ish natijalarining xalqaro darajada tan olinishini ta'minlashdan iboratdir.

Aytish joizki, Qonan qabul qilinishi natijasida, hozirda mavjud akkreditatsiya tizimi yanada takomillashadi va Milliy akkreditatsiya tizimida muvofiglikni baholash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalarini xalqaro maydonda e'tirof etilishiga va O'zbekiston Respublikasining "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunlari mazmuni o'zaro uyg'unlashishiga hamda eng muhim mustaqil mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integrallashuv jarayoniga o'zining hissasini qo'shishiga zamin yaratib beradi.

"Muvofiglikni baholash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni to'rt bob va o'titz uch moddadani iborat bo'lib, boblar quyidagicha nomlangan: 1-bob. Umumi qoidalar (1-14 modda); 2-bob. Muvofiglikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish (15-19 modda); 3-bob. Akkreditatsiya (20-27-modda); 4-bob. Yakunlevchi qoidalar (28-33-modda).

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar keltirilgan:

**akkreditatsiya** – yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiglikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya idorasini tomonidan tasnif qilish;

*akkreditatsiya sohasi* — muvofiqlikni baholash idorasining akkreditatsiya chog'ida Milliy akkreditatsiya idorasi tomonidan belgilanadigan faoliyat schasi;

*inspeksiya nazorati* — mahsulotni ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash idoralarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

*inspeksiya iderasi* — yukni ortishdan oldin valyoki yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani va inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

*milliy akkreditatsiya tizimi* — muvofiqlikni baholash idoralarini akkreditatsiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjalarga, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjalarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizim;

*muvofiqlikni baholash* — mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash idoralarining normativ-huquqiy hujjalar, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjalor talabiariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha faoliyat;

*muvofiqlikni baholash idoralar* — yuridik shaxs bo'lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya idoralar, sinov va kalibrash laboratoriyaiali (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini xodimiarni sertifikatlashtirish idoralar;

*muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya* — ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjalar, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjalar talabiariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

*muvofiqlikni tasdiqlash* — normativ-huquqiy hujjalarning, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjalarning talablarini bajarilganligi isbotlangani ba'sida Milliy akkreditatsiya idorasi yoki muvofiqlikni baholash idoralar tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjalashtirilgen (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) taqdij;

*xodimlar* — muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

Muvofiqlikni baholesh sohasidagi unumliy prinsiplar, akkreditatsiya-lovechi idorelarga, sinov va kalibrash laboratoriyalari omilkorigiga, sifat


tizimlarini sertifikatlashtirish idoralariga, turli xildagi nazorat idoralari faoliyatining umumiy mezonlariga hamda mutaxassislarini sertifikatlashtirish idoralariga qo'yilgan umumiy talabiarni o'z ichiga olgan xalqaro standartlar O'zbekiston davlat standartlari sifatida qabul qilingan bo'lib ular quyidagicha nomianadi:

- OzDSt ISO/IEC 17000 "Muvofiqlikni baholash. Lug'at va umumiy prinsiplar";
- O'zDSt ISO/IEC 17011 "Muvofiqlikni baxolash idoralarini akkreditatsiyalovchi idoralarga qo'yilgan umumiy talablar";
- O'zDSt ISO/IEC 17025 "Sinov va kalibrlash laboratoriyalarini omilkorligiga qo'yilgan umumiy talablar";
- O'zDSt ISO/IEC 17021 "Sifat tizimlari auditini o'tkazish va sertifikatlashtirish idoralariga qo'yilgan umumiy talablar";
- O'zDSt ISO/IEC 17020 "Turli xildagi nazorat idoralari faoliyatining umumiy mezonlari";
- O'zDSt ISO/IEC 17024 "Xodimlarni sertifikatlashtirish idoralariga qo'yilgan umumiy talablar".

#### *O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi me'yoriy hujjatlari:*

- O'zDSt 16.0-98 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Umumiy qoidalar;
- O'zDSt 16.1:1999 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idoralari va tekshirish idoralarini akkreditlashini o'tkazish tartibi;
- O'zDSt 16.2:1999 (EN 45013) O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlariga talablar;
- O'zDSt 16.3:2001 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Standart namunalarni tayyorlash, attestatlash va ishlatalish huquqi bo'lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o'tkazish tartibi;
- O'zDSt ISO/IEC 17025:2007 Sinov va kalibrash laboratoriyalarini kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar;
- O'zDSt 16.5:2001 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Hujjatlarning metrologik eksperizasi va o'lchashlarni bajarish usullarini attestatsiyalash huquqi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o'tkazish tartibi;
- O'zDSt 16.6:2003 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. O'lchashlarni bajarish usulining nazoratini tashkillashtirish huquqi bo'lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o'tkazish tartibi;


- O'zDSt 16.7:2004 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Inspeksiya faoliyati mavjud firmalarga talablar;
- O'zDSt 16.8:2004 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Ishlab chiqarish laboratoriyalarni attestatlash. Umumiy talablar va o'tkazish tartibi;
- O'zRH 51-018:2002 O'zbekistona Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Akkreditlangan laboratoriyaning faoliyatini inspeksiya tekshiruvini o'tkazish tartibi;
- O'zRH 51-104:2000 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning inspeksiya tekshiruvini o'tkazish tartibi;
- O'zRH 51-105:2001 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoraari faoliyatining inspeksiya tekshiruvini o'tkazish tartibi;
- O'zRH 51-112:2002 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat laboratoriyalarni akkreditlash;
- O'zRH 51-121:2002 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat. O'quv va imijhon markazlarini akkreditlash;
- O'zRH 51-131:2003 O'zbekiston Respublikasi Akkreditlashtirish tizimi. Putur yetkazmasdan nazorat. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlarini akkreditlash va b.



14.2-rasm. Muvofiqlikni baholash turлari.

Muvofiqlikni baholash faoliyatiga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u o'z ichiga quyidagi faoliyat turлarini qamrab oladi (14.2-rasm): akkreditatsiyalash; sertifikatlashtirish; muvofiqlikni deklaratsiyalash; sinovlar; inspeksiya nazorati; yuklarni ortishdan va tushirishdan avvalgi inspeksiya.

Muvofiqlikni baholash, mahsulot (xizmat), jarayon, tizim, xodimlar hamda muvofiqlikni baholash bo'yicha xizmat ko'rsatayotgan idoralarga (sertifikatlashtirish idoralari, nazorat idoralari, sinash va kalibrlash laboratoriyalari) nisbatan qo'llaniladi va ular, o'z navbatida, muvofiqlikni baholash obyektlari hisoblanadi.



*14.3-rasm. Muvofiqlikni baholash tiziminining tuzilmasi*

Muvofiqlikni baholash tiziminining tuzilmasi 14.3-rasmda keltirilgan. "O'zstandart" agentligi xalqaro tashkilotlar talablariga tayangan holda, muvofiqlikni baholash tiziminining akkreditatsiya sohasidagi ISO/IEC 17000 xalqaro standartlar seriyasi va IAF (Xalqaro akkreditatsiya forumi) hamda ILAC (Laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish xalqaro konferensiyasi) tashkilotlarining rahbariy hujjatlarini amaliyatga tatbiq etgan.

### Nazorat savollari

1. Sertifikatlashtirishning rivojlanish tarixi bo'yicha qanday ma'lumotlarni bilasiz?
2. Birinchi, ikkinchi va uchinchi tomonlar deganda nimani tushunasiz?
3. Sertifikatlashtirish va sertifikat atamalari nimani anglatadi?
4. Sertifikatlashtirish tizimi, majburiy sertifikatlashtirish va ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda nimani tushunasiz?
5. Akkreditatsiya va akkreditlashtirish tizimini tushuntiring.
6. Sertifikatlashtirish tiziminining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
7. Sertifikatlashtirish milliy tizimida qanday faoliyat turlari amalga oshiriladi?

8. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy asoslari nimalardan iborat?
9. O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash-tirish to'g'risida"gi qonunining mohiyatini tushuntiring.
10. O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifati to'g'risida"gi qonunining mohiyatini tushuntiring.
11. Muvesfiqlikni baholash va uning qonuniy hamda me'yoriy asoslarini tushuntiring.
12. Milliy akkreditatsiya tizimi, muvesfiqlikni baholash idoralari va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya deganda nimalar tushuniladi?
13. Muvofiqlikni baholashning qanday turlarini bilasiz?
14. Muvofiqlikni baholash tizimining tuzilmasini tushuntiring.

## XV BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATI

### 15.1. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining qoidalari

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida bir turdag'i mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar bo'yicha sertifikatlashtirish (BMS) tizimi yaratilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni bir turdag'i mahsulotlar, sifat menejmenti tizimi va xodimlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar amalga oshiradi. Sertifikatlashtirish sinovlari akkreditlangan sinov laboratoriya\markazlarida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida muayyan turdag'i mahsulotiarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar bo'limgan holatlarda sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora uning sertifikatlashtirish masalalarini hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida davlat reyestri ko'rinishida sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlarini ro'yxatga olish amalga oshiriladi. Ro'yxatga olishni akkreditlashtirish va sertifikatlashtirish milliy idoralari olib boradi. Unda davlat reyestri ma'lumotlari, shuningdek, sertifikatlashtirish idorasи va tizimning boshqa qatnashchilaridan olingan ma'lumotlar chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish o'tkazilishi nazarda tutiladi.

**Ixtiyoriy sertifikatlashtirish.** Xalqaro amaliyotda ixtiyoriy sertifikatlashtirish mahsulotni tanlashda iste'molchiga ko'maklashuvchi samarali vosita hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulotni sertifikatlashtirishni nufuzli tashkilotlar o'tkazishi kerak, chunki bu mahsulotni sotib olish ehtimoli yanada oshadi. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish mahsulot raqobatbardoshligini oshirib, mahsulot aylanish jarayonini tezlashtiradi.

Ushbu holatda ixtiyoriy sertifikatlashtirish samarali iqtisodiy bozor vositasi sifatida amalga kiritilib, ya'ni iste'molchi va ishlab chiqaruvchigina emas, balki davlat va jamiyat ahamiyatida qiziqish salobatli bo'лади.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish o'zida o'tkazilish jarayonlarida va qoidalarda qat'iy qonuniy chegaralanish mavjud bo'limgan mumtoz sertifikatlashtirish ko'rinishini mujassam etadi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish arizachi (tayyorlovchi, sotuvchi, bajaruvchi)lar manfaati bo'yicha arizachi aniqlagan mahsulot muvofiqligini standartlar, texnik shartlar, reseptura va boshqa hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladi.

Ko'plab mamlakatlarda tayyorlovchi va iste'molchilar uchun foydali, nufuzli, mukammal bo'lgan ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimini, hukumatning faol ko'maklashuvi bilan ataylab yaratiladi.

Keyingi vaqtarda xalqaro iqtisodiyetda ISO 9000 turkumli, shuningdek, boshqa tizimli ISO 14000 bo'yicha va xalqaro standartlar talablariga muvofiq sifat tizimini ixtiyoriy sertifikatlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi paytda qayerda milliy mahsulotlarga ixtiyoriy sertifikatlashish qo'llanilmoqda? Birinchidan, tashqi bozorga mahsulotlar eksportga chiqarilishida. Ichki bozorda ixtiyoriy sertifikatlashtirishga talab hozircha sust, lekin bugungi kurda uni qo'llashga qiziqish shu yerda ko'proq bo'lishi kerak. Masalan, materiallar ta'minotchilari va buyumlarni butlovchi buyurtmachi muvofiqlik sertifikati mavjudligi shartlarini u majburiy sertifikatlashtirishda qaralmagan holatlarda ham talab qiladi.

Davlat va mahalliy boshqaruvi idoralar mahsulot\xizmatlar sifati nazorati va baholash mustaqilligini ta'minlash uchun, ya'ni natijalari mahsulotlarni yetkazishda davlat buyurtmalarini o'lish va muayyan faoliyatga litsenziya berishda ixtiyoriy sertifikatlashtirish yordamiga tayanadi.

Mahsulot\xizmatlardan tashqari, sifat tizimi va ishiab chiqarishlarni sertifikatlashtirishlar ham ixtiyoriy tizim doirasida o'tkaziladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish qoida va tamoyillari majburiy sertifikatlashtirishdan kam farq qiladi. Farqli tomoni shundaki, arizachi bilan sertifikatlashtirish idorasini kelishuv bo'yicha quyidagilarni aniqlaydi:

- tasdiqlanadigan talablar tarkibini;
- uni tekshirish usullarini;
- bu talablar va usullarga o'rnatilgan me'yoriy yoki texnik hujjatlarni;
- ixtiyoriy sertifikatlashtirish sxemasini.

Kelishuv sertifikatlashtirish idorasini so'tagan talablarga loyiqligi va sertifikatlashtirish uchun o'tkazilgan tekshiruv usullari, shuningdek, faoliyat sohasini sertifikatlashtirish bo'yicha idora uchun biriktirilgan doirada bu talablarga muvofiqligini tasdiqlash, qonuniy baholashni tan olish maqsadida o'tkaziladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimining ishechi holida ekani sertifikatlashtirishni o'tkazish qoidalari va uni qo'llanish sohasi davlat ro'yxatida qayd etilgan doirada amalga oshiriladi.

Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirishda, majburiy sertifikatlashtirish shart bo'lgan xuddi shu mahsulotni majburiy sertifikatlashtirishga almashtirishi mumkin emas.

Agarda majburiy sertifikatlashtirish tizimi qoidalarida va ushbu tizimda ixtiyoriy sertifikatlashtirish muvofiqlik belgisi, ushbu tizimda belgilangan tartibda ro'yxatga cilinganligi mavjud bo'lsa, ixtiyoriy sertifikatlashtirish majburiy sertifikatlashtirish tizimida o'tkazilishi mumkin.

**Majburiy sertifikatlashtirish.** Majburiy sertifikatlashtirish mahsulotjarayon/xizmatlar muvofiqligini isbotlashni ta'minlash O'zbekiston Respublikasi hukumati qonun va qarorlari, qonunchilik aktlari va me'yoriy hujjatlarning majburiy talabları, texnik reglamentlar talablariga asosan amalga oshiriladi. Bir qancha majburiy talablar bu hujjatlarda atrof-muhit va insonlar sog'lig'ini saqlash, xavfsizlikka aloqador, lekin inajburiy sertifikatlashtirishning asosiy jihatni xavfsizlik va ekologiyaga munosibligi hisoblanadi.

Majburiy sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan majburiy sertifikatlashtirishda turuvchi mahsulot va xizmatlar ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan, olib kelinayotgan, chetga chiqarilayotgan mahsulotlar uchun majburiy sertifikatlashtirish o'tkazilishi shart. O'zbekistonda majburiy sertifikatlashtirish xorijiy davlatlarda singari, eng avvalo. xalq iste'moli mahsulotlari va ularni xavfsizlik hamda ekologikligini tasdiqlashda qo'llaniladi. Ushbu ro'yxatga mahsulotlarni qo'shish uchun mezon sifatida quyidagilar tanlangan: foydalananuvchilar uchun xavfning yuzaga kelishi; mahsulot me'yoriy hujjatlarida xavfsizlik talabları mavjud bo'lsa; ommaviy iste'moldagi; inson sog'lig'i va hayotiga xavf-xatarlar darajasi va b.lar.

Jahon amaliyotida ixtiyoriy sertifikatlashtirish iste'molchilar tomonidan sifatlari xizmatlarni tanlashda samarali vositalardan biri hisoblanadi Xizmatlarni bajarish uchun ixtiyoriy sertifikatlashtirish ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirishga almashtirish mumkin emas. Majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishning bir-biridan farqli jihatlari 15.1-jadvalda keltirilgan.

### Majbuliy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishning qiyosiy tahlili

Sertifi katlashti rish turi	O'tkazish ning asosiy maqsadi	O'tkazish uchun asos	Obyekt-lari	Muvofiqlik ni baholash mohiyati	Me'yoriy bazasi
Majbuliy	Mahsulot-jarning xavfsizligini ta'minlash	O'zbekiston Respublikasining qo'nunchilik hujjatlari	O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlangan majbuliy tartibda sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar royxati	Majbuliy sertifikatlashtirishda, qonunlarga muvofiq ko'zda tutilgan majbuliy talablarga muvofiqligi ni baholash	Mahsulot sifatiga majbuliy talablarni belgilovchi milliy standartlar, sanitar me'yor va qoidalar, boshqa hujjatlar. Texnik reglamentlarda keltirilgan talabiarga muvofiq muayyan obyekt uchun amal qilishga kiritilgan muayyan texnik reglamentlar
Ixtiyoriy	1. Koxrona mahsulotlari xizmatining raqobatbardoshligini ta'minlash. 2. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari xizmat sifatini ta'minlovchi talab va xavfsizlik talablariga muvofiq mahsulot xizmatlarni reklama qilish	Yuridik yoki jismoniy shaxslar shabbusi bo'yicha arizachi va sertifikatlashtirish idorasining o'zaro	Ixtiyoriy obyektlar	Sertifikatlashtirish idorasasi bilan keli-shilgan arizachi talablarga muvofiqlikni baholash (majbuliy sertifikatlashtirish obyektlari bo'yicha talab va qoshimcha majbuliy talablarga muvofiqlikni baholash)	Milliy standartlar, tashkilot standartlari, ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimi, shartnomalar

### 15.2. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi

Bugungi kunda o'z istiqolli yo'lida bozor iqtisodiyotiga asoslangan

demokratik davlat qurilishi sari shaxdəm qadam tashlab borayotgan, mustaqil O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida muhim va salmoqli ishlər amalga oshirilməqda.

Respublikamız hududida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjalarga binoan, muvofiqlikni sertifikatlashtırışının asosiy məqsadi quydagılar:

- mahsulot, jarayon va xizmatlarda fuqarolarning həyatı va sog'ligi ning xavfsizligini tə'minlash, təşqi mühitni aşras, buyum tovarlarnı bir xilligi və o'zaro almashinuvchanlığı masalaları hamda iste'molchilarnı himoya qilish;

- xalqaro savdoda texnikaviy to'siqlarnı bartaraf qilish, tovar\buyum\jarayon\xizmatlarnı raqobatbardoshlıq qobiliyyatını oshirish.

Sertifikatlashtırışını o'tkazish və tashkil qilish üçün O'zbekiston Respublikası sertifikatlashtırış milliy tizimi (SMT)ning tashkiliy tuzilması qonuniy o'rnatilgan bo'lib, unga quydagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikası sertifikatlashtırış bo'yicha milliy idora ("O'zstandart" agentligi);

- bir turdagı mahsulot və xizmatları sertifikatlashtırış bo'yicha akkreditlangan idoralar və sifat tizimini və ishlab chiqarışını sertifikatlashtırış, shuningdek, hududiy sinov və sertifikatlashtırış markazları qoshida ochilgan idoralar;

- akkreditlangan sinov laboratoriya\markazları;

- standartlashtırış, metrologiya və sertifikatlashtırış ilmiy-iadqiqot instituti (SMSITI);

- bir turdagı mahsulotları sertifikatlashtırış bo'yicha uslubiy markazlar;

- nazorat idoraları.

O'zbekiston Respublikası Sertifikatlashtırış milliy tiziminin tashkiliy tuzilması 15.1-rasmda keltirilgan.

**Sertifikatlashtırış tizimi idoralarının vazifələri** quydagılardan iborat:

- O'zSMTning yagona qoida və tadbirlarını, ularga riyoja etilishi ustidan nazorətni, sertifikatlashtırış natijaları bo'yicha hujjalarnı ro'yxatga olishni, respublika və xorijiy iste'molchilarnı ma'lumot bilan tə'minlashni belgilaydi;

- muvofiqlik belgisini və sertifikat şəklini hamda ularni qo'llash qoidalarını belgilaydi;

- O'zSMTni takomillashtırış bo'yicha dastur loyihalarını tuzadi və ularni hukumat muhokamasiga taqdim etədi;

O'zbekiston Respublikası Vazirlar Mahkəməsi bilan kelishilgan heldə xalqaro sertifikatlashtırış tizimlərinə qo'shilish haqında qaror qabul qiladi,

shuningdek, sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida bitimlar tuzadi;



Akkreditlashtirish, sertifikatlashtirish, faoliyat nazorati  
Ish bo'yicha (funktional) aloqalar

15 I-rasm. O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi.

– O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlarda vakili bo'ladi;

– majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar\xizmatlar ro'yxatini tuzadi va olib boradi;

– respublikada sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi;

– O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi Davlat reyestri yuritadi;

– mahsulotlarni sertifikatlashtirish va sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni va sinov laboratoriya\markazlarini akkreditlashtirish bo'yicha ishlarga to'lov tartiblari va shakllarini o'rnatadi;

-- O'zSMT qoidalarini buzganligi uchun muvosiqtiq sertifikatiari va muvofiqlik belgilarining amalini bekor qiladi yoki vaqlincha to'xtatadi, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va sinov laboratoriya\markazlarini akkreditlangani haqida guvohnomani bekor qiladi;

– sertifikatlashtirish va akkreditlash natijalari bo'yicha appellatsiya-larni ko'rib chiqadi;

– O'zSMT Davlat reyestri asosida sertifikatlashtirish bo'yicha ma'lumotlarni chop etadi va manfaatdor tomonlarning undan bimalol foydalanishlarini ta'minlaydi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun Sertifikatlashtirish milliy idorası (SMI) ilmiy-tadqiqot, tekshirish, ilmiy-texnik, jamoat tashkilotlarni, iste'molchilar jamiyatlarini jalg etadi. O'zbekiston Respublikasi hududida SMI vazifalarini va vakolatiarini "O'zstandart" agentligi, Sinov va sertifikatlashtirish bo'yicha hududiy markazlarga (SSM) bergen taqdirdagina ular bajarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida sertifikatlashtirish milliy idorasining ayrim vazifalarini hududiy Sinov va sertifikatlashtirish niarkazlari (SSM) "O'zstandart" agentligi vakilligida uning vakolati bilan bajarishi mumkin. "O'zstandart" agentligi qisman o'zining vazifalarini bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha markaziy idora yoki bosh uslubiy markazni vakil qilish huquqiga ega.

**SSM** quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– sertifikatlashtirish qoidalari to'g'risida mahsulot va xizmat ta'minotchilari va bajaruvchilarni rasman xabardor qiladi;

– sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora, bosh uslubiy markaz (BUM)lar bilan bir turdag'i mahsulotlar doirasida sertifikatlashtirish tartiblari bo'yicha o'zaro faoliyat yuritadi;

– o'zi tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar inspeksiya nazoratini amalga oshiradi;

– hududda sertifikatlashtirilgan mahsulotlar reyestri yuritadi.

– hududiy Standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi (SMB) majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rivoja etish bo'yicha davlat tekshiruv\nazoratini amalga oshiradi;

- O'zstandart agentligi topshirig'i bo'yicha hududiy sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriya\markazlarini akkreditlashtirish bo'yicha komissiya tashkil qiladi, ularning faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining ilmiy-uslubiy markazi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (SMSITI) hisoblanadi.

**SMSITI vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va yuritish;

- akkreditlash bo'yicha komissiya, mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinash va qiyoslash laboratoriya\markazlar faoliyatlarini inspeksiya nazoratida ishtirok etish;

- sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassislar va sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni attestatlash bo'yicha komissiyalarda ishtirok etish;

-- sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassislarni va ekspert-auditorlarni sertifikatlashtirish idoralarida, sinov va ijtimoiy laboratoriya\markazlarda ishlash uchun o'qitish va tayyorlash;

-- tashkilotlarga bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini va sifatini ta'minlash tizimlarini ishlab chiqishda uslubiy yordam ko'rsatish;

- uslubiy tavsifagi ma'lumotlarni ishlab chiqish va nashr qilish;

- yuqorida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha maslahatlar berish kabi vazifalarni bajaradi.

Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini yuritish uchun sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralaridan biriga, ya'ni bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirishda asosiy bo'lgan sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idoraga, uslubiy markazlardan biriga o'zining vakolatini soha doirasidagi idoralarga vaqtincha yuklaydi. Uslubiy markazlar sifatida ilmiy-tadqiqot, loyiha-tehnologik institutlari va ilmiy-texnik markazlar hamda turli mulkchislik shaklidagi tashkilotlar kirishi mumkin.

Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimida bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha **uslubiy markazlar** yoki markaziy idoralar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha tashkiliy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi;

-- standartlashtirish be'yicha bazaviy tashkilotlar va texnik komissiyalar bilan hamkorlikda mahsulotlarni sertifikatlashtirishga me'yoriy hujjatlar fondini shakllantiradi va yurgizadi;

- shartnomma asosida bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi qatnashuvchilarni me'yoriy va tashkiliy-uslubiy hujjatlar bilan ta'minlaydi;
- nazorat va sinov\tekshiruv usullarini aniqlaydi;
- sertifikatlangan mahsulot inspeksiya nazorati, ishlab chiqarishni baholash uchen usullar va dasturlarni ishlab chiqadi.

Bir turdag'i mahsulotlarni **sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar** quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- muayyan turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini ishlab chiqadi;
- bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish (BMS) tizimida sertifikatlashtirilishi kerak bo'lgan muayyan turdag'i mahsulotlarni aniqlashda ishtiroy etish;
- muayyan turdag'i mahsulotni sertifikatlashtirish o'tkaziladigan me'yoriy hujjatlar fondini aniqlash va yuritish;
- sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o'tkazish;
- muvofiqlik sertifikatini rasmiy lashtirish, berish va tan otish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning reyestrini yuritish;
- berilgan mahsulotni sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot berish;
- o'rnatilgan tartibdagi me'yoriy hujjatlar asosida sertifikatlashtirish ishlarining mehnat sarfi va qiymatining hisob-kitob me'yorlarini aniqlash;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalarini bajaruvchi va uning talablariga javob beruvchi mulkchilik shaklidan qat'i nazar akkreditlangan idoralar sertifikatlashtirish idorasini bo'lishi mumkin.

*Akkreditlangan sinov laboratoriyalmarkazlari* quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha sinovlarni o'tkazish va sinov dalolatnomalarini berish;
- sertifikatlashtirish tartibida nazarda tutilgan bo'lsa, sertifikatlashtirilgan mahsulot namunalarini, tekshiruv\sinovdan o'tkazish;
- sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirishda sinovlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun ishtiroy etish.

– Sinov laboratoriyalmarkazlari sifatida "O'zstandart" agentligi va uning hududiy idoralarining laboratoriyalari, ilmiy-tekshirish va konstrukturlik tashkilotlarning sinov markazlari, boshqa laboratoriyalar va ixtiyoriy mulkchilik shaklidagi markazlar akkreditlanishi mumkin.

*Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar* quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- sifat tizimlarining dastlabki baholashini o'tkazadi va sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun shartnomalar tuzadi;
- ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish uslubiyatlarini va sifat tizimlarini tekshirish dasturlarini ishlab chiqadi;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarishning auditini o'tkazadi;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarish sertifikatlarini rasmiylashtiradi, sertifikatni beradi yoki tan oladi;
- sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshiradi;
- sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot beradi.

Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida tashkilotlardan, SMT jeriy qilayotgan maslahat beruvchi firmalardan va sertifikatlashtirish natijasiga qiziquvchi boshqa tashkilot hamda shaxslardan mustaqil O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi subyektlari akkreditlanadi.

*Xodimlarni sertifikatlashtirish* bo'yicha akkreditlangan idoralar quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun shartnoma tuzadi va arizalar tahlilini o'tkazadi;
- xodimlarni sertifikatlashtirish usullarini ishlab chiqadi;
- xodimlar layoqatini baholash maqsadida testlarni o'tkazadi;
- layoqatlik sertifikatini rasmiylashtiradi, topshiradi yoki tan oladi;
- sertifikatlashtirilgan xodimlarning inspeksiya nazoratini amalga oshiradi;
- sertifikatlashtirish natijalari to'g'risida ma'lumot beradi.

Sertifikatlashtirishga ariza beruvchi, ta'lim oluvchi xodim, tashkilotidan hamda xodim xizmati iste'molchilaridan mustaqil bo'lgan idoralar xodimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha idora sifatida akkreditlanadi.

*Nazorat idoralarini* quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- sertifikatlashtirilgan mahsulot va sertifikatlashtirish qoidalariga riyoq qilish ustidan nazorat o'tkazish;
- sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va sinov laboratoriya\markazlari faoliyatlarini milliy akkreditlashtirish idorasi topshirig'i bo'yicha nazorat o'tkazish;
- buyurtmachilarining buyurtmalariga muvofiq obyektlarni tahlil qilish va baholash hamda to'g'rilovchi tadbirlarini nazorat qilish;
- nazorat natijalari bo'yicha appellatsiyalarni ko'rib chiqish.

Bunday idoralar sifatida "O'zstandart" agentligining maxsus vakolatiga ega bo'lgan tashkilotlari, boshqarishning boshqa davlat

idoralari, shuningdek, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarning bo'limlari va O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy idorasi tajablariga javob beruvchi boshqa tashkilotlar akkreditilanishi mumkin.

### *Ekspert-auditorlarning vazifaları quyidagilardan:*

- sertifikatlashtirish bo'yicha (arizalar tahlili, qatorlar qabul qilish, namunalarni tanlab olish va identifikasiyalash, ishlab chiqarishni nazorat qilish va b.) ishlarni bajarish;
- muvofiqlik to'g'risida deklaratsiyani qabul qilish uchun asos qilib olingan, belgilangan, isbotlangan hujjatlarni tekshirish;
- sinov bayonnomalarining xolisonaligini ta'minlash uchun mahsulot sinovida qatnashish.

**Mahsulot tayyorlovchi** bir turdag'i mahsulotni sertifikatlashtirish idorasi bilan shartnoma asosida va ular bilan o'zaro muvofiqlikda faoliyat olib boradi:

- sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun zaruriy hujjatlarni va mahsulotni taqdim qilish hamda sertifikatlashtirishni o'tkazishga talabnoma jo'natadi;
- O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi rahbariy hujjatlariga muvofiq sisfat menejmenti tizimini yoki ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishga tayyorlaydi;
- me'yoriy hujjatlar tajablariga ishlatalayotgan mahsulot muvofiqligini ta'minlaydi, ya'ni u muvofiqlikka sertifikatlashtirilgan bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida o'matilgan qoidalar tartibida sertifikatlangan mahsulotga muvofiqlik belgisini tamg'alaydi;
- O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalari va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan, muvofiqlik belgisi va sertifikatini qo'llaydi;
- nazorat idoralari va sertifikatlashtirish idoralari mansabdor shaxslari inspeksiya tekshiruv/nazoratini o'tkazishi uchun sharoitlarni ta'minlaydi;
- texnikaviy hujjatlarga va sertifikatlangan mahsulotni ishlab chiqarish texnologik jarayonlariga tuzatishlar, o'zgartirishlar kiritadi. Agarda bu o'zgarishlar sertifikatlashtirishda tekshirish tavsiflariga ta'sir qilsa, bular haqida sertifikatlashtirish idorasiga xabar beradi;
- sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarga to'lovlarni amalga oshiradi;
- muvofiqlik sertifikatini amal qilish muddati tugasa, sertifikatni amal qilish muddatini te'xtatish yoki bekor qilinsa, majburiy sertifikatlashtirishda turuvchi mahsulot sotishdan to'xtatiladi va chek qo'yiladi.

**Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish** tizimi (BMS tizimi) O'zRSMTda o'rnatilgan hamda sertifikatlashtirish milliy idorasi yoki

arizachi takliflarini hisobga olib, sertifikatlashtirish idorasi aniqlagan boshqa omillarning mavjudligi va sertifikatlashtirish umumiy tartiblarini aniqlashtirish uchun yaratiladi. Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimiga umumiy molik bo'lgan o'xshash konspektiv-tehnologik fikrlar, yagona asosiy nomenklatura ko'rsatkichlari va ularni sinov uslubiyatlarini qo'llanishi bo'yicha mahsulot turlari aloqador bo'ladi.

Muayyan bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini amalga oshirish zarurati yuzaga kelganda sertifikatlashtirish idorasi, arizachining asoslangan takliflari yoki xususiy qaroriga asosan sertifikatlashtirish milliy idorasi aniqlaydi. BMS tizimida sertifikatlashtirishni o'tkazish tartib va qoidalarini O'zRSMTda belgilangan.

Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi O'zbekiston Respublikasi ichida va uning hududlarida, barcha qatnashuvchilar (sertifikatlashtirish idorasi, sinov laboratoriysi, arizachi va iste'molchilar) uchun ochiq-oydin ma'lumotlar hisoblanadi. Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi tarmoq, tarmoqlararo, respublika, hududiy va xalqaro darajalarda tashkil qilinishi mumkin. Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini hosil qilish sertifikatlashtirish milliy idorasi qarori bilan rasmiylashtiriladi. Yaratilgan bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida ro'yxatga olinishi, hujjatlari rasmiylashtirilishi va tasdiqlanishi lozim.

Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish (BTM) tizimi hujjatlari quyidagi larni belgilaydi:

- tizim yaxlit ishlab turishini ta'minlash bo'yicha bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatashtirish tizimi qatnashchilariga topshiriq va vazifalarni;
- ushbu tizimda sertifikatlashtirilayotgan mahsulot turlari ro'yxatini;
- sertifikatlanayotgan mahsulot va sinov usullariga me'yoriy hujjatiarni;
- ushbu tizimda qabul qilingan sertifikatlashtirish sxemalarini;
- sinash uchun namunani tanlash va identifikasiyalashni;
- muvofiqlik belgisini qo'llash va sertifikatlangan mahsulotga inuvofiqlik belgisini tamg'alash qoidalarini;
- muvofiqlik sertifikati va sinov natijalarini tan olish qoidalarini;
- sertifikatlangan mahsulot ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish va inuvofiqlik belgisini qo'yish tartibini;
- appellatsiyani ko'rib chiqish tartibini;

– sertifikatlashtirish milliy iderasi va bir turdag'i mahsulotni sertifikatlashtirishda qatnashuvchi boshqa davlat boshqaruv idoralari bilan o'zaro faoliyat tartibi.

Inspeksiya nazorati faoliyatini "O'zstandart" agentiligi akkreditiash-tirish qoidalariga muvofiq bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimida akkreditulangan tashkilotlar amalga oshiradi.

**Sertifikatlashtirish milliy tizimida xalqaro hamkorlik.** O'zbekiston Respublikasi sinov va sertifikatlashtirish sohasida O'zbekiston Respublikasi bilan MDH davlatlari hamda boshqa xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, tuzilgan kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.


Xalqaro hamkorlikning asosiy masalalari sinov va sertifikatlashtirish sohasida xalqaro savdoda texnik to'siqlarni barтарaf qilish, mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish. O'zbekiston Respublikasida inson sog'lig'iga, hayot, fuqarolar mol-mulkiga va atrof-muhit uchun xavfli mahsulotlar importiga chek qo'yish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi MDH doirasida sertifikatlashtirish milliy idorasini orqali, sinov va sertifikatlashtirish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan ikkitomonli va ko'ptomonli yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro faoliyatni amalga oshiradi.

### **15.3. Sertifikatlashtirishni amalga oshirishning umumiy bosqichlari**

Sertifikatlash milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish ishlari arizachi tomonidan tanlangan sxema bo'yicha aniqlangan tizim doirasida olib boriladi. Sertifikatlashtirish tartibi va uning o'matilgan qoidalari mavjud bo'lib, sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlarini sertifikatlashtirish obyekti va turlariga bog'liq bo'lgagan o'zgarmas jarayon deb hisoblash mumkin. Odatda, qabul qilingan va sertifikatlashtirish jarayonining umumiy sxemasi 15.2-rasmda keltirilgan. Buni quyidagi 5 asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

1. Sertifikatlashtirishga ariza.
2. Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish.
3. Serifikatlashtirish obyektini o'matilgan talablarga muvofiqligini baholash.
4. Muvofiqlikni baholash natijalarining tahlili va uni rasmiylashtirish.
5. Sertifikatlashtirish obyekti ustidan inspeksiya nazorati.



15 2-rasm. Sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari.

#### 15.4. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi

Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun 2005-yil 18-martda Adliya vazirligida №1458-raqam bilan ro'yxatga olingan **Mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari** o'rnatilgan. Bu qoida majburiy va xixiyoriy sertifikatlashtirishni tashkillashtiradi va o'tkazishda qo'llaniladi. U O'zbekiston va xorijda yaratilgan sertifikatlashtirishning barcha obyektlariga qo'llaniladi.

O'zbek setrifikati va muvofiglik belgisining xorijda tan olinishi imkoniyatini ta'minlash uchun ISO/IEC qo'llanmasida keltirilgan xalqaro me'yorlar va qoidalarga, ISO xalqaro standartlari, Yevropa standartlari,

boshqa xalqaro va hududiy tashkilotlarning hujjalariiga muvosiq sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun ularga muvosiq tuzilgan.

Mahalliy va import mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlash-tirish idoralari yoki ular mavjud bo'lmaganda sertifikatlashtirish milliy idorasini amalga oshiradi. Sertifikatni berish bo'yicha barcha ishlar, shu bilan birga, arizani ko'rib chiqish, ishlab chiqarishni tekshirish, inspeksiya nazorati, hujjalarni ro'yxatga olish va zaruriy materiallarni tarjima qilishlarga arizachi o'matilgan tartibda to'lovlarni amalga oshiradi. Sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibini sertifikatlashtirish jarayonlarida tarkib topgan ketma-ket faoliyatlar majmui o'rnatadi. Bu tartib va bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish sxemalari akkreditlangan sertifikatlashtirish idora'larning hujjalarda belgilangan. Idoralarda, shuningdek, sinovni o'tkazish uchun laboratoriyalarda sertifikatlanayotgan mahsulot va sinov usuillariga hujjalar mavjud bo'ladi. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiboti sxemasi 15.3-rasmida keltirilgan.

### *15.3-rasmiga izohlar:*

*1. Ariza beruvchi zarur hollarda gigiyenik xulosa olish uchun hududiy sanitariya nazorati idorasiga zarur hujjalarni ilova qilgan holda ariza beradi.*

*Hududiy davlat sanitariya nazorati idorasiga belgilangan tartibda joyiga bidora holda laboratoriya sinovlari o'tkazish uchun mahsulottlardan namuna oladi va obyektni tekshiradi.*

*1a. Chorva mahsulotlari uchun hududiy sanitariya nazorati idorasini ariza beruvchidan hujjalar olingan kundan keyingi kechikmasdan tuman (shahar) veterinariya xizmati idorasiga buyurtmanoma jo'natadi.*

*1b. Veterinariya xizmati idorasi uch kun muddatda hududiy sanitariya nazorati idorasiga veterinariya xulosasini yoki xulosa berishni rad etishga sabab bo'lgan aniq qonun hujjalari normalarini ko'rsatgan holda yozma javob yuboradi.*

*Veterinariya xizmati idorasi 20 kungacha izolyasiyalash-cheklash (karantin) choralarini belgilash huquqiga ega. Bunda veterinariya xulosasini berish tartiboti karantin muddati tugagunga qadar to'xtatil turiladi.*

*Iv. O'simlik mahsulotlari uchun hududiy sanitariya idorasi ariza beruvchidan hujjalar olingan vakining keyingi kunidan kechikmasdan tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat xizmati idorasiga buyurtmanoma jo'natadi.*

*Ig. O'simliklar karantini davlat xizmati idorasi ikki kun muddatda fitosanitariya xulosasi yoki salbiy xulosa beradi.*


*2. Laboratoriya sinovlari, shuningdek, veterinariya hamda*

*jitosanitariya xulosalaridan ijobiylar natija olinganda, hududiy sanitariya nazorati idorasi ariza beruvchiga gigiyenik xulosa beradi.*

3.4. Ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra, tashkilot va istiblab chiqaradigan mahsulotni shtrixli kodda foydalaniladigan tovar kodini olish uchun "GS1 Uzbekistan" ("EAN Uzbekistan")ga murojaat qilishi mumkin.

5. Ariza beruvchi muvofiglik sertifikati olish uchun sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan idoraga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi. (Ariza gigiyenik xulosa olish uchun beriladigan ariza bilan bir vaqtida berilishi mumkin)

6. Sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan idora 15 ish kunidan ortiq bo'limgan muddatda muvofiglik sertifikati yoki aniq qonun hujjatlari normalarini ko'rsatgan holda yozma rad javobini beradi.



15.3-rasm. Mahsulotlarni sertifikatlashirish tartiboti sxemasi.

Gigiyenik va veterinariya ekspertizasi, karantin nazorati yoki ekologik sertifikatlashirishning o'tkazilishi va, zarurat bo'lganda, arizada ko'rsa-

tilgan mahsulotning me'yoriy hujjatlari gigiyenik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologiya talablariga muvofiq mavjudligini sertifikatlashtirish idorasi aniqlaydi. Bu tekshirish muvofiqlikni sertifikatlashtirish vaqtida sertifikatlashtirish idorasining sertifikatni berish to'g'risidagi qarorining nusxasi hamda arizachi taqdim qilgan hujjatlarga muvofiq, nazorat idorasi ruxsat bilan parallel olib borilishi mumkin.

Arizachi gigiyenik sertifikatni olish bo'yicha arizani sanitat nazorat idorasiga berish vaqtida veterinariya xulosasi hamda, zarur bo'lganda, MH talablari bo'yicha fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarini olishni tashkillashtirish lozim.

Sertifikatlashtirish idorasi gigiyenik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarni olish uchun tashkilotlar bilan muvofiq o'zaro faoliyat bo'yicha agentlik xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ham ega. Bunda sertifikatlashtirish idorasi bu xizmatlarga tariflar to'g'risidagi ma'lumotlarni arizachga taqdim qilishi va davlat idoralariga muvofiq namunani tarqatish va tanlab olish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Sertifikatlashtirish idorasi arizachiga ularning talablari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni taqdim qiladi:

- majburiy sertifikatlashtirishdagi mahsulot turlari ro'yxatini;
- bir turdag'i mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalarini;
- sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarga preyskurant yeki ta'tisflarni;
- tanishish uchun akkreditatsiya guvohnomasini

#### **Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi quyidagi ketma-ketlikdan iborat:**

**1) Sertifikatlashtirishga arizani rasmiylashtirish.** O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun mahalliy yoki xorijiy arizachi bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasiga sertifikatlashtirish bo'yicha arizani jo'natadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot me'yoriy hujjatining nusxasini;
- mahsulotni tamg'alash namunasini (mahsulot haqida ma'lumot);
- gigiyenik sertifikat nusxasi (mavjud bo'lsa), davlat sanitariya nazorati idorasi daboratoriyasining sinov natijalari va MHda (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik sertifikatlar) o'rnatilgan boshqa talablar to'g'risida tarkib topgan ma'lumotlar.

Agarda arizachi bir vaqtning o'zida muvofiqlik sertifikati va gigiyenik sertifikatlarni olish uchun ariza bergen bo'lsa, bu holda gigiyenik sertifikatning nusxasini rasmiylashtirishdan so'ng uni o'rnatilgan tartibda taqdim etadi.

Olib kelinayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirishda yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari, arizachi O'zbekiston Respublikasi hududi bojxonasiga kelganligi (tovar-transport nakladnoyi, hisob-faktura, invoys) to'g'risida mahsulot ilovasi hujjatlari nusxalarini taqdim qiladi.

Arizani berish paytida sertifikatlashtirish idorasi bo'lmasa, ariza sertifikatlashtirish milliy idorasiga jo'natiladi. Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi bir nechta bo'lganda, arizachi ulardan xohlaganiga ariza berish huquqiga ega.

Arizachida bunday idoralar va sertifikatlashtirish tartibi haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa, uni sertifikatlashtirish milliy idorasi yoki SSMdan olishi mumkin.

Sertifikatlashtirish idorasi 2 kundan ko'p bo'lmagan vaqtida arizani ko'rib chiqadi va taqdim qilingan hujjatlar tahlilini o'tkazadi. Sertifikatlashtirishning barcha asosiy shartlari bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibida o'rnatilgan asoslar, shuningdek, sertifikatlashtirish sxemasi va sertifikatlashtirishni o'tkazishga muvosiqlik uchun zaruriy me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi qaror haqida arizachiga xabar qiladi.

Qarorda sinovni o'tkazishda akkreditlangan sinov laboratoriyasi va sifat menejmenti tizimi yoki ishlab chiqarishni (agar bu sertifikatlashtirish sxemasiда ko'rilsa bo'lsa) kim tomonidan sertifikatlashtirilishi ko'rsatiladi.

Qarorda gigiyenik sertifikat, veterinariya xulosasi, fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarni olish zarurligi ham ko'rsatiladi.

Mahsulotni sertifikatlashtirishni o'tkazish muddati mahsulot me'yoriy hujjatlarida o'rnatilgan sinov muddati va sinov usullariga bog'liq bo'ladi. ammo bir oydan ko'p bo'lmaydi.

**2) Sertifikatlashtirish sxemalarini** har bir muayyan holatda arizachi taklifi, hajmi va yetkazish muddatlari, sinov usullari, ishlab chiqarish xususiyatlari va uning barqarorligi hamda iste'molchilar uchun ushbu mahsulotning xavfli ekanini hisobga olib, sertifikatlashtirish idorasini taniyadi. Sertifikatlashtirish sxemalarining qo'llanilishi keyingi (16.1-) bo'limda keltirilgan.

**3) Me'yoriy hujjatni tanlash.** Majburiy sertifikatlashtirishda muayyan malisulotga **me'yoriy hujjatlar** qo'llaniladi. Bundan tashqari, mahsulotga o'rnatilgan majburiy talablar, boshqa rasmiy nashr qilingan MH, sinov usullari standartlari, texnik reglamentlar, qonuniy aktlardan foydalaniлади.

Odatda, sertifikatlashtirilayotgan mahsulotga MHiarda tavsiflar ro'y-xati. Majburiy sertifikatlashtirishda turgan tekshirish, sertifikatlashtirish sinovini o'tkazish tartibi va hajmi hamda, zarurat bo'lganda, gigiyena, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablardan tarkib topgan bo'ladi.

tilgan mahsulotning me'yoriy hujjatlari gigiyenik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologiya talablariga muvofiq mavjudligini sertifikatlashtirish idorasi aniqlaydi. Bu tekshirish muvofiqlikni sertifikatlashtirish vaqtida sertifikatlashtirish idorasining sertifikatni berish to'g'risidagi qarorining nusxasi hamda arizachi taqdim qilgan hujjatlarga muvofiq, nazorat idorasi ruxsati bilan parallel olib borilishi mumkin.

Arizachi gigiyenik sertifikatni olish bo'yicha arizani sanitariya nazorat idorasiga berish vaqtida veterinariya xulosasi hamda, zarur bo'lganda, MH talablari bo'yicha fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarini olishni tashkillashtirish lozim.

Sertifikatlashtirish idorasi gigiyenik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarni olish uchun tashkilotlar bilan muvofiq o'zaro faoliyat bo'yicha agentlik xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ham ega. Bunda sertifikatlashtirish idorasi bu xizmatlarga tariflar to'g'risidagi ma'lumotlarni arizachga taqdim qilishi va davlat idoralariga muvofiq namunani tarqatish va tanlab olish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Sertifikatlashtirish idorasi arizachiga ularning talablari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni taqdim qiladi:

- majburiy sertifikatlashtirishdagi mahsulot turlari ro'yxatini;
- bir turdag'i mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalarini;
- sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarga preyskurator yoki ta'riflarni;
- tanishish uchun akkreditatsiya guvohnomasini

**Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi quyidagi ketma-ketlikdan iborat:**

**1) Sertifikatlashtirishga arizani rasmiylashtirish.** O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun mahalliy yoki xorijiy arizachi bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasiga sertifikatlashtirish bo'yicha arizani jo'natadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot me'yoriy hujjatining nusxasini;
- mahsulotni tanig'alash namunasini (mahsulot haqida ma'lumot);
- gigiyenik sertifikat nusxasi (mavjud bo'lsa), davlat sanitariya nazorati idorasi daboratoriyasining sinov natijalari va MHda (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik sertifikatlar) o'matilgan boshqa talablar to'g'risida tarkib topgan ma'lumotlar.

Agarda arizachi bir vaqtning o'zida muvofiqlik sertifikati va gigiyenik sertifikatlarni olish uchun ariza bergan bo'lsa, bu holda gigiyenik sertifikatning nusxasini rasmiylashtirishdan so'ng uni o'rnatilgan tartibda taqdim etadi.

Olib kelinayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirishda yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari, arizachi O'zbekiston Respublikasi hududi bojxonasiga kelganligi (tovar-transport nakladnoyi, hisob-fakturna, invoys) to'g'risida mahsulot ilovasi hujjatlari nusxalarini taqdirm qiladi.

Arizani berish paytida sertifikatlashtirish idorasi bo'lmasa, ariza sertifikatlashtirish milliy idorasiga jo'natiladi. Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi bir nechta bo'lganda, arizachi ulardan xohlaganiga ariza berish huquqiga ega.

Arizachida bunday idoralar va sertifikatlashtirish tartibi haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa, uni sertifikatlashtirish milliy idorasi yoki SSMdan olishi mumkin.

Sertifikatlashtirish idorasi 2 kundan ko'p bo'lmagan vaqtida arizani ko'rib chiqadi va taqdim qilingan hujjatlar tahlilini o'tkazadi. Sertifikatlashtirishning barcha asosiy shartlari bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibida o'matilgan asoslar, shuningdek, sertifikatlashtirish sxemasi va sertifikatlashtirishni o'tkazishga muvofiqlik uchun zaruriy me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi qaror haqida arizachiga xabar qiladi.

Qarorda sinovni o'tkazishda akkreditlangan sinov laboratoriysi va sifat menejmenti tizimi yoki ishlab chiqarishni (agar bu sertifikatlashtirish sxemasida ko'rilgan bo'lsa) kim tomonidan sertifikatlashtirilishi ko'rsatiladi.

Qarorda gigiyenik sertifikat, veterinariya xulosasi, fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarni olish zarurligi ham ko'rsatiladi.

Mahsulotni sertifikatlashtirishni o'tkazish muddati mahsulot me'yoriy hujjatlarida o'matilgan sinov muddati va sinov usullariga bog'liq bo'ladi, ammo bir oydan ko'p bo'lmaydi.

**2) Sertifikatlashtirish sxemalarini** har bir muayyan holatda arizachi taklifi, hajmi va yetkazish muddatlari, sinov usullari, ishlab chiqarish xususiyatlari va uning barqarorligi hamda iste'molchilar uchun ushbu mahsulotning xavfli ekanini hisobga olib, sertifikatlashtirish idorasini tanlaydi. Sertifikatlashtirish sxemalarining qo'llanilishi keyingi (16.1-) bo'limda keltirilgan.

**3) Me'yoriy hujjatni tanlash.** Majburiy sertifikatlashtirishda muayyan malisulotga *me'yoriy hujjatlar* qo'llaniladi. Bundan tashqari, mahsulotga o'rnatilgan majburiy talablar, boshqa rasmiy nashr qilingan MH, sinov usullari standartlari, texnik reglamentlar, qonuniy aktlardan foydalananiladi.

Odatda, sertifikatlashtirilayotgan mahsulotga MHiarda tavsiflar ro'y-xati, inajburiy sertifikatlashtirishda turgan tekshirish, sertifikatlashtirish sinovini o'tkazish tartibi va hajmi hamda, zarurat bo'lganda, gigiyena, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablardan tarkib topgan bo'ladi.

Agar MHda sertifikatlashtirish sinovi haqida bo'lim bo'limasa yoki davlatlararo standartlar qo'llanilsa, ya'ni bu standartdag'i barcha talablar majburiy deb yozilgan bo'ssa, unda sertifikatashtirish idorasi MHda ko'rsatilgan barcha kompleks tavsiflardan, xavfsizlik bo'yicha talablarni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tanlab oladi.

Agarda arizachi mahsulotning MiHini taqdim qilmasa, sertifikatlashtirish idorasi mavjud mahsulot turi analogi MH fondidan sertifikatlashtirish uchun foydalananadi. Bunda arizada ko'rsatilgan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari va mavjud texnik hujjatini hisobga olib, qo'shimcha sinov dasturi ishlab chiqiladi.

Eksport qilinayotgan mahsulot xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan standartlar yoki buyurtmachi arizachi tashkilot o'zaro kontraktda kelishuvlarni hisobga olib, import qiluvchi davlat MH bo'yicha sertifikatlashtiriladi.

Xalqaro tizim doirasida sertifikatlashtirishda, bu tizimda qabul qilingan xalqaro standart talabiariga mahsulot muvofiqligi tasdiqlanadi.

Sertifikatlashtirishda MiHning barcha talablariga tekshirish zarur bo'lganda sertifikatlashtirish idorasi unga qo'shimcha hujjatlar (sifat tizimi yoki ishlab chiqarish sertifikati, layoqatli tashkilot sinov bayonnomalari, gigiyena, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya sertifikatxulosalari, ta'minotchining texnikaviy hujjatlari va h.) mavjudligini hisobga olib, muayyan holatlarni aniqlaydi.

Bunda gigiyenik sertifikatlarni Slga berganda, davlat sanitariya nazorati idorasiga sinov bayonnomalari nusxasi ilova qilinishi lozim.

Agar qo'shimcha hujjatlarda ASL muayyan ko'rsatkichlari bo'yicha sinov natijalaridan tarkib topsa, unda SI bu natjalarni muvofiqlikni baholash uchun qo'shimcha sinovlarsiz foydalanishi mumkin. Bunda bo'lib o'tgan sinov muddati hisobga olinadi. Bunda u mahsulotning MH bo'yicha yaroqlilik muddatidan oshmasligi lozim.

**4) Namunani identifikatsiyalash, tanlab olish, tamg'alash va plombalashni** sertifikatlashtirish idorasi yoki sinov laboratoriysi arizachi ishtirokida amalga oshirib, bunda namunani sinash joyiga yetkazish ta'minlanadi.

Sertifikatlashtirish uchun sinov iste'molchilarga yetkaziladigan mahsulotga aynan o'xshash bo'lishi, ya'ni ishlab chiqarish texnologiyasi va tarkibi, konstruksiysi, seriyali mahsulotdan yoki partiyadan tanlab olingan namuna bo'yicha o'tkaziladi.

Namunalar miqdori, tanlab olish tartibi, saqlash va identifikatsiyalash qoidalari sertifikatlanayotgan mahsulot va sinov usullari me'yoriy hujjatlarida belgilanadi.

Respublikaga olib kelinayotgan mahsulot partiyasidan tanlab olishni sertifikatlashtirish milliy idorasi o'rnatgan, akkreditlangan idoralar va laboratoriyalarda, sinash uchun olib kelinayotgan mahsulotdan tanlab olish me'yori chegaralariga rioya qilinishi zarur. Arizachi zarurat bo'lganda namunalar ma'lumotlari bo'yicha texnikaviy hujjatlarni taqdim qiladi. Bunda namuna tanlab olish dalolatnomasi 2 nusxada tuzilib, ulardan biri arizachiga topshiriladi.

Import qilinayotgan bojxona ta'minotida bo'lishi kerak bo'lgan mahsulotdan namunalar tanlab olishni, bojxona iderasi ruxsati bilan bojxona inspektori va tovar egasi yoki uning vakili ishtirokida sertifikatlashtirish bo'yicha idora vakillari o'tkazadilar. Namuna tanlab olish dalolatnomasi uch nusxada bo'lib, ulardan ikkinchisi bojxona idorasiga topshiriladi.

**5) Sertifikatlashtirish sinovi** ushbu mahsulotni sertifikatlashtirishda foydaianiladigan me'yoriy hujjatlarda ko'rilgan va bu sinovni o'tkazish huquqi bo'lgan akkreditlangan sinov laboratoriyalarda o'tkaziladi. Sertifikatlashtirish vaqtida akkreditlangan sinov laboratoriylari bo'lmasa, sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora sinovni o'tkazish joyini, sharti va tartibini va uning natijalarini xolisonaligini ta'minlashni aniqlaydi.

Arizachi sertifikatlashtirish idorasiga ishlab chiqarishga mahsulotni yetkazish va ishlab chiqishda o'tkazilgan sinov bayonnomasi (uni amal qilish muddatini hisobga olib) yoki O'zbekiston Respublikasi SMTda akkreditlangan/tan olingen mahalliy yoki xalqaro sinov laboratoriylari bajargan sinov haqida hujjatlarni ham taqdim qilishi mumkin.

Buyurtmachining iltimosi bo'yicha uning vakiliga sinov shartlari va laboratoriya bilan tanishish imkoniyati beriladi. Arizachi o'zining mahsulotini sinashda qatnashish huquqiga ega. Bunda laboratoriyyada sinov me'yoriy shartlari saqlanishi va maxfiylikni ta'minlash bo'yicha choralar qabul qilingan bo'lishi lozim. Namunalar sinovi ishonchliligi, sifati va saqlash uchun mustaqil va texnik layoqatligiga akkreditlangan sinov laboratoriysi mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Sinov bayonnomalarini vakolatga ega mutaxassis imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Mustaqil laboratoriya bo'limaganda, sertifikatlashtirish idorasasi vakili nazorati ostida faqat texnik layoqatligiga akkreditlangan sinov laboratoriyasida sertifikatlashtirish maqsadida sinovni o'tkazishga ruxsat etiladi. Bunday sinovni uni o'tkazishga topshiriq beruvchi sertifikatlashtirish idorasasi bilan bir qatorda, bajaruvchi sinov laboratoriysi xolisonaligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Sinov bayonnomalariga bunday hoiatlarda, sertifikatlashtirish idorasining ekspert-auditorii ham imzo chekadi.

Agar MHda sertifikatlashtirish sinovi haqida bo'lim bo'lmasa yoki davlatlararo standartlar qo'llanilsa, ya'ni bu standartdag'i barcha talablar majburiy deb yozilgan bo'lsa, unda sertifikatashtirish idorasi MHda ko'rsatilgan barcha kompleks tavsiflardan, xavfsizlik bo'yicha talablarni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tanlab oladi.

Agarda arizachi mahsulotning Mi'mini taqdim qilmasa, sertifikatlashtirish idorasi mavjud mahsulot turi analogi MH fondidan sertifikatlashtirish uchun foydalanadi. Bunda arizada ko'rsatilgan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari va mavjud texnik hujjatini hisobga olib, qo'shimcha sinov dasturi ishlab chiqiladi.

Eksport qilinayotgan mahsulot xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan standartlar yoki buyurtmachilarizachi tashkilot o'zaro kontraktda kelishuvlarni hisobga olib, import qiluvchi davlat MH bo'yicha sertifikatlashtinladi.

Xalqaro tizim doirasida sertifikatlashtirishda, bu tizimda qabul qilingan xalqaro standart talabiariga mahsulot muvofiqligi tasdiqlanadi.

Sertifikatlashtirishda MHning barcha talablariga tekshirish zarur bo'lganda sertifikatlashtirish idorasi unga qo'shimcha hujjatlar (sifat tizimi yoki ishlab chiqarish sertifikati, layoqatlari tashkilot sinov bayonnomalar, gigiyena, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya sertifikatxulosalari, ta'minotching texnikaviy hujjatlari va h.) mavjudligini hisobga olib, muayyan holatlarni aniqlaydi.

Bunda gigiyenik sertifikatlarni Slga berganda, davlat sanitariya nazorati idorasiga sinov bayonnomalari nusxasi ilova qilinishi lozim.

Agar qo'shimcha hujjatlarda ASL muayyan ko'rsatkichlari bo'yicha sinov natijalaridan tarkib topsa, unda SI bu natijalarni muvofiqlikni baholash uchun qo'shimcha sinovlarsiz foydalanishi mumkin. Bunda bo'lib o'tgan sinov muddati hisobga olinadi. Bunda u mahsulotning MH bo'yicha yaroqlilik muddatidan oshmasligi lozim.

**4) Namunani identifikatsiyalash, tanlab olish, ta'mg'lash va plombalashni** sertifikatlashtirish idorasi yoki sinov laboratoriyasi arizachi ishtirokida amalga oshirib, bunda namunani sinash joyiga yetkazish ta'minlanadi.

Sertifikatlashtirish uchun sinov iste'molchilarga yetkaziladigan mahsulotga aynan o'xshash bo'lishi ya'ni ishlab chiqarish texnologiyasi va tarkibi, konstruksiyasi, seriyali mahsulotdan yoki partiyadan tanlab olingan namuna bo'yicha o'tkaziladi.

Namunalar miqdori, tanlab olish tartibi, saqlash va identifikatsiyalash qoidalari sertifikatlanayotgan mahsulot va sinov usullari me'yoriy hujjatlarida belgilanadi.

Respublikaga olib kelinayotgan mahsulot partiyasidan tanlab olishni sertifikatlashtirish milliy idorasi o'matgan, akkreditlangan idoralar va laboratoriyalarda, sinash uchun olib kelinayotgan mahsulotdan tanlab olish ine'yor chegaralariga rivoj qilinishi zarur. Arizachi zarurat bo'lganda namunalar ma'lumotlari bo'yicha texnikaviy hujjatlarni taqdim qiladi. Bunda namuna tanlab olish dalolatnomasi 2 nusxada tuzilib, ulardan biri arizachiga topshiriladi.

Import qilinayotgan bojaxona ta'minotida bo'lishi kerak bo'lgan mahsulotdan namunalar tanlab olishni, bojaxona idorasi ruxsati bilan bojaxona inspektori va tovar egasi yoki uning vakili ishtirokida sertifikatlashtirish bo'yicha idora vakillari o'tkazadilar. Namuna tanlab olish dalolatnomasi uch nusxada bo'lib, ulardan ikkinchisi bojaxona idorasiga topshiriladi.

**5) Sertifikatlashtirish sinovi** ushbu mahsulotni sertifikatlashtirishda foydaianiladigan me'yoriy hujjatlarda ko'rilgan va bu sinovni o'tkazish huquqi bo'lgan akkreditlangan sinov laboratoriyalarda o'tkaziladi. Sertifikatlashtirish vaqtida akkreditlangan sinov laboratoriylari bo'lmasa, sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora sinevni o'tkazish joyini, sharti va tartibini va uning natijalarini xolisonaligini ta'minlashni aniqlaydi.

Arizachi sertifikatlashtirish idorasiga ishlab chiqarishga mahsulouni yetkazish va ishlab chiqishda o'tkazilgan sinov bayonnomasi (uni amal qilish muddatini hisobga olib) yoki O'zbekiston Respublikasi SMTda akkreditlangan/tan olingan mahalliy yoki xalqaro sinov laboratoriylari bajargan sinov haqida hujjatlarni ham taqdim qilishi mumkin.

Buyurtmachining iltimosi bo'yicha uning vakiliga sinov shartlari va laboratoriya bilan tanishish imkoniyati beriladi. Arizachi o'zining mahsulotini sinashda qatnashish huquqiga ega. Bunda laboratoriyyada sinov me'yoriy shartlari saqlanishi va maxfiylikni ta'minlash bo'yicha choralar qabul qilingan bo'lishi lozim. Namunalar sinevi ishonchhligi, sifati va saqlash uchun mustaqil va texnik layoqatligiga akkreditlangan sinov laboratoriysi mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Sinov bayonnomalarini vakolatga ega mutaxassis imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Mustaqil laboratoriya bo'imaganda, sertifikatlashtirish idorasasi vakili nazorati ostida faqat texnik layoqatligiga akkreditlangan sinov laboratoriysida sertifikatlashtirish maqsadida sinovni o'tkazishga ruxsat etiladi. Bunday sinovni uni o'tkazishga topshiriq beruvchi sertifikatlashtirish idorasasi bilan bir qatorda, bajaruvchi sinov laboratoriysi xolisonaligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Sinov bayonnomalariga bunday holatlarda, sertifikatlashtirish idorasining ekspert-auditorii ham imzo chekadi.

Sinov bayonnomasi arizachi va sertifikatlashtirish idoralariga taqdim qilinadi. Bayonnomalar nusxasi sertifikat amal qilish muddatidan kam bo'Imagan muddat davomida saqlanishi kerak. Bayonnomalar nusxasining muayyan saqlanish muddati sinov laboratoriyasining hujjatlarida va bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibida o'rnatiladi.

Agar mahsulotni sinash alohida ko'rsatkichlar bo'yicha turli xil akkreditlangan sinov laboratoriylarida o'tkazilsa, unda mavjud barcha zaruriy sinov natijalari bo'yicha ijobjiy bayonnomalar bo'lsa, mahsulot muvofiqligini baholash ijobjiy deb hisoblanadi. Sinov natijalari salbiy bo'lgan holatlarda sertifikatlashtirish idorasi arizachiga sertifikat bermasligi sabablari ko'rsatilgan xulosani beradi. Sinovlar tartibi 15.5 – bo'limda batafsil tavsiflangan.

**6) Sertifikatlanayotgan mahsulotning ishlab chiqarish holatini baholash** bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibida o'rnatilgan. Kuzatuv muddati 10 kundan ko'p bo'lmasisligi lozim. Baholash natijalari bo'yicha sertifikat berish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, hisobga olinuvchi kuzatuv dalolatnemasi tuziladi. Ishlab chiqarishni tekshirish 16-bobning 16.4-bandida yanada to'laroq tavsiflangan.

Ishlab chiqarishni kuzatuvi o'tkazilganligi haqidagi dalillar, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish yoki sifat tizimini sertifikatlashtirish mahsulotning sertifikatida keltiriladi.

**7) Muvofiqlik sertifikatini berish.** Sertifikatlashtirish idorasi sinov bayonnomasini ko'rib chiqib, ishlab chiqarish holatini baholashi va ijobjiy qaror qabul qilganidan so'ng sertifikatni rasmiylashtiradi va uni davlat reyestrida ro'yxatga olib, O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida o'rnatilgan qoidalar bo'yicha arizachiga topshiradi. Muvofiqlik sertifikati faqat ro'yxatga olingan raqami mavjud bo'lganda kuchga ega. Muvofiqlik sertifikati davlat va rus tillarida rasmiylashtiriladi. Muvofiqlik sertifikati blankasining o'rnatilgan shakli ilova – Sda keltirilgan.

Muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatini sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish sinovining o'tkazilish shartlari va mahsulotning o'ziga xos xususiyatlarini hamda mahsulotning me'yoriy hujjatini amal qilish muddatini va sifat tizimi yoki ishlab chiqarish sertifikatlanganligi hisobga olib, uch yildan kam bo'Imagan muddat uchun belgilaydi.

Mahsulot partiyasi yoki donali buyumlar muvofiqlik sertifikati yaroqlilik muddatiga va bu yaroqlilik muddatidan ko'p bo'Imagan muddatda qo'llanilsa, amal qiladi.

Muvofiqlik sertifikati arizachiga ikki ish kuni davomida topshiriladi, shuningdek, SI sinov natijalarini olgan vaqtidan boshlab SI ishlab chiqarish

kuzatuvini 5 ish kun davomida o'tkazadi. Arizachi muvofiqlik sertifikating amal qilish muddati tugashigacha bir oydan kam bo'limagan vaqtida ishlab chiqarayotgan mahsulotini qayta sertifikatlashtirish maqsadida sertifikatlashtirish idorasiga ariza berish huquqiga ega. Bunda SI inspeksiya nazorati natijalarini hisobga olib, sertifikatlashtirish sxemasini o'zgartirishi mumkin.

Mahsulot konstruksiyasiga yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirish kiritishni rejalashtirishda, ya'ni sertifikatlashtirishda mahsulotning tafsiflariga ta'sir qilish mumkinligini, tayyorlovchi bu idorani xabardor qiladi, chunki sertifikat beruvchi zaruriy to'g'rilovchi chora-tadbirlar haqida qaror qabul qiladi.

**8) Muvofiqlik belgisi.** Berilgan muvofiqlik sertifikati asosida o'rnatilgan sertifikatlashtirish sxemasi tuzilgan kelishuvni hisobga olib, arizachi-litsenziya egasiga sertifikatlashtirilgan mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqi beriladi.

Seriiali mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berish vaqtida vakil namunasi sinovi natijalari, bu mahsulotga zarurat bo'lganda qadoqish, idish va ilova hujjatlari korxona-tayyorlovchining javobgarligi bilan sinalgan namuna va ishlatalayotgan mahsulot me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan talablarga muvofiqligini ta'minlab muvofiqlik belgisi bilan tamg'alaydi.

Muvofiqlik belgisini qo'llashning urnumiyligi qoidaari O'zDSt 5.8:2006 "O'zMTMT. Muvofiqlikni tasdiqlash belgisi. Qo'llash qoidalari"da o'rnatilgan. Muayyan mahsulot turi bo'yicha belgidan foydalanishga o'ziga xos talablar bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi va belgini qo'llash kelishuvida o'rnatilgan.

Belgining tasviriga talablar O'zDSt 1.19:2000 "O'zDST. Muvofiqlikni tasdiqlash belgisi. Shakli, chizilishi, asosiy o'lchanlari"da aniqlangan. Sertifikatlashtirish milliy tizimida mahsulotiarga muvofiqlik belgisi namunasi 15.4-rasmida ko'rsatilgan.

Ye 009/001



*15.4-rasm. Muvofiqlik belgisi bilan kod belgilanishi u qayd qilish misoli.*

Donali buyumlarni sertifikatlashtirishda uni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash amalga oshirilmaydi. Sifat tizimi muvofiqlik belgisini mahsulotning ilova hujjatlarida, reklama materiallariida qo'llash bo'yicha

arizachiga huquqni, sifat tizimini sertifikatlashtirish idorasi taqdim qiladi. Sifat menejmenti tizimi muvofiqlik belgisi bevosita mahsulotga qo'yilmaydi. Muvofiglik belgisi har bir sertifikatlangan mahsulotning qo'zg'almas qismiga, tayyorlovchi bu mahsulotning har birini donalab qadoqlashida tovar belgisi bilan yonma-yon tamg'alanadi.

Muvofiqlik belgisini bevosita mahsulotga qo'yish imkoniyati yo'q (masalan, gazsimon, suyuq va sochiluvchan material va moddalar), idishiga yoki qadog'iga qo'yiladi. Zarurat bo'lganda, maxsus texnik vositalar, yorliq, lentalardan foydalaniлади. Sertifikatlangan mahsulot va xizmatga arizachi va ta'minotchi muvofiqlik belgisi bilan uning kodini qo'yishi lozim. Muvofiglik belgisining kodini tushirish qo'shimcha belgi ko'rinishida, sertifikatlashtirilgan mahsulet va xizmatlar bir guruh mahsulotlariga tegishli ekanligini sertifikatlashtirish idorasi aniqlaydi.

Kodning belgilanishi quyidagicha:

### X XXX/YYY

bu yerda, X -- bir turdag'i mahsulot guruhi belgisi; XXX -- sertifikatlashtirish idorasining davlat reyestri bo'yicha akkreditlangan attestatinining tartib raqami hisoblanadi; YYY -- muvofiqlik belgisini qo'llash huquqini olgan, korxonaning tartib raqami bo'ladi.

Kod misoli 15.4-rasmida keltirilgan bo'lib, bu yerda Ye sertifikatlashtirilgan mahsulot yengil sanoat va madaniy-maishiy ishlarga mo'ljalangan tovarlariga tegishli ekanligini tavsiflaydi, 009 Buxoro SSM akkreditatsiya guvohnomasi ro'yxat raqamining oxirgi raqamlari, 001 esa bu Buxoro tekstil kombinati.

Ishlab chiqaruvchilar sertifikatlangan mahsulotlar qismini sotishda, muvofiqlik sertifikati nusxasi, sertifikatning asl nusxasini saqlovchi yoki idoraning muhri va ishontirish imzosi (yo notarial idora bo'lishi mumkin) bilan ilova qilishi mumkin. Sertifikatning asl nusxasini saqlovchi nusxa berayotganda, uni mahsulot uchun tovar jo'natish hujjatlariga muvofig ro'yxatga oladi. Har bir nusxaga uning ro'yxatga olish raqami, sotiladigan mahsulot miqdori ko'rsatiladi.

Mahsulotni muvofiqlik sertifikati amal qilish davrida ishlab chiqilgan bo'lsa, u sertifikat hisoblanadi va qayta sertifikatlashtirish zarurati bo'lmaydi. Mahsulotni sertifikatlanganligini tasdiqlashda muvofiqlik belgisi va ekspluatatsiya qilish va ilova hujjatlarini tayyorlash sanasi xizmat qiladi.

Sertifikatlashtirish idoralari **bergan, bekor qilingan sertifikatlar hisobini yuritadi** va ular to'g'risida hamda sertifikatlashtirish bo'yicha faoliyat haqidagi ma'lumotlarni sertifikatlashtirish milliy tizimiga yuboradi. Ular berilgan sertifikatlar va o'zining faoliyati to'g'risida qiziquvchi tashkilotlarni ham xabardor qilishi mumkin. Sertifikatlashtirish

bo'yicha milliy idora mahsulotlari sertifikatlashtirish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni chop etadi. Bular:

– sertifikatlar berilgan mahsulotlar ro'yxali va uning sertifikatlashtirish tavsiflari;

– ishlab chiqarish, sifat tizimi va bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar ro'yxati;

– akkreditlangan sinov laboratoriya\markazlari ro'yxati;

– sifat bo'yicha attestatlangan ekspert-auditorlar haqida ma'lumotlar;

– bekor qilingan sertifikatlar va akkreditatsiyalash haqida attestatlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Arizachi mahsulotning muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik tamg'asi bo'lса, reklama qilish hamda sifat tizimi (yoki ishlab chiqarish) sertifikatini reklama qilish huquqiga ega.

Majburiy sertifikatlashtirishdagi mahsulotni, lekin muvofiqlik sertifikati mavjud bo'lmasa, reklama qilish qat'iy taqiqlanadi.

**Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarning mehnat sarfini va narxini aniqlash.** Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar mehnat sarfini va narxini O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimida O'zRH 51-032-94 Rahbariy hujjati asosida aniqlanadi.

Sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish milliy tizimida litsenzion shartnoma asosida faoliyatini amalga oshiradi. Bunda sertifikatlangan sifat tizimi va ishlab chiqarish, xizmat, jarayonlar va mahsulotlarni inspeksion nazoratini o'tkazish, akkreditlangan sinov laboratoriya\markazlari vakillari sertifikat berish huquqiga ega.

Sertifikatlashtirish idorasi bilan lisenzion shartnoma asosida korxona va tashkilotlar muvofiqlik belgisi va sertifikatdan foydalanish huquqini oladi. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazishga umumiy tarif turlari (shartnoma narxi) quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$T = (S_1 + S_2 + S_3 + S_4)(1+R) + S_5 + S_6 + S_7 + S_8 + H + QQS, \quad (15.1)$$

bu yerda:  $S_1$  – sertifikatlashtiri bo'yicha ishiarni bajaruvchilar oylik maoishi, so'm;  $S_2$  – ijtimoiy sug'urtalashga to'lov (ajratma), so'm;  $S_3$  – nafaqa fondiga to'lovlar (ajratma), so'm;  $S_4$  – xarajatlarga qoplamlar (ijara, yonilg'i, energiya va h.), so'm;  $S_5$  – butlovchi buyumlar va materiallar narxi, so'm;  $S_6$  – xizmat safari xarajatlari, so'm;  $S_7$  – avtotransport vositalariga to'lovlar, so'm;  $S_8$  – boshqa tashkilotlarning xizmatlariga xarajatlar, so'm; R – normativ rentabellik; H – foyda\daromad solig'i va qonunchilikka muvofiq boshqa soliqlar; NDS – qo'shimcha qiymat solig'i, so'm.

Sertifikatlashtirish bo'yicha har bir ish turi uchun oylik maoish qiymati quyidagi tartibda aniqlanadi: ushbu ish bo'yicha to'liq jarayonlar ro'yxatini

tuzish: har bir jarayonni bajarish uchun zaruriy ishchilar miqdori va ularning malakasini o'rnatish; har bir jarayon bo'yicha ishlarning mehnat (o'rtacha mehnat sarfi miqdori) sarfini o'rnatish; ishchilar lavozimi maoshi va tarif stavkalarini o'rnatish; sertifikatlashtirishning bercha jarayonlari bo'yicha barcha turdag'i ishchilarning oylik maoshi summasini aniqlash.

Normativ rentabellik sertifikatlashtirish miliy idorasi yoki sertifikatlashtirish idorasini rag'batlanadirish maqsadida differensiallash muhim ishlardan 0,30 oshmasligi shart.

Lisenzion ajratmalar miqdori sertifikatlangan mahsulot hajmidan quyidagicha tashkil etiladi:

- massaviy mahsulot ishlab chiqarish uchun – 0,05%dan 0,1%gacha;
- seriyali mahsulot ishlab chiqarish uchun – 0,1%dan 0,5%gacha;
- donalab mahsulot ishlab chiqarish uchun – 0,5%dan 1%gacha.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar mehnat sarfining o'rtacha qiymati 15,2-jadvalda keltirilgan.

#### 15.2-jadval

**Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar mehnat sarfining o'rtacha qiymati**

	Ishlarning nomi	Mehnat, odain. kun.
1	Me'yoriy hujjatlarni ekspertiza qilish	A4 format i varag'iga 0,025
2	Xalqaro va xorijiy me'yoriy hujjatlarni (tarjimasiz) tahlil qilish	A4 format i varag'iga 0,05
3	Konstrukturlik va texnologik hujjatlarni ekspertiza qilish	A1 format i varag'iga 0,1
4	Sertifikatlashtirish sxemalarini tahlil qilish	1
5	Sinov laboratoriyasini tanlash	3
6	Sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish idorasini tanlash	3
7	Deklaratsiya talabnomasi bo'yicha qaror tayyorlash	1
8	Sinov dasturini ishlab chiqish	4
9	Sinov qurilmasiini tayyorlash, namunani tanlash va sinovni o'tkazish	Sinov dasturiga muvosiq
10	Sifat tizimi yoki ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish	Sinov dasturiga muvosiq
11	Sinov bayonnomasini tahlil qilish	2
12	Olingan natijalarni tahlil qilish va muvosiqlik	2

	sertifikatini berish to‘g’risida qaror qabul qilish	
13	Inspeksiya nazorati sxemasini ishlab chiqish	2
14	Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va ro‘yxatga olish	1

## 15.5. Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash uchun mahsulotni sinash

Sinashning maqsadi mahsulot ko‘rsatkichi va ushbu mahsulotni me’yoriy hujjatlarga muvofiqligini haqiqiy qiymatlari to‘g’risidagi ma’lumotlarni ishonchli va xolisena olish hisoblanadi. Ma’lumot ta’minotchi muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qilishda yoki muvofiqlik sertifikatini berish to‘g’risida qaror qabul qilish uchun kerak bo‘ladi.

**Sinovni o’tkazishga umumiylablar.** Sertifikatlashtirish sinovini o’tkazish uchun sinov laboratoriyalari akkreditlangan bo‘lishi, shuningdek, sinov turlari ro‘yxati va akkreditatsiya haqida attestat, sinov laboratoriysi o’tkazish (akkreditlash sohasi) mavjud bo‘lishi lozim va sinovni o’tkazish huquqiga ega. Agarda sinov laboratoriyalari faqat texnik omilkorlikka akkreditlangan bo‘lsa, bu holda sertifikatlashtirish sinovlari o’tkazilayotganda sertifikatlashtirish idorasini vakili ishtiroy etishi shart. Sertifikatlashtirish sinovlari akkreditlanmagan sinov laboratoriyalarda o’tkazilsa, amal qilishi hisobga olinmaydi.

Sinovlarni o’tkazishga sinov vositalarini tayyorlash yaroqliligi, ishslash qobiliyati hamda ularni ishlatish hujjatida o‘rnatilgan talablarga muvofiq ishga sozlash yo‘li bilan ularni mayjudligi tekshiriladi.

Aniqlik va uzatuvchanlik me’yorlari sinov vositalarini tanlashda, sinashda, sinov natijalarini rasmiylashtirish va ma’lumotlarni qayd qilishda rioya qilinishi shart. Mahsulot me’yoriy hujjatlarida aniqlik me’yorlari belgilanadi.

**Sinovni o’tkazishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1) **Sinovni o’tkazishga talabnomasi tahlili.** Ushbu besqichda sinov laboratoriysi taqdim etilayotgan mahsulotni sinashiga akkreditatsiya sohasini tekshiradi. Amal qiluvchi hujjatlarning mavjudligi, sinov qurilmalari attestatining amal qilish muddati, yordamchi qurilmalar va sinov vositasining tayyorligi yoki tamg‘a tushirilganligi, o‘lchash vositasining qo’llashga yaroqliligini tasdiqlash, shuningdek, ularning amal qilish muddatlari ham tekshiriladi. O‘rnatilgan muddatlarda sinovni o’tkazish imkoniyatlari mavjudligi baholanadi va xodimlarning malakasi mavjudligi tekshiriladi.

2) **Sinov dasturini ishlab chiqish.** Bir turdag‘i sinov dasturini mahsulot ishlab chiqaruvchi ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish turib qolgan

holatlarda sinov dasturi sertifikatlashtirish idorasi yoki bayurtmachi takliflari asosida qoida sifatida ishlab chiqiladi. Dasturda hajmi, joyi, turi va sinash shartlari, hisobot berish tartibi va boshqa zaruriy ma'lumotlar o'rnatiladi. Sertifikatlashtirish sinovlari holatida dastur sertifikatlashtirish talabnomasi bo'yicha qaror bilan birlashtirilishi mumkin.

Dasturda sinalayotgan mahsulotning aniq va to'liq nomlanishi, me'yoriy hujjatda u qandan yozilsa, xuddi shunday to'liq va aniq keltirilishi hamda sinaiishi lozim. Dasturda sinov turi va joyi hamda sinov laboratoriyasining nomi, manzili va huquqi ko'rsatilishi shart.

Sinov usullariga qo'shimchalarda sinov bayonnomasini taqdim qilish va rasmiylashtirish sinov ma'lumotlarini aniqlashda qayta ishlash tartibi va shartlari ko'rsatilishi mumkin. Sinov hajmi muvosiqlikni tasdiqlashda tekshirilayotgan mahsulot (xavfsizlik) majburiy talablardan kelib chiqib aniqlanishi lozim.

**3) Sinov vositalarini ishga sozlash.** Sinov vositalarini ishga sozlashdan oldin uning texnik holati tekshirilib. bu sinov vositasini sinov vositasining ishga sozlash me'yoriy qiymatlari ta'sirlarini o'matish, uning barqarorligini tekshirish hamda ishlatish hujjatiga muvosiq sezgiriligi, ishchi rejunga chiqish to'g'riligi va o'lhash vositasini qayd qilish muvosiqligi ishlatish hujjatlariga muvosiq ishlash va texnik holatining tekshiruvini o'tkazishdan tarkib topgan bo'ladi.

**4) Sinovni o'tkazish.** Sinovlar tasdiqlangan sinov dasturiga to'liq muvosiq o'tkazilishi va sinalayotgan mahsulot me'yoriy hujjatlari, sinov usullariga muvosiq sinovga tayyorlangan bo'lishi lozim.

Sinovni o'tkazish shartlari mahsulotning me'yoriy hujjatlari va sinov usullariga muvosiq bo'lishi kerak. Sinov vositasini ishga tushirish faoliyata, sharoit va sinovning davomiyligi, sinov vositasini ishlatish hujjatlari va mahsulotni sinash usullariga to'liq muvosiq ravishda bajarilishi lozim.

Sinalayotgan mahsulotning tavsifi senli qiymatlari sinov ma'lumotlari jurnalida qayd qilinishi kerak. Sinashda mahsulotning me'yoriy hujjatlarida ko'rilgan, sinalayotgan mahsulot tarkibiy tafsiflari ro'yxatga olib boriladi. Sinov ma'lumotlari natijasi ular qanday olingan bo'lsa, shundayligicha, ya'ni ketma-ketligi va shakli bo'yicha yoziladi. Dastlabki guruhlash, ma'lumotlarni yaxlitlash va alohida qiymatlarni istisno qilishga yo'l qo'yilmaydi. Nuqsonlarning ko'rinishi ham ro'yxatga olinadi.

**5) Sinovdan so'ng namunanani tadqiq qilish tashqi ko'rinishi,** ish qobiliyati va namunaning sinovdan oldindi va keyingi boshqa tarkibi hamda o'zgarishlarni ro'yxatga olish, agarda u mayjud bo'lgan taqdirda, solishtirishlar maqsadida o'tkaziladi.

**6) Ma'lumotlarni qayta ishlash** sinov amaldagi mahsulotning me'yoriy hujjatlari va uni sinash usullari bo'yicha bajariladi. Agar zarurat bo'lganda, me'yoriy hujjatlarda taysiya qiliunmagan sinov ma'lumotlari qayta ishlash usuli, sinov usullarida o'tmatilgan tartibda bo'lishi shart. Zarurat bo'lganda, qiymatlarning tushishi paydo bo'lishi, bir xillagini tekshirish, bu ma'lumotlarni tarqalish turi va mustaqil be'lgani uchun sinov natijalarining dastlabki qayta ishlashi o'tkaziladi.

**7) Sinov bayonnomasini tayyorlash va rasmiylashtirish.** Sinov natijalari sinov bayonnomasida ko'rsailishi lozim. Bayonnomada mahsulotni sinash va me'yoriy hujjatlari talablariga hamda sinov usuli, dasturlariga muvofiq sinov natijalari mahsulot tavsifi qiymati ko'rinishida, ma'lumotlar qayta ishlashdan so'ng olingan qiymatlarda aks topgan bo'lishi lozim.

Bayonnomaning belgilanishi har bir betda qo'yilgan bo'lishi kerak. Bunday belgilan tartib raqami va bayonnomasi rasmiylashtirilgan sanalar bo'lishi mumkin. Bayonnomaning har bir betida umumiy betlar soni hamda mazkur betning raqami ko'rsatiladi.

Sinov laboratoriyalarining belgilanishi sinov laboratoriyaning nomlanishi, manzili va akkreditlangan guvohnoma raqami ko'rinishida ko'rsatilishi iozim. Yirik tashkilot tarkibidagi uning tarkibiga aloqador bo'lgan, sinov laboratoriysi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarning kiritilishiga ruxsat etiladi. Iste'molchilar belgilanishi, sinov uchun buryutmachi nomi va manzili ko'rinishida ko'rsatilishi lozim.

Sinashga yo'llanilayotgan mahsulot ushbu mahsulot turi uchun, faqat tavsifli belgilanishi lozim. Bu belgilanishni kiritish tanlanayotganda (masalan, tartib raqami) mahsulotni sinash uchun (yoki unga qisitirilgan yorliq) iste'molchilar, tayyorlovchilar yoki sinov laboratoriyaning o'zi ta'minlaydi. Bunday qo'shimcha ma'lumotlar sifati, ya'ni tayyorlash sanasi mahsulotni olish sana va h. kiritishinga ruxsat etiladi. Sinov usullari aniqlangan bo'lishi shart, nostandard sinov usullarini qo'llashga ruxsat etilmaydi.

Subpudrat sinov laboratoriya markazlar qatnashganida sinovni o'tkazishda, ular sinov bayonnomasida ko'rsatilib o'tilishi shart. Subpudrat laboratoriya bayonnomasi buyurtinachi laboratoriysi bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi.

Sinov natijalari mahsulotning me'yoriy hujjatlari talablariga va sinov usullari ko'rsatmalariga muvofiqlikda aniq, tushunarli, to'liq va ikki ma'no keltirib chiqaruvchi bo'lmagan holatda raqdim qilinadi. Sinovni o'tkazish sanasi o'matilgan talablarga muvofiq ko'rsatiladi.

Sonli natijalar zarurat bo'lganda, xatoligi yeki noaniqligi hisoblanib, birga taqdim qilinadi. Sinov bayonnomasiga faqat sinayotgar mahsulotga aloqador ma'lumotlar, olinganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar kiritiladi.

Sinov bayonnomasida, odatda, MH talablari bo'yicha sinaiayotgan mahsulot bu mahsulotga muvosiqligi baholanadi.

Qo'shiinchalik ma'lumotlar sinov bayonnomasining texnik tarkihiga aloqador, uni keyinchalik qo'llash hamda buyurtmachi va sinov laboratoriysi majburiyatları va huquqlari, shuningdek, ixtiyoriy masalalar bo'yicha taqdim qilinishi mumkin. Bunday ma'lumotlarga sinov bayonnojasi chop etish shartlarini kiritish mumkin.

Sinov bayonnomasiga to'g'rilashlar va qo'shimchalar kiritish u rasmiylashtirilganidan so'ng faqat qo'shimcha hujjat sifatida taqdim etilishiga ruxsat beriladi. Sinov bayonnomasi to'rt nusxada rasmiylash-tirilib, ulardan biri sinov laboratoriysi arxivni va ishda qoldiriladi. Ikkitasi sinov buryutmachlariga, ya'ni subyektlarga beriladi.

Sinalgan mahsulot namunasini saqlash, utilashtirish yoki uni ta'minot-chiga qaytarish sinov laboratoriysi va ta'minotchi\buyurtmachi sinovni o'tkazishi o'zaro tuzilgan shartnoma bandlariga muvofiq amalga oshiriladi.

## **15.6. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksiya nazorati**

Seriiali ishlab chiqarilayotgan mahsulotga sertifikat beruvchi sertifikatlashtirish idorasi yilda bir martadan kam bo'limgan tarzda sertifikatlashtirishda o'matilgan talablarga muvosiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlangan mahsulotning inspeksiya nazoratini o'tkazadi. Inspeksiya nazorati sertifikatlashtirish sxemasi, mahsulot sinovini o'tkazish va/yoki ishlab chiqarishni kuzatishga bog'liq bo'ladi.

Inspeksiya nazoratiga umumiy talablar 2005-yil 6-aprelda Adliya vazirligida ro'yxatga olingan №1464- "Sertifikatlashtirilgan mahsulot va xizmatlar inspeksiya nazorat o'tkazish qoidalari"da belgilab qo'yilgan. Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi protsedura hujjatida muayyan tartibda inspeksiya nazoratini o'tkazish belgilangan.

Inspeksiya nazorati hajmini SI mahsulotni sinash, avvalgi o'tkazilgan inspeksiya nazorati natijalari va attestatlangan yoki akkreditlangan sinov ishlab chiqarish laboratoriyalari natijalari mehnat hajmidan kelib chiqib har bir muayyan holatda aniqlaydi. Inspeksiya nazorati davriyilagini muvofiqlik belgisidan foydalanish va muvosiqlik sertifikatini qo'llash huquqini to'xtatish to'g'risidagi kelishuvda rejada o'rnatilgan tartibda, SI bilan tayyorlovchi quyidagilarni hisobga olib kelishuv tuzadi: muayyan mahsulotning o'ziga xos xususiyati; sertifikatlashtirilayotgan mahsulot hajmi va ishlab chiqarish davomiyligi; sifat tizimiga sertifikatning mavjudligi.

Sertifikatlashtirilgan mahsulot rejali inspeksiya nazorati SI tasdiqlagan reja-grafigiga muvofiq o'tkaziladi. Rejadan tashqari inspeksiya nazorati

mavjud nomuvoqsiqlikni bartaraf qilish daillarda rasmiy tasdiqlanganligi va aniq dalillar keltirib isbotlash to'g'risida sertifikatlangan mahsulotga iste'molchilardan shikoyat va e'tirozlar bildirilsa hamda mahsulot me'yoriy hujjatiga va ishlab chiqarish texnologik jarayonlariga o'zgartirish kiritilgan holatlarda o'tkaziiadi.

Inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun muvofiqlik sertifikatini berishgacha sertifikat egasi bilan sertifikatlashtirish idorasi tuzayotgan kelishuv asos bo'lib hisoblanadi. Kelishuvda ish turlari, o'tkazish muddati va inspeksiya nazorati bo'yicha ishlarga to'lev shartlari o'matiladi. Inspeksiya nazorati sertifikatlashtirish, qonuniy hujjatlar va sertifikatlashtirish bo'yicha bajariladigan ishlar tartibi va asoslarini, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalaridagi me'yoriy hujjatları bo'yicha maxsus tayyorlangan mutaxassislar (sifat bo'yicha ekspert-auditorlar) amalga oshiradi. Inspeksiya nazoratida, zarurat bo'lganda, boshqa tashkilot vakillari shu tashkilot yoki bevosita uning mutaxassisi bilan sertifikatlashtirish idorasi o'tasida tuzilgan o'zaro shartnomaga asosida qatnashishi qabul qilinadi. Sertifikatlashtirish idorasi topshiriig'i bo'yicha akkreditlangan nazorat idorasini jaib qilish mumkin.

Inspeksiya nazoratining maqsadi sertifikatlashtirilgan mahsulot me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlashdan iborat. Inspeksiya nazorati SI rahbari tomonidan tasdiqlangan dasturga muvosiq o'tkaziladi. Inspeksiya nazorati dasturi maqsad va obyekt, inspeksiya nazoratini o'tkazish bo'yicha ishlar tartibi va hajmidan tarkib topgan bo'lishi shart. Sertifikatlashtirish idorasi rahbari bir nusxa buyruq va inspeksiya nazorat o'tkazish dasturlarini tayyorlovchiga ularni olgанилиги haqida imzo bilan topshiradi. Inspeksiya nazorati tayyorlovchidan, tayyorlovchi vakili qatnashmaganda va yoki savdo sohasidan (iste'molchidan) sertifikatlashtirishning 2- va 4-sxemalarida namuna tanlab olish bilan boshlanadi. Mahsulot namunasini tanlash va identifikasiyalashda dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Tayyorlovchi mahsulotini sinash va tanlashda qatnashish huquqiga ega. Sinash, uni tanlash tartibi, identifikasiyalash va sinash hamda namuna miqdori mahsulot MH talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Mahsulot namunasini sinashni mustaqil akkreditlangan laboratoriylar, hoh u sertifikatlashtirilayotgan mahsulot tayyorlovchisining texnik layoqatliigiga akkreditlangan sinov laboratoriysi, inspeksiya nazorati komissiyasi qatnashivi bilan o'tkazadi. Sinov natijalari bayonnomada rasmiylashtiriladi.

Ishlab chiqarishni kuzatishda inspeksiya nazorati 3- va 5-sxemalar bo'yicha xuddi shu tartibda seriiifikacion kuzatuv sifatida o'tkaziladi. Tekshirishning asosiy obyektlari quyidagilar bo'ladi:

- mahsulotga me'yoriy hujjat, sinash usuli va ishlab chiqarish texnologiyasi;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot;
- ishlab chiqarish va sifat tiziini;
- texnologik qurilmalar, o'lchash va sinash vositalari;
- savdo tashkilotida va tayyerlovchi korxonada sertifikatlashtirilgan mahsulotni saqlash muddati va shartlari;
- qadoqlash, tashish;
- ilova qilingan hujjatlar;
- muvofiqlik belgisi bilan taing'alash.

Ishlab chiqarishni kuzatish tasdiqlangan dasturga muvofiq o'kaziladi. Tashkilotda inspeksiya nazorati o'tkazish jarayonida, zarurat bo'lganda, komissiya dasturdagi nazarda tutilmagan korxona ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatiga bog'liq bo'lgan obyekt yoki jarayonlarni tekshirishi mumkin.

Tekshirishga rioya qilish shartlari muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi sertifikatlar nusxasida qo'llanilishini tekshirish bilan boshlanadi, shuningdek, mahsulotga, idishga, qadoqlashda va ilova qilinayotgan hujjatlarda muvofiqlik belgisining mavjudligi va to'g'ri qo'yilganligi tekshiriladi. Tekshirish tayyorlovchi korxonada va/yoki savdo tashkilotlarida, agarda bu sertifikatlashtirish sxemasida belgilangan bo'lsa, o'tkaziladi. Belgini tekshirish muvofiqlik sertifikati va konstrukturlik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5- yoki 6-sxema bo'yicha mahsulotni sertifikatlashtirishda sifat tizimiga sertifikati mavjudligiga qarab, sertifikatlashtirish idorasi, sifat tizimini tekshirish to'g'risidagi hisbotning bir nusxasini sifat menejmenti tizimi bo'yicha sertifikatlashtirishni amalgaga oshirgan idoraga beradi.

Ishlab chiqarishni tekshirish natijalari salbiy bo'lsa, komissiya korxonaga aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf qilishni kuzatuv daiolatnomasida ko'rsatib yoki bayonnomalar ko'rinishida rasmiylashtirib taklif qiladi.

Inspeksiya nazoratini agar muvofiqlikni yoki o'matilgan talablarga ishlab chiqarish va/yoki nomuvofiq mahsulot xolisona isbotlash o'matilgan bo'lsa, tugallandi, deb hisoblash mumkin. Baholash tekshirish natijalari (tekshiruvchi va tekshirilayotgan) bo'yicha qaror qabul qilishda tomonlarda ishonestsizlik va qiyinchiliklar tug'dirmaydigan bo'lishi kerak. Baholash sertifikatlanayotgan mahsulotning muvofiqligini me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq aniq ifodalanmagan va ikki fikrli izohlar bo'lishidan xalos bo'lishi lozim.

Inspeksiya nazoratni natijalari bo'yicha komissiya ixtiyoriy shaklda va ikki nusxada daiolatnomalari tuzib, ulardan bir nusxasi tayyorlovchiga beriladi

hamda ikkinchi nusxasi esa sertifikatlashtirish idorasiga jo'natiladi. Inspeksiya nazorati dalolatnomasini komissiyaning barcha a'zolari va tayyorlovchi imzolaydi, ayni paytda inspeksiya nazorati natijalariga noroziliklar bo'lgan holatlarda e'zining fikri ni kiritishi mumkin. Dalolatnomada tayyorlovchi haqidagi, sertifikatlashtirilayotgan mahsulotni MH talablariga muvofiqligi dalillari, ishlab chiqarishni metrologik ta'minoti va texnologik jarayonlar talablariga rioya qilinishi hamda xulosalar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha 3 kun davomida sanasi ko'satilgan inspeksiya nazorati dalolatnomasi tuzilib, muvofiqlik sertifikatini tasdiqlash, to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qaroring bir nusxasi qaror qabul qilingandan so'ng uch kundan ko'p be'limgan muddatda tayyorlovchiga jo'natiladi.

Muvofiqlik sertifikatini to'xtatish holatlarda qarorda aniqlangan kamchiliklar bo'yicha to'g'rilovich amallarni qabul qilish uchun muddati ko'r-satiladi. Muvofiglik sertifikatini bekor qilish haqida qaror qabul qilingan holatlarda sertifikatlashtirish idorasiga bu to'g'rida ma'lumotni uch kundan kam bo'limgan muddatda "O'zstandart" agentligi, soliq va bojxona idoralariga va zarurat bo'lganda omraviy axborot vositalariga jo'natadi.

Muvofiqlik sertifikatini bekor qilish O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining reyestridan chiqarish vaqt bilan amalga oshadi. Bekor qilingan muvofiqlik sertifikati muvosiq jurnalda quyidagi ma'lumotlar aks topgan yozuvlarni elib borish bilan yo'q qilinadi: bekor qilish haqida qaror sanasi va raqami; mahsulot nomi; ishlab chiqaruvchining nomi; muvofiqlik sertifikatini Davlat reyestri bo'yicha raqami va tartib raqami; yo'qotish sanasi.

Majburiy sertifikatlashtirishda turgan mahsulot sertifikati bekor qilinidan so'ng, bu mahsulothi sotishni to'xtatish bijan savdo sohasidan bekor qilingan sertifikat nusxasi muomaladan chiqarilishi shart. Manfaatdor tomonlar qabul qilingan qarorga norozi bo'lgan hoiatlarda "O'zstandart" agentligining Apellatsiya kengashiga yoki bevosita sudga murojaat qilish huquqiga ega. "O'zstandart" agentligining Apellatsiya kengashi qarori yuzasidan o'rnatilgan qonunchilik tartibida sudga shikoyat qilish mumkin.

### Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimining asosiy qoidalarini tushuntiring.
2. Ixtiyorliy sertifikatlashtirish nima?
3. Majburiy sertifikatlashtirish nima?

4. Ixtiyoriy va majburiy sertifikatlashtirish qanday jihatlari bilan farq qiladi?
5. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasiga nimalar kiradi?
7. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilot va idoralarning vazifalarini tushuntiring.
8. Bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi va tartibi hujjatlari nimalarni belgilaydi?
9. Sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro hamkorlik nimalardan iborat?
10. Sertifikatlashtirishning umumiy bosqichlari qanday ishlarni qamrab oladi?
11. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish qanday amalga oshiriladi?
12. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi ketma-ketligi nimalardan iborat?
13. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar mehnat sarfi va narxi qanday aniqlanadi?
14. Muvofiglikni tasdiqlash va baholash uchun mahsulotni sinash qanday amalga oshiriladi?
15. Sinovni o'tkazish qanday bosqichlardan iborat?
16. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksiya nazorati qanday amalga oshiriladi?

## XVI BOB. SERTIFIKATLASHTIRISH SXEMALARI HAMDA ISHLAB CHIQARISH VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH

### 16.1. Sertifikatlashtirish sxemalari va ularning qo'llanilishi

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi (O'zR SMT)da belgilangan va tavsiya qilingan sertifikatlashtirish sxemalari 16.1-jadvalda keltirilgan.

1-sxema namuna turini sertifikatlashtirishda va akkreditlangan sinov laboratoriyaarida (ASL) mahsulotni sinash ko'zda tutilgan, majburiy ko'rsatkichlari bo'yicha, birinchi navbatda, xavfsizlikka ko'ra sinashda qo'llaniladi. Ushbu sxema mahsulotga aniq belgilanmagan MH bo'limganda ham qo'llaniladi.

2-sxema mahsulotni majburiy ko'rsatkichlarini ASLda sinash, keyinchalik savdo sohasidan (iste'molchidan) olingen namunalarni sinov yo'li bilan mahsulot inspeksiya nazoratini o'tkazib tekshirish ko'zda tutiladi.

3-sxema ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llanilib, ASLda ishlab chiqarish ko'rige va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni sinash nazarda tutiladi. Ushbu sxemada tayyorlovchidan olingen, mahsulot sinovini o'tkazish bilan korxonada inspeksiya nazoratini o'tkazish ko'zda tutilgan.

4-sxema ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llanilib, ASLda ishlab chiqarish kuzatuvi va majburiy talablarni tekshirish uchun mahsulotni sinash ko'zda tutilgan. Ushbu sxemada savdo sohasidan (iste'molchidan) va tayyorlovchidan olingen namunalarni sinovini o'tkazish yo'li bilan mahsulot inspeksiya nazorati ko'zda tutilgan.

5-sxema ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llanilib, ASLda ishlab chiqarish kuzatuvi yoki sifat tizimini baholash va majburiy talablarni tekshirish uchun mahsulotni sinash ko'zda tutilgan. Ushbu sxemada ishlab chiqarishi ko'rige (yoki sifat tizimini baholash) va mahsulot sinovini o'tkazish bilan inspeksiya nazorati nazarda tutilgan.

6-sxema sifat tizimini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va navbatdagi inspeksiya nazoratini o'tkazish, hamda uni baholash ko'zda tutilgan.

7-sxema mahsulotning pariyasini sertifikatlashtirishda qo'llanilib va bu partiyadan olingen namuna sinovi ko'zda tutilan.

8-sxema har bir dona buyumni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi.

9-sxema mahsulot xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiya qilish ko'zda tutilgan. Bu sxema mahsulot o'matilgan talablarga muvofiqligini tasdig'ini ta'minlovchi hujjatlari bilan muvofiqligi haqida o'matilgan talablar asosida, mahsulot muvofiqligini deklaratsiyalash sifatida foydalaniladi.

## Sertifikatlashtirish sxemalarining imkoniyatlari

Sxemalar raqami	Akkreditlangan sinov laboratoriylarida sinash va muvofiqlikni boshqa yo'llar bilan isbotlash	Ishlab chiqarishni kezatish yoki sifat tizimini baholash	Sertifikatlashtirilgan mahsulot (sifat tizimlari, ishlab chiqarish)ning inspeksiya nazorati
1	Turini sinash	-	-
2	Turini sinash	-	Savdo sohasi (iste'molchi)dan olingen namunani sinash
3	Turini sinash	Ishlab chiqarishni kuzatish	Tayyorlovchidan olingen namunani sinash (Ishlab chiqarish ko'rigi)
4	Turini sinash	Ishlab chiqarishni kuzatish	Savdo sohasi (iste'molchi)dan, shuningdek, ishlab chiqarishdan olingen namunalarni sinash
5	Turini sinash	Ishlab chiqarishni kuzatish yoki sifat tizimini baholash	Mahsulot namunasini sinash va sifat tizimini baholash (ishlab chiqarish ko'rigi)
6	Turini sinash	Sifat tizimini baholash	Sifat tizimi holatini baholash
7	To'pini sinash	-	-
8	Har bir namunani sinash	-	-
9	Taklif qilingan hujjatlarga muvofiqligi to'g'risida deklaratsiyani ko'rish	-	-

Bu sxema bo'yicha arizachi akkreditlangan sinov laboratoriyasida sinovni o'tkazishi, yoki sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirishi, yoki u bo'yicha sertifikatlashtirish idorasiga ariza berishi va navbatdag'i boshqa qabul qilingan deklaratasiyalashni ta'minlaydi. Arizachida arizada ko'rsatilgan mahsulot muvofiqligi talablarini tasdiqlovchi bilvosita, yoki bevosita barcha zaruriy hujjatlarning mavjudligi 9-sxemani qo'llash shartlari bo'lib hisoblanadi. Agar bunday shartlar bajarilmasa, unda arizachiga mahsulotni boshqa sertifikatlashtirish sxemasi bilan sertifikatlashtirish taklif qilinadi.

9-sxemani qo'llash quyidagi holatlarda tavsiya etiladi:

– sertifikatlashtirishda qaytarilmaydigan import qilinayotgan mahsulot partiyasi ko'p bo'lмаган hajmidan, firma ishlab chiqarayotgan, ishlab chi-

qaruvchi jahon va o'zbek bozorida yuqori sifatli deb o'ziga tavsiyalovchi, yoki donali buyum, yo buyum maj/mui, mahalliy ishlab chiqarishda kerakli asbob-uskunlar va boshqa obyektlarni, agarda buyum xavfsizligi haqida taqdim qilingan texnikaviy hujjatlar bo'yicha o'ylab ko'rildigan bo'lsa;

– mahsulotni sertifikatlashtirishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan, xususiy tadbirkorlar, inspeksiya nazoratini o'tkazish majburiy bo'lмаган va bozorda enga so'rov imkoniyati bo'yicha bu mahsulotni iste'molchi talabiga ko'ra ishlab chiqarishda o'matilgan tartibda o'z faoliyatini ro'yxatga qo'yish.

1-2-sxemalar xavfsizlik ko'rsatkichlari ishlab chiqarish omillaridan kam ta'sir qiluvchi mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun qo'llaniladi, teskari holatlardi 3-5-sxemalarni qabul qilish zarur.

5-sertifikatlashtirish sxemasi bo'yicha majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish vaqtida tayyorlovchida sifat menejmenti tizimiga (ishlab chiqarish) sertifikati mayjud bo'lгanda ishlab chiqarish holati tahlili o'tkazilmaydi.

5-sxema, agar muvofiqlik sertifikati amal qilish muddati davomida namunaviy vakil sinash natijalari ko'rsatkichlari seriyali mahsulot ishlab chiqarish barqarorligiga yetarli ishonch hosil qila olmagan holatlarda ham qo'llaniladi.

Mahsulotlar 3-, 4-, 5-, 7-, 8-, 9- sxemalar bo'yicha sertifikatlashtirilganda, mahsulot o'matilgan tartibda muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishi mumkin.

**Deklaratsiya yo'li bilan muvofiqlikni tasdiqlash.** Ayrin hollarda deklaratsiya muvofiqligiga asosan, 9-sxema ainal qiladi. Bu sxema bo'yicha faoliyat tartibi 2005-yil 6-aprelda Adiliya vazirligida №1465 son bilan ro'yxatga olingan "Mahsulot muvofiqligi talablari uning xavfsizligini deklaratsiyalash tartibi to'g'risidagi nizom"da belgilab qo'yilgan. Nizomda ta'minotchi sifatida, tayyorlovchilar, distribyuterlar, importchilar yoki vositachilar bo'lishi mumkinligi va mahsulotni deklaratsiyalash tartiblari qayd etilgan.

Mahsulot uni xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash mahsulotni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini va ta'minotchi identifikasiyasini handa bu muvofiqlik uchun javobgarlikni kafolatlash maqsadida o'tkaziladi.

Mahsulot uni xavfsizlik talablariga muvofiqligi to'g'risidagi deklaratsiya (bundan keyin - deklaratsiya) mahsulot sinovi natijalari va ishlab chiqarishni baholash, tayyorlovchi uchinchli tomonni jalb qilib olgan natijalarga asoslangan bo'lishi shart.

Ammo buyurtmachiliste'molchi deklaratsiyalangan mahsulotni tekshirish uchun o'zining hisobidan attestatlangan yoki akkreditlangan sinov laboratoriya tarida mahsulotni muqobil sinovini o'tkazishga haqlidir.

Majbuliy sertifikatlashtirish nazarda tutilgan mahsulotlar ro'yxatida, muvofiqlikni tasdiqlash, ya'ni deklaratsiya yo'li bilan o'tkazilish mumkin bo'lgan mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyulda qilingan №318-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Bunda muayyan mahsulot turi ro'yxatda yulduzcha bilan belgilangan.

Majbuliy sertifikatlashtirishda turmagan mahsulotlar, buyurtma-chiliste'molchi talabi bo'yicha yoki ta'minotchi manfaati bo'yicha deklaratsiya qilinishi mumkin. Deklaratsiyada tasdiqlanadigan mahsulotning ko'rsatkichlari nomenklaturasini tayyorlovchi shartnoma shartlari bo'yicha yoki mahsulot MH asesida o'matiladi.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni deklaratsiyalashda deklarant texnologik jarayonlarning nazorati va attestatlangan yoki akkreditlangan sinov laboratoriya tarida o'zining mahsulotini MH talablariga muvofiq sinashni ta'minlashi lozim.

Ta'minotchi deklaratsiyalananadigan mahsulotga bir turdag'i mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoraga ariza beradi va deklaratsiyalash ro'yxatiga olinadi. Bunda mahsulot o'matilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi quyidagi hujjatlar bo'lishi mumkin.

– attestatlangan yoki akkreditlangan laboratoriya sinov bayonnomasi;

– xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlarga sinov bayonnomalari;

– sifat tizimi (ishlab chiqarish) sertifikati;

– gigiyenik sertifikat va MHlarda o'matilgan boshqa talablar (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik sertifikatlar).

Bir turdag'i mahsulotlar guruhi uchun agarda analadagi MH yagona talablar unga o'rnatilgan bo'lsa, mahsulotning muayyan turiga yondashuv sifatida deklaratsiyaga taqdim qilinadi. Import qilinayotgan mahsulotlarga deklaratsiyani qo'llash yoki tan olish agar O'zbekiston Respublikasining vakolatli idoralari bilan mahsulotni olib kelayotgan davlat idoralari muvofiqlik deklaratsiyasini o'zaro tan olish to'g'risidagi kelishuv mavjud bo'lsa, ruxsat etiladi.

Deklaratsiya quyidagi ma'lumotlardan tarkib topgan bo'lishi lozim:

– deklaratsiyaga taqdim qilayotgan ta'minotchining nomi va manzili;

– mahsulot nomi, turi yoki modeli raqami hamda mahsulotni tafsiflovchi qu'shimcha ma'lumotlar (partiya yoki seriya raqamlari, nav va h.);

– ilova qilinayotgan MHning aniq va to'liq nomlanishi;

- mahsulot ishlab chiqarilgan sanasi, partiyu hajmi yoki seriyasi, yaroqlilik muddati, yetkazib berish;
- deklaratsiyalashga taqdim etish sanasi;
- ta'minotchi nomidan amal qilunuvchi vakolatli shaxs F.I.Sh, iavozimi va imzosi;
- sifat tizimi sertifikatiga ilova;
- sinov laboratoriysi nomi, manzili va uning akkreditatsiyasiga ilova.

Ta'minotchi mahsulotni o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi qo'shimcha ma'lumotlar bilan deklaratsiyadan o'tkazishi mumkin.

Sertifikatlashtirish idorasi deklaratsiyalananayotgan mahsulot identifikasiyasini o'tkazib, taqdim qilingan hujjatlarning ishonchliligi va to'g'rili gini tekshirib, besh ish kuni davomida arizani ko'rib chiqadi. Natijalari ijobji bo'lganda, muvofiq reyestrda deklaratsiyalash ro'yxatga olinib, sertifikatlashtirish milliy tizimida o'rnatilgan shakl bo'yicha muvofiqlik sertifikati beriladi.

Nomuvofiqliklar aniqlanganda, deklaratsiyalananayotgan mahsulot identifikasiyasini natijasi salbiy bo'lganda yoki taqdim qilingan hujjatlar noto'g'ri holatlarda deklaratsiyani ro'yxatga olmasligi va muvofiqlik sertifikatini bera olmasligi haqida yozma ravishda asoslangan xatni sertifikatlashtirish idorasi arizachiga jo'natadi.

Deklaratsiya bo'yicha hujjatlar to'plami va muvofiqlik sertifikatining nusxasi berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati davomida bir yildan kam bo'lmasa vaqtida idorada saqlanadi.

O'z mahsulotini deklaratsiyalovchi arizachi quyidagi ko'rilib yozilayotgan majburiyatlarni o'z zinmasiga oladi:

- zarurat bo'lganda, shu idoraga taqdim qilinayotgan yangi deklaratsiyalashni ro'yxatdan o'tkazish, MH talablariga o'zgartirishlar bo'lgan holatlarda sertifikatlashtirish idorasini xabardor qilish;
- ta'minotchi mahsulot deklaratsiya qilinganidan so'ng, me'yoriy hujjatiar talabiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot muvofiqligining barqarorligini ta'minlash uchun barcha chora-tadbirlarni qabul qilishga majbur.

Muvofiqlikni tasdiqlash qoidalarida ta'minotchi deklaratsiyalangan mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alashi mumkinligi belgilangan. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot muvofiqligini qayta baholash, muvofiqlik sertifikati amal qilish muddati davomida berilgan deklaratsiyani asoslash talab qilinmaydi.

Deklaratsiya to'g'risidagi nizomda apeliatsiya tartibi ko'rib chiqilgan. Deklaratsiya shakli (16.1-rasmiga qarang), Yevropa shakllaridan farqli o'laroq, qo'shimcha ravishda sertifikatlashtirish idorasi deklaratsiyani

ro'yxatga olish to'g'risida ma'lumotdan tarkib topgan deklaratsiyalash to'g'risidagi nizomda o'rnatilgan.

**Ta'minotchilar muvofiqligi to'g'risida deklaratsiya**  
(ISO/IEC 17050-1ga muvofiq)

1) № .....	2) Deklaratsiyaga da'vogar shaxsning ismi: .....	Deklaratsiyaga da'vogar shaxsning manzili: .....
3) Deklaratsiya obyekti: .....		
4) Yuqorida tafsiflangan deklaratsiya obyekti quyidagi hujjatlar talabiga muvofiq Hujjat № Nomi Nashri/Chop etilgan sanasi		
5) .....		
Qo'shimcha ma'lumotlar.		
6) .....	Nomidan va topshiriq bo'yicha imzolandi:	
(Topshirish joyi va sanasi)		
7) (Ismi, lavozimi) .....	(Deklaratsiyaga da'vogar shaxsning imzosi yoki to'g'riligini tasdiqlash)	

*16.1-rasm. ISO/IEC 17050-1 bo'yicha muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya shakli.*

Deklaratsiya shaklida muvofiqlikni majbuliy tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlangan mahsulotlarning maxsus ro'yxati ("Muvofiqligini deklaratsiyalashda turgan mahsulotlari nomenklaturasi") uchun amalga oshiriladi. Asosan, unga nisbatan xavfsiz bo'lgan mahsulotlar kiritiladi. Muvofiqlik to'g'risida deklaratsiya o'rnatilgan shaklda tuziladi. Ro'yxatga olingan deklaratsiyalar mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alashga asos bo'lib xizmat qiladi. Majbuliy sertifikatlashtirish va muvofiqlik deklaratsiyasining qiyosiy tahlili 16.1-jadvalda keltirilgan.

16.1-jadval

**Majbuliy sertifikatlashtirish va muvofiqlik deklaratsiyasining  
qiyosiy tahlili**

Tasdiqlash shakli	Jarayoni amalga oshiruvchi subyektlar	Jarayonda ko'zida tutilgan munusabatdagi obyektlar	Jarayon natijasi	Sertifikat, deklaratssiya yoki texnik reglament mavjudligi da anal qitish muoddati (texnik reglament bilan aytqilanganadi)	Obyektni tang'alash	Obyektning o'matilgan talablarga muvofiqligini tekshirish
Muvofiqlikni sertifikatlashtirish	Uchinchi tomon (sertifikatlashtirish idorasi)	Iste'molchilar va atrof-muhit uchun xavfi oshishi mavjud bo'lgan mahsulot va xizmatlar	Muvofiqlik sertifikati	Sertifikatlashtirish tizimi va idorasidan belgilanadi	Muvofiqlik belgisi sida sertifikatlashtirish idorasining kodidi mavjud	Inspeksiya nazorati amalga oshiradi (sertifikatlashtirish tizimiga muvofiq)
Muvofiqlikni dekiara tsiya-lash	Birinchi tomon – arizachi (tayyorlov-chi)	Iste'molchilar va atrof-muhit uchun mavjud o'ta xavflar bo'lmagan mahsulot va xizmatlar (ishlar)	Muvofiqlik to'g'risi dagi deklaratsiya	Arizachi o'matedi	Muvofiqlik belgisi sida sertifikatlashtirish idorasining kodidi mavjud emas	Davlat nazorati va tekshirushi doirasida davlat nazorat idoralarini amalga oshiradi

## 16.2. Xizmatlarni sertifikatlashtirish

Xizmatlarni sertifikatlashtirish xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar tomonidan ularning akkreditatsiya sohasi doirasida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirishda xizmatlarning tavsiflari tekshiriladi va quyidagi tekshirish usullaridan foydalilanadi:

- xizmatlarni identifikasiyalashni o'tkazish hamda uning me'yoriy va texnikaviy hujjalarga muvofiq tasniliy guruhiga xosligini tekshirish;

- ushbu xizmatni tartiblashtiruvchi me'yorti hujjalarda o'matilgan, atrof-muhit, iste'molchilarning mol-mulki va hayoti hamda sog'lig'i uchun xavfsiz va uning sifatini ta'ninlashga yo'naltirilgan talablarga xizmatlarning muvofiqligini to'liq va ishonarlilikini tasdiqlash.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish quyidagi bosqichlardan iborat:

- sertifikatlashtirishga arizani taqdim qilish;
- arizani ko'rib chiqish va ariza bo'yicha qaror qabul qilish;
- o'rnatilgan talablarga xizmatning muvofiqligini baholash;
- muvofiqlik sertifikatini berish\berishni bekor qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilish;
- muvofiqlik belgisini qo'llashga ruxsat va muvofiqlik sertifikatini berish:
- sertifikatlashtirilgan xizmat ustidan inspeksiya nazorati.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish uchun arizachi (xizmatni bajaruvchi) akkreditlangan sertifikatlashtirish idorasiga sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun ariza bilan, xususan, ariza bo'yicha qaror qabul qilish va sertifikatlashtirishni o'tkazish imkoniyatlarini o'rnatuvchi va uni ekspertiza qilish uchun zaruriy hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etadi (ushbu ma'lumotlar anketa-so'revnomasi ko'rinishida bo'lishi mumkin).

Ariza shakli sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim: Akkreditlangan sertifikatlashtirish idорasi mavjud bo'lмаган taqdirda u arizani sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risida qarorni qabul qilish uchun sertifikatlashtirish milliy idorasiga taqdim etadi.

Bir qancha sertifikatlashtirish idoralari bo'lган holatlarda arizachi ixtiyoriy ravishda ulardan biriga ariza berishi mumkin. Xizmatlarni sertifikatlashtirish idораси sertifikatlashtirishni o'tkazish imkoniyatlari mavjudligini aniqlash maqsadida arizani ko'rib chiqadi va ro'yxatga ojadi.

Arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha xizmatlarni sertifikatlashtirish idораси ariza bo'yicha qaror qabul qiladi va arizachiga rasmiy ravishda xabar beradi. Agarda ijobiy holatda bo'lsa, sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha xizmatning nomi va kodi, me'yoriy hujjatlari, sertifikatlashtirish sxemalarini ko'rsatadi. Agarda salbiy bo'lsa, uning sabablarini ko'rsatiladi.

Arizachi sertifikatlashtirish arizasida Qoidada ko'zda tutilgan sertifikatlashtirish sxemalaridan birini ko'rsatish huquqiga ega bo'lib, sertifikatlashtirish sxemasini tanlashda muayyan turdag'i ko'rsatiladigan xizmatning o'ziga xosligini, arizachi sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olishi lozim.

Arizani ekspertiza qilish jarayonida nomuvofiqliklar aniqlangan holatlarda arizachining tashkiliy-texnikaviy imkoniyatlarini hisobga olib, xizmatlarni sertifikatlashtirish idораси tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi talablari va qo'llash sharoitlarini ushbu sxema bo'yicha sertifikatlashtirishni o'tkazishni batassil asoslashi yoki boshqa sertifikatlashtirish sxemasini taklif qilishi lozim.

Xizmatlar muvofiqligini baholash jarayoni 16.2-jadvalda keltirilgan sertifikatlashtirish sxemalariga muvofiq o'tkaziladi.

### 16.2-jadval

#### Xizmatlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimida qo'llaniladigan xizmatlarni sertifikatlashtirish sxemalari

Sxema raqami	Xizmat ko'rsatish sifatini baholash	Xizmat natijalarini sinash/tekshirish	Sertifikatlangan xizmatlarning inspeksiya nazorati
1.	Xizmatlarni bajarish tavsiflarini baholash	Xizmat va ishlarning natijalarini (sinash) tekshirish	Xizmat ishlarning bajarish mahoratini nazorat qilish
2.	Xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish jarayonini baholash	-	Xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish jarayonini nazorat qilish
3.	Ishlab chiqarish holatini tahsil qilish	-	Ishlab chiqarish holatini nazorat qilish
4.	Tashkilot korxonani baholash/attestatsivalash	-	O'rnatilgan talablarga muvofiqligini nazorat qilish
5.	Sifat tizimini baholash	-	Sifat tizimini nazorat qilish

**Xizmatlar muvofiqligini baholash** xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi tomonidan me'yoriy hujjatlardan talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi baholash jarayonida sertifikatlashtirish bo'yicha ishlardan tashqari sertifikatlashtirilayotan xizmatga o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlardan foydalanishi mumkin, jumladan, quyidagilar: ijtimoiy va ekspert baholash natijalar; tekshirish dalolatnomalari; sertifikatlar; xizmatlarning xavfsizligi va sisati ustidan tekshiruv va nazoratni amalga oshiruvchi davlat nazorat idoralari yok: uning hududiy idoralarining xulosalari; iste'melchilar jamiyati uyushmasi va ularning assotsiatsiyasi va kengashlarining fikr va xulosalari; me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq xizmat ko'rsatuvchi foydalanayotgan texnik hujjatlarning tahlil/ekspertiza natijalari.

Xizmatlarni bajaruvchilar foydalanayotgan va sertifikatlashtirishda tekshirilayotgan tavsiflarga ta'sir qiluvchi texnik hujjatlardan me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va qonunosti hujjatlari talablariga muvofiq xizmatlar tekshirishdan o'tkazilib, ushu xizmat uchun davlat boshqaruvi va ijroiya idoralari bergan hujjatlardan (yong'in xavfsizligi

xulosasi, ekologiya bo'yicha xulosa, sanitarn-epidemiologiya xulosalari va h.ning mavjudligi tekshiriladi. Muvofiqlik sertifikatida yuqorida aytigan hujjatlarga ilovalalar qilinishi lozim.

1-sxema bo'yicha sertifikatlashtirishda xizmat va ishlarning bajarish mohirligi baholanadi va inspeksiya nazoratida ular nazorat qilinadi.

2-sxema sertifikatlashtirish bo'yicha xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish jarayoni baholanib, xizmatlislarni natijalari tekshiriladi. Inspeksiya nazoratida xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish jarayonlari nazorat qilinadi.

Jarayonning murakkabligiga bog'liq holda quyidagilar baholanadi:

– jarayonga talablarni belgilovchi hujjatlarning to'liqligi va dolzarbligi qayta ko'rildiganligi;

– zaruriy qurilma, vosita, jihoz, o'lchash (sinash\nazorat) vositalari, material, bino va h. bilan ta'minlanganligi, hamda ularning o'matilgan talablarga muvofiqligi;

– metrologik, uslubiy, tashkiliy, dasturiy, axborot, moddiy, huquqiy, texnikaviy va boshqa ta'minotlari;

– jarayonning xavfsizligi va barqarorligi;

– ishlab chiqarish xodimlari va xizmatchilarning xizmatlarni va ishlarni bajarishdagi kasbiy layoqatligi.

3-sxema bo'yicha sertifikatlashtirishda ishlab chiqarish holati tahlil qilinadi, shuningdek, inspeksiya nazoratida xizmat va ishlarning natijalari tekshiriladi.

4-sxema bo'yicha sertifikatlashtirishda tashkilot\korxona baholanadi – milliy standartlarda o'rnatilgan talablarga xizmatlar va ishlarni bajarish muvofiqligi nazorat qilinadi.

5-sxema bo'yicha sertifikatlashtirishda sifat tizimi baholanadi va inspeksiya nazoratida ular nazorat qilinadi, xizmatlar va ishlarning natijalari tekshiriladi.

Sifat tizimini baholashning me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertiza o'tkazadi. Sifat tizimiga sertifikat mavjud bo'lsa, uni xizmatlarni sertifikatlashtirishda hisobga olish lozim.

Xizmat ko'rsatishni baholash sertifikatlashtirish sxemalariga bog'liq holda quyidagilarni qamrab oladi:

– xizmat va ishlarni bajarish mohirligini baholash;

– xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish jarayonlarini baholash;

– ishlab chiqarish holatinining tahlili;

– tashkilot\korxonaning – xizmatlislarni bajarishini baholash;

– sifat tizimini baholash.

Muayyan turdag'i xizmatlarni sertifikatlashtirishni amalga oshirishda muvofiglik uchun hujjalalar ro'yxati mos ravishda MiHlarda keltirilgan. Moddiy xizmat natijalarini sinash akkreditlangan sinov laboratoriyalarida yoki arizachining o'lchash vositalari va texnologik qurilmalaridan foydalanishi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Namunalarni tanlash akkreditlangan sinov laboratoriysi vakili ishirokida yoki ushbu xizmatni sertifikatlashtirish be'yicha ekspertning topshirig'iga ko'ra amalga oshiriladi. Mahsulotdan namunani ofish namunalarni tanlash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Agarda bu guruhdag'i xizmatni sertifikatlashtirish tartibida ko'zda tutilgan bo'lsa, xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoraning ekspertiga namunani tanlash ruxsat etiladi. Sertifikatlashtirishni o'tkazishda tekshirish va baholash natijalari qayd etilgan rasmiy hujjat (dalolatnomalar, bayonnomalar) va sertifikatlashtirish natijalari be'yicha asoslangan qaromi qabul qiliш rasmiylashtiriladi. Xizmatlarni baholash natijalari "Xizmat ko'rsatishni baholash dalolatnomasi" ko'rinishida taqdim etiladi.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi o'matilgan talablarga xizmatlarning muvofigligini tasdiqlovchi dalolatnomalarni, bayonnomalarni va boshqa hujjalarning tahlili asosida muvofiglik sertifikatiri berish to'g'risidagi qaromi qabul qiladi. Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasining qerori ijobjiy bo'lgan holatlarda muvofiglik sertifikatini rasmiylashtirib, uni davlat reyestrida ro'yxatga oladi va arizachiga sertifikatni taqdim etadi. Xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish natijalarini va sertifikatlashtirilayotgan xizmatning MHni amal qilish muddatini hisobga olib, 3 yildan ko'p bo'lмаган davrga sertifikatning muddatini belgilaydi. Sertifikatlashtirish idorasi arizachiga muvofiglik sertifikati bilan birga muvofiglik belgisidan foydalanishga ruxsat beradi.

Agar natijalar salbiy bo'lgan holda, bekor qilish sabablarini ko'rsatib, muvofiglik sertifikatini bekor qilish to'g'risidagi qaromi rasmiylashtiradi va uni arizachiga taqdim etadi.

**Sertifikatlashtirilgan xizmatlarning nazorat yo'sinidagi tekshiruvi (inspeksiya nazorati).** Inspeksiya nazoratini muvofiglik sertifikatini beruvchi xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirishda tasdiqlangan, sertifikatlashtirilgan xizmatlarni talablarga muvofigligini o'matish maqsadida sertifikatni amal qilish davomida amalga oshiradi.

Muvofiglik sertifikatini beruvchi xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasining faoliyatini to'xtatilgan holatlarda, sertifikatlashtirilgan xizmatlar ustidan inspeksiya nazorati o'tkazish to'g'risidagi masalalarni hal qilish sertifikatlashtirish milliy idorasi tomonidan hal qilinadi.

Inspeksiya nazorati rejali va rejadan tashqari tekshiruv shakllarida amalga oshirilib, o'zida quyidagi ishlarni qamrab oladi: sertifikatlashtirilgan xizmatlarning sifati va xavfsizligi to'g'risida tushgan ma'lumotlarni tahlil qilish; inspeksiya nazorati dasturini ishlab chiqish; inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun komissiyani tuzish; inspeksiya tekshiruvini o'tkazish; qaror qabul qilish va natijalarini rasmiy lashtirish.

Rejali inspeksiya nazorati o'tkazishning davriyligi va hajmini xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish natijalari yoki oldin o'tkazilgan inspeksiya nazorati natijalari, xizmatlarning xavflilik darajasi, uning sifatining barqarorligi, tekshirishni o'tkazish xarajatlari va sertifikatlashtirish sxemasiga bog'liq holda, ammo yilda bir martadan kam bo'limgan holda belgilaydi.

Rejadan tashqari inspeksiya nazorati quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

- iste'molchilar, xizmatlar xavfsizligi va sifati ustidan nazorat o'tkazuvchi ijroiya hukumat idoralari. iste'molchilar uyushmasi jamiyatidan sertifikatlangan xizmatlar sifatiga shikoyatlar to'g'risida ma'lumotlar kelib tushganda;

- turli avariya va boshqa noxushliklar sabablarini tekshirish natijalari hamda davlat texnik ko'ragini o'tkazish natijalari bo'yicha vakolatlidownload idoralardan ma'lumotlar olinganda;

- muvofiqlik sertifikatining ainal qilish shartlari va sertifikatlashtirish talablariga aloqador faoliyatlarda o'zgarish yuzaga kelgani sababli arizachining murojaatiga ko'ra inspeksiya nazoratini o'tkazish so'ralsa.

Inspeksiya nazorati natijalari berilgan muvofiqlik sertifikatini amal qilinishi (to'xtatilishi, bekor qilinishi)ni tasdiqlash to'g'risidagi xulosalardan iborat bo'lgan dalolatnomaga bilan rasmiy lashtiriladi. Bunda dalolatnomada qo'llianilayotgan sertifikatlashtirish sxemasidagi sertifikatlashtirishga muvofiq tanlanma tekshirish natijalari qayd etiladi.

O'rnatilgan talablatarga xizmatlar nomuvofiq bo'lgan holatlarda sertifikatlashtirish idorasi inspeksiya nazoratini o'tkazishni bekor qiladi va muvofiqlik belgisini qo'llashga ruxsatni hamda muvofiqlik sertifikatini amal qilishini bekor qiladi. Ushbu ma'lumotlar huddiy davlat nazorat va tekshiruv idoralariga hamda sertifikatlashtirish milliy idorasiga ushbu xizmatlarni amalga oshirishning oldini olish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni qabul qilish uchun taqdim etiladi.

Muvofiqlik sertifikatini to'xtatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan holatlarda agarda xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqqan to'g'rilovchi anallarni sertifikatlashtirish idorasi bilan kelishilgan bo'lsa, aniqqangan nomuvofiqliklarning sababini bartaraf qilish imkoniyatlari va muddatlarini o'rnatish yo'li bilan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Sertifikatlashtirish idorasi to'g'rilovchi chora-tadbirlarni tekshirish vaqtida: muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisini qo'llashga ruxsatni bekor qiladi; to'g'rilovchi chora-tadbirlarni bajarish muddatini belgilaydi; to'g'rilovchi chora-tadbirlarning bajarilishini tekshiradi. Barcha natijalar ijobjiy bo'lgan holatlarda sertifikatlashtirish idorasi sertifikatni qayta tiklash to'g'risida qaror qabui qiladi.

**Apellatsiya.** Sertifikatlashtirish yoki inspeksiya nazorati natijalaridan arizachi norozi bo'lgan holatlarda sertifikatlashtirish milliy tizimi kengashining appellatsiyasiga murojaat qiladi. Tortishuvlar va bahslar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o'rnatilgan tartibda hal qilinadi.

**Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarga to'lovlar.** Sertifikatlashtirish va inspeksiya nazorati bo'yicha ishlarga to'lovlar sertifikatlashtirish milliy tizimining rahbariy hujjatlari va xizmatlarni sertifikatlashtirish idorasi bilan arizachi o'zaro inzolagan shartnomaga asosida amalga oshiriladi.

### **16.3. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish**

**Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish** – sifat standartlarida va texnik reglamentlarda o'rnatilgan barcha talablarga mahsulotning muvofiqligini va mahsulotni tayyorlash shart-sharoitlarini hamda ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligi tushuniladi.

**O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazishga asostar.** O'zbekiston Respublikasida amaldagi majburiy sertifikatlashtirish qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish ko'zda tutilmagan bo'lib, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish milliy tizimida ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishga sertifikatni olish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ishlab chiqaruvchining xohishi bo'yicha amalga oshiriladi.

**Sifat uchun muvofiqlik sertifikatlari quyidagi turdag'i ishlab chiqarishlarga berilishi mumkin:**

- uzoq vaqt davomida bir turdag'i mahsulotni ommaviy ishlab chiqarish;
- nomenklaturasi turg'un bo'limgan donali mahsulotlarni yakka tartibda ishlab chiqarish;
- konveyerli turdag'i mahsulotlarni uzuksiz keng miqyosda ishlab chiqauish;
- alohida turdag'i mahsulotlarni seriyali ishlab chiqarish;
- qo'l mehnatiga asoslangan, donali ishlab chiqarish yoki kichik hunarmandchilik mahsulotlari.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish qonunchilik hujjalariiga muvoñiq va tasdiqlangan aniq tartib bo'yicha amalga oshiriladi. Ammo ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazishda bahoashning asosiy mezoni ishiab chiqarilayotgan mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari tomonidan o'rnetilgan tartibda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish jarayonidagi eng muhim zveno sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga bevosita ta'sir etuvchi ishiab chiqarish va texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarish ustidan nazorat va barqarorligini ta'minlashni ko'rsatish mumkin. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazish usuli korxonaning turi u yoki bu xususiyatlaridan kelib chiqib alohida tartibda aniqlanadi.

*Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishning asosiy obyektlari* sifatida quyidagilar hisoblanadi:

- alohida texnologik jarayonlarning holati;
- ishiab chiqarish tizimining holati;
- korxonani boshqarish bo'yicha faoliyat;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash bo'yicha faoliyat;
- ishlab chiqariigan mahsulotning sifati;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini ta'minlash uchun belgilingan me'yoriy hujjatlar, qoidalar, me'yorlar va chora-tadbirlar;
- mahsulotni sinash va texnikaviy nazorat tizimlari.

*Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishda quyidagi to'rtta blok obyektlari* baholanadi:

- tayyor mahsulet (uni iste'mol va realizatsiya qilish sohalarida sifatini baholash va aniqlangan nuqsonlarning sabablarining tabibili);
- texnologik tizimi (texnologik jarayonlar, yuklash-tushirish ishlari, saqlash, o'rnatish holatlari);
- texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash (qurilmalarga texnikaviy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, ekspluatatsiyasi, o'rnatish, nazorat-o'lchash asboblarining qiyoslanganligi);
- sinash va texnikaviy nazorat tizimlari (kirish nazorati, operatsion nazorat, qabul qilish nazorati; namunaviy, davriy sinovlar).

*Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish tartibi* Ish'ab chiqarishni sertifikatlashtirish tartibidagi asosiy ishlar quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- ishlarni tashkillashtirish (sertifikatlashtirishdan oldingi bosqich);
- arizachi taqdim etgan dastlabki ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish;
- tekshirish dasturini tuzish;
- ishlab chiqarishni tekshirish;

- sertifikatni rasmiylashtirish;

- sertifikatlangan ishlab chiqarish ustidan inspeksiya nazoratini o'tkazish.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish bosqichlarida bajariladigan ishlarning qisqacha tarkibi 16.3-jadvalda keltirilgan.

### 16.3-jadval

#### Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari

Bosqichlarning nomi	Bosqichaing tarkibi	Bajaruvchi	Bosqichning yakuni
1. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishga deklaratsiya-arizani sertifikatlashtirish idorasiga taqdirm etish	Deklaratsiya-arizani tahlil qilish	Tashkilot (arizachi)	Dastlabki ma'lumotlarni ekspertiza qilish uchun ekspertini tayinlash
2. Dastlabki ma'lumotlami; ekspertiza qilish	Sotilayotgan mahsulot sifati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, dastlabki ma'lumotlami ekspertidan o'tkazish, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishning keyingi bosqichini amalga oshirish uchun to'liqligini baholash	Sertifikatlashtiri sh idorasasi (vakolatlari ekspert)	Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazishda ma'lumotdarning to'liqligi to'g'risida xulosani tuzish, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun shartnomha tuzish
3. Ishlab chiqarishni tekshirish bo'yicha komissiyani shakllantirish	Bosh ekspertini tayinlash va komissiya tarkibini tasdiqlash	Sertifikatlashtiri sh idorasasi (vakolatlari ekspert)	Komissiya tarkibi to'g'risidagi buyruqni rasmiylashtirish
4. Tekshirish ishchi dasturini tuzish (voki namunaviy dasturlarni qabul qilish)	Ishlab chiqarishni tekshirish va obyektlarini tartib-lashtirish hamda qarorni qabul qilish qondafari	Sertifikatlashtiri sh idorasasi (vakolatlari ekspert)	Ishlab chiqarishni tekshirish dasturini qabul qilish
5. Ishlab chiqarishni tekshirish	Komissiyani shakllantirish, tekshirish rejasini tuzish, ishlab chiqarishni tekshirish, ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish imkoniyatlari to'g'risidagi qarorni qabul qilish	Sertifikatlashtiri sh idorasasi (vakolatlari ekspert)	Ishlab chiqarishni tekshirish natijalarini to'g'risidagi dalolatnomani tuzish
6. Ishlab chiqarishni tekshirish natijalarini bo'yicha hujjalarni rasmiylashturish va sertifikatlashtirishga tavsiyalari to'g'risidagi qarorni qabul qilish	Sertifikatning loyihasini rasmiylashtirish	Sertifikatlashtiri sh idorasasi (vakolatlari ekspert)	Ishlab chiqarishni tekshirish natijalarini to'g'risidagi dalolatnomani jo'natish, Ro'yxatga olish texnikavisi markaziga sertifikat leyihsini jo'natish
7. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish to'g'risidagi qarorni qabul qilish	Sertifikatni Reyestorda ro'yxaiga olish to'g'risidagi qarorni qabul qilish	Ro'yxaiga olish texnikavisi markazi	Sertifikatni arizachiga jo'natish
8. Sertifikatlangan	Tekshirish dasturlariga muvofiq	Sertifikatlashtiri	Tekshirish

ishlab chiqarish ustidan inspeksiya nazorati	tayyorlanayotgan mahsulot sifatining bajarorligini tekshirish tartibini bajarish	sh. idorası (vakolatlı ekspert), Ro'yxatga olish texnikaviy markazi	datalari nomasini rasmiylashtirish
--	--	---	------------------------------------

#### 16.4. Sertifikatlashtirishda ishlab chiqarishni baholash va kuzatish

Ishlab chiqarish holatini baholash va tahlil qilish tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi va sertifikatianayotgan mahsulotning xususiyatini hisobga olib amalga oshiriladi. Muvofiqlik sertifikati berilgungacha baholash ishlab chiqarishni dastlabki tekshiruvi deb hisoblanib, muvoqiqlik sertifikati berilganidan so'ng sertifikatlashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarish turg'unligi sifatida o'tkaziladi.

Ishlab chiqarishni kuzatish bo'yicha ishlarini o'tkazish uchun komissiya yoki sertifikatlashtirish idorasining layeqatli xodimi sifat bo'yicha ekspert-auditor sifatida tayinlanadi. Ishlab chiqarish holati to'g'risida dastlabki ma'lumot olish zaruriyati bo'lganda, tayyorlovchitashkilotga savolnoma jo'natiladi.

Ishlab chiqarishni tekshirish muayyan obyektni tekshirish va savollar dan tarkib topgan dastur bo'yicha o'tkaziladi. Dastur ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib tuziladi. Ishlab chiqarishni tekshirish audit tarzida o'tkaziladi. Tekshiruv dasturi ishlab chiqaruvchilarga oldindan yetkaziladi.

#### Ishlab chiqarishni tekshirishning namunaviy dasturi

1. Korxona nomi \_\_\_\_\_
2. Komissiya raisi va a'zosi \_\_\_\_\_
3. Tekshirish sanasi \_\_\_\_\_
4. Tekshirish obyektlari:

1) tashkilotning tashkiliy tuzilmasi, rahbarlik qilish vakolati va javobgarlikning taqsimulanishi, bo'linmalar va bajaruvchi xodimlarning lavozim yo'rinnomalari;

2) O'zbekiston Sertifikatlashtirish milliy tizimi me'yoriy hujjatlari talablariga ishchi o'rnlarda zaruriy texnikaviy hujjatlarining mayjudligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotni konstrukturlik, texnologik va me'yoriy hujjatlari bilan muvofiq o'zgarishlarni tashkilot ta'minlanganligi;

3) chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va nomenklaturasi sertifikatlashtirish masalalarining tahlili;

4) muvoqiqlik belgisining mahsulotni tamg'alashda va sertifikatda

qo'llanilishi;

5) xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlarni kirish nazorati va xarid qilish jarayoni;

6) ishiab chiqarish shartlari: harorat, namlik, yorug'iik, sanitariya holati va boshqalarga muvofiq ta'minlanganligi;

7) texnologik qurilmalar, asbob-uskunalar, jihozlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish;

8) ishiab chiqarishning metrologik ta'minoti, sinov qurilmalarini attestatlash, o'lchov vositalarini qiyoslanganligi va attestatlanganligi guvohnomalari;

9) mahsulot sifati va xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy va maxsus ishlab chiqarish jarayonlari;

10) sinov laboratoriyanining mavjudligi va holati;

11) sinov bayonnomalari operatsion nazorat qaydlari va TNB tayyor mahsulotni qabul qilish bayonnomalari hamda mahsulot sifati kirish nazorati jarayoni;

12) tayyor mahsulot ombori, mahsulotni qadoqlash tartibi, yuklash-tushirish ishlari va tashish;

13) xodimlar malakasini tasdiqlash va o'qitish jarayoni;

14) to'g'rilovchi asnallarni qabul qilish va iste'molchilar e'tirozining tahibili hamda ro'yxatga olish jarayoni.

Tekshiruv davomida nomuvofiqliklar va kamchiliklar mavjud bo'lganda ular tekshiruv dalolatnomasida ro'yxatga olib borilishi shart. Arizachiga nomuvofiqliklarni bartaraf qilish va muvofiq to'g'rilovchi amallarni qabul qilish uchun vaqt beriladi. Tekshiruv dalolatnomasi barcha natijalar, jumladan, to'g'rilovchi amallarning bajarilishini tekshirish to'g'risida ma'lumotlarni arizachi sertifikatlashtirish idorasiga jo'natadi. Imzolangan nusxasi tashkilotda qoldiriladi, ya'ni qayerda tekshirish o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot sifauida foydalilaniladi.

### Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida nechta sertifikatlashtirish sxemasi mavjud?
2. Sertifikatlashtirish sxemalari qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
3. Sertifikatlashtirish sxemalari bir-biri bilan qanday farqlanadi?
4. Deklaratsiya yo'li bilan muvofiqlikni tasdiqlash nima degani?
5. Deklaratsiyalash qanday amalga oshiriladi?
6. Majburiy sertifikatlashtirish va muvofiqlik deklaratsiyalarining bir-biri bilan qanday farqli jihatlari mayjud?

7. Xorijiy sertifikatlar qanday tan olinadi?
8. Xizmatlarni sertifikatlashtirishda qanday usullardan foydalaniladi?
9. Xizmatlarni sertifikatlashtirish qanday amalga oshiriladi?
10. Xizmatlarni sertifikatlashtirishda sertifikatlashtirishning qanday sxemalari qo'llaniladi?
11. Xizmatlarning muvosiqligi qanday baholanadi?
12. Sertifikatlashtirilgan xizmatlarning nazorat yo'sinidagi tekshiruvi (inspeksiya nazorati) qanday amalga oshiriladi?
13. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish nima va u qanday amalga oshiriladi?
14. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishda nimalar obyekt sifatida qaraladi?
15. Sertifikatlashtirishda ishlab chiqarishni baholash va kuzatish qanday amalga oshiriladi?
16. Ishlab chiqarishni tekshirish dasturida nimalar keltiriladi?

A.1 - Jadval. Tasodifiy kattalik uchun  $t_p$  - koefitsiyentining qiymatlari

$$P\{|t| < t_p\} = 2 \int_0^{t_p} S(t, k) dt$$

$k = n-1$	t <sub>p</sub> - koefitsiyentining qiymatlari							
	P=0,50	R=0,60	P=0,70	R=0,80	P=0,90	P=0,95	R=0,98	P=0,99
1	1,000	1,376	1,963	3,078	6,314	12,706	31,821	63,657
2	0,816	1,061	1,386	1,886	2,920	4,303	6,965	9,925
3	0,765	0,978	1,250	1,638	2,353	3,182	4,541	5,841
4	0,741	0,941	1,190	1,533	2,132	2,776	3,747	4,604
5	0,727	0,920	1,156	1,476	2,015	2,571	3,365	4,032
6	0,718	0,906	1,134	1,440	1,943	2,447	3,143	3,707
7	0,711	0,896	1,119	1,415	1,895	2,365	2,998	3,499
8	0,706	0,889	1,108	1,397	1,860	2,306	2,986	3,355
9	0,703	0,883	1,100	1,383	1,883	2,262	2,821	3,250
10	0,700	0,879	1,093	1,372	1,812	2,228	2,764	3,169
11	0,697	0,876	1,088	1,363	1,796	2,201	2,718	3,106
12	0,695	0,873	1,083	1,356	1,782	1,179	2,681	3,055
13	0,694	0,870	1,079	1,350	1,771	2,160	2,650	3,012
14	0,692	0,868	1,076	1,345	1,761	2,145	2,624	2,977
15	0,691	0,866	1,074	1,341	1,753	2,131	2,602	2,947
16	0,690	0,865	1,071	1,337	1,746	2,120	2,583	2,921
17	0,689	0,863	1,069	1,333	1,740	2,110	2,567	2,898
18	0,688	0,862	1,067	1,330	1,734	2,101	2,552	2,878
19	0,688	0,861	1,066	1,328	1,729	2,093	2,539	2,861
20	0,687	0,860	1,064	1,325	1,725	2,086	2,528	2,845
21	0,686	0,859	1,063	1,323	1,721	2,080	2,518	2,831
22	0,686	0,858	1,061	1,321	1,717	2,074	2,508	2,819
23	0,685	0,858	1,060	1,319	1,714	2,069	2,500	2,807
24	0,685	0,857	1,059	1,318	1,711	2,064	2,492	2,707
25	0,684	0,856	1,058	1,316	1,708	2,060	2,485	2,787
26	0,684	0,856	1,058	1,315	1,706	2,056	2,479	2,779

27	0,684	0,855	1,057	1,314	1,703	2,052	2,473	2,771
28	0,683	0,855	1,056	1,313	1,701	2,048	2,467	2,763
29	0,683	0,854	1,055	1,311	1,669	2,045	2,462	2,756
30	0,683	0,854	1,055	1,310	1,697	2,042	2,457	2,750
$\infty$	0,674	0,842	1,036	1,282	1,645	1,960	2,327	2,576

A.2.- Jadval. Me'yordangan normal taqsimotning integral funksiyasi

$$F(t_p) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{t_p} e^{-t^2/2} dt$$

$t_p$	0,08	0,06	0,04	0,02	0,00
-3,5	0,00017	0,00019	0,00020	0,00022	0,00023
-3,4	0,00025	0,00027	0,00029	0,00031	0,00034
-3,3	0,00036	0,00039	0,00042	0,00045	0,00048
-3,2	0,00052	0,00056	0,00060	0,00064	0,00069
-3,1	0,00074	0,00079	0,00085	0,00090	0,00097
-3,0	0,00104	0,00111	0,00118	0,00126	0,00135
-2,9	0,0014	0,0015	0,0016	0,0017	0,0019
-2,8	0,0020	0,0021	0,0023	0,0024	0,0026
-2,7	0,0027	0,0029	0,0031	0,0033	0,0036
-2,6	0,0037	0,0039	0,0041	0,0044	0,0047
-2,5	0,0049	0,0052	0,0055	0,0059	0,0062
-2,4	0,0066	0,0069	0,0073	0,0078	0,0082
-2,3	0,0087	0,0091	0,0095	0,0102	0,0107
-2,2	0,0113	0,0119	0,0125	0,0132	0,0139
-2,1	0,0146	0,0154	0,0162	0,0170	0,0179
-2,0	0,0188	0,0197	0,0207	0,0217	0,0228
-1,9	0,0239	0,0250	0,0262	0,0274	0,0287
-1,8	0,0301	0,0314	0,0329	0,0344	0,0359
-1,7	0,0325	0,0392	0,0409	0,0427	0,0446
-1,6	0,0465	0,0485	0,0505	0,0526	0,0548
-1,5	0,0571	0,0594	0,0618	0,0643	0,0668

-1,4	0,0694	0,0721	0,0749	0,0778	0,0808
-1,3	0,0838	0,0869	0,0901	0,0914	0,0938
-1,2	0,1003	0,1038	0,1071	0,1111	0,1151
-1,1	0,1190	0,1230	0,1271	0,1314	0,1357
-1,0	0,1401	0,1446	0,1492	0,1539	0,1587
-0,9	0,1655	0,1685	0,1736	0,1788	0,1841
-0,8	0,1894	0,1949	0,2005	0,2061	0,2119
-0,7	0,2177	0,2236	0,2297	0,2358	0,2420
-0,6	0,2483	0,2546	0,2611	0,2676	0,2743
-0,5	0,2810	0,2877	0,2946	0,3015	0,3085
-0,4	0,3156	0,3228	0,3300	0,3372	0,3446
-0,3	0,3520	0,3594	0,3669	0,3745	0,3821
-0,2	0,3897	0,3974	0,4052	0,4129	0,4207
-0,1	0,4286	0,4364	0,4443	0,4522	0,4602
-0,0	0,4681	0,4761	0,4840	0,4920	0,5000

$t_p$	0,00	0,02	0,04	0,06	0,08
+0,0	0,5000	0,5080	0,5160	0,5239	0,5319
+0,1	0,5398	0,5478	0,5557	0,5636	0,5714
+0,2	0,5793	0,5871	0,5948	0,6026	0,6103
+0,3	0,6179	0,6255	0,6331	0,6406	0,6480
+0,4	0,6554	0,6628	0,6700	0,6772	0,6844
+0,5	0,6915	0,6985	0,7054	0,7123	0,7190
+0,6	0,7257	0,7324	0,7389	0,7454	0,7517
+0,7	0,7580	0,7642	0,7704	0,7764	0,7823
+0,8	0,7881	0,7939	0,7995	0,8051	0,8106
-0,9	0,8159	0,8212	0,8264	0,8315	0,8365
+1,0	0,8413	0,8461	0,8505	0,8554	0,8599
+1,1	0,8643	0,8686	0,8729	0,8770	0,8810
+1,2	0,8849	0,8888	0,8925	0,8962	0,8997
+1,3	0,9032	0,9066	0,9099	0,9131	0,9162
+1,4	0,9192	0,9222	0,9251	0,9279	0,9306
+1,5	0,9332	0,9357	0,9382	0,9406	0,9423
+1,6	0,9452	0,9474	0,9495	0,9515	0,9535
+1,7	0,9554	0,9573	0,9591	0,9608	0,9625
+1,8	0,9641	0,9656	0,9671	0,9686	0,9699

+1,9	0,9713	0,9726	0,9738	0,9750	0,9761
+2,0	0,9773	0,9783	0,9793	0,9803	0,9812
+2,1	0,9821	0,9830	0,9838	0,9846	0,9854
+2,2	0,9861	0,9868	0,9875	0,9881	0,9887
+2,3	0,9893	0,9898	0,9904	0,9909	0,9913
+2,4	0,9918	0,9922	0,9927	0,9931	0,9934
+2,5	0,9938	0,9941	0,9945	0,9948	0,9951
+2,6	0,9953	0,9956	0,9959	0,9961	0,9963
+2,7	0,9965	0,9967	0,9969	0,9971	0,9973
+2,8	0,9974	0,9976	0,9977	0,9979	0,9980
+2,9	0,9981	0,9983	0,9984	0,9985	0,9986
+3,0	0,99865	0,99874	0,99883	0,99889	0,99896
+3,1	0,99903	0,99910	0,99915	0,99921	0,99926
+3,2	0,99931	0,99936	0,99940	0,99944	0,99948
+3,3	0,99952	0,99955	0,99958	0,99961	0,99964
+3,4	0,99966	0,99969	0,99971	0,99973	0,99975
+3,5	0,99977	0,99978	0,99980	0,99981	0,99983

A.3-jadval. Turli xil  $n$  o'chashlarda  $(t_p)_{\max}$  ning qiymatlari

Kuzatishlari soni $n$	Oning qiymat darajasi				
	0,001	0,0025	0,01	0,025	0,05
3	1,414	1,414	1,414	1,414	1,412
4	1,732	1,730	1,728	1,710	1,689
5	1,994	1,932	1,972	1,917	1,869
6	2,212	2,183	2,161	2,067	1,996
7	2,395	2,344	2,310	2,182	2,093
8	2,547	2,476	2,431	2,273	2,172
9	2,677	2,586	2,532	2,349	2,238
10	2,788	2,680	2,616	2,414	2,294
11	2,884	2,760	2,689	2,470	2,143
12	2,969	2,830	2,753	2,519	2,387
13	3,044	2,892	2,809	2,563	2,426
14	3,111	2,947	2,859	2,602	2,461
15	3,171	2,997	2,905	2,638	2,494
16	3,225	3,042	2,946	2,670	2,522
17	3,274	3,083	2,983	2,701	2,551
18	3,320	3,120	3,017	2,728	2,577
19	-	-	2,932	2,754	2,600
20	-	-	2,959	2,778	2,623
21	-	-	3,071	2,880	2,707

# O'chash vositalarini qiyoslash sertifikati shahidi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
O'LChASHLAR BIRLILIGINI TA'MINLASH DAVLAT TIZIMI

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi  
("O'zstandart" agentligi)

(qiyoslashdan o'tkazadigan yuridik shaxsning nomi)

- soni

## O'LChASH VOSITALARINI QIYOSLASH SERTIFIKATI

A'mal qilish muddati  
" \_\_\_\_ " 20 \_\_\_\_ -yilgacha



Usbu sertifikat

(qiyoslovchi (naimunaviv O'V) belgilanishi va nomlanishi, qiyoslash sanasi)

dan foydalangan holda  
ga muvofiq

(qiyoslash bo'yicha MH belgilanishi va nomlanishi)

tomonidan qiyeslashdan

(o'chash vositasini qiyoslagan yuridik shaxs nomi)

tegisli

(O'V egasi – yuridik shaxs)

tayyorlangan (import qilingan)

(yuridik shaxs - O'V tayyorlovchi)

(yuridik shaxs – tayyorlovchi va import qiluvchi manzilat)

metrologik tasvifli

(ko'rsatkichlar nomi, o'chash chegaralarini, O'V xatoliklari shuqqa siy)

o'chash vositesi

(o'chash vositasining nomlanishi va belgilanishi, zaved raqami)

taaliblariga mosligini

O'Vga qiyoslash taaliblarini reglamentlovchi MH (ningning tasvifi, belgilanishi va nomlanishi)

tasdiqlaydi va davlat metrologik tekshiruvi va nazoratiga taalluqli  
dorada qo'llanilishiga yo'l qo'yildi.

Qiyoslash sanasi " \_\_\_\_ " 20 \_\_\_\_ -yil.

Qiyoslanish tamg'asi

Qiyoslovebi

(imzo)

(F.I.Sh.)

Blank № 000000

## Muvofiqlik sertifikati shakli

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SERTIFIKATLASHTIRISH MILLIY TIZIMI

(sertifikatlashtirish idorasining nomi manzili, Davlat reyestrdaqiga raqami) NSS UZ \_\_\_\_\_

### MUVOFIQLIK SERTIFIKATI №00000000



" " 20 \_\_\_ -yildan  
№ \_\_\_\_\_ sonli

Davlat reyestrda ro'yxatga olingan.

Amal qilish muddati

" " 20 \_\_\_ - yilgacha

MUK kodи

TIF MK kodи

(KORXONA, FIRMA, ISHLAB CHIQARUVCHI – MAMLAKAT)

Ushbu sertifikat tasdiqlaydiki, tegishlichcha identifikasiyalangan mahsulot namunasini:

(NOMI, FURI, RUSUMI)

(MIQDORI YOKI SERIYALI ISHLAB CHIQARISH)

me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqdir

Sertifikatlashtirish sxemasi:

Buyurtmachi (tayyorlovchi, sotuvchi):

(KERAKLISI TAGIGA CHIZILADI)

(MANZIL)

Sertifikatga asos bo'lgan:

a) hujjet

b) namunalar sinovi

v) ishlab chiqarishni tekshirish dalolathnomasi

Inspeksiya nazorati

davriylik bilan amalga oshiriladi

Alohida yozuvlar:

Muvofiqlik belgisi qo'yildi:

IZOH: Muvofiqlik sertifikatning nususini sertifikatlashtirish idorasiga yoki asl nususining egasi: tomonidan tashrif bilinganiga naqqaqdor

Sertifikatlashtirish idorasiga rahbari

M.O. \_\_\_\_\_

(imzo)

(F i Sh )

**Akkreditlash tizimi** – akkreditlashni o'tkazish uchun protseduralar va boshqaruving o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

**Akkreditlash** – protseda bo'lib, uning vositasida vakolatli idora shaxs yeki idoraning muayyan ishini bajarish huquqiga ega ekanligini rasmiy tan oladi.

**Akkreditlash bo'yicha idora** – akkreditlash tizimini boshqaruvgchi va akkreditlashni o'tkazuvchi idora.

**Inspeksiya tekshiruvi** – sertifikatlashtirish va akkreditlashda o'matilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinov laboratoriya\markazlarining faoliyatini takroriy baholash protsedurasi.

**Sertifikatlashtirish tizimi** – muvofiqlikni sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun protseduralar va boshqaruving o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

**Sertifikatlashtirish** – protseda bo'lib, buning vositasida uchinchi tomon mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning topshiriqdagi talablarga muvofiqligini yozma shaklda tasdiqlaydi.

**Sertifikatlashtirish bo'yicha idora** – sertifikatlashtirishni o'tkazuvchi idora.

*Izoh:* sertifikatlashtirish bo'yicha idora muvofiqlikka sinash va tekshirishni o'zi o'tkazishi yoki uning topshirig'i bo'yicha boshqa idoralar tomonidan o'tkaziladigan bunday faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirishi mumkin.

**Sinov laboratoriysi** – sinashlarni o'tkazadigan laborateriya.

*Izoh:* "Sinov laboratoriysi" atamasi yuridik yoki texnik idora yoki ikkalasini ifodalevchi ma'no sifatida foydalanilishi mumkin.

**Sifat** – o'z tafsilotlari majmuining talablarga muvofiqlik darajasi.

**Iste'molchilarining qoniqsanligi** – iste'molchilarining o'z talablarining bajarilganlik darajasidan mammun bo'lganlik hissiyoti.

**Sifat menejmenti tizimi** – sifatga nisbatan tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun menejment tizimi.

**Sifat sohasidagi siyosat** – yuqori rahbariyat tomonidan ifodalangan sifat sohasida tashkilotning umumiy maqsad va faoliyat yo'naliishi.

**Tashkiliy tuzilma** – mas'ullik, vakolatlik va o'zaro munosabatlarning xodimlar o'rtaida taqsimlanishi.

**Manfaatdor tomon** – tashkilotning faoliyatidan yoki yuuqlaridan manfaatdor shaxs yoki guruh.

**Jarayon** – kirish va chiqishlarni qayta e'zgartiruvchi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchi faoliyat turlarining majmui.

**Protsedura** – faoliyatni yoki jarayonni amalga oshirishning o'matilgan usuli.

**Kuzatuvchanlik** – kuzatilayotganning tarixi, qo'llanilishi yoki joylashgan o'trnini kuzatish imkonи.

**Muvofiqlik** – talabni bajarish.

**Nomuvofiqlik** – talabni bajarmaslik.

**Sifat bo'yicha qo'llanma** – tashkilot sifat menejmenti tizimini belgilovchi hujjat.

**Sinash** – o'matilgan tartibotlarga muvofiq bir yoki bir nechta tafsilotlarni aniqlash.

**Tahlil** – ko'rilibotgan obyektning yaroqliligi, mutanosibligi (aynan bir xilligi), natijaviyligini aniqlash yoki belgilangan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

**Audit** – audit guvohnomasini olish va auditning kelishilgan mezonlarini bajarish, darajasini aniqlash maqsadida ularni beg'araz baholash, muntazani, mustaqil va hujjalashtirilgan jarayoni.

**Audit dasturi** – muayyan vaqt davriga rejalshtirilgan va muayyan maqsadga erishishga yo'nalitirilgan bir yoki bir nechta auditlar majmui.

**Kompetentlik (vakolatlilik)** – o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati.

## Foydalaniłgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Абдувалиев А.А., Алимов М.М., Латипов В.Б. Стандартизация (энциклопедический словарь-справочник). Т.: 2006.–271с.
2. Абдувалиев А.А., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Мирагзамов М.М., Сабиров М.З. Основы стандартизации, сертификации и управления качеством. Учебное пособие. – Т.: Из-во «Fan va texnologiya», 2005. –535 с.
3. Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Hakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikasiylashtirish va sisat. O'quv qo'shanma. – T.: SMSH, 2008. – 267 b.
4. Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Джаббаров Р.Р., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш. Основы стандартизации, метрологии, сертификации и управления качеством. Учебное пособие. – Т.: НИИСМС, 2007 г. – 555 с.
5. Абдувалиев А.А., Алимов М.Н., Латипов В.Б. Межотраслевые системы стандартизации. Словарь-справочник. – Ташкент: НИИСМС, 2008. – 284 с.
6. Артемьев Б.Г., Юрин А.И. Основы сертификации. Учебное пособие. – Московский государственный институт электроники и математики. – М.: 2011. – 73 с.
7. Вилкова С.А. Основы технического регулирования. Учебное пособие. Товароведение, Academia, 2010. – 202 с.
8. Гончаров А.А., Копылов В.Д. Метрология, стандартизация и сертификация (Учебное пособие, второе издание) – М.: «АСАДЕМЯ», -2005.
9. Горбоконенко В. Д. Метрология в вопросах и ответах / В. Д. Горбоконенко, В. Е. Шкирина. – Ульяновск: УлГТУ, 2005. – 196 с.
10. Димов Ю.В. Метрология, стандартизация и сертификация (учебник, 4 издание).– С.Петербург. Издательство “Питер”, 2013. –496 с.
11. Ефимов В. В. Улучшение качества проектов и процессов: учебное пособие / В. В. Ефимов. – Ульяновск: УлГТУ, 2004. – 185 с.
12. Ершова И.Г., Дмитриев С.И. Метрологическое обеспечение производства. Краткий конспект лекций для студентов специальности «Технология машиностроения». Исков ППИ, 2010. – 44 с.
13. Исаев Р.И., Каримов У.Н. “Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш”. Дарслик. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2011. –496 б.
14. Исматуллаев Н.Р. ва б. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарслик. – Т.: 2001. –360 б.

15. Купряков Е.М. Стандартизация и качество промышленной продукции (учебник для вузов) – М.: «Высшая школа», 1991. –305 с.
16. Метрология, стандартизация, сертификация и электроизмерительная техника: учебное пособие (Под редакцией К.К.Кима, учебное пособие) Москва, 2006. –338 с.
17. Минько Э.В., Минько А.Э., Смирнов В.П. Качество и конкурентоспособность продукции и процессов: Учебное пособие – ИБГУАП. СПб., 2005. –240 с.
18. Назаров В.Н., Карабегов М.А., Мамедов Р.К. Основы метрологии и технического регулирования. Учебное пособие. – СПб: СПбГУ ИТМО, 2008. –110 с.
19. Nuriyev K.K. O'zaro almashuvchanlik, metrologiya va standartlashtirish (darslik). – T.: “O'zbekiston YUAJN”, 2005. –312 b.
20. Окрепилова И.Г. Организация менеджмента качества в отраслях экономики: учеб. пособие.– СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2010.–76 с.
21. Олефирова А.П. Подтверждение соответствия: учебное пособие. – Улан-Удэ: Изд-во ВСГТУ, 2007. – 209 с.
22. Пикула Н.П. Метрология, стандартизация и сертификация: учебное пособие / Н.П. Пикула, А.А. Бакибеков, О.А. Замараева, Е.В. Михеева, Н.Н. Чернышова; Национальный исследовательский Томский политехнический университет. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2010. – 185 с.
23. Пономарев С.В., Мищенко С.В., Герасимов Б.И., Трофимов А.В. Квадиметрия и управление качеством. Инструменты управления качеством: Учебное пособие. – Тамбов: Изд-во Тамбовского государственного технического университета, 2005. –80 с.
24. Походун А.И. Экспериментальные методы исследований. Погрешности и неопределенности измерений. Учебное пособие. СПб: СПбГУ ИТМО, 2006. –112 с.
25. Романов В.Н. Теория измерений Точность средств измерений: учебное пособие. – СПб.: СЗТУ, 2003. –154 с.
26. Русча-ўзбекча изоҳли метрологик лугат – Русско-узбекский толковый метрологический словарь/ Абдувалиев А.А., Валиев У.Н., Жебровский С.К.. Бош муҳаррир Пармонкулов И.П.–Т.: Tafakkur, 2010. –648 б.
27. Standartlashtirish, sertifikatlashirish va metrologiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – T.: “Adolat”, 2008-у. –263 b.
28. Третьяк Л.Н. Обработка результатов наблюдений: учебное пособие. – Оренбург: ГОУ ОГУ, 2004. –171 с.
29. Управление качеством продукции. Инструменты и методы

- менеджмента качества: учебное пособие / С. В. Пономарев, С.В.Мищенко, В Я.Белобрагин, В.А.Самородов, Б. И. Герасимов, А. В. Трофимов, С. А. Пахомова, О. С. Пономарева. — М.: РИА «Стандарты и качество», 2005. —248 с.
30. Ушаков И.Е., Шишкун И.Ф. Прикладная метрология: учеб. для вузов, изд. 4-е, перераб. и доп. —СПб.: СЗТУ, 2002. —116 с.
31. Fayziyev R.R. Metrologiya, o'zaro almashinuvchanlik, standartlash-tirish (darslik). — Т.: “Mehnat”, – 2004. -- 320 б.
32. Федюкин В. К. Управление качеством процессов. — СПб.: Питер, 2004. —208 с.

Patxuila Rahmatovich Ismatullayev, Paraxat Mayliyevna Matyakubova,  
Shavkat Abdikayumovich Turayev

## METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH

Muharrir: M.Talipova  
Badiiy muharrir: G.Talipova  
Sahifalovchi: N.Fayziyeva

Nashr. Lits. A1 №276 2015.15.06.  
Terishga berildi: 2015.03.12. Bosishga ruxsat etildi: 2015.11.12.  
Bichimi 60x84/16. Ofset usuli. Times garniturası.  
Shartli bosma tabog'i 27.5. Nashr hisob tabog'i 21.2.  
100 nusxada bosildi. Buyurtma № 11-12.

«LESSON PRESS» MChJ nashriyoti  
1000671. Toshkent sh., Komolov ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

“IMPRESS MEDIA” MChJ bosmaxonasida bosildi.  
Kerxona manzili: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi, 6